O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

GLOBALLASHUV ASOSLARI

FANINIDAN

MA’RUZALAR MATNI

TERMIZ -2014

TARIX FAKULTETI
MA'NAVIYAT ASOSLARI VA
HUQUQ TA'LIMI KAFEDRASI



GLOBALLASHUV ASOSLARI FANINIDAN MA'RUZALAR MATNI

5 - semestr
Jami yuklama - 94 soat
Auditoriya soati - 52 soat
ma'ruza - 26 soat
seminar - 26 soat
mustaqil ta'lim - 42 soat

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika
Bakalavr yo'nalishi: 5111600 – Milliy g'oya,ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

Tuzuvchi:

Allamuratov SH.A.- "Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchi:

Mustafoev U.O'.- "Falsafa" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi.

"Globallashuv asoslari" fanidan tayyorlangan ma'ruzalar matni "Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasining 2014 yil 27-avgustdagi majlisida 1-sonli bayonnomasi, Tarix fakulteti Ilmiy kengashining 2014 yil __-avgustdagi majlisida 1-sonli qarori, Termiz davlat universiteti Ilmiy Kengashining 2014 yil ___ -avgustdagi (__-sonli qarori) bilan tasdiqlangan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Fanning ma'ruzalar matni TermDU "Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida ishlab chiqildi

1-mavzu. Globallashuv tushunchasi, mohiyati, jamiyat hayotida namoyon bo‘lish xususiyatlari. Globallashuvning nazariy asoslari

Reja:

1. Globallashuvtushunchasi.
2. Globallashuvning asosiy xususiyatlari va namoyon bo‘lish yo‘llari.
3. Globallashuv amalga oshishining turli xil vositalari.
4. Globallashuv to‘lqinlari, davrlari.
5. Globallashuv universallashuv jarayonida sifatida.
6. Globallashuv fenomen sifatida.

Globallashuv (globalizatsiya) - lotincha “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. “Global” tushunchasi lug‘aviy ma'nosi nuqtai nazaridan fransuz tilida “umumiy”, lotin tilida esa “globus”-Yer shari” ma'nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma'noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan katta muammolarni, “sayyoraviy”, “dunyoviy” muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini o‘ziga qamrab oladi.

Globallashuv atamasi birinchi bor 1960 yil Giddins tomonidan foydalanilgan[1]. Bu atama XX asrning 90-yillarigicha deyarli foydalanilmagan. 1985 yilga kelib amerikalik sotsiolog R. Robertson «globallashuv» atamasiga tushuncha bergan[2]. Globalizatsiya atamasi birinchi bo‘lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981 yildan beri qo‘llanilib kelingan. Ammo bu so‘zning to‘liq ma’nosi, konsepsiyasi 1990 yilning yarmida amerikalik olim CHarlz Taz Rassel tomonidan to‘liq ochib berilgan.

“Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983 yili «Garvard biznes rev`yu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo`llangan. T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan[3][1]. Mazkur ta`rifda globallashuv jarayonining iqtisodiy tamonlariga e`tibor berilgan. O`z davrida frantsuz faylasufi Rene Dekart “Tushunchalar ma`nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi” - deb yozgan edi. Ayni shu ma`noda dastlab biz “globallashuv” tushunchasining istilohiy ma`nosini izohlashga harakat qilamiz. Bu so‘zga quyidagicha tarif berish mumkin: Globallashuv – Jahon xo‘jaligi rivojlanishining ob’ektiv jarayoni bo‘lib, juda ko‘p ijobiy xususiyatlarga egadir: bular asosan turli mamlakatlar xo‘jaligining o‘zaro aloqasi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilm – fan texnika texnalogiya yutuqlari almashuvini tezlashishni hamda davlatlarni ilmiy texnikaviy taraqqiyotiga ko‘maklashuv bilan tasdiqlanadi. Globallashuv — butunjahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurlarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatining qo‘shilish va yaqinlashuvidir. Bu ob’ektiv jarayon bo‘lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega.[4] Globallashuvga qarshi harakatlar ham mavjud bo‘lib, ular globallashuv natijasida yuzaga keladigan va kelayotgan muammolarni oqibati salbiy deb e’tirof etishadi. Bunday tashkilot, uyushma,

[1] Шахрай С.М. Глобализация в современном мире: политико-правовые аспекты. – СПб : Фонд поддержки науки и образования в области правоохранительной деятельности «Университет»,2004.С.6

[2] Что такая глобализация? По сайту http://www.univer.omsk.su/omsk/socstuds/glob/index.html

3 Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T.: Ma`naviyat, 2006. 8-b.

4 Глобализация ru.wikipedia.org сайтидан олиниб таржима қилинди (таржима Усманов М.)

harakatlarga Green, AntiDaos kabi bir necha antiglobilistlarni kiritish mumkin. Globallashuv bosqichiga mintaqalashuv bosqichini bosib o‘tish lozim.

Vaholanki, globallashuv yaxlit jarayonlarni o`z ichiga qamrab oladi. A.Ochildievning ta`kidlashicha, “...eng umumiy ma`noda, globallashuv, bir tomondan, muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun Er yuzini qamrab olganini, ikkinchi tomondan, ularning insoniyat taqdiriga dahldor ekanini anglatadi”[5][2]. V.I.Danilov-Danil`yan esa “Globallashuv ko`proq mantiqdan emas, balki tarixiy paradigmadan kelib chiqqan so`zdir. Globallashuv jihatlarining o`zaro aloqadorligini aniq va ravshan tahlili mavjud emas”[6][3], - deb yozgan edi. YUqoridagi ta`riflardan ko`rinadiki, globallashuv jarayoni o`zining murakkabligi va serqirraligi bilan alohida ajralib turadi. SHuning uchun ham S.Otamuratov “...globallashuv tushunchasi haqidagi qarashlar turli-tumanligicha davom etib kelmoqda. Bu tabiiy hol. CHunki uning makon va zamonda sodir bo`lish xususiyatlari turlicha bo`lib dunyoning o`zgarishiga o`tkazayotgan ta`sirida ham yangi-yangi imkoniyatlari namoyon bo`lmoqda”[7][4]. 1980-1990 yillar bo’sag’asida “globallashtirish” tushunchasi yangi talqinga ega bo’ldi: asli yaponiyalik keyinroq amerikalik mashhur iqtisodchi K.Ome ta'riflab bergan mazkur atamaning ommaga tushunarli bo’lgan ifodasidan jahon xo’jaligi rivojlanishining nisbatan yangi qirralari va tavsiflari, uning dastlabki taraqqiyot bosqichlaridan farqlanuvchi hozirgi holatini ko’rsatish uchun tatbiq eta boshladilar.

Proffesor A. Katsovich globallashtirish jarayonini tasvirli yoritilishi va jahon xo’jaligining yangi tavsiflari yuzaga kelishi: “Globallashtirish chegaralar orqali iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni intensifikatsiya qilish orqali aniqlanishi mumkin. Globallashtirish – bu erkin savdo to’g’risidagi bitimlar uyg’unligi, jahonni yagona va o’ta raqobatli bozorga aylantirgan Internet hamda moliyaviy bozorlarning birlashishidir”, degan taklifni kiritadi[8].

Jahon olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot-larda «Globallashuv» tushunchasiga turli ta’riflar berilmoqda va unga turli qarashlar va munosabatlarni bildirish davom etib kel-moqda. Lekin uning er kurrasining bir butunligini ifodalash va barcha soqalarning «yagonaligini» ta’minlash jarayoni, omili si-fatida qarash umumiy qarashlardan ustuvor bo‘lib kelmoqda. Jum-ladan, rus olimi I. Burikova globallashuvni jarayon sifatida qaraydi va olimlar tomonidan unga nisbatan qarashlarni umum-lashtirib, uning uchta asosiy jihatini ko‘rsatadi:

Bilim jiqatlari - globallashuv jarayoni haqida nimalar ma’-lumligi.

Emotsional - bu ma’lumotga qanday yondoshuv zarurligi.

Axloqiy - nima qilish kerak ekanligi.[5]

Uning ta’kidlashicha, Sankt-Peterburg Universitetining siyo-siy psixologiya fakulteti psixologlari globallashuvni jaxrnda siyosiy qokimiyatning yangi shakli sifatida tushunadilar. Bu siyo-siy hokimiyat yangi shakllarining instrumentlari quyidagilardir:

informatsion globallashuv - informatsiya soh_asidagi o‘zgarishlar;

iqtisodiy globallashuv - iqtisodiy soqadagi o‘zgarishlar;

mintaqaviy globallashuv - hududlar va chegaralar sohasidagi o‘zgarishlar;

demografik globallashuv - globallashuvning asosiy instru-menti bo‘lib, insondagi barcha asosiy o‘zgarshdlarni o‘ziga qamrab oluvchi o‘zgarishlardir.

SHuningdek, muallif ularning har birining o‘ziga xos xususi-yatlari haqida batafsil fikr yuritgan.[6]

YAna bir rus olimi L.E. Grininning fikricha, «Globallashuv -mintaqalar va umuman jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir».[7]U globallashuvga jarayon sifatida qaraydi va unga

[5] Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – T.: Muharrir nashriyoti, 2009. 64 b.
[6] Danilov-Danilyan V.I.Ustoychivoe razvitie-problema vijivaniya cheloveka//.Nauka.Obshestvo.CHelovek.-M.,2004. -143 s.
[7] Otamuratov S. Globallashuv va millat. – T., YAngi asr avlodi, 2008. – 13 b.
[8] Kacovicz A. Regionalization, Globalization and Nationalism // Alternatives. 1999.04. P. 529.

quyidagi ta’rifni beradi. «Globallashuv - bu jarayon, uning nati-jasida dunyo o‘zining barcha sub’ektlariga yanada aloqador va yana qam bog‘liq bo‘ladi»[8].

Rus olimlaridan yana biri professor A.G. Kosichenko qam glo-ballashuvga jarayon sifatida qaraydi. U shunday yozadi: «Globalla-shuv ko‘p o‘lchamli jarayon, u o‘z ta’sir doirasiga gurli usul va vositalar bilan barcha soqalarni qamrab oladi». Ayni paytda uning fikricha, «iqtisodiyotning o‘ziga xos qukmronlik ta’siri bugun ja-h_on hayotining barcha sohalarida namoyon bo‘lmoqda».'

2006 yilda «Globallashuv» tushunchasi va uning turli sohalarga o‘tkazayotgan ta’si-rini aniqlashga bag‘ishlangan jahonning etakchi olimlari qamkor-ligida «Globalistika mejdunarodnsh mejdissiplinarnsh ensik-lopedicheskiy slovar» tayyorlanib e’lon qilindi. Unda globalla-shuv tushunchasiga olimlar turlicha ta’rif berganlar va uning ta’-sir doirasini aniqlashga qarakat qilingan. Jumladan, amerika-lik olim T.Fridman bu qaqda shunday ta’kidlaydi: «Globallashuv - bu «sovuq urush tizimini» almashtirgan yangi tizim»[10]. Keltiril-gan fikrdan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiyotda kechayotgan globalla-shuv jamiyat, mamlakat va xalqlar qayotining barcha soqalariga o‘zi-ning ta’sirini o‘tkazmoqda. SHuning bilan birga uni o‘z davrida jahonni larzaga solgan va butun insoniyatga xavf tug‘dirgan «sovuq urush» bilan tenglashtirgan mualliflar qam bor. Haqiqatdan qam, yuqorida mualliflar tomonidan ilgari surilayotgan fikrlarda glo-ballashuvning iqtisodiyotga, siyosatga va jahon miqyosidagi jarayon-larga o‘tkazayotgan ta’siri keng qamrovli ekanligi ko‘rsatib beril-gan. Ayniqsa uning iqtisodiyotga o‘tkazayotgan ta’siriga asosiy e’ti-bor berilganligini ta’kidlash lozim. Haqiqatan qam iqtisodiyot-dan manfaatdor bo‘lmagan insonning o‘zi yo‘q. U inson h.ayot kechiri-shining moddiy asosini tashkil qiladi. SHuning uchun qam iqtiso-diyotdagi globallashuv milliy ma’naviyatda ham o‘z ifodasini topa-di. Afsuski, yuqorida mualliflar tomonidan bildirilgan fikr-lardan ko‘rinib turibdiki, globallashuvning milliy ma’naviyatga o‘tkazayotgan salbiy ta’siri e’tibordan chetda qoldirilgan. Bu ja-rayonda iqtisodiy globallashuv milliy ma’naviyatning globallashu-vida vosita vazifasini bajaradi. Ana shu muqim jiqat muallif-lar e’tiboridan chetda qolganligini ko‘rish mumkin. SHuning bi-lan birga T. Fridmanning globallashuvning «sovuq urush» siyosati bilan tenglashtirilganligi zamirida ham katta ma’no bor. Haqiqat-dan ham bugun u butun insoniyat, ayniqsa uning oliy qadriyatlari-dan biri bo‘lgan millatlar taqdiriga solayotgan tahdidini «sovuq urush» siyosatiga tenglashtirish mumkin. Respublikamizda qam tadq-iqotchilarimiz tomonidan globallashuv jarayonini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Hali bu masalaga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlar e’lon qilinmagan bo‘lsa qam bir qator ilmiy jiqatdan pishiq bo‘lgan maqolalar e’lon qilinganligini ta’kidlash lozim. Jumladan, «Globallashuv ziddiyatlari»,[11] «Ada-biyotida globallashuv jarayoni»,[12] «Xalqaro globallashuvning chuqurlashuvi»[13] va boshqa maqolalarda uning ba’zi bir jiqatlariga to‘la-qonli ta’rif keltiriladi. Aytish joizki, mazkur maqolalarda ham «Globallashuv» jarayon sifatida talqin etilganligini ko‘rish mum-kin.

Bundan tashqari, globallashuvni turli soqalarda sodir bo‘layot-gan integratsiyalashuvning natijasi sifatida qarashlar ustuvorlik qiladi. Bunday qarash mazmunini dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning tabiiy ravishda mustaqkamlanib borishi va ularning o‘zaro integratsiyalashuvi natijasi sifatida, sub’ek-tiv omillar ta’siri, ya’ni katta iqtisodiy saloqiyatga ega bo‘lgan davlatlarning kam taraqqiy qilgan mamlakatlarning resurslari-ni turli yo‘l va vositalar bilan qo‘lga kiritish maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlarning natijasi sifatida qarashlar ham mavjud. Xullas, globallashuv tushunchasi qaqidagi qarashlar tur-li-tumanligicha davom etib kelmoqda. Bu tabiiy qol. CHunki uning makon va zamonda sodir bo‘lish xususiyatlari turlicha bo‘lib dunyo-ning o‘zgarishiga o‘tkazayotgan ta’sirida qam yangi-yangi imkoniyat-lari namoyon bo‘lmoqda.

«Globallashuv» tushunchasiga mualliflar tomonidan yuqorida il-gari surilayotgan turli fikrlarga qo‘shilish mumkin. CHunki qar bir muallif uning turli sohalariga o‘tkazayotgan ta’sirini turlicha ta-fakkur qiladi va uni turlicha talqin etadi. Boz ustiga globalla-shuvning o‘tkazayotgan ta’sir doirasi bepoyon va keng qamrovli ham-dir. SHu ma’noda mualliflar tomonidan ilgari surilayotgan fikr-lar qanchalik turli-tuman bo‘lsa, uning turli xususiyatlari va in-soniyat, millat, mamlakat, jahon miqyosida o‘tkazayotgan ta’sirini o‘rganishning imkoniyatlari shunchalik kengayib boradi. Avvalo «globallashuv» tushunchasiga ta’rif berishda, unga haqiqatan ham kengroq va chuqurroq yondoshmoq kerak bo‘ladi. Jumladan, yuqorida berilayotgan ta’riflarning aksariyat ko‘pchiligida «globallashuv» tushunchasiga yaqin bo‘lgan «internatsionallashuv» (baynalminalla-shuv) va «integratsiyalashuv» tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlar e’tibordan chetda qolib kelmoqda. YA’ni nega «Globallashuv» tu-shuncha sifatida ommaviylashib ketmoqda yoki «internatsionalla-shuv» va «integratsiyalashuv» tushunchalari unga nisbatan kam qo‘lla-nilmoqda degan savolga javob ochiq qolib kelmoqda.

Aslida, «Globallashuv»ning asl mohiyati va uning barcha soha-larga o‘tkazayotgan ta’sir doirasini bilish uchun uni yuqorida kel-tirilayotgan ikkala tushuncha bilan solishtirish maqsadga muvofiq-dir. CHunki ular o‘rtasida ma’lum o‘xshashlik mavjud. Ayni paytda ular o‘z yo‘nalishi, maqsadi va funksiyalari bilan o‘zaro farqlanadi. SHuning bilan birga ularning tushuncha sifatida ilmiy iste’-molga kirish davrlari o‘rtasida ham farklar mavjud. Ayniqsa, «in-ternatsionallashuv» sobiq sho‘rolar qukmronligi sharoitida eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchaga aylangan edi. Uni millatlarning o‘za-ro qo‘shilib ketishiga olib keladigan ijobiy omil sifatida baqo-lashdan tortib, oila, turmush, milliy madaniyatlarning yagona ma-daniyatga aylanishigacha bo‘lgan barcha soqalarda sobiq KPSSning «internatsionallashtirish» borasida olib borgan zo‘ravonlik siyo-satini aqolidan yashirish maqsadida qo‘llanilib kelinar edi.

Lekin bu aslida internatsionallashuv jarayoni bo‘lmagan edi, degan gap emas, balki bu erda uni jirkanch manfaat va maqsadlarni amalga oshirish yo‘lida qo‘llanilib kelinganligi qaqida so‘z bor-moqda.

YAna yuqoridagi tushunchalar taxliliga qaytib shuni aloqida ta’-kidlash lozimki, bugun bir qator olimlar globallashuv jarayon sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida amal qil-gan, degan fikrlarni qam ilgari surmoqdalar. Hatto qadim dunyo xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarning yuzaga kelishi va ri-vojlanish jarayonlarini «globallashuv» bilan bog‘lash to‘g‘risida-gi fikrlar qam uchraydi. Jumladan, yuqorida tilga olingan maqo-lada Muqammadjon Xolbekov: «Moziyga qaytaylik. Miloddan ol-dingi IV asrda yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy butun Osiyoni qurol kuchi bilan zabt qilib, aslida yarim dunyoni birlash-tirmoqchi, qudratli davlat barpo etmoqchi bo‘lgan va shu tariqa in-soniyat tarixida globallashuv jarayonning boshlab bergan. YOki mi-loddan oldingi I asrda Rim imperatori YUliy Sezar qam xuddi shunday yo‘l tutib, butun Ovro‘poni ishg‘ol qilgan va qudratli impe-riya sarqadlarini kengaytirgan. Ta’bir joiz bo‘lsa, insoniyat ta-rixida zo‘ravonlik bilan bo‘lsa-da, ikkinchi globallashuvga asos sol-gan»,[14] deb yozadi. O‘rta asrlarda (1U-X1\0, X1U-XUP, XVIII, XIX va XX asrlarda qam globallashuv jarayonining sodir bo‘lganligini ko‘ramiz. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti bosqichlarida sodir bo‘lgan turli «birlashtirishlar», «sivilizatsiyalar», «ma’rifatchilik» qarakatlari globallashuv jarayonini yuzaga keltirgan.

Adolat yuzasidan aloqida ta’kidlash lozimki, muallif maqola-ni juda qiziqarli tarzda aniq faktlar asosida yozgan va ushbu ma-qolaga munozara yuritishga arziydigan material sifatida qarash noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Ana shunday munozaraga arziydigan fikrlar-dan biri globallashuvning eramizdan avvalgi IV asrda boshlangan-ligi va adabiyot bugungacha bo‘lgan davrda o‘z boshidan globallashuv-ni kechirish natijasida taraqqiy qilganligi qaqida ilgari surilayotgan fikrdir. Bu erda

bizni munozaraga tortayotgan fikr glo-ballashuvning boshlangan davri adabiyotni ma’rifatning global-lashuvi ta’sirida rivojlanayotganligidir.

Agar muallifning fikriga qo‘shiladigan bo‘lsak, adabiyot, san’-at va xalqlarning bir-biriga tabiiy ta’sir o‘tkazish jarayonida o‘zaro boyishni o‘zida ifoda ettiruvchi baynalminallashuvning o‘rni qaerda qoladi? YOki bugun jahonda bir qator yuksak taraqqiy qil-gan mamlakatlarning barcha imkoniyatlarini ishga solib barcha xal-qlar uchun umumiy bo‘lgan ommaviy madaniyatni shakllantirishga bo‘lgan qarakatlarini qam ijobiy baholash kerakmi? Ular adabiyot, san’at, ommaviy axborot vositalari, kompyuter, internet va uyali telefon kabi zamonaviy vositalar bilan yoshlar ongi hamda qalbi-ni «zabt» etish yo‘lida olib borayotgan siyosatlariga qanday qara-moq kerak? Bu qo‘yilayotgan savollarga javob mazkur kitobning uchin-chi paragrafida so‘z boradi va yana yuqorida fikr yuritilayotgan glo-ballashuvning boshlanish davri va tushunchalar mazmuni xususida fikr yuritiladi.

Globallashuvning boshlanish davri bo‘yicha g‘arb olimlari qam turli fikrlarni ilgari surib kelmoqdalar. Jumladan, R. Kobden va J. Brayt kabi olimlar globallashuv to‘lqinlarini mamlakat-lar o‘rtasida erkin savdoning amalga oshuvi va uning natijasida iqtisodiyotdagi o‘sish bilan bog‘laydilar qamda uning boshlanish davrini XIX va XX asr bilan chegaralaydilar. Ularning fikricha, Britaniya o‘zining dengiz, industriya va moliyaviy qudrati bilan globallashuv to‘lqinining birinchi bosqichi kafolati bo‘lgan. Ular globallashuvning ikkinchi bosqichi yoki tiklanishini 1970 yillar-ning oxirlarida informatika va telekomunikatsiyada sodir bo‘lgan inqiloblar asosida boshlanganligini ta’kidlaydilar. [15]

Keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, globallashuv erkin sav-doning boshlanishi va uning natijasida iqtisodiyotdagi taraqqi-yot, informatika va telekomunikatsiya taraqqiyotida sodir bo‘lgan in-qiloblar bilan bog‘liqdir.

Xullas, globallashuv tushunchasi va uning boshlanish davri qaqida turli fikrlar ilgari surilishi davom etmoqda. Endi glo-ballashuvning internatsionallashuv va integratsialashuv tushuncha-lari bilan munosabatlari ustida to‘xtalamiz.

Falsafa qrmusiy lug‘atida «Internatsionalizm, baynalmialchi-lik (lotlSHer - aro, payop - xalq) - turli millat, irqdagi kishi-larning xalqaro birdamligini ifodalovchi tushuncha. Bu tushuncha K. Marks tomonidan o‘ylab topilmagan, u tomonidan fikrga kiri-tilmagan, faqat sobiq ittifoq davrida mutloqlashtirilgan edi...»[16] degan ma’lumot keltiriladi. To‘g‘ri, «internatsionalizm» insoni-yatning ongli faoliyati boshlanibdiki, u tabiiy jarayon sifatida kechib kelmoqda. Ammo uning xuddi shunday nomlanishi har doim ham bo‘lgan edi degan fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Aslida, uning il-miy iste’molga kirib kelishi ishchilar sinfi tomonidan burjua-ziyaga qarshi kurashdagi yakdillikni vujudga keltirish mafkurasi bilan bog‘liqdir.

«Integratsiya» tushunchasiga esa falsafa qisqacha izoqli lug‘ati-da quyidagicha ta’rif keltiriladi: «Integratsiya (lotin, 1p1e8eg -to‘la, butun, buzulmagan, butunlik) - umumiyat, birlikka erishishga yo‘naltirilgan jarayon yoki faoliyat natijasi»[7]dir. Falsafa qomu-siy lug‘atida «Integratsiya» (lotincha t1e§eg - butun): 1) ayrim qism va elementlarni bir butunga birlashtirish; 2) turli mamlakatlar-ning birlashmalari, tor doiradagi iqtisodiy-siyosiy guruqlar qo‘shilishi degan ta’riflar uchraydi. Integratsiyaning shakllari ilmiy, siyosiy, madaniy, xalqaro va qokazo turlarga bulib o‘rgani-ladi.[8]

Keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, bu tushunchalarga ta’-rif berishda qatto lug‘atlarda qam turli qarashlar mavjud.

Xullas, globallashuv tushunchasi va uning qolgan tushunchalarga nisbati, jarayon sifatidagi o‘rnini ularga aniqlik kiritish yo‘li bilan bilib olish qamon o‘z echimini topmagan.

YUqorida ta’kidlanganidek, aksariyat ko‘pchilik falsafiy va si-yosiy tadqiqotlarda globallashuv XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida kirib kelganligi haqidagi g‘oyalar ilgari surilmoqda. Ularga qo‘shilgan qolda shuni aloqida ta’kidlash lozimki, xuddi ana shu davrda insoniyat aql-zakovati yuksakka ko‘tarilish jarayoni sodir bo‘ldi. Natijada insonlar, millatlar, xalqlar va mamlakat-larni o‘zaro majburiy ravishda bir-biriga bog‘lab qo‘yish, dunyoda sodir bo‘layotgan turli soqalardagi yangiliklar, kashfiyotlarni da-qiqalar doirasida ommalashtirishga xizmat qiladigan aloqa vo-sitalari - kompyuter, internet, uyali telefon va boshqalar xizmat ko‘rsata boshladi. Buning natijasida dunyodagi barcha mamlakatlar-ning iqtisodiy jiqatdan yaqinlashuvi tezlashdi. Bu jarayon qaqida turli soqalar bo‘yicha juda ko‘plab misollar keltirish mumkin. Ammo eng asosiysi unda emas, balki globallashuv jarayon sifatida jahon taraqqiyotining barcha bosqichlari uchun xosmi yoki yo‘qmi de-gan savolga aniq javob topishdir. Fikrimizcha, u jarayon sifatida to XX asrning o‘rtalarigacha «integratsiya»ning «harakati» va uning ustuvor ta’sirida real hayotda «ilg‘ab» olinmagan. Integratsiya in-soniyatning ongli faoliyati boshlanibdiki, doimo amal qilib kelgan. Insonlarning bir-birlariga talpinib yashashlari, ularning o‘z tajribalarini almashishi, bir-birlariga yordam ko‘rsatishlari va o‘zaro do‘stona munosabatlari, ularning o‘rtasidagi o‘zaro integ-ratsiyalashuv (yaqinlashuv) jarayonlarning amal qilishni ta’minla-gan. Bu bir tomondan tabiiy kechgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan har bir sub’ekt uchun umumiy taraqqiyotning hayotiy zaruriyati sifati-da namoyon bo‘lib kelgan. Uchinchidan zsa integratsiyalashuvda tomon-larning o‘zaro manfaatdorligi ham mavjud bo‘lgan. YA’ni undan bir tomon emas, balki bu jarayonda qatnashgan barcha tomonlar manfa-at ko‘rganlar.

Globallashuv sharoitida tashqi aloqalar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanib, har bir shaxsning ma`naviyati va intellektual salohiyatiga yangicha talablar qo`ymoqda. O`z navbatida, O`zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to`laqonli a`zosi va uning ajralmas qismi hisoblanadi. SHuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda yuksak ma`naviyatli, yuqori bilimli va xalqaro talablarga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e`tibor berilmoqda. Mamlakatimizda bunday mutaxassislarga bo`lgan talab kelajakda ham oshib boradi. SHu bois yuksak ma`naviyatli shaxsni tarbiyalash, ularni xalqaro mezonlar asosida tayyorlash ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Globallashuv – bu butun jahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiyalashuv (bir-birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatining qo`shilish va yaqinlashuvidir. Bu obyektiv jarayon bo`lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega. Zero biz A.Toynbi ta`biri bilan aytganda, insoniyat,”umumiy uy”, “umumiy taqdir» va umumiy tashvishlar bilan yashashga kiririshayotgan[9[5]], bir so`z bilan aytganda globallashuv deb atalayotgan jarayonlar sodir bo`layotgan zamonda yashamoqdamiz.

SHunday ekan, milliy mafkurani takomillashtirish masalasi ham endilikda nafaqat milliy, balki global xarakter ham kasb etadi. Lekin, globallashuv jarayoni N.Jo`raev[10[6]] to`g`ri qayd etganiday, hozircha faqat qandaydir mavhum ijobiy jihatlari bilangina emas, balki ko`proq “hozirgi davr global muammolari”ni vujudga keltirgani bilan xarakterlidir. Ko`pchilik mutafakkirlar bu davrni xatto global kriziz (bo`xron) davri deb atamoqdalar. “XX asr krizisni

[9[5]] Qarang: Jo`raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma`naviyat, 2008. – B.221.
[10[6]] O`sha joyda – B.459.

kuchli his etish bilan boshlangan edi va shu hissiyot bilan poyoniga etdi”,[11][7] - deb yozadi, masalan, rus faylasufi S.I.Dudnik. Darhaqiqat, globallashuv zamonaviy jamiyatga ko`plab ijobiy jihatlar olib kirish bilan birga, insoniyat taraqqiyotidagi shunday pallani ham o`zida aks ettiryaptiki, endilikda dunyo xalqlari vujudga kelayotgan muammolarga qarshi yolg`iz kurasha olmaydi, ularni birgalikda hal qilish mumkin.

Globallashuvning salbiy oqibatlari asosan, quyidagi sohalarda namoyon bo`lmoqda: ekologiya, sog`liqni saqlash, demografik, resurslar, axloq, oila, ta`lim-tarbiya, ma`naviy, dunyoqarash va boshqalar shular jumlasidandir. Ayni shu ma`noda bugungi kunda eng yangi fani sinergetika ham shu krizis holatini ifodalash uchun “global bifurkatsiya nuqtasi” degan maxsus yangi tushunchani kiritgani, “katastrofalar nazariyasi”ni ishlab chiqqani bejiz emas. CHunki S.P.Kapitsa, S.P.Kurdyumov, G.G.Malinetskiy ta`kidlaganlaridek, “Olimlar siyosatchilarning qo`liga butun Planetadagi hayotni bir emas, birnecha necha bor yo`q qilish quvvatiga ega bo`la oladigan qurollarni tutqazdilar, vaholanki, kelajakda ularni qanday yo`qotish va nima qilish mumkinligini aniqlashga harakat qilmadilar..., ular energiyaning yangi manba`larini kashf etdilar va emoqdalar, shuning bilan birga radioaktiv chiqindilar va yadroviy terrorizmdan qutulishday juda jiddiy muammolarini ham vujudga keltirdilar..., ular odamlarga antibiotiklarni sovg`a qildilar, ayni paytda, zararli mikroorganizmlarning tabiiy tanlanish jarayonini kuchaytirdilar.”[12][8]

Oksford universiteti direktori, professor Nik Bostrom bu ishlarning salbiy oqibatlari haqida o`ylab ko`rilmayotgani haqida shunday deydi: “Texnologik progressning tezlashuvi tufayli insoniyat hozir o`z taraqqiyotining keskin burilish nuqtasga katta tezlik bilan yaqinlashib kelayotgan bo`lishining ehtimoli katta. Insoniyatga yaxshi tanish bo`lib qolgan yadroviy xavfu xatar yoniga endilikda nanotizimlar va mashina intellekti kabi sohalarning jadal rivojlana boshlagan texnologiyalari misli ko`rilmagan o`z imkoniyatlari va xatarlari bilan qo`shilmoqda. Bizning kelajagimiz, agar u bor bo`lsa, bizning ana shu jarayonlarga munosabatimizga bog`liq. Hamon biz jadal rivojlanayotgan texnologiyalarga bog`liq ekanmiz, insoniyat jamiyatidan “post-insoniyat” (keyingi insoniyat) jamiyatiga o`tish dinamikasini yaxshi anglab etishimiz kerak. Ayniqsa tuzoq qaerda joylashganini, muqarrar o`limga olib borishi mumkin bo`lgan yo`llarni payqay bilishimiz zarur.”[13][9]

Bir necha yillik tadqiqotlari natijasida A.CHumakov “Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalarning, ma`naviy qadriyatlar, dunyoqarash yo`nalishlarini universallashuviga olib kelishi bilan birga, an`anaviylik, o`ziga xoslik va madaniy xilma-xillikni saqlashni istisno qilmaydi”[14][10], - degan xulosaga keladi. Bunday davrda shaxs murakkab ijtimoiy muhit sharoitida faoliyat ko`rsatishga majburdir. Inson yashayotgan zaminining, tinch va barqaror kechirayotgan hayotining mohiyatini to`la anglashi, qadrlashi, ya`ni ijtimoiy muhitning obyekti sifatida namoyon bo`lishi kerak. Globallashuv jarayonining hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sabablari xususida Prezidentimiz I.Karimov ta`kidlaganlaridek “...shuni obyektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo`shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog`lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas”[15][11].

---

[11][7] Dudnik S. I.Paradigmi` istoricheskogo mi`shleniya XX veka: ocherki po sovremennoy filosofii kulturi`. SPb.: Sankt-Peterburgskoe filosofskoe obshestvo, 2001.B.132.

[12][8]Kapitsa S.P.,Kurdyumov S.P.,Malinetskiy G.G.Sinergetika i prognozi budushego Izd.2-oe.-M.:Editorial URSS 2001..3-5.

[13][9] Nik Bostrom - Ph.D., is Director of Oxford University's new Future of Humanity Institute.Ugrozi` sushestvovaniyu chelovechestva. Analiz stsenariev vi`miraniya. //2007. http://www.nickbostrom.com/

[14][10] CHumakov A.N. Globalizatsiya. Konturi` tselostnogo mira. - M., Prospekt, 2005.S.259.

[15][11] Karimov I.A. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch.- T.: Ma`naviyat, 2008. 111 b.

Global miqyosdagi muammolar ilmiy munozaralar predmeti sifatida XX asrning 60-70 yillarida jahon hamjamiyatida jiddiy qiziqish uyg`otgan. 1930 yillarda E.Lerua, Teyyar de SHarden va V.I.Vernadskiylarning nazariyalarida insoniyat hamjamiyatning global mohiyati va uning Erdagi yashash tarixi uchun mas`uldir, degan fikrlar ilgari surilgan. Keyinchalik bu masalaga e`tibor bir muncha susaygani tashlanadi. 1970-80 yillarga kelib mazkur masalaga oid tadqiqotlar jonlanganligi bizga ma`lum. Bugungi kunda globallashuv jaryonining jadallashuvi o`zaro aloqadorlik va o`zaro ta`sir dialektikasi qonunlari asosida ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga ta`sir o`tkazmoqdaki, bu o`z navbatida yoshlardagi ijtimoiy mas`ullik jarayoni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, texnika-texnologiya, xalqaro axborot almashinuvining jadal rivoji bilan o`zaro aloqadorlikda yuzaga keladi.

Hozirgi kunda “globalistika” termini zamonaviy fan tilining ajralmas qismidir, ammo uning ma`nosi haqida hanuz turlicha fikrlar bildirilmoqda. Ba`zilar bu yangi fan, u hali shakllanish jarayonida, deb aytsalar, boshqalar ilmiy bilish integratsiyasi natijasi, deb bilib, o`ziga xos fanlararo tadqiqotlar sohasi, deb tan olmoqda[16][12].

Globallashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi dunyoda davlatning raqobat shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy ustunligi – ta`lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni ma`naviy rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog`liq. Davlatning bugungi va istiqbolidagi barqaror iqtisodiy o`sishini ta`minlovchi omillar aynan ta`lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog`liq. SHu sababli mustaqillikning ilk yillaridanoq iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida ta`lim sohasida jahonda munosib o`rinni egallashga qaratilgan yangi uzluksiz ta`lim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu borada alohida ahamiyat kasb etadigan siyosiy globallashuv davlatlarning siyosiy tuzilishini, xalqlar va mintaqalar o`rtasidagi siyosiy aloqalarning kengayishini, o`zaro bog`liqligini ifodalaydi va oxir-oqibat, ularning unifikatsiyalashuviga olib keladi. Bunda o`ziga xos siyosiy munosabatlar ko`lamiga ko`ra global va barcha davlatlarning ichki tuzilishi bir tarmoqqa ulanib ketishi kuzatiladi. Bu jarayonda milliy davlatchilik suverenitetiga xavf tug`dirishi mumkin bo`lgan bir qancha holatlar mavjud. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, jahon siyosiy sahnasida transmilliy korporatsiyalar, nodavlat hamda xalqaro tashkilotlar, xalqaro kapital kabi yangi qudratli siyosiy subyektlar shakllanmoqda. Ular siyosatning an`anaviy subyekti — milliy davlatchilik suverenitetining ikkinchi darajaga tushib qolishiga sabab bo`lmoqda.

Ikkinchidan, globallashuv xalqaro huquq asoslariga sezilarli ravishda ta`sir etyapti. Bu esa davlatlarning o`z hududida huquqiy suverenitetidan qisman ayrilishiga olib kelmoqda. Natijada milliy davlatlarning nafaqat tashqi, balki ichki siyosiy masalalarini mustaqil echish imkoniyatlari chegaralanmoqda. Ma`lum bir davlatning ichki siyosatini tashkil etadigan muammo (ichki ixtilof, siyosiy kurash, saylov jarayonlari va boshqalar) bugungi kunga kelib, global ahamiyat kasb etib boshqa davlatlarning manfaatlariga ham daxldor bo`lib qolmoqda.

Uchinchidan, kishilar ongida davlatchilik suvereniteti asosini tashkil etuvchi hududiy omil globallashuv samarasi o`laroq, o`zining an`anaviy ahamiyatini yo`qotmoqda va tabiiy ravishda davlat hokimiyati mavqeiga ham putur etmoqda. Boshqacha aytganda, milliy chegaralar tobora shaffoflashib bormoqda.

To`rtinchidan, butun dunyo bo`ylab bir qator g`arb davlatlari rahnamoligida "demokratiyalashuv" jarayoni jadallashmoqda va buning natijasida ayrim davlatlarning o`ziga xos demokratik taraqqiyotiga chetdan kuchli ta`sir o`tkazilyapti. YA`ni, bu jarayondan o`z manfaatlari yo`lida foydalanishga urinayotgan globalizm g`oyasi asoschilari boshqa mamlakatlarning siyosiy boshqaruv tizimini o`z qo`llariga olishga urinmoqdalar. Misol uchun, MDHga a`zo bir qator

[16][12] Qarang: CHumakov A.N.Filosofiya globalnqx problem. - M.: Znanie, 1994. S.77-80.

davlatlarda 2005 yilda yuz bergan "inqiloblar", siyosiy globallashuv mahsuli bo`lib, ushbu jarayon asoratlarining qanchalar xavfli ekanligidan darak beradi. Ushbu voqealar shundan dalolat beradiki, yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar boshqa davlatlarning suvereniteti va ichki ishlariga aralashmaslik printsipini pardalangan shaklda buzmoqda. Bunda siyosiy globallashuv jarayonining yana bir mahsuli – nodavlat tashkilotlarning resurslari va nufuzidan tashkiliy niqob sifatida foydalanish dunyo bo`ylab keng tarqalmoqda. Ayni shu ma`noda A.V.Buzgalin "Globallashuv siyosatga ta`siri kuchli bo`lib, havfsizlik va iqtisod sohasida davlatlarning bir-biriga tobeligini kuchaytirib, har birining jahon sahnasidagi ustuvor jihatlarining chuqur o`zgarishiga olib keladi. Tashqi siyosiy vositalar arsenaliga boshqacha nuqtai nazardan qarashga majbur qilib, jahon siyosatining tadrijiylashish jarayonining tezlashib ketishiga olib keladi"[17][13], - deb yozadi.

Globallashuv fenomeni obyektiv va ochiq ekanligini hisobga olinsa uning turli muqobillarda namoyon bo`lishi tabiiy tus oladi. SHunday ekan globallashuv jarayonining biror-bir aspektini mutlaqlashtirib, unga mutlaq ijobiy yoki mutlaq salbiy jarayon sifatida qarash nojoizdir. O`z navbatida nemis sotsiolog olimi U.Bek "SHubhasiz, globalizatsiya eng ko`p qo`llaniluvchi va eng ko`p suiste`mol qilinuvchi va eng kam o`rganilgan, ehtimol tushunarsiz mavhum, siyosiy jihatdan samarali so`zdir (bahs-munozarada kuchli qurol, shior)"[18][14], - deb yozadi.

Globallashuv jarayonida axborot olishning tezlashuvi, shuningdek, internet orqali uzatiladigan turli yangiliklarni ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish masalalarini e`tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi. Masalan, globallashuv haqida 1998 yilda Nobel mukofotini olgan Portugaliyalik yozuvchi J.Saramagu: "Men antiglobalistik harakatlar tarafdoriman. CHunki menga hozir sayyoramizda keskin tezlikda shakllanayotgan tartib, nizom yoqmaydi" - degan bo`lsa, J.Soros "globallashuvning shuncha kamchiliklariga qaramay, men uning rashkchi tarafdoriman. Men uni qo`llab-quvvatlashim sababi nafaqat u beradigan qo`shimcha boyliklar, balki u odamlarga berishi mumkin bo`lgan erkinlik sababli hamdir"[19][15], - deb yozadi.

Umuman olganda, globallashuv murakkab va serqirra jarayon bo`lib, uni turli mamlakatlar hayotiga o`tkazayotgan ta`siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, ma`naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog`liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o`tkazayotgan salbiy ta`sirini kamaytirish va ijobiy ta`sirini kuchaytirish, davlatlar kelajagini belgilab beruvchi asosiy omil bulib qolmoqda.

Globallashuvning asosiy ko`rinishlari, tendentsiyalari va oqibatlari tevaragidagi munozaralar so`ngi yillarda nafaqat jonlandi, balki qizg`in tus olmoqda. Bugun nafaqat bir davlatda, balki butun dunyoda bir-biriga qarshi kurash olib borayotgan "globalistlar" va "anti globalistlar"ga ajraldi. Ayrim olimlar globalizatsiyani farovon turmush, tanlash huquqi va yanada ko`prok erkinlik, ya`ni ko`chib yurish, to`liq axborot olish, ko`proq xaq to`lanadigan joyda ishlash, eng yaxshi universitetlarda ta`lim olish erkinligi bilan bog`lasalar, boshqalar uchun esa globallashuv insoniyatga tahdid soluvchi, global isish, atrof muhitning ifloslanishi, nazoratsiz migratsiya omillarining vujudga kelishi, ishsizlarning ko`payishi, an`anaviy qadriyatlarga putur etishi kabi muammolarni tug`diruvchi jarayon sifatida baholamoqdalar. Bizning nazarimizda, globallashuv, eng avvalo, taraqqiyot sur`atlarining tezlashuvi orqali butun insoniyat yalpi Er shari taqdirini birlashtirayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma`naviy-axloqiy, madaniy-ruhiy hodisa sifatida o`zini namoyon etayotgan bir paytda, uning yaxlit mohiyatining ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etmoqda. Ayni shu nuqtai-nazardan qaraganda, globallashuv odamlar orasida ma`lum bir universal va umumhajmli aloqani o`rnatishni nazarda tutadi.

---

[17][13] Qarang: Buzgalin A.V. Alterglobalizm: k teorii fenomena// Nauka. Obshestvo.CHelovek. - M., 2004.
[18][14] Bek U.CHto takoe globalizatsiya? M., 2001.B.40.
[19][15] Saramagu J. Pochemu ya podderjivayu antiglobalistov//Rossi v globalnoy politike. 2003.№1.S.176.
Soros Dj. O globalizatsii.M., 2002.S.22.

Globallashuv tushunchasi uning ma`no mazmuni va insoniyat taraqqiyotdagi o`rni masalasiga qiziqish ortib bormoqda. Globallashuv jarayoni er yuzidagi mamlakat va xalqlarni shu darajada uzviy bog`lab qo`ymoqdaki bu ni bashariyat tarixida shu paytga qadar hech qaysi vosita amalga oshira olmagan. Bu jarayon shunchalik kuchayib bormoqdaki hozirdanoq dunyoning biron bir hududi uning ta`siridan hali qolayotgani yo`q. O`tgan asrning oxirlarida paydo bo`lgan globallashuv atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va ma`naviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini ifoda etar edi. Globallashuv shunday jarayonni undan chetga turaman degan mamlakatlar uning ta`siriga ko`proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g`ayri ixtiyoriy ta`sir esa ko`pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Mustaqillik davrida mamlakatlarimiz olimlari o`tkazgan va o`tkazayotgan tadqiqotlar tahlili bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan darak beradi.

Globallashuvga berilgan ta`riflar juda ko`p lekin uning xususiyatlarini to`laroq qamrab olagani, bizningcha frantsuz tadqiqotchisi B. Bandi bergan ta`rifdir. Unga globallashuv jarayonining uch o`lchovli ekaniga urg`u beriladi.

Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon.

Globallashuv - jahonning gomogollashuvi va universallashuvi jarayoni

Globallashuv - milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni.

Bu ta`rifga keltirilgan globallashuv o`lchovlarining har o`lchashga nisbatan ham muayyan e`rozlar bildirishi mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak ularning har o`lchovi ham unda mavjud ekanini ko`ramiz. Globallashuv tarafdorlari globalistlar deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko`proq uchraydi.

Rossiyada bo`lib o`tgan Aksilgloballashuv sektorlari anjumanidagi ma`ruzasi A. Parshovil fikricha globallashuvnnig asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarga ishlab chiqarilgan.

O`tgan asrning oxirlarida paydo bo`lgan "globallashuv" atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va moliyaviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini ifoda etar edi. Bugungi kunga kelib esa u keng qamrovli tushunchaga aylandi. U davlatlar va xalqlar hayotining barcha sohalarida yalpi umumlashuv jarayonini anglatmoqda. Garchand globallashuv jarayoni birdaniga paydo bo`lib qolmagan, balki inson yaralgan paytdan boshlab sodda va tabiiy shaklda davom etib kelgan bo`lsada, hozirgi vaktda insonning o`z manfaatlari yo`lida tabiiy rivojlanish jarayoniga zo`ravonlarcha aralashuvi natijasida shiddatli ravishda tezlashib ketdi.

Albatta, bir tomondan qaraganda, bu jarayonning ijobiy jihatlari ham yo`q emas. Chunonchi, ko`pgina mamlakatlarga fan-texnika, texnologiya yutuklarining jadal kirib kelishi globallashuv tufayli. Bu esa ularning iqtisodiy hayoti rivojiga, xalqlar turmush darajasining ortishiga ijobiy ta`sir ko`rsatmoqda. Shu tariqa bashariyatning umumiy intellektual salo-hiyati yuksalishiga yordam bermoqda.

Ikkinchi tomondan, globallashuvning salbiy oqibatlari ham ko`zga yaqqol tashlanmoqda. Jumladan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o`rtasida iktisodiy tafovutlarning kuchayishi, ayniqsa, zamonaviy telekommunikatsiya, komp`yuter, internet vositalari orkali biron bir hududga xos milliy-ma`naviy qadriyatlarni o`zga xalqlarga singdirish va shu yo`l bilan jahonda nafaqat iktisodiy, balki milliy-ma`naviy hukmronlikni o`rnatishga urinish hollari ham kuzatilmoqda. Bu jarayon XXI asrga kelib XX asrdagiga Karaganda ham keng qamrov kasb etdi, ta`sir imkoniyatinm oshirdi, eng yomoni, ko`pgina rivojlangan mamlakatlar jahonda iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, fan-texnika, texnologiya, ta`lim sohasida rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish, demokratik qadriyatlarni keng yoyish bahonasida milliy-ma`naviy ta`sir o`tkazishga harakat qilmokda. SHu jihatdan qaraganda, globallashuv jarayoni endigina rivojlanish yo`liga kirgan yoki rivojlanayotgan mamlakatlardan ko`ra yuksak taraqqiy etgan

davlatlar manfaati uchun ko`proq xizmat qilmoqda. Qudratli davlatlar, ulkan imkoniyatlariga tayangan holda, kam taraqkiy qilgan mamlakatlarning moddiy resurslarini o`zlashtirmokda, bozorlarini egallamokda. Bu esa iktisodiy zaif mamlakatlarning taraqqiyot borasida mustaqil yo`l tutish imkoniyatlarini cheklab ko`yayotir. CHunki ishlab chiqarishni tashkil kilish va amalga oshirish uchun zarur texnika, texnologiya hamda ilmiy ishlanmalar rivojlanayotgan mamlakatlarning o`zida tayyorlanmay, chetdan olib kelinmoqda. SHu tariqa rivojlanayotgan mamlakatlar yuksak taraqqiy etgan mamlakatlarga bog`lanib qolishga, J yana ham aniqrog`i, qaramlikka mahkum bo`layotir. Boshqacha aytganda, globallashuv bosqinchilikning yangi bir shaklini boshlab bermoqda.

Siyosiy fandagi modernizatsiya, vesternizatsiya, universalizatsiya kabi globalizatsiya ham universal definitsiyaga ega emas. Bu fenomen olimlar va fan arboblari tomonidan turlicha talqin etiladi. SHunga qaramasdan ular mohiyatan yagona mazmunni anglatadi, ya`ni globallashuv frantsuzcha «umumiy» degan ma`noni anglatib, butun insoniyat hamjamiyatining o`zaro iqtisodiy, siyosiy, ijtimoy va madaniy aloqalarini qamrovchi jarayon sifatida talqin etiladi.

Ilmiy adabiyotda globalizatsiya jarayoni haqida dastlab amerikalik olimlar fikr yuritishgan deb qabul qilingan. «Globalizatsiya» terminini birinchi bo`lib T.Livettu o`zining 1983 yilda nashr etilgan «Garvard biznes rev`yu» maqolasida qo`llagan bo`lib, unda globallashuv yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qo`shilish fenomeni sifatida qaralgan.

Garvard biznes maktabi maslahatchisi yapon Kenichi Omae o`zining 1990 yilda nashr etilgan «CHegarasiz dunyo» asarida ushbu terminga kengroq ta`rif beradi. Uning fikricha, kishilar, firmalar va bozorlarning ahamiyati tobora oshib, davlatning nufuzi qisqarib boradi. Globallashuv erasida barcha xalqlar va jarayonlar global bozorning ta`siriga tushadi, an`anaviy davlat esa o`zining tabiiyligini yo`qotib biznesdagi hamkor sifatida yaroqsiz bo`lib qoladi. Xalqaro iqtisodiy sahnada asosiy harakatlanuvchi subyektlar sifatida global firmalar qoladi.

M.YU.CHernavskiyning fikricha, ushbu fenomen uch xil ma`noda tushunilishi mumkin. Birinchidan, kishilar, davlatlar va madaniyatlar o`rtasidagi o`zaro aloqalar hududining kengayib borishi sifatidagi tarixiy jarayon sifatida. Ikkinchidan, dunyoning siyosiy-iqtisodiy va madaniy bir xillikka tomon harakati sifatidagi umumiylik va gomogenizatsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida ro`y beradigan dunyoning universallashuvi sifatida. Uchinchidan, o`zaro iqtisodiy munosabatlar sohasida milliy chegaralarning shaffoflashib borishi sifatida.[20[148]]

SHuningdek, M.YU.CHernavskiy globalizatsiya hodisasini modernizatsiya mahsuli sifatida qaraydi. Uning fikricha, Sovet Ittifoqining «amerikanizatsiya» loyihasiga qarshi qo`llagan modernizatsiya loyihasi keyinchalik globalizatsiya nomini oldi. Boshqacha aytganda, globalizatsiya sotsialistik modernizatsiya loyihasi inqirozining qonuniy oqibatidir.

YAna bir rus olimi Rossiya strategik tadqiqotlar markazi rahbari o`rinbosari, tarix fanlari doktori Mixail Muntyanning fikricha, globalizatsiya hodisasiga ilmiy jihatdan aniq va mazmunli qarash asosan globallashuv jarayonini fan texnika inqilobining informatsion bosqichi va uning dunyo iqtisodiy, moliyaviy, telekommunikatsion, transport tizimlari rivojiga real ta`siri bilan bog`lovchi olimlarning ishlarida uchraydi.

Ular globallashuv tushunchasini jamiyatning informatsion bosqichdagi xalqaro rivojlanishning asosiy yo`nalishi sifatida taqdim etadilar. Ularning fikricha, Internet va butun dunyoni qamrab olgan turli xil transmilliy tashkilotlar, korporatsiyalar va harakatlar globallashuv jarayonining ramziy timsollari hisoblanadi.

[20[148]] CHernavskiy M.YU. kandidat filosofskix nauk, dotsent kafedri` filosofii Rossiyskogo zaochnogo instituta tekstilnoy i legkoy promi`shlennosti. Modernizatsiya i globalizatsiya.

YAna bir o`rinda globallashuvning quyidagi ta`rifi keltiriladi: «Globallashuv-mavjud global jarayonlarni boshqarish maqsadida davlatlarning va xalqaro tashkilotlarning keng qamrovli aloqalari va hamkorliklari tizimidir».

SHu o`rinda ta`kidlash lozimki, globallashuv va global rivojlanish tushunchalari bir-biridan farq qiladi, zero global rivojlanish butun dunyo miqyosida sodir bo`layotgan, inson faoliyati natijasida ro`y berayotgan va insoniyat taraqqiyoti uchun tizimli ahamiyatga ega bo`lgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, informatsion, psixologik o`zgarishlar majmuasidir.

YUqoridagilardan ko`rinib turibdiki, globallashuv jarayoni ko`p qirrali va xilma-xil ta`rifli hodisadir.

Globallashuv erkin xalqaro savdo gimnining «muallifi» hisoblanadi. Globallashgan iqtisod butun dunyoda farovonlik darajasini oshirish, shuningdek, ijtimoiy sohadagi muammolarni likvidatsiya etishda eng samaralidir. Xattoki, atrof-muhitni muhofaza qilish borasida ham erkin savdo tufayli ijobiy natijalarga erishish mumkin, chunki kuchli raqobat bosimi resurslarga ehtiyotkorona munosabatni shakllantiradi va tabiat bilan munosabatda oqilonalikka majbur etadi. Eng asosiysi bu jarayon shaxs rivojlanishiga olib keladi. Sababi texnologiya yangi turlarining kirib kelishi, ishlab chiqarish usul va vositalarining takomillashishi intellektual jihatdan salohiyatli kadrlarga ehtiyojni vujudga keltiradi. Natijada kishilarda yangiliklarni o`zlashtirish va intellektual salohiyatni oshirishga etarlicha impul`s beriladi. Kuchli raqobat ularni o`z-o`zlarini takomillashtirishga va mavjud sharoitga moslashishga majbur etadi. Nihoyat bu butun jamiyatda intelektning yuksalishiga olib keladi.

Bundan tashqari globallashuvning demokratizatsiya, informatizatsiya kabi jarayonlari jamiyat rivojida alohida ahamiyatga ega. Jumladan, demokratizatsiya jarayonida sotsiumning elementlari ierarxiyasida jiddiy o`zgarishlar ro`y beradi. Ushbu ierarxiya quyidagicha strukturaga ega bo`ladi: shaxs-jamiyat-davlat. Bunda davlat shaxs va jamiyat manfaatlarini ta`minlovchi instrument vazifasini o`taydi. Jahon arenasida o`z nufuziga ega bo`lishni istagan har qanday davlat ushbu ierarxiyaga amal qilishi lozim.

Informatizatsiya jarayoni ham shaxs rivojida muhim ahamiyatga ega. Bunda shaxs o`zining axborotga bo`lgan ehtiyojini etarli darajada qondiradi. SHuningdek u ham informatsiya resursiga ega bo`ladi, ham dunyoqarashini zamonaviy talab darajasida shakllantiradi.

Ammo yuqoridagi ijobiy xususiyatlariga qaramasdan globallashuv hodisasi uchinchi dunyoda negativ qabul qilinadi. Jumladan, AQSH professori (asli afrikalik) Dennis Brutusning fikricha, globalizatsiya «profits before people», ya`ni «foyda insondan muhim» printsipi asosida harakat qilmoqda. Uning bahosiga ko`ra, globalizatsiyaning tarqalishi bilan ijtimoiy hayotda inson qadri yo`qoldi, pul axloq ustidan hukmronlik o`rnatdi[21[149]]

Professor Mbeki globalizatsiya jarayonini antidemokratiya maqsadidagi biznes deb ataydi. Uning fikricha globalizatsiya kelishi bilan biznesning moliyaviy shaffofligi to`liq yo`qoldi va oylik maoshlar qisqardi. U o`zi bilan g`arb qulchiligining yangi shaklini olib keldi. Bunday qulchilikning xarakterli xususiyati shundaki, unda «xo`jayin» shaxssizlashadi.[22[150]]

YAna bir antiglobalist, Kairdagi Amerika universiteti professori Arui Mafele globallashuvni «Butun dunyo kapitalistlari birlashing!» shiori ostida ro`y berayotganligini ta`kidlaydi. Uning fikricha, globallashuv tabiiy jarayon emas, balki u siyosiy boshqariladi. Globallashuvning asosiy raqibi- bu milliy oppozitsiyadir.[23[151]]

[21[149]] V.Kulti`gin. Nezapadni`e kontseptsii globalizatsii. http://www.perspektivy.info/print.php
[22[150]] Tam je.
[23[151]] Tam je.

Albatta globallashuv jarayonining salbiy oqibatlaridan ko`z yumib bo`lmaydi. Ayniqsa uning madaniy standartizatsiya, informatizatsiya va qadriyatiy universalizatsiya jarayonlari milliy identifikatsiya krizisini keltirib chiqaradi. Ammo bunday salbiy holatlarni oldini olishning samarali yo`li bu- ushbu jarayonning faqatgina ta`sir obyekti emas, balki subyektti ham bo`lishdir. Bugungi kunda ayrim davlatlarni hisobga olmaganda dunyoning deyarli barcha mamlakatlari globallashuvning obyekti hisoblanadi. Masalan, YAponiya ushbu jarayonning ham obyekti, ham subyekti. U globallashuvning obyekti sifatida G`arb qadriyatlarini o`zlashtirib, subyekt sifatida ularni adaptatsiyalashgan ko`rinishda Osiyoning boshqa mamlakatlariga taqdim etmoqda.[24[152]] Globallashuv davr taqazosi, rivojlanishning ayni damdagi tabiiy qonuniyati. Undan voz kechish yoki boshqacha yo`ldan rivojlanish mumkin emas.

Bugungi kunda globallashuv atamasi shunchalik mashhur bo`lib ketganganki, uni XXI asr mahsuli desak mubolag`a bo`lmaydi. SHu o`rinda, izohlash uchun xilma-xil yondashuvlar, nazariyalar, paradigmalar ishlab chiqilgan bo`lib, ularning hammasini sharhlab quyidagi xulosaga kelish mumkin: globallashuv halqlar, mamlakatlar transformatsiyasi, insoniyatning bir butunlikka integratsiyasini keltirib chiqaradi. SHu ma`noda, muayyan jamiyat o`zidan etuk deb hisoblagan boshqa jamiyatning mafkura, qarashlar, ilmiy-texnikaviy, madaniy yutuqlarni o`zlashtirishi globallashuv ta`siri ostida bo`ladi. SHu borada, kimdir buni jahonning yangi tarkibi shakllanishida xalqlarning yaqinlashuviga, iqtisodiy farovonlikka ijobiy ta`sir etadi, deb (K.Omae, P.Draker, T.Piters, S.Reysmit, S.Xantington va b.) hisoblasa, boshqalar (Z.Bauman, N.V.Zagladin, F.Fukuyamo, G.P.Martin, X.SHuman, M.G.Delyagin, V.I.Dobren`kov va b.) globallashuv milliylikning yo`qolishi, bir mamlakatning boshqa yirik ilmiy salohiyatga ega bo`lgan davlatlarga qaramligini oshiradi deb qaraydilar.

SHu asnoda nafaqat oddiy o`quvchi, balki o`z mustaqil mushohada-mulohazasiga ega bo`lgan odamlarda ham globallashuv jarayoni ta`sirida jahonning yangi tarkibi yoki bo`lmasa millatlarning totuvligini ta`minlovchi madaniyati, ma`naviyati qanday bo`lishi to`g`risida gumon-shubhalar, ikkilanishlar paydo bo`lishi tabiiy.

Bundan tashqari, globallashuv masalasiga oid zamonaviy bahslar ushbu muammoni yanada chigallashtirib yubormoqda hamda yangi muqobil g`oya, nazariyalarning paydo bo`lishiga turtki bermoqda. Jumladan, “Frantsuz olimi Jak Le Dyumgi quyidagi yondashuvlarni ishlab chiqadi:

Liberal yondashuv. Globallashuv faqatgina obyektiv jarayon emas, foydali fenomen sifatida iqtisodiy, ijtimoiy samaradorlikka olib keladi;

Madaniy yondashuv. Milliy madaniyatlar inqirozi tarixiy jamiyatlar to`qnashuvi, “chatishgan madaniyat” ning paydo bo`lishi”[25[153]].

YUqoridagi yondashuvlardan farqli o`laroq Golland tadqiqotchisi YA.N.Piters globallashuvni izohlashda quyidagi paradigmalar tipologiyasini taklif etadi.

“TSivilizatsiyalar to`qnashuvi. Turli madaniyatga mansub jamiyat mamlakatlarining konfrontatsiyasi;

“Makdonal`dlashuv”. Transmilliy kompaniyalar amalga oshirayotgan moderinizatsiya ostida (vesternizatsiya, evropeizatsiya, amerikanizatsiya) madaniyatlari gegemonlashuvi.

“Gibridlashuv”. Halqaro munosabatlar ostida umumiy, aralash madaniyatning paydo bo`lishi”[26[154]].

[24[152]] Kortunov S.V.. Globalizatsiya i natsionalnaya identichnost.

[25[153]] Bogomolov B.A Globalizatsiya: nekotori`e podxodi` k osmi`sleniyu fenomena. Vestn. MGU Ser. 12. Politicheskie nauki. 2004. №3.

[26[154]] O`sha joy.

SHunday qilib, globallashuv ko`p qirrali jarayon bo`lganligi uchun uni sharhlashda ancha muammolarga duch kelamiz. Buni bartaraf etish maqsadida jahonda globallashuv ta`siri ostida bo`layotgan jarayonlarni to`liq va mukammal tahlil etib ko`rishga to`g`ri keladi.

Globallashuv davrlari

Ta`riflardan birida globallashuv Er kurrasi bo`ylab yoyilayotgan kommunikatsiya va ayirboshlash tarmoqlar orqali va ular tufayli mintaqaviy xo`jaliklar, jamiyatlar va madaniyatlar bir biri bilan yaqinlashib, bir biriga singib ketganligini ifoda etadi, deyiladi. F.Tolipovning "global taraqqiyot deganda biz kishilar hamjamiyatlarining hayotiy faoliyati natijasida jahon miqyosida sodir bo`layotgan va butun insoniyat taraqqiyoti uchun tizimiy ahamiyatga ega siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, psixologik o`zgarishlar majmuini tushunamiz"[27[131]], degan ta`rifi globallashuvning asosiy jihatlarini qamrab oladi, deb hisoblaymiz.

Globallashuv alomatlari qadim zamonlardan beri kuzatiladi. Qadimgi va o`rta asrlar imperiyalari tarix qatlarida qolib qetgan bo`lsa-da, o`sha davrlardagi globallashuv tamoniga bo`lgan siljishlar saqlanib qoldi. Bunga bir misol Ipak yo`li bo`lsa, boshqa misol sifatida CHingizxon imperiyasida barpo etgan pochta xizmatini ko`rsatish mumkin. Ammo xususiy, tor ma`noda globallashuv, deb eng oxirgi davr yuritiladi. Bugun o‘zini yorqin namoyon qilayotgan globallashuv bir necha asrlik ildizlariga ega. XV-XVII asrlardagi geografik kashfiyotlar ko‘plab mamlakatlar va mintaqalarning xalqaro savdo doirasiga tortilishiga, sanoat revolyusiyasi esa umumiy aloqalarning yanada kuchayuvi, keng qamrab kasb etishiga iqtisodiy zamin yaratgan edi. Keyingi davlarda bunday munosabatlar yanada chuqurlashib bordi. XX asr boshlariga kelib yangi sifatiy xarakter kasb etgan va ijtimoiy xayotning barcha sohalarini qamrab olgan mazkur jarayon globallashuv tushunchasi orqali ifodalana boshlandi. Jumladan, globallashtirish jarayonlari antik davrdan buyon yoki boshqa variantlarda, dastlabki jahon bozorlari yoki yaxlit jahon xo’jaligi yuzaga kelgan vaqtlardan e'tiboran rivojlanib kelayotgani to’g’risidagi tasdiqni ham uchratish mumkin. Siyosiy kon'yunktura mahalliy Markazi direktori V.Fedorov[28] Globallashtirish butun dunyo – tarixiy jarayon sifatida XVIII asr boshlaridan e'tiboran yuzaga kelgan deb hisoblaydi.

Umuman olganda, xalqlar va ularning davlat tuzilmalari o‘rtasida har doim ma’lum aloqalar yuz berib kelgan. lekin ayrim olimlarning fikricha, globallashuv buyuk geografik kashfiyotlar natijasida va Yevropa madaniyati ta’sirida xvi asrdan boshlangan. kishilar kemalarda dunyoning ko‘p joylariga suzib bora boshlagan. lekin bu jarayon ko‘pchilikning hisoblashicha, xx asrda dunyoviy ko‘lam kasb etib o‘z yakuniga yetgan. Agar uning birinchi davri (xvi–xvii asrlar)da mamlakatlar o‘z-o‘zicha yetarli holatda bo‘lgani uchun ular o‘rtasidagi jarayonlar kuchsiz kechgan, xix asrda esa dunyoviy yaxlitlikka erishilmagan bo‘lsa-da, davlatlar o‘zaro keng aloqalarga kirishganki, bularning natijasi globallashuvni kuchaytirmasligi mumkin emasdi. uchinchi davr – xx asrda yuz bergan tarixiy voqealar 1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy krizisi, ii jahon urushi, davlatlar valuta aloqalaridagi oltin standartining tanazzuli, isroilning qo‘shni arab davlatlariga navbatdagi tajovuziga javoban neftga boy arab davlatlarining yoqilg‘i narxini oshirgani natijasida 1973–1974-yillardagi inqiroz, sovet davlatining barham topishi, «sotsialistik hamdo‘stlik» mamlakatlarida tinch kechib, tuzum tabiatini o‘zgartirgan voqealar va boshqalar globallashuv ko‘lamini yaqqol ko‘rsatdi.

Globalizatsiya 19-asrining 60-yilaridan boshlab yonqin namoyon bo`ldi. Boshqa fikrlarga ko`ra globalizatsiya 19-asrning oxirida boshlanib, o`tgan asrning oxirgi choragida

[27[131]] Tolipov F. Strategicheskaya rol TSentralnoy Azii v globaliziruyushemsya mire // Caucasus and Central Asia in the Globalization Process. International Conference/ 12-13 May, 2003, Baku. C. 169. Ravshanroq bo`lishi uchun iqtisodiy globallashuv jihatlari sifatida texnikaviy globallashuvni, ijtimoiy globallashuv doirasida huquqiy/axloqiy va diniy va mazkur barcha sohalarga taalluqli informatsion globallashuvni ko`rsatish joiz bo`lur.

[28] Русский предприниматель. 2002 г., январь, стр. 28.

jadallashdi.[29][132] Globallashuv transmamlakat korporatsiyalarining tez sur`atlar bilan kengayishi ortidan xo`jaliklarning "o`sish-yo-o`lish" dinamikasini ifoda etuvchi sistemik tendentsiyaning natijasidir, degan fikr bildirilgan.[30][133] O`z navbatida bu tendentsiya trasmamlakat korporatsiyalarning jadal o`sib borishi bilan bog`liqdir. Iqtisodiy kontekstda globallashuv tovarlar, sarmoya, xizmatlar va ishchi kuchi oqimini osonlashritish maqsadida davlatlar chegaralaridagi to`siqlarni bartaraf qilish yoki sezilarli darajada pasaytirishni anglatadi. Tor ma`nodagi globallashuv savdo-sodiq, bevosita chet el investitsiyalari, kapital oqimi, migratsiya orqali mamlakatlar xo`jaligining bir internatsional xo`jalikka intregrallashuvni anglatadi. Keng ma`nodagi globallashuvga g`oyalar, tillar va ommabop madaniyatning mamlakatlararo almashinuvi hamroh bo`ladi.

O`zbekiston globallashuv jarayonidan chetda qolmadi. Ipak yo`lining bir necha marshruti hozirgi O`zbekiston eridan o`tgan, Samarqand va Buxoro Ipak yo`lidagi yirik savdo markazlari sifatida jahonga tanildi. Hozirgi O`zbekiston eri xalqaro tijorat yo`llarining chorrahasi sifatida o`z ahamiyatini kech o`rta aslargacha saqlab keldi. Ushbu globallashuv natijasi o`laroq Markaziy Osiyo erlarida ma`naviy sohada diniy tolerantlik, ilm-fanga charqoqlik vujudga kelgan, islom diniy tafakkuri va grek falsafasi kirib kelgan bo`lsa, xo`jalikda ipakchilik va paxtachilik rivojlandi, muayyan mahsulot ekport qilindi. Salbiy oqibatlar ham yo`q emas edi – "miyalar sizib ketishining" ilk ko`rinishlari, yalpi ichki mahsulotning bir qismi markazga to`lov sifatida olib ketilishi, masalan.

Rossiya istilosi bilan globallashuv jadallalashdi va boshqa yo`nalish oldi. Turkiston oykumenasi deformatsiyaga uchradi. Iqtisodda paxtachilik va ipakchilik ko`lami oshgan, temir yo`llar va shular asosida paxtaga dastlabki ishlov berish, mexanik ishlab chiqarish paydo bo`lgan bo`lsa, turmush tarziga Yevropacha unsurlar kira boshladi va ko`payib bordi. Ma`naviy sohada ta`lim tizimini isloh qilish g`oyalari, yangi usul maktablari, dramaturgiya janri, teatr yuzaga keldi. Siyosiy sohada konstitutsiyaviy monarxiya, imperiya tabaalarining millati, dinidan qat`i nazar tenghuquqligi g`oyalari muhokama qilina boshladi.[31][134] Mustaqillik O`zbekiston uchun oykumenani kengaytirib xalqaro munosabatlarning to`laqonli qatnashchisiga aylanishga imkon yaratdi, respublika BMTga, ko`pchilik xalqaro shartnoma, konventsiya, ularga qo`shimcha protokollar va hokazolarga a`zo bo`ldi.

Xulosa o`rnida aytish joizki, globallashuv jarayoni zamonaviy fenomen sifatida o`z vazifasini qanday yo`l bilan bo`lsa ham ado etmoqda. Albatta, bunda ba`zi ma`lum va noma`lum (globallashuv bayroqdorlari ham deyish mumkin) kuchlar bu jarayonni sun`iy tezlashtirsalar ham yoki manfaat ko`rsalar ham yuqorida keltirilgandek millatlar ma`naviyati, mentaliteti, o`zgarishi yoki mustahkamlanishi, o`ziga xosligini saqlab qolishi qaysidir ma`noda mamlakatning o`ziga bog`liq bo`lib qoladi.

2-mavzu. Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari. Globallashuvda obyektivlik va subyektivlikning mutanosibligi

Reja:

1. Ilm fan va texnika taraqqiyoti masalalari.
2. Dunyo miqyosida ro‘y berayotgan globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari.

[29][132] Summary of the Annual Review of Developments in Globalization and Regional Integration in the Countries of the ESCWA Region by the United Nations Economic and Social Commission for Western Asia

[30][133] "Globalisation, the reformist Left and the Anti-Globalisation 'Movement", Takis Fotopoulos,democracy & nature: The International Journal of inclusive democracy, Vol.7, No.2, (July 2001)

[31][134] Bu mavzularda ko`p sonli adabiyot mavjud. Qarang, masalan: Maslakdoshlar./To`plam- T.- 1994; Adeeb Haleed. Jadeedism in Central Asia. Boston, 2000.

3. Insoniyatga tahdidlar va ularni hal etishda hamkorlikning roli.
4. Xulq atvor strategiyasi va taktikasida subyektivlikning namoyon bo‘lishi.
5. Jamiyatning yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga o‘tishi.
6. Globallashuvning obyektiv maqsadi.

Hozirgi kunda dunyoda ildam qadamlar bilan o`zgarib borayotgan, tobora insoniyat olamini o`z domiga tortib va ularning hayotiga chuqurroq kirib, milliy madaniyati va ma`naviyatiga ta`sir etayotgan globallashuv jarayoni yuz bermoqda. Bu jarayon natijasida esa, turli tsivilizatsiyalar, madaniyatlar to`qnashuvi sodir bo`lib, bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi oqibatida millatlar ma`naviyatiga tahdidlar solishiga sabab bo`lmoqda. Bu jarayonni ijobiy va salbiy mohiyatini terang anglagan Prezidentimiz Islom Karimov muallifligi asosida joriy yilda “Ma`naviyat” nashriyoti tomonidan chop etilgan “YUksak ma`naviyat-engilmas kuch” nomli asarlarining uchinchi bobida “globallashuv jarayonlari va ma`naviy tahdidlar” misolida alohida to`xtalib o`tganlar. Prezidentimiz ushbu asarda globallashuv fenomeni haqida quyidagicha yondashib, “bu jarayon mutlaqo yangicha ma`no-mazmundagi xo`jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda”[32][16] kabi o`z fikrlarni bildirib, masalani mohiyatini to`laroq ochib berganlar. Keling, shu o`rinda globallashuv so`zi o`zi nima ekanligi, to`g`rirog`i tub lug`aviy ma`nosini aniqlab olsak, “Global” atamasi frantsuz tilida global-“umumiy”, lotin tilida globus-“shar” degan ma`nolarni anglatadi. YA`ni, globallashuv “hammasini to`liq qamrab oluvchi” atama sifatida sharhlanishi mumkin. Global muammolarning paydo bo`lishi globallashuv kontseptsiyalarining shakllanishiga olib keldi. Hatto bu jarayon natijasida umuminsoniy muammolarni o`rgatuvchi fan-globallashuv (global studies) vujudga keldi. Bu fan markazida ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy muammolar turadi.

“Globallashuv jarayonining yana bir o`ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta`sir o`tkazishning nihoyatda o`tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog`lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar”[33][17]. SHunday bo`lsa ham, globallashuv jarayoni ta`siri ostida bu immunni yuzaga chiqarishda har bir davlatning milliy g`oya va mafkurasi alohida ahamiyatga ega. Albatta, bunda, mafkura negizi vatanga muhabbat, sadoqat, ishonch tuyg`ulariga yo`g`rilgan bo`lib, ajdodlarning asriy orzusi bo`lgan tinchlik va osoyishtalik, uni asrab-avaylash, mustahkamlash hamda asrlar osha davom etib kelayotgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an`analarimizni kelajak avlodlarigacha etib borishini ta`minlash, maqsadiga qurilgan bo`lgandagina, mafkuraviy immunitet yuzaga chiqadi.

So`nggi paytlarda, ayrim ko`zga ko`ringan g`arb mamlakatlari o`z maqsadlariga erishish yo`lida halqaro huquq me`yorlarini buzib, davlat va xalqlarning suverenitetiga qarshi chiqib, jahonda o`z tartiblarini o`rnatishni faollashtirib bormoqdalar. Bunga Iroq va Afg`onistonda olib borilgan urushlar, Qirg`iziston va O`zbekistondagi inqilobiy harakatlar yoki bo`lmasa yaqin kunlarda sodir bo`lgan Gruziya va Janubiy Asetiya o`rtasidagi ixtiloflar yaqqol misol bo`la oladi. G`arbning bu agressiv siyosatiga hech qanday halqaro tashkilot yoki davlat to`sqinlik qila olmadi.

Bundan tashqari, madaniyat sohasida ular o`z rivojlangan OAV lari orqali qolgan hududlarni o`z qarash, yondashuvlariga moslashtirib, qadriyatlarini singdirib bormoqdalar. Afsuski, bunday ta`sirlarga to`siq qo`yishning iloji yo`q. Sababi, bugungi kunda XXI asr buyuk texnologiyalar asri deb ham yuritilib, buning asosida hatto bir kichkinagina axborotning tarqalishi

[32][16] Karimov I. YUksak ma`naviyat-engilmas kuch. –T..: Ma`naviyat, 2008 yil. 111- bet.
[33][17] O`sha joyda, 113- bet.

ham ko`zga ko`rinmas darajada, tez sur`atlarda amalga oshirilmoqda. Bunda, “o`rgimchak to`ri” deb nomlanmish internetning xizmatlari ko`magi asosida dunyoning bir burchagida sodir bo`lgan biror bir voqea-hodisa tafsiloti dunyoning ikkinchi burchagiga yashin tezligidek, etib bormoqda. SHu bilan birga, kishilarning bundan boxabar va bexabar bo`lishi yoki axborotning biror “elementini” o`zlashtirishi salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Ammo bu erda, achinarli tomoni shundaki, axborot aniq va noaniq bo`lishi kishilarni chalg`itib qo`yayotir. SHu boisdan, hech ikkilanmay aytish mumkinki, axborot psixologik xavfsizlik tahdidining namoyon bo`lishi va uning insoniyat ongiga keskin ta`sir qilishi, mana shunday holatlarning negizida vujudga kelmoqda desak, mubolag`a bo`lmaydi. Bundan tashqari, SHarq uchun absurd bo`lib tuyulgan sifatlar ham kirib keldi. Bu esa, o`z-o`zidan yoshlar ongini zaharlanishi, o`z hayotiy-milliy qadriyat va urf-odatlariga, bundan ham xavflisi ma`naviyatiga xilof ravishda, chet el madaniyatini “ommaviy madaniyat” sifatida o`zlashtirayotganligi, yoshlarni g`arb foydasiga fikr, xulosa chiqarishlariga moyil qilib qo`ymoqda. SHuningdek, milliy tillar ayrim xorijiy tillar so`zlari, birikmalari bilan ifloslanmoqda. Insonlar bir xil ovqatlarni iste`mol qiladilar, bir xil kiyinadilar, bir xil fil`mlarni ko`radilar, ma`lumotlarni OAV dan oladilar. Bu holat umumiylikni yoki g`arblashuvni yuzaga keltirib, milliylikni unutilishiga, izdan chiqishiga, eng qo`rqinchlisi yo`qolishiga sabab bo`lmoqda. Ammo mana shunday vaziyatda insonlarning globallashuv jarayoni ta`sirida ma`naviy va mafkuraviy tahdidlarga mustahkam iroda bilan dosh berish va kurashish uchun ularda yagona imkoniyat mavjud bo`lib, bu mafkuraviy immunitet hisoblanadi. Bu o`rinda, mafkuraviy ta`sir haqida gap ketar ekan, buni biz birgina Prezidentimiz ta`biri bilan izohlashimiz mumkin, *“Globallashuv jarayonining yana bir o`ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta`sir o`tkazishning nihoyatda o`tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog`lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar”*[34[155]]. SHunday bo`lsa ham, globallashuv jarayoni ta`siri ostida bu immunni yuzaga chiqarishda har bir davlatning milliy g`oya va mafkurasi alohida ahamiyatga ega. Albatta, bunda, mafkura negizi vatanga muhabbat, sadoqat, ishonch tuyg`ulariga yo`g`rilgan bo`lib, ajdodlarning asriy orzusi bo`lgan tinchlik va osoyishtalik, uni asrab-avaylash, mustahkamlash hamda asrlar osha davom etib kelayotgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an`analarimizni kelajak avlodlarigacha etib borishini ta`minlash, maqsadiga qurilgan bo`lgandagina, mafkuraviy immunitet yuzaga chiqadi.

YUqorida keltirilgan mantiqiy xulosalardan so`ng, dono o`zbek halqimiz ta`biri bilan aytganda, guruch kurmaksiz bo`lmaydi albatta. Globallashuv jarayoni ham xuddi shunday, ya`ni, uning kamchilik tomoni bo`lgani kabi yutuq tomonlari bo`lishi tabiiydir.

Nega deganda, globallashuv jarayoni ta`siri mamlakatlar bir qancha muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. YA`ni, ma`lum maqsadlar yo`lida, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamkorlik yo`lini tutudilar. Bu esa, davlatlar, mintaqalar o`rtasida integratsiya jarayonlarini kuchayishi, halqaro munosabatlarni shakllanishi, ekologiyani buzilishi natijasida yuzaga kelgan tabiiy ofatlar mahsuli talofatlar vaqtida o`zaro ijtimoiy yordamlarni ko`rsatilishi yoki jahonshumul muammo sifatida qaralishi, ilm-fan yutuqlarini tezlik bilan dunyoning har bir eriga etib borish va rivojlanishi, xavfsizliklarga birgalikda kurash olib borilishiga sabab bo`lmoqda.

Bundan qizig`i shundaki, globallashuv jarayoni dunyoning har soniyada sergak turishini ta`minlaydi. CHunki, bugungi kunda ogohlik davr talabi hisoblanadi. Biror hududda sodir bo`lgan voqea va hodisa, yuzaga kelgan muammo bugun kelib bizda ham namoyon bo`lishi muqarrardir.

Globallashuvning ijobiy tomonlari:

[34[155]] Islom Karimov. YUksak ma`naviyat-engilmas kuch. Toshkent “Ma`naviyat”, 2008 yil. 113 bet.

- Jahondagi xalqlarning tinchlik uchun kurashi;
- Turli hil mamlakatlarning iqtisod-siyosat, fan-texnika, madaniyat, ta’lim va boshqa sohalardagi xamkorlik;
- Qurollanish poygasiga qarshi kurash;
- Terrorizm va giyoxvandlikka qarshi kurash;
- YUqumli kasalliklar epidemiyalariga qarshi kurash;
- Tabiiy ofatlar ya’ni zil-zila, suv toshqinlari, yong‘inlar, vulqon otilishi, sunami va boshqalardan zarar ko‘rgan aholiga boshqa mamlakatlarning beg‘araz yordami.

Globallashuvning salbiy tomonlari:

- Ekologik muammolar ya’ni ozon teshiklari er xaroratining oshib borishi, o‘rmonlarining kamayishi, ya’ni cho‘l va saxrolarning paydo bo‘lishi, orol dengizi fojiasi va boshqalar;
- Turli mamlakatlarga kasallik epidemiyalarini tarqalishi, ayniqsa OITS;
- Terrorizm va giyoxvandlikning oshishi;
- Ommaviy ma’naviyat tahdidi.
- Qurol va giyoxvand moddalar savdosining kengayishi va boshqalar.

Inson va insoniyat hayotining har bir davri, yili, kuni, daqiqalari o`z qadr qimmati, ma`nosi va murakkab muammolariga ega. Lekin bugungi kunda insoniyat boshdan kechirayotgan davr mutloq o`zgacha , mislsiz murakkab va ziddiyatli. CHunki, ayni shu davrga kelib insoniyat hayotida muayyan bir davr o`z xotimasiga etib, yangi davr boshlanayotganini ko`rsatadigan misli ko`rilmagan o`zgarishlar sodir bo`lmoqda, butun insoniyat taqdiriga bevosita ta`sir etuvchi murakkab va keskin muammolarni echish zarurati vujudga keloqda. Bu davr muammolarining murakkab o`ziga xosligi shundaki, unda nafaqat ayrim mamlakatlar, davlatlar, mintaqalarning ayrim siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va b. muammolari va xatto nafaqat G`arb yoki SHarq tsivilizatsiyalariga oid umumiy muammolar, balki butun insoniyatga va uning hayotining barcha tomonlariga oid murakkab va umumbashariy muammolar keskin ko`ndalang bo`lmoqda. Bugungi kunda butun insoniyat hayoti va mamoti masalasini qamrab olgan global muammolar misli ko`rilmagan dolzarbligi va keskinligi bilan maydonga chiqarkan, bu vaziyat avvalo G`arb va SHarq tsivilizatsiyalari ma`anaviy qadriyatlarini davr tarozusiga qo`yilmoqda.

Masalaning behad keskinligi va dolzarbligi atrof tabiatda sordir bo`layotgan inqirozli ahvolda (katastrofalarda) ham, siyosiy alg`ov-dalg`ovlarda ham, ijtimoiy va iqtisodiy krizis vaziyatlarida ham, kichik bir oilaning bola tarbiyasi yoki sog`liq bilan bog`liq muammolarida ham har qadamda ochiq-oydin namoyon bo`lmoqda. Bunday sharoitda harqanday inson oxirzamon haqida, o`z hayotining ma`no va maqsadi haqida chuqur o`yga tolishi tabiiy. Bunday sharoitda, kema xalokatga uchrayotgan xolatida bo`lgani kabi ko`pchilik taxlikada, o`zini har yoqqa urmoqda. Kimdir o`z vaandoshlarni qullikka sotib bo`lsa ham, jon jahdi bilan boylikka intiladi. Zero nazarida uni faqat boylik qutqaradi. Kimdir zo`r berib hukmronlik martabalari bo`ylab tinimsiz yuqoriga ko`tarilish yo`lini izlaydi. Go`yo yuqori martabaning mas`uliyati kamday. Kimdir maishatga intiladi. Kimdir bu sharoitdan qutulish yo`lini topa olmay, tushkunlikka tushadi, xastalanadi. Lekin mamlakat hayoti uchun jiddiy mas`uliyat hissini tuygan davlat rahbariyatining, chin ma`nodagi ziyolilarning, avvalo, faylasufning boshqalar tutgan yo`ldan borishga haqi yo`q. Zero , faylasuf chindan ham faylasuflikka da`vo qilsa, u yashash hikmatini, ya`ni to`g`ri yo`lni bilgan va boshqalarga uni ko`rsata oladigan odam hisoblanadi.

Globallashuv hodisasiga kim qanday (ijobiy yoki salbiy) munosabatda bo`lishidan qat`iy nazar bu jarayon hozirgi davrda avj olmoqda va ijtimoiy munosabatlarda o`z aksini

topmoqda. SHunga qaramasdan har qanday ongli inson globallashuvning ma`no va mohiyati nimada, globallashuv inson va insoniyatga nima beradi, bu uning kelajak taqdiriga qanday ta`sir etadi, globallashuvning mevasi bo`lgan umumbashariy tartibsizlanish (xaos) sharoitida inson, jamiyat, davlatlar to`g`ri yo`lni qanday topishi mumkin kabi savollarga tinimsiz javob izlashiga to`g`ri kelmoqda. CHunki , bu jarayon ham yaratish, ham vayronkorlik keltiradigan ziddiyatli jarayon ekani endilikda yuzaki qarashdayoq ko`rinib turipti. Agar bu globallashuv dunyoda har biri o`z qonuniy "men"iga ega bo`lgan tengxuquqli millatlarlarning hamjihat YAgona Umumiy Fikri , YAgona Umumiy Ezgu tuyg`ulari, YAgona Umumiy Irodasining shaklanishi yo`lidan ketayotgan bo`lsa, u holda insoniyat, qanchalar qiyin bo`lsa hamki, unga shaksiz shubhasiz va tinimsiz intilishi joiz. Zero bu YAgona ilohiy hikmatning idealidir. Lekin, jahon ijtimoiy sahnasida namoyon bo`layotgan hozirgi hodisalar - rivojlangan mamlakatlar olib borayotgan globallashuv siyosatining rivojlanayotgan mamlakatlarga etkazayotgan turli zararlari, ularning ikkiyuzlamachiligi, xususan, yordam berish bahonasida ularning tovar va resurs bozorlarini ochishga majbur qilib, o`z bozorlarini esa yopiq saqlashlari, umuman, jahon savdo tizimidagi barcha adolatsizliklar hozirgi globallashuv yuqorida nazarda tutilgan yuksak ma`nodagi globallashuv emas, balki buning aksi - tor manfaatparastlardan tashkil topgan egoelitar guruhning butun dunyo boyligiga ega bo`lishga intilishi yo`lida dunyo xalqini eng boylar va eng qashshoqlarga ajralib ketishiga, qashshoqlarga nisbatan "oltin milliard" genotsid siyosatining olib borilishida, milliy o`zlik o`rniga xalqaro ziddiyatlar va terrorchilik olovi yondirilayotganida va shu kabi ko`plab hollarda yuz ochayotgan o`ta salbiy jarayon ekanini ko`rsatmoqda.

Ko`pchilik olimlar globallashuvning dastlabki paytlarida masalaning asl mohiyatini yaxshi tasavvur eta olmaganlari uchun globallashuvga erkin savdo yo`lidagi to`siqlarni olib tashlaydigan va barcha milliy iqtisodiyotlarni jamul jam qiladigan (integrallaydigan) ijobiy hodisa deb qaragan edilar. Lekin, bugungi kunda bu globallashuv faqat rivojlangan mamlakatlarga foyda keltirib, rivojlanyotgan mamlakatlarga, ayniqsa, juda kambag`al mamlakatlarga inqiroz olib keluvchi hodisa ekani ma`lum bo`ldi. Bu, rus faylasufi I.I.Belyaevning ta`kidlashicha, globallashuvning keyingi mamlakatlarga nisbatan genotsid quroli bo`lib xizmat qilayotganini ko`rsatadi.[35][23]

Ushbu fikr va mulohazalar hozirgi globallashuvning mohiyatini falsafiy jihatdan yoritish zaruratini vujudga keltiradi. Bu borada oxirgi o`n yilliklar mobaynida olib borilgan kuzatish va izlanishlar nihoyatda ziddiyatlidir. Bizningcha, hozir kuzatilayotgan globallashuv va deyarli barcha global krizislar, ko`pchilik faylasuf va siyosatchilar to`g`ri xulosaga kelayotganlariday, aslida XX asrning 70 yillarida yuzaga chiqqan G`arb tsivilizatsiyasining yalpi krizisi bilan bog`liq. Bu krizisning o`zi esa XU11 - XU11 asrlardagi Ma`rifatchilik harakatining G`arb industrial jamiyatiga bergan impul`si (ta`sir kuchi) tamom bo`lganini, uning ta`siri ostida jamiyat katta bir tarixiy davrni bosib o`tib bo`lganini va endilikda u o`z taraqqiyot imkoniyatlarini batamom sarflab bo`linganini bildiradi.

YUqorida sanab o`tilgan global krizislarning fonida ikki jiddiy krizis - asosiy energiya Resurslarining tamom bo`layotgani va kapital substantsional shaklining funktsional-informatsion shakl bilan almashgani bilan qo`shilib, endilikda kapitalistik xo`jalik mexanizmi avvalgiday qola olmasligini, uning transformatsiyalanishi davri kelganini bildiruvchi krizis sodir bo`lgan edi.

O`z tsivilizatsiyaning keyingi taqdiri, kelajagi muammolari bo`yicha intensiv izlanishlar olib borgan G`arb faylasuflari, madaniyatshunoslari va jamiyatshunoslari endilikda kapitalizmning industrial taraqqiyot tsikli tamom bo`lgani haqidagi xulosaga kelgan edilar. XX asr oxiri va XX1

[35][23] Belyaev M.I.Kontseptsiya russkogo natsionalnogo gosudarstva. – M.: 2006.

asr boshlari G`arb ijtimoiy-ma`naviy hayotini xarakterlashda “post” birikmasi qo`shib ishlatilayotgan tushunchalar rang-barangligi, masalan, postiqtisodiy, postindustrial, postmodern, postkapitalistik, postpozitivistik, posttarixiy va h.k. aslida G`arb tsivilizatsiyasining so`nish pallasi, “kuz fasli” kelganini ifodalovchi tushunchalar edi. Zero, G`arb futurologlari endi bu tsivilizatsiyaning kelajagi qanday bo`lishini bashorat qila olmay qolgan edilar, - degan edi bu haqida U.Deyzard.[36][24] Rus faylasufi L.V.Leskovning tushuntirishicha ham kapitalistik formatsiya evolyutsiyasining dasturi yakun topgan , ya`ni endi u rivojlanish stimullariga ega bo`lmay qolgan edi. “Kapitalistik formatsiya o`z mavjudligi mobaynida ko`p krizislarni boshdan kechirgan , - deydi U. - Lekin oxirgi krizisning avvalgilaridan farqi shundaki, avvalgilarini kapitalistik xo`jalik yuritish ichki strukturasini qayta tashkillash orqali bartaraf etish mumkin bo`lib kelgan bo`lsa, keyingisini butun sistemaning o`ziga taalluqli bo`lgani uchun, uni (bu yo`l bilan) bartaraf etib bo`lmas edi.”[37][25] Demak, endilikda uning “faqat postindustrial, yoki postiqtisodiy tsivilizatsiyaga va integrallashgan ijtimoiy-madaniy tizimga o`tishi imkoniyatigina qolgan edi”-[38][26] deydi uning fikrini davom ettirganday YAkovets YU.B.

Kapitalning substantsional shaklidan funktsional-informatsion (komp`yuterlashgan) shakliga o`tish tufayli rivojlangan mamlakatlarda beshinchi, ya`ni informatsion-texnologik uklad vujudga keldi. Buning natijasida kapitalistik xo`jalikni tizim shakliga keltiradigan asosiy ziddiyat nisbatan bartaraf bo`ldi. Lekin, mutafakkirlar G`arb jamiyatining komp`terlashuvi o`zi bilan birga davlat boshqaruvining yoppasiga byurokratlashuvi va global politsiya hukmronligining qaror topishiga olib kelgan aksil tamoyilni ham keltirib chiqarganini ta`kidladilar. Masalan, J.Ellyul` shu jarayonning boshlanishidayoq “Byurokratik hokimiyat bilan chatishib oladigan informatika ijtimoiy hayotni metin kabi qotiradi. Bu yo`lning boshi berk (tupik) tarixiy yo`l ekani keyinchalik, uning oxiriga etilganidagina ma`lum bo`ladi. CHunki, bu yo`l juda yoqimli, engil, qiziqarli, soxta muvaffaqiyatlarga boy bo`lib, uni rad etishi qiyin. Lekin bu metin qotib, qattiq “siqqanidan keyin” haqiqat ravshanlashadi, lekin unda kech bo`ladi.”[39][27]

Ko`pchilik mutafakkirlar, xususan, rus faylasuflari va siyosatshunoslari[40][28] hozirgi davrning aksariyat global muammolari, shu jumladan sotsialistik tizimning mag`lubiyati, ya`ni sobiq Ittifoqning parchalanishi ham G`arb peshvolari o`z tizimini krizisidan chiqarish maqsadida tanlagan yo`lning natijasi ekani haqida, bizningcha, to`g`ri fikrlarni oldinga surdilar. Masalan, A.Kuz`mich o`zining maqolasida “bizdagi qayta qurish – jahondagi qayta qurishning bir qismi. Xomashyo va energiya tanqisligi bozir iqtisodiyotiga ega bo`lgan rivojlangan mamlakatlarga qanday xavf-xatarlar olib kelishi mumkinligini ko`rstatib bergan 1973 yil krizisi qayta qurishning birinchi bosqichi edi” deb yozgan edi.[41][29] F.Fukuyamaning shu muammoga maxsus bag`ishlab yozgan kitobida bu fikr yaxshi ochib berilgan.[42][30] Lekin, biz bu erda sotsialistik tizimning mag`lubiyatga uchrashida faqat shu tashqi, G`arb ta`sirigina emas, balki uning o`z ichki krizisi ham katta rol o`ynaganini hisobga olish joiz deb o`ylaymiz. Ammo bu masala maxsus ishlarda yoritilgani, shuningdek yanada maxsus va chuqur yoritilishi taqozo etiladigan masala bo`lgani

---

[36][24] Dayzard U. Nastuplenie informatsionnogo veka.// Novaya texnokraticheskaya volna na Zapade. - M.: Progress. 1986.
[37][25] Leskov L.V.Filosofiya nestabilnosti. Vestnik MGU. Seriya 7. Filosofiya. №3,2001. 40-61.
[38][26] YAkovets YU.V. Sikli`. Krizisi.Prognozi.- M., 1999.
[39][27] Ellyul J. Drugaya revolyutsiya. // Novaya texnokraticheskaya volna na Zapade. -M.: Progress. 1986.
[40][28] Masalan, qarang: Sergey Batchikov. Globalizatsiya: upravlyaemqy xaos. //Agentstvo politicheskix novostey. 7 aprel. 2009 y. http://www.apn.ru/publications/article19369.htm; Kuzmich A. Rossiya i ri`nok (V svete sovetskogo i mejdunarodnogo prava). // Voskpesene, 1990, N 4, shuningdek, A.Kuzmich. Zagovop mipovogo pravitelstva (Rossiya i "zolotoy milliard"); Leskov L.V. Filosofiya nestabilnosti. Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 7. Filosofiya. №3,2001.Sergey Kara-Murza Kontseptsiya "zolotogo milliarda" i Noviy mirovoy poryadok.// http://www.philos.msu.ru/vestnik/philos/art/2001/leskov/ philos.htm va boshqalar.
[41][29] Kuzmich A. Rossiya i rinok (V svete sovetskogo i mejdunarodnogo prava). // Voskpesene, 1990, N 4. SHuningdek, qarang: A.Kuzmich. Zagovop mipovogo pravitelstva (Rossiya i "zolotoy milliard"). M.:1992.
[42][30] Fukuyama F. Konets istorii i posledniy chelovek. Perevod s angliyskogo M.B. Levina. Publikuetsya po izdaniyu OOO «Izdatelstvo AST», 2004.

uchun biz unga boshqa to`xtalmaymiz. Ammo SSSRning parchalanishi olamshumul krizisni boshdan kechirib turgan G`arb tizimining manfaatlariga muvofiq kelgani shubhasiz. Zero, ayni shu davrda G`arb futurologlari u erda tsivilizatsiya katta xavf ostida ekani haqidagi xulosalarga kelgan edilar. Masalan, postindustrializmga bag`ishlab yozilgan kitoblardan birining muallifi, fransuz sotsiologi Alen Turen "Xavf mavjudligi shubhasiz. To`kin-sochin yashashga odatlanib qolgan bizning jamiyatimiz o`zligini saqlab qolish qayg`usida xuddi SHarqiy Rim imperiyasida bo`lgani kabi tobora inqiroz sari cho`kib borayotgani ko`rinib turipti,"[43][31] - deb yozgan edi.

Mutaxassis olimlarning ko`rsatishlaricha, ayni shu munosabat bilan qirq yilcha avval G`arb tanlagan bu yo`l ilgarigi "yumshoq" keynscha sotsial kapitalizmni qayta qurish va uning asosiga yangi fundamentalistik neoliberalizm[44][32] mafkurani qo`yish strategiyasi ishlab chiqilgan.[45][33] Bu mafkura "manba`ga qaytish" deb talqin etilgan va D.Xarvining "Neoliberalizmning qisqacha tarixi" nomli kitobida yoritilgan. Ijtimoiy ong uni qabul qila olmagan edi. Zero unda avvalo ilgarigi klassik liberalizm pozitsiyasiga ham, yangi Reformatsiya g`oyalariga ham, dastlabki xristianlik g`oyalariga ham zid keladigan - universal gumanistik ideallardan voz kechishdan tortib to yangi budparastlikka qadar olib keladigan fundamentalistik kontseptsiya o`z ifodasini topgan edi.[46][34] Ayni shu jarayonni nazarda tutarkan, Amerikaning taniqli faylasufi E.Toffler o`zining "Hokimiyatning siljishi" (1990) nomli kitobida "Er qimirlashidan oldin uning tektonik qatlamlarida siljish bo`lganiday, jahon tarixida juda noyob hodisalardan biri sodir bo`lmoqda - hukmronlikning o`z mohiyati o`zgarmoqda"[47][35] deb yozgan edi.

Kelgusi jarayonlar bu siljishning mohiyatini yanada aniqroq ko`rsatmoqda. AQSH rahbarligi[48][36] ostida amalga oshirilayotgan globallashuv jahon iqtisodiy tizimini, xalqaro xuquqni, madaniyatni va millat va elatlar statusini tubdan o`zgartirish orqali taraqqiyot paradigmasini o`zgartirishga, dunyoda shu yangi mafkuraga muvofiq yangi tartib o`rnatishga urinishning natijasidir.[49][37] U tez orada hammaga taalluqli muhim ahamiyat kasb eta boshladi. CHunki, endilikda barcha madaniyatlar o`zligini saqlash uchun modernlashishga, ya`ni modernlashgan G`arb institutlari va texnologiyalarini o`z hayotlariga joriy etishga majbur bo`lgan edilar.

G`arb mafkurachilari globallashuv barcha mamlakat va xalqlarni jipslashtiradigan progressiv jarayon ekani, agar rivojlanayotgan mamlakatlar taraqqiy etishni , kambag`allikdan qutulishni istasalar ularning rejalariga amal qilishlari kerakligi, buning uchun hech qanday davlatlar aralashmaydigan erkin umumiy bozorlar tashkil etilishi ko`p ijobiy oqibatlarga olib kelishi haqidagi fikrlarni oldinga suradilar.

Lekin bunday bozorlar allaqachon shakllanib bo`lgan va ularni tovar qiymati o`rniga uning ekvivalenti amal qiladigan deyarli yagona pul tizimi **boshqara boshlagan** edi. Boshqa tomondan qaraganda , chindan ham bu bozorlar ko`pchilik mamlakatlarning jadal iqtisodiy rivojlanishiga yordam berdi ham. Lekin, xalqaro savdo-sotiq faqatgina o`z iqtisodiy taraqqiyotiga foyda keltiradigan mamlakatlar eksportiga yordam berishini va bu endilikda ekologik hamda

---

[43][31] Turen A. Ot obmena k kommunikatsii: rojdenie programmirovannogo obshestva. // Novaya texnokraticheskaya volna na Zapade.- M.: Progress. 1986.

[44][32] Neoliberalizm - nem. tilida Neoliberalismus. G`arb iqtisodiyot fanida liberalizmning o`rniga kelgan yo`nalish. U iqtisodiy jarayonlarda erkin raqobatni davlat nazorati bilan qo`shib – "raqobat mumkin qadar, reajalashtirish zaruriyat qadar" printsipiga ko`ra amalga oshirilishi kerakligini asoslovchi tamoyil sifatida ta`riflanadi.

[45][33] Globalizatsiya - upravlyaemi`y xaos / Sergey Batchikov // Ekonomicheskie strategii. - 2008. - N 4. - S.30-36.

[46][34] Belyaev M.I.Kontseptsiya russogo natsionalnoo gosudarstva. - M.,2006

[47][35] Toffler, Elvin. Tretya volna. -M.: AST, 2004 — 784 c.

[48][36]Zbignev Bjezinskiy. Velikaya shaxmatnaya doska (Gospodstvo Ameriki i ego geostrategicheskie imperativi`). Perevod O. YU. Uralskoy. - M.: Mejdunar. otnosheniya, 1998.

[49][37] Batchikov S. Globalizatsiya: upravlyaemi`y xaos. Agentstvo politich.novostey http://www.apn.ru/publications/article19369.htm 7 aprel. 2009.

resurslar krizisi sharoitida kechayotganini hisobga olish zarur. SHuning uchun bunday bozorning yaratilishi istalgan yoqimsiz mamlakatni bir zumda bankrot qila oladi.[50][38]

Xatto, ba`zi mutafakkirlarning fikrlariga ko`ra, global hokimiyat (davlat) shakllangan bo`lmasa hamki, butun dunyoni boshqarayotgan global boshqaruv tizimi shakllanib bo`lgan va u faoliyat bajarmoqda. Bu tizim asosida kam sonli umumjahon institutlari – Jahon Valyuta Banki, Jahon Banki, Butun jahon savdo tizimi hamda butun dunyo muammolarini echayotgan bir xovuch egoelita yotadi, taqdiri ular tomonidan hal etiladigan juda katta ko`pchilikning esa bu erda ovozi o`tmaydi. Bu globallashuv siyosatining ko`pchilikdan iborat kishilar, tashkilotlar va mamlakatlarni shu ozchilikning qo`g`irchog`iga aylantirish quroli bo`lib xizmat qilayotganini ko`rsatadi. Albatta, bular haqida odatda rasman gapirmaydilar, aksincha, "bizning maqsadimiz - kambag`allikni umuman yo`q qilish" degan gaplar aytiladi, aslida esa "hamma ekkanini o`radi", "bo`lib tashla va hukmronlik qil" shiorlari ostida amal qilinadi. Zero hozirgi davr voqealar rivoji va mantiqi ayni shunday xulosalarga olib keladi.

CHindan ham neolberalistik fundamentalizm siyosati iqtisodiy globallashuv orqali jahon iqtisodiy tizimini, xalqaro huquq tartibotini hamda millat va xalqlarning madaniyati va statusini o`zgartirish yo`li bilan butun insoniyatni ikki katta irqqa – o`ta boylar va o`ta kambag`allar irqiga ajralib ketishiga olib kelmoqda. Tabiiyki, buning oqibatida hech bir millat, mamlakat, xalq o`zligini saqlab qola olmaydigan yangi tartiblashuv vujudga kelmoqda.

YAngi tartiblashuv tufayli transnatsional korporatsiyalarning (TNK) jahon iqtisodiy tizimi xo`jayinlari bo`lib olganlari ham shu xulosani dalillashga xizmat qiladi. Ma`lumki, TNK jahondagi ishlab chiqarish fondlarining asosiy qismini va moliya oqimini, shuningdek, amalda butun yuqori texnologiyalar potentsialini o`z nazoratlari ostiga olganlar. Ayni shu sharoitda insoniyat intellektual va tabiiy resurslarini "so`rib oladigan nasos" ishga tushirilgan, endilikda bu resurslar ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan mamlakatlarga osongina oqib o`taveradi. Natijada boylarning yanada boyishi, kambag`allarning esa yanada qashshoqlashishi kuzatiladi. TNK esa o`z iqtisodiy manfaatlarini cheklashni aslo istamaydilar.[51][39]

Ayni shu jarayonlar, bizningcha, hozirgi **iqtisodiy**, ayniqsa **moliyaviy (finans) krizislarda** va ular bilan uzviy bo`lgan turli siyosiy kuchlar orasida nizolarning keskinlashuvida, ayrim xalqlar o`rtasidagi qon to`kilishlarda o`z ifodasini topayotgan **siyosiy krizislarda ham** namoyon bo`lmoqda. Xatto keyingilarining keskinligi ekologik krizisnikidan kam bo`lmayapti. G`arb olimlari mazkur holatni ayrim davlatlar, ularning siyosiy rahbarlari, yoki diplomatlarning xatolari deb ko`rsatmoqdalar. Lekin bugungi kunda ko`pchilik olimlar, siyosatchilar, diplomatlar, tadbirkor-biznesmenlar va h.k larning butun e`tibori masalaning tub mohiyatiga emas, uning tashqi shakliga qaratilgan. Ular mazkur xaosdan (tartibsizlikdan, sirli qorong`ulik qa`ridan) qanday tartiblanish kelib chiqishini anglashga harakat qilmoqdalar. Vaholanki, poydevoriga yuksak ma`naviyat qo`yilmagan tartiblanishdan ijobiy natija chiqmasligi aniqroq. SHunday vaziyatda 2008 yilda jahon miqyosida boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning O`zbekistonga ta`sirini bartaraf etish yo`llari va choralari bo`yicha o`z vaqtida ishlab chiqilgan dasturning ahamiyati kattaligiga alohida e`tibor berish[52][40] va ayni paytda siyosiy xushyorlikni ham esdan chiqarmaslik joiz.

Zero, G`arb tsivilizatsiyasi peshvolarining, ayniqsa AQSHning o`z krizislaridan chiqish uchun tanlagan yo`li nafaqat ijtimoiy hayotning byurokratlashtirilgani, politsiyalashtirilgani, jahon bozorining o`zlariga bo`ysundirilgani, globallashuvni o`zlaridan boshqa jamiyatlarni iqtisodiy va

[50][38] Qarang: Sergey Batchikov.Globalizatsiya: upravlyaemi`y xaos.Agentstvo politich. novostey http://www.apn.ru/publications/article19369.htm 7 aprel. 2009.
[51][39] Leskov L.V. Vestnik MGU. Seriya 7.Filosofiya. №3, 2001.42-b.
[52][40] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. T.-O`zbekiston – 2009.

ma`naviy zaiflashtirish quroliga aylantirilgani bilan, balki jahon miqyosida buzg`unchi g`oyalarni oshkora tarqatilgani, va, ayniqsa, halqaro terrorchilik urug`ini sochilgani bilan ham ayanchlidir. G`arbning Derrida, Bodriyar, Jijek, Bak-Mors, Groys kabi taniqli mutafakkirlari xulosalariga ko`ra globallashayotgan dunyo terrorizmdan mustaqil emas, aksincha, terrorchilik aynan uning maxsulidir. Endilikda xalqaro terrorchilik hozirgi davr "ilg`or" insoniyati **ma`naviy qiyofasini** boricha, oshkor ko`rsatmoqda. "Terrorchilik ham ekzotik hodisa bo`lmay qoldi, - deb yozadi bu haqida Subbotin Aleksandr Alekseevich va Subbotin Aleksey Savel`evich, - u ijtimoiy ongning hamisha bezovtalikda yashash muhitga aylandi."[53][41] Bodriyarning ta`kidlashicha esa, AQSH ko`pdan buyon "butun dunyoga terrorcha tasavvurlarni singdirib kelmoqda".

SHularni nazarda tutarkan, "Mohiyatan terrorcha tizim bo`lgani uchun o`rnatilayotgan bu yangi tartibot uzoq vaqtdan buyon muvaffaqiyat bilan zo`ravonlikni dunyoga eksport qilish bilan shug`ullanib keldi, -"[54][42] deb yozadi rus faylasufi M.Riklin. - 11 sentyabr` veqeasi esa globallashayotgan dunyoda bu siyosat bumerang qonuniga ko`ra o`z xo`jayiniga, ya`ni AQSHning o`ziga qarshi ham ishlashi mumkinligini ko`rsatib berdi.[55][43] Rus siyosatshunosi Sergey Batchikov esa "YAngi terrorcha tartibotga qarshi qaratilgan bu terrorni globallashuv tufayli repressiya qilingan va kamsitilganlar nafratining ifodasi,"-[56][44] deb xarakterladi. YUqoridagilar globallashuv siyosati millatlararo, mamlakatlararo, xalqlararo ziddiyatlarni keskinlashtirish yo`li ekanini ko`rsatadi.

Bu esa G`arb, xususan, AQSH rahbarligi ostida amalga oshayotgan globallashuv xaosni vujudga keltirsa hamki, ammo uni o`zi istagan tartibga solib bera oladigan attraktorlarni yaratish qo`lidan kelmasligini ko`rsatib berdi. SHuning uchun bu tizim, J.-P.Kantenning[57][45] to`g`ri ta`kidlashicha, sodir bo`layotgan hodisalarga to`g`ri diagnoz qo`yishga qodir emas. Vaholanki bu, ko`pchilik faylasuflar va siyosatshunoslar to`g`ri ko`rsatayotganlaridek, butun dunyoda G`arbni qanoatlantiradigan yangi tartibotni o`rnatishdangina iborat bo`lgan oddiy bir strategiyaning amalga oshirilishi ham emas, balki butun G`arb tsivilizatsiyasi endi misli ko`rilmagan axloqiy inqirozga ham uchraganining ifodalovchi jarayonning ifodasi hamdir. Zero, G`arb peshvolari va mafkurachilari o`z tsivilizatsiyalariga tegishli evolyutsion ziddiyatlarini qisman bo`lsa ham bartaraf etish va o`z tuzumlarining umrini uzaytirish maqsadida **"oltin milliard"** deb nomlangan fashistona dasturni[58][46] ham ishlab chiqqani ham ma`lum bo`ldi. Bu dastur asosiga demografik krizis muammosi qo`yilgan bo`lib, unda faqat shu "oltin milliard"ga kiradigan tanlangan, sara odamlarnigina saqlab qolishga harakat qilish, boshqalarning esa "biologik klon"larga aylanishi, yoki o`z-o`zidan yo ataylab qirilishi nazarda tutiladi.[59][47]

Albatta "oltin milliard" degan tushuncha hech qaysi rasmiy xujjatlarda uchramaydi, u bir majoziy tushuncha xolos. Lekin, hozirgi davr ko`pchilik rus olim, siyosatchi va mutafakkirlari, masalan S.G.Kara-Murza, M.I.Belyaev, Sergey Batchikov, P.Xomyakov va boshqa ko`pchilikning mutaxassis olimlar, faylasuf va siyosatchilar fikrlariga ko`ra bu tushunchaning ishlatilishida asos yo`q emas. Masalan, turli ijtimoiy tizimlar tarixini maxsus o`rganish bo`yicha ixtisoslashgan S.G.Kara-Murzaning tushuntirishicha, keyingi vaqtlarda bu tushunchaning juda keng tarqalayotgani va u Yevropa hamda dunyoning boshqa rivojlanayotgan "birinchi mamlakatlari"ning "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot" tashkilotiga kirgan 24 mamlakat xalqi nazarda tutilayotgani hisobga

---

[53][41] Subbotin Aleksandr Alekseevich, Subbotin Aleksey Savelevich. Sleduet li dojidatsya kontsa istorii? Kaliningrad. 2007.// http://spkurdyumov.narod.ru/Philos.htm Mail to: succeder@list.ru

[54][42] Ri`klin M. Dekonstruktsiya i destruktsiya. Besedi` s filosofami. M.: Logos. 2002.

[56][44] http://www.apn.ru/publications/article19369.htm 7 aprel. 2009.

[57][45] Kanten J.-P. Mutatsiya-2000. // Novaya texnokraticheskaya volna na Zapade. M.: Progress. 1986.

[58][46] Kuzmich.A. Rossiya i pi`nok (V svete sovetskogo i mejdunapodnogo ppava). // Voskpesene, 1990, N 4, a takje v knige A.Kuzmich. Zagovop mipovogo ppavitelstva (Rossiya i "zolotoy milliard"). M. 2000.

[59][47] Belyaev M.I.Kontseptsiya russkogo natsionalnogo gosudarstva. - M.,2006.

olinsa, shunday kontseptsiya mavjudligi haqidagi fikrlarda asos mavjudligini inkor etib bo`lmaydi. “Ushbu kontseptsiyani qabul qilish yo qilmaslik axloloqiy va xatto diniy nuqtai nazarga bog`liq, - deydi U. – Lekin bu g`oya xristianlikka (shu jumladan, islomga va ayniqsa buddizmga) mutlaqo ziddir.”[60][48] Bir so`z bilan aytganda, XX1 asr bo`sag`asida G`arbda radikal mal`tuschilik kontseptsiyasi qayta tug`ildi.

Rossiya siyosatchilaridan va ziyolilaridan bir qismi 90 yillarda yangi liberalizm va Yevropamarkazchilik mafkurasi ta`sirida ushbu utopiyani qabul qilgan va uning targ`ibotchilariga ham aylangan edi.”[61][49] Rossiya siyosiy agentligi yangiliklarida o`z izlanish natijalarini e`lon qilgan S.Batchikov ham “90 yillarda neoliberal globallashtirish tashviqotiga berilgan rus siyosatchilar va ziyolilarining bir qismi etakchi G`arb sotsiologlarining bu boradagi faktlarni aytmay kelishganida ayblaydi.”[62][50] Lekin, umuman olganda, BMT ma`lumotlariga ko`ra ham Erda bor xomashyo miqdori va energiya resurslari (optimal ishlatilsa) faqat 1 mlrd kishi uchun etarli. Vaholanki, 2000 yil va undan keyin aholi soni 8 mlrd. dan oshishi kutiladi. Bundan tabiiy ravishda o`sha “oltin milliard”ning AQSH, YAponiya, IHMlariga kiruvchilardan tashkil topishi, asosiy xomashyo va energiya manbalarining egalari bo`lgan qolgan mamlakatlarning aholisi esa yuqoridagilarning koloniyalariga aylanishi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

G`arb mutaxassis olimlari shularni nazarda tutib va qolgan 7 mlrd. aholini tizginda tutib turish mumkin emasligini hisobga olib, XX asrning 90 yillarida davlatlarni “internatsionallashtirish va ularni bir biri bilan bog`lash” deb nomlangan yangi nazariyani ishlab chiqdilar. Bu nazariya mohiyatan kapitalni, tovarlarni va ishchi kuchini, oxir oqibatda esa butun xomashyoni ham yagona markaz tomonidan taqsimlanishi yo`lga qo`yiladigan va bu ishda TNKning xalqaro qurolli kuchlari “tartib va barqarorlik” o`rnatadigan jahon markazini yaratishni ko`zda tutadi. Uning amaliy dasturi esa Erning tabiiy va energetik resurslari ustidan nazorat qilishni jahonning sanoat-moliyaviy elitasi qo`liga topshirishni ko`zda tutadi, davlatlarning o`z tabiiy boyliklariga bo`lgan suverenitetini bekor qiladi, ya`ni diplomatlar xomashyolarning milliy “uylar”ga tarqalib ketishi xavfini olish maqsadini oldinga suradi.

“Oltin milliard” dasturining asosiga qo`yilgan demografik krizis muammosi akademik S.P.Kapitsa[63][51] tomonidan ham nazariy jihatdan o`rganilgandi. Uning insoniyat populyatsiyasining o`sishi qonunini tadqiq etib, chiqargan xulosasiga ko`ra 2030 yilga qadar planeta aholisi yo o`sishdan to`xtashi kerak, yoki uning depopulyatsiyasi (populyatsiya sifatida xalok bo`lishi) muqarrar.[64][52] Vaholanki, bular, o`z navbatida, ocharchilik, pandemiyalar (keng ko`lamli epidemiyalar), urushga olib keluvchi konfliktlarga va sh.k. olib kelishi kutiladi. SHuning uchun Rim klubi yordamida “oltin milliard” dasturi ishlab chiqilgani haqidagi fikrlarda asos bor.

Albatta, bu yangi strategiya, garchi, xatto u chetlab o`tilishi mumkin bo`lmagan zarurat ekani ilmiy asoslab berilgan taqdirda ham, u “oltin milliard” doirasiga kirmaydiganlar tomonidan qabul qilinishini tasavvur ham qilib bo`lmaydi. Uzoqni ko`ra biladigan ko`pchilik G`arb siyosatchilari bu katta ko`pchilikning reaktsiyasi boshqacha bo`lishini – jahon tsivilizatsiyasining parchalanishi, xalok bo`lishi ehtimoli juda katta bo`lishini bashorat qilmoqdalar.[65][53] Bu esa global tsivilizatsion xalokat davri kelganini bildiradi. Aslida bu so`nggi xulosa yangilik emas. Zero barcha dinlarda bunday davr kelishi bashorat qilingan va u “oxir zamon” haqidagi esxatologik ta`limotlarda o`z ifodasini topgan. SHuning uchun bunda asl muammo kim saqlanish huquqi va imkoniyatlariga

[60][48] Kara-Murza S. Kontseptsiya "zolotogo milliarda" i Novi`y mirovoy poryadok.// http://burkina-faso.narod.ru/kara/oro 2.htm

[61][49] O`sha erda.
[62][50] Qarang: // http://www.apn.ru/publications/article19369.htm.
[63][51]Qarang: http://www.keldysh.ru/papers/2000/prep73/prep2000_73.html
[64][52] Leskov L.V. Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 7. Filosofiya. №3, 2001.40-61 -b.
[65][53] Hantington S. The Clash of Civilizations and the emaking of New World Order. N. Y., 1996.

ega bo`lishi yoki ega bo`lmasligi kerakligida emas, balki oxiratga qanday ma`naviy qiyofa bilan borishda ekanini kimlardir hamon fahmlay olmay turganidadir. Lekin, endilikda G`arb faylasuflari va ruhshunoslari orasida ham mazkur krizisdan qutulish yo`li sifatida yoshlarning ongida revolyutsiya sodir etish, ularning dunyoqarashini insonparvarlashtirish zarurligi yo`lini ko`rsatayotganlar ham bor. Masalan, ushbu muammoga turli tomondan yondoshuvlar Timoti Liri, Robert Uilson, Stanislav Grof kabilar tomonidan oldinga surilgan.[66][54] Biz ham ayni shu xulosa tarafdorimiz. Ammo bu niyatlar qachon va qanday amalga oshishi hozircha noma`lum. CHunki, XVII asrlardan buyon shakllanib, rivojlanib, amaliyotda qo`llanib kelingan dunyoqarashning tub o`zgarishi qiyin.

3-mavzu. Siyosiy jarayonlarning globallashuvi. Siyosiy institutlarning globallashuvi

Reja:

1. Globallashuv va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi
2. Siyosiy jarayonlardagi integratsiya.
3. Dunyoviy hokimiyat tarmoqlararo hokimiyat (BMT, NATO xalqaro valyuta fondi va jahon banki) tizimining ahamiyati.
4. Suverinitetning qaror qabul qilish global tizimining muhim muammosi.
5. Global siyosiy tizimlar doirasida demokratiyaning yangi shalki – manipulyativ demokratiyaning paydo bo‘lishi.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to‘la ixotalanib olgan birorta ham davlat yo‘q, deb to‘la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a’zo bo‘lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta’siriga ko‘proq tushib qolishi mumkin. Bunday g‘ayri ixtiyoriy ta’sir esa ko‘pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni tan olish kerak — bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan ham shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

SHu ma’noda, globallashuv hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.[67]

Globallashuvning turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma’naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog‘liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o‘rganish lozim. Bu hodisani chuqur o‘rganmay turib unga moslashish, kerak bo‘lganda, uning yo‘nalishini tegishli tarzda o‘zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o‘rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma’naviyatini tog‘dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo‘yish bilan baravar bo‘ladi.

[66][54] Qarang: Jurnal «Politicheskiy klass», № 9, sentyabr, 2006 y.
[67] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. 111-бет.

Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o‘tkazgan va o‘tkazayotgan tadqiqotlarni kuzatish bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan darak beradi. Globallashuv milliy ma’naviyatga ham ta’sir o‘tkazadi. Har qanday siyosat, jumladan, iqtisodiy siyosat va ma’naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo‘lgandagina muvaffaqiyat keltirishini nazarda tutsak, bu masalada olimlarimiz siyosatchilarimizga etarli darajada ko‘mak berishlarini e’tirof etishga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati ko‘proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak, globallashuvning mohiyati, yo‘nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq hamda tahlil qilish zarur. Aynan shu jarayonni chuqurroq tahlil etish orqali siyosatchilarning to‘g‘ri yo‘l tanlashi va qarorlar qabul qilishi uchun imkoniyat yaratish mumkin.

Globallashuv turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma’naviyati odamlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchayishidir.

Mazkur atamaning mazmun-mohiyati xususida bahs-munozara davom etayotgan, bu borada yagona umumiy qarash shakllanmagan bo‘lsa-da, lekin gumanitar ilmning turli sohalarida, chunonchi ijtimoiy fanlarda muayyan konsepsiya va yondashuvlar mavjud.[68]

Dunyoning mafkuraviy manzarasi deganda, jamiyat taraqqiyoti qonunlari, uning rivojlanish tendensiyalarini muayyan ijtimoiy guruh, etnik birliklar, siyosiy kuchlarning o‘ziga xos manfaatlaridan kelib chiqib talqin qilish va unga asoslangan holda insoniyat istiqbolini belgilashga qaratilgan mafkuraviy tizimlar majmui tushuniladi.

Tarix o‘zga hududlarni zabt etish maqsadida olib boriladigan harakatlar doimiy takomillashib, qo‘llanadigan usul va vositalar mukammalashib borganini ko‘rsatadi. Bugungi kunda esa ushbu vositalarning miqdoriy va sifatiy ko‘rsatkichlari yanada murakkab xarakter kasb etmoqda.

Insoniyat to‘plagan urush qurollari butun Er sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo‘q qilib tashlash darajasiga etdi. SHunday bo‘lsada, kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi davrida turli siyosiy kuchlar va harakatlarning mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilishi oqibatida mutlaqo yangicha sifatga ega bo‘lgan jarayonlar ham kuzatilmoqda. Bu o‘z rivojlanish tarixiga ega dunyoning mafkuraviy manzarasining bugungi kundagi o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab bermoqda.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk davrlarida deyarli barcha xalqlarda mifologiya universal xarakterga ega bo‘lgan bo‘lsada, bir tomondan, o‘ziga xos xususiyatlarga ega ijtimoiy guruhlar va ularning ayricha manfaatlari ifodasi bo‘lgan mafkuraviy tizimlar shakllanmagani, ikkinchi tomondan, Er yuzining turli nuqtalari o‘rtasidagi aloqalar rivojlanmagani, kishilik jamiyati yagona organizmni tashkil etmagani uchun dunyoning yaxlit mafkuraviy manzarasi haqida gapirish mumkin emas.[69]

Xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar kuchsiz bo‘lgan bir davrda monoteistik dinlarning yuzaga kelishi, ularning o‘z hukmronligini o‘rnatish yo‘lida olib borgan kurashi natijasida dunyoning diniy qarashlar ustuvor bo‘lgan ilk mafkuraviy manzarasi shakllandi.

Jahon dinlari tarqalgan hududlar nisbatan barqarorlashgan (to‘g‘rirog‘i muayyan diniy ta’limotlarni yoyish uchun olib borilgan urushlar asosan to‘xtagan) bir sharoitda dunyoda iqtisodiy hukmronlik uchun kurashning boshlanishi, ilmiy bilimlarning rivojlanishi, xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi aloqalar qamrovining kengayishi dinning g‘oyaviy regulyatorlik rolining asta-sekin pasayishiga olib keldi.

Qisqa vaqt davomida alohida mavqega talabgorlik qilgan natsizmni inobatga olmaganda, asosan sotsialistik va burjua mafkuralari orasida borgan kurash esa (“uchinchi yo‘l”ga

[68] Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. –Т.: Маънавият, 2006. 8-бет.
[69] Єаранг: Эргашев И. Миллий истиєлол јояси ва раібар фаолияти. –Т.: Академия, 2007.

da’vogarlik qilganlar ham aslida u yoki bu darajada ularning ta’siri ostida edi) dunyoning mafkuraviy manzarasi rivojidagi yangi bosqichni boshlab berdi. U hukmronlik uchun kurashda g‘oyaviy omilning o‘rni va ahamiyati yanada oshganini ko‘rsatish barobarida global konfrontatsiya asosiga qurilgan mafkuraviy manzaraning shakllanishiga olib keldi.

Ushbu mafkuralar o‘rtasidagi kurash barham topgan hozirgi davrda esa o‘ziga xos xususiyatlarga ega dunyoning yangi mafkuraviy manzarasi qaror topmoqda.

Bugungi kunda aksariyat davlatlarning mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haq-huquqlari va erkinligi, ijtimoiy, siyosiy, etnik, konfessional totuvlik va bag‘rikenglik g‘oyalari ustuvor.

SHunday bo‘lsada, insoniyat istiqbolini belgilashda universallikka da’vogarlik qilayotgan va transmilliy xarakterga ega g‘oyaviy qarashlar dunyoning mafkuraviy manzarasi mazmunini belgilab berishda ustuvorlikka intilayotganini ham ta’kidlash zarur.

“Ramziy zo‘ravonlik orqali amalga oshirilayotgan madaniy globallashtirish (uni g‘arblashtirish deb atasa ham bo‘ladi) aslida shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning soxtalashishi, hattoki uzilishiga olib kelishi mumkin, chunki o‘zga madaniyat tushunchalari (ramzlari) insonni shakllantiruvchi, uni to‘laqonli shaxsga aylantiruvchi o‘z madaniy ildizlaridan, qadriyatlari tizimidan ayiradi”.[70]

Kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi davrida “turli xil eski va yangi mafkuralarning o‘zaro kurashi har qachongidan ham ko‘ra shiddatli tus olmoqda, - deb yozadi Prezidentimiz. - Rang-barang, ba’zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o‘rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib to‘qnashuvlar, ommaviy qirg‘inlarga sabab bo‘lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg‘u-kulfatlar solmoqda”.[71]

Inson ongi va qalbi uchun kurash yangi sifatiy xususiyat kasb etgan bir davrda, e’tiqod umumiyligiga asoslanish (masalan, panislomizm), etnik birlikka urg‘u berish (masalan, panslavizm, panturkizm, paneronizm) va yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy makonda yashash natijasida yuzaga kelgan bog‘liqlikni ro‘kach qilish asosida (masalan, pansovetizm) yakka mafkuralar hukmronligini ta’minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo‘lib olishga urinishlar kuzatilayotganini ta’kidlash zarur.

Dunyoning mafkuraviy manzarasiga xos mohiyatni chuqurroq va teranroq anglash inson ongi hamda qalbi uchun olib borilayotgan tinimsiz kurashning asl maqsadlarini to‘g‘ri tushunib etishga, mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka tahdid soluvchi g‘oyalarning oldini olishga qaratilgan tegishli ma’rifiy ishlarni izchil va tizimli tashkil etishga xizmat qiladi.

Siyosiy jarayonlarning globallashuvi. Siyosiy sohada bu jarayon davlatning ishtirokisiz kechmasligi tushunarli. O‘tmish an’anaviy-agrar jamiyatlardagi o‘z-o‘zicha chegaralangan, bir-biridan ajratilgan ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar, masalan, qabilalar, ularning davlat birlashmalari, shuningdek, keyinroq paydo bo‘lgan milliy maqomdagi davlatning o‘zaro aloqalari bulardagi o‘z-o‘zicha yetarlilikdan farqli o‘laroq industrial jamiyatlarda mintaqadagi kuchli mamlakat tevarak-atrofga belgilovchi ta’sir ko‘rsatib muayyan davlat birlashmalarini vujudga keltiradi. shu yo‘l bilan savdo, keltiriladigan xomashyo ustidan nazorat o‘rnatadi. hamda tegishli tarzda foyda qiladi.

Globalizatsiya bu sohada muayyan iqtisodiy manfaatlar tashvishlarining doirasini ifodalaydi. ayni vaqtda, mamlakat xizmati va xalqaro tashkilotlar ham bularning talablariga binoan ish ko‘rishi lozim. milliy hukumatning vazifalari hududiy-davlat chegaralaridan tashqariga

[70] Саидов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоєот. –Т.: Академия, 2008. 66-бет.
[71] Єаранг: Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш - давр талаби. 5-ж. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997.

chiqadi. xalqaro tashkilotlar, o‘z navbatida, masalalarni hal qilishda ba’zi o‘rinlarda hukumat darajalarida ish ko‘radilar.Siyosiy globallashuv hozirgi maqomini xx asrning o‘rtalaridan oladi. bu vaqtda bir tomondan texnologik inqilob yuz berib moddiy ishlab chiqarish, transport, informatika va telekommunikatsiya vositalari rivojlanishiga turtki bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan iqtisodiyotning o‘zini milliy chegaradan tashqariga chiqishi sodir bo‘lgan. shundan e’tiboran davlatning avvalgi monopol holati kuchsizlanib bormoqda, deyish mumkin. endi xalqaro munosabatlarning to‘la qonli subyekttlari bo‘lib transmilliy kompaniyalar bilan bir qator nohukumat tashkilotlari, alohida hududlar va, hatto, alohida fuqarolar ham hisoblanadi.

Hozirgi kunda til, madaniyat, urf-odatlardagi umumiylik, boshqacha aytganda, etnik birlikka asoslangan holda yagona mafkuraviy maydonni yuzaga keltirish borasidagi qarashlar ham mavjud. Bunday qarashlarning shakllanish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bugungi kunda ularning har biri dunyoning mafkuraviy manzarasida muayyan o‘rinni egallashga urinmoqda. Panslavizm, panturkizm, paneronizm kabi g‘oyalar shular jumlasidan.

Bugun dunyo turli qarashlar, g`oyalar, nuqtai-nazarlarning tamomila yangicha rivojlanish pallasiga kirib, bu unda yashovchi xalqlarning turmush tarzi, g`oya va mafkuralariga ham birdek katta ta`sir ko`rsatmoqda. Aslida, turli jamiyat a`zolari munosabatlarining o`zaro integratsiyasi sifatida tanilgan globallashuv jarayoni vaqt o`tishi bilan, uning faoliyat yo`nalishi “traektoriya” si ham o`zgarib bormoqda. Atoqli siyosatchi Karl YAspersning “har bir davr o`zicha bir tahdiddir” degan so`zlari bugun yana bir bor isbotini topayotgandek go`yo. Inson oliy mavjudot ammo bu-uni xatolardan holi ekanligini bildirmaydi. Jamiyatda insonlarning hatti- harakatlari va xulq-atvorlarini tartibga solish, ularning o`zaro aloqalarga asoslangan munosabatlarini shakllantirish-insonlarning o`zlari tomonidan turli institutlar, ya`ni, tom ma`nodagi “tartibga solish qurilmalari” tashkil etilgan.

Jamiyatda siyosiy institutlarining globallashuvning aynan “xavfi” sharoitida qanday muhim ahamiyat kasb etadi?

Globallashuv jarayonining XX asrning oxiri ayniqsa, XXI boshlaridagi umumiy manzarasi-“asr vabosi” sifatida baholanayotgan terrorizm, narkobiznes va giyohvandlik, shuningdek, zamonaviy “manqurtlar”ni tarbiyalash va shu yordamida davlatlar siyosiy tuzumini ag`darish kabi maqsadlar sari yo`g`rilgan latent, ya`ni, yashirin yohud bunyodkor shiorlar ostidagi g`oyalar va mafkuralar xilma-xilligi asosida kechmoqda.

Globallashuvning yuqoridagi ko`rsatib o`tilgan “ko`rinishlari” turli davlatlarga turlicha ta`sir ko`rsatishini alohida ta`kidlab o`tish joiz. Ammo, an`anaviy mamlakatlarning zamonaviylashtirish qonuniyatlari bilan moslasha olmasligi, yoinki umuman qabul qilmasligi globallashuvning “salbiy” xususiyatlari uchun ayni muddaolik kasb etmoqda. Ma`lumki, har bir jamiyat xoh u totalitar, xoh u demokratik yoki monarxiya boshqaruvi bo`lsin, shu siyosiy tuzumning manfaatlarini ifoda etishga xizmat qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy institutlariga ega bo`ladi. Bu institutlar jamiyatning ma`lum qatlamlarini o`zida birlashtirgan holda, shu jamiyat taraqqiyoti va albatta xavfsizligi uchun xizmat qiladi.

Odatda, siyosiy institutlar deyilganda, insonlarning siyosat doirasida manfaatlarini ifoda etuvchi institutlar yoki davlatni o`zini tushuniladi xolos. Ammo siyosiy institutlar bugun hayotning turli jabhalarini tartibga soluvchi, nazorat qiluvchi, xavfsizligi uchun ham javobgarlik ma`suliyatini ham o`zida mujassamlashtiradi. Masalan, XVII asrning eng qudratli Usmonlilar sulolasining birdaniga tanazzuli sabablarini Turkiyada birinchi matbuot asoschisi, Ibrohim Mutafarrika o`zining “Ummatlarni boshqarishda aql-zakovat bilan ish yuritish” asarida institutlarni, xususan siyosiy va harbiy institutlarni eskirib qolganligi, shuningdek, har qanday yangiliklarga qarshilik harakatlari bilan ifodalangan institutlarining jamiyat butun taraqqiyotiga g`ov ekanligini ko`rsatib bergan

edi[72][145]. Globallashuv aslida salbiy tushuncha emas. Balki, bu jarayon ishtirokchilari va uni amalga oshirish g`oyalarining umuminsoniy tamoyillardan ortga chekinishi va “yakka” ya`ni, ma`lum bir guruh maqsadlariga tayanishi oqibatida salbiy xususiyatlar kasb etadi xolos.

Siyosiy institutlarning asosiy vazifasi sifatida individlarni siyosiy jarayonlarda manfaatlarini ifoda etish, siyosiy tuzumning barqarorlligini ta`minlash bilan bir qatorda, o`ziga xos ravishda yangi elitalarni, xususan, yosh avlod tarbiyasida etakchi mazmun kasb etadi. Bugun “tamaddunlar to`qnashuvi” (S.Xantington) muqarrar ko`zga tashlanayotgan bir davrda, globallashuvning salbiy sahna ko`rinishining asosiy “aktyorlari” sifatida yoshlarni tanlab olinayotganligida ham o`ziga xos maqsadlar yotadi. Birinchidan, keksa aholi passiv va introspektsiya- ya`ni o`z-o`zini kuzatishga, o`zi haqida qayg`urishga, yoshlar esa serg`ayrat va milliy-siyosiy qat`iyatlilikni qo`llab-quvvatlashga moyil bo`lishadi. Bu esa o`z navbatida, ijobiy maqsadlar bilan bir qatorda, buzg`unchi, yot g`oyalar “natijaviyligi” uchun katta kuchni taqdim etadi. Masalan, Gitler siyosiy tuzumining 12 yil davomidagi (1933-1945) nufuzi “Gitleryugend” yoshlar tashkilotining, YAponiyada zamonaviy “manqurtlar” tayyorlash markazi “Aum Senrikyo” yoki Xitoydagi “Stalini” Mao Szedun tuzumi “himoyachilari” sifatida tuzilgan “Xunveybinlar” harakati a`zolari ham aynan yoshlar ekanligi fikrimizning yaqqol isbotidir.Jamiyatdagi siyosiy institutlarning taraqqiyoti avvalo, jalb etish g`oyasi va mafkurasi bilan bevosita bog`liqdir va mafkuraning kuchliligi, ma`lum manfaatlarga ifodalanishi, a`zolarni ortishiga ham olib keladi. Siyosiy institutlarning davlat, parlament, partiya, konservatizm, neokonservatizm, lobbizm va hatto ommaviy axborot vositalari kabi ko`rinishlari aholi turli qatlamlarini o`zida mujassamlashtirgan holda, katta siyosiy boshqaruv mexanizmlari sifatida namoyon bo`lmoqda.Globallashuv jarayoni o`z navbatida salbiy ahamiyat kasb etishi va buni tamaddunlar taraqqiyotiga ta`sirini hisobga olib, bu jarayonda siyosiy institutlarning faoliyati darajasi bizning fikrimizcha, quyidagi asosiy omillar asosida isloh qilinishi maqsadga muvofiq:

Siyosiy institutlarning eng asosiysi sifatida davlat namoyon bo`lar ekan, avvalo, u rahnomoligida aholi turli qatlamlari va guruhlarining jamoviy va shaxsiy manfaatlarini aniqlash, hisobga olish-davlatning barqarorligini asosiy shartidir. Zero, yagona maqsad asosida birlashgan guruh bilan turli mazmundagi xavf-xatarlarni oldini olish oson kechadi.

Ikkinchidan, siyosiy institutlarning sotsiolizatsiya, ya`ni, ijtimoiylashtirish, ishontirish tamoyillari asosida aholi turli qatlamlari siyosiy ongi va madaniyatini oshirishi-har qanday ko`rinishdagi g`oyalarga qarshi kuchli bunyodkor g`oya asosida javob qaytarish xususiyatini shaklantirib berishi ularning o`ziga xos va asosiy belgisi hisoblanadi.

Uchinchidan, siyosiy institutlar jamiyatning asosiy barqarorligi sharti ham hisoblanib, bugungi kunda davlat siyosiy tuzumining asosiy “saqlovchisi” vazifasini bajarishi, o`z navbatida turli ijodkor, g`ayratli, shijoatkor qatlami, ya`ni, yoshlarni o`zida birlashtirishi yuqoridagi omillarni amaliyligi va albatta davomiyligini ta`minlab beradi. Zero, yosh avlod, keyingi avlodga etkazib berish kuchlari hamdir.

Siyosiy institutlarning globallashuv jarayonidagi eng muhim ahamiyatga ega tomoni ham mavjud bo`lib, aynan u yoki bu turdagi siyosiy institut o`z g`oyasi orqali ma`lum bir aholi qatlamini o`zida birlashtirar ekan, globallashuv “soyasi” da kirib kelayotgan turli yot g`oyalarga qarshi kurashish kuchiga ega ekanligini alohida eslatib o`tish lozim.

Siyosiy institutlar har qanday jamiyat modernizatsiyalashuv jarayoni uchun asosiy tayanch sifatida namoyon bo`lishi va bu omilni mustahkamlashda aholi siyosiy madaniyati va ongini oshirish jarayoni bilan chambarchas bog`lashda asosiy nuqtadir.Taniqli siyosatshunos S.Xantington “tartibotsiz (bu erda siyosiy tuzum nazarda tutilmoqda) ozodlik bo`lishi mumkin,

[72][145] Timoti J. Uinter. XXI asrda islom. Postmodern dunyoda qiblani topish.- T., 2005. B.10.

ammo ozodlik tartibotsiz bo`lishi mumkin emas”[73[146]]. Bu erda ko`rinib turganidek, siyosiy institutlar avvalo ichki munosabatlarni tartibga solish, aholi siyosiy ongi va madaniyatini oshirish yo`li bilan shu davlatga xavfi mavjud bo`lgan turli jarayonlarga fikrlarni shakllantirish vazifasini ham bajarib berar ekan. Fikrlar xilma–xilligi, mafkuralar, g`oyalar turli-tumanligi muhiti aslida jamiyatlar va davlatlar manfaati uchun o`ta zararli emas. Ammo shu g`oyalar va mafkuralardan “niqob” sifatida foydalanayotgan ayrim kuchlar “demokratiya posponlari” yohud “demokratiya fabrikalari” vakillari sifatida aholi kayfiyatini manipulatsiya qilishda va shu orqali davlatlar siyosiy boshqaruviga ham salbiy ta`sir ko`rsatmoqdalar va hatto bu kuchlar turli “ranglar inqiloblari” (Ukraina, Qirg`iziston va Gruziya)ni ham yasashga erishdilar.

Jamiyat ijtimoiy institutlari ichida eng muhim ahamiyatga ega bo`lgani bu aynan siyosiy institutlar ekani, bugun jamiyatda taraqqiyotga ega mamlakatlar misolida ko`rishimiz mumkin. Siyosiy institutlar faqatgina siyosiy manfaatlar va kuchlarni birlashtirib qolmasdan, avvalo, o`z a`zolarini boshqarish va shuningdek, o`z obyekti bo`lgan davlatning yagona birligi, xavfsizligiga doir barcha masalalarda ma`sul, etakchi boshqaruv tizimlari birligi sifatida namoyon bo`ladi. Jamiyat davlat munosabatlari integratsiyasi mavjud ekan, demak, globallashuv ham to`xtovsiz jarayon. Bu munosabatlarning davriy holati esa u yoki bu davlat aholisi manfaatlari asosi, ya`ni, etakchi siyosiy institutlari belgilab beradi. B.Juvenel` “Jamiyatning ichida o`zaro ishonch munosabatlarini shakllantirilganligi davlat, jamiyat olg`a intilishi uchun mezon va bu siyosiy institutlar tomonidan shakllantiriladi”[74[147]] degan edi.

Bizga ma`lumki, XX asr oxiri va XXI asr boshida dunyo bir-biriga bog`liq elementlardan iborat bo`lgan yaxlit tizimga aylanib bordi. Bu esa globallashuv jarayonini jahon siyosati va xalqaro munosabatlarda asosiy omilga aylantirdi hamda ushbu fenomen jahon siyosati fanida bosh paradigma sifatida qabul qilindi. Demak, yuqorida qayd etilgan davrlarda globallashuv har qanday rivojlanishning asosiy omili va tendentsiyasiga aylandi. Sababi har bir davrning rivojlanish qonuniyatlari va asosiy tendentsiyalari bo`lgani singari biz yashayotgan informatsion jamiyatning ham rivojlanish qonuniyati globallashuv hodisasidir.

Buning mohiyati shundaki, bugungi kunda hech bir davlat biqiq holatda avtarkiya sharoitida tashqi dunyodan uzilgan holatda yashay olmaydi, ya`ni bunday davlat progressga erishishi mumkin emas. SHuningdek ayrim dolzarb muammolar borki, ularni bir yoki ikkta davlat miqyosida hal etib bo`lmaydi. U jahon hamjamiyati e`tiboriga muhtoj. Bu esa davlatlarning tabiiy ravishda globallashuv jarayoniga tortilishiga olib keladi. Ko`rinib turibdiki qonuniyatni o`zgartirish mumkin emas.

Geosiyosiy o`zgarishlar jahon siyosatchilari va davlat arboblarini sobiq Ittifoq hududida, ayniqsa, Markaziy Osiyoda kechayotgan jarayonlarga yangicha nigoh bilan qarashga undamoqda. Masalan, amerikalik taniqli olim va davlat arbobi Z.Bzejinskiy ushbu mintaqada kechayotgan voqea-hodisalarga va ularning AQSH manfaatlari uchun ahamiyatiga e`tibor qaratib kelmoqda. Uning nazarida, Evroosiyo jahonning eng yirik va geosiyosiy jihatdan g`oyat muhim mintaqasi bo`lgani bois bu hududni nazorat ostiga olgan davlat dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan uchdan ikki qismida hukmronlik qilishi mumkin. Zero sayyoramiz aholisining taxminan 75 foizi shu hududda istiqomat qiladi, jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 60 foizi va aniqlangan energetika zaxiralarining taxminan to`rtdan uch qismi ham shu qit`a ulushiga to`g`ri keladi. AQSHdan keyin iqtisodiy va harbiy jihatdan eng qudratli davlatlar ham Evroosiyoda joylashgan. Mintaqada etakchilik qilishga va global ta`sir ko`rsatishga intilayotgan, eng ko`p aholiga ega davlat ham shu qit`ada joylashgan. Evroosiyo umumiy kuch-qudrati va iqtisodiy

[73[146]] Xantington S. Politicheskiy poryadok v menyayushixsya obshestvax.-M.:Progress-Traditsiya, 2004.S.11
[74[147]] Jouvenel deBertrand. Sovereignty. Chicago, Univercity of Press, 1963.p.123.

salohiyati jihatidan hatto AQSHni ortda qoldirayotgani bu mintaqa imkoniyatlaridan dalolat beradi. SHu bois iqtisodiy va harbiy jihatdan qudratli davlatlar, jumladan, AQSH siyosatida bu hudud ustuvor ahamiyat kasb etayotgani bejiz emas. YA`ni, AQSH bu qit`ada o`z manfaatlariga putur etkazishi mumkin bo`lgan har qanday voqea yoki hodisaga nisbatan zudlik va qat`iyatlik bilan munosabat bildiradi. Xususan, so`nggi besh yil ichida Afg`oniston va Iroqda amalga oshirilgan va hozirgi vaqtda ham davom etayotgan harbiy harakatlar bunga yaqqol misol bo`la oladi. SHu bilan birga, bu masalada Rossiya ham o`z manfaatlarini qat`iy himoya qilishi (ayniqsa, so`ngi yillarda) tabiiy holdir.

Mutaxassislar Markaziy Osiyo hududida sodir bo`layotgan voqealar sur`atining jadallashayotganini ta`kidlamoqda. Darhaqiqat, bugungi siyosiy voqelikni sobiq Ittifoq parchalangan 90-yillardagi vaziyat bilan qiyoslab bo`l-maydi. Gap shundaki, mazkur mintaqa ko`pgina yirik qudratli davlatlar man -faatlari to`qnashayotgan hududga aylanib borayotgani bundagi geosiyosiy vaziyatni chigallashtirishni, uning Farb va SHarq o`rtasidagi notinch "bufer zona"ga aylanib qolish xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, Fors ko`rfazidagi yoqilg`i zaxirasining kamayib, mintaqadagi vaziyat keskinlashib borayotgani beqiyos tabiiy boylik, iqtisodiy va intellektual salohiyatga ega bo`lgan Markaziy Osiyo davlatlari geostrategik o`rni va ahamiyati ortib bormoqda. Keyingi yillarda Vashington ma`muriyatining milliy xavfsizlik strategiyasi Kavkaz va Markaziy Osiyoga ustuvor ahamiyat qaratilishi, birinchi navbatda, iqtisodiy manfaatlar, xususan, energoresurslarga egalik qilish va Farbga tashib ketishni nazarda tutadi.

Masalaning yangi bir jihati shundan iboratki, ayrim yirik davlatlarning xalqaro munosabatlarni boshqarish va tartibga solish borasida hech kim bilan hisoblashmasdan, hech kimning manfaatini hisobga olmasdan o`zboshimcha siyosat yuritishi yaqqol namoyon bo`lmoqda. Bu siyosat go`yo butun dunyoda yagona, faqat bitta kuch markazi bo`lishi kerak degan aqidaga tayanadi. Bu markaz Dunyo-dagi barcha jarayonlarni qat`iy nazorat qilish va unga itoat etmaganlarni jazolashga intilmoqda. Bu o`ta xatarli siyosiy, ya`ni dunyo xaritasini yangidan bo`lib olib boshqarish, xalqlar va davlatlar ustidan hukmronlik qilishga intilishni YUgoslaviyaning parchalab yuborilishi, Iroqdagi harbiy harakatlar, Kavkazorti davlatlarida amalga oshirilayotgan xunrezliklarda kuzatish mumkin.

Bir vaqtlar AQSH quruqlik qo`shinlari rezervining psixologik amaliyotlar bo`linmasi rahbari bo`lgan, hozir esa vitse-prezident CHeynining ishonchli tashviqotchilaridan biri sifatida tanilgan general Pol` Velleli 80-yillarning oxirida yana bir olim bilan hammualliflikda "Psixologik amaliyotlardan psixologik urushga: psixologiyaning g`alabasi" deb nomlangan maqola e`lon qilgandi. Agressiv, quyushqonga sig`maydigan fikirlarga to`la bu maqolada muallif raqib mamlakatni ruhiy bosim va xurujlar orqali engish mumkinligi va zarurligini ta`kidlaydi. "Strategik jihatdan – deb yozgandi Velleli, - mazkur qurol do`stlar, dushmanlar va betaraflardan qat`iy nazar, dunyodagi barchaga qaratilmog`i hamda har joyga tashlab ketiladigan oddiy varaqalar, maxsus tashviqot otryadlarining karnaylari, psixotronika-ning zaif, noaniq va tor yo`nalishlari orqali emas, balki AQSH ega bo`lgan va Er sayyorasidagi istalgan odamga etib bora oladigan vositalar yordamida qo`llanilishi kerak. Albatta, bu vosita – elektron OAV, matbuot, televidenie va radiodir. Sputnik orqali aloqa, video-yozuvlar va boshqa texnologiyalarning bugungi rivoji insonlar ongiga biz ilgari tasavvur ham qila olmaydigan darajada kirib borish imkonini berdi. Biz mo``jizaviy Ekskalibur (qirol Arturning qilichi) – ni qo`lga olsak kifoya va u bizga butun dunyoni bo`ysundirib beradi. Faqat bizda hamma mamlakatlarni shunday vositalarga ko`mib tashlash uchun etarlicha jur`at va qat`iyat bo`lsa bas. Ushbu qilichsiz bizning ahloqiy normalarimizni boshqa madaniyatlarga singdirish qiyin kechadi".

Amerikaning gegemonlikka intilishi dastlab Ikkinchi jahon urushi yakun topganidan so`ng toboro yaqqolroq ko`ga tashlana boshladi. Buning uchun etarli omillar bor edi, albatta. Avvalo, urushda qatnashayotgan o`nlab davlatlarning harbiy buyurtmalari evaziga AQSH dunyoning boshqa barcha mamlakatlaridan farqli o`laroq, Jahon urushida juda katta foyda ko`rdi. Urush tugagandan keyin tuzilgan Yevropani qayta tiklash rejasida ham birinchi navbatda Amerika manfaatlari ko`zda tutilgan edi. O`tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib, Qo`shma SHtatlar G`arbiy Yevropa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi hamda Atlantika okeani havzasida turli yo`llar o`z yakka ustunligini o`rnatish uchun faol harakatlarni boshla` yuborgandi. Va bu harakatlar o`z natijasini berdi ham. AQSHni aksariyat hollarda harbiy, iqtisodiy, siyosiy hamda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sohalarida yakkahokimlik o`rnatishga ochiqdan-ochiq intilishi uchun tanqid qilishadi. qayd etish lozimki, bugungi kunga kelib butun dunyoda “antiamerikanizm” deb ataluvchi harakat yuzaga kelgan.

XX asrning 60-yillaridan boshlab 30 yil davomida AQSH iqtisodiyoti katta sur`atlar bilan muttasil o`sib bordi va bu davlat shubhasiz dunyoning eng qudratli mamlakatlaridan biriga aylandi. Dunyo aholisining 4,5 foizi istiqomat qiladigan davlatga jahon bo`yicha bir yilda yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotning 21 foizi va butun xalqaro bozor aylanmasining deyarli yarmi to`g`ri keladi. Amerika ilm-fan, ayniqsa, yuqori axborot texnologiyalari sohasida boshqa davlatlardan ancha o`zib ketdi. Jahon axborot texnologiyalari va xizmatlari bozorining 40 foizini qo`shma SHtatlar ta`minlaydi. harbiy sohada, xususan, qurollanish borasida ham u dunyoda eng oldingi o`ringa chiqib olgan. 2000 yilgacha Amerikaning harbiy byudjeti yiliga 300 mlrd. dollarni tashkil etdi.

SHuni unutmaslik lozimki, AQSH bu darajadagi taraqqiyotga, masalan, YAponiya singari sof ilmiy-texnikaviy salohiyat orqaligi na erishmagan. Garchi rasmiy doiralarda ochiq tilga olinmasa-da, ko`plab siyosatshunoslar, diplomatlar, tahlilchilarning tadqiqotla rida, kitoblari va maqolalarida bot-bot ta`kidlanganidek, bunday rivojlanish darajasiga etish uchun ikki xil standartli tashqi siyosat, milliy manfaatlar yo`lida o`z ittifoqchilarini ham chetlab o`tish, bosim o`tkazish singari usullar ham xizmat qilgan. O`tgan asr davomida AQSH “dunyoga sotsializmning tarqalishiga qarshi turish” niqobi ostida, 1991 yilda Sovet Ittifoqi tanazzulga yuz tutganidan so`ng esa “demokratik qadriyatlarni tarqatish”, “tashqi kuchlarga, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish” bahonasi bilan yuqori darajadagi qurollanish sur`atlarini saqlab turibdi.

So`nggi yillarda Amerikaning gegemonlik siyosati sayyoramiz -ning barcha qit`alarida va xalqaro munosabatlarning har bir soxasida ko`zga tashlanmoqda.

E`tiborga molik jihati shundaki, barcha amerikaliklar- davlatni boshqarayotganlardan tortib, oddiy fuqarolargacha bunday siyosat to`g`ri ekan-ligiga qattiq ishonadi va boshqalar ham shunday o`ylashga majbur degan e`tiqod bilan yashaydi. Bunga juda ko`p misol keltirish mumkin. Oddiy amerika-liklar, siyosatshunoslar, olimlar, biznesmenlar yoki amerikalik jurnalistlarni qo`yib turaylik-da, zamonaviy tashqi siyosatda chuqkr iz qoldirgan dip-lomatlardan biri, AQSHning sobiq davlat kotibi Genri Kissenjerning “Amerikaga tashqi siyosat kerakmi?” deb nomlangan kitobidan bir parcha keltiramiz: “YAngi ming yillik bo`sag`asida Amerika o`tmishdagi barcha imperiyalarni ham ortda qoldirib, o`z kuch-qudratining samarasini ko`rmoqda. Harbiy sohadan to biznesgacha, ilm-fandan, to texnologiyalargacha, oliy ta`limdan ommaviy madaniyatgacha Amerika butun dunyoda cheksiz miqyoslarda ustun kelmoqda. XX asrning so`ngi 10 yilligida har jihatdan ustun pozitsiyaga ko`tarilish natijasida Amerika xalqaro barqarorlikni asrashning yagona kafolatiga aylandi”. Muallifning fikricha, jahonning istalgan nuqtasidagi har qanday ziddiyatni hal etishda AQSHga teng keladigani yo`q. Mamlakatning bunday gegemonlik siyosatiga qarshi bo`lgan har qanday harakat Kissinjerning ta`kidlashicha, “milliy manfaatlarga tahdid”dir. Xo`sh, Prezident

G.Trumen davridayoq mukammal tarzda yo`lga qo`yilgan, bugun esa yanada shiddatli va andishasiz ko`rinish kasb etayotgan bu gegemonizm nimalarda namoyon bo`ladi?

Avvalo, siyosiy **soha**da.

Bu borada amerikalik siyosatdonlar amalga oshirishga ulgurgan ishlarga o`nlab misollar keltirish mumkin. AQSH o`z yo`rig`iga yurishni istamagan dav -latlarga birinchi navbatda siyosiy jihatdan bosim o`tkazadi. Sanktsiyalar qo`l-lash bilan tahdid qilish, axborot xuruji, siyosiy jihatdan yakkalash va mamlakatning xalqaro maydondagi obro`sini tushirish kabilar shunday vositalar-dandir. qolaversa, BMT, Xalqaro Valyuta Jamg`armasi, Jahon Savdo Tashkiloti, Jahon banki singari dunyoning eng yirik xalqaro tashkilotlaridagi etakchi rol ham bosim o`tkazishda katta imkoniyat beradi. Suriya, Sudan, SHimo -liy Koreya, Venesuela kabi davlatlarga nisbatan olib borilgan siyosat bunga misol bo`la oladi.

Boshqa mamlakatlardan xalqaro huquq normalariga so`zsiz amal qilishni talab qiladigan AQSHning o`zi bu normalarni ko`p marotaba buzgan yoki ularga umuman qo`shilmagan. Biologik qurollarni tarqatmaslik haqidagi bitim, Kioto protokoli singari xalqaro shartnomalar shular jumlasidandir. Darvoqe, Kioto protokoli haqida bir narsani aytib o`tish joiz. hozirga kelib, har yili iyundan noyabrga qadar amerikaning tropik mintaqalarida davom etadigan to`fonlar mavsumi AQSH sanoat korxonalari tomonidan tabiatga etkazilgan cheksiz zararning, aniqrog`i, ana shu xalqaro shartnomaga qo`shilmaslikning oqibatidir.Bu haqda olimlar amerika hukumatini bundan 35 yil oldin ogohlantirgan edilar va bugun ham bu chaqiriqlar tingani yo`q. Ammo protokolga qo`shilish, bu – juda katta xarajat, deganidir. Ortiqcha xarajatlar esa qo`shma SHtatlarga kerak emas.

1972 yilda imzolangan, dunyo xavfsizligi va barqarorligining o`ziga xos garovi sifatida qaralgan Raketaga qarshi mudofaa tizimlari haqidagi xalqaro SHartnomadan ham qo`shma shtatlar bir tomonlama chiqib ketdi. Bu harakat eng muhim siyosiy masalalarda o`z manfaatini ochiqdan-ochiq ustun qo`yishning yaqqol namoyishidir. YUgoslaviyaga (1990-yillar), Iroqqa (1990-2003) berilgan havo zarbalari, Koreya (1950-yillar), V`etnam (1963-1965) da olib borilgan harbiy harakatlar, ko`plab mamlakatlarning ichki va tashqi siyosatiga bosim o`tkazishga urinish bilan Amerika eng muhim xalqaro shartnomalar(BMT Nizomi, Xel`sinki shartnomasi kabilar)da ko`zda tutilgan davlatlarning suvereniteti, ichki ishlarga aralashmaslik, chegaralarning daxlsizligi, kuch ishla tmaslik singari xalqaro huquqning asosiy tamoyillarini qo`pol ravishda buzgan.

AQSH tomonidan gegemonizm siyosati iqtisodiy siyosatda ham faol qo`llaniladi. Hech ko`zingiz tushganmi, “Maykrosoft” korporatsiyasining Mashhur komp`yuter dasturlarini o`rnatayotganingizda dastavval ekranda “Litsenziya kelishuvi” degan oyna paydo bo`ladi. Uning bandlaridan birida shunday yozuv bor: “Siz ushbu komp`yuter dasturini AQSH tomonidan cheklovlar joriy etilgan davlatlar, jumladan, Kuba, Eron, Iroq, Liviya, SHimoliy Koreya, Sudan va Suriyaga olib kirmaslik, bu davlatlar fuqarolariga vaqtinchalik foydalanish uchun bermaslik majburiyatini olasiz”. Bunday cheklov AQSH Savdo vazirligi-ning Eksport nazorati byurosi tomonidan Amerikada ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlarga belgilanadi. Ushbu taqiqning demokratiya talabalariga qay darajada mos kelishi masalasini inson huquqlari himoyachilariga qoldirgan holda aytmoqchimizki, bu iqtisodiy bosim o`tkazish yo`llaridan biri xolos.

AQSH iqisodiy siyosatining eng ko`p norozilik uyg`otadigan yana bir jihati – barchani dollarga xalqaro valyuta sifatida qarashga majburlash. Prezidenlik saylovlarida kurash olib boradigan har qanday nomzod – u xoh demokratlardan, xoh respublikachilardan bo`lsin, ana shu “xalqaro maqom”ni ta`minlash yuzasidan o`z reja-sini taqdim qilishi qoidaga aylangan. Dollarning xalqaro valyuta sifatida muomalada bo`lishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu holatni soddaroq qilib shunday tushunib olish mumkin. Masalan, Sizning 1 million so`m pulingiz bor va uni

amaldagi kurs bo`yicha 1 000 dollarga almashtirdingiz, deylik. Agar AQSH hukumati 10 foizlik deval`vatsiya (davlat tomonidan milliy valyutaning qadrini pasaytirish yo`li bilan qayta baholash)ni amalga oshirsa, o`sha 1 000 dollarni endi 900 ming so`mga almashtirasiz. Bunday deval`vatsiyalar esa AQSH iqtisodiy siyosatida bir necha bor kuzatilgan. Ushbu holatda ming emas, milliardlab dollarni o`z markaziy banklarida majburan saqlayotgan davlatlarning ko`radigan zararini tasavvur qilish qiyin emas. Ko`rib turganimizdek, dollarning qattiq valyuta ekanligi Amerikaga dunyo bo`yicha o`z so`zini o`tkazish uchun juda katta imkoniyatlarni ochib beradi.

Gegemonizmning uchinchi asosiy ko`rinishi madaniy siyosatda namoyon bo`ladi. YUqorida tilga olingan kitobida Kissinjer yozadi: “Biz bu millatni insonlarni ozod qilish uchun yaratdik, biz o`z kontseptsiyamiz va maqsadlarimiz nuqtai-nazaridan olib qaraganda, Amerika bilan cheklanmaymiz va endi barcha insonlarning ozod bo`lishi uchun harakat qilamiz. Agar bunday qilsasak, Amerikaning shon-shavkati barbod bo`ladi, uning qudrati esa havogo uchib ketadi”. Amerikanizmning mohiyatini mana shu so`zlardan yanada mufassalroq anglab etish mumkin. Bunday siyosat odatda “madaniyatlarni boyitish”, “demokratiya an`anlarini joriy etish” yo`llari bilan amalga oshiriladi. O`z qadriyatlarini saqlashga urinib, bunday “madaniy uyg`unlik”ni, “demokratiya talablari”ni qabul qilmaydigan davlatlar oldida esa ikki yo`l turadi: yo bo`ysunish, yo qoloqlik, xalqaro siyosatda yakkalanish, obro`sizlanishga duchor bo`lish. Bu va yuqorida sanab o`tilgan boshqa holatlar AQSH tomonidan qo`llani-ladigan bosimlardan ayrim misollar xolos. Amerikaning bunday tashqi siyosa -tidan ko`zlangan bosh maqsad – insoniyatning eng muhim tabiiy, moliyaviy, intellektual va informatsion resurslari ustidan qo`z nazoratini o`rnatishdir.

Sovet Ittifoqi parchalangach, qo`shma SHtatlar mazkur hududda ham o`z hukmronligini o`rnatishga jahd bilan kirishdi. Rasmiy Vashingtonning butun diqqat e`tibori, sobiq davlat kotibi M. Olbrayt xonimning ta`biri bilan aytganda, “postsovet hududidagi ajralishlarni boshqarish” jarayoniga qaratildi. har tomonlama puxta ishlab chiqilgan loyihalar, dasturlar; barcha sohalarni qamrab olgan xalqaro, nodavlat notijorat tashkilotlar; ta`sirli kuchga ega bo`lgan OAV yordamida bu hududda mustahkam baza yaratildi. 10 yildan ortiqroq muttasil, izchil harakatlar natijasi o`laroq, Gruziya, Ukraina, Qirg`izistonda birin ketin rangli inqiloblar yuz brdi. Biz ushbu mavzuga batafsil to`xtamoqchi emasmiz, balki e`tiboringizni boshqa masalaga - AQSHning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy maqsadlariga qaratmoqchimiz.

Bush ma`muriyati “Katta YAqin SHarq” degan yangi geografik atamani o`ylab topdi. 2003 yil 19 oktyabrda NATO Kengashi yig`ilishida chiqish qilar ekan, AQSHning NATOdagi domiy vakili Nikolas Barnes “Biz butun diqqat e`tiborimizni aynan Katta YAqin SHarqqa qaratishimiz lozim”, degan so`zlarni aytgandi. Bu atama o`z ichiga Markaziy Osiyo, SHimoliy Afrika va SHarqiy Arab davlatlarini olgan juda katta hududni anglatadi. SHubhasiz, jami aholisi 67 mln.dan ziyod, yillik yalpi ichki mahsulot 60 mlrd. dollardan ortadigan, eng zarur tabiiy zahiralarga juda boy Maar kaziy Osiyo hududi, shu jumladan, O`zbekiston qit`adagi joylashgan o`rni (shimolda–Rossiya; janubda-Pokiston, Hindiston, Eron; SHarqda–Xitoy, Koreya, YAponiya; g`arbda–Kaspiy dengizi, Turkiya, YAqin SHarq mamlakatlari)ni ham inobatga olsak, katta ahamiyat kasb etadi. SHu tariqa, mo`ljal bir vaqtlar qadrdon strategik hamkor deb atalgan, 2001 yil sentyabrdagi terrorchilik harakatlaridan so`ng hatto harbiy aerodromigacha bo`shatib bergan O`zbekistonga qaratildi.

2005 yil Andijonda amalga oshirilgan terrorchilik harakatlaridan so`ng, mana bir yilki, mamlakatimizga nisbatan o`tkazilayotgan bosimlar hamon tinmayapti. Bu stsenariy (baolki endi, serial deb atash maqsadga muvofiqdir) davomida bosimning barcha usullari qo`llanildi: Bi-Bi-Si, “Ozodlik” radiosi, N`yu-York Tayms kabi gazetalar Assoshieyted Press, Reyter axborot agentliklari

singari turli OAV orqali axborot xuruji; BMT, Human Rights Watch, IWPR, Xalqaro Amnistiya qo`mitasi singari xalqaro tashkilotlar orqali siyosiy bosim o`tkazilmoqda.

Ammo, bir savol tug`iladi: AQSH nima uchun bizdan norozi? 13 may kuni Andijonda og`ir jinoyatlar sodir etgan terrorchilarga qarshi qat`iy pozitsiyada turganimiz, chegaradan noqonuniy o`tib ketgan "qochqinlar"ni qonuniy talab qilayotganimiz yoki "Katta YAqin SHarqda" katta ishtiyoq va muvaffaqiyat bilan amalga oshirilayotgan rejalarga o`zi "kichkinagina" bir davlat bo`la turib, "tap tortmay" xalaqit berayotganimiz uchundir balki?! Mamlakatimizning eng yuqori sud instantsiyasida, xorijiy diplomatlar va jurnalistlar qarshisida ko`rsatma bergan ayblanuvchilar Andijon fojealarida tashqi kuchlarning, xususan, AQSHning qo`li borligi haqidagi ma`lumotlarni aytdi. Agar, ushbu ko`rsatma isbotlanadigan bo`lsa, AQSH o`z siyosatida yana bir g`irrom tamoyil, ya`ni "Sening dushmaning- mening do`stim" degan qoidaga amal qilishi o`z tasdig`ini topmoqda. YOdingizda bo`lsa, sobiq Ittifoqqa nisbatan Afg`oniston maslasida shunday siyosat amalga oshirilgan va bu keyin AQSHning o`ziga ham, boshqalarga ham katta balo keltirgan "Tolibon" harakatining yuzaga kelishiga zamin yaratgandi.

AQSH tomonidan olib borilayotgan bu siyosat, yuqorida keltirilgan misol-lardan so`ng, "zamona zo`rniki ekanda", deb, umidsizlikka tushmaslik kerak. Aslo!

CHunki, jinsi shim kiygan, doim "kola" ichib, CNN yangilik-larini ko`radigan odam amerikalik bo`lib qolavermaydi. Oliy millat va dunyo egasi bo`lishga da`vogarlar tarixda ko`p kuzatilgan va ularning hammasi inqirozga yuz tutgan.

Albatta, biz uchun N`yu-Yorkdagi 140 qavatli osmono`par bino Bibixonim madrasasidagi bitta koshinning, eng zo`r qo`shig`i "Munojot" ning bitta nolasi, xot-dog va pitstsa bitta obi-nonning o`rnini bosa olmaydi.

MDH davlatlariga nisbatan bu borada yangicha taktika qo`llanilmoqda. Ushbu mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan foydalanib jamiyat va davlatga qarshi kuchlarni har tomonlama qo`llab, kerak bo`lsa, buzg`unchi-terrorchilarni ham rag`batlantirgan holda (Andijon voqealarida xuddi shunday yo`l tutildi) qonuniy hokimiyatni ag`darib tashlashga harakatlar ko`zga tashlanmoqda. Gruziya, Ukraina va Qirg`izistonda bu borada ma`lum natijalarga ham erishildi. Biroq, ushbu mamlakatlarda "yakka gegemoniya" uchun xizmat qiladigan rejimlar o`rnatildi. Bu taktika O`zbekistonga nisbatan qo`llanganda kutilgan natija bermaganidan keyin mamlakatimizga qarshi axborot huruji boshlab yuborildi, davlatimiz obro`ini to`kishga harakatlar boshlandi. Ammo bu sa`y-harakatlar ham natija bermagach, ayrim kuchlar O`zbekistonni xalqaro hamjamiyatdan ajratib qo`yishga intilmoqda. Ammo O`zbekistonning mustaqil tashqi siyosatini obro`sizlantirmoqchi bo`lganlar yanglishadi. CHunki O`zbekiston yuksak davlatchilik an`analari, buyuk tarix, bebaho madaniy-ma`naviy merosi, xalqining ulkan aqliy salohiyati, bunyodkorligiga tayanib taraqqiyot sari intilayotgan va bu borada salmoqli yutuqlarni qo`lga kiritgan mamlakat. Uni do`q-po`pisa, turli tazyiqlar bilan taraqqiyot yo`lidan qaytarib bo`lmaydi.

SHunday merosga ega xalq hech qachon hech kimga qaram bo`lmaydi. O`zini himoya qilishga qodir. SHuning uchun ham O`zbekiston rahbariyati mintaqadagi geosiyosiy vaziyatni e`tiborga olib mamlakat mustaqilligi va istiqboliga tahdid solayotgan xavf-xatarga qarshi turish uchun barcha imkoniyatlarni ishga sol-moqda. SHu ma`noda, O`zbekiston-Rossiya ittifoqchilik munosabatlarining ahamiyati beqiyosdir. Bu munosabatlar O`zbekiston mustaqilligi, tanlagan yo`li, mustaqil tashqi siyosatini himoya qilish, ko`zlagan maqsadlarimizga erishishga xizmat qiladi.

Mikromintaqaviy nuqtai nazardan asosiy geosiyosiy obyekt sanalgan Markaziy Osiyo Rossiyaning strategik muhim qo`shnisigina emas, balki Evroosiyo va umuman, jahon siyosati jumboqlarining o`ziga xos «kaliti»dir. SHu bois Markaziy Osiyo hududida ro`y berayotgan va bu mintaqa davlatlariga tahdidlar nafaqat shu hududda joylashgan mamlakatlar xavfsizligi va

barqarorligi, balki Rossiya Federatsiyasining milliy xavfsizlik muammolariga ham bevosita daxldordir.

Markaziy Osiyo tarixan G`arb-SHarq SHimol-Janub yo`nalishlari chorrahasidagi transport-kommunikatsiya bo`g`ini, g`oyat muhim resurslar oqimi-ning markazi, sharqiy (musulmon) va g`arbiy (nasroniy) tsivilizatsiyalar o`rta-sidagi barcha jarayonlarda «fil`tr» va «bo`g`in» sifatida hozirgi zamon xalqaro tartibotning shakllanishida O`zbekiston va Rossiya manfaatlari himoya-sini ta`minlashda muhim o`rin tutadi. Bu jarayonda manfaatdor hukmron doiralarning mablag`i evaziga beqarorlik keltirib chiqarishni ko`zlayotgan turli nodavlat tashkilotlarining faoliyatidan tortib, dunyoni yakka qutb-lilik asosida boshqarishga qaratilgan barcha geosiyosiy harakatlargacha nazorat qilinishiga alohida e`tibor qaratiladi.

Bunday xulosa chiqarishga etarli asoslar bor. Ko`pgina tahlilchilarning ta`kidlashicha, so`nggi 20–30 yilda jahon bo`yicha energiya iste`moli ancha ko`paygan. AQSH energetika vazirligining ma`lumotlariga ko`ra, 1993 va 2015 yillar oralig`ida yoqilg`ining energiya zaxiralariga ehtiyoj kamida 50 foizga ortadi. Bzejinskiy ta`kidlaganidek, “Osiyodagi iqtisodiy taraqqiyotga beril-gan turtki yangi energiya zaxiralarini izlab topish va ulardan foydalanishga katta ta`sir ko`rsatilishini anglatadi. Ma`lumki, Markaziy Osiyo va Kaspiy mintaqasi hududlarida tabiiy gaz va neft zaxiralari joylashgan”. Energiya mahsulotlariga bo`lgan bunday katta ehtiyoj va ko`pgina davlatlarda ularning tanqisligi iqtisodiyotini ushbu mahsulotlar bilan ta`minlash harakatidagi davlatlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarning qanday bo`lishini tasavvur etish qiyin emas.

Ikkinchidan, xalqaro munosabatlarda kuchlar mutanosibligida jiddiy o`zgarishlar yuz berganini ta`kidlash joiz. Endilikda bitta yoki bir necha yirik davlatlar guruhining ustunligini o`rnatib bo`lmaydi. Bunda dunyoning barcha nuqtalaridagi kuch markazlari, jumladan, EvroAzES davlatlari kuch-qudrati, salohiyati bilan hisoblashishga to`g`ri keladi. Davlatlararo munosabatlar amaliyoti shundan dalolat beradiki, kuchlar mutanosibligi tamoyilini tushunmaslik, uni tan olmaslik yohud davlatning tashqi siyosatida e`tiborga olmaslik va og`ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Kuchlar mutanosibligi va undagi jiddiy o`zgarishlarni inobatga olish nafaqat siyosatning ustuvor yo`nalishlari, maqsad va vositalarini ishlab chiqishda balki xalqaro munosabatlar rivojining istiqbolini bashorat qilishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Davlatlarning o`zaro aloqadorligi ortayotgan, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm xavfi kuchayayotgan hozirgi davrda bu ayniqsa muhimdir. Bugungi kunda dunyoning ko`pgina hududlarida o`ziga xos mintaqaviy kuchlar mutanosibligi tizimi qaror topgan. Bunday tizim Markaziy Osiyoda ham shakllangan. U ko`pgina davlatlarning, jumladan, AQSH va Rossiya ekspertlari va tahlilchilarining e`tiborini jalb etmoqda. Mintaqaviy kuchlar mutanosibligida ro`y berayotgan o`zgarishlar, avvalo, uning ishtirokchilari, ya`ni Markaziy Osiyo respublikalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning bu tizimga moslashishi, harakatlari, siyosat yuritishi nafaqat o`zining, balki butun mintaqa hududida xavfsizlikni belgilab beradi. Zero bu erdagi kuchlar mutanosibligi ko`plab yirik davlatlar ta`siri bilan belgilanadi. Bu o`rinda O`zbekiston Prezidenti I. Karimov tomonidan ilgari surilgan “globalizmga regionalizm orqali” g`oyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, unda jahon siyosatining asosiy yo`nalishlari jumladan, geosiyosiy vaziyat, milliy manfaatlar, global va mintaqaviy kuchlar mutano-sibligining uzviy bog`liqligi o`z ifodasini topgan. Qolaversa, bu g`oya globallashuv jarayoni keltirib chiqarayotgan muammolar hal etish, turli tahdidlarni mintaqaviy jipslik va hamkorlikni kuchaytirish orqali bartaraf etish, demakki, mamlakatimizning xalqaro maydonda munosib o`rin egallash, har jihatdan taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

4-mavzu. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi. Globallashuv va lokallashuv

Reja:

1. Xalqaro mehnat taqsimoti. Insoniyat ehtiyojlarining o‘sib borishi.
2. Transmilliy korporatsiyalar.
3. Global mehnat bozori.
4. Glokalizatsiyaning ikki yoqlama xarakteri.
5. Globallashuv va lokallashuvning o‘zaro ta’siri.

Bu, birinchidan milliy xo‘jaliklarning o‘z mamlakatlari chegaralariga sig‘may boshqa mamlakatlar xo‘jaligi bilan integratsiyaga kirishgani natijasida tovarlar oqimi tezlashib investitsiyalar kiritishga sharoit qulay bo‘lib, mamlakat rivojlanishi uchun qo‘shimcha yo‘l ochiladi. Ikkinchidan, savdo ehtiyoji bu jarayonni tezlashtirishga turtki bo‘ladiki, bu maqsadda hatto Jahon savdo tashkiloti ham ta’sis etilgan. Uchinchidan, tabiiy resurslarning notekis joylashganidan zarur xomashyoga ega bo‘lishga undaydi. To‘rtinchidan, mehnat taqsimoti ustunliklaridan, milliy iqtisodiyotlarni o‘zaro bog‘liqligidan foydalanib oldinga o‘tib olish mumkin. Beshinchidan, harbiy va boshqa sohalar ehtiyojlari global aloqaga ega bo‘lishga undaydiki, bu transportni, shuningdek, kommunikatsiyaning boshqa vositalarini jiddiy rivojlantirishni talab etadi. Oltinchidan, aholi migratsiyasi jarayonlarini boshqarish zaruruyati yangi qadamlar tashlashni shart etib qo‘yadi va h.k.

Globallashuvning hozirgi bosqichida iqtisodiyot sohasida konkret davlat nazoratidan xoli faoliyat ko‘rsatadigan transmilliy korporatsiyalarning paydo bo‘lganligini alohida qayd etmoq lozim. Bularning iqtisodiyotning muayyan sektorini nazorat qilishi konkret hudud, millat yoki madaniyat doiralari bilan cheklanmagan. Jahon miqyosida faoliyat ko‘rsatadigan xalqaro valuta jamg‘armasi, xalqaro rekonstruksiya va taraqqiyot banki va boshqalar ishlab chiqarishni moliyalashtirishga emas, balki pul oqimlarini yo‘naltirishga doir siyosatni belgilaydi. ular moliyaviy davlat sifatida bir qancha mayda va o‘rtacha mamlakatlar budjetlaridan ortiq imkoniyatlarga egadir. shuning uchun Jahonga chiqmoqchi bo‘lgan istagan mamlakat bularning sharti bilan hisoblashishga majbur.

Transmilliy korporatsiyalar, xalqaro valuta jamg‘armasi va boshqa xalqaro tuzilmalarda ishlash uchun saylanma xodimlar tayyorlanadi. Bu menejerlarning faoliyati natijasida tegishli tarzda global miqyosda turli qarorlar, shu jumladan, kambag‘al mamlakatlardan ishchi kuchlarini rivojlangan mamlakatlarning qaysisiga qancha jalb qilishigacha bo‘lgan qarorlar qabul qilindi.

Iqtisodiy globallashuvda g‘arbdan tashqari qator mintaqalarga kiritilayotgan sarmoya va texnologiya uchun davlat suverenitetining bir qismidan voz kechishga ham majbur bo‘linadi. buning oqibatlari esa ko‘pdan ko‘p salbiy jihatlarni keltirib chiqarmasligi mumkin emas.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining harakatlantiruvchi kuchlari va omillari. Globallashuv tahlilining keyingi logistik bosqichi globallashayotgan jarayonlarga ta'sir ko’rsatuvchi, bevosita ularni shakllantiruvchi omillar va globallashuvning xarakatlantiruvchi kuchlarini ko’rib chiqishdan iborat bo’lishi lozim. Oxirigisiga jahon iqtisodiyoti doirasida kuch to’playotgan kapitalning jamlanishi va markazlashishini, xo’jalik hayotining transmilliylashtirilishi – yirik transmilliy kompaniyalar va moliyaviy guruhlarning o’sishi va rivojlanishini kiritish mumkin. Zamonaviy globallashuv jarayonlariga nafaqat milliy bozorlarda, shuningdek, jahon miqyosidagi bozorlarda ham globallashuvni rag’batlantiradigan bozor raqobati kabi baquvvat kuch

katta ta'sir ko’rsatadi. Raqobatning asosiy vositasi – xarajatlarni kamaytirish, tovar va xizmatlar sifatini oshirish, ularning turlarini kengaytirish globallashtirishning motori hisoblanadi.

Globallashtirishning bir harakatlantiruvchi kuchi ilmiy texnikaviy taraqqiyotning, texnologik innovatsiyalar taraqqiyotining rivojlanishi bo’lib, u transport va aloqani, axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarini modifikatsiya qilishda yanada yaqqol namoyon bo’ladi, tovar va xizmatlar, moliyaviy vositalar, g’oya va axborot mahsulotlarini chegarviy transport vositalariga tez va kam xarajat bilan joylashtirish uchun kutilmagan imkoniyatlarini yaratadi. Yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining yuzaga kelishi, tez xarakatlanuvchi kompyuter texnikasi, signal uzatishning optik to’lqinli texnologiyasi, sputnik va uyali telefon aloqasi, kibernetika, tarmoq texnologiyalari, kompakt elektron qurilmalar rivojlanishi, Internet global tarmog’i yaratilishi bilan, boshqa texnik yutuqlarning yuzaga kelishi bilan paydo bo’ldi. Butunlay yangi imkoniyatlar axborot va kommunikatsiya texnologiyalari doirasida yangiliklarning kashf qilinishi globallashtirish jarayonlari rivojlanishini rag’batlantiruvchi inqilob bilimlariga (knowledge-based) asoslangan haqiqiy axborot innovatsiyalari haqida gapirish imkonini beradi. Mavjud hisob-kitoblar va baholarga muvofiq, keyingi 5-10 yil ichida dunyodagi mavjud axborotlarning umumiy hajmi har yarim yilda ikki barobarga oshdi: bu Mur qonuni nomini oldi (bu tendentsiyani ilk bor topgan kishi nomi sharafiga).

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning amerika tadqiqotchisi Dj. Garret jahon iqtisodiyoti globallashuvining uch asosiy mexanizmini ajratib ko’rsatadi, ularga quyidagilar kiradi: 1) jahon savdosida o’sib borayotgan raqobat; 2) ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish quvvatlarini boshqa mamlakatlarga joylashtirish hisobiga shaxsiy daromadlarini oshirishga intilishlari natijasida ishlab chiqarishning ko’p millatli xarakterini o’rnatish; 3) moliyaviy bozorlarning xalqaro integratsiyasi.

Jahon iqtisodiyotida transmilliylashtirish jarayonlari real va moliyaviy tarmoqlarda transmilliy korporatsiyalar yaratilishi va ularning faoliyati jarayonlarida mujassamlanadi. g’arb iqtisodchilarining ishlarida iqtisodiy faoliyatning bunga o’xshash sub'ektlari transmilliy, xalqaro, multimilliy, supermilliy, global va boshqa kompaniyalar deb nomlanishi mumkin. Shunga muvofiq ravishda transmilliy korporatsiya deganda, yirik moliyaviy, ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, savdo-servis uyushmalari tushuniladi, ular o’z operatsiyalarini o’zlari tashkil etadilar va boshqa xorijiy mamlakatlarda ham birdek amalga oshiradilar. Ularni shaxsiy ishlab chiqarish, bank, investitsiya, savdo-reklama faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, kadrlarni tayyorlashni o’z ichiga oluvchi murakkab tashkiliy tuzilma bir-biridan ajratib turadi.

- TMKlarning zamonaviy ajralib turadigan jihatlari quyidagilar hisoblanadi:
- Bozorlarni reja asosida yuritish va jahon miqyosida raqobatni amalga oshirish (ayrim xorijiy ekspertlar global raqobatning zamonaviy atamasi uchun yangi so’z – “giperraqobat” so’zini ishlatadilar);
- Jahon bozorlarini shunday global korporatsiyalar bilan ajratish;
- Yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida o’z bo’limlari faoliyatini kuzatish; korporatsiyalar tuzilmasining moslashuvchanligi; o’z bo’limlari, zavodlari va qo’shma korxonalarini yagona xalqaro boshqaruv tarmog’iga birlashtirish;
- TMK faoliyat yuritayotgan davlatga iqtisodiy va siyosiy ta'sir ko’rsatish.

Har qanday mamlakat uchun ilk asosiy rivojlanish, tabiiyki, ichki bozor bo’lib qoladi (yirik mamlakatlar bunda g’ayritabiiy afzalliklarga ega), modomiki, transmilliylashtirish jarayonlarining avj olishi bilan siyosiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy kriteriyasi jahon bozoriga zamonaviy mahsulotlar bilan chiqish va u erda o’z o’rniga ega bo’lishdan iborat bo’lib qoladi.

TMK lar jahon to’g’ri xorijiy investitsiyalari (TXI) ning asosiy qismini amalga oshiradigan xo’jalik sub'ektlari hisoblanadilar. Oxirigi dinamika hayratda qoldiradi: 2002 yildagi Xalqaro investitsiyalar haqidagi Ma'ruza ma'lumotlariga ko’ra, dunyoda TXI ning o’rtacha yillik o’sish sur'ati 90- yillarning birinchi yarmida 20 % ni, ikkinchi yarmida esa 40,1 % ni tashkil qilgan. Xalqaro investitsiyalar umumiy hajmidagi to’g’ri xorijiy investitsiyalar ulushida asosiy kapital 1980 yildagi 2,0-2,4 % dan 1990 yilning oxirlarida 6-8 % gacha o’sdi.

Globallashtirish va regionalizatsiya, hududiy iqtisodiy integratsiya jarayonlarining o’zaro munosabati har doim ham bir xil ma'noga ega bo’lavermaydi. Sir emaski, globallashayotgan jahon iqtisodiyotining bugungi holatining xarakterli belgilaridan biri ko’p miqdorli hududiy iqtisodiy guruhlarni shakllantirish bo’lib qolmoqda. Regionalizatsiya (hududiy iqtisodiy integratsiya) va globallashtirishning o’zaro faoliyati haqidagi sodda tasavvurlar biri ikkinchisini inkor qiladigan pozitsiyaga mos keladi. Masalan, shunday fikrlar ham uchraydiki, bunda “xalqaro regionalizatsiya globallashtirishning dialektik inkori hisoblanadi, modomiki, hududiy ittifoqlar mamlakatlarning cheklangan miqdorinigina o’z ichiga oladi”[75].

Mashhur rus tadqiqotchisi prof. Yu.V. Shishkov fikriga ko’ra, globallashtirish keng xo’jalik hayotining baynalminallashtirish jarayonlarining rivojlanishi, shu bilan bir vaqtda hududiy integratsiya sifatida bir hudud doirasida ichki xo’jalik hayotini baynalminallashtirish jarayonlari rivojlanishining eng yuqori darajasi imkon qadar mumkin bo’ladi[76]. Shu ma'noda aytish mumkinki, hududiy integratsiya oldindan his qilishdir va bir vaqtda bir hudud doirasida globallashtirish ma'nosini tashkil etuvchi jarayonlar rivojlanishining chuqur va intensiv darajasidir.

Hududiy iqtisodiy integratsiya jahon xo’jaligi globallashuvi jarayonlarini chuqurlashtirish uchun dastlabki shart-sharoitlarni shakllantiradi.

Globallashtirishning harakatlantiruvchi kuchlari globallashtirish jarayonlarining aniq omillarida mujassamlashadi. Jahon iqtisodiyotini globallashtirish jarayonlarining yuzaga kelishi va evolyutsiyasiga ta'sir ko’rsatuvchi asosiy omillar ichidan quyidagilarni keltirish mumkin:

- mamlakatlararo o’zaro iqtisodiy bog’liqlikning qat'iy kuchayishi; hozirgi kunda hech bir mamlakat o’z rivojlanishida jahon xamjamiyati va regressidan butunlay uzoq bo’lgan vaziyatda qolishni istamagan holda jahon iqtisodiyotidan tashqarida qolishi mumkin emas; keyingi vaqtlarda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarining iqtisodiy oshkoralik darajasi tez sur'atda oshib borishi; xalqaro savdo[77] va kapitalning mamlakatlararo harakatining o’sishi tufayli xalqaro iqtisodiy makonda yuz berayotgan milliy iqtisodiy jarayonlarga intensiv ta'sir ko’rsatishi;
- tayyor mahsulotlarni mamlakatlararo almashtirish ulushi oshayotgan, agrar xom ashyo tovarlarini almashtirish esa xalqaro savdoni yanada ko’paytirayotgan bir vaqtda xalqaro mehnat taqsimotining yangi sifatining shakllanishi; ichki tarmoq savdosining solishtirma og’irligining o’sishi;
- xalqaro moliyaviy bozor milliy sigmentlararo aloqalarning va yanada integratsiyalashgan global moliyaviy bozor shakllanishining kuchayishi;

[75] Цит. По: Marshall D. Understanding Late-twentieth Century Capitalism: Reassessing the Globalizion Theme // Government and Opposition. Vol.31. № 2. P. 213.

[76] Шишков Ю.В. Интеграционные процессы на пороге XXI века. Почему не интегрируется страны СНГ? М., 2001. с. 17.

[77] 1986 йилдан 1995 йилгача халқаро товар айланмаси ҳажми йилига ўртача 6,5 % га ўсди, бунда ўн йилликда 1,9 баробарга ошди, халқаро хизматлар савдоси эса янада тез суръатларда ўсди ва 2,4 баробарга ошди. Бу вақтда халқаро ЯИМда халқаро савдо улуши олдинги ўн йилликларга қараганда уч баробар тез ўсди. 1990 йилларда халқаро савдо айланмасининг йиллик ўсиш суръати ўртача 8% ни ташкил қилди ва халқаро ишлаб чиқариш хажмининг ўсиши икки баробарга ошди (Қаранг. Черковец О. Глобализация сотрудничества или конкуренция? // экономист 2002. № 10. с. 5).

- xo’jalik hayotining xususiy va umumiy sub'ektlariga ega bo’lgan turli mamlakatlardagi hududiy tarmoq xo’jalik sub'ektlari o’rtasida doimiy aloqalarni qo’llab-quvvatlash uchun sharoit yaratadigan axborot va telekommunikatsiya inqilobi;
- kuchli texnologik va moliyaviy resurslarga ega bo’lgan, butun dunyoda ishlab chiqarish va boshqa bo’linma hamda bo’limlarni joylashtirish, va shu tufayli mahalliy raqobatdosh afzalliklardan foydalanish samaradorligiga erishish imkonini beruvchi transmilliy korporatsiyalar faoliyat doirasini global ravishda kengaytirish;
- rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o’tayotgan mamlakatlarni xalqaro savdoga jalb qilinishining, xalqaro kreditlashtirish va investrlashtirishning, xalqaro mehnat migratsiyasining o’sib borishi;
- jahon iqtisodiyoti sub'ektlari tuzilmasining asosiy murakkabligi – jahon arenasida milliy davlatlar va o’z faoliyati doirasida milliy afzallikka ega bo’lgan kompaniyalar bilan bir qatorda TMK lar va TMBlar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, hududiy tashkilotlar, jumladan, integrallashgan uyushmalar, shuningdek, nodavlat tashkilotlari, yirik shaharlar va xatto, alohida individlar (olimlar, madaniyat xodimlari, Dj. Sorosga o’xshagan ishbilarmonlar va boshqalar) ham faol ishtirok etishlari mumkin.
- Globallashtirishning asosiy belgilari qanday? Ularga xalqaro mehnat taqsimoti xarakteridagi sifat o’zgarishlarini, TMK kabi jahon iqtisodiyoti sub'ektlarining ta'mir doirasi va faoliyat qamrovining o’sishini, global iqtisodiy jarayonlarga moslashtirish maqsadida milliy va xalqaro darajada iqtisodiyotni boshqarish tizimidagi o’zgarishlarni, davlatlararo va nodavlat xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tizimidagi vazifalarning o’zgarishini kiritish mumkin. Xalqaro iqtisodiy aloqalar xalqaro xo’jalik mavjud barcha tarkibiy qismlarining muhim shakliga aylanadi: hech bir, xatto eng kuchli davlatlar ham tashqi muhit bilan chambarchas bog’lanmagan, mutlaq etarlilik tartibida mustaqil rivojlana olmaydi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonlarining natijalari. Alohida mamlakatlar va jahon hamjamiyati mamlakatlari guruhi uchun iqtisodiy globallashuv jarayonlarining natijalari haqidagi masalaning qo’yilishi tan olingan masala hisoblanadi. Bir tomondan, xalqaro iqtisodiyot nazariyasi xorijiy raqobatchilar uchun bozorlarning ochilishi, xalqaro savdoning kuchayishi, moliyaviy resurslar va investitsiyalarning mamlakatlararo joylashtirilishi, xalqaro ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish, xalqaro ishlab chiqarishni oshirish uchun imkoniyatlar yaratishidan dalolat beradi. Natijada globallashtirish mazkur jarayonda ishtirok etadigan mamlakatlarning katta muvaffaqiyati bilan muvofiqlashadi. Shu bilan bir vaqtda, xususan, globallashtirishning neoliberal modelining asosiy mazmuni bo’lgan xo’jalik hayotining keng qamrovli liberalizatsiyaning globallashtirish bilan birlashishi sharoitlarida global tovar va moliyaviy bozorlarda integrallashgan raqobatning kuchayishi raqobat kurashida kuchlilarga yon bosuvchi alohida kompaniyalar hamda alohida mamlakatlar uchun ham muqarrar risklarni anglatadi. Modomiki, rivojlangan mamlakatlar uchun globallashtirishning eng katta foydalari etarli darajada yuqori (aynan shu erlarda kuchli kompaniyalarining shtab-kvartiralari – jahon bozorlaridagi o’yinlar, shuningdek, sayyoraning asosiy ilmiy-texnikaviy va texnologik salohiyati, asosiy moliyaviy resurslar joylashgan), alohida ishlab chiqarishni qisqartirish, daromadlarni qayta taqsimlash, ijtimoiy tengsizlikning kutilayotgan o’sishi ko’rinishidagi risklar davlatning ijtimoiy siyosati bilan bo’lib-bo’lib kompensatsiya qilinadi.

Unchalik rivojlanmagan mamlakatlarning eng zaif tomoni ularning bozorlaridan xorijiy moliyaviy kapitalning chayqov asosida nazoratsiz oqib kirishi va chiqib ketishidir. Keyingi o’n yillikning jahon tajribasi (1994-1995 yillardagi Meksikadagi inqiroz, 1997 yildagi xalqaro (Osiyo) inqirozi, Rossiya, Braziliya, Argentinadagi ketma-ket yuz bergan inqirozli o’zgarishlar) global

moliyaviy kapitalning mamlakatlararo harakati rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar moliyaviy va jamg'arma bozorlarini qulatib, bu mamlakatlarning milliy valyutasi barqarorligini so'ndiribgina qolmay, shuningdek, mazkur mamlakatlar xo'jaligining real tarmog'ida juda salbiy tarzda aks etadi.

Globallashtirish jarayonlari ko'p hollarda ilg'or iqtisodiyotning rivojlanishi darajasini oshirishga va unchalik rivojlanmagan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rnining kuchsizlanishiga olib keladi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar rivojlangan mamlakatlarga texnologik jihatdan bog'liq bo'ladilar: zamonaviy texnologiyalarning murakkablashuvi ularning ishlanmalari xarajatlarini juda oshirib yuboradi, o'zlashtirilgan texnologiyalar esa komplementar omillarning, birinchi navbatda yuqori malakali va o'qitilgan mutaxassislarning yo'qligi tufayli yaxshi samara bermasligi mumkin.

Globallashtirish jahon iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy qonunchiligini – uning tengsizligini bekor qilmaydi, undan, rivojlangan mamlakatlar guruhlari uchun jahon bozoridagi etakchilikning o'ziga xos kurashidan qochib qutilib bo'lmaydi. D. Marshall (Buyuk Britaniya) fikriga ko'ra, "shuni to'la ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, mamlakatlararo shafqatsiz raqobat kabi tizimning bunday mohiyatli xarakteristikasi, etakchi rivojlangan mamlakatlarning jahonda etakchi o'rinni egallash uchun raqobatlashishi, barcha mamlakatlarning markazlashgan yoki pereferiy mamlakatlarga bo'linishi, zamonaviy kapitalistik tizim yanada integrlashib borayotganligiga qaramasdan o'zgarmay qolmoqda. Jahon kapitalizmi barcha mamlakatlarga muvaffaqiyatli rivojlanish uchun teng imkoniyatlarni yaratmagan va bundan keyin ham yaratmaydi. Yuqori daromad olish uchun kurash shundayligicha qolmoqda... jahon iqtisodiyoti esa xuddi avvalgidek, notekis rivojlanmoqda"[78].

Dunyodagi uch asosiy iqtisodiy kuch – AQSh, g'arbiy Yevropa (yoki yanada tor yondashuv bo'yicha Yevropa Ittifoqi) va Yaponiya o'rtasidagi raqobat birinchi navbatda texnologik rivojlanish, yuqori texnologiyalar – mikroelektronika, biotexnologiya, yangi materiallarni yaratish va boshqalar doirasida rivojlanadi.

Jahon banki tomonidan tayyorlangan, 2000-2001 yillardagi xalqaro rivojlanish haqidagi ma'ruza ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning 20 ta eng boy mamlakati aholisining o'rtacha daromadlari 20 ta kambag'al mamlakatlarning o'rtacha daromadlarini 37 marta oshirdi. Bunda keyingi 40 yilda portlashlar ikki barobarga oshdi. Dunyoning beshta boy va beshta kambag'al mamlakatlari o'rtasidagi daromadlardagi uzilishlar esa 1990 yilda 60:1 va 1997 yilda 74:1 tashkil qildi. Fin eksperti K. Kilyunen fikriga ham qo'shilish mumkin, uning fikricha, "iqtisodiy tizim dunyoning 225 ta boy kishilarining jami boyligi 1 trln. dollardan oshganda sog'lom hisoblanishi mumkin emas, bu 47 % kishini tashkil etuvchi 2,5 mlrd. kambag'alning yillik daromadlariga teng ... sayyoraning uchta boy kishisining umumiy holati 48 ta rivojlangan mamlakatning jami YAIM ini oshiradi"[79]. Rivojlangan va unchalik rivojlanmagan mamlakatlar o'rtasida ziddiyat unchalik qat'iy emas, oldin jahon hamjamiyatining muhim tarkibiy qismi sifatida ishtirok etgan ayrim mamlakatlar bugun yaxshi rivojlanmagan mamlakatlar qatoriga kirib qolgan (BMT tasnifi bo'yicha). AQSh jahon xo'jaligida o'z etakchiligini saqlab qolish va yanada oshirishga, o'z milliy masalalarini hal qilish uchun globallashtirishning neoliberal variantidan foydalanishga harakat qiladi.

Globallashtirishning, eng avvalo, moliyaviy foydasi, o'z hududida ta'sis qilingan (1960-1970 yillardayoq), alohida periferey mamlakatlar, offshor hududlar, xorij kapitalini jalb qilish maqsadida soliqdan ozod qilinganligini olishlari mumkin. To'rt asosiy hududiy guruhni

[78] Marshall D. Understanding Late-twentieth Century Capitalism: Reassessing the Globalization Theme // Gowernment and Opposition/. Vol. 31. № 2. p. 197, 215.
[79] Социал-демократия перед лицом глобальных проблем. М., 2000. с. 23.

birlashtiruvchi offshor hududlarning yaxlit pleyadasi yuzaga keldi. Karib havzasining offshor hududlari Nyu-york bilan bir vaqtinchalik mintaqada bo'lgan Shimoliy va janubiy Amerika mamlakatlariga xizmat qiladi. Fors ko'rfazi mamlakatlaridagi offshor hududlar Yaqin Sharqning neft qazib chiqaradigan mamlakatlariga xizmat qiladi. Tinch okeanining Singapur, Gongkon, shuningdek, Vanuatu, Nauru va boshqa orol hududlari Tokio bilan bir vaqtinchalik mintaqada joylashgan Osiyo-Tinch okeani mamlakatlarining moliyaviy kapitalidan foydalanadilar.

Globallashuv jarayoni ayniqsa moliyaviy va iqtisodiy sohada jadal sur`atlar bilan kechmoqda. U avvalo, tabiiy boyliklar va savdo bozorlari ustidan nazorat o`rnatish borasida raqobatning keskinlashuvida namoyon bo`ladi. Bu jarayonda davlatlar bilan bir qatorda transmilliy korporatsiyalar (TMK) ham etakchi o`rin tutadi.

Transmilliy korporatsiyalar — industrial rivojlangan davlatlarning global ahamiyatga ega bo`lgan ko`p funktsiyali milliy trest va kontsernlari, xalqaro firma, kompaniya va korporatsiyalari. "Trans" old qo'shimchasi o'z nomi bilan – TMK milliy chegaralardan tashqarida tovar va xizmatlarni ishlab chiqaradilar va sotadilar; ular g'oyalarni, didlarni, standart va texnologiyalarni butun dunyo bo'ylab tarqatadilar; ular o'z operatsiyalarini global miqyosda rejalashtiradilar, bunda o'z milliy xarakterlarini saqlab qoladilar. Transmilliy kompaniyalar deganda ko'pincha, o'z ishlab chiqarish aktivlarini birdan ortiq mamlakatda nazorat qila oladigan kompaniyalar tushuniladi. Asos mamlakatlardagi bosh kompaniyalar qabul qiluvchi mamlakatlardagi sho''ba kompaniyalar va filiallarni investitsiyalagan holda xorijiy aktivlarga ega bo'ladilar. Investirlashtirishning bunday turi boshqaruv va nazorat huquqini inobatga oladi va to'g'ri xorijiy investitsiyalar sifatida ko'rib chiqiladi. Bunga qarama-qarshi ravishda portfelli investitsiyalar nazorat huquqini bermaydi, ular odatda, daromad olish maqsadida pul bozorlari vositalarini va xorijiy qimmatli qog'ozlarni xarid qilishni nazarda tutadi.

Kompaniya agar faqatgina xorijda savdo qilsa yoki xorijiy firmalarning hamkorlari sifatida ishtirok etsa TMK hisoblanmaydi. Kompaniya uchun TMK maqomini olishning bir necha yo'llari mavjud. Masalan, agar: 1) kompaniya xorijda bir necha affilyat yoki filiallarga ega bo'lsa; 2) ular dunyoning ko'pgina mamlakatlarida faoliyat yuritadilar; 3) xorijda olingan daromadlar ulushi yoki boshqa daromadlar barcha daromadlarga nisbatan yuqori bo'lsa; 4) uning ishchilari, aktsionerlari va menejerlari ko'pgina turli mamlakatlardan bo'lishi kerak; 5) uning xorijiy operatsiyalari – bu nafaqat savdo, shuningdek ishlab chiqarish, tadqiqotlar, ishlanmalar ham bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, Xalqaro kompaniyalar statistikasi ko'pgina murakkabliklarga duch keladi. Xususiy firma sifatida ular o'z faoliyatlari haqida axborotlarni zo'rg'a beradilar, buning ustiga axborotlarning bir qismi berkitiladi. Xalqaro korporatsiyalarning izohida ham farqlar mavjud. Ular odatda, kamida ikki mamlakatdagi aktivlar ustidan nazorat qilish huquqiga ega firma sifatida aniqlanadi. Boshqa mualliflar esa xorijiy ishlab chiqarish hajmi kabi kriteriyaning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Shu narsa aniqki, TMKni bir xilda aniqlash juda katta murakkabliklarni o'zida mujassamlashtirgan, chunki transmilliy korporatsiyalarning tashkiliy tuzilmasi xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlarga moslashgan holda doimiy ravishda o'zgarib turadi. TMKlar bo'yicha BMT komissiyasi o'z vaqtida transmilliy kompaniyalarga quyidagicha ta'rif bergan:

Bu kompaniyalar:

- yuridik shakli va faoliyat doirasidan qat'iy nazar ikki yoki undan ortiq mamlakat birligini o'z ichiga oladi;

- bir yoki undan ortiq rahbarlik markazlari orqali umumiy strategiyani amalga oshirish va kelishilgan siyosat yuritish imkonini beruvchi qarorlar qabul qilish tizimi doirasida operatsiyalarda o'zib ketuvchi;

- alohida birliklari bir-biri bilan mulk orqali yoki ulardan biri yoki bir nechtasi boshqasining faoliyatiga, xususan, bilimlarni, rusurslarni va boshqasi bilan majburiyatlarni bo'lishish kabi qandaydir boshqacha tarzda o'zaro bog'langan;

Xalqaro korporatsiyalarning ikki ko'rinishi farqlanadi:

1. Transmilliy korporatsiyalar (TMK) – kapital bo'yicha milliy (bosh kompaniya bir mamlakatga tegishli bo'ladi) va faoliyat doirasi bo'yicha xalqaro (investitsiyalar dunyoning ko'pgina mamlakatlarida amalga oshiriladi).

2. Multimilliy korporatsiyalar (MMK) – kapital bo'yicha ham, faoliyat doirasi bo'yicha ham xalqaro bo'lgan kompaniyalar (bosh kompaniya kapitali bir necha mamlakatlar kapitaliga tegishli, investitsiyalar ham dunyo bo'ylab amalga oshiriladi).

Ular faoliyati asosan ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlana boshlab, hozirgi davrda yirik TMKlar keng tashqi iqtisodiy ekspantsiya siyosatini yuritmoqda. Masalan, jahon miqyosidagi savdo hajmining qariyb uchdan ikki qismi TMK ulushiga to`g`ri keladi, dunyodagi patentlar, litsenziya va nou-xaularning beshdan to`rt qismi ham ularga tegishli. Mutaxassislarning fikricha, 2004 yilda er yuzida 64 ming atrofida TMKlar mavjud bo`lib, ularning dunyo bo`yicha 830 mingta filiallari faoliyat olib borgan. (Taqqoslash uchun raqamlarga murojaat etsak, 1939 yilda dunyo miqyosida 30 ta TMK bo`lgan bo`lsa, 1970 yilda 7 mingtaga, 1976 yilda 11 mingtaga etgan). Dunyo miqyosida etakchi mavqega ega 100 ta eng yirik TMKlar xalqaro savdoning umumiy hajmidan 16%ni nazorat qiladi va bu TMKlarning uchdan bir qismi AQSHga to`g`ri keladi. XX asr so`ngida etakchi 100 ta TMKlarning chet ellardagi aktivlari 1,4 trln. doll. tashkil etdi.

Ta`kidlash lozimki, zamonaviy TMKlarga xos bo`lgan xususiyat, bu "ikki andozalik" yondoshuvidir. Bir tomondan ular dunyo iqtisodiy makonining liberallashuvi va demokratlashuvidan manfaatdor bo`lsa, ikkinchi tomondan TMK ichida dunyoda mavjud erkin bozor qonuniyatlari ishlamaydi (bozor asosida emas, balki korporatsiya strategiyasidan kelib chiqib narxlar belgilanadi). Umuman, TMKlar faoliyati o`zlari joylashgan (ro`yxatdan o`tgan) davlat manfaatlari bilan mustahkam bog`langan bo`ladi.

Yirik TMKlar ko`pgina mamlakatlarda faoliyat yuritib, ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta`sir etishga intiladi. Ayrimlari esa muayyan davlatlarning iqtisodiy va siyosiy nazoratidan butunlay xalos bo`lishga va birinchi galda, qanday yo`llar bilan bo`lmasin, o`z moddiy manfaatlarini himoya qilishga harakat qiladi. TMKlar va muayyan mamlakat hukumati o`rtasida ziddiyatlar vujudga kelgan hollarda ular mazkur mamlakatni tark etishib boshqasiga borib joylashadi.

TMKlar faoliyatidan tashvishga tushgan jahon hamjamiyatini tinchlantirish uchun 70-80 yillar mobaynida BMT darajasida TMKlar faoliyatini izga solish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilish maqsadida o`ziga xos ahloq kodeksini ishlab chiqishga urinishlar ko`p bo`lgan. Biroq, bu urinishlar TMK vakillarining qattiq zarbasiga duch keladi va 1992 yilda bu borada olib borilayotgan muzokaralar to`xtatiladi.

Vaholanki, TMKlar faoliyatida ko`pgina, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida quyidagi salbiy holatlar namoyon buladi:

- mamlakatning eskirgan va ekologik jihatdan xavfli texnologiyalar axlatxonasiga aylanib qolish extimoli;

- mamlakat sanoat ishlab chiqarishining eng rivojlangan segmentlari va ilmiy-tadqiqot tuzilmalari, istiqbolli mahalliy korxona va firmalarni egallab olinishi xavfi;

- mahalliy kompaniyalarga nisbatan TMK manfaatlariga mos istiqbolli yo`nalishlarni tiqishtirilishi mumkinligi;

- iqtisodiy yoki moliyaviy inqiroz yuz bergan hollarda korxonalarning yopilishi, ishlab chiqarishning qisqarishi, ishsizlikning kuchayishi; Bunday hollarda TMKlar sarmoyasini mamlakatdan olib chiqib ketishga harakat qiladi;

Ma`lum bo`ladiki, TMKlar jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuvi, zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojiga hissa qo`shsada, milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga salbiy ta`sir etayotganidan ko`z yumib bo`lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, jahon xo`jaliklararo aloqalarida TMKlar ancha murakkab va jadal rivojlanib kelayotgan hodisadir. Urushdan keyingi g`arbiy Yevropa, YAponiya va "yangi industrial mamlakatlar"ning bosib o`tgan yo`li shuni ko`rsatadiki, TMKlar bilan raqobatga dosh berish uchun milliy kapital faol tashqi iqtisodiy siyosat olib bora oladigan baquvvat moliyaviy va sanoat tuzilmalariga birlashmog`i lozim.

Bitta partiyaning uzoq davr ustunligi kuzatilgan YAponiya jamiyati ham ko‘p partiyaviy tizimga kiradi. SHuning uchun bu mamlakatdagi tizimni bir partiyaviy tizim bilan adashtirmaslik lozim.

YAponiya, Suriya, Ispaniya kabi mamlakatlarda yakka etakchi partiyani o‘z ichiga olgan ko‘p partiyaviylik tizimining ham foydali ekanligi tajribada sinab ko‘rildi

Dunyo davlatlarining yalpi milliy mahsulotlariga muvofiq ularning ro‘yxati tuzib chiqilsa va TMK ro‘yxati bilan taqqoslansa, iqtisodiy qudratiga ko‘ra «Mitsiu» kompaniyasi 25-o‘rindagi «davlat» bo‘lar ekan, keyin esa: «Mitsubisi» (26), «Itochu» (30), «Su-mitomo» (36), «Toyota»(38) va boshqalar[5].

Ba’zi tadqiqotchilar daromadlarning global konvergensiyasi haqida gapirishmoqdalar. Ular bu boradagi fikrlarini qashshoq davlatlarning iqtisodiyoti o‘zib ketgan holda, ya’ni yanada yuqori sur’atlar bilan rivojlanayotgani bilan dalillaydilar. Haqiqatda esa ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qoloq mamlakatlar iqtisodiyoti boy davlatlarnikidan ko‘ra ancha past sur’at bilan rivojlanayotgan paytda, tez o‘sish faqat Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlarining ("Osiyo yo‘lbarslari" deb ataluvchi) kamsonli guruhi uchun xos. Ularning globalizatsiyadan oladigan foydasi juda kam, ko‘pincha esa nolga teng.

Natijada nafaqat daromadlarning konvergensiyasi va tenglashtirilishi, balki ularning qutblanishi ham mavjud.

Globallashuv tufayli tez rivojlanayotgan mamlakatlar boy davlatlarga aylanadi, qashshoq mamlakatlar ulardan yanada ko‘proq ortda qoladi. Dramatik tarzda o‘sib borayotgan daromadlardagi farq qashshoq mamlakatlarda norozilik keltirib chiqaradi, bu xalqaro mojarolarga olib kelishi mumkin. So‘nggi 15 yilda aholi jon boshiga daromad 100 dan ortiq mamlakatlarda pasaygan, 60 dan ziyod mamlakatda aholi jon boshiga talab qisqargan. (Rivojlangan mamlakatlarda yashayotgan deyarli 5 mlrd. kishi orasida 3/5 qismi eng past sanitar me’yorlarga mos kelmaydigan sharoitda yashashadi, 1/3 qismi ichimlik suvidan mahrum, 1/5 qismi esa to‘yib ovqatlanmaydi). "Imtiyozlarni adolatli taqsimlash" jahon iqtisodiyotini globallashtirishning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Ammo bu muammo, afsuski, yagona emas.

Boshqa bir muhim muammo milliy iqtisodiyotlarning umumsayyora darajasidagi o‘zaro bog‘liqligi tufayli yuz berish imkoniyati yuqori mintaqaviy yoki global beqarorlik bilan shartlangan. Bir mamlakatdagi iqtisodiy silkinish yoki bo‘hron mintaqaviy yoki hatto global oqibatlarga ega bo‘lishi mumkin. Dunyo bo‘yicha sustlik yoki depressiya populistik chaqiriqlarni keltirib chiqarishga, globallashuvning borishida qaror topgan o‘zaro bog‘liqlik va aloqalarni uzib

[5] Уткин А.И. Глобализация: процесс и осмысление. –М. : Логос, 2002, -С.38-39.

yuborishga qodir. Natijada iqtisodiy urushga aylanish xavfi bo‘lgan iqtisodiy mojaro va hatto harbiy-siyosiy to‘qnashuv kelib chiqishi mumkin.

Ayrim mamlakatlar iqtisodiyotini nazorat qilish mustaqil hukumatlar ixtiyoridan eng kuchli davlatlar, ko‘pmillatli, global korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar qo‘liga o‘tishi xavfi ham mavjud. SHu bois ba’zi siyosatshunoslar globallashuv hodisasida milliy suverenitetdan ajralish xavfini ko‘rmoqdalar. SHu sababdan globallashuv milliy davlatlar etakchilarida uning kuchi qarshisida ojizlik hissini tug‘dirishi, oddiy fuqarolarida esa uni yoqtirmaslik tuyg‘usi uyg‘otishi mumkin. Bu kabi kayfiyatlar proteksionizmga chorlovchi ksenofobiya va millatchilikni qayta tug‘dirishi, ekstrimistik siyosiy harakatni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida jiddiy mojarolarning yuz berishiga kuchli sabab bo‘ladi. Ko‘pincha ish haqi yuqori bo‘lgan iqtisodiy rivoj topgan mamlakatlardagi ishsizlikni globallashuv to‘siq bo‘ladigan hodisalar qatoriga kiritishadi. Ammo, e’tirof etish lozimki, bu kabi fikrlarni ularning ko‘pchiligida ishsizlikning past me’yori va ish haqi past bo‘lgan davlatlarda ishsizlikning yuqori darajasi inkor etadi. Haqiqatda esa bandlikka hukumat siyosati va texnologik jarayon globallashuvning boshqa omilllariga nisbatan ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi.

Globallashuv kengayib borishiga ba’zan uning ijtimoiy farovonchilikka xavfi to‘g‘risidagi afsonalarni bog‘lashadi. Biroq ijtimoiy farovonchilik darajasiga mutlaqo boshqa ta’sirlar — soliq siyosati, demografik tendensiyalar ancha ko‘proq ta’sir etadi. SHu bilan birga keyingi vaqtlarda ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarda o‘rta sinfning foiz ulushi kamayib borayotganini aniq dalil sifatida inkor etmaslik kerak.

Nihoyat, globallashuvdan asosan muayyan davlatlarning tashqi siyosatidagi muvaffaqiyatsizliklarni oqlash uchun foydalaniladi.

Jahon xo‘jaligi va xalqaro mehnat taqsimotidagi asosiy rivojlanish tendensiyalari haqida chuqur bilimga ega bo‘lmasdan turib iqtisodiy xavfsizlik muammosini tadqiqot qilish mumkin emas.

Bu tendensiyalarning asosiysi iqtisodiyotning globallashuvidir. Xorijda 2-3 ming yilliklarda geosiyosiy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishini tahlil qilarkan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimov quyidagicha izoh beradi. ”strategik vazifalarni hal etib jahon hamjamiyatida keng integratsiyalashgan, zamonaviy demokratik davlat qurishni yaxshi tushunamiz. CHunki jahon xo‘jaligi bugunga kelib ko‘p qirrali bo‘lmoqda… XXI asr xalqaro munosablarda shak shubhasiz globallashuv asri bo‘ladi.” [80]

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarini quyidagilarda ko‘rish mumkin: xalqaro kapital bozorlari hamda infrastrukturaning rivojlanganligida, global telekommunikatsiya sistemasining shakllanganligida, transmilliy korporatsiyalarning yuqori sur’atda o‘sganligi, kichik va o‘rta korxonalarning ishlab chiqarishi, iqtisodiy va investitsion faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan integratsiyalashgan milliy korporativ strukturasining tashkil topishini keltirish mumkin.

SHu bilan birga Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy o‘zgarishlarni Jahon xo‘jaligining transfarmatsiyasi bilan xalqaro raqobatning kuchayishi, kapitalning davlatlar va hududlar orasida erkin harakat qilishi, transmilliy kompaniyalar faoliyatini kengaytirish, xalqaro moliya – kredit munosabatlarni erkinlashtirish va iqtisodiy globallashuv bilan amalga oshadi.

Boshqa tomondan globallashuv rivojlangan mamlakatlarni jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlarini ham Jahon xo‘jaligi aloqalariga kirishga bir qator muammolarni ham tug‘diradi. Bu muammolar – milliy iqtisodiyotning tashqi ta’siridan himoyalanmaganligi, mamlakatlarni xorijiy bozorlarga chiqishdagi qiyinchiliklar, tashqi transport va informatsion aloqalarni rivojlanmaganligi

[80] Каримов И.А. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”- Тошкент “Ўзбекистон”, 1997 – б.288-289.

hamda ularning xalqaro tizimlardan uzoqda joylashganligi, asosiy eksport tovarlariga Jahon narxlarining o‘zgarib turishi, globallashuv xo‘jaligi faoliyatining Markaziy Osiyoda atrof muhit va energetika holatini salbiy oqibatlarga olib kelishi bilan chambarchasi bog‘liqdir.

Iqtisodiyotda globallashuv tushunchasi erkin savdo, erkin kapital oqimi, ishlab chiqarish korxonlari daromad solig‘inng pasaytirilishi, mehnat va tabiiy resurslar xarajatini kamaytirish maqsadida ishlab chiqarish tarmoqlarining davlatlararo erkin ko‘chishi kabi asosiy xususiyatlarni o‘z ichiga qamrab olsada, quyidagi xususiyatlarni ham qamrab olgan:

- Rivojlangan davlatlardagi kabi rivojlanayotgan davlatlarda uzluksiz ish haqi, narx va ishlab chiqarish daromadlarining bir biriga tenglashishi[81];
- Ishchi kuchini kamaytirish va radikal restruktizatsiya qilish maqsadida mamlakat ichida va transmilliy doirada kompaniyalar sonining ortishi;
- Internet tarmog‘i orqali moliyaviy axborotlarning butun jahon bo‘yicha tez tarqalishi va ishlab chiqarish korxonalarining ochiqligi;
- Moliyaviy birjalarning ahamiyati ortishi;
- Tovarlar reklamasining ko‘payishi;
- Mahsulotning milliylik xususiyatlari yo‘qolib borishi;
- Transmilliy kompaniyalarning soni va ahamiyati ortishi.

Iqtisodiyotning globallashuvida pirovard maqsad barcha davlatlarda muttasil iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshishini ta’minlashdan iborat. Global rejalarning yuzaga kelish tamoyili sifatida esa globallashuv xalqaro iqtisodiy aloqalar borasida yangi qulaylik va imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda turli-tuman tahdid va ziddiyatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Birinchidan, global bog‘liqik tamoyillari kuchaygan sayin jahon xo‘jalik tizimining rivojlanishidagi nomutanosiblik tobora oshib bormoqda. Rivojlangan mamakatar va rivojlanayotgan davlatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tafovut yanada ortib bormoqda. Rivojlangan davlatlar eksporti jahon eksportining qariyb 60%ni tashkil etmoqda. Rivojlanayotgan davlatlar o‘z eksport tovarlarining 70%ni rivojlangan davlatlaga sotadi. Uya mamlakat, ya’ni AQSH, YAponiya va Germaniyada jahon aholisining 9% yashaydi, ular hissaiga esa dunyo daromadining yarmi, xaridorlik quvvatining 30% to‘g‘ri kelmoqda[82]. Jahondagi “katta ettilik” mamlakatlari (AQSH, Kanada, YAponiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya) hissasiga yalpi eksport va importning qaryib yarmi to‘g‘ri kelmoqda.

Ikkinchidan, mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi intensivligi turli-tuman yo‘nalishar, mezonlar bo‘yicha xilma-xil tarzda namoyon bo‘lmoqda. Masalan, iqtisodiy tizimlarning tavsiflanishida qo‘llaniladigan “milliy bozor modellari”ni olib ko‘raylik. Bozor iqtisodiyotini shakllantirishda Germaniya belgilagan bozor modeli YAponiya, Janubiy Korea yoki Xitoydagi bozor modellaridan tamomila farqlanadi. Bozor iqtisodiyoti institutlarining barpo etishda umumiy o‘xshashliklar bo‘lsada, ularni shakllantirish yondashuvi va yo‘llari turlicha bo‘lib kemoqda.

Uchinchidan, erkin iqtisodiyotni barpo etishda xo‘jalik yuritishning jahon qoidalarini unifikatsiyalashga urinilmoqda, lekin bunda xalqaro tashkilotlarning harakatlari muvaffaqiyatsiz chiqmoqda. CHunki, har bir davlat iqtisodiyotini tartibga solish, uni erkinlashtirish va tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda o‘ziga xos vosita va uslublarni qo‘llamoqda.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik—shartnomalar va institutsional tuzilishni amalga oshirish borasidagi barcha xalqaro shartlar majmuasi bo‘lib, unda xar bir jahon hamjamiyatidagi a’zo davlatning erkin saylash va o‘zining ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyot

---

[81] Коротаев А. В., Халтурина Д. А. Современные тенденции мирового развития. М.: Либроком, 2009

[82] Международные экономические отношения:Учебник для вузов / В.Е.Рыбалкин, Ю.А.Щербанин, Л.В.Балдин и др. Под ред. проф. В.Е.Рыбалкин-5-е изд., перераб. и доп. –М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2005. 165-бет.

strategiyasini ishlab chiqishi, tashqi bosimga uchramasligi, boshqalarni ishiga aralashmasligi, o‘zaromanfaatli va o‘zaromuvofiqlik asosida jahondagi boshqa davlatlar bilan hamkorligi.

Globallashuv sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun quyidagilar taqoza etiladi:

Birinchidan, jahon xo‘jalik aloqalarida ishtirok etib, milliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish;

Ikkinchidan, jahonda sodir bo‘layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta’sirini kamaytirishga erishish. Alohida ta’kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta’siririni butunlay yo‘q qilish, unga barham berish mumkin emas.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

1)Eksport tarkibidagi xom ashyo tovarlarining ustuvorligi, an’anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo‘qotilishi;

2)mamlakatning ko‘p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari iportiga qaramligi;

3)eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, bojxona chegaralarining ochiqligi;

4)raqobatga bardoshli eksportni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarning rivojlanganligi va import tarkibining ratsional emasligi;

6)eksport-import operatsiyalariga xizmat ko‘rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivoj topmaganligi;

7) Ilmiy salohiyat oqimi;

8)Kapital oqimi;

9)Tashqi qarzlarning o‘sishi;

10)Tijorat va iste’mol mollari bo‘yicha import qaramlikning ortishi;

11)Iqtisodiyotning haddan tashqari ochiqligi;

12)Milliy tovarlarni ichki va tashqi bozorlardan siqib chiqarish maqsadida chet el kapitallarini jalb qilish.

Eksport tovarlariga narxlarning keskin pasayib ketishi yoki aksincha, import tovarlariga narxlarning keskin ko‘tarilib ketishi tashqi bozorga bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyot uchun o‘ta xavfli hisoblanadi.

Bundan tashqari, bozorlarda savdo qilish yoki mahsulot etkazib beruvchi mamlakat yoki mamlakatlar guruhi tomonidan embargo kiritilishi ham iqtisodiyotning rivojiga xavf tug‘diradi. SHuningdek, bir mamlakatdan yoki mamlakatlar guruhidan ayrim turdagi mahsulotlarni keltirishda yuqori darajadagi qaramlikka, bog‘liqlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. CHunki bu iqtisodiy qaramlikdan siyosiy jihatdan ta’sir ko‘rsatishdan foydalanishlari mumkin.

Milliy iqtisodiyot uchun uning eksporti tarkibida ikki-uch xil tovarning ustuvor o‘rinni egallashi, xatto eksport hajmining yarimidan ko‘pini tashkil etishi o‘ta xavfli holatlarni tug‘dirishi mumkin. Ko‘pgina rivojlanayotgan mamlaktlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, eksportning bunday tarkibi bunday tarkibi jahon bozori kon’yukturasi yomonlashgan sharoitda, ularga bo‘lgan talabning kamayishi oqibatida iqtisodiyot halokatiga olib kelishi mumkin.

Mamlakat eksport qilayotgan xom ashyo resurslarining jahon bozridagi narxlarning tushib ketishi oqibatida uning tashqi savdo aylanmasi pasayib ketadi. Natijada, valyuta tushumi kamayadi va bu hol mamlakat uchun zarur investitsiya loyihalarining bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Hatto milliy valyuta qadrning tushib ketishiga ham olib kelishi mumkin. SHuningdek, xom ashyo ishlab chiqaruvchi milliy korxonalarning iqtisodiy-

moliyaviy ahvoli yomonlashadi. Ularning ba’zilari xonavayron bo‘ladi, ko‘pchiligi esa ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga majbur bo‘ladi. Oqibatda, ish bilan band xodimlar soni qisqarib, ishsizlar soni oshadi. Davlat byudjetidan aholini ijtimoiy himoyalashga ajratilgan mablag‘ ko‘payib, ijtimoiy muammolar ham birmuncha keskinlashadi. Milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur’atlari sekinlashadi yoki turg‘unlikka, tanglikka yuz tutadi.

Ochiq iqtisodiyotga o‘tish o‘ta darajadagi proteksionizmdan voz kechishni taqazo etadi. Ammo mamlakatni jahon xo‘jaligiga kirib borishi nuqtai nazaridan istiqbolli bo‘lgan tarmoqlar va ishlab chiqarisharni himoya qilish, ya’ni selektiv proteksionizm zarurdir. Bu davrda iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan vatanimizda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish bozorlarini, import xom ashyo va sanoat mahsulotlari manbalarini diversifikatsiyalash, ko‘plab mamlaktlar bilan yomonlashgan munosabatlar o‘rniga boshqa mamlakatlar bilan bo‘ladigan iliq munosabatlar rivojlantiriladi.

Iqtisodiyot chuqur krizisga uchragan va kaptal mablag‘larni unga jalb qilish keskin kamayib ketayotgan sharoitda xorijiy investitsiyalar ba’zi sohalarda iqtisodiy o‘sish katalizatori bo‘lishi mumkin. Bu esa iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamashga imkon beradi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi xorijiy hamkorarning moliyaviy va moddiy resurslarini milliy iqtisodiyotga real kiritishga undashi lozim. Ular tomonidan moddiy boyliklarni arzon narxlarda ko‘lab sotib olishga yo‘l qo‘yish mumkin emas. SHunday qilib, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga keng jalb qilish choralarini ko‘rish bilan bir qatorda, bu jarayonlarni tartibga solish ham darkor. Bunda milliy manfaatlarga rioya qilgan holda, xorijiy kompaniyalarning minimal mablag‘lari evaziga butun bir tarmoqlar ustidan o‘z nazoratini o‘rnatishlariga yo‘l qo‘ymaslik lozim bo‘ladi.

Butun dunyoda milliy valyuta qadri mamlakt iqtisodiy ahvolining indikatori hisoblanadi. Mamlakatdan moliyaviy mablag‘larning katta miqdorlarda chiqib ketishi, ya’ni “kapitalning qochishi” milliy iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdiddir. Mablag‘larning chetga chiqib ketishining legal, ya’ni ochiqdan-ochiq yo‘li tijorat banklari tomonidan xorijiy banklar hisobi schetlariga katta miqdordagi mablag‘larning o‘tkazilishi hisoblanadi. Mablag‘larning chetga chiqib ketishining noqonuniy, ya’ni yashirin yo‘llarga esa quyidagilar kiradi:

-eksport mahsulot narxining pasaytirib, importda oshirib ko‘rsatish. Bunda fiktiv va haqiqiy narx o‘rtasidagi farq xorijiy kompaniya

lar tomonidan vatanimizdagi ishbilarmonning xorijiy bankdagi schetiga o‘tkaziladi;

-import uchun “avans” o‘tkaziladi, ammo import sodir bo‘lmaydi va h.k.

Mamlaktning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siyosiy ahvoliga ham jiddiy xavf tug‘diruvchi tahdidlardan bir tashqi qarz muammosidir. Tashqi qarzning yuqori darajadaligining o‘ziyoq tashqi siyosat yuritishni shubha ostiga qo‘yadi. Mamlakat qarz bergan yirik kreditor mamlaktlarga qaram bo‘lib qoladi. Tashqi qarzlarni to‘lash uchun mamlakt qarzlardan kreditlarni belgilangan muddatlarda to‘lashni kafolatlaydigan ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishda foydalanishi hamda yangi ob’ektlarni ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini kengaytirish mumkin.

YUqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyot xavfsizligini ta’minlash naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi, qolaversa, tovar va xizmatlar reklamasining mazmuni, yo‘nalishi, targ‘ib qilish usul va uslublari jamiyatdagi umue’tirof etilgan me’yorlarga javob berishga qaratilgan qoidalarni ishlab chiqish va ular bo‘yicha nazorat tizimini takomillashtirish zarur.

XX asrning so`nggi choragida jahon miqyosida yangi dunyoviy tartibning qaror topishi, avvalo, turli mamlakatlar iqtisodiyotining integratsiyalashuvi “geoiqtisodiyot»ning shakllanishi bilan uzviy bog`liqdir.

Bu jarayonning quyidagi belgilovchi omillarini ajratib ko`rsatish mumkin: “sovuq urush”da g`olib chiqqan davlatlarning harbiy qudratining kuchayishi; SHimoliy Amerika, G`arbiy Yevropa va SHarqiy Osiyoda iqtisodiyotning jadal o`sishi; Transmilliy korporatsiyalar va nodavlat tashkilotlar mavqei va ta`sirining oshishi rivojlangan va “Uchinchi dunyo” mamlakatlar o`rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi; rivojlangan davlatlarning rivojlanayotgan davlatlar tabiiy boyliklarini egallash, ishchi kuchi va intellek-tual zaxiralarini jalb etish va hokazo.

Rivojlangan mamlakatlar uchinchi dunyo ega bo‘lgan mineral xom ashyo, yoqilg‘i-energetika resurslariga ehtiyoj sezmoqda. CHunki ularning zahirasi tugab bormoqda. Tabiiy xom ashyo resurslarining, ayniqsa, gaz va neftning cheklanganligi yaqin ellik yilda xalqaro munosabatlar rivojlanishining bosh omili hisobladi. Ushbu zahiralarni qo‘lga kiritishga intilish asosida mojarolar avj oladi, kuchlar konfiguratsiyasi (kuchlar joylashuvi) o‘zgaradi. Muqobil energiya manbalarini birinchi bo‘lib topgan mamlakat nafaqat milliy iqtisodiyotini rivojlanitirish, balki geosiyosiy koordinatalarning yangi tizimini shakllantirish uchun ham barcha sharoitlarga ega bo‘ladi.

Uchinchi mingyillik oralig‘ida xalqaro munosabatlar tizimi, G‘arb adabiyotida aytilayotganidek, xalqaro tizim (International System) o‘z rivojlanishining sifat jihatdan yangi fazasiga kirdi. Uning hozirgi dunyoga ta’sirini inqilobiy deb tavsiflash mumkin. 1945-1990 yillarda mavjud bo‘lgan «sovuq urush» davridagi xalqaro tizim yoki YAlta-Potsdam tizimi nom-nishonsiz ketdi. YAlta-Potsdam tartibi o‘rniga kelgan yangi xalqaro tizim tub o‘zgarishlarning girdobli jarayonini boshidan kechirmoqda. 1980 yillar oxiri-1990 yillar boshi davomida SHarq va G‘arb o‘rtasidagi qarama-qarshilikning tugashi, sotsialistik lagerning qulashi, SSSRning tarqab ketishi, Evrosiyo qit’asida o‘nlab yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi singari butunjahon-tarixiy ahamiyatga molik voqealar sodir bo‘ldi. Xalqaro tizim “aktyorlari”ning miqdor va sifati, ular munosabatlarining modeli va o‘zini tutish qoidalari bir necha yil ichida o‘nlab yillar davom etgan «sovuq urush» davridan ko‘ra ancha chuqur o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Dunyo tartiblilikdan ko‘ra tartibsizlik, mojarolarni tartibga solish strategiyasidan ko‘ra mojarolar bilan xarakterlanadi (tavsiflanadi).

SHunday qilib, hozirgi xalqaro tizim endilikda tamomila yangi xarakter belgilariga ega:

1. Milliy davlatlar avvalgidek uning bosh aktyori hisoblanadi, bu o‘rinda gap integratsiya darajasiga qaramasdan, ixtiyoriylik sharti bilan davlatning turli davlatlararo mintaqaviy, mintaqalararo va global tashkilotlarda ishtiroki haqida bormoqda. Siyosiy hokimiyat hududiy mustaqillik (suverenitet) tamoyili asosida xalqaro huquqning boshlang‘ich sub’ektlari bo‘lib qolayotgan alohida davlatlar ixtiyorida saqlanadi. Biroq ko‘payib borayotgan global muammolarni hal qilishda ularning kuchi kamayadi. Yevropa va Osiyoning ulkan kengliklarida «real sotsializm» g‘oyasi va amaliyotining barbod bo‘lishi shunga olib keldiki, kommunistik utopiya (xayolot) o‘rnini davlat-millatni yaratish konsepsiyasi egalladi. Millat, milliy qurilish g‘oyasi qirq yoki etmish yil davomida totalitarizm zulmi ostida qolgan jamiyatlar uchun tenglashtirish ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi. Millatchilik bu jamiyatlarda konstruktiv (asosiy) kuch rolini o‘ynaydi.

2. Xalqaro xukumatlararo tashkilotlar (XHT) kabi xalqaro nohukumat tashkilotlar (XNT) sonining ham o‘sib borishi xalqaro tashkilotlar siyosiy, iqtisodiy va sotsial sohalarda davlatlarning o‘zaro bog‘liq XT manfaatlarining ortishi tufayli zarur bo‘lgan xalqaro tizimni boshqarishning alohida shaklini yaratadi. XT transchegaraviy, siyosiy jarayonning instutitsional doirasini shakllantiradi, unda ko‘p sonli davlat va hamjamiyatlardan davlat yoki nodavlat aktyorlar ishtirok etishadi. XHT ikkilamchi va yasama bo‘lsa ham, chunki ular xalqaro huquqning birlamchi

sub’ektlari — davlatlar tomonidan tuzilgan, xalqaro huquqning sub’ektlari hisoblanadi. XNT esa xalqaro xususiy huquq institutidir. Umuman, XNT siyosiy sohada davlat butkul va to‘lig‘icha o‘ziga ololmaydigan boshqaruvning ma’lum funksiyasini o‘z zimmasiga oladi.

3. Xalqaro tizimdagi qarama-qarshilik (ziddiyat) globallashuv bilan bir vaqtning o‘zida kechgan nomarkazlashtirish, mintaqalashtirish va ko‘pqutblilik jarayonlarida namoyon bo‘ladi. SHarq va G‘arb ziddiyati konfiguratsiyasi uning bipolyarliligi bilan birga endi xalqaro tizim uchun struktur belgilovchi bo‘lmay qoldi. Kuchlarning yangi mintaqaviy markazlari tashkil topdi. Eng muhim mintaqaviy davlatlar sifatida YAponiya va Germaniya, shuningdek, Xitoy va Braziliyaning ko‘tarilishida ko‘pqutblilik namoyon bo‘lmoqda. Mintaqaviy guruhlar va xalqaro tashkilotlar (Rossiya, Yevropa Ittifoqi, NAFTA Islom Konferensiyasi tashkiloti, ASEAN va sh.k. bilan birgalikda «katta ettilik») xalqaro tizimda davlatlar bilan birga etakchi aktyorlarga aylanmoqda.

4. Xalqaro tizimda qarama-qarshilik markazining SHarq-G‘arb nisbatidan SHimol-Janub o‘qiga ko‘chib o‘tishi, sodda qilib aytganda, boy SHimol bilan, kambag‘al Janub o‘rtasidagi mojaro (ixtilof) industrial va rivojlanayotgan mamlakatlar rivojining mutlaqo turlicha siyosiy, iqtisodiy va madaniy imkoniyatlariga asoslanadi. «77 lar guruhi»ga birlashgan, o‘zida 120 dan ortiq davlatni qamragan rivojlanayotgan mamlakatlar katta guruhi ichida tabaqalanish jarayoni yuz bermoqda. Unda OPEKga tegishli, son jihatdan uncha ko‘p bo‘lmagan bir necha boy (badavlat) va rivojlanayotgan mamlakatlar hamda «yangi industrial mamlakatlar» ajralmoqda. Ikkinchi tomondan, rivojlangan va rivojlanayotgan, boy va kambag‘al mamlakatlar o‘rtasidagi farq kengayib bormoqda.

«Sovuq urush» tugagandan so‘ng SHimol-Janub o‘qidagi keskinlikning kuchayishiga ko‘p jihatdan sivilizatsion omillar sabab bo‘ldi.

5. SHarq va G‘arb mojarosining tugashi «kuch» tushunchasining mazmun va o‘lchamida dramatik burilish yasadi. Kuchning mumtoz belgilari (davlat hududi o‘lchamlari, aholi soni, geopolitik holati, qurolli kuchlari soni va sh.k.) va davlatning hududiy mustaqilligi ko‘p jihatdan endi o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. G‘arb siyosiy tafakkuri ilmiy muomalaga «sezilarli kuch» va «sezilmas kuch» tushunchalarini olib kirdi. «Sezilarli kuch» kategoriyasi o‘z ichiga yuqorida qayd etilgan an’anaviy kuch belgilarini oladi. «Sezilmas kuch» kategoriyasi ilmiy-texnologik baza, iqtisodiyotning sanoat va moliyaviy quvvati, valyuta, inson boyligi (kapitali), ijtimoiy xavfsizlik kafolati, davlatning siyosiy va ijtimoiy tuzilishini himoya qilishda aholining safarbarlik layoqati singari go‘yoki bir qarashda ko‘rib va sezib bo‘lmaydigan davlat qudratining belgilaridan iborat. Kuchning ushbu yangi o‘lchamlari davlatning o‘rni, maqomi va qudratini aniqlashda yanada katta ahamiyat kasb etmoqda.

6) Dunyo tizimi «turlarning ayni bir paytda bo‘lishi» («baravar yuz berishi») bilan, ya’ni tarixiy davr va ijtimoiy makon kabi fundamental tushunchalarning ayni bir paytda mavjud bo‘lishi va bir-birining ustiga qo‘yilishi bilan duch kelmoqda. «Jahon o‘tish jamiyati»ning hali etarlicha aniqlanmagan va pishib etilmagan sharoitida, bir tomondan, davlatlararo mojarolarning mintaqaviylashuvi va markazdan uzoqlashuvi, ikkinchi tomondan, davlatlararo harbiy va davlat ichkarisidagi ijtimoiy-siyosiy mojarolarning o‘zaro qo‘shilib ketishi yuz bermoqda. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish Tashkilotiga birlashgan evroatlantika makonining sanoati rivoj topgan mamlakatlarida SHarq va G‘arb mojarosining bartaraf etilishi natijasida tinchlik barqaror va xavfsiz bo‘lgan bir vaqtda dunyoning boshqa mintaqalarida beqarorlik va ko‘tarilishlar keskin ortdi. Xalqaro munosabatlarda globallashuv jarayonlarining yonma-yon borishi va mahalliy hamjamiyatlarning saqlanishi, o‘zaro qo‘shilib ketishi va tabaqalanish, qismlarga ajralish (fragmentizatsiya) va markazdan uzoqlashish, yaqinlashish va begonalashish, mustaqillik va o‘zaro bog‘liqlik xalqaro tizim uchun xarakterlidir.

Hozirgi xalqaro munosabatlar tizimining asosiy tendensiyasi uning baynalmilallashuvidir. Zamonaviy baynalmilallashuv nafaqat xalqaro aloqa va almashinuvlarning turli-tumanligi hamda hajmlarning kengayishida, faoliyatning yangi sohalariga tarqalishida aks etadi, balki xalqaro hamkorlikning (ittifoqlar, bitimlar, tashkilotlarning) mustaqil, barqaror, mavjud va davlatdan avtonom (muxtor) ravishda harakat qiluvchi shakllarini ham tug‘diradi. Faoliyatning maqsadi, soha va yo‘nalishlari shakllanmoqda, faqat xalqaro hamkorlik bo‘lgandagina ular amalga oshishi mumkin; iqtisodiy etakchi mamlakatlarning farovonligi va rivoj topishi tashqi bozor va aloqalarga bog‘liq. Baynalmilallashtirish vositalari, uning harakatlanuvchi kuchlari o‘zgarmoqda: hozirgi paytda u asosan iqtisodiy va ilmiy texnik omillar ta’siri ostida rivojlanmoqda. Ishlab chiqaruvchi kuchlar, iqtisodiy aloqalar, texnologiyalar, ilm va texnika rivojlanishi bilan baynalmilallashuv jarayonlari kuchli va ahamiyatli bo‘lgan joyda sohalar o‘zgarmoqda.

Yirik siyosiy jarayonlarga olingan natijalar bo‘yicha jiddiy, barqaror va ishonchli ta’sir ko‘rsatish, ularni samarali boshqarish maqsadida — qo‘shilish zarur. Xalqaro barqarorlik yo‘naltirilgan va kutilayotgan o‘zgarishlarning bashorat qilingan jarayoni sifatida faqat shunday o‘zgarishlarning ishtirokchilari uchungina mumkin bo‘ladi. Xalqaro hayot va uning muhim jarayonlaridan o‘zni chetga tortish jahon iqtisodiyoti, siyosati va taraqqiyotida mamlakatning o‘rni, roli va mavqeini yo‘qotish evazigagina mumkin bo‘ladi.

Nihoyat, xalqaro hayotning sifat jihatidan yangi hodisasi — alohida davlatlar — sub’ektlar tomonidan er shari (hududiy), dunyo iqtisodiyoti va siyosati miqyosida o‘z hayotiy faoliyatlarini amalga oshirish imkoniyatlari hamda ehtiyojlariga ega bo‘lishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv asosiy belgi sifatida qandaydir muammo yoki faoliyatni darhol global (umumjahon) darajaga chiqarishni ko‘zda tutadi. SHu bilan birga, bunday faoliyat ishtirokchilarning tarkibiga ko‘ra, baynalmilal bo‘lishi shart emas, balki bitta davlat, tashkilot, firma tomonidan amalga oshirilishi mumkin (ular buning uchun tegishli imkoniyatlarga ega bo‘lishlari sharti bilan).

Hozirgi dunyo nafaqat turli-tuman va murakkab, balki ziddiyatli hamdir. Unda davlatlar o‘rtasida ham, ularning ichkarisida ham qarama-qarshiliklar o‘zaro bog‘lanib ketgan. SHunga qaramasdan, xalqaro munosabatlarning butun tizimi uchun ob’ektiv asos bo‘lib xizmat qilgan uning yaxlit sifatdagi birligi hozirgi dunyoning muhim qonuniyati hisoblanadi.

Hozir xalqaro tizimning o‘tish sifatida tavsiflanishi ham davom etmoqda, yaqin va uzoq kelajak joylashishining (konfiguratsiyasining) turli variantlari muhokama qilinmoqda, shu bilan birga, xalqaro munosabat ko‘plab turli rejadagi omil va shartlarning ta’siri ostida rivojlanib borishi vaziyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

1. S.Xantingon “o‘zaro kurashayotgan etti madaniy-diniy sivilizatsiyalar dunyosi”ning: xitoy, yapon, hind, islom, provaslav, g‘arb, lotin amerikasi va ehtimol, afrika modelini taklif qiladi. Ushbu maktab hozirgi sharoitda global siyosat ko‘p qutbli, ko‘p sivilizatsiyali bo‘lib qoldi, dunyoda yuz berayotgan jarayonlar madaniy — sivilizatsion (tamadduniy) ittifoqlarning to‘qnashuvi bilan izohlanadi, degan shiorni yoqlaydi. Iqtisodiy va texnologik modernizatsiyalarning yo‘qotilgan diniy yoki sivilizatsiya jihatidan o‘xshashligini saqlash yoki tiklashga undaydi. Bunda jahon maydonida yangi kuch va ta’sir markazlarini shakllantirish uchun real shart-sharoit hamda qarama-qarshiliklar manbai namoyon bo‘lib; sivilizatsiyalar to‘qnashuvi dunyo siyosatining asosiy omili bo‘lmoqda.

Bunday xulosa yangi mojarolar tug‘ilishi bilan asoslanadi, ular ko‘pincha etnomilliy bo‘yoqqa ega hamda ularning geografiyasi musulmon va xristian sivilizatsiyalari o‘rtasida chegara chizig‘i bilan bir-biriga to‘g‘ri kelar emish.

SHu yo‘nalishning o‘zida islom siyosiy ekstremizmi tahdidi borasidagi xavotir oshib bormoqda.

2. Taklif qilinayotgan boshqa konfiguratsiya modeli “konsentrik aylanalar dunyosi” bo‘lib, unga ko‘ra, xalqaro munosabatlar kelgusida “rivojlangan demokratik jamiyatlar” yoki “mas’uliyatli demokratiyalar hamjamiyati”ni o‘zida ifoda qiluvchi AQSH boshliq asosiy davlatlar atrofida quriladi. Bu dunyoda birinchi guruhni Amerika Qo‘shma SHtatlarining sheriklari bo‘lgan EI va YAponiya tashkil qiladi, ular “asosiy zonani kengaytirish va himoyalash yukini” Amerika bilan bo‘lishishlari mumkin. Ushbu guruh davlatlariga er yuzi aholisining 1/5 dan kamroq ulushi, ammo insoniyat iqtisodiy potensialining 4/5 ulushi to‘g‘ri keladi.

Navbatdagi konsentrik aylanaga mutaxassislar Yevropa, Lotin Amerikasi va Osiyoning “o‘tish mamlakatlari”ni kiritishadi. Ushbu davlatlarda o‘tish jarayonlari bir-biridan farq qilishi va sanoat ishlab chiqarishi, bozorlar, sarmoya, professional kompetensiya (kasbiy vakolat) va islohotlarning globallashuvi yaqin yigirma yil ichida er yuzining barcha mintaqalarida tarqalishi shart emasligi alohida ta’kidlanadi.

AQSH siyosatshunoslarining fikriga ko‘ra, bu mamlakatlarga “e’tibordan qolgan” davlatlar qo‘shiladi. Ular asosiy davlatlarning etakchilik rolini inkor qilib, vosita va imkoniyatlari bo‘lganda, ularning manfaatlariga zarar etkazar emish. “E’tibordan qolganlar” (“raugue nations”) safiga asosiy mamlakatlarning siyosiy manfaatlari va qadriyatlariga qarshi muayyan vaziyatlarda ochiqchasiga, shu jumladan, kuch ishlatish bilan chiqishi mumkin bo‘lgan Eron, Iroq, Liviya, KNDR va boshqa mamlakatlar kiritiladi. Ushbu ittifoqqa turli mamlakatlardagi ayirmachi (separatist) va fundamentalist guruhlar ham mansub.

Ushbu sxema (chizma) markazidan uzoqda joylashuvni o‘z hududlarida loqal jamoat tartibiga o‘xshash tartibni o‘rnata bilmagan va o‘z fuqarolarining oddiy ehtiyojlarini qondira olmagan “omadsiz” mamlakatlar (“failure nations”) deb ataluvchi davlatlar tashkil qiladi. Bunday mamlakatlarni qochoqlar tark etishadi, natijada er yuzining yirik mintaqalari chegarasida ijtimoiy-siyosiy vaziyat beqarorlashadi. “Omadsiz” mamlakatlarga Somali, Ruanda, Zoir, Serra-Leone va boshqa bir qator mamlakatlar kiritilgan.

3. “AQSH va G‘arbiy sivilizatsiya mamlakatlari “qoloq dunyoga qarshi” shaklidagi yana bir nazariy nizomning mohiyati quyidagilardan iborat: jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida rivojlangan, barqaror “SHimol” va yanada ortda qolayotgan beqaror “Janub”ning yangi tuzilmasi vujudga keladi; ular o‘rtasida iqtisodiy va texnologik farqning ortishi muqarrar, “SHimol”ning dunyoni “qayta o‘zgartirish”ga intilishi shu bilan izohlanar emish. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklar natijasida “Janub”ning bunga kuch bilan erishishi amrimahol. Lekin beqaror vaziyat, sharoiti yaxshi zonalarga ommaviy ko‘chish (migratsiya)ga urinish, “Janub”da iqtisodiy va texnogen halokatlar ehtimoli, qashshoqlikdan oziqlanuvchi siyosiy ekstremizmning kuchayishi dunyoni doim keskinlikda tutib turadi. “SHimol” uchun bunday vaziyatdan tubdan chiqishning ikki yo‘li bor: “Janub”dan to‘siqlanish yoki uni iqtisodiy jihatdan barqaror darajaga etkazish.

4. “Demokratik dunyo”ning nazariyasi va modeli G‘arb sivilizatsiyasining izolatsiyasiga qarshi harakatlanishning o‘ziga xos vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin, unga ko‘ra XXI asr “tinchlik va barqarorlik zonasi” hamda “tartibsizliklar va mojarolar zonasi”ga bo‘linadi. Ushbu nazariya tarafdorlari demokratik rejimlarga mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilishning ichki tarafdorligi mos (muvofiq) keladi va aynan ular tashqi siyosatda kuch bilan qo‘rqitishdan foydalanishning noqonuniyligi shiorini tarqatishlari lozim, deb taxmin qiladilar.

5. Turli xarakter va miqyosdagi integratsion jarayonlar ta’siri ostida davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tuzilmasining o‘zgarishi, ya’ni “geoiqtisodiyot”ning tashkil topishi yangi dunyo tartibi vujudga kelishiga xos bo‘lgan asosiy tendensiya sanaladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida davlat va xususiy biznes kuch-g‘ayratlarini birlashtirish jahon maydonida ta’sir

ko‘rsatishning “noharbiy vositalari (instrumentlari)” tovarlar va xizmatlar dunyo bozorida operatsiyalar o‘tkazish, xorijiy sarmoya qo‘yish, yangi tadqiqot va ishlanmalar sohasida hamkorlik (va raqobat) rolini oshiradi.

Umuman, o‘z jamuljamligi bilan jahon hamjamiyatini yangi holatga olib boruvchi qator qudratli omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin: davlatlarning harbiy qudrati; “sovuq urush”dan g‘olib chiqish; SHimoliy Amerika, G‘arbiy Yevropa va SHarqiy Osiyoda iqtisodiyotning keskin ko‘tarilishi; transmilliy korporatsiyalar va nodavlat tashkilotlar ta’sirining o‘sishi fonida davlatlar ahamiyatining pasayishi; davlat va xalqlarning yangi sharoitlarda yangi bir xillikni qo‘lga kiritishga intilishlari; qashshoqlik va boylik qarama-qarshiligining kuchayishi; XX asrda qaror topgan dunyo konfiguratsiyasini tubdan o‘zgartirishga qodir rivojlanayotgan mamlakatlardagi demografik portlash.

Davlatning jahon maydonidagi ierarxik o‘rni ham raqamlar bilan o‘lchanadigan xarakterga (tavsifga), ham baho xarakteriga (tavsifiga) ega bo‘lgan ko‘plab parametrlar (o‘lchamlar) bilan belgilanadi.

Davlat qudratining eng umumiy tavsifi — bu yalpi ichki mahsulot, aholi, hudud, shuningdek, qurolli kuchlar sonidir (eng avvalo, yadro qurollarini qo‘shganda). 1990 yillarda etnik, diniy zamindagi turli qurolli mojarolarning ko‘pligiga qaramay, dunyo siyosatida moliyaviy-iqtisodiy va savdo-iqtisodiy muammolar ustun mavqeda bo‘lgani umume’tirof qilingan edi. Hozirgi paytda xalqaro terrorizm, ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishi kabi muammolarning ahamiyati oshdi, dunyo siyosatida yadro omili yana dolzarb bo‘lib qoldi. Terrorizmning ahamiyati sezilarli o‘sib bormoqda. Hududning kattaligi davlatning harbiy xavfsizligini oshiradi, qishloq xo‘jaligi uchun keng maydon beradi, transdavlat transport yo‘laklari uchun, atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish va shu kabilar. uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Dunyoda kuchayib borayotgan strategik mavhumlik, beqarorlik etakchi kuch markazlariga nisbatan “tekis vektorlilik” (ravnovektornost), uzoq muddatli muayyan dunyoviy yoki mintaqaviy kuch markazlariga kirishdan uzoqda turish, ayni paytda ular va boshqa davlatlar bilan imkoni boricha o‘zaro foydali, teng huquqli mazmundagi sheriklik munosabatlarini kuchaytirish kabi tashqi siyosat strategiyasini saqlash hamda rivojlantirish muhimligini isbotlamoqda.

Integrallashuv jarayonlarini aniqlashtirish va tushuntirish borasidagi turli nazariy konsepsiyalar birgalikda mavjud bo‘lib, bir-biri bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Biroq, asosiy masala kun tartibida turishda davom etmoqda: mintaqaviy integratsiyaning kuchayishi global erkin savdo maqsadiga yaqinlashishga layoqatlimi? Jahon iqtisodiyotining global tartibi (rejimi) globallashuv va mintaqaviylashuv jarayonlarining birga mavjud bo‘lishi hamda birgalikda harakatlanishiga yo‘l beradi.

Globallashuvning eng katta muammosi “kim yutib chiqadi?” degan savol bilan bog‘liq. Ustunlikning katta qismini amalda boy davlatlar yoki individlar qo‘lga kiritadi. Globallashuv samarasining notekis taqsimlanishi mintaqaviy, milliy va baynalmilal hamda umumjahon miqyosida mojarolar xavfini tug‘diradi.

Mintaqaviy darajada ham, global darajada ham institutsionallashuv mavjud. Masala shundaki, ushbu darajalar qanday qilib bir-biri bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi va bir-birini kuchaytirishi yoki o‘zaro ziddiyatga kirishishi mumkin. Balki, global tartib ichidagi mahsuldor mintaqaviy sheriklikni (xavfsizlik sohasida ham siyosiy, iqtisodiy hamkorlik) “mintaqalararo globallashuv” sifatida belgilash mumkin. Mintaqaviy tashkilot va kaolatsiya ayrim muammolarning alohida bilim va tajribalaridan, mintaqa ichidagi katta legitimlilikdan foydalanib hamda namoyish qilib global tashkilotlar yukini sezilarli darajada bo‘lisha olishlari mumkin. Ammo, global tashkilotlarning alohida siyosiy legitimliligi tufayli va ular xavfsizlik chaqiriqlariga mintaqadagi

davlatlar samarali javob berishga qurbi etmagan yoki bu masalada siyosiy betaraf bo‘lgan holatlarda ekstraregional aralashuv tizimini o‘zida ifodalagani uchun mintaqaviy tashkilotlar global tashkilotlarsiz faoliyat ko‘rsata olmaydi.

5-mavzu. Madaniyat sohasidagi globallashuvning mohiyati.

Reja:

1. Madaniyat sohasidagi globallashuv jarayonlarining mazmun-mohiyati.
2. «Ommaviy madaniyat» va mafkuraviy tazyiqlar.
3. Madaniy muammolari va milliy-ma’naviy qadriyatlarning saqlash zaruriyati.
4. Madaniy globallashuvga axborot texnologiyalarining ta’siri.

“Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz bir masalaga alohida e’tibor berishimiz lozim. Ya’ni kommunistik mafkura va ahloq normalaridan voz kechilgandan so‘ng, jamiyatda paydo bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va ahloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo‘lishi kerak”.

Islom Karimov

Madaniyat sohasidagi globallashuvning mohiyati. Mazmuniga ko‘ra amerikacha madaniyatni ifodalagan bu jarayon, albatta, yagona, emas. unda lokalizatsiya – global madaniyatni mahalliy sharoitlardan kelib chiqib o‘zlashtirish ham muhim hisoblanadi. Bu yerda globallashuv jarayoni duragaylashuv orqali namoyon bo‘layotgani ravshandir.yuqorida ham aytilganidek, globallashuv g‘arb ta’sirining dunyoga yoyilishi bilan boshlangan. Lekin madaniyat sohasida, ayniqsa, keyingi davrlarda, boshqa jihat – sharq madaniyatining ham g‘arbga muayyan ta’siri ko‘zga tashlanmoqda. Gap bu yerda New Age shaklidagi diniy madaniyatning Yevropa va Amerikadagi millionlab kishilarga karma, individ bilan tabiat o‘rtasidagi mistik aloqalar va boshqalar singari va meditatsiya, yoga, jangovor san’at va hokazolarning tasavvur hamda xatti-harakat darajalaridagi ta’siri to‘g‘risida boradi.Globallashuvning madaniyat sohasidagi ko‘rinishidan ma’lum bo‘ladiki, bu sohada, birinchidan, texnologik munosabatlar tobora ko‘zga tashlanmoqda, ikkinchidan, kichik madaniyatchilik (multkulturalizm) yuzaga kelib «individual madaniyat»ni voqelashtirmoqda; uchinchidan, madaniyatning axloqiy, diniy va etnik boshqaruvchilari kabi muhim qadriyatlarining ahamiyati pasaymoqda; to‘rtinchidan, ommaviy madaniyat va maishiy industriya keng tarqalmoqda.Bularning bari ko‘rsatadiki, globallashuv jarayoni hozirgi jamiyatda jipslashuvga olib kelmaydi, balki shaxslararo an’anaviy aloqalarning yo‘qolib borishi, begonalashuvni, berilgan imkoniyatlardan qoniqmaslikni keltirib chiqaradi.

Sobiq Ittifoq mafkurasi madaniy aloqalar kuchaytirilsa, keyinchalik millatlar madaniyati bir-birini boyitadi, millatlar orasida tafovut qolmaydi, degan g`oyani oldinga surgan va ayni shu ishni amalga oshirish niyatida bo`lgan edi. Agar, g`araz aralashmagan bo`lsa, bu niyat o`z holicha yaxshi. Lekin, barcha millatlar o`z tarixiy ildizlari bilan qayta bog`lanmaguncha bu uning amalga oshmasligi ravshan. Vaholanki, markscha mafkura bu ildizni inkor etib kelgan edi. Umuman, hozirgi davrda butun insoniyat bu ildizdan mutlaqo uzoqlashib ketgan. SHuning uchun endilikda milliylikni bartaraf etadigan har qanday ongli yoki ongsiz jarayonlar millatni o`ldirish bilan

tengkuchlidir. SHu ma`noda globallashuv jarayoni millat hayoti uchun juda xavfli va mamlakatimiz rahbarining milliy o`zlikni shakllantirish va rivojlantirish yo`lidagi chaqiriqlari quruq shior emas, badki endilikda hayot-mamot masalasidir. Millatning o`limi esa uning o`z ma`naviyati, madaniyatining yo`qolishidadir.

Elitar madaniyat deyilganda G`arb falsafasida, xususan, elitar madaniyat mafkurchisi bo`lgan X.Ortega-i-Gasset jamiyatning ijodiy daholari, sara insonlar (elita[83[128]]) tomonidan yaratiladigan yangi, noyob, individual, hech qachon takror yaratib bo`lmaydigan san`at, adabiyot, musiqa asarlarini tushunadi. Ushbu madaniyat keng omma tomonidan tushunilmaydigan va hammaga tushunarli bo`lish maqsadini ham ko`zlamaydigan madaniyatdir. U faqat san`atning o`zigagina xizmat qiladi va faqat elita tomonidan tushunilishi mumkin bo`lgan madaniyat hisoblanadi. Bu asarlarni tushunish omma bilmaydigan maxsus san`at tilini bilishni taqozo etadi. SHu ma`noda elitar madaniyatni oliy (yuqori) madaniyat deb ham ataladi. Masalan, Kafka asarlari, Pikasso rasmlari G`arbda shunday asarlar hisoblanadi. Lekin oliy madaniyat xalq va millat madaniyati ildizlaridan ozuqlanadi va unda millat madaniyati taraqqiyoti akslanadi. Bu asarlar asrlar o`tgach, jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida, masalan, CHaykovskiyning "Kichik oqqushlar raqsi" yoki Vival`dining "Yil fasllari" asari kabi hamma uchun tushunarli bo`ladigan vaqt kelishi mumkin. Unda bu madaniyat barchaning umumiy madaniyatiga aylanadi.

Elitar madaniyat tushunchasi aslida yangi emas. Bu madaniyatning ko`pqatlamli xodisa ekanini ifodalaydigan qarash bo`lib, bu hamma davrlar madaniyatiga xos bo`lgan. "Madaniyat, - deydi, masalan, N.A. Berdyaev, - ierarxiya tashkil etadi. Uning ichki mazmunida bu qadriyatlarning aniq pog`onaviy tartiblashuvi mavjud..."[84[129]]

CHindan ham, qadimdan madaniyat turli qatlamlarni tashkil etgan. Masalan, ilohiy bitiklar, muqaddas kitoblarga jo bo`lgan mazmun payg`ambarlar, kohinlar, avliyolargagina tushunarli bo`lgan. Ular o`z madaniyatlarining sirini (mistik mazmunni) saralab olingan izdoshlargagina etkazganlar, omma esa "rivoyatlar" bilan qanoatlanishiga to`g`ri kelgan. O`rta asrlarning boshlarida Injilning savodi yo`q kishilar uchun mo`ljallangan, ko`p rasmlardan iborat soddalashtirilgan varantlari mavjud bo`lgan. Hamma savodxon bo`lgan davrlar kelgach, madaniyatning ommabop (saviyasi yuzaki, oldi-qochdi, qaltis ishqiy va boshqa sargushatlardan tashkil topgan, keng omma ko`ngilxushligiga mo`ljallangan) mazmuni ham shakllandi, kengaydi va rivojlandi. Quyida madaniyatning ayni shu mazmuni haqida gap ketadi.

Ommaviy madaniyat elitar madaniyatdan farqli o`laroq har kim tushuna oladigan, lekin bahosi oliy bo`lmagan madaniyat hisoblanadi. U jamiyat ko`pchilik a`zolarining (ommaning) oliy (elitar, yuqori) qatlam madaniyatidan orqada ekanining ko`rsatkichi bo`ladi. Ommaviy madaniyat elitar madaniyatga nisbatan juda tez o`zgaruvchan, harqanday yangilik, moda orqasidan ergashuvchi , har bitta yangi hodisaga javob berishga hozir ekani bilan ham xarakterli. Elitar madaniyat namoyandalari uchun eng muhimi o`z g`oyalarini, tuyg`ularini o`z asarlarida ifodalashdan iborat bo`lsa, ommaviy madaniyat uchun eng muhimi bu asarlar tufayli keladigan daromad hisoblanadi.

Ko`pchilik G`arb faylasuflari (F. Nitsshe,O.SHpengler, M. Veber, N. Berdyaev, Z. Freyd, E. Fromm, K. YUng, Dj. Bentam, D. Rismen, F. Livis, D. Tompson, R. Vil`yams, R. Xoggart) ommaviy madaniyatni negativ baholaganlar, uni xalq madaniyatlari an`anaviy shakllarining o`rniga kelgan maxsus madaniyat tipi deb qaraganlar. Ularning asarlarida "ommaviy madaniyat" ruhiy erksizlikning to`liq ifodasi, inson shaxsini bir-biridan beganolashtiruvchi va

---

[83[128]] Elita deganda bu erda jamiyatning yuqori, hukmdorlar qatlami, aslzodalar emas, balki ruhan, axloqan va estetik jihatdan yuksak, buyuk iste`dodga ega bo`lgan insonlar tushuniladi. Bunday shaxslar jamiyatning barcha qatlami orasidan chiqishi mumkin va ular jamiyatni ham boshqarishga qodir hisoblanadi. Ular ruhiy aslzodalar deb qaraladi.

[84[129]] Berdyaev N.A. Volya k jizni i volya k kulture.// Slovo. 1990. №1.

ezuvchi ijtimoiy mexanizm deb talqin etiladi. Xatto O.SHpengler ommaviy madaniyatning kelib chiqishini tsivilizatsiyaning inqirozi belgisi sifatida baholagan edi. A.B.Gofmanning tushuntirishicha, ommaviy madaniyat bu krizisga uchragan jamiyat madaniyati mazmunidagi qatlamlar parchalana boshlagan davr kelganini ko`rsatuvchi o`ziga xos holat deb tushuntiradilar. SHuning uchun ommaviy madaniyat odatda formal (rasmiy) xarakter kasb etadi, uning faoliyatida mohiyatga oid mazmun, xususan, an`anaviy axloqiylik yo`q.

Ommaviy madaniyat haqida gap ketarkan, bu borada kuchli tanqidiy kontseptsiyani oldinga surgan taniqli ispan faylasufi Xose Ortega-i-Gasset qarashlariga to`xtalmaslik mumkin emas. Uning fikriga ko`ra jamiyat o`ziga xos, noyob fazilat egalari bo`lgan sara kishilardan iborat ozchilikka va bir-biridan deyarli farq qilmaydigan, shaxsiy qiyofasi va iqtidori ko`rinmaydigan ko`pchilikka, ya`ni ommaga ajratiladi. SHaharlarda aholi sonining tez ortishi va tor ixtisoslashuv “ommaviy insonni” vujudga keltirdi, madaniyat imkoniyatlarini kuchsizlantirdi va tsivilizatsiyani ruhan barbod qildi. Vaholanki, bu xulosada ispan faylasufi yolg`iz emas. Uning bu fikrlari avvalo O.SHpenglerning tsivilizatsiya inqirozining belgilari sifatida sanab o`tgan “industriya taraqqiyoti, ulkan shaharlarning vujudga kelishi, jamiyatning inqirozga uchrashi, odamlarning qiyofasi yo`q “omma” ga aylanishi” haqida g`oyalari bilan juda uyg`undir.

Ana ana shu qiyofasiz, agressiv omma tufayli, X1X da demografik portlash sodir bo`ldi. Bu demografik portlash liberal demokratiya, eksperimental fan va texnika asosida dunyoni yangitdan qurish jarayoni bilan birga kechdi. YAngi jamiyat - tsiviliatsiya vujudga kelgach, inson qulay yashash shart-sharoitlariga ega bo`ldi, tirikchilik uchun tinimsiz kurashdan ozod bo`lgan, hamma narsani tayyor qo`lga kiritadigan bo`ldi. “Ommaviy inson” ayni shu sharoitning natijasi o`laroq shakllandi.

X.Ortega-i-Gassetning tushuntirishicha, ommaviylik tushunchasi kishining qaysi ijtimoiy qatlamga tegishliligi bilan bog`liq emas, balki XX asr jamiyatining barcha qatlamlarida insonning shunday tipi hukmron mavqega ega bo`lib bordi. YA`ni bunday inson tipi jamiyatning yuqori qatlamidan quyigacha barcha qatlamlarida mavjud. O`z axloqi, didi, tafakkuriga ko`ra boshqalardan farq qilmaydigan ommaviy odam yuksak estetik g`oyalarga, falsafiy va siyosiy qarashlarga ega emas. SHuning uchun o`ziga mos madaniyatnigina vujudga keltira oladi. SHuning uchun endilikda ommaviy madaniyat nafaqat oliy madaniyat bilan bir vaqtda mavjud bo`lib kelmoqda, balki uni ijtimoiy hayotda uning o`rnini egallashga va olamni boshqarishga intilmoqda.

Ispan mutafakkirining bu g`oyalari Frankfurt maktabi vakillarining “ommaviy jamiyat” nazariyalari , shuningdek, K. Mangeym, X. Arendt kabi faylasuflarning qarashlari bilan hamohang. Ushbu maktab vakillari, ayniqsa, T. Adorno, M. Xorkxeymera, V. Ben`yamina va G. Markuzening nuqtai-nazarlariga ko`ra ommaviy madaniyatning shakllanishiga ijtimoiy munosabatlarning savdo-cotiq bilan ham uzviylashuvi, ya`ni “madaniyat industriyasining” (kino, radio) kelib chiqishi ta`sir etgan. Kanadalik sotsiolog G.M. Maklyuen ham ommaviy madaniyatning bunday keng ko`lam kasb etishi va qaror topishini OAVning rivojlanishi va mukammalashuvi bilan bog`laydi.

Avstriya ruhshunosi Z.Freyd va boshqa ko`pchilik tadqiqotchilarning kuzatishlariga ko`ra ham “ommaviy madaniyat”da iste`molchini qanday qilib bo`lmasin “ishontirish, unga o`z g`oyalarini yuqtirish”, uning ong ostiga ta`sir etish mexanizmlari amal qiladi. U katta zalda pop muzika eshitarkan yoki kino ko`rarkan, uyida o`tirib televizor ko`rarkan, “ommaviy kayfiyatini” o`ziga singdiradi. Natijada inson o`zligini saqlay olmay qoladi, ommaga singib, qorishib ketadi, uning elementlaridan biriga aylanadi. Ayni shu ma`noda Nitsshe bu madaniyat mazmunini “demokratik mazmun” deb atagan bo`lsa kerak.

Avvalo omma diqqatini jalb etishga intilishdan iborat bu jarayon madaniyat asarlarini sanoat ishlab chiqarish jarayoniga aylanadi. SHuningdek, ilgarilari avvalo san`at asari bo`lib, keyin

sotuvga chiqqan narsalar ommaviy madaniyatda faqat tovarga aylandi. SHu ma`noda “Ommaviy madaniyat” asoschilari Gollivud (AQSH) biznesmenlari bo`lganlari bejiz emas. Har qanday boshqa tovarlar kabi bu tovarlar ham o`z bozoriga ega bo`lishga va uni tobora kengaytirishga intiladi. Barcha tovarlar kabi ommaviy madaniyat tovarlari ham xaridorgir bo`lishga intiladi. Buning uchun u avvalo ko`pchilik omma kundalik qiziqish ehtiyojlarini hisobga oladi.

Bu yo`lda u SPID, narkotiklar, tabiatdagi kataklizmalar, yirik texnogen katastrofalar, terrorizm, agressiya, daxshat, seks kabi o`tkir mavzulardan keng foydalanadi, shuningdek, ur-sur (boevik), daxshat mavzularidagi trillerlar ham xaridorgir hisoblanadi. Bu mavzudagi asarlar odatda tamoshabin uchun o`ziga xos narkotikka aylana boradi. Oxir oqibatda ommaviy madaniyat insonni diydasi qattiq, atrofida sodir bo`layotgan og`ir ahvolga, zo`ravonliklarga befarq jonsiz, hissiz biorobotga aylantiradi.

Ommaviy madaniyatning syujetlari esa, ular qaysi janrda (detektiv, ishqiy roman, sarguzasht) ekanidan qat`iy nazar, odatda deyarli bir xil formula asosida yaratiladi: “asar” qahramoni qiyin vaziyatga tushib qoladi, keyin bir amallab bu vaziyatdan chiqib ketadi. Va, aksincha, ommaviy madaniyat xili qancha mustahkam qaror topsa, ya`ni ommalashsa, uning ta`sir kuchi, obro`si ham shunchalik ortadi. Natijada u inson ma`naviy dunyosini o`zi xohlagancha boshqarish imkoniyatiga ega bo`ladi. OAV yordamida u yoki bu mafkurani o`tkazmoqchi bo`lgan siyosatchilar ham, tovarlarini reklama qilish orqali o`z bozorini kengaytirish maqsadini ko`zlagan ishlab chiqaruvchilar ham uning shu jihatidan foydalanadilar.

Ommaviy madaniyat, yuqorida tilga olingan G`arb mutafakkirlarining tushuntirishlaricha, real obrazlarga emas, balki odamlarning vaqtini chog` qilishga, xordiq chiqarishiga, ular diqqatini tortishga mo`ljallanganligi va industriya egalarining bir-biri bilan raqobatiga asoslangani uchun iste`molchida konformizmni (sharoitga passiv moslashuvchanlikni) shakllantiradi (chunki, ommaviy madaniyat asarlarida individ yashayotgan ijtimoiy-madaniy muhitda sodir bo`ladigan barcha hodisalarga tayyor engilgina “javoblar” bor), uni bachkanalashtiradi, uning ma`naviy rivojlanishiga yo`l qo`ymaydi, uning qadriyatlari tizimini o`zgartirib yuboradi. Bir so`z bilan aytganda, ayni shu xolat hozirgi G`arb madaniyatida sodir bo`lgan kuchli ma`naviy inqiroz manzarasini ochib beradi.

Bizning bu erda ommaviy madaniyat tahliliga chuqurroq to`xtalishimizning sababi shundaki, birinchidan, G`arb ma`naviy inqirozining infektsiyasi hozirgi informatsion ochiqlik sharoitida ayni shu madaniyat orqali bizga ham oqib kirmoqda. Ikkinchidan, ayni shu madaniyat bizga o`z mafkurasini singdirishga urinmoqda.

Prezidentimiz I.A. Karimov yoshlarni ochiq axborot olish davrida hukm surayotgan umumbashariy ma`naviy krizisdan asrash muammosiga alohida e`tibor qaratgani ham ushbu masalaning naqadar jiddiyligi va dolzarbligini ko`rsatadi: “...keyingi yillarda ko`plab namoyish etilayotgan *jangarilik fil`mlarini* olaylik, - deydi U. - Bu fil`mlarni ko`pchilik, ayniqsa, yoshlar maroq bilan ko`radi, chunki odamzot tabiatan mana shunday to`polonlarni tomosha qilishga moyil… Afsus bilan ta`kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko`ra vaxshiylik, *ur-yiqit instinkglari, ya`ni xatti-harakatlarini qo`zg`atib yuborish osonroq*. Ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday fil`mlardan ko`pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizliklarni o`rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag`irlik, zo`ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o`zi ham sezmay qoladi. Hatto shunday tomosha va fil`mlarning qahramonlariga ko`r-ko`rona taqlid qilishni istaydigan yigit-

qizlar ham topiladi. CHunki ular bunday uydirma talqinlar ta`sirida qo`l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini tushunib etmaydi.”[85[130]]

SHu ma`noda amerikalik ruhshunos M. Bell uni tavsif etib, “Bu demokratik madaniyat. U sinfingiz, millatingiz, kambag`al yoki boy ekaningizdan qat`iy nazar siz odamlarga atalgandir. Bundan tashqari, hozirgi ommaviy kommunikatsiya vositalari tufayli yuqori badiiy qimmatga ega bo`lgan juda ko`p asarlar kishi hayotiga kirib keldi” deganida bu madaniyatni biryoqlama, mutaassiblarcha baholagani ko`rinadi.

Vaholanki, endilikda ommaviy madaniyatning hamma yoqqa erkin kirib kelishi imkoniyatlari juda ortib bormoqda. Bu madaniyatga qarshi tura olish, kurash olib borish uchun bu imkoniyatlarni yaxshi tasavvur etishning zarurati katta. Ular avvalo inson onging xususiyatlaridan foydalanishga tayangan bo`lib, asosan quyidagilardan iborat:

Individning ruhan va aqlan ijtimoiy jayonda faol ishtirok etishni istamasligi. Boshqacha aytganda, jamiyat a`zolarining ko`pchiligiga xos bo`lgan inertlik (loqaydlik, passivlik, dangasalik).

Kundalik muammolardan, doimo takrorlanishdan iborat bo`lib qolgan zerikarli, odatiy va mutaasiblik kayfiyatidan chetlashish hoxishi.

- O`z muammolarining boshqa insonlar va jamiyat tomonidan ham tushunilishi va his etilish istagi.

Ommaviy madaniyat inson ongining shu xususiyatlaridan foydalanadi. U odatda avvalo o`z bo`sh vaqtini qanday o`tkazishni bilmaydiganlar diqqatini o`ziga tortadi. U engil qabul qilinadigan, inson ko`nglini xushlaydigan hayollar, go`zal manzaralar va sarob dunyosiga olib kiradi, unga dam beradigan, unga shaxsan yo`naltirilgan jihatlari bilan kishiga yoqadi. Boz ustiga kundalik muammolarga original va juda engil hozirjavobligi bilan hali chiniqmagan katta ko`pchilik ongini zabt etadi. “Ommaviy madaniyat”ning “vaqtichog`lik qilish san`ati”, “charchoqqa qarshi” san`at yoki yarim madaniyat kabi nomlarni olgani ham shuning tufaylidir.

Ommaviy madaniyatning negativ jixatlari sanab o`tilarkan, uning mazmunida turli darajalar borligini ham e`tiborga olish kerak, albatta. Unda juda sayoz va zararli maxsulotlar bilan birga A.Kristining detektivlari yoki boshqa janrlardagi arzirli asarlar ham uchraydi. Lekin ko`p xollarda asarlarni hammaga yoqimli qilishga bo`lgan intilish ko`pincha bu asarlarning ham umummadaniy saviyasi darajasini tushiradi. CHunki ommaviy kommunikatsiya o`z nomi bilan ommalashuv uchun mo`ljallangan. SHuning uchun ular saviyasi o`rtadan past kishilar intellektul ehtiyojlarini qanoatlantirishi etarli. Boshqa tomondan qaralsa, ayrim tadqiqotchilar nuqtai nazariga ko`ra, ayni ommaviyligi tufayli madaniyatning muayyan mazmunidan jamiyatning eng quyi qatlamlari ham o`zlariga keragini olish imkoniga ega bo`ldi. Bizningcha, bu keyingi masala xali to`liq va uzil-kesil echimga ega bo`lmagan murakkab masalalar qatoriga kiradi.

XX asr o`rtalariga kelib, elitar madaniyat mazmunida o`zgarish sodir bo`ldi. CHin san`at asarlaridan judo bo`lgan omma o`zi uchun ishlab chiqilgan “maxsulot” bilan qanoatlanib yurgan esada, ommadan ajralib qolgan elita o`zining ommadan mutlaqo chetlashib ketganiga ortiq befarq qola olmadi. Buning natijasi o`laroq elitar madaniyat namoyandalari ikki madaniyatni bir biriga yaqinlashtiradigan asarlar yarata boshladilar. Masalan, italiyalik faylasuf U.Eko dedektiv janrida maktab o`quvchilari, uy bekalaridan tortib to faylasuflar va iloxiyotchilarning ham qiziqishlarini qondirishni mo`ljallagan oliy madaniyat asarini yozdi. Bu kitobning ro`yxatda o`n yildan ortiq bestseller sifatida turgani uning maqsadi amalga oshganini ko`rsatadi. Endilikda shu asar bilan insoniyat G`arb madaniyatida postmodernizm davriga qadam qo`ydi deb qaralmoqda. Postmodernizmda elitar madaniyat kontekstiga ommaviy madaniyat elementlari kiritilmoqda yoki

[85[130]] Karimov I.A.Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas`ulmiz.9-jild.- T.:O`zbekiston, 2001. B.74-75.

ikkisi ham kesatiqli kontekst vositasida bir mazmunga kiritilmoqda. Postmodernizm ikki madaniyatni bir-biriga yaqinlashtirishda oxir oqibatda nimaga erishishi hozircha juda qorong`u.

Ushbu muammoni yoritishda hozirgi rus faylasuflaridan ko`pchiligi SHarq donishmandlari, xususan, hinduizm va b. ezoterik ta`limotlarni hozirgi davrga tatbiqan qayta onglash asosida (Maxatmalar, Rerixlar tomonidan) qayta ishlab chiqilgan Hayotiy Axloq Ta`limot paradigmasiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Hayotiy Axloq paradigmasiga ko`ra, ommaviy madaniyat yolg`on madaniyatdir, zero uning ko`pchilik shakllari chin (ya`ni oliy) madaniyatdan farqli o`laroq, insonparvar ijtimoiy tamoyillar taraqqiyotiga va inson ruhiy evolyutsiyasiga olib kelmaydi. CHinakam madaniyatning vazifasi va maqsadi - insonni tuban nafs xohishlaridan poklanib borishi orqali ma`naviy yuksaltirish va barkamollashtirishdan iboratdir. Ommaviy madaniyat esa bunga mutlaqo qarama qarshi keladigan ishlarni amalga oshirmoqda – u inson ongi va instinktlarining (nafsining) tuban mazmunini zo`r berib qo`g`otmoqda, shaxsni axloqiy va intellektual inqirozga olib kelmoqda.

Vaholanki, bu g`oyalar bizning “madaniyat inson va insoniyat hayotining ma`no va maqsadini to`g`ri ko`rsatib bera oladigan hamda uning faoliyatini shunga muvofiq yo`naltira oladigan g`oyalar, tasavvurlar va his-tuyg`ularning organik birligidan iboratdir” degan ta`rifimiz bilan ham, Aurobindo Gxoshning “Madaniyat ruh, intellekt va vujud (tana) orasida uyg`unlikka erishuv demakdir”, degan ta`rifi bilan ham va, eng muhimi, xalqimizning yuksak metafizik qadriyati bo`lgan tasavvuf ta`limotining “Komil inson” kontseptsiyasi bilan ham uyg`undir.

SHunday qilib, ommaviy madaniyat, o`z kelib chiqishiga ko`ra, G`arb madaniyati “taraqqiyoti”ning qonuniy maxsulidir. Uning keng tarqalishida aholi sonining ortishi, hammaning ma`lumotga ega bo`lishi, fan-texnika taraqqiyoti munosabati bilan ommaviy elektron axborot vositalarining rivojlanishi, “madaniyat industriyasi”ning vujudga kelishi katta rol o`ynadi. U endilikda go`yo jamiyat ijtimoiy strukturalari va mafkura bilan hech bog`liq bo`lmagan, geografik chegaralarni olib tashlagan (kosmopolitik) “umumbashariy madaniyat” ekani da`vosi bilan chiqmoqda. Bu esa mazkur ma`naviy inqirozning ko`lami va xavfi mislsiz kattaligini va unga qarshi chiqish uchun naqadar katta safarbarlik talab qilinayotganini ko`rsatmoqda.

Ommaviy madaniyatning paydo bo‘lishi va rivojlana boshlashi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. “Ommaviy madaniyat” an’anaviy madaniyatning ma’lum yo‘nalishi sifatida emas, balki madaniyatdagi sifat o‘zgarishi, hayot taqozasi asosida yuz berdi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya (radio, kino, televidenie, ko‘p nusxali gazetalar, suratli jurnallar, internet) vositalarining keskin rivoji va tarqatilishi bunga sabab bo‘ldi. Ma’naviy boyliklarni industrial tijorat ishlab chiqarish va tarqatish, madaniyatni demokratlashtirish, aholi bilim darajasi o‘sishi bilan birga uning ma’naviy ehtiyojlarida pasayish jarayoni kuzatila boshladi.

Tadqiqotchilar ommaviy madaniyatning dastlabki shakli XIX asrning 30-yillarida adabiyotda paydo bo‘lgan va ommalashib ketgan sarguzasht janrini ko‘rsatishadi. Asr oxirida haftalik ommaviy axborot vositalari ana shunday asarlarni tinimsiz chop eta boshladilar. Vaqt o‘tishi bilan ushbu jarayonga “YUrak matbuoti” yoki “Qalb industriyasi” deb nom berdilar. Asr oxirida Amerika Qo‘shma SHtatlarida ommaviy madaniyatning **komiks** shakli paydo bo‘la boshladi. Bu janr boshda faqat bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, bora-bora kattalar hayotining ham ajralmas qismiga aylandi. Aniqrog‘i, “Ommaviy madaniyat”ning keskin rivoji XX asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. SHu vaqtdan boshlab u keng qamrov va xujumkorlik bilan tarqala boshladi.

An’anaviy madaniyatda bo‘lganidek, ommaviy madaniyatning ham universal xarakteristikasi hamon mavjud emas. Buni shunday tushuntirish mumkin. Gap shundaki, “Ommaviy madaniyat” ilmiy-falsafiy kategoriya sifatida o‘ziga yakdil uchta tushunchani qamraydi.

Birinchidan, **“madaniyat”** – alohida xarakterdagi mahsulot. Ikkinchidan, **“ommaviylik” – mahsulotni tarqatish me’yori.** Uchinchidan, “madaniyat” – ma’naviy boylik.

Ommaviy madaniyat hozir insoniyat hayotining barcha jabhalariga tez kirib bormoqda va o‘zi tarqalish uchun qulay makonni shakllantirmoqda. Kommunistik mafkura hukmronligi davrida o‘ziga xos komunistikmadaniyat – komunistik Sobiq Ittifoq mintaqasida, mafkuraviy temir devor madaniyatga joy qoldirmas edi. Temir devor yiqilgach, Ommaviy madaniyat sovet respublikalariga seldek bostirib kira boshladi, shu jumladan O‘zbekistonga ham. SHuning uchun ommaviy madaniyatning namoyon bo‘lish holatlarini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilish muhim zaruriyatga aylandi. Faylasuf A. YA. Flier taklifiga binoan ommaviy madaniyat ko‘rinishlari hamda yo‘nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin:

“Bolalar submadaniyati” industriyasi;

Ommaviy ijtimoiy mifologiya; odamga murakkab qadriyatlar yo‘nalishi tizimini joylashtirish; dunyoni ko‘p qirrali tushunishini oddiylashtirish;

– Ommaviy dam olishning tashkiliy turlarini, turli shoularni, qiziqish va dam olishni sanoat asosiga ko‘chirish;

Sog‘lomlashtirishga qaratilgan dam olish industriyasi;

Ehtiyojni qondirishni boshqarish va individual, shuningdek, jamoa foydalanadigan xizmatlar, takliflarni rag‘batlantirish tizimini tashkil etish (reklama, imidjmeykerlik va hokazo).

Har xil o‘yinlar, mexanik o‘yinlardan tortib, elektron, kompyuter va boshqa vositalardan foydalanish;

[3]SHunday qilib “ommaviy madaniyat” – bir o‘lchamli hodisa emas. U o‘ziga xos tur va darajaga egadir. Hozirgi zamon madaniyatshunosligida, odatda, ommaviy madaniyatning uchta asosiy darajasini ko‘rsatadilar;

Kich – madaniyat (past darajadagi, vulgar, behayolar madaniyati)

Mid – madaniyat (“o‘rtamiyona” madaniyat);

Art – madaniyat (ma’lum badiiy mazmun va estetik qiymatga ega madaniyat).

“Kich” so‘zi nemislarning “kitschen” olmoshidan hosil bo‘lgan va saviyasi past, arzon va jo‘n asar yaratib, sotishni bildiradi. Bunday asarlar haqiqiy san’at durdonalari soyasida paydo bo‘ladigan bo‘sh, esdan tez chiqib, unutiladigan madaniyat mahsulotlaridir.

Muammolarni cheklangan, hayotdan uzoq qilib tasvirlash, obrazlarni, g‘oya va syujetlarni qolipga solish, mayda turmush tashvishlariga o‘ralashib qolgan qatlamga mo‘ljallangan madaniyat asarlarini yaratish.

Mid-madaniyatning qamrovi keng, darajasi ancha baland. U an’anaviy madaniyatning ayrim xususiyatlarini aks ettirsa ham, ommaviy madaniyatga bevosita taalluqlidir.

Art madaniyati odatda, aholining bilimli qismiga mo‘ljallangan ommaviy madaniyatdir. Uning vazifasi ommaviy madaniyatni maksimal darajada an’anaviy madaniyat standartlariga yaqinlashtirishdan iborat.

Bundan tashqari ba’zi bir mutaxassislar ommaviy madaniyatning yana ikki alohida turini – **popmadaniyat** va **rokmadaniyatni** ham ko‘rsatadilar, chunki hayot ularning ham yashovchanligini hamda muayyan tabaqadagi kishilarning ongini egallaganligini ko‘rsatdi.

Buning boisini amerikalik siyosatshunoslar ham tanolishdi. Bu haqda Zbignev Bjezinskiy shunday degan edi: “Agar Rim dunyoga – huquqni, Angliya – parlamentni, Fransiya – madaniyat va milliy respublikachilikni bergan bo‘lsa, AQSH – dunyoga ilmiy-texnika revolyusiyasini va ommaviy madaniyatni tortiq qildi”.

AQSHda bo‘sh vaqt, ya’ni dam olishni sanoat asosiga ko‘chirgan. Aholining badiiy jihatdan unchalik yuksak bo‘lmagan talablarini qondirish (yoki ushbu talablarni shakllantirish)

maqsadida ommaviy badiiy adabiyot (fantastika, sarguzasht, bulvar adabiyoti, “ayollar” romani) dunyoga keldi. SHuningdek, arzon-garov jangari, triller, melodrama va boshqa filmlarning g‘oyasi va o‘lchami bitta – odamlarning amerikacha munosabatlarini qaror toptirish, musiqa janrida ham asosan ana shu maqsad kuzatiladi.

XX asrda **jaz**ning yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan dunyo musiqa madaniyatini o‘zgartirib yubordi. Jaz XX asr arafasida dunyoga keldi. Uning tomiri negrlarning an’anaviy madaniyatiga borib taqaladi. Musiqadagi ritmik pauzalarning kuchayib, pasayib turishi qora tanlilarning “sprichuels”, regtaym va blyuz kabi o‘ziga xos o‘yinlarini eslatib turadi.

XX asrda o‘yin madaniyati mislsiz miqyosda tarqaldi. Jahonni egalladi. U bo‘sh vaqtni o‘tkazish vositasiga aylandi. Dansing va diskotekaga sig‘inish yuzaga keldi. Musiqa shaklining rivojlanishi, eskilarining yo‘qolishi va o‘yinda yangi stil usullarining kirib kelishiga sabab bo‘ldi. 1920 yillarda **“CHarlston”** modada bo‘lsa, keyinchalik uning o‘rnini **“step”**, **“chechetka”**, jazdan ajralib chiqqan irland jigisi keyinroq, 50 yillarda **“rok-n-roll”**, 60 yillarda **“sheyk”** va **“tvist”** xitga aylandi va uning ommaviyligini ta’minlashda barcha vositalar ishtirok etdi: gramplastinkalar chiqarildi, televidenie va radiomahsulotlar tarqatildi. Bu “ommaviy madaniyat” tarqatilishidagi eng omadli tijorat loyihasi edi.

– Disko o‘yin yo‘nalishi hozirgi kunlarimizgacha etib keldi, u juda ommaviy bo‘lmasada, hali bor.

“Ommaviy madaniyat” bugun iqtisodiyotning eng daromadli tarmog‘iga aylanib bormoqda. Uni hozir “qiziqishlar industriyasi”, “tijorat madaniyat”, “pop-madaniyat”, “bo‘sh vaqtdan foydalanish industriyasi” deb atay boshladilar. Ma’lumki, mehnatkashlarning ma’lum qismida bo‘sh vaqt serob. “Ommaviy madaniyat” mazmunini boyitishni taqoza qiladi, chunki mamlakatimizda ishlab chiqarishning tobora sanoatlashishi, avtomatlashtirish jarayonida aholi o‘rtasida “bo‘sh vaqtni yopish ehtiyoji” ham oshib bormoqda. Ana shu jarayondan hosil bo‘ladigan muammolarni hal etish ehtiyoji “ommaviy madaniyat”ni yuzaga keltirmoqdaki, bu ayniqsa odamning ongiga, ya’ni adabiyot va san’atning barcha turlariga bevosita bog‘liqdir. Keyingi o‘n yillikda madaniyatni demokratlashtirishda kino, televidenie, kasseta, sport albatta (uning tomoshabinga taalluqli qismi) juda muhim kanallar hisoblanmoqda. Ular ayni paytda turli toifadagi odamlarning to‘planishiga sabab bo‘lmoqda. Ko‘pincha ularni birlashtirgan istak – o‘zlarini psixologik jihatdan bo‘shatib olish istagidir.

“Ommaviy madaniyat” bozordagi tovarga aylanib, muayyan xususiyatlar kasb etdi. Avvalo u “oddiy” (buni jo‘nlik deb atasa ham bo‘ladi). CHunki ko‘pincha bunday mahsulotlar “ko‘cha odami”ga mo‘ljallangandir. Ommaviy madaniyat o‘z vazifasini to‘la bajarishi, ya’ni ishlab chiqarishdagi asabiyliklarni olib tashlashi uchun u eng kamida qiziqarli bo‘lishi lozim. Albatta, bunday madaniy mahsulotlar intellektual jihatdan etarlicha rivojlanmagan odamlar ehtiyojini qondirishi mumkin va inson ongi, kechinmalariga ta’sir etadi. SHuning uchun ham “Ommaviy madaniyat”ning “eng qiziqarli” va hammaga tushunarli mavzulari – muhabbat, oila, karera, jinoyatchilik va xo‘rlash, sarguzasht, qo‘rqinch va hokazolardir.

Mavzular ekspluatatsiyasidan uning egalari katta daromadlar olmoqdalar.

“Ommaviy madaniyat” baynalminal va milliy bo‘lishi mumkin. Estrada musiqasi bunga misol bo‘ladi: u hammaga tushunarli va barcha yoshdagilarga, bilim darajasidan qat’iy nazar, aholining barcha qatlamlariga o‘ng‘ay.

“Ommaviy madaniyat”ning badiiy qimmati xalq madaniyatidan pastroq bo‘ladi. Lekin uning auditoriyasi kengroq, chunki u muallifli, u odamlarning **hozirgi daqiqalardagi** ehtiyojini qondiradi, har qanday yangi voqea va hodisalarga xozirjavob bo‘ladi. Ma’lum vaqt o‘tgach, ular o‘z

dolzarbligini yo‘qotadi, eskiradi va modadan qoladi. YUksak darajadagi asarlar va xalq madaniyati bunday qismatga uchramaydi.

1917 yili bolsheviklar hukumatga kelgach, avvalo ular madaniyatni isloh qila boshladilar. Badiiy ijod ahlidan proletarlashtirilgan xalqqa asarlar yaratishni talab etdilar. Ular shunday shiorni olg‘a surdilar: “San’at xalqqa tushunarli bo‘lishi lozim”. Bolsheviklar bu shiorni nemis marksisti Roza Lyuksemburgga tegishli, deb e’lon qildilar. Keyinchalik u aslida bunday demaganligi ma’lum bo‘ldi. U shunday degan ekan: “San’atni xalq tushunishi lozim!” Birinchi shiorda yuksak madaniyatni ongi jo‘n xaloyiq, olomon darajasigacha tushirish nazarda tutilgan. Ikkinchisida xalqni jahon madaniyati darajasiga ko‘tarish uchun o‘qishga va takomillashishga chaqiradi.

Endi ommaviy madaniyatning mashhurlik va hammaboplik sababini aniqlashga urinib ko‘ramiz. Aholi bilan ularga tushunarli bo‘lgan o‘rtacha tilda muloqot va munosabat qilinishi ommaviy madaniyat usullarining muhim jihati hisoblanadi, bundan tashqari, boshqa kishi ongiga bevosita bog‘liq jihatlari ham bor. Masalan, individning ijtimoiy voqea va jarayonlarda ma’naviy va intellektual ishtirok etishni hoxlamasligi. Boshqacha aytganda, ko‘pchilik jamiyat a’zolarining ongi passivligi. Bunga yoshlarning ma’lum qismida madaniyat mahsulotlariga, jumladan, “ommaviy madaniyat”ga so‘nggi standart deb qarash istagidir. Axborot texnologiya vositalarining kuchayib ketganligi bois bo‘sh, o‘ta sayoz madaniyat mahsulotlari ham bozorga chiqarilmoqdaki, ularning ko‘pchiligi ma’naviyatni yuksaltirish maqsadida emas, balki tijorat maqsadida tarqatilmoqda. Natijada an’anaviy madaniyat makonida mumtoz xalq ijodiyoti yonida aholi ongini bilim va tafakkurini o‘tmaslashtiradigan ijod mahsullari ham ko‘payib bormoqda. Bu borada mamlakatimizda bir qator tashkiliy-ma’rifiy, ma’naviy va moddiy choralar ko‘rilmoqda, albatta, lekin bunday mahsulotlar hayotimizga selday kirib kelishi hamon to‘xtamayotir. Bu esa mutasaddi madaniy va ilmiy jamoatchilik oldiga muhim vazifalar qo‘yadi.

XX asrning 80-yillar ikkinchi yarmida sobiq sho‘rolar mamlakatida boshlangan istiqlolga intilish harakatlari sho‘rolar davridagi mudroqlikka chek qo‘ydi. Kommunistik senzura hamma vaqt yoqtirmay tanqid qilib kelgan “ommaviy madaniyat” ommaviy axborot vositasida hayotimizga faol kirib keldi hamda aholi o‘rtasida yashindek yoyila bordi. Bunga katta yoshdagilarning ma’lum darajada qarshilik ko‘rsatgani, qabul qilolmagani, an’anaviy madaniy qadriyatlar ular ongu-shuuriga ancha chuqur o‘rnashgani ko‘zga tashlanib turdi. Lekin yoshlarning katta qismi, ayniqsa, talaba yoshlar sho‘ro davri madaniy qadriyatlariga tanqidiy ko‘z bilan qaradilar. YAngi zamon “ommaviy madaniyat” mahsulotlarining kutilgan xaridoriga aylandilar. Ular uchun bu mahsulotlarning o‘zimizniki yoki xorijniki ekanligi unchalik ham ahamiyatli emas edi va hamon shu jarayon davom etmoqda. “Jahon to‘ri” deb nom olgan internet tizimi orqali “ommaviy madaniyat” mahsulotlari hech qanday to‘siqsiz mamlakatimizga kirib kelmoqda va ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng tarqalmoqda.

Ma’lumki, o‘smirlar, yoshlar, talabalar yangilikka intiluvchan, tengqurlariga havasmand, modaparast, xorij standartlarini oson qabul qilishga ruju qo‘ygan bo‘ladi. Ulardagi ana shu ijtimoiy-psixologik holat kirib kelayotgan shubhali qadriyatlarga tanqidiy yondashuvni cheklab qo‘ymoqda. Maqbul yoki nomaqbulligi haqida muayyan fikr-mulohazasi bo‘lmagan yoshlar hayotimizga, milliy mintalitetimizga mos kelmaydigan mafkuraviy mahsulotlarni matbuot orqali qabul qilishga oshiqmoqda. “Ommaviy madaniyat” tashqi ko‘rinishi, oson o‘zlashtirilishi bilan ularni qiziqtirmoqda. Turfa g‘oya va ramzlar zamonaviy modalar ommaviy madaniyat mahsulotlari yoshlardan chuqur fikr-mulohaza yuritishni talab etmaydi, har xil hayot tashvishlaridan, turmush muammolaridan “xalos” etadi, jasadni va ruhni dam oldirish, ularni o‘qishga, bilim olishga emas, balki o‘ynab-quvnab, “yashab olish”ga chaqiradi. Aslida “ommaviy madaniyat”ning, uni

tarqatayotganlarning ham asl maqsadlari shundan iborat. Mamlakatimiz aholisining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etishini va “ommaviy madaniyat” mualliflari aynan ana shu auditoriyani nazarda tutayotganini e’tiborga olsak, vazifalarimiz mas’uliyati aniq ayon bo‘ladi.

Yoshlarning badiiy ehtiyojlarini qondirish, ular o‘rtasida “ommaviy madaniyat” mahsulotlarining tarqalmasligi uchun muayyan ishlar amalga oshirilayotir, albatta ularning san’atga, adabiyotga va boshqa ma’naviy mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rganib borish hozir izchil olib borilmoqda.

Oliy o‘quv yurtida o‘qish davrida talabalarning san’atga bo‘lgan ehtiyojlarida muayyan o‘zgarishlar yuz beradi. Masalan, o‘tkazilgan so‘rovlardan ma’lumki, birinchi kursdagilarning katta qismi san’atni o‘z dunyoqarashlarini kengaytirish, tasavvurlarini boyitish vositasi deb bilishadi, undan zavqlanish, rohatlanish, vaqtni mazmunli o‘tkazish kabi xususiyatlariga ikkinchi darajali deb qarashadi.

Bitiruvchilarda esa aksincha, san’atni kundalik tashvishlardan xalos etish vositasi deb qarash eng yuqori ball, ya’ni 53,5 foiz ovoz oldi, ya’ni so‘rovda qatnashgan bitiruvchilarning shunchasi san’atga shunday vosita deb qarar ekan. Ularning orasida san’atga estetik zavq berish manbasi deb qarovchilar ham oz emasligi ma’lum bo‘ldi. Birinchi kurslarga nisbatan san’atni ijodga rag‘batlantiruvchi vosita deb qarovchilar 7,7%, qadriyatlarni shakllantirish vositasi deb qarovchilar esa 5,2% kam ekan.

“Ommaviy madaniyat”ning hayotimizga bostirib kelishida dastlab ommaviy axborot vositalari asosiy rolni o‘ynadi. Bugunga kelib esa, reklama uning ajralmas yo‘ldoshiga aylanib qoldi. Bozor qonuniyatlari “ommaviy madaniyat” mahsulotlarini keng tarqatishdan manfaatdor bo‘lib maydonga chiqmoqda. Zamonaviy audio-videotexnikalar, ovoz yozish va kuchaytirgich asboblarining yuzlab turlari “ommaviy madaniyat” mahsulotlari reklamasi bilan kun ko‘rmoqdalar. U sanoat asosiga ko‘chirilgach, o‘rtacha, bo‘sh “ommaviy madaniyat” mahsulotlarini ko‘paytirish va sotish bo‘yicha qudratli tizim yaratildi. Istagan do‘kondan dunyoning har qanday xonanda yoki sozandasi ijro etgan qo‘shiq, klip audiovideotasmasini topish mumkin. San’atga, “ommaviy madaniyat”ga mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘ladigan, engil-elpi ijod bilan elga tanilgan san’atkorlar armiyasi paydo bo‘ldi. O‘zlari shoir, o‘zlari kompozitor bo‘lgan, musiqiy maxsus bilimi bo‘lmagan juda ko‘plab guruhlar paydo bo‘ldi va ular o‘z mahsulotlarini istagancha reklama qilmoqdalar. YOshlar esa ana shunday siyqasi chiqqan, lekin ma’lum ma’noda “o‘z auditoriyasini topgan”, “san’atkor”lar armiyasi bilan yuzma-yuz turibdilar. Reklama – yaratuvchi kuch emas, balki u ommaviy psixologiyani aks ettiruvchidir.

Ba’zan kliplarda chiroyli qizlar va yigitlar nima deyotganligini o‘zlari ham tushunishmaydi. Kuchli musiqa sadosi ostida nimalardir deyishadi, mashinalarga o‘tirib qaerlargadir borishadi. “Ommaviy madaniyat” mahsuli bo‘lgan bunday “asarlar” millat mentalitetini pasaytirishga xizmat qilayotgani sir emas. Reklama nima deydi? Birorta shirin ichimlikni iste’mol qilib cheksiz rohat va farog‘at olish mumkin. Biror narsaga erishish uchun jon kuydirish, ter to‘kib, mehnat qilish shart emas, ichimlikni sotib olish kerak va uni iste’mol qilish kerak. Yoki yozib olingan fonogrammaga mos qilib, labni qimirlatib turaverish kerak, tamom vassalom. Endi o‘sib, jamiyatga kirib kelayotgan yoshlarga, o‘smirlarga ham OAVlar shunday ta’lim bermoqdalar va u qay bir darajada o‘z xaridorini topmoqda hamda ongiga ta’sir etmoqda. Demak, “ommaviy madaniyat”ning ana shunday siyqalanib, jo‘nlashib borishi hammamizni ogohlikka chorlashi lozim.

“Ommaviy madaniyat” o‘z g‘irdobiga yoshlarni tartib olmasdan oldin, ularni milliy urf-odatlar, tarixiy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya ishlarni jadallashtirishimiz lozim.

Tarbiya – jamiyatning bosh vazifasi. SHuning uchun bu masalani bir-ikki tizim zimmasiga yuklab qo‘yish bilangina hal etib bo‘lmaydi. Birinchidan, tarbiya – ona qornida homilani parvarish qilishdan boshlanib, inson umrining so‘nggi daqiqasigacha izchil davom etadigan umrlik vazifa. Ikkinchidan, kishilik hayoti shunday murakkab jarayonki, tarbiya bilan amalda juda ko‘p sohalar shug‘ullanadi. Uchinchidan, ulardan bitrortasini chetlab o‘tish yo ikkinchi darajali deb hisoblash kemtiklikka sabab bo‘ladi, mukammal insonni tarbiyalash orzugina bo‘lib qoladi.

6-mavzu. GLOBALLASHUV VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI.

Reja:

1. Axborot texnologiyalari globallashuvning o`ziga xos xususiyatlari.
2. Internet axborot globallashuvining o`ziga xos vositasi.
3. Jamiyat axborotlashuvining global tendentsiyalari.
4. Axborotlashgan jamiyatda global muammolarni hal qilish yo`llari.

Bugungi kunda “globallashuv” so‘zi eng ko‘p ishlatiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, ushbu tushuncha inson va jamiyat hayoti rivojining hozirgi davridagi muhim xususiyatlarni, jumladan, tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, kishilik sivilizatsiyasi bugungi kungacha boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir voqelikni o‘zida mujassam etadi.

Ayni paytda, kishilik jamiyati rivojida ustuvor bo‘lib borayotgan mayllardan kelib chiqiladigan bo‘lsa, insoniyatning istiqbolini ham tasavvur qilish imkonini beradi.

Eng umumiy ma’noda, globallashuv muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun Er yuzini qamrab olganini hamda ularning insoniyat taqdiriga daxldor ekanini anglatadi. Globallashuv jarayonining hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sababi esa, Prezidentimiz qayd etganlaridek, **bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan chambarchas bog‘lanib borayotganidadir. Biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmaydi.**

Ilmiy adabiyotlarda globallashuvning turli jihatlari farqlanadi. Eng avvalo, aholi sonining tez o‘sib borishi sharoitida oziq-ovqat, ichimlik suvi va shu kabi ehtiyojlarni qondirish, tabiatning zo‘riqishi bilan bog‘liq masalalarni yaxlit holda ifodalovchi demografik–ekologik muammolar mavjudligini alohida qayd qilish lozim.

Hech qanday milliy chegaralarni tan olmaydigan, dunyoda umumiy texnologik va axborot maydoni yuzaga kelayotganini xarakterlovchi texnosferaning globallashuvi uning yana bir o‘ziga xos xususiyatidir.

SHu bilan birga, siyosiy globallashuv hamda fan, madaniyat, ta’lim va axloq sohasidagi jarayonlarni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy globallashuv ham sodir bo‘layotganini yoddan chiqarmaslik zarur. Globallashuv jarayonining yana bir o‘ziga xos jihati uning mafkuraviy ta’sir o‘tkazish ko‘lamini haddan ziyod kengaytirib, beqiyos darajada tezlatib yuborganida ham ko‘rinadi. **“Mana shunday vaziyatda,**-deb yozadi I.Karimov,- **odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta’siriga bardosh berishi amrimahol”.**

Mafkuraviy globallashuv axborot vositalarining rivoji va bu sohada sodir bo‘layotgan inqilob bilan bog‘liq. Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini

boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa, yozuvning paydo bo‘lishi uni uzoq vaqt davomida saqlash va axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga etkazish, hatto zamonlararo olib o‘tishga yo‘l ochdi. Gazeta va jurnallarni nashr etishning yo‘lga qo‘yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va qamrovlilikni yanada kengaytirdi. Radio va televidenie esa axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta’minlab, uni yangi sifatiy bosqichga ko‘tardi.

Hozirgi axborot inqilobi oldingi davrlarda paydo bo‘lgan axborot uzatish usullarining ko‘pgina tomonlarini o‘zida sintez qilgan zamonaviy kompyuter texnologiyalariga asoslangan Internet kabi hodisalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Axborotni keng jamoatchilikka etkazib beruvchi matbuot, radio, televidenie kabi hodisalarni o‘zida birlashtiruvchi ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyat hayotiga ulkan ta’sir o‘tkazish quvvatiga ega. Qanday katta kuchga ega ekanini ularga nisbatan «to‘rtinchi hokimiyat» atamasi qo‘llanilishida ham ko‘rish mumkin.

OAVning ta’sir kuchi beriladigan materiallarning tezkorligi, ko‘tarilayotgan masalalarning dolzarbligi hamda tahliliylik darajasi va mavjud muammolarning samarali echimlarini taklif etishiga ko‘p darajada bog‘liq. I.Karimov ta’kidlaganlaridek, **“Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas”.**

OAVning ta’sir kuchi uning materiallari muayyan auditoriyaga mo‘ljallangani bilan ham belgilanadi. Masalan, ichki auditoriyaga mo‘ljallangan materiallarni yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi (kasb-kori), milliy, diniy mansublik kabi belgilarga ko‘ra farqlash mumkin.

OAV ijtimoiy hayotdagi muayyan voqea, hodisa yoki muammo yuzasidan axborotni etkazib berish orqali, uning jamiyat uchun ahamiyati, keng aholi qatlamlari uchun dolzarbligini ta’kidlaydi. Axborot oqimi hajman keng, mazmunan rang-barang, uzatilishga ko‘ra tezkor bo‘lgan bugungi kunda bu jarayon yanada chuqurlashib bormoqda.

OAV muayyan xabarni uzatish yoki biror bir g‘oyaning mohiyatini ochib berish orqali uning o‘zlashtirilishiga, kishilar ongida barqaror tasavvurlar, obrazlar, qadriyatlarning shakllanishiga ham ko‘maklashadi. Sodda qilib aytganda, u ijtimoiy fikrga doimiy va izchil ta’sir o‘tkazish, uni shakllantira olish imkoniyatiga egadir.

OAV va kommunikatsiya texnologiyalari rivoji hozirgi davrdagi g‘oyaviy kurashga o‘ziga xoslik bag‘ishlamoqda. Bu jumladan, ma’lumotlar oqimi manfaatdorlik nuqtai nazaridan etkazilishida yoki ataylab qarama-qarshi xarakterdagi ma’lumotlarni poyma-poy berish orqali oxir-oqibatda odamlarning idrokini susayishtirishga intilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu o‘ziga xoslik jamiyat a’zolaridan tizimli ravishda axborotning muayyan qatlamini yashirish, ularni muhokama ob’ektiga aylantirmaslikka intilishda ham yaqqol ko‘rinadi.

O‘tgan asrning 40-yillarida “Reyter” agentligini boshqargan Kristofer CHansellor “YAngilikni targ‘ibotdan farqlash zarur. Targ‘ibot boshqa narsa, yangilik esa mutlaqo boshqa narsa. Inglizcha yoki amerikacha yangiliklar bo‘lmaydi, u xalqaro tovardir”,- deb yozgan edi. Bugun mutlaqo boshqacha sifatiy holat yuzaga keldi.

Har kuni dunyoda millionlab voqealar sodir bo‘ladi. Ammo kishilar diqqatiga OAV muayyan ijtimoiy-siyosiy kuchlar manfaatidan kelib chiqib e’tibor qaratgan masalalargina havola etiladi. Bu ularning hodisalarni yoritishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishini, muayyan ma’lumotlarni olish, talqin qilish, baholash va tarqatish orqali fuqarolarda tegishli fikr va xulosalar shakllanishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Bu OAV ning ijtimoiy fikrni kerak bo‘lgan shaklga

yo‘naltira olishi, u bilan manipulyasiya qila olishidan dalolat beradi. Mazkur jarayonda soxta, to‘qib chiqarilgan axborotni xaqiqat sifatida taqdim etish, voqelikni biryoqlama taqdim etish yoki buzib ko‘rsatish, reallikni adekvat qabul qilishga yordam beradigan muhim, kerak elementlarni yashirishga alohida e’tibor berilishini ta’kidlash zarur.

I.Karimov ta’kidlaganlaridek, **“hozirgi paytda hayotimizni elektron axborot vositalari, xususan, televidenie va radiosiz umuman tasavvur etib bo‘lmaydi. Bugungi kunda ular bir vaqtning o‘zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda”.** Bunday imkoniyatlar televidenieninganiq maqsadlarga qaratilgan g‘oyaviy targ‘ibotni amalga oshirishning muhim bo‘g‘iniga aylanishiga olib keldi.

OAV muayyan axborotni etkazish, u yoki bu masalaga diqqatni qaratish orqali fuqarolarni uning atrofida birlashishlariga xizmat qiladi, turli ijtimoiy guruh vakillariga o‘z fikrlarini ifoda etish, fikrdoshlarni topish, yagona maqsad va e’tiqod yo‘lida yakdillik bilan harakat qilishga zamin yaratadi.

Afsuski, zamonaviy voqelik OAVning bu funksiyasi faqat ijobiy mohiyatga emasligini ko‘rsatmoqda. OAV g‘araz maqsadlarga xizmat qilganda bu yaqqol ko‘rinadi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, nemis olimlarining “Muhim axborotga ega bo‘lish hokimiyatga ega bo‘lish; muhim axborotni nomuhimidan ajrata bilish yanada ko‘proq hokimiyatga ega bo‘lish; muhim axborotni o‘ziga ma’qul bo‘lgan ruhda tarqata olish imkoniyatiga ega bo‘lish yoki u haqida ko‘pchilikka hech narsa ma’lum bo‘lmasligiga erishish ikki karra hokimiyatga ega bo‘lishni anglatadi”,-degan fikrlari diqqatga sazovordir.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 30 minutdan keyin axborotning 60 foizi, kun oxiriga kelib 40 foizi, hafta oxiriga kelib bor yo‘g‘i 10 foizi esda qoladi. SHundan kelib chiqib, ijtimoiy fikrga ta’sir o‘tkazishga qaratilgan, turli g‘oyaviy mazmun bilan sug‘orilgan axborotlarni vaqti-vaqti bilan takrorlab turishga ham alohida e’tibor berilayotganini ta’kidlash zarur.

OAV bu so‘z, obrazlar, musiqa va shu kabi shakllarda axborotlarning tezlikda uzatilishi va ommaviy tarqatilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday vositalarga ommaviylik, davriylik, tinglovchi yoki o‘quvchilar auditoriyasining kengligi kabi xususiyatlar xosdir. SHu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi davrda OAV imkoniyati va qamrovining keskin darajada o‘sganini qayd etish lozim.

OAVning qamrov darajasi, boshqacha aytganda, mahalliy, umummilliy, mintaqaviy yoki xalqaro (global) miqyosda faoliyat ko‘rsatishi ham uning ta’sir doirasini ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

1980 yilda tuzilgan CNN (The Cable News Network) kompaniyasi bugungi kunda 24 soat davomida axborot uzatish bilan shug‘ullanadi. Hozirda CNN tarkibida yangilik tarqatish bilan shug‘ullanadigan 14 kabel va sputnik kanallari, 2 ta radiostansiya, 6 ta internet sayti va xorijiy mamlakatlardagi 37 ta byuro faoliyat ko‘rsatmoqda. CNN yangiliklari 38 ta kosmik yo‘ldosh signallari yordamida uzatiladi, uni 212 mamlakat va hududdagi 1,5 milliard odam bir vaqtning o‘zida ko‘rish imkoniga ega. 1991 yilning yanvarida aynan CNN yordamida Fors ko‘rfazida olib borilgan harbiy harakatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri teleefirga olib berildi. 2001 yilning 11 sentyabridagi terrorchilik amaliyoti haqidagi telesyujetlar ham shu kompaniya harakati tufayli butun dunyoga voqea sodir etilgan joydan to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatib turildi.

Bi-bi-si eshittirishlar korporatsiyasiga (British Broadcasting Corporation, BBC) esa 20 dan ortiq telekanal va 14 ta radiokanal, bir qator saytlar va 40 yaqin jurnallar tegishlidir. VVS 40 dan ortiq tillarda eshittirishlar olib boradi.

Reyter axborot agentligida dunyoning 91 mamlakatida 14 000 xodim, shu jumladan, 2300 jurnalist, fotomuxbir va videooperatorlar ishlaydi. Reyter agentligi dunyoning turli mamlakatlarida 197 ta byurosiga ega. Agentlik xabarlari bilan har kuni 1 milliard odam tanishadi.

Ushbu misollar ham bugungi kunda OAV qamrov doirasining naqadar kengligini muayyan darajada tasavvur qilish imkonini beradi.

Axborot inqilobining hosilasini juda katta axborotni qayta ishlash, xohlagan mamlakat kutubxonasida saqlanayotgan kitoblardan foydalanish imkoniyatining mavjudligida ham ko‘rish mumkin. Radio, televidenie, internet eng so‘nggi ilmiy yangiliklarni qisqa vaqtda butun dunyoga ma’lum qilish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san’at yutuqlaridan har bir odam foydalana olishiga zamin yaratmoqda.

Global miqyosdagi ijtimoiy va madaniy-ma’naviy maydon shakllanayotgani madaniyatlararo va sivilizatsiyalararo aloqalarning mustahkamlanishiga yo‘l ochmoqda.

YUqoridagi mulohazalar bugungi kunda turli shakl va mazmundagi axborotlar inson va jamiyat hayoti, taraqqiyoti va kamolotining zaruriy shartiga, OAV esa uni tarqatishning muhim bo‘g‘iniga aylanganini ko‘rsatadi. Xususan, radio, televidenie, gazeta va jurnallarsiz har qanday ma’lumotli kishi ham murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarda to‘g‘ri yo‘l topa olishi qiyin. OAV esa, kishilarga o‘zining individual tajribasi doirasidan chiqishga va keng qamrovli jarayonlar mohiyatini his qilishga yordam beradi.

OAV odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq atvorlariga ta’sir ko‘rsatishda katta imkoniyatlarga ega. OAVning bugungi kundagi rivoji g‘oyaviy ta’sir o‘tkazishning miqyosi va ko‘lamining keskin darajada o‘sishiga olib keldi.

OAV orqali amalga oshiriladigan va katta mablag‘ talab qilmaydigan g‘oyaviy ta’sir va tazyiqning o‘ziga xosligi shundaki u o‘quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot dushmanni yo‘q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g‘oyaviy ta’sir yo‘naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o‘rganilgan holda asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o‘zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo‘qqa chiqarishga qaratiladi. Bunday ta’sir o‘tkazishda davriy nashrlar tadrijiylik, radio va televidenie fragmentli uzatish usullaridan ustalik bilan foydalanishmoqda.

Internet bugungi axborot makonining muhim bo‘g‘iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog‘i, balki kosmik aloqa yo‘ldoshlari, radiosignal, kabel televideniesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda 1 milliard 250 million kishi u yoki bu darajada undan foydalanishi ham mazkur fikrlarning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Ana shunday vaziyatda I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, shuni unutmaslik kerakki, **“bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin”.**

Mamlakatimiz Prezidentining bunday ogohlantirishlari jiddiy asosga ega ekanini internet keltirib chiqarayotgan bir qator salbiy jihatlarda ham yaqqol ko‘rinadi. Unda o‘z-o‘zini o‘ldirishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi 9 mingdan, erotik mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlarning mavjudligi ham buning isboti bo‘la oladi. Mutaxassislar o‘tkazgan maxsus tadqiqotlar mavjud saytlarning taxminan 12 foizi pornografik xarakterga egaligini ko‘rsatadi. Mavjud maxsus dasturlar internet tarmog‘idagi pornografiyaning faqat 90 foizinigina filtrlaydi, ya’ni komyuterdan

foydalanuvchining ixtiyoridan tashqarida ekranda paydo bo‘lishi yo‘liga to‘siq qo‘ya oladi. Demak, qanchalik harakat qilinmasin pornografik mazmunga ega saytlar internetdan foydalanuvchilarning xohish-istagidan qat’i nazar, ularning diqqatini torta oladi. Jumladan, tadqiqotlarda 42 foiz bolalar va o‘smirlar onlayn pornografiya ta’siriga tushishi qayd qilinadi.

SHuningdek, mutaxassislar ma’lumotlariga ko‘ra, internet orqali tarqatiladigan komyuter o‘yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo‘ravonlik va yovuzlik ko‘rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o‘yinlarda esa o‘yin qahramoni o‘z maqsadiga etishish uchun shunday zo‘ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o‘yinlarda ana shu zo‘ravonlik va yovuzlikning o‘zi bosh maqsad hisoblanadi.

Internet rivoji, u berayotgan imkoniyatlar o‘ziga xos qaramlikni ham keltirib chiqarmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetdan foydalanuvchilarning taxminan 10 foizi unga mustahkam bog‘lanib qolgan.

Manfaatdor ijtimoiy-siyosiy kuchlar internetdan g‘araz maqsadlarda ham ustalik bilan foydalanilayotganini ta’kidlash zarur. Mazkur masalaga to‘xtalib YUrtboshimiz **“axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi,** -deb yozadi.

Bu inson hayoti va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solayotgan va butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish hayotiy-amaliy ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. Ammo Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, **bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo‘lgan ana shunday hodisalarni faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlashning o‘zi etarli emas. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma’naviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik uchun avvalambor ezgu insoniy g‘oyalar bilan xalqimizning ongu tafakkurini va saviyasini yuksaltirish, jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste’dod musobaqasida bellashuvga qodir bo‘lishimiz shart.**

OAVning mafkuraviy jarayonlar rivojiga o‘ziga xos va kuchli ta’sir o‘tkazayotganini quyidagi misolda ham ko‘rish mumkin. Ma’lumki, bugungi kunda internet ommaviy axborot va kommunikatsiya tizimining eng tez rivojlanib borayotgan bo‘g‘ini hisoblanadi. Uning g‘oyaviy kurash va targ‘ibotning asosiy maydoniga aylanganini ekstremistik, shu jumladan, diniy ekstremistik qarashlarni targ‘ib qilishdagi o‘rni misolida ham ko‘rish mumkin.

Diniy ekstremistlar va terrorchilarning internetdagi saytlarida tashkilotning maqsadi, tarixi hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy mazmundagi ma’lumotlarga keng o‘rin beriladi. Jumladan, terrorchilar kuch ishlatish yo‘liga o‘tishga go‘yoki majbur bo‘lganlarini asoslashga, terror va qo‘poruvchilik harakatlarini ma’naviy va axloqiy jihatdan oqlashga intilishadi, Bunda o‘zlarini “ozodlik kurashchilari”, “partizanlar”, “qarshilik ko‘rsatuvchilar” deb atagan holda tinchlik tarafdori qilib ko‘rsatishga va ular bilan kurashda hukumat tinch yo‘l bilan harakat qilish lozimligini asoslashga intilish keng tarqalgan. Ular o‘z saytlarida hukumat tarafidan qo‘llanilayotgan usullarning “vahshiyligini” yoritishga ham alohida e’tibor beradilar.

Tezkor axborotlar, yangiliklarning bir vaqtning o‘zida bir necha tilda va terrorchilar uchun foydali bo‘lgan yo‘nalishda berib borilishi, ularning faoliyatni oqlovchi, “qahramonligini” kuylovchi qo‘shiqlar, kliplar berilishi bunday saytlarning mafkuraviy hamda emotsional ta’sir quvvatini oshirishga xizmat qiladi.

Bunday saytlar, bir tomondan, terrorchilik tashkilotining faol a’zolariga, ikkinchi tomondan, terrorchilarning asl maqsad muddaolarini bilmaydigan, ularni “kurashchilar”, “oppozitsiya” va shu kabi ijobiy maqom hamda sifatda qabul qilishga o‘rgangan odamlarga

mo‘ljallangan bo‘ladi. Ulardan jamiyatda tegishli ijtimoiy fikrni shakllantirish va qarma-qarshi (dushman) tomonga psixologik ta’sir ko‘rsatish, qo‘rquv, vahima tarqatish orqali ichki ikkilanishni keltirib chiqarishdek maqsadlar ko‘zlanadi.

YUrtboshimiz ta’kidlaganlaridek **“tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berish mumkin”.**

Ana shunday sharoitda axborot xavfsizligini ta’minlash uchun virtual olamda ham faol harakatlar olib borish zarur. SHundan kelib chiqib, ko‘pgina mamlakatlar axborot sohasida ustuvorlikni ta’minlashni strategik maqsadlarga erishish, milliy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlashning asosiy yo‘llaridan biri sifatida e’tirof etmoqdalar.

Globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalarining o‘rni haqida gap ketar ekan, masalaning yana bir muhim jihatiga e’tibor qaratish lozim. I. Karimov ta’kidlaganlaridek, **“Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga qat’iy maqsad qilib qo‘yganmiz va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz”.**

“Kimki axborotga ega bo‘lsa, u, dunyoga egalik qiladi”,- degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e’tirof etilgan. SHunday ekan, bugungi kunda har bir fuqaromizda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ana shunday yondashuvdan kelib chiqib, mamlakatimizda mustaqillik yillarida zamonaviy texnik uskunalarga, keng va chuqur fikrlovchi kadrlarga ega bo‘lgan, yangicha mazmun-mohiyat kasb etadigan ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun hamma sharoitlar yaratildi.

1991 yilda respublikamizda bor-yo‘g‘i 1 ta teleradiokompaniya mavjud edi. Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda mamlakatimizda 70 dan ziyod teleradio studiya, 29 ta kabel televideniesi faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston matbuotining 40 foizdan ortig‘i nodavlat nashrlaridir. Jami 612 ta gazetadan 11 tasi, 165 jurnaldan 2 tasi xususiy sektorga tegishlidir.

Ommaviy axborot vositalari va ma’naviy-g‘oyaviy tahdidlar haqida gap ketar ekan, eng avvalo g‘araz maqsadlarda amalga oshirilayotgan tashqi g‘oyaviy ta’sirlar, mamlakatimiz hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga xolis yondashuv bayrog‘i ostida berilayotgan bir yoqlama axborotlar va baholarning oldini olish, ularga qarshi ob’ektiv ma’lumotlarni kishilarga tezkor, tizimli va tadrijiy etkazib berish masalasi dolzarb bo‘lib turganini alohida qayd etish zarur. SHunday vaziyatda har xil shaklu shamoyilda chiqayotgan bunday urinishlarga qarshi xalqimiz hayotida sodir bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlar haqida hikoya qiluvchi chuqur tahliliy ma’lumotlarni muntazam berib borish, fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, turli ijtimoiy toifa va guruhlarning qiziqish va intilishlari, hayotiy manfaatlarini yoritish, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ham hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

SHu bilan birga, ommaviy axborot vositalari oldida O‘zbekistondagi vaziyat, turli sohalarda erishilgan yutuqlar bo‘yicha ob’ektiv axborotlarni jahon jamoatchiligiga vaqtida etkazib

berish hamda mamlakatdagi real voqelikning undan tashqarida ham to‘g‘ri va o‘rinli qabul qilishlariga erishishdek muhim vazifa borligini ham ta’kidlash zarur. Prezidentimiz so‘zlari bilan aytganda, **insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta’sir o‘tkazadigan bu sohadagi faoliyatimizni xalqimizning ma’naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur.**

Aholining xolis va haqqoniy axborotga ega bo‘lishini ta’minlash, yurtdoshlarimizning madaniy saviyasi, bilim va dunyoqarashini oshirish, qadimiy an’analarimiz, tarixiy merosimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu bilan birga, fuqarolarimiz ongida demokratik qadriyatlar, grajdanlik pozitsiyasini shakllantirish, yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashni ommaviy axborot vositalari oldida turgan yana bir muhim vazifa sifatida qayd etish mumkin.

Inson kundalik hayotida turli narsalardan foydalanadi. Inson ularni iste’mol qilar ekan har gal muayyan tartib-qoidalar, sodda qilib aytganda, madaniyatga rioya qiladi. Aytaylik, kiyim-bosh kiyish yoki oziq-ovqat iste’mol qilishning o‘ziga xos madaniyati bor. Bugungi kunda axborot ham iste’mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson yoki alohida olingan jamiyat o‘zida uni iste’mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim.

Xo‘sh, axborot iste’moli madaniyati deganda nimani tushunish kerak? Axborot iste’moli madaniyati, eng umumiy ma’noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etish xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o‘zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun nima qilishi zarur? Buning uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, har bir inson hech bo‘lmaganda “Bu axborotni kim uzatayapti?”, “Nima uchun uzatayapti?” va “Qanday maqsadda uzatayapti?” degan savollarni o‘z-o‘ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak bo‘ladi. Ana shundagina turli g‘oyalar ta’siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma’lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishning oldi olinadi. SHakllangan axborot iste’moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabar, ma’lumotlarga nisbatan o‘ziga xos qalqon rolini o‘taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mafkuraviy globallashuv axborot vositalarining rivoji va bu sohada sodir bo‘layotgan inqilob bilan bog‘liq. Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa, yozuvning paydo bo‘lishi uni uzoq vaqt davomida saqlash va axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga etkazish, hatto zamonlararo olib o‘tishga yo‘l ochdi. Gazeta va jurnallarni nashr etishning yo‘lga qo‘yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va qamrovlilikni yanada kengaytirdi. Radio va televidenie esa axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta’minlab, uni yangi sifatiy bosqichga ko‘tardi.

Hozirgi axborot inqilobi oldingi davrlarda paydo bo‘lgan axborot uzatish usullarining ko‘pgina tomonlarini o‘zida sintez qilgan, zamonaviy kompyuter texnologiyalariga asoslangan internet kabi hodisalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Bugungi kunda turli shakl va mazmundagi axborotlar inson va jamiyat hayoti, taraqqiyoti va kamolotining zaruriy shartiga, elektron ommaviy axborot vositalari (EOAV) va turli tashkilotlarning rasmiy veb-sahifalari esa uni tarqatishning muhim bo‘g‘iniga aylangan. Xususan, har qanday kishi murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarda to‘g‘ri yo‘l topa olishi, o‘zining individual tajribasi doirasidan chiqishga va keng qamrovli jarayonlar mohiyatini his qilishida internet radio, televidenie, gazeta va jurnallardan ham muhimroq ahamiyat kasb etadi.

50 millionlik auditoriyaga erishib, ommalashish uchun radioga 38 yil, televideniega 13 yil, kabel televideniega 10 yil kerak bo‘lgani holda, bu bosqichni internet 5 yilda bosib o‘tdi. Internet odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta’sir ko‘rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji g‘oyaviy ta’sir o‘tkazishning miqyosi va ko‘lamining keskin darajada o‘sishiga olib keldi.Internet bugungi axborot makonining muhim bo‘g‘iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog‘i, balki kosmik aloqa yo‘ldoshlari, radiosignal, kabel televideniesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Avvallari faqatgina so‘zlashuv uchun ishlatilgan telefondan bugun internet, tovushli aloqa va ma’lumotlar uzatish kabi turli qo‘shimcha xizmatlardan foydalanish, videotelefoniya va hatto teleko‘rsatuvlar ko‘rish imkoni bor.

Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotganini quyidagi raqamlardan bilib olish mumkin: 2000 yildan 2012 yil oxiriga qadar dunyoda internetdan foydalanuvchilar soni 9,6 barobarga oshib, 2,4 milliard kishiga etdi, mobil aloqa abonentlari soni esa 13,4 barobarga oshib, 6,7 milliardni tashkil etdi. Internetdan foydalanuvchilarning 44,8 % (1,1 mlrd. kishi) Osiyo, 21,6 % (519 mln. kishi) Yevropa, 11,4 % (274 mln. kishi) SHimoliy Amerika qit’alariga to‘g‘ri keladi. Jahon veb-auditoriyasining 45 %ini 25 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tashkil etadi. Mazkur o‘smirlarning 68 % har kuni kimgadir SMS-xabar jo‘natadi, 51 % ijtimoiy tarmoqlarga kiradi, 30 % elektron pochtadan foydalanadi. Ayni vaqtda virtual olamda 600 mln.ga yaqin internet saytlar mavjud bo‘lib, har oyda o‘rtacha 201,4 trln. videorolik ko‘rib chiqiladi, har kuni 144 mlrd. elektron maktub jo‘natiladi.

Yaratib berilayotgan huquqiy kafolatlar va shart-sharoitlar samarasi o‘laroq, hozirgi kunda yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan ommaviy axborot vositalari qariyb 1200 taga etdi. Bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobarga ko‘paydi. Mavjud barcha bosma nashrlar 60 %, telekanallar 53 %ga yaqini, radiokanallarning esa 85 % nodavlat ommaviy axborot vositalari hissasiga to‘g‘ri kelayotgani mamlakatimizda ushbu sohaga bozor mexanizmlari jadal sur’atlarda joriy etilayotganining yorqin isbotidir.

O‘zbekistonda keyingi yillarda suniy yo‘ldosh aloqa tarmog‘i orqali teleradiodasturlarni tarqatish yo‘lga qo‘yildi. Bugun mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo‘nalish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. YUrtimizdagi teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko‘rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog‘i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni 9,8 milliondan oshdi. 16 mingga yaqin Uz domenidagi veb-saytlar faoliyat olib bormoqda. 200 dan ortiq veb-sayt ommaviy axborot vositasi sifatida ro‘yxatga olingan. Internetning ta’sir kuchi beriladigan materiallarning tezkorligi, ko‘tarilayotgan masalalarning dolzarbligi hamda tahliliylik darajasi va mavjud muammolarning samarali echimlarini taklif etishiga ko‘p darajada bog‘liq.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas”. Internet orqali amalga oshiriladigan va katta mablag‘ talab qilmaydigan g‘oyaviy ta’sir va tazyiqning o‘ziga xosligi shundaki, u o‘quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot urushi dushmanni yo‘q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda, yuqori samara beradi. Bunda g‘oyaviy ta’sir yo‘naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o‘rganilgan holda, asosiy

diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o‘zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo‘qqa chiqarishga qaratiladi. Internet rivoji hozirgi davrdagi g‘oyaviy kurashga o‘ziga xoslik bag‘ishlamoqda. Bu ma’lumotlar oqimi manfaatdorlik nuqtai nazaridan etkazilishida yoki ataylab qarama-qarshi xarakterdagi ma’lumotlarni poyma-poy berish orqali oxir-oqibatda odamlar idrokini susayishtirishga intilishda yorqin namoyon bo‘ladi. Bu o‘ziga xoslik jamiyat a’zolaridan tizimli ravishda axborotning muayyan qatlamini yashirish, ularni muhokama ob’ektiga aylantirmaslikka intilishda ham yaqqol ko‘rinadi.

Har kuni dunyoda millionlab voqealar sodir bo‘ladi. Ammo internetda kishilar diqqatiga muayyan ijtimoiy-siyosiy kuchlar manfaatidan kelib chiqib e’tibor qaratgan masalalargina havola etiladi. Bu ularning hodisalarni yoritishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishini, muayyan ma’lumotlarni olish, talqin qilish, baholash va tarqatish orqali fuqarolarda tegishli fikr va xulosalar shakllanishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Bu internetning ijtimoiy fikrni kerak bo‘lgan shaklga yo‘naltira olishi, u bilan manipulyasiya qila olishidan dalolat beradi. Mazkur jarayonda soxta, to‘qib chiqarilgan axborotni xaqiqat sifatida taqdim etish, voqelikni biryoqlama taqdim etish yoki buzib ko‘rsatish, reallikni adekvat qabul qilishga yordam beradigan muhim, kerak elementlarni yashirishga alohida e’tibor berilishini ta’kidlash zarur.

BMT Bosh assambleyasi 2006 yil 8 sentyabrda qabul qilingan “BMTning global aksilterror strategiyasi”da yangi uslublar qatorida bioterrorizm hamda internetdan terror maqsadida foydalanishning oldini olish choralarini kuchaytirish alohida qayd etilgan. 2007 yil noyabrda AQSH Davlat departamenti “Tashqi raqamli aloqalar guruhi” nomli maxsus axborot dasturini joriy qilgan. Dastur maqsadi – arab, fors, urdu va boshqa tillardagi internet saytlari, chat va bloglarda AQSH siyosati haqidagi dezinformatsiya (noto‘g‘ri ma’lumotlar)ga qarshi kurash hisoblanadi. Dasturga ko‘ra, zarur hollarda, departament xodimlari internet orqali rasman muloqotga kirishi va savollarga javob berishi, aniq hujjatlar asosida ma’lumot keltirishi ko‘zda tutilgan.So‘nggi yillarda terroristik tashkilotlar g‘oyalarini targ‘ibtashviq qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni bir necha barobarga oshgan. Xususan, 10 yil avval bunday saytlar soni 20 ta bo‘lsa, bugungi kunda dunyoda terroristlar foydalanigan 7000 dan ortiq internet saytlari mavjud bo‘lib, ularga xizmat ko‘rsatuvchi portallar soni ortib bormoqda.
Bunday internet saytlar to‘satdan paydo bo‘ladi, vaqt o‘tgach yo‘qoladi, mazmunini o‘zgartirmagan holda, tez-tez nomlanishi va domenini o‘zgartirib turadi.

- Internet quyidagilar bilan terroristlar uchun qulay hisoblanadi:
- Internetga kirishning osonligi;ϖ
- Foydalanuvchilar sonining ko‘pligi;ϖ
- Aloqaning anonimligi;ϖ
- Tashqaridan boshqarish va tahrir qilish cheklangani;ϖ
- Axborotlar qisqa muddatda keng makonda tez tarqalishi;ϖ
- Faoliyat sarf-xarajatlarining bir necha barobar kamligi.ϖ

Terroristlar internetdan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

- Targ‘ibot va tashviqot maqsadida ma’lumot tarqatish;
- YAngi a’zolarni yollash (verbovka);
- A’zolik va xayriya badallarini yig‘ish hamda ulardan foydalanish;
- Tarmoq va shahobchalar tashkil etish;
- Terroristlarni o‘qitish, ko‘rsatmalar berish;
- Razvedka va ma’lumot qidirish;
- YAngi terroristik harakatlarni rejalashtirish va boshqarish.

YUrtboshimiz ta’kidlaganlaridek, shuni unutmaslik kerakki, “Bugungi kunda inson

ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin”.

2013 yil 15 aprel kuni AQSHning Boston shahrida sodir etilgan terroristik harakatlar 14 yil avvalgi boshqa bir voqeani esga soladi. 1999 yil aprelida Devid Kouplend ismli 23 yoshlik injener tomonidan Londonning 3 ta gavjum joyida portlatilgan qo‘lbola bombalar 3 kishining haloq bo‘lishi va 139 kishi yaralanishiga sabab bo‘ldi. Keyinchalik sud jarayonida D.Kouplend mazkur terroristik harakatni yolg‘iz tayyorlagani, bunda u internetdan olingan “Terrorist uchun qo‘llanma” va “Qanday qilib bomba tayyorlash mumkin: 2-kitob” nomli kitoblardan foydalanganini aytgan. Google internet tarmog‘ida “terrorist” va “qo‘llanma” so‘zlari orqali qidiruv berilganda, taxminan 5,5 mln. materiallar, jumladan, 4 mingdan ortiq qo‘llanmalar topish mumkin. D.Kouplend tomonidan qo‘llanilgan ammoniy nitrati haqida esa internetda 241 ming, undan portlovchi modda tayyorlash haqida 14 mingdan ortiq material mavjud.

Diniy ekstremistlar va terrorchilarning internetdagi saytlarida tashkilotning maqsadi, tarixi hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy mazmundagi ma’lumotlarga keng o‘rin beriladi. Jumladan, terrorchilar kuch ishlatish yo‘liga o‘tishga go‘yoki majbur bo‘lganlarini asoslashga, terror va qo‘poruvchilik harakatlarini ma’naviy va axloqiy jihatdan oqlashga intilishadi. Bunda o‘zlarini “ozodlik kurashchisi”, “partizan”, “qarshilik ko‘rsatuvchi” deb atab, tinchlik tarafdori qilib ko‘rsatishga va ular bilan kurashda hukumat tinch yo‘l bilan harakat qilish lozimligini asoslashga intilish keng tarqalgan. Ular saytlarda hukumat tarafidan qo‘llanilayotgan usullarning “vahshiyligini” yoritishga ham alohida e’tibor beradilar. Tezkor axborotlar, yangiliklarning bir vaqtning o‘zida bir necha tilda va terrorchilar uchun foydali bo‘lgan yo‘nalishda berib borilishi, ularning faoliyatni oqlovchi, “qahramonligini” kuylovchi qo‘shiqlar, kliplar berilishi bunday saytlarning mafkuraviy hamda emotsional ta’sir quvvatini oshirishga xizmat qiladi.

Bunday saytlar, bir tomondan, terrorchilik tashkilotining faol a’zolariga, ikkinchi tomondan, terrorchilarning asl maqsad muddaolarini bilmaydigan, ularni “kurashchilar”, “muxolifat” va shu kabi ijobiy maqom hamda sifatda qabul qilishga o‘rgangan odamlarga mo‘ljallangan. Ulardan jamiyatda tegishli ijtimoiy fikrni shakllantirish va qarama-qarshi (dushman) tomonga psixologik ta’sir ko‘rsatish, qo‘rquv, vahima tarqatish orqali ichki ikkilanishni keltirib chiqarishdek maqsadlar ko‘zlanadi.

“Mana shunday vaziyatda, – deb yozadi I.Karimov, – odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta’siriga bardosh berishi amrimahol”.

Yoshlar hayoti va tarbiyasiga katta xavf solayotgan, butun jahonda balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega. Ammo YUrtboshiimiz ta’kidlaganidek, “Bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo‘lgan ana shunday hodisalarni faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlashning o‘zi etarli emas. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma’naviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik uchun avvalambor ezgu insoniy g‘oyalar bilan xalqimizning ongu tafakkurini va saviyasini yuksaltirish, jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste’dod musobaqasida bellashuvga qodir bo‘lishimiz shart”. Ulkan axborot ummonida yolg‘on xabarlar nisbati shiddat bilan ortib borayotgan hozirgi tahlikali zamonda ajdodlarimizning “hadislarni saralash” tajribalaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

YUrtimizdagi kechayotgan jarayonlarni keskin va noxolis talqin qiluvchi, bo‘hton, tuhmat va g‘iybat bilan to‘lib-toshgan materiallarni o‘qiyotgan yurtdoshlarimiz yuqoridagi ma’lumotlardan to‘g‘ri xulosa chiqaradilar, deb umid qilamiz, albatta. Prezidentimiz aytadilarki: “Tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berish mumkin”. Bu sharoitda axborot xavfsizligini ta’minlash uchun virtual olamda ham faol harakatlar olib borish zarur.

Eng avvalo g‘araz maqsadda amalga oshirilayotgan tashqi g‘oyaviy ta’sirlar, mamlakatimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga xolis yondashuv bayrog‘i ostida berilayotgan bir yoqlama axborotlar va baholarning oldini olish, ularga qarshi ob’ektiv ma’lumotlarni kishilarga tezkor, tizimli va tadrijiy etkazib berish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Har xil shaklu shamoyildagi bunday urinishlarga qarshi hayotimizda sodir bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlar haqidagi chuqur tahliliy ma’lumotlarni muntazam berib borish, fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, turli ijtimoiy toifa va guruhlarning qiziqish va intilishlari, hayotiy manfaatlarini yoritish, “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

SHu bilan birga, oldimizda O‘zbekistondagi vaziyat, erishilgan yutuqlar bo‘yicha ob’ektiv axborotlarni jahon jamoatchiligiga vaqtida etkazib berish hamda mamlakatdagi real voqelikning undan tashqarida ham to‘g‘ri va o‘rinli qabul qilinishiga erishishdek muhim vazifa bor. Prezidentimiz aytganidek, “Insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta’sir o‘tkazadigan bu sohadagi faoliyatimizni xalqimizning ma’naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur”.

Aholining xolis va haqqoniy axborotga ega bo‘lishini ta’minlash, yurtdoshlarimizning ma’naviy saviyasi, bilim va dunyoqarashini oshirish, shu bilan birga, yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma’lumotlarni global tarmoq orqali tarqatib borishni din sohasidagi tashkilotlar oldida turgan yana bir muhim vazifa sifatida qayd etish mumkin.

Respublikamizda qaror topgan tolerantlik muhitini afkor ommaga ob’ektiv ko‘rsatib berish, e’tiqod erkinligi sohasida O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosatni keng targ‘ib qilish, diniy ekstremistik oqimlar tomonidan targ‘ib qilinayotgan aqidaviy da’volarga manbalarga asoslangan ilmiy raddiyalar berish, diniy ekstremizm va missionerlik g‘oyalarining jamiyatga tahdidi, mutaassib g‘oyalar zamiridagi g‘arazli geosiyosiy maqsadlar, islomni buzib talqin qilayotgan aqidaparastlarning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan maqolalar Toshkent islom universiteti (TIU)ning veb-sahifasiga tizimli joylashtirib boriladi.

2011 yil mart oyidan hozirga qadar TIU saytida yuqoridagi dolzarb mavzularga bag‘ishlangan 110 dan ortiq maqola e’lon qilindi. SHuningdek, mazkur saytda dolzarb mavzularda e’lon qilingan maqolalarni yoshlar orasida kengroq targ‘ib qilish maqsadida maqola bilan birgalikda quyidagi kabi chaqiriqlar joylashtirilishi yo‘lga qo‘yilgan: “Ushbu risolani o‘qib, qabih niyatli kimsalardan ogoh bo‘lganingiz holda, yaqin do‘stingizni ham yovuzlik tuzog‘idan asrashingiz unga yaxshilik istaga¬ningizdir. RISOLANI 2 YAQIN DO‘STINGIZGA HAM JO‘NATING!”. Bugun axborot ham iste’mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o‘zida uni iste’mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. YOshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, o‘zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur. Ana shu maqsadda 2011 yildan boshlab TIU bakalavriat va magistraturaning barcha yo‘nalishlarida “Axborot iste’moli madaniyati” nomli maxsus kursning o‘qitilishi joriy etildi.Axborot iste’moli

madaniyati, eng umumiy ma’noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi. Inson o‘zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo‘lmaganda “Bu axborotni kim uzatayapti?”, “Nima uchun uzatayapti?” va “Qanday maqsadda uzatayapti?” degan savollarni o‘z-o‘ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

SHundagina turli g‘oyalar ta’siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma’lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishning oldi olinadi. SHakllangan axborot iste’moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabar, ma’lumotlarga nisbatan o‘ziga xos qalqon rolini o‘taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta’minlashga xizmat qiladi.Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo‘lishi lozimki, ular vertual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Faqat shundagina, globallashuv jarayonlarida yoshlarning ma’lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashish, ularni noto‘g‘ri talqin qilishining oldi olinadi. Axborot iste’moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta’siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

“Kimki axborotga ega bo‘lsa, u, dunyoga egalik qiladi”,- degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e’tirof etilgan. SHunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.YUqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni yanada rivojlantirish kelgusida jamiyatimiz oldida turgan muhim va ustuvor vazifalardan ekanini ta’kidlash zarur:

- yoshlarning axborot muhitidagi ijtimoiy ongini monitoring qilish tizimini shakllantirish;
- o‘sib kelayotgan avlodning media-savodxonligini muntazam oshirib borish;
- virtual axborot hududida yoshlarning ustuvor nuqtai-nazarlari va qiziqishlarini muntazam o‘rganish;
- kelajak avlodning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga zarar etkazuvchi axborotdan aholini himoya qilish;
- yoshlarning ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi “ommaviy madaniyat” tahdidi va yot oqimlarning haqiqiy mohiyatini fosh etuvchi ma’lumotlarni etkazish tizimini yo‘lga qo‘yish.

Mutaxassislarning fikricha, hozirda axborot iqtisodiyotning eng serdaromad manbaiga aylanib bormoqda. AQSh Strategik tadqiqotlar institutining ma’lumotlariga ko‘ra, axborot mahsulotiga sarflangan har bir dollar, yoqilg‘i-energetika sohasiga sarmoya qilingan 1 dollardan ko‘ra bir necha barobar ko‘p foyda berar ekan. Bu faqat uning iqtisodiy jihati, uning siyosiy jihati esa o‘z shaxsiy manfaatlariga o‘ta arzon, o‘ta qulay yo‘llar bilan erishish sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda axborot omili ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan ayrim kuchlar manfaatiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham yangi mustaqil davlatlarning milliy xavfsizligini ta’minlashda siyosiy, iqtisodiy, harbiy omillar bilan bir qatorda uning axborot jihatlari borgan sari dolzarblashmoqda.

Prezidentimiz aytganlaridek, axborot omili yadroviy poligonlardan ham dahshatli omilga aylanib borayotir. Agar mazkur omilga alohida e’tibor berilmas ekan, u borgan sari kuchayib boradi. Natijada, ayrim kuchlar qo‘lida asosiy “qurol”ga aylanadi. Bu esa nafaqat davlatlar yoki mintaqalarda keskin vaziyat vujudga kelishiga sabab bo‘ladi, balki xalqaro miqyosda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar natijasida milliy xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro xavfsizlik kabi tushunchalar mohiyatini tushinishga, ularning o‘zaro bog‘liqligini anglashga e’tibor ortib bormoqda. Bugungi dunyoning axborot xavfsizlik holati

“Xavfsizlik”ka bo‘lgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga va milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka nisbatan konseptual qarashlarni rivojlantirishga undamoqda.

Bugungi globallashuv asrida axborotga bo‘lgan talab har qachongidan ko‘ra, kuchayib bormoqda. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko‘ra bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, tele-radio kanallar odamlarni xolis va haqqoniy axborot yetkazadigan, gumanistik qarashlar, ilg‘or g‘oyalarni ifoda qiladigan erkin minbar sifatida e’tibor beriladigan vositadir. Aslida ham shunday. Bugun jahon miqyosida bo‘layotgan olamshumul o‘zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fandagi inson aqlini lol qoldiradigan yangiliklaru ixtirolar barcha-barchasi ommaviy axborot vositalari orqali ma’lum bo‘lmoqda. Demak, OAV, matbuot yaxshilikka, ezgulikka xizmat qilmoqda. Lekin ming afsuslar bo‘lsinki, o‘tgan asrning oxirlari, XXI yuz yillikning dastlabki yillarida G‘arb matbuotida biz aytgan ezgulikka xizmat qilish o‘rniga boshqa buyurtmali “ezgulikka” xizmat qilish hollari ham kuzatilmoqda. Ayniqsa, bu holni sobiq ittifoq parokanda bo‘lgach, uning o‘rnida tashkil topgan mustaqil respublikalar, xususan, Markaziy Osiyo, ayniqsa, O‘zbekiston bilan bog‘liq jarayonlarda uchratish mumkin.

Agarda mustaqilligimizning dastlabki yillarida G‘arb matbuotining Respublikamizga bo‘lgan munosabatini tahlil etadigan bo‘lsak, “Ozodlik”, “BBS” va boshqa radio hamda gazetalarda ko‘proq ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy va shu kabi sohalardagi kamchiliklarga e’tibor qaratilar edi. Lekin, O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatida qat’iy va dadil yo‘l tuta boshlaganidan, ayrim xalqaro tashkilotlaru “Buyuk derjava” larning yo‘rig‘iga yurmaganidan, ularning geostrategik rejalarini barbod etgandan so‘ng axborot hurujlar avj ola boshladi. So‘nggi vaqtlarda ayrim ommaviy axborot vositalarida terroristik tajovuzlar dunyoning Yevropa qismida “terrorizm” deb baholanib, O‘zbekistonda “inson haq-huquqlarining himoyasi” sifatida qaralmoqda. Mana shunday sharoitda, ya’ni, demokratik jarayonlarga baho berishda kim holis yondoshayotganligi, kimning esa berayotgan bahosi uydirma bo‘lib, haqiqiy demokratiyaga va milliy manfaatlarga zid ekanligini anglash uchun har birimizda fuqaroviy pozitsiya bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda ulug‘ alloma Abu Rayxon Beruniy merosidagi ayrim fikrlarga e’tiborni qaratmoqchimiz. Alloma bundan ming yil burun shunday yozib ketganlar.

“Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg‘onlik tusini oladi. Chunki, odamlarning maqsadlari xilma-xil xalqlar o‘rtasida tortishish va talashish ko‘p. Shunday kishilar ham bo‘ladiki, ularning tabiatiga yolg‘on xabar tarqatish o‘rnashib qolib, go‘yoki unga shu vazifa yuklangandek bo‘ladi va xabar tarqatmasdan tinchiyolmaydi. Bu yomon xohishlardan va tabiatiga buzuq fikrlarning joylashganligidan kelib chiqadi”. Qarang bundan o‘n asr avval yashab o‘tgan bobokalonimiz bugungi kun voqeligi, ayniqsa, o‘zini adolatparvar, inson huquqlari himoyachisi, oddiy so‘z bilan aytganda, “jurnalist” deb yurgan ayrim kimsalarga bahs berib o‘tgan ekanlar. Axborotni himoyalash masalalariga rivojlangan mamlakatlar katta ahamiyat beradi. Hozirgi paytga kelib xalqaro munosabatlar yangi axborot texnologiyalari asosida shakllanayotgani bois, axborotni himoyalash va kompyuter tizimlari xavfsizligini ta’minlash jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlarida “axborot quroli”ga qarshi maxsus davlat dasturini amalga oshirish uchun yiliga 137 mln. dollar sarf qilinadi.

“Bugungi kunda, – degan edi, O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov, – insoniyat qo‘lida mavjud bo‘lgan qurol-yarog‘lar Yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi”.

Kurashning bu turida eng samarali qurol – axborot. Shu bois, axborotni o‘z maqsadlariga xizmat qildirishga intilish keskin tus olmoqda. Axborot, uni uzatish, qayta ishlash va yig‘ish bosqichlari o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Ya’ni, insonning oddiy, kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlarining asosini ham, dunyo mamlakatlarining insoniyat taqdiriga daxldor bo‘lgan qarorlarining manbaini ham axborot tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Mutaxassislarning xulosalariga qaraganda, rahbarlar, boshqaruv xodimlari axborotlar bilan ishlashga o‘z vaqtlarining 30 foizdan 80-95 foizgachasini sarflashar ekan. Bu tabiiy holat. Chunki o‘z vaqtida va ishonchli axborotlarga ega bo‘lish hamda ularni o‘z vaqtida yetkazish va amaliyotda unumli foydalanish samarali boshqarishni ta’minlashning sharti hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, endilikda axborot- davlat faoliyatida boshqaruvchilik kuchini sezilarli darajada namoyon qiladi. O‘zbekistonning mustaqil bo‘lishi uni ayrim davlatlarning bizning mintaqamizga intilishlari mohiyatida ikki muhim jihat-mintaqada geosiyosiy ta’sirga va bu yerdagi tabiiy hamda notabiiy resurslarni tasarruf etishda o‘z ulushiga ega bo‘lish alohida ko‘zga tashlanadi. Boshqa ayrim davlatlardan farqli o‘laroq, buning O‘zbekiston hukumati tomonidan anglab yetilgani va mazkur masala uning tashqi siyosatida aks etib turishi “katta o‘yin” qatnashchilarini o‘z manfaatlari yo‘lida har qanday usul hamda vositalardan foydalanishga majbur etadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bugungi kunda dunyo bo‘ylab o‘z manfaatlarini keng yoyishning eng maqbul usuli – axborot hurujlari bo‘lsa, eng samarali vosita – axborot tizimlari va vositalari hisoblanadi.

Collins English lug‘atida (1998) globallashuv moliyaviy va sarmoya kirituvchi bozorlarga davlatlar va millatlarning o‘zaro bog‘lanmaganliklaridan foydalangan holda rivojlangan va tartibga solingan aloqalar orqali boshqarish imkoniyatini beradi, deb ta’kidlanadi.

Globallashuv jarayoni 1990 yillar o‘rtalarida asrning buyuk kashfiyoti internet paydo bo‘lgach, yanada murakkab tabiatga ega bo‘ldi. Moskvaning globallashuv muammolari instituti chop etgan “Globallashuv amaliyoti. Yangi asr o‘yin qoidalari” to‘plamida (2000 yil. 16-bet) globallashuv jarayoni axborot inqilobi, ayniqsa, internetning rivojlanishi hamda moliyaviy bozorlarning integratsiyalashuvi bilan uzviy bog‘liq ekani yoziladi.

Globallashuv jarayonini olimlar “internatsionallashtirish yoki baynalminallashtirish”, “liberallashtirish yoki erkinlashtirish”, “universallashtirish” hamda “g‘arblashtirish”, deb talqin qilishadi.

“Internatsionallashtirish” — mamlakatlararo munosabatlar, xalqaro savdoning o‘sishi, demokratiya va inson huquqlari kabi g‘oyalarni o‘zaro almashinishidir.

“Liberallashtirish” — mamlakatlararo ochiq savdoning chegaralashning man etilishi va jahon iqtisodiyotini erkinlashtirish.

“Universallashtirish” — bu turfa qarash va tajribalarning yer yuzidagi barcha insonlar orasida tarqalishi. Iqtisodiy va madaniy aloqalarning o‘sishi milliy madaniyat va qadriyatlarning uyg‘unlashuviga olib keladi. Boshqacha aytganda, madaniyatlarning qo‘shilib ketishi natijasida o‘zgacha madaniyat yuzaga keladi.

Ingliz olimi Voterning fikriga ko‘ra, “g‘arblashtirish” jarayonini “zamonaviylashtirish” jarayoni deb ham aytish mumkin. Biroq “zamonaviylashuvning ijtimoiy tuzilishi” bo‘lgan kapitalizm, mustamlakachilik, sanoatlashuv, byurokratizm, imperalizm va hokazolar globallashuv jarayonining asosiy negizini tashkil qiladi. Ya’ni gap “g‘arblashtirish” haqida ketganda, g‘arbiy kapitalizmning jahon miqyosida ustun turishi nazarda tutiladi. Masalan, 2000 yil ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda internetdan foydalanuvchilar soni 304 millionni tashkil etgan. Lekin butun dunyoni

egallab olgan mazkur axborot tarmog‘idan foydalanuvchilar soni davlatlar va mintaqalarda teng taqsimlanmagan. 1999 yil oxirlarida internetdan foydalanuvchilarning 88 foizi rivojlangan davlatlarda istiqomat qilishgan. Bu esa dunyo aholisining 15 foizini tashkil qiladi. AQSh va Kanadada yer yuzi aholisining 5 foizi istiqomat qiladi va mana shu besh foiz aholi internetdan foydalanuvchilarning 50 foizini tashkil etadi. Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, internetni butun dunyo axborot tarmog‘i deya atash ham qaysidir ma’noda nisbiylik kasb etadi. Hozirgi kunda dunyo globallashuvining yangi davri “axborot asri” yoki “elektron yuz yillik” tomon qadam tashlamoqda. Sun’iy yo‘ldoshlar va internet orqali telekommunikatsiyalarning faoliyat yuritishi har kim va har narsa uchun yer sharining xohlagan chekkasiga borish va joylashish, ya’ni diterritoriallashish imkoniyatini yaratadi.

2001 yil 11 sentyabr voqealaridan keyin dunyo siyosati mazmun-mohiyat jihatidan mutlaqo yangi va murakkab bosqichga o‘tdi, xalqaro siyosatdagi manfaatlar kuch va qutblarining markazlarida ham jiddiy tuzilmaviy o‘zgarishlar yuz berdi. Qo‘poruvchilik harakatlari natijasida xalqaro jurnalistikada mavjud huquqiy me’yorlar va kasbiy etikaning OAV hamda jurnalistlar tomonidan suiiste’mol qilinishi, kasbiy vakolatlar, majburiyatlarning qo‘pol tarzda buzilishi, eng muhimi, mustaqil va xolis fikr bildirishga nisbatan mas’uliyatning kamayishi hollari butun dunyo miqyosida kuchaydi. Hozirgi kunda xalqaro munosabatlar, kapital va moliyaviy institutlarning kengayishi natijasida ommaviy axborot vositalari ham jahon tarixida misli ko‘rilmagan tarzda globallashib bormoqda. Muayyan bir millat va davlatga yoki ma’lum bir siyosiy kuchlargagina daxldor bo‘lgan munosabatlar va aloqalar hamda hududiy chegaralardan chiqib, gibrid xarakterga ega bo‘lgan o‘ta murakkab siyosiy-ijtimoiy va madaniy voqelikka aylanmoqda. Mazkur jarayonlar O‘zbekiston siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va ma’naviy hayotiga, xususan, mamlakat OAViga jiddiy va kuchli ta’sir ko‘rsata boshladi. Negaki, globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan hozirgi davrda O‘zbekiston mustaqil, ochiq va demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotgan davlat sifatida ushbu voqelik ta’siridan chetda qola olmaydi. Shuningdek, XXI asrning boshiga kelib dunyoda shunday bir siyosiy-iqtisodiy vaziyat yuzaga keldiki, u O‘zbekistonni bevosita xalqaro hamjamiyat va xalqaro almashish jarayonlariga shiddat bilan integratsiyalashishini talab qilmoqda.

Ayni paytda O‘zbekiston OAVlari ta’sir doirasining cheklanganligi, chuqur iqtisodiy asos va axborot bozorining to‘la qaror topmaganligi, jahon axborot tarmoqlariga kirib borishining sustligi mamlakat OAVlarining global axborot almashish jarayonlarida faol ishtirok etishiga to‘sqinlik qilmoqda. Natijada dunyo hamjamiyati O‘zbekiston to‘g‘risidagi axborotlarni uchinchi manbalardan yoki jahon jurnalistikasida katta ta’sir doirasiga ega bo‘lgan Rossiya OAVlari orqali olmoqda. Bu esa o‘z navbatida butun dunyoda ayrim hollarda O‘zbekiston to‘g‘risidagi noxolis va noto‘g‘ri tasavvurlarning hamda fikrlarning tarqalishiga olib kelmoqda, mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi obro‘siga putur yetmoqda.

Globallashuv jarayonining O‘zbekiston jurnalistikasiga ko‘rsatayotgan eng jiddiy salbiy ta’sirlaridan biri bu respublika OAVlarining faqatgina iste’molchiga aylanib qolayotganidadir. Misol uchun, O‘zbekiston televideniesining butun mamlakat bo‘ylab efirga tarqaluvchi das-turlarining 2004 yil 1 yanvardan 30 iyungacha bo‘lgan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zTVning to‘rtta kanallari ichida faqatgina O‘zTV1 (“O‘zbekiston” kanali) ko‘rsatuvlarining aksariyatini ushbu kanalning o‘zi tayyorlagan ko‘rsatuvlar tashkil etadi. Ya’ni, 6 oylik davrda ushbu kanalning umumiy efir vaqti 2938 soatni tashkil qilgan bo‘lsa, shundan 2304,32 soatini, ya’ni 78,4% ko‘rsatuvlari o‘z mahsulotlarining efir vaqtiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich qolgan uchta kanalda, ya’ni TV2da 51,4%ni, TV3da 45% va TV4da 25,7%ni tashkil etadi.

“O‘zbekiston” kanalida chet el filmlari va ko‘rsatuvlari jami efir vaqti 581,35 soatni yoki 19,7% foizini tashkil etgan. O‘zTV1 telekanalining ko‘rsatuvlari efirida eng kam e’tibor qaratilgani chet el sporti haqidagi ko‘rsatuvlardir.

Shuningdek, O‘zteleradiokompaniyaning har to‘rtala kanalidagi dunyo yangiliklarining deyarli 99% chet el axborot agentliklari va teleradiokompaniyalarining dasturlaridan noqonuniy tarzda ko‘chirib olingan axborotlardan iboratdir. Buning ustiga, o‘zbek OAVlarining ta’sir doirasi cheklangan. O‘zbekiston telekanallari va radio stantsiyalarini faqatgina mamlakat bilan chegaradosh bo‘lgan Markaziy Osiyo respublikalari aholisigina ko‘rishi va eshitishi mumkin. Bu esa O‘zbekistondagi axborot makoni va ijtimoiy ongning to‘g‘ridan to‘g‘ri Rossiya va G‘arb OAVlari ta’siri ostida qolishiga sabab bo‘lmoqda hamda O‘zbekiston OAVlarining xalqaro miqyosdagi o‘z o‘rniga ega bo‘lishini tobora qiyinlashtirib qo‘ymoqda.

Axborot asri sifatida talqin etilayotgan yangi yuz yillikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan internetning shiddat bilan rivojlanib borayotganligi insoniyat taraqqiyotiga yangicha mazmun va mohiyat ato qildi. Davlat va jamiyat rivojlanishining mazkur yangicha shakli “elektron” borliq ko‘rinishida xarakterlanib, uning kelajagini aloqa tarmoqlari orqali butun dunyoni yagona axborot makoniga aylantirayotgan millionlab baytlar va bitlar hal qilmoqda. Internet davlat va xalqlar o‘rtasidagi axborot almashishni misli ko‘rilmagan darajada tezlashtirdi, dunyoni insoniyat uchun tom ma’nodagi yagona global makonga aylantirdi.

Ta’kidlash kerakki, globallashuv jarayonining harakat manbai hisoblanmish G‘arbning (asosan AQSh) yirik iqtisodiy kuchlari butun dunyoni o‘zlarining korporativ manfaatlarigagina javob beruvchi va xizmat qiluvchi “yagona xom ashyo, iste’mol, ishlab chiqarish va axborot bozori”ga aylantirishga urinmoqdalar. Globallashuv jarayoni G‘arb davlatlarining umumiy manfaatlari himoyasida ham asosiy o‘rin egalladi. Ajablanarli tomoni shundaki, 6,3 milliard kishidan iborat jahon aholisining faqatgina 1 milliardga yaqini istiqomat qiluvchi G‘arb davlatlari dunyodagi mavjud iqtisodiy resurslarning 80 foizini nazorat qilmoqda. Sayyoramiz aholisining bor-yo‘g‘i 1 foizi dunyo boyliklarining 60 foiziga ega. Bu esa milliy davlatlarning G‘arbga siyosiy iqtisodiy va harbiy jihatdan qaramligiga olib keladi.

Shuningdek, mazkur vaziyat davlatlarning OAVga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. OAVning milliyligiga rahna soluvchi hozirda odatiy holga aylanib borayotgan, ko‘proq G‘arbga xos bo‘lgan pornografik, vahshiylik, narkomaniya, fohishabozlik kabi illatlarni o‘zida aks ettirgan dasturlarning berilishi kuchaymoqda. Bu esa, o‘z navbatida, milliy OAVning milliy qadriyat va madaniyat tushunchasidan yiroqlashib, dunyoning yirik mediakorporatsiyalari mahsulotlariga murojaat qilib, axborot sohasida ishlab chiqaruvchi emas, balki iste’molchiga aylanib qolishiga olib keladi. Milliy OAV va jurnalistika xorijiy (asosan G‘arb) axborot mahsulotlariga bog‘lanib qolmoqda. Xususan, O‘zbekiston OAVlari ham dunyo yangiliklariga oid axborotlarni uzatishda butunlay chet elning yirik korporatsiyalariga suyanadi, milliy qadriyatlarni o‘zida aks ettirgan ko‘rsatuvlar berilishi o‘rniga xorij seriallari, kinolari, sport ko‘rsatuvlari va musiqiy dasturlarini haddan tashqari ko‘p vaqt efirga uzatish jamiyatimiz uchun bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

— chet el mafkurasi, dunyoqarashi va hayot tarzini omma ongiga singdirib, milliy qadriyatlar va an’analarga e’tiborning pasayishiga olib keladi;

— xorijiy axborot oqimlarida mavjud bo‘lgan g‘arbona erkin jinsiy hayotni, zo‘ravonlik, urush va qotilliklar, xudbinlik, boylikparastlik, ota-onani hurmat qilmaslik, ichkilikbozlik, tamaki mahsulotlari va narkotik moddalarni iste’mol qilishga mukkasidan ketgan shaxslar va shunga o‘xshash holatlar ijtimoiy ongga, ayniqsa, yoshlar tafakkuriga salbiy ta’sir ko‘rsatadi;

— G‘arb manfaatlarini himoya qiluvchi axborot oqimlari o‘zbek jamiyatining milliy estetikasi, ahloq me’yorlariga va mentalitetiga, yoshlarga milliy mafkurani singdirish uchun qilinayotgan ko‘pgina ishlarning samaradorligiga putur yetkazadi;

— Milliy OAV mahsulotlariga bo‘lgan talabning pasayishiga olib kelishi;

— Milliy jurnalistika taraqqiyotini sekinlashtirishi mumkin;

— Milliy axborot makonini va ongni axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan chet el mafkurasi ta’siriga tushib qolishiga olib keladi;

Globallashuv jarayonining bunday salbiy ta’sirlarini kamaytirish uchun bir qator muammolar yechimiga e’tibor qaratish lozim. Avvalo, so‘z va OAV erkinligini qog‘ozda emas, balki amalda ta’minlanishiga erishish, OAV sohasida ham to‘laqonli bozor munosabatlariga o‘tish va uning tartibga solish tizimlarini ishlab chiqish, OAV va jurnalistika sohasidagi milliy kadrlarni tayyorlash sifatini yaxshilash talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ham Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq to‘qqizinchi sessiyasida qilgan ma’ruzasida bugungi kunda respublikada so‘z erkinligini ta’minlashning jamiyatimiz rivoji uchun o‘ta muhimligini, OAV sohasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish lozimligini, ichki va tashqi siyosatdagi murakkab masalalarni chuqur tushunadigan va tahlil qila oladigan, o‘z kasbini chinakam ustasi bo‘lgan yuqori malakali jurnalistlarga katta ehtiyoj borligini ta’kidlab o‘tgan edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, globallashuv jarayoni insoniyatning, xususan, OAVning rivojlanishi uchun (o‘zining barcha ta’sir va oqibatlariga qaramasdan) juda qulay imkoniyatlar yaratib bermoqda. Xususan, O‘zbekiston ham globallashuvning bunday imkoniyatlaridan foydalanib, jahon hamjamiyatiga yanada tezroq integratsiyalashmoqda va xalqaro axborot almashish jarayonlarida faol qatnashmoqda. Ammo globallashuv jarayonida “jabrlanuvchi”ga aylanib qolmaslik uchun O‘zbekiston ijtimoiy ongni va milliy OAVni tezroq erkinlashtirishi, axborot bo‘shlig‘i yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Negaki, kuchli ijtimoiy fikr va OAV jamiyatni globallashuvning siyosiy-iqtisodiy va mafkuraviy tazyiqlardan himoya qilishda eng samarali himoya vositasi bo‘la oladi.

Global axborotlashuv asri nomi bilan tarixga kirgan XXI asrni zamonaviy ommaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, radiotelevidenie, Internet tarmog`isiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, internetning imkoniyatlari keng va cheksiz bo`lib, u gazeta, radio va hatto televideniedan ko`ra ham kuchliroq ta`sirga ega. Axborot uzatish, almashinish va qabul qilish jarayonida tezkorlik, aniqliq, sifat va tasirchanlikni ta`minlash, axborotni global miqyosda keng yoyilish imkoniyatlarini ochib berishi “butun jahon o`rgimchak to`ri”ning ahamiyatini, undan foydalanish ehtiyojini orttirmoqda. O`zbekistonga ham Internet shiddatli qadamlar bilan kirib kelmoqda va kundalik hayotimizda o`zining o`ringa ega bo`lmoqda. 2008 yilga kelib O`zbekistonda Internet foydalanuvchilari soni 2 mln 200 ming kishidan oshib ketdi. Fan-texnikaning yutuqlari insoniyat foydasiga, ezgu maqsadlarga xizmat qilishi ijobiy holat. Lekin, virtual olamdan ayrim kuchlarning g`arazli niyatlarini amalga oshirish uchun foydalanayotganligi ham haqiqatdir.

Afsuski, elektron dunyoni turli siyosiy kuchlar, terroristik, ekstremistik-tashviqotlar va g`oyalarni targ`ib qiluvchi, har-hil jinoiy to`dalarning faoliyatlarini amalga oshirishlariga va o`z qarashlarini ommaga targ`ib qilishlariga ham ko`maklashmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstrimizmning “Al-Qoida”, “Hizb ut-tahrir”, “Hamas” kabi yirik tashkilotlarining tahdidlari, Internet tarmog`ida ham o`zlarining mafkuraviy maydonlarini yaratib, umumjahon komp`yuter tarmog`ida keng qamrovli axborot terrorini, "muqaddas urush" - "elektron-jihod"ni olib borayotganliklari, global va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar va yangi muammolar paydo qilayotganliklari, ayni paytda, globallashuv sharoitida, dunyo mamlakatlarining oldida axborot xavfsizligini ta`minlash muammolarini keltirib chiqarmoqda. Tarmoq ichida insoniyatga

qarshi, yoshlarga qarshi tajovuzlar bilan yo`g`irilgan giyohvand moddalar iste`mol qilish, sotish, axloqsizlik, zo`ravonlik, qotillik va millatlararo, dinlararo va irqiy murosasizlik keltirib chiqarishni keng targ`ib qiluvchi, terrorchilik va ekstremistik tashkilotlarga xizmat qilayotgan saytlar faoliyatlarini amalga oshirishda davom etmoqdalar. Ularning terrorchilikka, jinoyatga undovchi resurslar bilan to`lib-toshib borishi insonlar ongini, ayniqsa yoshlarni tezda o`ziga jalb qilyapti. Qo`poruvchilik, harbiylar va tinch aholini qiynoqlarga solish, ko`z ko`rib, quloq eshitmagan usullar bilan jazolash sahnalari namoyish etish orqali, vahima uyg`otish, tinch hayot tarzini izdan chiqarish, g`oyaviy porokandalik yuzaga keltirish maqsadida, shuningdek ma`naviyatga zarar etkazadigan, aqidaparastlik ruhida yo`g`irilgan, o`z mafkuraviy ta`sirlarini muttasil tarzda saqlab turishga qaratilgan manbalar tobora xavfli ko`rinish kasb etib bormoqda. Bu kabi axborotlar nafaqat alohida olingan yagona bir yoki bir necha davlat uchun, balki butun jahon hamjamiyati uchun katta xavf tug`diradi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ushbu muammoni bartaraf etishning ishonchli vositalarini, mukammal dasturlarini ishlab chiqishga xarakat qilinmoqda, katta miqdordagi mablag`lar ajratilmoqda, ko`plab saytlar filtirlab qo`yilmoqda. Albatta, xaqli ravishda savol tug`iladi, O`zbekistonda yuqorida aytib o`tilgan muammolar ta`sirlariga tushib qolmaslik uchun, umuminsoniy qadriyatlarga, milliy an`ana va urf-odatlarga, xalqni e`tiqodiga, ma`naviyati va madaniyatiga, ongi va tafakkuriga zarar etkazadigan yot mafkura va qarashlardan saqlash uchun nimalar qilinyapti va nimalar qilish kerak bo`ladi? Internet olamini cheklab yoki malumotlar olishni to`xtatib qo`yish bilan masala xal bo`lmaydi. Bu hususida I.A.Karimov quyidagicha to`xtaladi –"... yoshlarimiz nafaqat o`quv dargohlarida, balki radio-televideniya, matbuot, Internet kabi vositalar orqali xam rang-barang axborot va malumotlarni olmoqdalar. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o`rab-chirmab, uni o`qima, buni ko`rma deb, bir tamonlama tarbiya berish, ularni atrofini temir devor bilan o`rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu-maqsad muddaolarimizga ham to`g`ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o`z oldimizga maqsad qilib qo`yganmiz va bu yo`ldan hech qachon qaytmaymiz"[86][18].

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 29 sentyabrdagi "O`zbekiston Respublikasining jamoat ta`lim axborot tarmog`ini tashkil etish to`g`risida"gi qaroriga muvofiq O`zbekistonning turli tuzilmalari tomonidan axborotlarni uzatish tarmoqlarida ta`lim va yoshlar bo`yicha yaratilayotgan axborot resurslari yagona ZiyoNet axborot tarmog`iga birlashtirildi. Tarmoqning asosiy vazifalari: yoshlar uchun milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, yoshlarning ma`naviy va aqliy jihatdan kamol topishiga ko`maklashadigan axborotdan keng ko`lamda foydalanishlarini ta`minlash, sog`lom turmush tarzini targ`ib etish va jismoniy tarbiya va sport turlarini ommalashtirish, o`quvchilar va yoshlar uchun masofadan turib ta`lim olish usullarini va boshqa axborot-kommuni katsiya xizmatlarini ta`lim tizimiga joriy etishda ko`maklashishdir.

Ma`lumki, ko`plab sayt va tarmoqlar katta mablag`lar evaziga filtrlab ko`yilgan va bu holatni ko`plab davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta taqiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni Internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash qiyin va faqatgina vaqtinchalik holat bo`lishi mumkin. I.A.Karimov takidlaganidek "…yoshlarimizning ma`naviy olamida bo`shliq yuzaga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog`lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat ehtirom tuyg`usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz kerak"[87][19]. Internetdan olinayotgan axborotlarga tanqidiy yondashish va

[86][18] Karimov I.A. YUksak manaviyat - engilmas kuch. –T.: Manaviyat, 2008. –B.114
[87][19] O`sha joyda, 113

uning foydali manbalari asosida o`z dunyoqarashini kengaytirish, g`arazli ma`lumotlarni inkor eta bilish idrokini, mafkuraviy immunitetni hosil qilish g`oyat muhim jihatdir. Har bir yosh ma`lum bir ko`nikma va bilmlarga, diniy va dunyoviy ilmlarni mohiyatini tushuna olish qobiliyatiga ega bo`lishi, dunyoda kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jaryonlarga befarq bo`lmasligi lozim. Buni avvalo, o`zining taqdiri, kelajagi oldidagi ma`suliyat deb bilsa, ikkinchidan, vatani va xalqi oldidagi burchi sifatida tushunmog`i lozim.

Internt tarmog`i ham, kashf qilingan har qanday fan yutuqlari singari o`zining ijobiy va salbiy jihatlariga ega. Global tarmoqning hayotimizdagi o`rni va ahamiyati taboro ortib borayotganligi, insoniyat uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini asoslashga hojat yo`q. Xalqaro terroristik va ekstremistik tashkilotlarni vertual olam orqali o`z ta`sirlarini o`tkazishga harakat qilishlari ham tabiy holat. Qachonki hamma davlatlar terrorizm havfini, xalqaro, xududiy va milliy xavfsizlik va barqarorlikka, umuman insoniyatga fojeali global havfni tushunib, birgalikda harakat qilganlaridagina yaxshiroq natijalarga erishilgan bo`lardi.

Jamiyatni global axborotlashtirish – axborot resurslarini faol shakllantirish va ulardan keng miqyosda foydalanish global, umumbashariy jarayonidir. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida ishlab chiqarishning odatdagi texnologik usuli va turmush tarzi kibernetika vositalari va usullaridan foydalanishga asoslanadigan yangicha, postindustrial shakl-shamoyil va mazmun-mohiyat kasb-etadi.

Axborot jamiyati – postindustrial jamiyat kontseptsiyasi; tsivilizatsiya rivojlanishining yangi tarixiy bosqichi bo`lib, unda axborot va bilim ishlab chiqarishning bosh mahsullari hisoblanadi. Axborot jamiyatining o`ziga xos xususiyatlari:

- jamiyat hayotida axborot va bilimlar rolining ortishi;

- yalpi ichki mahsulotda axborot kommunikatsiyalari, mahsullari va xizmatlari ulushining ko`payishi;

- quyidagilarni ta`minlovchi global axborot maydonining yaratilishi: a) odamlar samarali informatsion o`zaro aloqa qilishini; b) ular jahon axborot resurslaridan bahramand bo`lishini; v) ularning axborot mahsullari va xizmatlariga bo`lgan ehtiyojlari qondirilishini.

Ma`lumki, davlat va jamiyat qurilishida insonning o`rni va uning shaxs sifatida kamol topishi muhim ahamiyat kasb etadi. SHu jihatdan olganda shaxs va uning kamoli muammosi ijtimoiy fanlar: sotsiologiya, falsafa, psixologiya, insonshunoslik kabi fanlar diqqat markazida bo`lib kelmoqda. Ayniqsa, bugungi globallashuv va modernizatsiyalashuv jarayonida shaxsning o`z-o`zini anglashi, aniqlashi identifikatsiyasi muammosi dolzarb va muhim ahamiyatga ega. Bu esa shaxs va jamiyatning uzviy aloqada bo`lishini, xususan, shaxsning yuksak kamol topishidagi o`ziga xos muhitning, shart-sharoitlar hamda jamiyatdagi tub o`zgarishlar sodir bo`lishi bilan uyg`un holda kechmoqda. Zero, axborotlashgan jamiyatning inson hayotidagi o`rni va roli hamda shu asosda shaxsning ijtimoiylashuv-siyosiylashuviga bo`lgan ta`siri bilan belgilanadi. Xususan, axborot oqimining kuchayuvi, uning son va sifat jihatidan xabarning tez va aniq uzatilishi shaxsning onggi va qalbi orqali o`tmoqda. Bu esa o`z-o`zidan har bir axborot, tarqatilayotgan turli-tuman xabarlarning shaxs ong va tafakkuriga ta`siri bilan o`lchanadi. Ushbu axborotning shaxsga qanday ta`sir etishi eng avvalo uning bilim darajasi (ommaviy, ilmiy, kundalik ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-ma`rifiy), dunyoqarashi hamda dunyoni his etishi idrok etishi bilan belgilanadi. “Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so`z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta`minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o`z fikr va g`oyalarini, sodir bo`layotgan voqealarga o`z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga

aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo`lmasligini o`zimizga yaxshi tasavvur etamiz”[88][20]. SHaxs dunyoqarashiga axborotning ta`sir kuchi eng avvalo axborotni uzatilishi, qabul qilinishi ongda qayta ishlanishi hamda ma`lum bir xulosa qilinishi bilan amalga oshadi. SHu nuqtai nazardan axborot olish va uni o`zlashtirish modelini ishlab chiqqan frantsiyalik olim J.Dyuran aynan inson omiliga e`tibor qaratadi. Uning fikricha kommunikatsiya tizimining asosini tashkil qiluvchi inson axborotni qabul qilib oluvchi obyekt sifatida besh bosqichni boshidan kechiradi. “Birinchi bosqich – axborot bilan ilk to`qnashuv bosqichi bo`lib, bu bosqichda retsipient individ u yoki bu harakat amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik haqida qaror qabul qiladi.

Ikkinchi bosqich – axborotni tushunish bosqichi bo`lib, bu bosqichda individ qabul qilib olgan axborotini o`z ongida qayta ishlaydi va uni o`zicha talqin qiladi.

Uchinchi bosqich – pozitsiyani o`zgartirish bosqichi bo`lib, bu bosqichda insonga etkazilgan axborotlar insonga ta`sir ko`rsatib. Uning qarashlari, tuy¼ulari, pozitsiyalarini o`zgartiradi.

To`rtinchi bosqich – qabul qilingan axborotning inson ongida muhrlanishi hisoblanadi.

Va nihoyat beshinchi bosqich – inson fe`l-atvoridagi o`zgarishlar bosqichi hisoblanib, bu o`zgarishlarning asosini qabul qilingan axborotlari, insonning dunyoqarashi va tashqi muhit ta`siri tashkil qiladi”.[89][21]

SHunday ekan jamiyatni shaxs ongiga ta`sir etishda axborotlashtirish jarayoni bir–biri bilan bog`liq bo`lgan uch qismdan tarkib topadi: mediatizatsiya (lot. mediatus – vositachi) – axborot to`plash, saqlash va tarqatish vositalarini takomillashtirish jarayoni**;** komp`yuterlashtirish **–** axborot qidirish va unga ishlov berish vositalarini takomillashtirish jarayoni; intellektuallashuv – axborot yaratish va uni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, ya`ni jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, shu jumladan sun`iy intellektdan foydalanish jarayonidir. Ma`lumki, axborot quyidagicha tushuniladi: axborot tashqi muhitga moslashish jarayonida undan olingan ma`lumot, signalning mazmunini ifodalash (N.Viner); entropiyani inkor etish (Brillyuen); kommunikatsiya va aloqa, noaniqlikni yo`q qilish jarayoni (K.SHennon); rang–baranglikni ifodalash (R.Eshbi); o`ziga xoslik, yangilik, strukturalarning murakkabligi mezoni (A.Mol`); tanlash ehtimolligi (T.YAglom), xilma–xillikni aks etish (A.Ursul); makromolekulalarning xossasi va ularning avtorepduktsiya qobiliyatiga ko`ra baholanishdir (M.Eygen); mavjud va teng variantlarda eslab qolingan bitta variantning tanlovi (G.Kastler) va h.k.larni aytish mumkin.

Umuman olganda, jamiyatni axborotlashtirishni zamonaviy axborot–texnika vositalari yordamida ijtimoiy tuzilmalar va jarayonlarni takomillashtirish deb talqin qilish lozim. Axborotlashtirish ijtimoiy intellektuallashuv jarayonlari bilan uyg`un bog`liq bo`lishi kerak. Zotan, bu shaxsning va u yashayotgan axborot muhitining ijodiy salohiyatini oshirishga imkoniyat yaratadi. SHu bois, globallashuv jarayonida shaxs ijtimoiy faolligini oshirishda axborotlashgan jamiyat oldingi jamiyatlardan sifat jihatidan farq qiladi. Bu erda moddiy omillar emas, balki ideal omillar – bilim va axborot birinchi o`rinda turadi. SHuningdek, olingan axborot va bilim olish, ularga ishlov berish, ularni saqlash va berish jarayonida jamiyat a`zolarining aksariyati band bo`ladi. Axbdorotlashgan jamiyatda axborot ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarishni siqib chiqarmaydi, balki uning ustida quriladi va moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishiga turtki beradi. Tabiiyki, bu jarayon shaxsning ong-shuuriga ta`sir etish barobarida unga o`zining axborotning mazmun-mohiyatiga bo`lgan munosabatni ham o`zgartiradi.

---

[88][20] Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruza. 2010 yil 12 noyabr`/ – T,.: “O`zbekiston”,2010. V. 28

[89][21] Durand J. Les formes de la Communication.- P. 1981.

Bugungi kunda demokratiyani shakllantirishning zarur sharti bo`lgan axborotlashtirish, uning ko`lami, sur`atlari va yo`nalishi ayni jamiyatda sodir bo`layotgan ijtimoiy–siyosiy va umuman madaniy jarayonlarga, shu jumladan fan, ta`lim, umumiy madaniyatning globallashuv darajasiga uzviy bog`liqdir. Bu esa barcha o`zgarishlarning negizi, subyekti hisoblangan shaxsning barkamBirinchidan, ijtimoiy–siyosiy munosabatlarni demokratlash-tirish, uning axborot bazasini taqozo qilib, tsivilizatsiya manfaatlari asosida maqsadga muvofiq baholash mezonlarni ishlab chiqishni talab qiladi; ikkinchidan, jamiyatni demokratlashtirishni xususiyatlari regional va milliy xarakterga ega bo`lishini hisobga olib, uni axborotlashtirishga ham differentsial yondoshmoq lozim; uchinchidan, “ochiq jamiyat” tushunchasining demokratik xarakteri axborotlashtirish jarayoniga nisbatan shartli xarakterga ega, chunki har qanday axborotni “ijobiy” deb baholash nisbiydir; to`rtinchidan, jamiyatda “axborot erkinligi” tushunchasi “axborot masuliyati”ni istisno qilmaydi. SHunga ko`ra, “axborot erkinligi”ni demokratiya belgisi, tamoyili, xususiyati deb baholash mutlaqo shartli va nisbiydir.

Axborot terrorizmi globalizatsiya maxsuli xisoblanadi. Ekspertlar fikriga ko`ra, Axborot terrorizmi 2020-2030 yillarga borib o`z ta`sirini yuqori darajaga ko`taradi. Bu esa axborot jamiyatidagi isloxotlarni va xalqaro terrorizm faoliyatini rivojlanishini ta`minlab berishi mumkin.

Bundan tashqari, kiberterrorizm kompyuter vositalari orqali turli davlat va shaxsiy tarmoqga zarar keltiruvchi faktor sifatida e`tirof etilmoqda.

Kiberterrorizm – mahsus xaker dasturlari orqali komp`yuter boshqaruvi tarmoqlarini egallab olish va komp`yuter viruslari yordamida internet tarmog`ida terakt sodir etish, internet tarmog`ini ishdan chiqarishni ko`zda tutadi.

Jumladan, Amerika Qo`shma SHtatlari mudofaa vazirligi Pentagon ma`lumotlariga ko`ra, komp`yuter tarmoqlari orqali 60 yo`nalish bo`yicha turli axborotlar qabul qilinadi. SHuningdek, ayrim xakerlar tomonidan Amerika davlat xokimiyati tizimi serverlari orqali YUgoslaviya, Serbiya, Rossiyaga nisbatan aniq bir siyosiy maqsadga yo`naltirilgan xujumlar uyushtirilgan. Bundan tashqari, bunday misollardan biri xakerlar tomonidan Xindiston atom tadqiqot markaziga xam ushbu yo`nalishda komp`yuter vositalari orqali xujum qilingan.

SHvetsiyada siyosiy xokimiyat tizimida xakerlar tomonidan chap gurux tashabbusi bilan o`ng radikallarning komp`yuter tarmog`i yo`q qilingan. SHHTga a`zo davlatlar o`rtasida axborot xavfsizligi soxasida xam samarali faoliyat olib borilmoqda.

2012 yil 27 martda Toshkentda bo`lib o`tgan SHHTning mintaqaviy aksilterror tuzilmasining yig`ilishida a`zo davlatlar o`rtasida axborot xavfsizligini ta`minlashda yangi zamonaviy ko`nikmaga ega bo`lish, komp`yuter tarmoqlaridan terroristik maqsadlarda foydalanayotgan tashkilotlarni aniqlash, ularga qarshi kurashish to`g`risida kelishuvga erishilgan.

Axborot xavfsizligini ta`minlash bugungi kunda davlatlar oldida turgan dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda va ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar SHHTning faoliyatini kengaytirish, axborot xavfsizligi yo`nalishida aniq chora - tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Bugungi kunda internet orqali turli mazmundagi axborotlarning tarqalishi yoshlarga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda.

Jumladan, Internetning to`g`ri maqsadlarda ishlatilishi uning salbiy ta`sirlaridan himoyalanishni ta`minlaydi. Internetda yoshlar ma`naviy tarbiyasiga zarar etkazadigan audio-vizual va kontent ma`lumotlarning tarqatilishi, zo`ravonlik, pornografiya, pedofiliya sahnalarining e`lon qilinishi keskin tanqid qilinmoqda. Internetning axborot maydoni, dezinformatsiya, yolg`on va tuhmatlar manbaiga aylangani salbiy xolat hisoblanadi. SHu bilan bir qatorda Yevropa global tarmog`ida buzg`unchi saytlar mavjudligi hamda vertual firibgarlik ta`siriga tushub qolishi mumkinligini inobatga

olmagan yoshlar turli saytlarga kirishi tufayli ruxiy va xatto jismoniy salomatligiga ziyon etkazuvchi axborotlarga duch kelmoqda[90][22].

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlarda maktab o`quvchilarining qurollangan xolatda turli jamoat joylari, maktab, savdo do`konlariga bostirib kirish xollari tez-tez uchramoqda. Mutaxassislar bolalar o`rtasida bu kabi xolatlarning ko`payib borayotganini internet saytlari, jangari filmlar, videolavhalar va boshqa vositalarning ta`siri bilan bog`lamoqdalar. SHu bilan bir qatorda psixologlarning mulohazalariga ko`ra, o`smirlik shaxsning fiziologik va ijtimoiy rivojlanishidagi o`ziga xos davri bo`lib, bu davrda o`smirlar agressiv ruxdagi tomoshalarga, on-layn o`yinlariga berilsa, bu noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin.

YUqoridagi ma`lumotlardan xulosa qilib aytish mumkinki, "Axborot terrorizmi" xozirgi kunda zamonaviy terrorizmning bir ko`rinishi sifatida davlatlar o`rtasida axborot urushini keltirib chiqarishi, axborot vositalaridan foydalangan xolda terrroristik tashkilotlar tomonidan terakt sodir etilishi jaxon xamjamiyatini tashvishga solmoqda.

Axborot terrorining ko`rinishlarini Respublikamiz xududida yuz berishi davlat va xususiy kop`yuter tarmoqlarini izdan chiqarishi, boshqa davlatlar bilan o`zaro do`stlik va xamkorlik aloqalariga, shuningdek axolini ayniqsa yoshlarning ma`naviy – ruxiy xolatiga salbiy ta`sir etishi mumkin.

Globallashuv, axborot sohasi liberallashayotgan bir paytda, uzoq-yaqin mamlakatlardagi turli hil siyosiy, mafkurafiy va boshqa kuchlar (120 ga yaqin davlat axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib bormoqda) o`zlarining g`arazli manfaatlari yo`lida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan, ayniqsa, Internet tarmog`idan foydalanib, axborot erkinligini suiste`mol qilib, o`sib kelayotgan yosh avlodga axborot tahdidlarini kursatish orqali, hali ongi va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan yoshlarni chalg`itish, yoshlarning ongi va qalbini egallash yo`lidagi intilishlari kuchaytirayotgani hech kimga sir emasdir.

SHunday ekan, nosog`lom axborot oqimi va ta`siridan yoshlarni himoyalash uchun qanday huquqiy mexanizmlar mavjud, degan o`rinli savol to`g`iladi?

Ma`lumki, xalqaro amaliyotda "Kiber jinoyatlar to`g`risida" Konventsiya, "Voyaga etmaganlar uchun xavfsiz Internet va on-layn resurslarni joriy qilish to`g`risida" Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, "Bola huquqlari to`g`risida" BMT Konventsiyasini, "YOshlarni himoyalash to`g`risida" Germaniya, "Voyaga etmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta`siridan himoyalash to`g`risida" Litva va "Bolalarni sog`ligi va rivojlanishiga ziyon etkazuvchi axborotdan himoyalash to`g`risida"gi Rossiya Federatsiyasi qonunlari mavjud ekanligini tilga olishimiz mumkin bo`ladi.

AQSH tajribasi haqida gapiradigan bo`lsak, shuni aytish lozimki, 2001 yili kuchga kirgan qonunga asosan, davlat dotatsiyasini oluvchi ommaviy muassasalarning barchasi kontent fil`tratsiya tizimini urnatishi majburligi belgilanib (Child Internet Protection Act), 2001 yili 74 foiz maktablar, 43 foiz kutubxonalar, 41 foiz oilalar (qaysikim bolalari Internetga chiqish imkoniyatlari borlari) kontent fil`tratsiya tizimini, tegishli dasturlarni urnatishdilar..

Yevropa mamlakatlari tajribasiga murojaat qiladigan bo`lsak Buyukbritaniyada davlat strukturasi faoliyat yuritib ("Internet Watch Foundation"), u doimiy ravishda Internetdagi xavfli kontentli resurslarni monitoring qilib boradi.

Milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog`lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud bo`lib, xususan, O`zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to`g`risidagi Qonunda "O`zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan zo`ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday hatti-harakatlar man etilishi", Bola huquqlarining kafolatlari to`g`risidagi Qonunda "Pornografiya,

[90][22] http://uza.uz/uz/society/10382

shafqatsizlik va zo`ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta`sir ko`rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo`luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda fil`mlarni namoyish etish taqiqlanishi" belgilab berilgan bo`lsada, bugungi axborot makonidagi tendentsiyalar, axborot ekspantsiyasi, agressiv axborotlarning kuchayishi milliy qonunchiligimizni va ma`rifiy-tarbiyaviy ishlarimizni yanada kuchaytirishni taqoza etadi desak mubolag`a bo`lmas.

Zamonaviy ommaviy kommunikatsiya vositalari bizni global axborot makoni bilan bog`lab, axborotni olish va tarqatish geografiyasini kengaytirib, dunyo mamlakatlari va xalqlarini yaqinlashtirdi. Bu ijobiy holat, albatta. Biroq, axborot makonida taxdidlar bor ekan, milliy axborot makonimizga chegara quyib bo`lmasligini nazarda tutib, kelajagimiz vorislarini uylab, vayronkorlik va buzg`unchilik mazmunidagi axborot oqimini cheklashimiz, yosh avlodning ma`naviy olamining daxlsizligini asrashimiz kunning dolzarb vazifalaridan biri desak, mubolag`a bo`lmas.

Virtual reallik, virtuallik (ing. virtual reality, virtual – borligicha, lot. virtus – potentsial, ehtimollik, energiya, kuch, shuningdek tasavvurdagi xayol) – komp`yuter yordamida modellashtirish asosida foydalanuvchi sun`iy dunyoga cho`mib, maxsus sensorli moslamalar orqali unda harakat qilish imkonini beradi. Bunda foydalanuvchining ko`rish, eshitish, sezish va motorli sezgilari komp`yuter tomonidan yaratiladigan imitatsiyasi bilan almashtiriladi.

Virtual reallikning o`zi nima, degan masalada asosan ikki yo`nalish (gipoteza) shakllangan. ***Birinchisi*** virtual reallikni texnikaviy hodisa deb qarash bo`lsa, ***ikkinchisi*** ruhiy xodisa deb xisoblashdir. Umuman, h. davr falsafiy adabiyotlarida ko`rsatilishicha, virtual reallik tushunchasining fanda, san`atda va amaliyotda keng tarqalishi, " o`z-o`zidan tashkillashuv", "kooperatsiya effektlari", "tasodifiy tashkillanishlar" va shular kabi boshqa tushunchalar orqali ifodalanadigan yangi ilmiy paradigmaning vujudga kelayotgani haqida gapirish imkoniyati vujudga kelayotganini bildiradi.

Hozirgi davrda virtual reallikni faqat komp`yuter texnologiyalari, ya`ni "kibermadaniyat" bilan bog`lash tamoyili ham mavjud. Lekin, bunga qarama- qarshi o`laroq boshqa olimlar virtual reallikning komp`yuterdagi variantlarini undan ancha chuqur kechadigan jarayonlarning yuzadagi qo`pol namoyon bo`lishidir, degan fikrlarni oldinga surmoqdalar.

Virtual reallik jamiyat hayotida muhim hodisalardan biri sifatida o`rin oldi. Bu jarayon tasarrufchini komp`yuterda turli manipulyatsiyalar (o`yin yoki boshqa ishlar) qilishi uchun mo`ljallangan har xil olam modellarini yaratish proektidan boshlangan edi. Ana shu proekt tufayli kimyoviydan tortib to ijtimoiyga qadar bo`lgan barcha jarayonlarni sun`iy ravishda yaratishning cheksiz imkoniyatlari ochildi. Bu hol fanning barcha sohalari namoyandalarining, ayniqsa faylasuflarning diqqatini o`ziga tortdi. Hozirgi davrda virtual reallik sistemalarini ishlab chiqish va ulardan amalda foydalanish jarayoni virtualistika muammolarini falsafiy-metodologik nuqtai nazardan anglash bilan parallel ravishda amalga oshmoqda. Bu borada ko`plab kitoblar, jurnal va gazetalarda maqolalar nashr etilgan.

Virtualistika bo`yicha olib borilayotgan ishlarni asosan uch yo`nalishga ajratish mumkin. ***Birinchisi,*** sistemalar nazariyasi, modellashtirish, komp`yuter grafikasi, mul`timediya va h.k.da erishilgan yutuqlarni hisobga olishga tayanadigan nazariy ishlar. ***Ikkinchisi,*** virtual reallik muammosining falsafiy va psixologik jihatlari hamda uning insonga, odamlar guruhi va butun jamiyatga ta`siri haqidagi ishlar. ***Uchinchisi,*** virtual reallikka tegishli sistemalarni inson faoliyatining texnik sohalarida, ta`limda, ilmiy tadqiqotlarda, biznesda va h.k.da foydalanish muammolariga bag`ishlangan ishlar. *To`rtinchisi*, virtual reallikning axloq, siyosat, madaniyatshunoslik bilan bog`liq muammolari bo`yicha ham ishlar olib borilmoqda.

Ma`lumki, muhtaram Yurtboshimiz Islom Karimov O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma`ruzasida ma`naviy hayotimizni yuksaltirish, azaliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, milliy tabiatimiz va urf-odatlarimizga mutlaqo zid bo`lgan har qanday zararli ta`sirlar, buzg`unchi g`oyalarga qarshi turish, ma`naviy jihatdan etuk, o`z mustaqil fikriga ega, barkamol avlodni tarbiyalash borasida o`zining fikr va g`oyalarini bildirib o`tgan edilar.

YUrtboshimiz quygan ushbu yuksak vazifalarni ruyobga chiqarish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari, ota-onalar va pedagoglarni o`zoq muddatli o`zliksiz va tizimli hamkorlikka chaqiradi, albatta.

4-mavzu. DINLAR O`ZARO TA`SIRINING GLOBALLASHUVI

Reja:

1. Dinning madaniyat fenomeni sifatida o`ziga xos xususiyatlari.
2. Din globallashuvining mezonlari.
3. Islomning globallashuvi talqini.
4. Globallashuv davrida dinlararo muloqot va tolerantlik masalasi

Globallashuv jarayoning hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sabablari xususida gapirganda Prezidentimiz I.Karimov ta`kidlaganlaridek " ... shuni obyektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo`shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog`lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas"[91][55].

Mutaxassislar zamonaviy global rivojlanish jarayonidagi ba`zi tendentsiyalarning tahlili asosida bu borada ko`p hollarda aksiomadek qabul qilinadigan ayrim xulosalarga tanqidiy yondashish zarurligini ta`kidlashayotganini alohida qayd etish lozim. Jumladan, ular globallashuv sharoitida dunyodagi yirik kompaniyalar olayotgan foyda o`sish emas, balki pasayish tomon ketayotgani, hukumatlar hali hamon gigant korporatsiyalar faoliyatiga ta`sir ko`rsatish imkoniyatini saqlab turgani va ko`p hollarda ularni o`z rejalarini o`zgartirishga majbur qila olayotgani haqida yozmoqdalar[92][56]. Bu esa, davlat chegaralari ahamiyatining keskin darajada pasayib ketayotgani haqida gapirayotgan mutaxassislarning qarashlarini bir yoqlama ekanidan dalolat beradi.

Global diniy makonda ro`y berayotgan o`zgarishlardan biri bu muayyan din yoki konfessiyaning konkret hudud bilan shartlanishidagi o`zgarishlar bilan bog`liq. CHunki hozirda diniy hayotda sodir bo`layotgan o`zgarish ularning an`anaviy konfessional, siyosiy, madaniy va tsivilizatsiyaviy chegaralar doirasidagina emas, balki transmilliy, transetnik darajalarda ham kechmoqda. Xususan, neopyatidesyatniklar, bahoiylar faoliyati bu yo`nalishdagi jarayonlarga misol bo`la oladi. Diniy hayotdagi global dinamik o`zgarishlarning yana bir xususiyati, iqtisodiy jarayonlar va ijtimoiy sohaning bir qator jabhalarida global kommunikatsiya maydonida yuzaga kelgan tarmoq modellari kabi "tarmoq dinlari" fenomenining vujudga kelgani bilan ham xarakterlidir.

Mutaxassislarning fikricha "tarmoq dinlari" an`anaviy konfessiyalardagi ierarxik strukturadan yagona markaz va an`analar ortodoksalligi bilan ajralib turadi va beqaror aloqalar va

[91][55] Karimov I.A. YUksak ma`naviyat- engilmas kuch.- T.: Ma`naviyat, 2008. – 111 b.
[92][56] Lapkin V.V., Pantin V.I. Geoekonomicheskaya politika i globalnaya politicheskaya istoriya.- M.: Izd-vo: Elita, 2004. – 280 s.

nochiziqli avtoritet hamda bo`ysunish tizimiga ega qator avtonom birliklar orqali shakllanadi. O`z navbatida, ushbu birliklar bir-biridan kurtaklanib, eski siyosiy, madaniy va konfessional yurisdiktsiya chegaralarini kesib o`tish xususiyatiga ega. Xarizmatik protestant cherkovlari, buddaviylik va hinduiylikdagi ayrim "tarmoq" tashkilotlari faoliyati bunga yaqqol misol bo`la oladi[93][57]. SHu bilan birga, diniy hayotda o`ziga xos aksilgloballashuv jarayonlari kechayotganini ham ta`kidlash joiz. Gap shundaki, ayrim mutaxassislar tomonidan zamonaviy voqelikning radikal sekulyar qadriyatlar asosida shakllanayotgani haqidagi qarashlar ham ilgari surilmoqda. "Bunga ko`ra ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy hayotda din asosiy emas, balki marginal o`ringa ega bo`ladi"[94][58]. Ayni paytda, o`zgacha nuqtai nazar ham mavjud bo`lib, u dinning barcha yo`nalishlardagi jarayonlar rivojida qadriyatli - normativ asoslardan biri sifatida chiqishini ifodalaydi. Xususan, "Hozirda din global tartibga institut, anklav, muayyan birlik emas, balki o`ziga xos "jamoaviy va individual mansublik janri" sifatida kirmoqda", - deb yozadi atoqli olim Ronal`d Robertson[95][59].

Albatta, insoniyat istiqbolida dinning qandaydir ikkilamchi, noasosiy o`rin tutishiga doir gipotetik xarakterdagi ushbu fikr-mulohazalar o`ta bahsli bo`lib, ularga diniy hayotda kechayotgan o`zgarishlar dinamikasini har tomonlama tahlil etish orqaligina asosli munosabat bildirish mumkin.

"SHu o`rinda ta`kidlash muhimki, zamonaviy voqelik diniy qadriyatlar buzilishi va faqatgina sekulyarlashuv asoslarining rivojlanishi bilan kechayotgani yo`q. Balki, demokratik davlat va jamiyat qurish asoslarining mustahkamlanib borishi, diniy e`tiqod erkinligining keng joriy etishishi natijasida, diniy hayotda o`ziga xos ixtiyoriylik muhiti vujudga kelmoqda"[96][60]. Aytish mumkinki, bu diniy sohadagi globallashuv jarayonining asosiy xususiyatlaridan biridir.

E`tiqod va vijdon erkinligining keng tarqalishi, o`z navbatida, diniy hayot shakllarining transformatsiyalashuviga olib kelmoqda. Demokratiya, erkin raqobat va inson huquqlari tamoyillari diniy qoidalar tizimiga integratsiyalashmoqda. Turdi din vakillari esa, aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda sekulyar madaniyat tizimiga munosabat bildirmoqda. Boshqacha aytganda, globallashuv davri boshqa ijtimoiy institutlar hayotida bo`lgani kabi dinlar hayotida ham muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. CHunki turli ijobiy va salbiy oqibatlarga ega globallashuv jarayoni e`tiqod va vijdon, iroda va so`z erkinligi tamoyillari ustuvorlashib borayotgan demokratik sharoitlarda kechmoqda. Bu esa, o`z navbatida, asrlar mobaynida o`zaro bir-biriga nisbatan antagonizm, nigilizm, radikalizm kayfiyatida yashab kelgan turli diniy tizimlar oldiga sifat jihatdan yangi bo`lgan sharoit talablariga moslashish, fuqarolik jamiyati qurishni maqsad qilib olgan xalqlar hayotida o`zining o`rni va ahamiyatini saqlab qolish va rivojlantirishning innovatsion yo`llari va mexanizmlarini ishlab chiqishdek murakkab vazifalarni hal etishni zarur qilib qo`ymoqda.

Bu yo`nalishdagi birlamchi vazifalardan biri shubhasiz, dinlararo, konfessiyalararo muloqot hisoblanadi. Zero, o`zaro hurmat, tenglik, ishonch va hamjihatlikka asoslangan sog`lom muloqot har qanday din yoki konfessiyaning globallashuv sharoitida o`z o`rni va mavqeini saqlab qolishning eng maqbul vositasidir.

Umuman olganda, "globallashuv – bu avvalo hayot sur`atlarining beqiyos darajada tezlashuvi..."[97][61] ekani haqidagi fikrdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, hozirda dinlarning

---

[93][57] Qarang: Nurullaev A.A. Problemi dialoga religiy v epoxu globalizatsii. // Vestnik Rossiyskogo universiteta drujbi narodov. - Ceriya: Politologiya. - 2001. - № 3. - S. 28-35.; Mesheryakov D.A. Globalizatsiya v religioznoy sfere obshestvennogo bi`tiya: Avtoref. diss... kand. filos. nauk. Omsk: GOU VPO «Omskiy gosudarstvenni`y agrarniy universitet», 2007. – 25 s.

[94][58] Qarang: Eremeev S.G. Vi`zovi globalizatsii: etnicheskiy i religiozni`y ekstremizm v sovremennom mire. - http://anthropology.ru/ru/texts/eremeev/terror.html.

[95][59] Qarang: Novaya sotsialnaya realnost globalnogo mira. /Otv. red. V.I. Ivanov. – Krasnoyarsk: Izd-vo "LITERA-print", 2008. – 214 s.

[96][60] Orlov M. Mesto i rol religii v globalni`x protsessax sovremennosti. // Vlast, 2008. № 1. – S 46.

[97][61] Karimov I.A. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma`naviyat, 2008. – 111 b.

bir-biri bilan yaqindan hamkorlik qilishi obyektiv zaruriyatdir. Global ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy hayot barqarorligi ko`p jihatdan ana shu hamkorlikning samarali rivojlantirilishiga bog`liqdir.

Globallashuv atamasi garchi keyingi vaqtlarda ommaviy tarzda qo`llanilayotgan bo`lsada, u chuqur nazariy asoslarga ega tushunchadir. Qaysidir ma`noda bu tushuncha insoniyatni birlikka intilishining faollashuvini bildiradi, odamlardagi begonalashuvni yo`qotadi, kommunikativ aloqalarni tezlashtiradi. Insoniyatning tarixan birligini madaniyatlarning o`zaro almashinuvida, monoteistik dinlarni tarqalishi, umumiy til yaratishga bo`lgan urinishlarda ko`rishimiz mumkin. Lekin, hozir gap bu haqda ketayotgani yo`q. Globallashuvning zamonaviy tendentsiyasi ma`naviy doiradan chiqib iqtisodni, siyosatni, axborot jarayonlarini va inson faoliyatining boshqa ko`plab jabhalarini qamrab olmoqda. SHu tarzda ko`p qirrali aloqalar bilan bog`liq bo`lgan megajamiyat shakllanmoqda. SHu ma`noda aytish mumkinki, globalizatsiya — jahon iqtisodiy, texnologik, siyosiy, informatsion integratsiyasining o`lchamidir.

Dunyo bo’ylab Islom. 120 dan ortiq davlatda o‘tkazilgan demografik tadqiqotlar bugun dunyo bo‘ylab 1.57 milliard musulmonlar istiqomat qilishini ko‘rsatdi. Bu raqam 2009 yil hisobi bilan 6.8 milliardlik dunyo aholisining 23 % ini tashkil etadi. Bugun musulmonlar er sharining aholi mavjud bo‘lgan barcha besh qit’asida yashaydilar. Umumiy musulmon aholisining 60% dan ko‘prog‘i Osiyoda, 20%i YAqin SHarq va SHimoliy Afrikada istiqomat qiladi. SHunga qaramay, YAqin SHarq va SHimoliy Afrika hududi aholisining asosiy qismini musulmonlar tashkil qiluvchi mamlakatlar joylashgan zonadir.

Mazkur zonadagi 20 dan ziyod mamlakat va hududlarning [1] yarmidan ko‘pida aholining taxminan 95% dan ortig‘ini musulmonlar tashkil etadi.

300 milliondan ortiq musulmonlar yoki dunyo musulmonlarining har beshdan biri islom asosiy din bo‘lmagan mamlakatlarda yashaydi. Biroq, shuni qayd etish lozimki, islom asosiy din bo‘lmagan mamlakatlarda yashovchi musulmonlarning soni ham ancha katta. Misol uchun, Hindiston dunyoda eng ko‘p musulmon aholisi bo‘lgan davlatlar ichida 3-o‘rinda turadi. Xitoy musulmonlari soni Suriya musulmonlari sonidan, Rossiya musulmonlari esa Iordaniya va Liviya musulmonlarining birgalikdagi hisobidan ancha ko‘p. 1.57 milliard musulmonlarning 10-13%ini shialar, 87-90%ini sunniylar tashkil etadi. SHialarning aksari (chamasi 68%-80%) 4 mamlakat: Eron, Pokiston, Hindiston va Iroq hissasiga to‘g‘ri keladi.

Mazkur tadqiqot Pew Research Center tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, butun dunyo musulmon aholisining soni, joylashuvi hamda tarqalish hududi haqida axborot beruvchi eng so‘ngi va to‘liq ma’lumotdir. Bundan avvalgi tadqiqotlar dunyodagi jami musulmon aholisining umumiy sonini 1 milliarddan 1.8 milliardgacha deb ko‘rsatardi. Biroq ularning birortasi mazkur raqamlar qaerdan kelib chiqqanini asoslovchi maxsus manbaga suyanmasdi. The Pew Forum taqdim etgan ma’lumotlar 232 mamlakat va hududlardan olingan. Markaz tadqiqotchilari 50 ga yaqin demograflar hamda jahonning turli nuqtalarida joylashgan tadqiqot markazlari va universitet tadqiqotchilari bilan hamkorlikda-demografik tahlillar, aholi soni hisobotlari singari 1,500 ga yaqin manbani tahlil etgan holda o‘z turi bo‘yicha yagona bo‘lgan mazkur loyihani amalga oshirdilar. Bundan tashqari, markaz 2010 yilda shu singari Xristian aholisining soni bo‘yicha ham tadqiqot o‘tkazishni rejalashtirgan. Mazkur tadqiqotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad insonlarning dinni teranroq tushunishga ko‘mak berishdan iborat.

Dunyodagi har uch musulmonning ikkitasi quyida keltirilgan 10 ta davlatda istiqomat qiladi. Mazkur 10 davlatning 6 tasi Osiyo (Indoneziya, Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Eron va Turkiya)da, 3 tasi SHimoliy Afrika (Misr, Jazoir, Marokash)da, 1 tasi esa Markaziy Afrika (Nigeriya)da joylashgan.

Dunyo musulmonlarining asosiy qismi — har o‘ntadan olti kishi (62%) – Osiyo hududiga to‘g‘ri keladi. Bu hudud nafaqat Xitoy singari SHarqiy Osiyo mamlakatlarini balki Osiyoning uzoq G‘arbidagi Turkiya kabi mamlakatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Dunyo musulmonlarining 80% i musulmonlar diniy ko‘pchilikni tashkil qiluvchi mamlakatlarda yashaydi. Dunyo musulmonlarining har beshdan biri o‘z mamlakatlarida diniy ozchilikni tashkil qiluvchi aholi sifatida istiqomat qiladi. CHamasi 317 million musulmonlar turli mamlakatlarda diniy ozchilik sifatida yashaydi. Ulardan 240 million musulmon 5 mamlakatda: Hindiston (161 million), Efiopiya (28 million), Xitoy (22 million), Rossiya (16 million), Tanzaniya (13 million)da istiqomat qiladi. Musulmonlar ozchilik sifatida yashaydigan 10 ta yirik mamlakatning 2 tasi Evropada: Rossiya (16 million), Germaniya (4 million). Mazkur mamlakatlardagi musulmonlar diniy ozchilik sifatida yashasalar ham ularning soni ancha kattadir. Misol uchun, Hindiston dunyoda eng ko‘p musulmon aholisi bo‘lgan mamlakatlar ichida 3-o‘rinda turadi. Efiopiya musulmonlari soni Afg‘oniston musulmonlari soniga tengdir. Xitoyda Suriya qaraganda ko‘p musulmon yashasa, Rossiya musulmonlari Iordaniya va Liviya musulmonlarining birgalikdagi hisobidan ancha katta, Germaniyada esa Livandagiga qaraganda ko‘p musulmon istiqomat qiladi.

Tadiqiqotga kiritilgan 232 mamlakat va hududning 50 tasida musulmonlar aholining boshqa diniy vakillariga nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladilar. Bundan o‘zga o‘nta mamlakatning oltitasida (62%) gi musulmonlar soni alohida Rossiya va alohida Xitoy musulmonlaridan kam. Boshqa hududlarga qaraganda YAqin SHarq va SHimoliy Afrikada musulmonlar aholining boshqa din vakillariga nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladigan davlatlar soni ko‘pdir. Mazkur zonadagi 20 ta davlat va hududning 17 tasi — mamlakat aholisining 75 %dan ortig‘ini musulmonlar tashkil etuvchi davlatlar sanaladi. Bundan Isroil, Livan va Sudangina mustasno. Osiyodagi 61 mamlakatning 12 tasida, Markaziy va Janubiy Afrikadagi 50 mamlakatning 10 tasida, Evropadagi 50 mamlakatning 2 tasi (Kosova va Albaniya) da aholining 75% i yohud undan ko‘prog‘ini musulmonlar tashkil qiladi.

Musulmonlarning asosiy ko‘pchiligi sunniylardir. Dunyo musulmonlarining 10-13 % ni shialar tashkil qiladi. Bu degani dunyo bo‘ylab shialar soni 154-200 million atrofida. 116-147 million shialar Osiyo hududida yashaydi. Taxminan 36-44 million shialar YAqin SHarq-SHimoliy Afrika hududiga to‘g‘ri keladi. Bu degani: Osiyo-Okeaniya mintaqasida yashovchi musulmonlarning 12-15%i, YAqin SHarq-SHimoliy Afrika mususlmonlarining 11-14% shialar. SHialarning aksari (chamasi 68%-80%) 4 mamlakat: Eron, Pokiston, Hindiston va Iroq hissasiga to‘g‘ri keladi. Eronda 66-70 million shialar (dunyodagi shialarning 37-40%) istiqomat qiladi. Iroq, Hindiston va Pokistonning har birida taxminan 16 million shia yashaydi. 1 million va undan ko‘proq shialar Turkiya, YAman, Ozarbayjon, Afg‘oniston, Suriya, Saudiya Arabistoni, Livan, Nigeriya va Tanzaniyada istiqomat qiladi. AQSH bilan Kanadada 300,000 atrofida shia yashaydi. Bu raqam SHimoliy Amerika musulmonlarining 10% ini tashkil qiladi. 4 mamlakat — Eron, Ozarbayjon, Bahrayn va Iroqda shia musulmonlari umumiy aholining asosiy qismini tashkil qiladi. Osiyo-Okeaniya zonasida dunyo musulmonlarining 62% i istiqomat qiladi. Osiyodagi eng ko‘p musulmon aholisiga ega bo‘lgan 6 mamlakat: Indoneziya (203 million), Pokiston (174 million), Hindiston (161 million), Bangladesh (145 million), Eron (74 million) va Turkiya (74 million) dir. Mazkur 6 mamlakat birgalikda Osiyodagi umumiy musulmon aholisining 85% i, dunyo musulmon aholisining esa yarmidan ortig‘i (53%)ni o‘z ichiga oladi.

Osiyoda yashovchi musulmon aholining yarmi (484 million — 50%) Janubiy Osiyo hissasiga to‘g‘ri keladi. SHundan qolgani Janubi SHarqiy-SHarqiy Osiyo (253 million — 26%) va Markaziy-G‘arbiy Osiyo (235 million — 24%) o‘rtasida teng taqsimlanadi. Okeaniyada juda oz miqdorda (0,5 million — <1%) musulmonlar istiqomat qiladi.

Indoneziya dunyoda eng ko‘p (203 million) musulmon aholisi bo‘lgan mamlakat sanaladi. Dunyo musulmon aholisining taxminan 13 %i, Janubi SHarqiy-SHarqiy Osiyo hududida yashovchi musulmonlarning esa 80% i Indoneziya hissasiga to‘g‘ri keladi. Janubiy Osiyodagi 7

mamlakatning 3 tasi – Pokiston, Hindiston va Bangladesh birgalikda dunyo musulmonlarining 31%, Janubiy Osiyo musulmon aholisining esa 99% yashaydigan hududdir.

20 milliondan ortiq musulmon aholiga ega Osiyoning boshqa mamlakatlari safiga Afg‘oniston (28 million), O‘zbekiston (26 million) va Xitoy (22 million) kiradi. Xitoyning har bir provinsiyasida musulmonlar yashaydi. Ayniqsa Xitoyning G‘arbiy qismlarida ular ko‘proq tarqalgan. SHinjon, Ningsiya va Gansu provinsiyalari shular jumlasidandir. SHinjon -musulmonlar aholining asosiy qismi (53%) ni tashkil qiluvchi Xitoyning yagona provinsiyasi.

YAqin SHarq-SHimoliy Afrika 315 million musulmonga makon bo‘lib, bu raqam dunyo musulmon aholisining chamasi 20% ini tashkil etadi. Taxminan 79 million musulmon Misrda istiqomat qiladi. Bu degani mintaqadagi har to‘rt musulmondan biri (25%) Misr hududiga to‘g‘ri keladi.

YAqin SHarq-SHimoliy Afrika mintaqasidagi mamlakatlarning yarmidan ko‘pida aholining 95 % ini musulmonlar tashkil etadi. Bunday mamlakatlar safiga Jazoir, Misr, Iroq, Iordaniya, Kuvayt, Liviya, Marokash, Falastin erlari, Saudiya Arabistoni, Tunis, G‘arbiy Saxroi Kabir va YAman kiradi. Mintaqadagi boshqa mamlakatlar ham ko‘p sonli musulmon aholiga ega. Bular qatorida Suriya (92%), Ummon (88%), Bahrayn (81%), Qatar (78%), BAA (76%) va Sudan (71%). Ummon, Bahrayn, Qatar, BAA singari mamlakatlar fuqarolarining aksari musulmonlar. Biroq mazkur mamlakatlarga ko‘plab musulmon bo‘lmagan ishchi-xizmatchilarning kelib ishlashi musulmon aholi foizini umumiy aholiga nisbatan kamayishiga olib keladi.

SHimoliy Afrika *YAqin SHarq-SHimoliy Afrika* mintaqasidagi ko‘p sonli musulmon aholiga ega bo‘lgan uch yirik davlat joylashgan zonadir. Bular: Misr (79 million), Jazoir (34 million) va Marokash (32 million). Mintaqada ko‘p sonli musulmon aholiga ega bo‘lgan boshqa mamlakatlar qatoriga Iroq (30 million), Sudan (30 million), Saudiya Arabistoni (25 million), YAman (23 million), Suriya (20 million) va Tunis (10 million) kiradi. Mintaqadagi qolgan 11 mamlakat va hudud — Liviya, Iordaniya, Falastin erlari, BAA, Kuvayt, Livan, Ummon, Isroil, Qatar, Bahrayn va G‘arbiy Saxroi Kabirning umumiy aholisi 31 millionni tashkil etadi. Falastin erlarida salkam 4 million musulmon istiqomat qiladi. Isroilda yashovchi musulonlar soni (1,194,000) esa Qatar musulmonlari (1,092,000)dan xiyol ko‘proq. Isroilda musulmon aholi umumiy aholiga nisbatan 17%ni tashkil etadi. Mazkur raqam Evropadagi ayrim mamlakatlardan kattaroq. Misol uchun Buyuk Britaniyada yashovchi musulmonlar mamlakat umumiy aholisining atigi 3% ini tashkil etadi.

Markaziy Afrika-Janubiy Afrika mintaqasida 241 million musulmon istiqomat qiladi. Bu dunyo musulmon aholisining taxminan 15%ini tashkil qiladi. Nigeriya Markaziy Afrika-Janubiy Afrika mintaqasidagi eng ko‘p musulmon aholisi bo‘lgan mamlakatdir. Nigeriyada 78 million musulmon istiqomat qiladi. Bu Nigeriya umumiy aholisining 50%ini tashkil qiladi. Markaziy Afrika-Janubiy Afrika mintaqasida yashovchi har uch musulmonning biri (32%) Nigeriya hissasiga to‘g‘ri keladi. G‘arbiy Afrika *Markaziy Afrika-Janubiy Afrika mintaqasi*ning musulmon aholisi ko‘p bo‘lgan yagona hududidir. Janubiy Afrika mazkur mintaqadagi musulmon aholi eng kam yashaydigan zonadir. Markaziy Afrika-Janubiy Afrika mintaqasida musulmonlar ko‘pchilik bo‘lib yashaydigan mamlakatlar ham bor. Bular qatoriga Mavritaniya (99%), Niger (99%), Somaliya (99%), Mayotte (98%), Kamor (98%), Jibuti (97%), Senegal (96%), Gambiya (95%), Mali (93%), Gvineya (84%) va Sierra Leone (71%) ni kiritish mumkin. Mazkur mamlakatlarning musulmon aholisini qo‘shib hisoblaganda 67 millionni tashkil etadi. Bu dunyo musulmon aholisining 4%ini tashkil etadi.

Evropada chamasi 38 million musulmon istiqomat qiladi. Bu raqam Evropa umumiy aholisining 5% i, dunyo musulmon aholisining esa 2%ini tashkil etadi. SHuni qayd etish lozimki, Evropa musulmonlari soni mintaqaga kelib joylashuvchi immigrantlar hisobiga juda tez o‘zgarib turadi. Evropa musulmonlarining asosiy qismi mintaqaning markaziy va sharqiy qismlarida istiqomat qiladi. Evropada eng ko‘p musulmon aholiga ega mamlakat Rossiyadir. Rossiya

musulmonlari soni 16 millionnni tashkil etadi. Bu degani, Evropa musulmonlarining har o‘ndan to‘rti Rossiya hissasiga to‘g‘ri keladi.

G‘arbiy Evropada yashovchi musulmonlarning aksari Turkiya, SHimoliy Afrika, Janubiy Osiyodan kelgan immigrantlar yoki ularning avlodlari hisoblanadi. Aksincha, Rossiya, Albaniya, Kosova, Bosniya-Gersegovina va Bolgariya musulmonlari ancha uzoq ildizga ega. Bu degani, Evropa musulmonlarining har o‘ndan oltisi tub musulmonlardir.

Germaniyada 4 milliondan oshiq musulmon istiqomat qiladi. Bu SHimoliy va Janubiy Amerika musulmonlarining birgalikdagi sonidan ko‘p degani. Germaniya musulmonlari soni Livan musulmonlari sonidan ham ko‘p. G‘arbiy Evropada Germaniya musulmonlari sonichalik raqamga ega bo‘lgan birorta mamlakat yo‘q. Germaniya musulmonlar ozchilik sifatida yashaydigan mamlakatlarning 10 taligiga kiradi. Aksincha, Fransiya Germaniyaga nisbatan umumiy aholiga nisbatan ko‘proq musulmon foiziga ega. Buyuk Britaniyada 2 milliondan ozroq musulmon istiqomat qiladi. Bu Buyuk Britaniya umumiy aholisining 3%i degani.

Musulmon aholining foizi ko‘proq bo‘lgan mamlakatlar Evropaning sharqiy va markaziy qismida joylashgan. Bular: Kosova (90%), Albaniya (80%), Bosniya-Gersegovina (40%) va Makedoniya Respublikasi (33%). Gretsiyada umumiy aholiga nisbatan musulmonlar 3%ni, Ispaniyada esa 1%ni tashkil etadi. Evropada umumiy aholiga nisbatan musulmonlar soni eng kam mamlakat Italiya (1% dan kam) hisoblanadi.

Amerika mintaqasida taxminan 4.6 million musulmon istiqomat qiladi. SHundan salkam yarmidan oshig‘i- 2.5 million musulmon AQSH hissasiga to‘g‘ri keladi. Biroq Kanada musulmonlarining umumiy aholiga nistbatan foizi AQSH ga qaraganda ikki barobardan ko‘p. Kanada umumiy aholisining 2%, ya’ni 700,000 ni musulmondir. AQSH umumiy aholisining 0.8%gina musulmonlardir.

Surinamgina mintaqada musulmon aholisi foiz hisobida ko‘proq bo‘lgan mamlakatdir. Surinamda musulmonlar mamlakat umumiy aholisiga nisbatan 16%ni tashkil etadi. Undan keyingi o‘rinlarda Gvineya (7%) va Trinidad va Tabago (6%) turadi. Argentina Janubiy Amerikadagi eng ko‘p musulmon aholisi bo‘lgan mamlakatdir. Meksikada esa musulmonlar umumiy aholiga nisbatan 1%dan kamroqni tashkil qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o`rnatilishi mumkin emas, deyilgan. SHunga binoan, har bir diniy konfessiya o`z mafkurasiga ega bo`lishi mumkin. Lekin bu mafkura xalqqa tazyiq bilan singdirishga yo`l qo`yilmaydi. Jamiyatimizda diniy tashkilotlar faoliyati xalqimizda milliy g`urur va iftixor, vatanparvarlik va fidokorlik, komil insonni shakllantirishga qaratilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov BMTning 2010 yil 20 sentyabrda bo`lib o`tgan “Mingyillikning rivojlanish maqsadlari” sammitining plenar majlisida so`zlagan nutqida “Jahonning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar, saqlanib qolayotgan davlatlararo, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasida ta`kidlanganidek, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar o`limi, epidemiyalar va insoniyatning boshqa muammolariga qarshi kurash borasidagi eng jiddiy to`siqlar bo`lib qolmoqda”, – deb ta`kidladi. SHundan so`ng davlatimiz rahbari “asosiy muammo va ziddiyatlar bo`yicha o`zaro murosa asosidagi echimlarni topish” zarurligini va bu murakkab, chigal, ziddiyatli vaziyatlardan chiqishning asosiy yo`llaridan biri ekanligini qayd etib o`tdi. SHu munosabat bilan tolerantlikni va uning odamlar ongiga ta`siri darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi paytlarda dunyoda murosasizlik, zo`ravonlik, terrorchilik, tajovuzkor millatchilik, xalqlarning bir-biridan uzoqlashuvi, kam sonli milliy, etnik guruhlarni kamsitish holatlarining tez-tez yuz berayotganligi mintaqaviy va xalqaro miqyosda barqarorlikka va xavfsizlikka tahdid solmoqda va ijtimoiy rivojlanish yo`lidagi to`siqlardan biri bo`lib qolmoqda.

YUNESKOning 1995 yil 16 noyabrda bo`lib o`tgan Bosh konferentsiyasi tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasini qabul qildi, zero tolerantlik tinchlikni saqlashning, insoniyatning har tomonlama rivojlanishining eng muhim tamoyili bo`libgina qolmay, balki uning zarur sharti hamdir.

Ijtimoiy rivojlanishda yuz berayotgan o`zgarishlar va ularning tendentsiyalarini tahlil qilish global ijtimoiy ongda va muayyan inson hayoti va taqdirida tolerantlik muammosi naqadar dolzarb ekanligini ko`rsatadi. Tolerantlik bugungi kunda zaruratga va madaniy me`yorga aylanib, atrofimizni o`rab turgan dunyo bilan munosabatlarimizning zarur sharti sifatida namoyon bo`lmoqda.

Ma`lumki, globallashuv ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tizimlar va ijtimoiy birliklarning intensiv integratsiyasi, kommunikatsiyaning innovatsion usul va vositalariga tayangan holda kechayotgan, kompleks xarakterga ega obyektiv voqea va hodisalarda o`z aksini topmoqda.

SHuningdek, mazkur sharoit mavjud huquqiy normalarning qayta ko`rib chiqilishi, mintaqa va hududlardagi iqtisodiy tizim xarakterining o`zgarishi, mamlakatlar siyosiy hayotiga xalqaro omil ta`sirining kuchayishi, turli madaniy tizimlar, xususan, dinlar o`rtasidagi muloqot intensivligining kuchayishini keltirib chiqarmoqda..

O`zbekistonda e`tiqod erkinligi va diniy bag`rikenglikni mustahkamlashda qonunchilik ham takomillashib bordi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risida»gi qonun 1991 yilda qabul qilingan bo`lib, 1993 yilda kiritilgan ba`zi qo`shimcha va o`zgartirishlar bilan 1998 yilga qadar amalda bo`lib keldi. So`nggi yillar davomida mazkur qonunni davr talablari asosida tubdan o`zgartirish zarur bo`lib qoldi va 1998 yilning 1 may oyida Respublika Oliy Majlisi tomonidan qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

2000 yil 13-15 sentyabrda Toshkentda o`tgan dinlararo muloqot YUNESKO Kongressi Markaziy Osiyodagi madaniy, diniy va etnik xilma-xilligini muhokama qildi. Unda 40ga yaqin davlatdan 80dan ortiq turli din va konfessiyalarga mansub vakillar, yirik mutaxassislar ishtirok etdilar. Kongressdan so`ng 18 sentyabr` kuni Buxoro shahrida «Tasavvuf va dinlararo muloqot» mavzusida xalqaro simpozium bo`lib o`tdi. Unda «tasavvuf»ga bag`rikenglikni targ`ib etuvchi, tinchlikka chaqiruvchi Islom dinining noyob, o`ziga xos ko`rinishi degan ta`rif berildi. Aynan 2000 yil sentyabrida Toshkent islom universitetida dinlarni qiyosiy o`rganish bo`yicha YUNESKO kafedrasi ochildi. YUNESKO rahbariyati bu tashabbusni qo`llab-quvvatladi. Fan, ta`lim va madaniyat sohasidagi eng nufuzli xalqaro tashkilot rahbari shaxsan o`zi kelib kafedrani ochishi fikrimiz isbotidir. Kafedraning asosiy vazifasi dinlararo muloqot va diniy bag`rikenglikni yanada mustahkamlashga ko`maklashishdir. SHuningdek, 2001 yil sentyabrida Toshkentda o`tgan Osiyo – Tinch okeani mintaqasi YUNESKO «bag`rikenglik tarmog`i»ning ikkinchi yig`ilishida bag`rikenglik tamoyillari o`zbek xalqining urf – odatlari bilan chambarchas bog`liqligi ta`kidlandi.

O`zbekistonning an`anaviy diniy bag`rikenglik o`lkasi ekani, islom fani va madaniyatiga qo`shgan ulkan hissasini e`tirof etib, nufuzli xalqaro tashkilot – Islom konferentsiyasi tashkiloti (O`zbekiston unga 1996 yildan a`zo)ning ta`lim, fan va madaniyat bo`yicha Boshqarmasi (ISESCO) Toshkent shahrini 2007 yilda islom madaniyati poytaxti deb e`lon qildi.

Xalqaro hamjihatlik yo`lida har bir inson, jamoa va millatlar bashariyatning turli-tuman madaniyatlardan iborat ekanini anglashi va hurmat qilishi juda muhimdir. Bag`rikengliksiz demokratiya asoslari va inson huquqlarini mustahkamlab bo`lmaydi. Tinchliksiz taraqqiyot va demokratiya bo`lmagani kabi, bag`rikengliksiz tinchlik bo`lmaydi.

Globallashuv jarayoni g`oyaviy, mafkuraviy jarayonlarga o`z ta`sirini ko`rsatib, xozirgi sharoitda u mafkuraviy ta`sir o`tkazishning nixoyatda kuchli vositasiga aylanib, jahondagi xar xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Xozirgi vaqtda ko`z o`ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, ahborot kommunikatsiya manzarasida chuqur

o`zgarishlar ro`y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, – deb ta`kidlaydi Prezident I.A.Karimov, – fikrga qarshi fikr, g`oyaga qarshi g`oya, jaholatga qarshi ma`rifat bilan kurashish har qachongidan ko`ra muxim ahamiyat kasb etmoqda98[62].

Milliy mustaqillikka erishilgandan so`ng O`zbekistonda demokratik, huquqiy, fuqarolik jamiyatli, dunyoviylik tamoyiliga asoslangan «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot» barpo etila boshlandi. Lekin shu bilan birgalikda o`z oldiga muayyan geopolitik maqsadlarni qo`ygan siyosiy kuchlarning, diniy tashkilotlarning ma`naviy-mafkuraviy taxdidlari kuchaydi. Mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag`darib tashlab, islom davlatini qurish, xalifalikni qayta tiklash to`g`risidagi zararli g`oyalar Islom uyg`onish partiyasi, Xizbuolloh, (Alloh partiyasi), Xizb at tahrir al-islomiy (Islom ozodlik partiyasi), Badiuzzamon Said Nursiyning Nurchilik harakati, Usoma bin Lodinning Al Qoida, Akrom Yo`ldoshevning akromiylar harakatining g`oyalarida o`z ifodasini topgan bo`lib, O`zbekistondagi tinchlik va barqarorlikka, diniy totuvlik va dinlararo bag`rikenglikka salbiy ta`sir ko`rsatib keldi

O`zbekistondagi tinchlik- barqarorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag`rikenglikka bevosita taxdid ko`rsatgan omillarga diniy ekstremizm, fundamentalizm, aqidaparastlik, terrorizm, missionerlik, prozelitizm kabi zararli g`oyalar, mafkuralar hamda xarakatlar taalluqli bo`lib, milliy mafkuraning asosiy g`oyalari asosida fuqarolar mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasiga davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda katta e`tibor qaratilmoqda. Missionerlik va prozelitizm globallashuv sharoitida ma`naviy-mafkuraviy taxdid vositasi bo`lib, eng avvalo jaxondagi muayyan siyosiy kuchlarning geopolitik maqsad manfaatlariga yo`naltirilgan xolatda olib borilmoqda. Ikkinchi tomondan, xalqning milliy ma`naviyati, urf-odat va an`analari, milliy mentaliteti diniy ta`limot bilan bog`liq bo`lib, missionerlik va prozelitizm xalqning milliy o`zligidan begonalashuviga, manqurtlashuviga, davlatning ichki hayotida milliy, diniy, ijtimoiy ziddiyatlarning chuqurlashuviga sababchi bo`ladi. SHuning uchun ham bugungi kunda O`zbekistonda zamonaviy demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda milliy istiqlol mafkurasining asosiy g`oyalarini fuqarolar ongi-tafakkuriga singdirishga, ularda milliy g`urur va iftixor tuyg`ularini yuksaltirib mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasiga asosiy e`tibor qaratilmoqda.

Jahondagi aksariyat mamlakatlar ko`p millatli va turli dinli bo`lgani kabi O`zbekiston ham shunday davlatlar qatoriga kiradi. Unda millatlararo totuvlik va dinlararo bag`rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar o`zining chuqur ildizlariga ega.

Umuman olganda, VIII asrda Movarounnahrga kirib kelgan islom va mahalliy dinlarning, ularga xos qadriyat va odatlarning qorishishi yuz berdi99[68]. Movarounnahr xalqlari islom diniga mahalliy axloq g`oyalari, huquqiy me`yorlari va urf-odatlarini olib kirdilar. Movarounnahrda bu holat islomning o`ziga xos xususiyatlar kasb etishiga sabab bo`ldi. O`sha vaqtga kelib mintaqada shakllanib ulgurgan qulay bag`rikenglik muhitida bu tasodifiy hodisa emas edi.

Islom dini barqaror bo`lganidan, to shu bugungi kungacha, Islom dini keng yoyilgan musulmon davlatlarida boshqa haq dinlarga ham bemalol yo`l berilgan. Ular cherkov, sinagogalariga kirib, ibodatlarini bemalol qilaverganlar. Hatto, ularning molu jonlari davlat himoyasiga olingan.

98[62] Karimov I.A. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch.- T.: Ma`naviyat, 2008. 119-bet.

99[68] Qarang: Dervish R.A., Levteev L.G., Musakaeva A. Pamyatniki istorii religii i kulturi` v Uzbekistane. – T.: O`qituvchi, 1994. – B. 10-12, 56-60.

Tarixiy manbalarda o`tmishda O`zbekistonda diniy munosabatlar asosida biror marta ham nizo chiqmaganini qayd qilinadi. Bunday holatni hozirgi O`zbekistondagi islom, xristian, yahudiy dinlari va boshqa konfessiyalarning o`zaro munosabatlari misolida ham ko`rish mumkin. Bunday do`stona munosabatlardan xulosa qilib, Prezident Islom Karimov: “Musulmonlar va xristianlarning O`zbekiston zaminida birgalikda hamnafas bo`lib yashashi diniy-ma`naviy totuvlikning nodir timsoli va barcha din vakillariga nisbatan bag`rikenglikning eng yaxshi namunasi deb hisoblanishiga arzigulikdir”[71], deya voqelikni aniq ko`rsatib berdi.

[1] Mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan “Mamlakat” so‘zi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan rasman tan olingan mamlakatlarga nisbatan ishlatilgan. “Hudud” so‘zi esa BMT tomonidan mamlakat sifatida rasman tan olinmagan, lekin BMT tomonidan aholisi hisobga olinadigan hududlar nazarda tutilgan. Masalan: Gonkong va Makau mamlakat sifatida emas, Xitoyning ma’muriy hududlari sifatida e’tirof etilgan.

[2] Cunniylik (Ahli sunna val jamoa) — musulmonlarning asosiy va jumhur ommasi e’tiqod va amal qilib kelayotgan aqidaviy va mafkuraviy mazhablarning jamlama nomi.

[3] SHialik (arab.-guruh, tarafdorlar)-islomdagi asosiy yo‘nalishlardan biri. 7-asr o‘rtalarida xalifa Ali (kv) hokimiyati tarafdolaridan iborat siyosiy guruh sifatida vujudga kelgan.

[71] Karimov I.A. Ma`naviy yuksalish yo`lida. – T.: O`zbekiston, 1998. – B. 102.

8-mavzu. Globallashuv va modernizatsiya
Fan va ta’limning globallashuvi
Reja:

1. Globallashuvva modernizatsiya ijtimoiy transformatsiya jarayoni sifatida.
2. Modernizatsiyalashgan jamiyatda innovatsiyalarning globallashuvi.
3. Globallashuv postindustrial texnologik ishlab chiqarish vositasiga o‘tishning sharoiti sifatida.
4. Hozirgi davr fanining global imkoniyatlari.
5. Ta’lim va tarbiyaning global bozor iqtisodi sharoitiga moslashishining zarurligi.
6. Ta’limning globallashuvida internet va masofali o‘tishning roli.
7. Milliy maktab ta’lim tizimida vorisiylikni ta’minlash, multimadaniy universitet ta’limini rivojlantirish omillari.

Har qanday o`zgarish va rivojlanishlarni tadqiq etish uchun turli xil nazariy-metodologik yondashuvlar mavjud. Hozirgi davrda modernizatsiya paradigmasi ular orasida (formatsion, tsivilizatsion va b.) alohida ahamiyatga ega. Modernizatsiya-o`ta murakkab jarayon. Modernizatsiya jarayonida o`zgarishlar inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida ro`y beradi. O`zgarishlar natijasida yangi tushunchalar, tamoyillar, yondashuvlar shakllanadi. Ular esa milliy g`oya qamrovini yanada kengaytiradi va yoshlarning ongi va qalbiga singdirishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Milliy g`oya murakkab tizim sifatida yoshlarning ma`naviy dunyosini shakllanishi, yuksalishi, vatanimizning barcha millatlarini o`z atrofida birlashtirish kabi muammolarni qamrab oladi.

Mamlakatimizni rivojlanish yo`li «O`zbek modeli»da o`z ifodasini topgan. Milliy g`oyani ham rivojlanish modeli ham maqsadi xalqimizning kelajagiga qaratilgan: rivojlanishning yuqori pog`onalariga intilish, ma`naviyatimizni yuksaltirishdir.

Modernizatsiya qilishning maqsadi yangilanish, an`anaviylikdan zamonaviylikka o`tish, rivojlanishda yuqoriroq bosqichlarga erishishdir.

Milliy g`oya va rivojlanishimizning modelini integratsiyasi modernizatsiya jarayoni uchun nazariy-metodologik, amaliy va regulyativ vazifani bajaradi. Pirovard natijada mamlakatimizning rivojlanishi yanada yuksak pog`onalarga ko`tarilishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. SHuning uchun hozirgi kunda «mamlakatimizni modernizatsiya qilish» [100][69] eng muhim ustuvor vazifadir.

Lug`aviy ma`noda modernizatsiya (fran. moderisatio, modere-eng yangi) zamonaviy talablarga muvofiq o`zgarish hamda takomillashtirishlarni bildiradi. Gap nafaqat sanoat-texnika progressida, balki insonning dunyoqarashi, uning metodologik yondoshuvi, tafakkur uslublari o`zgarishidadir. Bularning o`zgarishi esa inson tomonidan qo`llanilayotgan tushunchalar, kontseptsiyalarning o`zgarishiga olib keladi. Modernizatsiya jarayoni XVIII asrda boshlangan. Inson faoliyatiga ilmiy hamda muhandislik bilimlarning kirib kelishi va ulardan keng miqyosda foydalanish mahsulidir.

Modernizatsiya paradigmasi XX asrning o`rtalarida shakllandi. Uning asosiy vazifasi insoniyat faoliyatining barcha sohalarida an`analikdan zamonaviylikka o`tishidir. Modernizatsiya paradigmasi rivojlanishini bir nechta pog`onaga ajratish mumkin. SHuni ta`kidlash mumkinki,

[100][69] Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi // «Xalq so`zi», 2009 yil 14 fevral

nazariy-metodologik yondashuvlar rivojlanishi real jarayonlar bilan uzviy bog`liqlikda shakllangan va ularning ta`sirida nazariyalarga o`zgartirishlar kiritilgan.

Modernizatsiya paradigmasi doirasida ko`pdan-ko`p nazariy-metodologik va xususiy fanlarga asoslangan yondashuvlar yaratilgan. Ilk bor paydo bo`lgan modernizatsiya paradigmasi-linear modeli (1950-1960 yy.), qisman ko`p chiziqli aktorli (ba`zan etib oluvchi deb ataladi) (1970-1990 yy.), tuzilmaviy modellar mavjud. Hozirgi paytda modernizatsiya paradigmasi rivojlanib bormoqda, yangicha yondashuvlar asosida nazariyalar vujudga kelmoqda. YA`ni, an`anaviy va zamonaviy yondashuvlar orasida katta farq bor.

Rivojlanish jarayoni modernizatsiya paradigmasi doirasida turli xil nuqtai nazar asosida tahlil qilingan. Umuman olganda, keyingi yillarda shakllangan yondashuvlarda qat`iy determinizmdan voz kechilgan, masalan g`arb demokratiyasiga chiziqli model asosida emas, balki ko`p chiziqli model, ya`ni mamlakatlar rivojlanish yo`lida tanlov imkoniyatiga egaligi tan olingan. Ilk bor modernizatsiya paradigmalarining asosini tashkil qilgan evolyutsionizm va fundamentalizm yondashuvlarini cheklash hisobidan makroijtimoiy tizimlar tahlilidan mikroijtimoiy jarayonlarni tadqiq qilish imkoniyati paydo bo`ldi.

Hozirgi davrda ilmiy adabiyotlarda modernizatsiya jarayonidagi o`zgarishlar turli xil ichki va tashqi (endogen va ekzogen) ta`sirlar natijasida paydo bo`ladi, degan fikr hukm suradi. Bular esa real borliqning keng qamrovli yondoshuvlar yordamida aks ettirilishi va reallikka tadbiq etish doirasi tobora kengayganligini bildiradi. Bu jarayonda ba`zi bir tushunchalardan voz kechish, yangilaridan foydalanish yo`lidan borilmoqda.

Modernizatsiya paradigmasi ilmiy bilimning insoniyat hayotiga jadal sur`atda kirib kelishi bilan bog`liq. Har qanday davrda hokimiyatning asosiy manbalaridan biri «bilim» bo`lib kelgan. Bizning davrimizda esa bilimning mavqei birinchi darajali bo`ldi. Bu ayniqsa, moliyaviy-iqtisodiy inqirozda o`z ahamiyatini ko`rsatdi. ***«Tijorat banklari va ularning tegishli bo`linmalari rahbarlarini attestatsiyadan o`tkazish shuni ko`rsatdiki, ularning aksariyati amaldagi qonunchiligimizni va investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini etarli darajada bilmaydi. SHu sababli ham banklar hali beri investitsiya jarayonlarining faol ishtirokchilariga, investitsiya loyihalari hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturlarini joriy etishda korxonalar va kichik biznes subyektlarining haqiqiy hamkorlariga aylana olmayotganini afsuslanib ta`kidlash kerak»***[101][70], deb qayd qilgan edi Prezidentimiz.

SHuning uchun ushbu monografiyada jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosini va unga katta ta`sir ko`rsatayotgan bilim va ta`limning ilmiy salohiyat muammolari tadqiq qilingan. Bilim, ta`lim insoniyatni birlashtiruvchi omil bo`lib, har qanday modernizatsiya yondashuvining zarur komponentidir. Bilim va ta`lim mafkuraviy, iqtisodiy, diniy, madaniy farqlanishidan qa`tiy nazar insoniyat uchun umumiy qadriyatdir.

Modernizatsiya jarayoni I.Karimov ta`kidlaganidek, «innovatsion texnologiyalarni joriy etish va jahon bozorida talab mavjud bo`lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarish...»[102][71]ni amalga oshirishda integratsion jarayonlar bilan bog`liqdir. Mamlakatimizda integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini nafaqat Yevropa mamlakatlari, balki Osiyo qit`asi bozorlari bilan ham aloqalar kengayib borayotganini ta`kidlash mumkin.

---

[101][70] Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi // «Xalq so`zi», 2009 yil 14 fevral

[102][71] Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi // «Xalq so`zi», 2009 yil 14 fevral.

ajraladi. Transformatsiya jarayonlarini bir tizim ikkinchisiga almashayotgandagi holat sifatida ham ta`riflaydilar[110][79]. Aytishimiz mumkinki, bu davr jamiyatning salbiy xarakterga ega bo`lgan, taraqqiyotni to`htatadigan o`tmishidan voz kechib, yangi maqsad va g`oyalar sari intilishidir.SHu bois ijtimoiy transformatsiya jarayonlari davrida ijtimoiy to`qnashuvlarning kuchayishi va keskinlashuvi kuzatilishi mumkin. Bu jarayon o`zida destruktiv va konstruktiv imkoniyatlarni jamlaydi, destruktiv va konstruktiv yo`nalishlarga ega bo`ladi. Konstruktiv transformatsiya jarayoni natijasida jamiyatda butunlay yoki uning ayrim sohalarining progressiv rivojlanishi ta`minlanadi.

Ijtimoiy transformatsiyaning mazmuni shundan iboratki, jamiyada sifatiy o`zgarishlar sodir bo`ladi. Ijtimoiy transformatsiya ijtimoiy tizimning ma`lum darajadagi boshqa ijtimoiy sifatdagi ijtimoiy tizimga o`tishi hisoblanadi. Kibernetik yondoshuvga ko`ra, ijtimoiy transformatsiya tizimdagi tuzilma, tuzilishi, strkturasi, ijtimoiy ongidagi o`zgarishdir. Unda tizim elementlari(odamlar, mashinalar va boshqalar o`zgarmasdan qolishi, ular iorasidagi munosabatlar tizimi, usul va strukturasi o`zgaradi[111][80].

Tabiatshunoslikda transformatsiyani fazoviy o`tish, sinergetikada bifurkatsiya nuqtasi sifatida ta`riflash mumkin. Kastel`s "informatsional jamiyat", "informatsional iqtisodiyot", “genetik inqilob” atamalarini zamonaviy transformatsiya jarayonlarini ifodalash uchun qo`llaydi[112][81]. Zamonaviy transformatsiya jarayonlarining asosi ilmiy texnologiyalar tashkil etadi.

Toffler esa zamonaviy ijtimoiy o`zgarishlarni uchta to`lqin sifatida ta`riflaydi.

Modernizatsiya jarayonlarini tadqiq etuvchi izlanishlarga asoslanib aytish mumkinki, endilikda uning mohiyati o`zgarib, “modernizatsiyaviy transformatsiya”ga aylanib borayotganligini ta`kidamoqdalar.[113][82] Bunga sabab zamonaviy modernizatsiya jarayonlarining tobora kompleks xarakterga ega bo`lib borayotganligidir. SHu cababli ko`p ilmiy adabiyotlarda modernizatsiya va transformatsiya tushunchalarining bir ma`noda qo`llanilayotganini ko`rish mumkin.Ammo yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, transformatsiya jarayoni modernizatsiya jarayonlariga qarananda kengroq tushuncha. CHunki modernizatsiyada tio`zimning ayrim elementolariga qaratilishi mumkin. Masalan , bugungi kunda jahon iqtisodiy inqirozi tufayli mamlakatimizda bank tizimini modernizatsiya qilish chora-tadbirlari belgilandi.

Modernizatsiya jarayonning asosini bilim tashkil etishini ko`rish mumkin. CHunki bilim subyekt faoliyati uchun imkoniyat yaratadi. Bilim – o`qish, ta`lim orqali kamol topishga intilishni ifodalovchi shaxs tarkibining zaruriy qismidir[114][83]. Bu haqda Toffler o`zining “Inqilobiy boylik” asarida “yangi boyliklar tizimi vujudga kelayotganligini[115][84], bu boyliklar tizimining asosini bilim tashkil etishini ta`kidlaydi. Inqilob atamasini muallif zamonaviy deb atash mumkin bo`lgan yangi hayot tarzi yoki yangi tsivilizatsiyaning vujudga kelishini ifodalash uchun qo`llaydi[116][85]. Olim bilim barcha davrlarda boylik asosi bo`lib kelgan, ammo bugunga kelib u inqilobiy boylik asosiga aylanganligini e`tirof etadi. Bunga sabab olim fikricha, bilimning boshqa resurslardan farq qiluvchi xususiyatlari hisoblanadi.

Zamonaviy modernizatsiya jarayonlarida bilim muammosiga, uning jamiyatdagi maqomiga turlicha yondoshuvlarning vujudga kelishiga sabab bo`ldi.Buni postmodernizm yo`nalishining epistemologik muammolarga keng o`rin berilishida ham ko`rish mumkin. Ularda

---

[110][79] Mararitsa V.F.Sotsialno- filosofskiy analiz transformatsii sotsialni`x sistem. Vestnik MGU, T9, №1. 2006. S 70-76

[111][80] Suxarev M.Sotsialnaya transformatsiya s tochki zreniya kibernetiki. Monitoring sotsialno-ekonomicheskix protsessov v Respublike Kareliya", sbornik. - Petrozavodsk, Karelskiy Nauchni`y Sentr RAN, 2000 g., s. 135- 139.

[112][81] Kastels Manuel. Informatsionnaya epoxa: ekonomika, obshestvo i kultura.- M. S.29.

[114][83] Abdullaeva M.N.,Tulenova K.J.,G`affarova G,. Niyazimbetov M.K. Milliy g`oya va fanning metodologik muammolari.- T, 2009. 24-b

[115][84] Toffler E, Toffler X. Revolyutsionnoe bogatstvo. M. 2007.Politizdat S.149

[116][85] Tam je. S 7

bilim predmeti, uning tipologiyasi, obyekt va subyektidagi o`zgarishlar, bilimning tijoratlashuv jarayonlari e`tirof etiladi. Postmodernizm ilmiy bilishni yuqori standartlar, oliy nufuzidan voz kechadilar. Postmodernizm g`oyalarida borliqdagi yagonalik, yaxlitlik, barqarorlik yo`qoladi, ularning o`rnini ko`plik, ko`pxillilik egallaydi. Postmodernizm vakillari olamni bilishning eng samarali yo`li sifatida o`yinni tan oladilar. Oldingi tafakkur uslubidagi bilish usullari, taraqqiyoti, bosqichlari va darajalari, bir butunligi ifodalangan "bilish daraxti" inkor etiladi. Postmodernizm bilish paradigmasida "rizoma"g`oyasi ustivorlik qiladi. Rizoma so`zi botanikadan olingan bo`lib, unda bu so`z ko`p yillik o`simliklarni, masalan gulsapsarni o`ziga xos yashash usulini ifodalaydi. Rizoma tipidagi o`simliklarning yagona ildizi bo`lmaydi, u har tomonga qarab o`sadi, bir – biri bilan chatishib ketgan novdalarga ega bo`ladi. Bunday o`simliklarda yagona tana, asos bo`lmaydi. Rizoma ramzi yordamida fanda hech qanday shakl yo`qligi, uning doimiy xaosda ekanligi ta`kidlanadi. Bunga sabab postmodernizm hayot, ijtimoiy borliqning o`zini xaosda ko`rishidir. Ularning fikricha, hayotdagi xaosni yagona shakl va biron ilmiy sxema bilan tasvirlashning mumkin emasligidir. Postmodernizm har qanday chegaralanishni cheklashlarni inkor etib, parchalash, bo`laklarga bo`lish va ko`p fikrlilik va nisbiylikka urg`u beradi. Postmodernizm paradigmasining ijobiy tomonlari unda olamning ko`pxilligi, olam doimo ochiq, nobarqaror ekanligini e`tirof etilishidir.

Postmodernizmning vakillaridan bo`lgan Liotar asarlarida postmodernizm yo`nalishining o`ziga xos jihatlarini ko`rish mumkin. Liotar rivojlangan davlatlardagi bilim holatini tahlil etadi va madaniyatdagi zamonaviy holatni "postmodern" deb tavsiflaydi. Uning ta`limoti "til o`yin" lariga asoslangan. Uningcha, bilim o`zida til o`yinlarini mujassam etadi. Liotar zamonaviy fan holatini inqirozli deb hisoblaydi.Uning fikriga ko`ra, zamonaviy fan falsafiy maqsad va funktsiyalarini lingvistik elementga aylantirdi. Liotar zamonaviy jamiyatda bilim erozziyasi sodir bo`layotganligin ta`kidlaydi. Bunga sabab ilmiy kashfiyotlar, yangi ilmiy bilimlarning sotiladigan tovarga aylanishi va ularning tor doiradagi kishilar qo`lida hukmronlik quroliga aylanib qolishidir. Postmodernizm davrida olim fanning entsiklopedik strukturasi tarqalib ketishini, ilmiy bilimning asosiy xususiyati immanentligini ta`kidlaydi. Olim fikriga ko`ra postmodernizm davrida fan lingvistikaga asoslanishini, til o`yinlari asosida rivojlanishi ta`kidlanib, uning ijtimoiy-madaniy mohiyati inkor etiladi.

Liotar bilim evolyutsiyasini tadqiq etar ekan, axborotlar va ilmiy bilimni diskurs, narrativ sifatida tavsiflaydi. Muallif bilimlarning tafakkur va shaxsdan ajralishini, postmodernizm davrida bilim ham ishlab chiqaruvchi va iste`molchining munosabatini ifodalab, ishlab chiqarish munosabatlariga daxldor bo`lishini ta`riflab o`tadi. Uning fiikricha, bilim almashish, sotish uchun ishlab chiqariladi. Legimizatsiya-olim fikricha, jamiyatning ilmiy bilimlarni tan olishidir.Fanni Liotar ishlab chiqarish legimizatsiya qilishini ta`kidlaydi[117][86].

Har bir jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanishi ilmiy bilimlar bilan bog`liq, ammo hech qachon jamiyat, insoniyatning kelajakdagi taraqqiyot yo`li bugungidek ilmiy bilimlarga bog`liq bo`lmagan.

Adabiyotlarda axborotlashagan jamiyat, bilim jamiyati, postindustrial jamiyat, globallashib borayotgan jamiyat sifatida ta`riflanayotgan zamonaviy jamiyat texnologiyalar asosida modernizatsiyalashib bormoqda. Axborot va bilim XX asrning oxirlaridan boshlab texnologiyalarning (informatika, elektronika, biotexnologiya, nanotexnologiya va h.k.) fundamenti hisoblanadi[118][87].

[117][86] Liotar. Jan Fransua. Sostoyanie postmoderna.- M., Alteyya. 1998.
[118][87] Abdullaeva M.N. Pokachalov G. Filosofskie problemi` metodologii nauki. -T., Falsafa va huquq .2006. S.37.

Zamonaviy globallashuv va axborotlashuv jarayonlari insoniyat tarixidagi modernizatsiya sifatida namoyon bo`ladi. Bu jarayonlar insoniyat tarixining butunlay yangi sifatiy o`zgarishlar, transformatsiyalar davrini boshlab berdi deyish mumkin. Mazkur o`zgarishlarning ijobiy natijasi har bir mamlakat, har bir davlat, jahon mifqyosida ilm-fanning rivojlanish darajasi bilan belgilanmoqda. Natijada fan rolining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, uning roli o`zgardi. Bugungi kunda fan sifat jihatidan yangi funktsiyalarni bajaradi ularning asoiylari sifatida ekomuvozanatni saqlash, tabiat va jamiyatni boshqarish funktsiyalarini ko`rsatish mumkin. Tadqiqot faoliyatining maqsadida ham o`zgarishlar sodir bo`ldi. Ilmiy tadqiqotlar bugungi kunda faqat ilmiy maqsadlarni ko`zlamasdan, boshqaruv, axborot, loyihalashtirish, texnik-ishlab chiqarishni ham nazarda tutadi; yangi bilimlarni ishlab chiqaruvchi ilmiy tadqiqot birlashmalari yangi bilimlarni yaratibgina qolmay, moddiy-ishlab chiqarish funktsiyalarini ham bajaradilar. Bir so`z bilan aytganda zamonaviy globallashuv davrida bilim asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi.

Modernizatsiya jarayonlari jamiyatning rivojlanishi uchun o`z – o`zini tashkil etish jarayonidir. YA`ni har qanday tizim ma`lum davrga kelganda, miqdoriy va sifatiy o`zgarishlar natijasida yangilanishi, innovatsiyalarni amalga oshirishi lozim bo`ladi. SHu sababli modernizatsiyani jamiyatning rivojlanish tomon intilishi - kompleks ijtimoiy o`zgarish sifatida ta`riflash mumkin.Unda ilmiy bilimlar tizimi muhim o`rin tutadi. CHunki jamiyat murakkab, ko`p qirrali ijtimoiy tizim, bilim esa uning muhim elementi hisoblanadi. Modernizatsiya davrida qadriyatlar, bilimlar va madaniyat an`anaviy jamiyatdagidan o`zgaradi.

Rivojlangan davlatlar hisoblanayotgan Amerika va G`arbiy Yevropa jamiyatlarining rivojlanish mezonlarida modernizatsiya jarayonlari va fandagi transformatsiya jarayonlari o`zaro bog`liqlikda borayotganligining guvohi bo`lamiz. Bu davlatlardagi modernizatsiyaning mexanizmini innovatsiyalar tashkil etadi. Ulardagi rivojlanish maromi juda tez, rivojlanish yo`li mustaqil, o`ziga xosdir.

Jamiyat ana shu mexanizmlar asosida rivojlanib kelgan. Bu jarayonlarning tartib parametri zamonaviylashtirish hisoblanadi. Bu tartib parametri murakkab tizim elementlarining barchasini bo`ysundiradi. SHu sababli jamiyatdek murakkab tizimning elementi bo`lgan fan va bilimlarni uzatish vositasi bo`lgan ta`lim tizimida ham doimiy yangilanish, transformatsiya jarayonlari sodir bo`ladi. Fan va jamiyatdagi bunday o`zgarishlar sinergetik o`zaro bog`liqlikda namoyon bo`ladi. Jamiyatdagi ijtmoiy o`zgarishlar fan va bilimlar tizimida ham o`zgarishlarni keltirib chiqaradi va aksincha fandagi transformatsiya jarayonlari jamiyatdagi transformatsiya jarayonlariga sabab bo`lishi mumkin.

SHu ma`noda zamonaviy ijtimoiy - madaniy tizimlarning evolyutsiyasi endilikda nochiziqli fan qonuniyatlariga asoslanayotganligi buning isbotidir. Zamonaviy modernizatsiya jarayonlarining aniq natijasini bashorat qilish mumkin emas: mazkur jarayonlar dinamikasi bifurkatsion xarakterga egadir. Ammo zamonaviy ijtimoiy tartibni bayon etish uchun juda ko`p atamalar – informatsion jamiyat, xizmat ko`rsatish jamiyati, bilimlar jamiyati, postindustrial jamiyat atamalarining qo`llanishiga qaramasdan, bitta mavzu hech o`zgarmay barqaror turibdi-bu bo`lg`usi jamiyat uchun informatsiya –axborotning yoki bilimlarning muhim ahamiyat kasb etishini anglash mavzusidir”[119][106]. SHu sababli keyingi paytda olimlar jamiyatni yangilanishida bilim va axborotlarning hal qiluvchi ahamiyatini ilmiy – metodologik tahlil etishga ka`tta e`tibor qaratmoqdalar. Masalan, Toffler o`zining “ Uchinchi to`lqin”, “Inqilobiy boylik” asarlarida ijtmoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida insoniyat bilim natijasida rivojlanayotganligini, zamonaviy jamiyat oldingilaridan farqli o`laroq yuksak texnologiyalarga asoslangan “boylik yaratish” tizimiga

[119][106] Giddens E.. Sotsiologiya.-T.,SHarq 2002. 744-b.

o`tayotganligini e`tirof etadi[120][107]. Demak, murakkab tizim bo`lgan jamiyatning bifurkatsiya nuqtalarida jamiyat rivojlanishning bir nechta yo`llari orasidan o`zi uchun eng maqbulini tanlab oladi. Bu tanlovga ijtimoiy subyektlarning bilim va ahloqiy qadriyatlari katta ta`sir ko`rsatadi. SHu sababli jamiyat murakkab o`z-o`zini tashkil etuvchi tizim sifatida jamiyatda fan va bilimlarni translyatsiya qiluvchi ta`lim tizimini rivojlantirish asosida rivojlanadi. Jamiyatdagi modernizatsiya jarayonlari fandagi, ta`limdagi yangilanishlar bilan o`zaro mutanosiblik, sinergetik o`zaro bog`liqlikda sodir bo`ladi va ana shundagina ijobiy natijaga erishiladi.

Mamlakatni modernizatsiya qilishning asosiy vazifalari milliy g`oyamizni hayotga tatbiq etish, rivojlanishni YAngi yuksak pog`onalarga ko`tarilishini nazariy-amaliy asoslarini vjudga keltirish va yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Bugungi kunda modernizatsiya qilish inson faoliyatining, deyarli barcha faoliyatlarida olib borilmoqda. Modernizatsiya qilish davlatimizning ichki siyosatining namunasi bo`lib, Vatan tinchligiga, Vatan taraqqiyotiga, xalqning farovon va erkin hayotini ta`limlashga qaratilgan murakkab jarayondir. Modernizatsiya qilish mamlakatimizni ichki vazifalari bilan birga, uning fan, iqtisod, madaniyatini taraqqiyoti asosida jahon tsivilizatsiyasiga integratsiyasini, taraqiy etgan davlatlar qatoriga chiqish masalalari bilan bog`liqdir. Mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy, liberilizatsiyasi sud-huquq islohotlari, demokratik o`zgarishlarning asosini modernizatsiya paradigmasi tashkil etadi. Nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyati mamlakatimizdagi demokratik tizimning yangilanishi ijtimoiy hayotdagi o`zgarishlar, ijtimoiy muhofaza siyosati barchasi an`anali yondoshuvdan yangicha zamonaviy yondoshuv asosida ish olib borishga asoslangandir.

Butun jahon inqrozi davrida mamlakatimiz bu salbiy ta`sirlarni bartaraf etish chora-tadbirlarni ishlab chiqi., va amaliyotda tatbiq qilgani yutuqlarga erishgani ham yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga muvofiq yangi yondoshuv, siyosatga asoslaganligini bildiradi. Modernizatsiya qilish inson faoliyatining barcha sohalariga kirib kelmoqda va ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarida natijalarini kuzatmoqdamiz.

Modernizatsiya murakkab, kompleksli voqeylik. Uni tashkil qiluvchi elementlari orasida bilim va savodxonlik darajasini oshib borishi takidlanadi. Bu muammo, ya`ni bilim va savodxonlik darajasini oshib borishi, birinchidan barkamol avlod shakllanishini ma`naviy poydevori, ikkinchidan ularning ijtimoiy muhit bilan bog`liq mohiyati, uchinchidan modernizatsiya jarayoni epistemologik qarashlaridagi o`zgarishlari bilan aloqadorligini ilmiy-nazariy tahlii uchun zamin tayorladi. Bilim, savodxonlik jamiyatning kuchli quroli va inson jamiyatining taraqqiyotining poydevoridir. Bilimni mohiyatini tushunish va uni amaliyotga tadbiq qilish hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biri. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar, siyosiy texnologiyalar, o`quv jarayonlarida qo`llaniladigan yangi texnologiyalar barchasi savodxon insonning bilimiga bog`liq.

Hozirgi davrda ko`pgina, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarga ilmy-fanga, innovatsion texnologiyalar, innovatsion iqtisodiy texnologiyalariga bo`lgan e`tibor, ularning rivojlanishiga ajratilgan mablag` o`sib borayotgani diqqatga sazovordir. SHu bilan bir vaqtda insonning ma`naviyati, jamiyatda mavjud ma`naviy muhitning ahamiyati kattadir.

Hozirgi kunda inson faoliyatining barcha sohalaridagi, jumladan madaniyat qadriyatlari va mentalitetdagi o`zgarishlar, inson ongidagi modernizatsiyasining muhim jihati bo`lib, zamonaviy reallikka adekvatligini talab qiladi.

Buning natijasida dunyoni idrok etish tamoyillarida ham o`zgarishlar vujudga kelmoqda. Endilikda, har qanday sodir bo`lgan qiyinchilikni bartaraf etish uchun, uning oqibatida vujudga kelgan muvozanatimizda, tartibsizlikdan chiqib ketish uchun imkoniyatlarni izlash kerak.

[120][107] Tofler E., Toffler X. Revolyutsionnoe bogatstvo. -M., 2007. S.388.

Tartibsizlik, muvozanatsiz tizim yangi imkoniyatlar vujudga keladi va bu holatdan barqarorligiga o`tish yo`llarini anglab olish umkin, ya`ni beqarorlik, tartibsizlikda barqaorlikka o`tishning imkoniyatlari mavjud, shulardan tanlab olish imkoniyati inson, jamiyat, davlatga bog`liq. Inson tafakkkuri zamonamizni o`ta o`zgaruvchanligini adekvat in`ikos etish uchun yangi tushuncha, tamoyillar, yondoshuvlar, nazariyalarni yaratadi. Modernizatsiya paradigmasi shular qatorida ilm-fan, jamiyatni rivojlanishini adekvat in`ikos etish uchun yaratilgan.

Barcha globallashuv jarayonlarida iqtisodiy globallashuv etakchi ahamiyatga ega. U ta`lim sohasidagi globallashuvni ham belgilaydi. Bir tomondan ishlab chiqarish va boshqaruv sohalarida bir xil bilim, qo`nikma va usullar talab qilinadi. Boshqa tomondan ta`lim sohasining o`zi ham global bozor va raqobat sharoitida faoliyat ko`rsatishi kerak. YUzaga kelgan muammolarga javoban masofadan ta`lim, umr davomida ta`lim va Bolon`ya jarayoni, deb yuritiladigan choralar vujudga keldi. Globallashgan xo`jalik va transmamlakat korporatsiyalar bir mamlakatda ta`lim olib boshqa mamlakatda, undan yana uchinchisiga o`tib ishlay oladigan mutaxassislarni talab qiladi. YUqoridagilarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari turli miqyosda bo`lsa-da, katta ahamiyat qasb etadi.[121[135]]

Bilimlar taraqqiyoti kelajakda qanday bo`ladi? Globallashuv jarayonlari fan taraqqiyotiga qanday ta`sir qilishi mumkin? Mutaxassislarning fikriga qaraganda, globallashuv jarayonlari fanda ham global o`zgarishlarni keltirib chiqardi. Bular eng avvalo fanning mohiyati, strukturasi, funktsiyalaridagi – transformatsiya jarayonlari, ya`ni chuqur, yangi sifatiy o`zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bularni eng avvalo fanning tobora global, internatsional mazmun kasb etib, globallashib borayotganida ko`ramiz. Bu jarayon ikki yo`nalishda rivojlanayotganligi ta`kidlanmoqda. Bulardan birinchisi, fanning notijorat globallashuv yo`nalishi bo`lib, unda olimlar va turli o`quv yurtlari birgalikda ilmiy tadqiqot olib boradilar, o`zaro bilim almashish sodir bo`ladi. Ikkinchisi tijorat yo`nalishidagi fandagi globallashuv hisoblanadi. Bu yo`nalish asosan XX asrdan boshlandi va keyingi o`n yillarda dadil o`sib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu yo`nalishdagi fan globallashuvi obyektiv asosga ega bo`lib, uning omillari bo`lib global moliyaviy va fond bozorlarining vujudga kelishi; halqaro raqobatning kuchayib global tus olishi; transmilliy korporatsiyalarning iqtisodiy faoliyat ko`lamining o`sishi; aloqa vositalari, shuningdek global “INTERNET” tarmog`ining rivojlanishi, erning maxsus sun`iy yo`ldoshlarining uchirilishi hizmat qiladi.

Tijorat yo`nalishidagi fan globallashuvida transmilliy korporatsiyalar va davlatlar chet eldagi ilmiy ishlanmalarni moliyalaydi. va bu holat bugungi kunda o`sib bormoqda.

SHuni ham aytib o`tish kerakki, bunday fandagi globallashuv jarayonlari ijobiy tomonlari bilan birga bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. YA`ni xalqaro al`yanslarning faoliyatida faqatgina iqtisodiy maqsadlarni ko`zlab, ilmiy tadqiqotlarni olib borish keng tus oladi, bu esa fundamental bilimlar taraqqiyotini susaytiradi. SHuningdek, halqaro al`yanslar mahaliy ilmiy xodimlar o`rtasidagi qo`nimsizlik, ilmiy salohiyatning pasayishi, axborotlarning qo`ldan boy berilishi kabi oqibatlarga olib kelishi mumkin. SHunga qaramasdan, fandagi globallashuv ham obyektiv jarayon bo`lib, uning salbiy tomonlarini bartaraf etish uchun ilm - fan va har bir davlat o`rtasida mustahkam hamkorlik talab etiladi.

Demak, aytish mumkinki, globalashuv jamiyat hayotining barcha sohalariga o`z ta`sirini o`tkazuvchi jarayondir. Global jarayonlar insoniyat oldidagi global muammolarni global – evolyutsionizm, sinergetik paradigmaga asoslangan fanni yanada rivojlantirish, bilim va

[121[135]] Qarang, masalan Djon X.Nayt. Mirovoy obrazovatelni`y ri`nok XXI veka. // Informatsionni`e texnologii v vi`sshem obrazovanii. Mejdunarodni`y nauchno-prakticheskiy jurnal. Tom 1.- №2.- 2004.- s. 12-14.

texnologiyalarni innovatsion ishlab chiqarishga joriy etish asosidagina hal qilish mumkinligini ko`rsatmoqda.

Zamonaviy globallashuv postnoklassik fannining mazmuni, funktsiya, strukturasi, obyektiga ta`sir etdi. Murakkab, o`z-o`zini tashkil etadigan, sinergetik xarakterga ega bo`lgan tizimlar zamonaviy jahon fanninig obyektiga aylandi. Fanda integratsiya, differentsiatsiya, globallashuv jarayonlari kuchaydi. Fanning borgan sari qadriyatlar bilan uzviy holda rivojlanishi, uning gumanizatsiyalashuvi, uning ekologik muvozanatni saqlashdagi roli ortdi. SHuningdek, globallashuv paradigmasida "moddiy" resurslar emas, "nomoddiy" resurslar, ya`ni bilim, nou-xau, axborot tizimi va patentlarni,ilmiy axborotni boshqarish ahamiyatli bo`lib borayotganligi sababli kelgusida ham jamiyat taraqqiyoti fan, bilimlar bilan uzviy bog`liqlikda rivojlanishi e`tirof etilmoqda. Ayniqsa, jamiyatning kelajagi asosan genetika, materialshunoslik, energetika, sun`iy intellekt, inson miyasini o`rganish, bilimlar dinamikasi, bilimlarni boshqarish, globallashuv davrida qanday bilimlarni translyatsiya qilish, ekologiya sohalaridagi yutuqlarning amaliyotga qo`llanish darajasiga bog`liq bo`ladi. Natijada olimlarning halqaro ilmiy hamkorligiga talab yanada kuchayadi.

SHu bois, globallashuv davrida ilmiy bilim va fan taraqqiyotining hal qiluvchi ahamiyati har bir davlat doirasida ilmiy siyosat tushunchasining shakllanishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan va Yevropa hamkorligiga a`zo davlatlar va O`zbekiston ilmiy siyosatiining asosini butun dunyo ilmiy imkoniyat va salohiyatini integratsiya qilish tashkil etadi. CHunki globallashuv davrida yuzaga kelgan global muammolar faqatgina butun jahon olimlarining birgalikdagi ilmiy izlanishlari natijasidagina o`z echimini topishi mumkin.

Bu o`z navbatida ilm-fanning yanada taraqqiy etishini taqozo etadi. "Globallashuv sharoitida mamlakatning innovatsion rivojlantirish salohiyati raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omillaridan biriga aylangan bir paytda aholining yuqori bilim darajasi mamlakatga o`zini jamiyatga daxldor deb hisoblash imkonini beradigan obro` emas, balki yashovchanlik va iqtisodiy ta`minot, pirovardida siysiy mustaqillik omiliga aylanadi"[122][88]. Ma`lumki globallashuvning fundamental omillaridan biri axborotlashuv jarayonlari hisoblanadi[123][89]. SHu bois globallashuv davrida fanning, madaniyat sohasida ham axborotlashuv jarayonlari sodir bo`ladi va bu o`z navbatida fanning ham axbortlashuvini talab etadi.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo`lgani singari, globallashuv jarayonlari ham bundan mustasno emas. Uning keng qamrovli va g`oyat o`tkir ta`siri natijasida u mafkuraviy ta`sir o`tkazishning quroliga ham aylanib bormoqda. Prezidentimiz ta`kidlaganidek "bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko`proq kuchga ega.". [124][90] Bunday vaziyat odamning o`z mustaqil fikriga, bilimga, keng dunyoqarash va boy ma`naviyatga ega bo`lishini talab etadi. Biz istiqbolimizni ma`rifatli dunyo, rivojlangan mamlakat qurmoqchi ekanmiz, xalqimiz, avvalambor yosh avlodimiz ma`naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib borishimiz kerakligi muhimdir. Buning uchun mamlakatimizda fan va bilimlarni translyatsiya qilish vositasi bo`lgan ta`lim tizimini jahon fani va ta`lim tizimi bilan integratsiyasini ta`minlash, globallashuv davrida sodir bo`layotgan fan va ta`limdagi global tendentsiyalarni falsafiy-metodologik tahlil qilish o`zbekiston olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

SHu sababli zamonaviy modernizatsiya jarayonlarining muvafaqqiyatini ta`lim tizimini modernizatsiya qilmasdan amalga oshirib bo`lmaydi. Ijtimoiy subyektlarning faol faoliyatining zamirida bilim yotadi. Ta`lim shaxs, davlat va jamiyatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy

[122][88] Inson taraqqiyoti ma`ruza.O`zbekistonda ta`lim: talab va taklif mutanosibligi. O`zbekiston. -T., 2007-2008.32-b.
[123][89]Rakitov A.I. Nauka v epoxu globalni`x transformatsiy (rossiyskaya perspektiva). Nauka v Rossii: sostoyanie i perspektivi.- M.; 1997. S. 13.
[124][90]Karimov I. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. T., Ma`naviyat. 2008. 113 - b.

ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor ijtimoiy taraqqiyot sohasi deb e`tirof etilgan.[125][91] Ta`lim bu tizimlashgan bilim, mahorat, va malakalarni shaxs tomonidan o`zlashtirish jarayoni va natijasi hisoblanar edi. Bugungi kunda ta`lim ijtimoiy institut sifatida tsivilizatsiyaviy (iqtisodiy, gumanitar, madaniy) funktsiyani bajaradi va insoniyat to`plagan ilmiy bilimlarni, malaka, ko`nikmalarni o`zlashtirish va ijodiy shaxsni tarbiyalashi lozim.[126][92].Ma`lumki bilimlarni uzatishning sinxron (kommunikatsiya) va diaxron (ta`lim) turlari farqlanadi. Ta`lim tizimi bilimlarni diaxron uzatish turi bo`lib, eng avvalo bilimlarni avdloddan avlodga uzatish vositasi hisoblanadi. Ta`lim tizimi insonni savodxonlik-ta`lim-kasbiy malaka-madaniyat-mentalitet bilan ta`minlaydi[127][93].

Buni falsafiy izohlaydigan bo`lsak, jamiyat murakkab tizim sifatida yangilanar ekan, o`zini –o`zi tashkil etuvchi tizimning asosiy omili-inson ham yangi muhitga moslashishi, uning talablariga javob berishi uchun majburiy funktsiyalarni bajara olishi lozim.Jamiyatning rivojlanishiga qarab bilim olish usullari va bilmni uzatish vositalari o`zgarib boradi. Adabiyotlarda ta`limning mifologik, sxolastik, dunyoviy va zamonaviy turlari farqlanadi.[128][94] Mifologik ta`lim turi ertak, mif va qo`shiqlar asosida olib borilgan. Sxolastik ta`limda matnlarni o`rganish, ritorika, gramatika, inson mohiyatini anglashga qaratilgan. Dunyoviy ta`lim turi XX asr boshlarida vujudga keldi.Zamonaviy ta`lim insonda nafaqat bilim, balki sifatli bilim va ta`lim, ma`naviy qadriyatlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, bilim olishning agrar, industrial, axborot jamiyatidagi hisoblash texnikasini qo`llashga asoslangan bilim olish turlarini tasniflash mumkin[129][95]. Rivojlanishning agrar usulida kuzatuv bilim manbai hisoblangan va u asosida mehnatga oid samarali hatti-harakatlar va tabiiy resurslarning o`sishi ta`minlangan. Industrial rivojlanish usulida esa kuzatuv, eksperiment, nazariyalar bilim manbai edi. Axborotlashgan jamiyatda yangi bilimni olish usuli hisoblash texnikasini qo`llashga asoslanadi. Har bir fan taraqqiyotining ma`lum davrida yangi ta`lim paradigmasi vujudga keladi. Masalan, klassik fanda ta`lim insonning hayot va mehnatga zarur bo`lgan bilim, malaka, ko`nikmalarni o`zlashtirish jarayoni va natijasi sifatida e`tirof etilgan edi. Bu davrda ta`lim klassik ratsionalizmga asoslangan bo`lib, ta`lim natijasida shaxsda mexanistik va deteterministik olam manzarasi shakllanar edi.Ta`lim jarayonida bilimlar va muammolarni echish usullari to`g`ridan - to`g`ri uzatilar edi.Murakkab tizimlarni o`rganish, o`zini-o`zi tashkil etuvchi, o`zini-o`zi rivojlantiruvchi tabiatni o`rganishga o`tilishi tizimlarning yopiqligi to`g`risidagi mexanistik tasavvurlarning radikal transformatsiyasiga olib keldi.[130][96] Postnoklassik fanning vujudga kelishi natijasida ta`lim tizimida ham modernizatsiya jarayonlari yuz bermoqda.

Ta`limdagi modernizatsiya jarayonlari serqirra jarayondir. U taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o`tayotgan mamlakatimiz ijtimoiy o`zgarishlarning tarkibiy qismi, mustabid tuzum mafkuraviy asoratlaridan xalos bo`lish jarayoni hamdir. SHu sababli XXI asrda jahon hamjamiyati ta`lim roli va ahamiyatini qayta ko`rib chiqa boshladi. Dastlab ta`limni isloh qilish ilmiy texnik inqilobning “ijtimoiy natijalari”dan biri sifatida ko`rila boshlandi. Ammo keyinchalik ta`lim iqtisodiy va ilmiy –texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili va muhim sharti jamiyat ijtimoiy tuzilmalarini shakllantirishning, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi sifatida tan olindi. Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek, ta`lim-tarbiya tizimidagi islohotlarni «muvafaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma`nodagi «portlash effekti»ga, ya`ni yangi ta`lim modelining kuchli samarasiga erishamiz …»[131][97]. Respublikamizda

[125][91]O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risida” gi Qonuni. -T., 1997. 3-band.
[126][92] Osnovi otkritogo obrazovaniya. Otv. Red. Soldatkin V.I. – T.1. RGI otkri`togo obrazovaniya. -M.: 2002.S 69-70.
[127][93] Muxamedova Z. M, Paradigma gumanizatsii obrazovaniya T., 2004.S.12
[128][94] Tam je. S 24
[129][95]Abdullaeva M..,Tulenova.J.,G`affarova G.,Niyazimbetov M.K.Milliy g`oya va fanning metodologik muammolari.-T, 2009. 82-b.
[130][96] Xaken G. Informatsiya i samoorganizatsiya: makroskopicheskiy podxod k slojni`m sistemam.- M.1991.S.145.
[131][97] Karimov I.A. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. – T.: O`zbekiston, 2008. – 63-b.

ham ta`limni modernizatsiya qilish maqsadida “Ta`lim to`g`risidagi Qonun”, “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” qabul qilindi va ular asosida taa`lim tizimida tub islohotlar olib borilmoqda. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: Havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarraqqiyot kafolatlari” asarida inson salohiyatini eng faol, eng bunyodkor, mamlakatimizdagi islohot va tub o`zgarishlarning muvafaqqiyatini ta`minlovchi muhim omil sifatida e`tirof etgan edi[132][98].

Bilimlardagi transformatsiya jarayonlariga ijtimoiy-madaniy omillar katta ta`sir etadi. Buni islohotlar natijasida respublikamiz fani va ta`lim tizimidagi o`zgarishlarda ko`rishimiz mumkin. Mustaqillikka qadar O`zbekiston ta`lim tizimi qat`iy markazlashtirilgan dasturlar, darsliklar, o`qitish uslublari asosida faoliyat olib borar edi.

Ta`lim jarayoni bilim darajasi o`rtacha bo`lganlarga mo`ljallangan bo`lib, qobiliyatli va iste`dodli bolalar uchun mo`ljallangan individual ta`lim dasturlari bo`yicha o`qitish mexanizmlaridan etarlicha foydalanilmas CHunki bunday tafakkur uslubi tizimda bo`ladigan beqarorlik va xaotik holatlarni inkor etadi. Vaholanki bilim ilmiy ijod mahsuli bo`lib, u o`zida ratsional va irratsional holatlarni mujassam etadi. Ta`lim jarayoni asosan monoloka asoslangan edi. Ta`limdagi chiziqli tafakkurning ustunligi postnoklassik fan asoslariga muvofiq kelmay qoldi. Natijada bilimlarni uzatish jarayoni, bilimlarni generatsiya qilish samaradorligi, bilish subyektlari ijodkorligining susayishiga sodir bo`ldi.Bu ta`lim falsafasida “ta`limning inqirozi” sifatida baholandi.

1997 yili qabul qilingan va sobitqadamlik bilan amalga oshirilatgan Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi, “Ta`lim to`g`risidagi” Qonun mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirish, jahon andozalariga javob bera oladigan mutaxassis- kadrlar tayyorlash vazifasini qo`ydi.

“Hozirda respublikamiz aholisining yalpi savodxonlik muammosi to`la hal qilingan.Zero, aholining savodxonligi 1991 yildagi 97,7 % dan 2003 yilda 99,3% ga etdi. O`rta maxsus, kasb- hunar yoki oliy ma`lumotga ega katta yoshli aholi hissasi 75% dan oshadi. Boshlang`ich va o`rta ta`lim darajasida qamrab olingan qiz va o`g`il bolalar soni orasida amalda farq yo`q.”[133][99] SHuningdek, O`zbekiston umumiy boshlang`ich ta`limni ta`minlab, global Mingyillik Rivojlanish Maqsadlaridan birini muvaffaqiyat bilan ro`yobga chiqarganini qayd etish lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq nisbatan qisqa davr ichida o`rta kasb- hunar o`quv yurtlarining yangi tiplari tarmog`i yaratildi, ta`lim dasturlarining rangbarangligini ta`minlashga, ta`lim tizimini moliyalashtirish ko`p tomonlama bo`lishiga erishildi. 2004 yil may oyida Prezident Farmoni bilan maktablar moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va uzluksiz ta`limning yagona yaxlit tizimini shakllantirish bilan bog`liq maktab ta`limini rivojlantirishning davlat umummilliy dasturi qabul qilindi. Mustaqillik tufayli xalqimizning ko`p asrlik tarixga ega bo`lgan ma`naviy- intelllektual merosini o`rganish imkoniyati yaratildi.Mamlakatimiz ta`lim tizimida jahon ta`lim tizimining ilg`or tajribasini qo`llash, ta`limni axborotlashtirish, gumanizatsiyalashtirish, elektron darsliklar bilan ta`minlash, masofaviy ta`limni rivojlantirish keng ko`lamda olib borilmoqda.

Respublikamizda aalga oshirilayotgan ta`lim sohasidagi islohotlar xalq ma`naviyatining yuksalishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajak avlodga etkazish, umuminsoniy merosdan bahramand bo`lish, global o`zgarishlar sodir bo`layotgan jamiyatda faol, ma`naviy etuk insonlarni shakllantirishning asosidir.

---

[132][98] Karimov I.A.O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida:Havsizlikka tahdid,barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-. T.: “O`zbekiston”.1997.252-bet.

[133][99] Mingyillik Rivojlanish Maqsadlarining Ma`ruzasi.O`zbekiston. T.2006. 23 – bet.

Ta`lim tizimining ijtimoiy taraqqiyotdagi, jamiyatni modernizatsiya qilishdagi roli mutaxassislar tomonidan keng yoritilmoqda. Masalan, Fukuyama o`zining "Velikiy razriv" asarida zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy kapitalning asosiy manbalaridan biri- ijtimoiy qadriyat sifatida ta`minlanadigan-ta`lim tizimidir"[134[100]]-deb yozadi. Subetto[135[101]] esa jamiyat progressiv evolyutsiyasining assosiy omili "tizim intelektinining" sifati, moslashuvchanligi, kelajakni yaratuvchanligi va kelajakni boshqara olish qobiliyatlarining o`sishida deb ta`kidlaydi. Uning fikricha, har qanday progressiv evolyutsiya doirasida bu qonun amal qiladi. Har qanday ijtimoiy taraqqiyot, umumjahon tarixiy qonuniyati ijtimoiy intellekt bilan bog`liq. bo`lib, olim fikriga ko`ra u quyidagi funktsiyalarni bajaradi: ijod, loyihalashtirish, bashorat qilish, rejalashtirish, dasturlash. Olim XX va XXI asrda insoniyatning Ulkan Portlash davriga qadam qo`yganligini, bu davr noosfera evolyutsiyasidagi sakrash bo`lib, bu jamiyat intellekt va ta`lim jamiyati asosida boshqarilishini e`tirof etadi. Olim ijtimoiy intellekning substantsiyasi bilim, ta`lim esa – ijtimoiy va individual intellektni qayta ishlab chiqarishning asosiy mexanizmi deb hisoblaydi.Ammo bu jarayonlarning amalga oshishi uchun ta`lim tizimini intellektuallashtirish lozimligini ta`kidlaydi. Zamonaviy ta`limni modernizatsiya qilish butun XXI asrni o`z ichiga olishini va ta`limni fundamentallashtirish, noosferizatsiyalash, gumanizatsiyalashtirish, kreativlashtirish, intellektullashtirish, axborotlashtirish, ta`lim va tadqiqot jarayonlarini birlashtirishni nazarda tutadi.

Bugungi kundagi modernizatsiya jarayonlari davrida ta`limni modernizatsiya qilish jamiyatdagi integrativ mexanizm bo`lib, modernizatsiya jarayonlarining kuchaytirishga olib keladi. Bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan ta`limni rivojlantirish, uni tubdan qayta o`zgartirishda aniq yo`nalishlar belgilandi. Ularning birinchisi - ta`limni tubdan demokratlashtirishdir. Ikkinchisi - uzluksiz ta`lim g`oyasi, so`ngra esa "ta`lim bir umrga"g`oyasini "ta`lim butun umr davomida" g`oyasiga almashtirishdir. Uchinchisi - bu nafaqat mutaxassislarni tayyorlash vositasi, balki balki jamiyatga ongli, insonlarni etkazib berishdir[136[102]]. Uchinchisi ta`limni globallashuviga erishish.To`rtinchisi-ta`limni axborotlashtirish. Ta`limni modernizatsiya qilishni ta`lim zamonaviy jamiyatda asosiy ishlab chiqarish va rivojlanish, raqobatbardoshlik asosi va jahon hamjamiyatining rivojlanish kabi omillar ta`qazo etadi.

Zamonaviy ijtimoiy o`zgarishlarning murakkabligi ta`limga ham sinergetik yondoshuv zarurligini talab etadi. Bunda zamonaviy ta`lim paradigmasi yopiq tizimlarni o`rganishdan, evolyutsion ochiq tizimlarni o`rganishga o`tish zarurligini e`tirof etadi.[137[103]] Ta`lim tizimi ochiq tizim sifatida tasniflanmoqda. Ochiq ta`lim[138[104]] – bu o`z-o`zini tashkillashtiruvchi tizim bo`lib, ijodiy shaxsni rivojlantirish jarayonidir.Bu zamonaviy axborotlashgan jamiyat ta`lim tizimi falsafasining asosiy jihatidir. Sinergetik yondoshuvda o`qitish, o`quvchi va o`qituvchi o`rtasidagi munosabat - bilimlarni to`g`ridan-to`g`ri uzatish emas, balki bilimlarni uzatishdagi ochiq dialog, hamkorlikdagi ta`lim maydoniga asoslanadi. Ochiq ta`lim tizimi uzluksiz, innovatsion, masofaviy o`qitish orqali moslashuvchan, faol, ijodiy shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.Bunda bilimlar subyekt keyinchalik ulardan yangi bilimlarni hosil qila olish qobiliyatini shakllantirish uchun uzatiladi.Bunda o`quvchidagi yashirin qobiliyatlarni uyg`otish, o`zini namoyon etishga, imkon yaratiladi. Bilish yangi mazmun kasb etadi. Bilish subyekti faol bo`lib, ta`limda uzatilayotgan bilimlar absolyut haqiqat sifatida e`tirof etilmaydi. Ta`lim jarayonining nochiziqli tafakkurga asoslanishi e`tirof etiladi. Nochiziqli tafakkur rivojlanishning ko`p variantliligini, bilish jarayonida

---

[134[100]] Fukuyama F. «Velikiy razriv"- M..Izd.AST.2003. S. 19

[135[101]] Subetto A.I. Intellektualizatsiya obrazovaniya kak problema XXI veka // «Akademiya Trinitarizma».- M., El № 77-6567, publ.10257, 06.03.2003 http://www.trinitas.ru/rus/doc/

[136[102]] Inson taraqqiyoti to`g`risidagi ma`ruza.-T., 2007-2009.30-32-b.

[137[103]] Muxamedova Z. M, Paradigma gumanizatsii obrazovaniya -T., 2004.S 132.

[138[104]]Osnovi otkritogo obrazovaniya. Otv. Red. Soldatkin V.I. – T.1.RGIns. Otkritogo obrazovaniya. M.:Nii TSrao, 2002.

tizim tabiatini yagona qonunlarda aks ettirib bo`lmasligini. e`tirof etadi. Nochiziqli tafakkur tadrijiy (evolyutsion) yo`nalishlarning ko`p variantliligi va muqobilliligi g`oyasi hamda bu muqobillardan birining tanlanishi, muhitdagi jarayonlarning taraqqiyot (darajasida) sur`ati, tadrijiylikning orqaga qaytarilmasligi g`oyalari sifatida tushuniladi[139][105]. Bunday tafakkur tamoyillariga ko`ra ta`lim rivojlanishining ko`p variantliligini tan olinmoqda. Bu ta`lim jarayonida bir yoqlama yo`nalganlik, tafakkur jarayonining inertsiyasiga barham beradi. Bilish jarayonida "subyekt-subyekt" munosabatlari amal qiladi. Bilish jarayonining beqaror, xaotik holatlarga ega ekanligi e`tirof etiladi.Natijada shaxs faolligining o`sishiga, bilimlar generatsiyasining samaradorligining ortishiga erishiladi.

Sinergetik tamoyillarni ta`limning barcha pog`onalariga kiritish uchun olamning yaxlitligini anglatuvchi integrativ kurslarni tashkil etish, har bir fan sohasiga sinergetika tamoyillarini yorituvchi materiallarni kiritish zarurdir Sinergetikaning ta`lim tizimida amal qilishi fanlararo dialogni ta`minlash imkonini beradi, natijada fan va madaniyat birligiga erishish mumkin bo`ladi.

Bolon`ya jarayoni bir tomondan yaqinlashuv va muvofiqlashtiruv orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan bo`lsa, boshqa tomondan Yevropa madaniyati va ma`naviyatini asrab qolishga qaratilgan. Bular Bolon`ya bayonotining asosiy tamoyillarida aks ettirilgan: ishga joylashish imkoniyati bilan grajdanlar mobilligining asosiy yo`nalishi sifatida oliy ta`lim Yevropa zonasini qo`rish; Yevropaning intellektual, madaniy, ijtimoiy va ilmiy va texnikaviy salohiyatini mustahkamlash, Yevropa oliy ta`limining dunyodagi obro`ini oshirish; talabalar, mablag`, ta`sir borasidagi Yevropa oliy o`quv yurtlarining raqobatbardoshligini ta`minlash; universitetlar Yevropa ongining tashuvchilari sifatida qaraladigan Yevropa madaniy qadriyatlarini rivojlantirishda universitetlarning markaziy o`rnini oshirish; oliy ta`limda Yevropacha qarashlarga ko`maklashish, ta`lim va tadqiqot sohalarida hamkorlikni rag`batlantirish.[140][136] Bolon`ya tamoyillari metodologik ahamiyat kasb etadi: Mamlakatlar orasidagi tavofutlarga qaramay, Yevropa tashki dunyo qarshisida yagonalikka intiladi.

Globallashuv, ta`bir joiz bo`lsa, davr talabi bilan uzluksiz ta`lim, masofadan ta`lim g`oyalari Markaziy Osiyo, xususan O`zbekistonda ham rivojlana boshladi. Davlat tomonidan AKT rivojiga e`tibor berilib huquqiy zamin yaratildi. Boshqa tomondan Yevropa Ittifoqi dasturlari asosida Markaziy Osiyoda oliy ta`lim sohasida AKTni qo`llash ko`lami oshirib borildi.[141][137] Bunday rivojlanish natijasida, umuman olganda, O`zbekiston grajdanlari masofadan ta`lim orqali chet el universitetlarida tahsil olishlari mumkin.

SHu o`rinda muayyan masalalarni ko`rib chiqish kerak bo`lur. Birinchidan, ta`lim tili masalasi. Bolon`ya jarayonida til masalalari ochiq ko`rib chiqilmagan. Implitsit ravishda jarayon G`arbiy Yevropaning yirik millatlari tili foydasiga amal qiladi. Markaziy Osiyolik talabalar shunda asosan ingliz tili orqari ta`lim oladilar. CHet el universitetlar ta`lim mundarijasida Markaziy Osiyo xalqlari qadriyatlari aks ettirilmagan. YA`ni, milliy qadriyatlarga zarar etadi.

Taqiq yo`li bilan bu imkoniyatni bekor qilib bo`lmaydi. Ta`lim globallashuvining salbiy oqibatlariga qarish turish uchun Markaziy Osiyo "bolon`ya" jarayonini yo`lga qo`yish lozim,

---

[139][105] Knyazeva E.N.Odisseya nauchnogo razuma.Sinergeticheskoe videnie nauchnogo progressa.-M.:Nauka,1995. -S.238.

[140][136] Bolonya jarayoniga tanqidiy qarashlar ham yo`q emas. Masalan ta`lim sifati pasayib borishi haqida fikrlar bor, ammo bu mavzuimizga kirmaydi.

[141][137] Qarang, maslan: Karimxodjaev A., Norboev T., Akramov S., Opi`t sozdaniya elektronnoy sredi` obecheniya v NUUz. // Informatsionni`e texnologii v vi`sshem obrazovanii. Mejdunarodni`y nauchno-prakticheskiy jurnal. Tom 3.- №1.- 2006.- s. 48-53; S.Akramov, A.Karimkhodjaev, G. van Zantvoort. E-resource management as part of E-learning environment // Improvement of the university Quality Management System through the Development of E-Resource Management Techniques. T., 2009. p.p.5-20, va boshqalar.

Markaziy Osiyo ongini shakllantirish va rivojlantirish kerak. Universitetlar esa bu jarayonda, Yevropada mo`ljallangandek, markaziy o`rinda turishi kerak. Ta`lim sifati orqali raqobatbardoshlikni ta`minlash mumkin.

Paradoksdek tuyulsa ham, yuqoridagi maqsadga erishish uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va elektron o`quv muhitini Markaziy Osiyo miqyosida rivojlantirib, ta`lim tizimlarini yaqinlashtirib borish zarur. Elektron o`quv muhitini to`la ko`lamda rivojlantirish kerak. YA`ni Internetdan referatlar izlash, elektron shakldagi darsliklardan foydalanish va shu kabilardan to`la ko`lamli interaktiv usullar va bilimni tekshishish tizimiga o`tish lozim.

Globallashuv atamasi o`tgan asrning 80 yillaridan keng qo`llanila boshlandi. Ammo, uning salohiyati, mazmuni, oqibatlari to`g`risida xilma- xil fikrlar shunchalik ko`pki, natijada har bir muallif o`zining mafkuraviy qarashlariga ko`ra va o`z fanining predmetidan kelib chiqib, o`z qarashini, tushunchasini ifoda qiladi. Globallashuv tushunchasiga berilgan ta`riflarni umumlashtirib, muhim xususiyatlarini ajratib ko`rsatsak uning, qonuniy, obektiv jarayon ekanligi hozirgi davrda sifat jihatidan yangi belgilar kasb etganligi, yangi transport, kommunikatsiya, axborot vositalari va texnologiyalarini qo`llash natijasida mamlakatlarning u yoki bu faoliyatlarini, ma`lum maqsadlarini amalga oshirish uchun jug`rofiy makonning minimal darajaga qisqarganligini, ijtimoiy vaqtning kechishini esa benixoyat tezlashganligini qayd qilish zarur. Globallashuv jarayonining afzalliklari bilan bir qatorda insoniyatga tahdidlari ham mavjudligi umum e`tirof etilgan fikrdir. Bu tahdidlar iqtisodiy va siyosiy munosabatlar sohasida keskin, yaqqol namoyon bo`lmoqda. Ammo iqtisodiy globallashuvning tahdidlari va uni xal qilish yo`llari to`g`risida o`zaro tafovutli, hatto qarama-qarshi fikrlar talaygina.

Texnikaviy, texnologik kommunikatsiya axborot va boshqa sohalardagi global jarayonlardan rivojlangan mamlakatlar asosan o`z iqtisodiy manfaatlari yo`lida foydalanmoqdalar. Hozirgi davrda jahon miqyosida qaror topgan iqtisodiy tartibot rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o`rtasidagi tafovutni, nomutanosiblikni kuchaytirib bormoqda. SHu munosabat bilan istiqbolda jamiyatni, tsivilizatsiyalarni nima kutayotganligi xaqida turli farazlar aytilmoqda. TSivilizatsiyalar to`qnashuvi, iqtisodiy, texnologik va axborot neokolonealizmi, diniy va etnik konfliktlar xaqidagi taxminlar shular jumlasidandir.

O`zbekiston Prezidenti I.Karimov o`zining “YUksak ma`naviyat-engilmas kuch” asarida globallashuv jarayonining mohiyati, oqibatlari haqida to`xtalar ekan, uni “...hayot jarayonlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”[142[138]] deb baho bergan edi. SHunday ekan, o`zgarib borayotgan hayot talablariga moslashish, shu bilan bir qatorda har bir inson, millat o`zligini saqlab qolish uchun o`zining mustahkam e`tiqodiga, nuqtai nazariga ega bo`lmog`i, boshqalarning e`tiqodi va nuqtai nazarini hurmat qilmog`i lozim. Mabodo turli e`tiqodlar va nuqtai nazarlar birdek qadrlanmas ekan, birini kuchsizlantirish hisobiga ikkinchisi kuchayadi, hayotning mohiyati, go`zalligining o`ziga xos ifoda shakli bo`lgan rang-baranglik, takrorlanmaslik inkor qilinishga olib keladi. Rivojlangan g`arb davlatlari tomonidan dunyoni ekspansiya qilish boshlanganidan beri ana shunday nuqtai nazar, tamoyil ustuvor bo`lib kelgan. Buning qanday oqibatlarga olib kelganligini jamiyatning barcha sohalarida yaqqol ko`rishimiz mumkin.

Bugun biz yashayotgan asr fan, texnika, axborot rivojlanganligi va shu bilan birga globallashuv jarayonlari o`sayotgan davr hisoblanadi. XXI asrda insoniyat katta yutuqlarga erishdi va erishmoqda ham. Ammo shu bilan birga bugungi kunda insoniyatning er yuzida uzoq yashashi va faoliyatini chegaralayotgan muammolar doirasi ham borgan sari ko`payib bormoqda.

[142[138]] I.Karimov. YUksak ma`naviyat-engilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008. B.111.

Bugun insoniyat va atrof muhitga havf solayotgan bir nechta muammolarni global muammolar deyish mumkin. Ekologiyaning buzilishi, SPID, narkobiznes, yadroviy qurollar, va odam savdosi hamda ochlik kabi muammolar hozirda faqatgina bir davlat bir millat doirasidagina emas, balki er yuzida mavjud bo`lgan barcha millatlar qolaversa, butun insoniyatga havf solmoqda. Umuman globalizatsiya va global jarayonlar XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib kuchaya boshladi. Globalizm atamasi oxirgi yuz yillikda tobora katta ahamiyat kasb eta boshladi. Xususan «global» tushunchasining lug`aviy ma`nosiga e`tibor qaratadigan bo`lsak «umumiy», «globus», «er shari» kabi tushunchalarga duch kelamiz. Demak, globalizm tushunchasi ana shu har ikki ma`noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog`liq bo`lgan katta muammolarni, «sayyoraviy», «umumsayyoraviy», «umuminsoniy», «dunyoviy» muammolarni, «umumplanetar ahamiyatga ega bo`lgan masalalar» va global taraqqiyot istiqbollarini o`ziga qamrab oladi. Ijtimoiy fanlarda ushbu masalalarni yoritish va tadqiq etish esa afsuski ancha kech boshlandi. CHunki yuqorida aytib o`tilgan muammolar faqatgina ayrim millat va davlatlarga tegishli degan dunyoqarash mavjud edi. Va shuning uchun ham bu kabi masalalar hammani qiziqtirmas edi. Keyinchalik esa global muammolar echimi dolzarb va butun dunyo uchun havfli ekanligi anglana boshlandi. Hozirgi zamonda mutaffakkirlar va olimlar er sayyorasi miqyosida yagona tsivilizatsiya qaror topayotganligi xususida tobora ko`proq gapirmoqdalar. Fan va amaliyotda bu g`oyaning mustahkam o`rin olishi bilan «globalizatsiya» atamasi qo`llanila boshlandi. Globalizatsiya sotsiumning barcha sohalarini qamrab olib, ijobiy jihatlari bilan birga qator jiddiy muammolarni ham tug`dirdi[143[139]]. Hozirda ularning muayyan qismini «hozirgi davrning global muammolari» deb atash mumkin.

Er yuzida tinchlikni saqlash, termoyadro urushining oldini olish va adolatli xalqaro iqtisodiy tartibot o`rnatish; atrof muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammo); aholi soni va tarkibi bilan moddiy va ma`naviy qadriyatlar yaratilishi mutanosibligiga erishish (demografik muammo); ochlik, qashshoqlik hamda qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlangan va ulardan keyinda qolgan mamlakatlar o`rtasidagi keskin farqni bartaraf etish; xavfli kasalliklarni tugatish; inson ma`naviy muhiti sofligini ta`minlash (etikologiya muammosi) va hokozolar.SHuningdek global muammolarni kelib chiqishi mavjudligi va hal etilishiga ko`ra quyidagi guruhlarga bo`lish mumkin: birinchisi – bu kishilar uyushgan jamiyatning tabiati turli mintaqalar davlatlarining (masalan SHarq, G`arb, Janub–SHimol rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar) xilma-xil manfaatlari majmui bilan bog`langan, boshqacha aytganda, baynal ijtimoiy jarayonlar ijtimoiy o`zaro munosabatlar tug`dirgan muammolardir. Ikkinchi guruxga inson va u mansub bo`lgan jamiyat tizimida yuzaga kelgan munosabatlarni ifodalaydigan muammolar kiradi.Uchinchisi o`z ichiga «jamiyat – tabiat» tizimi doirasidagi munosabatlar tug`dirgan muammolarni oladi.

Global muammolarning bu guruhlari o`zaro bir-biridan farq qilsa-da, inson, uning hayoti, shart-sharoitlari va kelgusi rivoji jihatidan yaxlitlik, umumiylik kasb etadi.Ikkinchi umumiylik u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili – fan-texnika taraqqiyoti bilan aloqadorlikda ko`rinadi.Fanda erishilgan kashfiyotlar tezda yangi texnologiya yaratishni ta`minlasa, o`z navbatida texnika rivojlanishi ham fanda yangi o`zgarishlarni sodir etishga jiddiy turtki bermoqda. Eng achinarlisi shuki erishilgan kashfiyotlarni kim qanday maqsadlarni ko`zlasa, o`shalarga tatbiq etilmoqda. SHuning bilan birga hozirgi paytda insoniyat ma`naviyati, uning sofligini asrash ijtimoiy rivojlanishning ichki jarayonlari tug`dirgan yana bir global muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Bunga misol qilib zo`ravonlik va nafratning kishilar o`rtasidagi munosabatlarda chuqur ildiz otib, ma`naviy muhitni zaharlayotgani hamda insoniyatni axloqiy falokat sari etaklayotganligini keltirish mumkin. Ma`naviy muhitini bulg`ashda keyingi vaqtlarda ayniqsa ichkilikbozlik va bangilikning o`rni katta bo`lmoqda.Ko`pgina mamlakatlar bu xil

[143[139]] Jo`raev N Tarix falsafasining nazariy asoslari -T.: Ma`naviyat, 2008. 396 bet

moddalarni tarqatganlik uchun og`ir jazo belgilanganligiga qaramay, er yuzi aholisining muayyan qismida bangilikka ruju qo`yish avj olgan. SHuningdek bugun rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda sil, bezgak kabi kasalliklar keng tarqalib, bularning qatoriga hozirda insoniyat va uning hayotiga nuqta qo`yayotgan SPID ham qo`shilmoqda. Kasalliklarning global muammo bo`lib qolganligi yana shunda ko`rinadiki, canoati yuksak rivojlangan mamlakatlarda yurak-tomir, asab-ruhiy, rak va boshqa xastaliklar ko`payib bormoqda. Demak global muammolarni yuzaga kelishida inson va uning ehtiyojlari asosiy sabab bo`lib qolmoqda. Global muammolarning eng asosiylari tafsiflaridan ham ko`rinib turibdiki,bunday bo`hronlarni bartaraf etish nafaqat murakkab, balki bir xil echimga ham ega emas. SHu bilan birga insoniyat bularni hal etish choralarini tinimsiz izlamog`i lozim. SHuningdek insoniyat global bo`hronlarni bartaraf etish uchun avvalo yuqori darajadagi tafakkurga ega bo`lishi shartdir[144][140]. YA`ni, ma`naviy yuksaklik va chuqur gumanizmga ega bo`lish. Zamonaviy insonparvarlik esa eng kamida uchta asosga: globallashuvni anglashga, zo`ravonlikdan voz kechishga hamda adolatlilikka tayanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki globalizatsiya va global muammolar kabi jarayonlarning echimi butun insoniyatning hamjihatlik bilan faoliyat yuritishiga bog`liqdir. Zero global muammolarga echim topish har bir davlatning vazifasi bo`lib, dunyo davlatlarining o`zaro hamkorlikda ish tutishini taqozo etadi.

9-mavzu. Migratsiya jarayonlarining globallashuvi

Reja:

1. Kontinentlararo migratsiyaning globallashuvi.
2. Aholi globallashuvining mehnat bozorining o`sishiga ta`siri.
3. Migratsiya jarayonlari globallashuvining yangi va tabiiy resurslarni egallashdagi roli.
4. Migratsiya jarayonlarining mehnat malakasining oshirishdagi roli.
5. Jahon iqtisodiy tizimi globallashuvining oliy malakali kadrlar migratsiyasining shakllanishiga ta`siri.

Aholi va uning eng faol qismi bo`lgan mehnat resurslari makroiqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Dunyo aholisining qandaydir qismi, har xil ta`sirlar yordamida ish va yashash joyini almashtirib turadi. Bu omil migratsiya deb atalib, u bir paytning o`zida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy, ekologik xarakterga ega. Fanda migratsiyaning turli ta`riflari mavjud. Migratsiyaga mavjud ta`riflar orasida umumiy tarzda, quyidagi ta`rifni ajratib ko`rsatish mumkin: jismoniy shaxs (aholi) ning ma`lum bir geografik hududdan boshqa bir muayyan hududga ko`chishi migratsiya deyiladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyoda aholi migratsiyasi kuchaydi. Agar oldinlari migratsiya ma`lum bir hududlardagina (Afrika, Osiyo, AQSH, G`arbiy Yevropa) ro`y bergan bo`lsa, endilikda migratsiya tobora xalqaro global jarayonga aylanib bormoqda.

Aholining migratsion jarayonlari motivi, ko`pchilik hollarda, siyosiy va iqtisodiy omillar hisoblanadi. XX asr oxirida dunyo siyosiy xaritasidagi o`zgarishlar migratsion jarayonlarga yangi turtki berdi. YAngi yosh mustaqil davlatlardan rivojlangan mamlakatlarga migratsiya shu yillarda yanada o`sdi. Bu o`rinda, bir vaqtning o`zida, siyosiy va iqtisodiy omillarning kesishuvi natijasidagi migratsion jarayonni kuzatishimiz mumkin.

Dunyo bo`ylab migratsion jarayonlarning ortishi ko`plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, boshqa davlatlarga kelayotgan kishilarning til bilmasligi, mahalliy aholi

[144][140] Qahhorova SH. Global ma`naviyat – globallashuvning g`oyaviy asosi. -T.: 2009. –B.10

urf-odatlarini bilmasligi, mahalliy aholi bilan turli nizolarning kelib chiqishi, diniy omil, ishchilarning oddiy gigienik qoidalarga rioya qilmasliklari, turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi, tibbiy xizmatning vaqtida olinmasligi, shuningdek, turli jamoat joylarida o`zini tutish qoidalarini bilmasligi yoki rioya qilmasligi kabi omillarni ko`rsatish mumkin.

YUqoridagi holatlarning avj olib ketmasligi uchun migratsion jarayonlarni boshqarish tushunchasi qo`llaniladi. Bunday boshqarish tagzamirida, ish kuchi resurslarini birinchi navbatda, qonuniylashtirish, tartibga solish yotadi.

Ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning ahamiyati kattadir. Bunday tashkilotlardan biri Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)dir, bu tashkilotda davlatlar, tadbirkorlar va mehnatkashlar vakillari ishtirok etadi.

Migratsion jarayonlarni boshqarishda ushbu jarayonlarning asosiy yo`nalishlarini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining 5 ta yo`nalishini ajratib ko`rsatish mumkin:

1) Rivojlanayotgan davlatlardan sanoati rivojlangan davlatlarga migratsiya;

2) Sanoati rivojlangan davlatlar doirasidagi migratsiya;

3) Rivojlanayotgan davlatlar orasidagi migratsiya;

4) Sobiq sotsialistik davlatlardan sanoati rivojlangan davlatlarga migratsiya;

5) Ilmiy xodimlar, malakali mutaxassislarning sanoati rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan davlatlarga migratsiyasi.

BMTning statistik ma`lumotlariga qaraganda, Yevropa aholisi 2050 yilga borib, 128 mln.ga kamayadi, bunda Italiya – 16 mln., Germaniya – 23 mln., Rossiya – 33 mln. kishisini yo`qotadi. Eng ahamiyatlisi, Yevropa umumiy aholisining 10% igina Yevropalik ildizga taqaladi.

EI hududida migratsion oqimni va o`zga madaniyatdagilar hamjamiyatini tartibga solish bo`yicha muayyan ishlar ham ilmiy-nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Yevropaning deyarli barcha davlatlari OAVlarida va siyosiy debatlarda ushbu mavzu tez-tez ko`tarilmoqda.

Germaniya immigratsiya siyosati o`ziga xos maxsus qoida va an`analardan kelib chiqqan bo`lib, u ko`pgina Yevropa davlatlarida qiziqish uyg`otdi.

Agarda 1973 yilda 3,9 mln. (GFR) xorijlik yashagan bo`lsa, 30 yildan so`ng bu ko`rsatkich, ya`ni 2002 yilda 7,3 mln.ni tashkil qildi. Germaniyalik muhojirlarning ko`pchiligi “uchinchi davlat” kishilari bo`lib, ular etnomadaniy nuqtai nazardan, ko`pgina muammolarni keltirib chiqaradi.

2000 yil 1 yanvardan kuchga kirgan “Fuqarolik to`g`risida”gi qonuniga ko`ra, 2000 yilgacha muhojirlardan tug`ilgan bolalar bevosita nemis fuqaroligini qo`lga kiritadi. Balog`at yoshiga etguncha (18 yosh) ular ota-onalarining fuqaroligini saqlab turadilar, lekin 23 yoshgacha fuqarolikni aniq tanlashlari talab etiladi. Fuqarolik olishga ishsizlik nafaqasini oluvchilar, sudlanganlar da`vogarlik qila olmaydilar. SHuningdek, nemis tilini o`rganish bo`yicha test olish majburiy qilib qo`yildi. Umumiy hisobda 2000-2004 yillar oralig`ida 191107 ta muhojirlarning farzandlari nemis fuqaroligini qo`lga kiritishdi. Ularning ko`pchiligini etnik turklar tashkil qiladi.[145[108]]

Germaniya yangi migratsion siyosatining tub mohiyati shu bo`ldiki, Germaniya o`zini yakunda rasman “immigratsion mamlakat” deb e`lon qildi. YAna bir muhim jihat shu bo`ldiki, immigrantlarga turli tanishtiruv kurslari (630 soatga mo`ljallangan federal dastur) belgilangan bo`lib, u “uchinchi davlat”lar bilan Yevropa davlatlari fuqarolarini bir xil ko`radi. Musulmon ayollar uchun ham alohida kurslar belgilangan bo`lib, bu yakunda ularning mehnat faoliyatiga

[145[108]] Masalan, 2004 yilda jami 127 153 immigrant nemis fuqaroligiga ega bo`ldi. Undan 44 465 (35%) turklar va faqatgina 7 499 (5.9%), 6 362 (5%) qismini polyak va eronlar tashkil qildi.

tezroq kirishib ketishlariga yordam beradi. O`z navbatida, bu kurslardan bosh tortgan odamlarga ma`muriy choralar ko`riladi.

2006 yil 14 iyulda Berlinda shaxsan federal kantsler rahbarligida xorijliklar integratsiyasi masalasi bo`yicha Sammit bo`lib o`tdi. Unda barcha manfaatdor tomonlar, siyosatchilar, OAV vakillari, iqtisodchilar, kasaba uyushmalari, diniy muassasalar vakillari, shuningdek, madaniyat va sport vakilllari ishtirok etdi. Angela Merkel` ushbu anjuman migrantlar va Germaniya siyosatchilari o`rtasidagi kelgusidagi integratsion siyosat uchun ochiq dialog platformasi bo`lishi kerakligini bildirdi. Buning natijasida, 2007 yil yarmigacha oltita ishchi guruh tuzilishi va ular umummilliy integratsion kontseptsiya (ayniqsa, ta`lim va nemis tilini o`rganish bo`yicha) ishlab chiqishlari belgilandi.

Germaniya yangi immigratsion siyosatining amalda bir vaqtning o`zida, mamlakatda istiqomat qilayotgan va kelayotgan muhojirlar uchun ko`pgina qulayliklarni belgilab berdi. Ta`lim va til jarayoniga urg`u berilayotganligi esa alohida diqqatga sazovor, zero malaka va til bilish amalda, shaxsning keyingi istiqbolini belgilab beradi.

Migrantlar, o`z tabiatiga ko`ra jamiyatning ishbilarmon va harakatchan a`zolari hisoblanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo`lsak, migratsiya iqtisodiy o`sishga, yangi millatlarning paydo bo`lishi (assimilyatsiyalashuv)ga, marginal madaniyatlarning boyishiga ko`mak bo`lib kelgan.

Migratsion jarayonlarni tahlil etishda, undagi muhim muammoviy masalalarning ham mavjudligini inobatga olish zarur bo`ladi. Ma`lumki, harakat faoliyati mobaynida aksariyat migrantlar ekspluatatsiya qilinadi va ularning huquqlari poymol qilinadi; aksariyat holatlarda o`zlari yo`nalish olgan manzil mamlakatlar madaniyati va turmush tarziga nisbatan integratsiyalashuv qiyin kechishi mumkin; migrantlarni qabul qilayotgan davlatlarning malakali va zarur hisoblangan kadrlariga nisbatan arzon ishchi kuchi sifatida raqobatbardosh bo`lib, ularni ish joylaridan mahrum etishi mumkin. Mana shu va boshqa ko`plab sabablarga ko`ra migratsiya holatin har tomonlama, jumladan sotsiologik o`rganish muhim mavzu hisoblanadi.

Mazkur migratsiyaning hajmidan tashqari yana bir muhim tomoni, ijtimoiy-siyosiy tomoni ham borki, u hozirgi vaqtda ham Yevropalik hisoblangan amerikaliklarning asosan kelib chiqishi afrikalik bo`lgan qullarning avlodlariga nisbatan qaysidir darajada ta`sir kuchiga ega ekanligidir. SHunday bo`lsa-da, AQSHga quldorlikning tugatilishidan so`ng ham Xitoy, Hindiston va YAponiyadan juda ko`plab odamlar shartnoma asosida ko`chishdi va bu jarayon hali ham davom etmoqda. Masalan, oxirgi statistik ma`lumotlarga ko`ra ushbu mamlakatga faqat Hindistonning o`zidan 1,5 million odam ko`chib kelgan. Hindistonlik migrantlar dunyo miqyosida o`zining intellektual salohiyati tufayli komp`yuter dasturlari ustasi sifatida tanilgan bo`lsa-da, biroq ularning Amerikadagi faoliyati Yevropa mamlakatlari fuqarolariga tegishli plantatsiyalarda ishlash bilan bog`liqdir.

Migratsiyaning keyingi davri XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlariga kelib, AQSHning sanoatini nihoyatda yuqori sur`atlar bilan rivojlanishi orqali belgilanadi. Bu vaqtda SHimoliy, Janubiy va SHarqiy Yevropaning iqtisodiy turg`un hududlaridan va repressiv siyosiy tizimlaridan qochgan millionlab ishchilar 1850 yildan 1930 yildagi Buyuk Depressiyagacha AQSHga ko`chib ketishda davom etadilar. Ularning orasida ocharchilikdan qochgan irlandiyaliklarni, omadini sinab ko`rish uchun ketgan ingliz, nemis va frantsuzlarni, ishsizlikdan tinkasi qurigan italiyalik va polyaklarni, etnik jihatdan holi tang yahudiy va boshqa millat vakillarini ko`plab uchratish mumkin edi. Bu vaqtda N`yu Yorkdagi Ellis orolidagi immigratsion tekshiruv ro`yxatidan o`tgan migrantlarning soni qariyb 12 mln. kishini tashkil etadi.

Migratsiyaning keyingi katta davri ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropa, SHimoliy Amerika va Avstraliyadagi iqtisodni tiklash uchun ishchi kuchi zarur bo`lganligi tufayli sodir bo`ladi. Masalan, bu ko`plab turk migrantlarining Germaniyaga, SHimoliy Afrikaliklarning Frantsiya va Bel`giyaga kelishi bilan bog`liq.

SHu vaqtda mustamlakadan chiqish hali hamon davom etayotgan bo`lib, dunyoning turli burchaklarida "uchinchi davlatlar" deb nom olgan ko`plab jamiyatlarda ozodlik harakatlari natijasida, mustamlakachilik zulmidan qutulish davri boshlanadi. Ammo uning zamirida ham migratsion jarayon jiddiy tus oladi. Bu davr, 1947 yilda Hindistonda bo`lgan ozodlik harakati va Pokiston davlatining vujudga kelishi natijasida, millionlab hindlar va musulmonlarning, hamda Isroil davlatining tashkil topishi natijasida vujudga kelgan ichki nizolar tufayli, yahudiy va falastinliklarning o`z tug`ilib o`sgan joylarini tark etishlari bilan bog`liq. SHuningdek, mag`lubiyatga uchragan Germaniya va YAponiyadan AQSHga intellektual migratsiya kuchayadi.

Avj olgan migratsiya sur`ati AQSHga nisbatan o`tgan asrning 90-yillari boshida bir oz susaygan bo`lsa, Yevropa mintaqasida xalqaro migrantlarning kuchiga bo`lgan talab 70-yillarga kelib deyarli ehtiyoj sezmaydi. Ushbu davrlarda global iqtisodning boshqaruv kuchi Osiyo tomonga ko`cha boshlaydi. Bu esa shundoq ham aholi zich yashaydigan erlarda migrantlarga, xususan, mehnat migratsiyasiga bo`lgan talabni oshiradi. Oxir-oqibat migrant qabul qiluvchi davlatlarda so`nggi yillarda boshpanasizlar, qochoqlar va nomuntazam migrantlarning harakati boshqarib bo`lmas darajaga etdi. Bu tabiiyki, xalqaro miqyosda migratsiya tizimini tartibga solish bo`yicha qator loyihalar ishlab chiqishni taqozo etardi.

Birinchidan, migrantlar orasida ayollar ulushi tez ravishda oshib bormoqda. 2007 yilda Er yuzi bo`yicha migrantlarning deyarli yarmi ayollar bo`ldi, ularning katta qismi rivojlangan davlatlarda va sezilarli qismi esa rivojlanayotgan davlatlarda faoliyat yuritmoqda. BMTning statistik ma`lumotlariga ko`ra, 2005 yilda Yevropa, Lotin Amerikasi, SHimoliy Amerika, Okeaniya va sobiq Ittifoq davlatlarida erkak migrantlarga qaraganda ayol migrantlar ko`proq bo`lgan. E`tirof etadigan tomoni, ilk vaqtlarda ayollarning migratsiyada ishtirok etishda asosiy maqsadlaridan biri an`analardan kelib chiqqan holda, o`z jufti haloli bilan birga bo`lish bo`lsa, bugungi kunda esa mustaqil tarzda ko`chayotgan ayollar nisbati ortib bormoqda, ular asosan oilalarining asosiy boquvchisi sifatida ketmoqdalar.

Ikkinchidan, migrantlarning o`z davlatlari, tranzit va ular boradigan (manzil) davlatlar orasidagi an`anaviy farq tushunarsiz bo`lib qoldi. Bugungi kunda dunyodagi deyarli barcha mamlakatlar nazoratni amalga oshirish uchun uchta vazifani bajarmoqda, ya`ni migrantlar bu davlatlardan chiqarilmoqda, davlatlar tranzit vazifasini bajarmoqda va migrantlar ularga qarab yo`l olishmoqda.

SHaxsning yashash joyini erkin tanlashini tan olish migratsiya ommaviy, xalqaro tus olayotgan hozirgi davr va jamiyatlar uchun uzoq izlanishlar olib borishni talab etayotgan masalalardan biridir. Inson xuquqlari va ma`naviy madaniy qadriyatlar nuqtai nazaridan u, shubhasiz, ijobiy ahamiyatga ega. SHaxsning o`z ma`naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun barcha davlatlar va o`lkalarda ham real teng imkoniyatlar yaratilgan deb bo`lmaydi. Diniy mutaassiblik, konservativ qarashlar, demokratiyani til uchida tan olayotgan, aslida esa yakka fikrni targ`ib etib, hurfikrlikni goh ochiq, goh yopiq ta`qib etayotgan davlatlardan ochiq fuqarolik jamiyati qurayotgan G`arb davlatlarida migratsiya kuchayib bormoqda. Har yili G`arb davlatlariga Osiyo va sobiq SSSR respublikalaridan 4 millionga yaqin kishi migratsiya qilinadi. Bunday jarayonlar Xitoy, YAponiya, Hindistondan AQSHga ko`chishda ham ko`zga tashlanadi. Demak, migratsiya umumplanetar xarakter kasb etmoqda.

Ko`chish faqat ishchi kuchlarining siljishi emas, u milliy madaniy qatlamlarning siljishi hamdir. U madaniyatlararo integratsiyani kengaytiradi, umuminsoniy ma`naviy-madaniy qadriyatlarning, turmush tarzining rang-baranglashuviga, butun insoniyat uchun normativ ahamiyatga va ko`rinishga ega bo`lgan madaniy paradigmalarning shakllanishiga olib keladi. "Emigratsiya va reemigratsiya hayotning geosiyosiy, siyosiy, iqtisodiy, etnomadaniy, ijtimoiy sohalariga ta`sir etdi"[146][109].

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi migratsiya oqimlarini boshqarish muammosi mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligini shakllantirishning ahamiyatli omillaridan biriga aylanmoqda. CHunki migratsiya (xususan, mehnat migratsiyasi) so`nggi vaqtlarda mintaqaning qator mamlakatlari uchun tahdidli xususiyat kasb etmoqda. Mintaqadagi migratsiya nafaqat o`zining misli ko`rilmagan ulkan miqyosi, balki aksariyat hollarda asosan faqatgina bir mamlakatga – Rossiyaga yo`nalganligi bilan xarakterlidir. VMF ma`lumotlariga ko`ra, Rossiya imigratsiya ko`lamiga ko`ra, kattaligi jihatidan ikkinchi o`rinda turadi. Bu esa, Markaziy Osiyo mintaqasining deyarli barcha mamlakatlarini RF siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog`lab qo`yadi[147][110].

Mintaqadagi mamlakatlar migratsiya jarayonlarining ikkinchi muhim xususiyati migrantlardan olinayotgan moliyaviy tushumlardan ushbu davlatlarning bog`liqligi yuqori darajasidir. (Aynan MVFning ma`lumotlariga ko`ra, mintaqa mamlakatlariga migrantlar tomonidan yuborilayotgan pul jo`natmalari Tojikiston YAIMning 20-25%igacha, Qirg`izistonda 16%igacha tashkil etadi)[148][111] Bog`liklikning bunday darajasining o`ziyoq iqtisodiy xavfsizlikka bevosita tahdiddir. Rossiyada ishchi o`rinlarning so`nggi qisqartirilishi Qirg`iziston Respublikasi migratsiya va bandlik agentligi direktori A.Riskulovaning bejiz jiddiy tashvishga solmayapti, uning fikriga ko`ra, jahon iqtisodiy inqiroziga bog`liq holda migrantlardan pul tushumining kamayishi hozircha kuzatilmayapti. "Biroq migrantlardan keladigan tushumlar kamayishi mumkin, chunki inqiroz ish o`rinlarining qisqarishiga olib keladi, bu esa, ishsizlikning ko`paytirishi yoki xorijga pul topish uchun ketgan kishilarning maoshi kamayishiga olib kelishi mumkin. Bank jo`natmalari bo`yicha Qirg`izistonga migrantlar o`tkazayotgan pullar 800 milliondan ko`proq AQSH dollarini tashkil etadi, biroq shu ayolning so`zlariga ko`ra, agar ular pullarni qarindoshlari orqali yuborishni yoki ko`chmas mulk xarid qilayotganini hisobga oladigan bo`lsak, bu summa 1 milliard AQSH dollaridan oshib ketishi mumkin"[149][112]. Bundan nafaqat Qirg`iziston Respublikasining iqtisodiy, balki milliy xavfsizligiga ham jiddiy xatar bo`lishi mumkinligini, xususan, bu erda Qirg`izistonning tashqi qarzi sezilarli ekanini ham hisobga olish zarurligi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

Hozirgi sharoitlarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi migratsion oqimlar deyarli nazoratsiz yuz berayotganini hisobga olgan holda har qanday donor mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi kamayishi kuzatilishi mumkinligini tahmin qilish mumkin, chunki malakali mutaxassislarning ketib qolishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati va raqobatbardoshligi kamayishiga olib kelishi mumkin. Ayni vaqtda, har qanday mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini saqlab qolish uchun ishlab chiqarishning shunday darajasiga hamda raqobatbardoshlikni ta`minlay oladigan mahsulot samaradorligi va sifatini oshirishga hamda jahondagi savdoda, koopiratsion aloqalarda va ilmiy-texnik, texnologik yutuqlarda teng ishtirok etishga imkon beradigan darajaga chiqish talab etilmoqda. Bunga halal beruvchi omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

---

[146][109] Ablajey N.V. Emigratsiya iz Rossii (SSSR) v Kitay i reemigratsiya v pervoy polovine XX v. Avtoref. diss. d.i.n. Novosibirsk: SO RAN, 2008. S. 3.

[147][110] World Bank Publications. ESW CD/razdel Regionalni`e issledovaniya 2007 g. Na russkom yazi`ke.

[148][111] World Bank Publications _ ESW CD/razdel Regionalni`e issledovaniya 2007 g. Na russkom yazi`ke.

[149][112]URL bo`yicha:http:/www.24kg/community/2008/10/28/9605.html,28/10-2008. Migrantlardan keladigan pul summasi YAIM bo`yicha 2008 yil 1 oktyabriga 29,7%ni tashkil etgan – Muallif izohi.

Mehnat migratsiyasi sohasida qabul qiluvchi va yuboruvchi mamlakatlar qonunchiligining nomukammalligi. Mavjud qonunlarni amalga oshirishning aniq mexanizmi, ularni bajarilishi ustidan nazoratning mavjud emasligi.

Mehnat migrantlarining faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun huquqiy asos sifatidagi ta`sirchan ikki tomonlama bitimlarning mavjud emasligi.

Mehnat migrantlarini qabul qiluvchi mamlakatlarda undan foydalanish manfaatli bo`lganligi sababli noqonuniy ishchi kuchiga bo`lgan yuqori talab hamda ish beruvchi uchun xorijiy ishchi kuchini yollash tartibining murakkabligi.

Fuqarolarni xorijda qonuniy ishga joylashtirish bo`yicha Tojikistondagi xizmatlar va infratuzilmalarning rivojlanmaganligi.

Qog`ozbozlikning keng tarqalganligi.

Markaziy Osiyo hududi mamlakatlaridagi migratsiya darajasini yuqoriligi iqtisodiy asosi iqtisodiy taraqqiyot darajasi va turli mamlakatlardagi daromadlar darajasidagi farqdir. Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun (Qozog`iston bundan mustasno) Rossiya mehnat migrantlari uchun iqtisodiy, ijtimoiy, tarixiy va boshqa omillar tufayli eng maqbul mamlakatdir.

YUqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda, mamlakatdan chiqib ketayotgan ishchi kuchi oqimining iqtisodiy zarari o`ta katta, degan uzil-kesil xulosaga kelish mumkin. Migratsiya natijasida mintaqa mamlakatlarining eng malakali mehnat zahiralari qatlamlarining yo`qotilishi mlliy iqtisodiyotlarning uzoq muddatli jonlanish istiqbollariga putur etkazadi va ham ichki, ham xorijiy investitsiyalarning mehnat talab qiluvchi sohalarga kiritilishini kamaytirib yuboradi. Ular o`tmishda raqobatli afzalliklarga ega bo`lgan va Markaziy Osiyo davlatlarining milliy iqtisodiy tizimi uchun yo`l boshlovchi bo`lishi mumkin edi. Bu ham, iqtisodiy xavfsizlikning o`sishiga imkon bermaydi.

Mehnat migratsiyasining hozirgi kundagi jarayonlari, agar qisqa muddat nazaridan qaraladigan bo`lsa, iqtisodiyotga pul va mahsulot zahiralarining sezilarli darajada jamlanishi hamda mamlakat tashqarisida yaratiladigan so`ngra esa, mintaqa mamlakatlariga olib kelinadigan, import qilinadigan qadriyatlarga ta`sir ko`rsatadi.

2004 yil 17 avgustda Koreya Respublikasida sanoat tizimida o`qitish bilan bir qatorda xorijiy fuqarolarni ishga joylashtirishga ruxsat berish tizimi joriy qilingan. Ishga yollash faqatgina bu borada ikki tomonlama shartnoma tuzgan mamlakatlardagina amalga oshiriladi. Bunday mamlakatlar hozircha hammasi bo`lib oltita: Tayland, SHri-Lanka, V`etnam, Mo`g`uliston, Indoneziya va Fillipin[150[113]].

Ishga yuborish mamlakatlarini tanlash Koreya Respublikasi xorijiy ishchi kuchi strategiyasi bo`yicha qo`mita va mehnat vazirligi tomonidan amalga oshiriladi (mehnatga joylashish uchun ruxsat berish tizmiga yuboruvchi mamlakatlarni tanlash sanoat malaka oshirish tizimidan mustaqil tarzda o`tkaziladi). Ishchilarni tanlab olish va taklif qilish Koreya Respublikasi davlat muassasalari va yuboruvchi mamlakat tomonidan xususiy ishga jo`natish agentliklarining vositachiligisiz amalga oshiriladi.

Xulosa tarzida jaxon moliyaviy inkirozi natijasida kuplab mamalakat ish urinlari kiskartirilmokda. BMT taraqqiyot dasturining Yevropa va MDX mamalakatlari buyicha mintaqaviy byurosi markaziy Osiyo departamenti direktori global inkiroz dunyo buyicha 240mln. kishi ishidan ayrildi, 170mln. nafarda ortik kishi kashshok bulib koldi.

Jaxon tsivilizatsiyasining xozirgi rivojlanish boskichi ijtimoiy –iktisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar integratsiyalashuvi xamda globalashuvi bilan xarakterlanadi.

[150[113]]Kratkaya informatsiya o deyatelnosti agentstva po voprosam vneshney trudovoy migratsii (Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo`yicha agentlik faoliyati to`g`risida qisqa ma`lumot) // Ekonomicheskoe obozrenie, №2, 2006.

Zamondagi chegaralari va amalga oshish sur`atlari xam barcha mamlakatlar va millatlar uchun bir xil emas. U ayrim mamlakatlar xayotida tezrok, ayrimlarida esa sekinrok kechishi mumkin.

9-mavzu. Axloq va madaniyatning globallashuvi. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari

Reja:

1. Axloqiy munosabatlarning globallashuvi insoniyat evolyutsiyasining qonuniyati sifatida.
2. Shaxs axloqiy sifatlarining shakllanishi intellektning erkinligi bilan bog‘liqligi.
3. Madaniyatning globallashuvi yagona umuminsoniy madaniyat shakllanishi jarayoni sifatida.
4. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlarining Prezident asarlarida yoritilishi.
5. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etish masalalari.

XIX-XX asrlar davomida fan va madaniyat taraqqiyoti jihatidan Yevropa mintaqasi boshqalardan uzil-kesil ilgarilab ketdi va natijada “jahon fani”, “umuminsoniy qadriyatlar” deganda birinchi navbatda Yevropa madaniyati unsurlari tasavvur etila boshlandi. YAngi davrdagi bu mintaqaning yutuqlari ko‘p jihatdan madaniy integratsiya jarayonlari bilan bog‘liq. Bu davrda Yevropa xalqlari (inglizlar, nemislar, fransuzlar va h.k.) mintaqa miqyosidagi o‘zaro madaniy axborot almashinuv doirasidan chiqib, o‘zga mintaqalarda yaralgan boyliklarni o‘zlashtira boshladilar. SHarqshunoslik keng rivoj oldi. Turli fan sohalari sharqshunoslarning yutuqlaridan ijodiy foydalana boshladilar. Yevropaliklarning Osiyo va Afrika mamlakatlari va xalqlari hayotini o‘rganishi, bir tomondan, ularning olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirib, turli mintaqa xalqlarining bir-birlarini tushunish, o‘zaro erkin muloqot qilish imkoniyatlarini oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, muayyan g‘arazli kuchlar uchun o‘zlariga qaraganda iqtisodiy va harbiy jihatdan zaifroq bo‘lgan yurtlarni bosib olish, qaramlik asoratiga solishga bo‘lgan intilishlari yo‘lida xizmat qildi.

XX asr oxiri - XXI asr boshlariga kelib integratsiya jarayonlari yanada avj oldi, zamonaviy axborot texnologiyalarining bemisl rivoji va yagona jahon axborot maydonining shakllanishi bu jarayonning yangi bosqichga ko‘tarilishiga, Prezidentning yangi kitobida topib aytilganidek, *“sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi”*gaolib keldi. Siyosatga doir ilmiy adabiyotlarida bunday jarayon “globallashuv fenomeni” deb nomlanmoqda.

Bashariyat taraqqiyotidagi bunday o‘zgarishlarni uzil-kesil “yaxshi” yoki “yomon” deb, salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida baholab bo‘lmaydi. Kitobda yozilganidek,*“har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin.”*

Prezident kitobida globallashuv va integratsiya jarayonlarining talay ijobiy imkoniyatlari birma-bir sanab o‘tiladi. Ularni umumlashtirib aytiladigan bo‘lsa, birinchi navbatdaturli sohalarda(jumladan, iqtisod, siyosat, madaniyat sohalarida)*“davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi”*ga xizmat qilishi mumkin, va darhaqiqat, bunday hamkorlik munosabatlari kundan-kunga kengayib va rangbaranglashib borayotganini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib turibmiz.

SHu bilan birga dunyoda barcha odamlar ham ezgu niyatlar bilan ish olib boradi, deyish qiyin. Ba’zilar uchun bu hayotda vujudga kelgan har bir yangilik ularning o‘z g‘arazli maqsadlariga qulay bir vosita xizmatini bajarishi kerak. Jumladan, jahonda yagona axborot maydonining vujudga kelishi ham bunday buzg‘unchi kuchlar uchun “ayni muddao” bo‘ldi. Ular zudlik bilan bu qudratli vositani ham o‘z qabih niyatlari yo‘lida ishga solish harakatiga tushdilar. Vaziyatning murakkabligi

shundaki, bunday yovuz niyatli kuchlarning Vatani ham, millati ham, dinu imoni ham yo‘q. Ular goh “islomiy” qiyofada, goh *“erkinlik va demokratiyani olg‘a siljitish”*niqobi ostida harakat qilishlari mumkin.

Prezident I.A.Karimovning yangi kitobida insonlarning Borliq haqiqatiga munosabatidagi ikki xil yondoshuv, “**bir-birini inkor qiladigan ikki xil hayotiy qarash**” haqida gap boradi:

*“**Birinchisi – o‘z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf etkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo‘lishi haqida o‘ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar.***

Ikkinchisi – bunga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan yondoshuv, ya’ni, hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o‘zini qiynamasdan, faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi hoyu havasga, huzur-halovatga berilib, engil-elpi umr kechiradigan, o‘zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo‘lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari.

Mana shunday ikki xil dunyoqarash asosida paydo bo‘ladigan og‘ir savollar odamzot ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o‘ylantirib, qiynab keladi...”

SHu o‘rinda savol tug‘iladi: ***befarqlik, loqaydlik bilan yovuzlik orasidagi munosabat qanday?*** Tan olish kerakki, dunyoda son jihatidan olinsa, **mutlaq yovuz odamlar** juda kamchilikni tashkil qiladi. Ular aslida odam ham emas, sunami, to‘fon yoki zilzila kabi **“xudoning bir balosi”.** SHunday ekan, qanday qilib **juda ozchilik bo‘lgan bu toifa** ba’zan millionlab insonlar ustidan o‘z hukmini yurgiza boshlaydi? Ayni yuqorida aytilgan ***hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirishni oshiqcha ish deb biladigan, Alloh va bashariyat oldidagi o‘z burchini eslashni ham istamaydigan, faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi hoyu havasga berilib kun kechiradigan odamlarning befarq va loqaydligi tufayli*** bunday yovuz kuchlar o‘z makru hiylalarini bemalol amalga oshirishga muvaffaq bo‘ladilar. CHunki bunday kimsalar ko‘pincha o‘zlari sezmagan holda yovuzlik kuchlariga xizmat qiluvchi dahshatli qurolga aylanib qoladilar. SHu sababli Prezidentning yangi kitobida ***befarqlik va loqaydlik*** asl insoniylikka zid turuvchi qusur sifatida qattiq qoralanadi.

Aytilganlarga eng yorqin misol sifatida bugungi kunda butun dunyodagi fikrlovchi insonlarni borgan sari qattiqroq tashvishga solayotgan **“ommaviy madaniyat”** hodisasining kelib chiqishiga e’tibor qarataylik. Bu hodisa bugun butun dunyoga ko‘proq Yevropa va SHimoliy Amerikaning rivojlangan mamlakatlaridan tarqalayotganini hisobga olib, ushbu mintaqalardagi hozirgi ma’naviy-axloqiy muhitning shakllanish tarixiga qisqa (eng umumiy bir tarzda) to‘xtab o‘tish kerak bo‘ladi.

Ma’lumki, shu kungacha jahon ilmida “ma’naviyat” hodisasi yaxlit tushuncha sifatida izchil ilmiy tahlilga tortilmadi. Bu sohaga oid mavjud izlanishlar boshqacha tushunchalar va tizimlar doirasida kechdi. Xususan, Yevropada inson ma’naviyatiga oid bahslar falsafa va uning tarkibiy qismi hisoblangan axloqshunoslik ilmi doirasida rivojlandi. Inson axloqi aslida zohiriy, aniqrog‘i, ikkilamchi hodisa bo‘lib, shaxs ma’naviyatining insonlar aro munosabatlarda namoyon bo‘lishidir. Uning botinida ma’naviy omillar yotgani tufayli faylasuflar asosan axloqning botiniy omillariga e’tibor qaratganlar. Agar bu sohadagi Yevropa an’anasini umumiy bir tarzda ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, axloqshunoslik ilmi ko‘proq **insonning iroda erkinligi, aql va bilim, baxt va lazzatlanishga intilish, manfaatdorlik** kabi masalalarga e’tibor qaratganligini ko‘ramiz. Aksariyat holatlarda **mas’uliyat** va **burch**masalalari ham inobatga olinadi. Axloqning **imon**ga bog‘liq jihatlari xristian axloqida alohida ta’kid etilsa-da, YAngi davrda bu masala ko‘pincha aktuallashmaydi. Umuman, **insonning dunyoviy maqsadlariga alohida e’tibor qaratilishi** Yevropa axloq ilmining ustivor jihati deyish mumkin.

Insonning iroda erkinligiga e’tibor masalasida Yevropa faylasuflari SHarqqa nisbatan ancha ilgari ketganliklarini e’tirof etish lozim. Islom mintaqa madaniyatining ilk shakllanish davrida ushbu masala atrofida ancha qizg‘in bahslar bo‘lib o‘tgani tarixdan ma’lum. Jabariylar va qadariylar orasidagi munozaralar, mo‘‘tazila kalomida bu muammoga ayricha e’tibor axiyri borib Imom Abu Mansur Moturidiy ta’limotida uzil-kesil hal qilingach, keyinchalik bu muammoga ko‘p ham e’tibor qaratilmadi. Vaholanki, imom Moturidiy va izdoshlari o‘z davridagi turli bid’atlar bilan mubohasa jarayonida ko‘proq Alloh qudrati va irodasining mutlaqligini ta’kidlashga urg‘u berish bilan band bo‘lishib,insonning iroda erkinligi masalasida **ixtiyor, kasb** va **fe’l** tushunchalarini sharhlash bilan chegaralangan edilar. YAngi davr Yevropa axloq ilmida **insonning iroda erkinligi** masalasi deyarli doimo faylasuflar diqqat markazida bo‘ldi. Ayniqsa, nemis mumtoz falsafasining asoschisi **Immanuil Kant**ning g‘ayb olami (“Ding an sich”), “nazariy aql” va “amaliy aql”, insoniy bilim chegaralari haqidagi qarashlari, shu asosda **iroda erkinligi** va **mas’uliyat (burch)** nisbatiga alohida e’tibori diqqatga sazovordir. Kantning fikriga ko‘ra, inson shaxs sifatida **erkin iroda egasi** bo‘lib, o‘z hayotiy maqsadlarini o‘zi erkin belgilaydi. SHu bilan birga bani basharning har bir a’zosi o‘zgalar erkini cheklovchi harqanday xatti-harakatdan o‘zini tiyishi kerak. Bunday **oliy mas’uliyat**ni faylasuf **“qat’iy qoida”** *(“kategoricheskiy imperativ”)* deb nomlaydi.

Immanuil Kantning falsafasi inson ruhining abadiyligi va yagona oliy ilohiy qudratning mavjudligini bevosita axloq bilan bog‘lab izohlagan bo‘lsa, keyingi asrlar Yevropa falsafasi rivojida yana umumbashariy meyorlardan uzoqlashuv kuchayib bordi. YAngi Davr Yevropa ilmida axloqni o‘rganuvchi aksariyat yo‘nalishlar moddiyunchilik asosiga qurilib, **axloqiy meyorlar**ningshakllanishinifaqat insonning moddiy (dunyoviy) ehtiyojlaridan keltirib chiqarishga urindilar. Ularga ko‘ra axloqning negizida baxtli bo‘lishga intilish, lazzatlanishga intilish, manfaatdorlik, sharoitga moslashish kabi sof dunyoviy maqsadlar nazarda tutiladi. Milliy ma’naviyatimiz an’analarida shaxs ma’naviyatining asosiy jihatlari – imon, ilm, mas’uliyat, mehrning o‘zaro uyg‘unligi masalasi ustivor yo‘nalish ekanligi ma’lum. Muayyan tarixiy sabablarga ko‘ra Yevropa axloq ilmida ayni shu o‘zaro mutanosiblikka etarli e’tibor qaratilmadi. Natijada, bugungi kunga kelib, ushbu mintaqada ma’naviy-axloqiy sohada juda og‘ir muammolar kelib chiqmoqda.

Bizning nazarimizda, axloqning ikki jihati bor, birinchisi – **zohiriy** (tashqi) tomoni bo‘lib, insonlar aro munosabatlarda o‘rtacha mo‘‘tadil meyorni saqlab turishga xizmat qiladi va u sharoitga moslashib o‘zgarib turishi mumkin. Ikkinchisi – **botiniy** (ichki), ya’ni **shaxs ma’naviyati** bilan bog‘langan tomoni bo‘lib, bu jihat endi tashqi shart-sharoitga emas, balki shaxsning imon-e’tiqodiga bog‘liq bo‘ladi. Agar bunday inson sharoit taqozosi bilan imon-e’tiqodiga zid xatti-harakat qilishga majbur bo‘lsa, unda vijdon azobiga uchraydi. Demak, “vijdon azobi” hodisasi zohiriy axloq talablari bilan shaxs imoni orasida ziddiyat mavjud bo‘lgan holatlarda paydo bo‘ladi. Materialistik (aniqrog‘i, dahriyona) dunyoqarashga asoslangan axloqiy ta’limotlarda odatan zohiriy tomonga e’tibor qaratiladi va imon hisobga olinmaydi. Axloqni ijtimoiy muhit bilan yoki insonning fiziologik (biologik) ehtiyojlari bog‘lab izohlashga urinish ana shunday qarashlar natijasida tug‘iladi. Vaholanki, na ijtimoiy muhitning, na fiziologik ehtiyojlarning axloqqa bevosita aloqasi yo‘q.

SHaxs axloqining zohiriy jihati – **jamiyatdagi mavjud axloqiy meyorlarga bo‘ysunish, rioya qilish** bilan ifodalanadi. **Jamiyatning axloqiy meyorlari** esa mohiyatan ma’naviyatga emas, balki siyosat sohasiga taalluqli bo‘lib, jamiyatdagi umumiy osoyishtalik va barqaror vaziyatni ta’minlashga qaratilgandir. Aslida ular meyoriy (yozilmagan) qonun-qoidalar shaklida bo‘lib, siyosatdagi axloq qatlamining yuza qismini tashkil etadi. Bizning mintaqada

mukammal ishlangan shaxs axloqining botiniy asoslari, o‘z navbatida, uning ma’naviyati va tabiati (xulqi) orasidagi munosabatlari zaminiga qurilgan bo‘lib, imon-e’tiqod masalasi bu o‘rinda etakchi ahamiyatga egadir.

Jahon axloq ilmining falsafiy ildizlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda ham ikki xil yondoshuvni kuzatish mumkin.**Biri** – inson faqat moddiylikdan iborat, uning hayoti (borlig‘i) faqat tug‘ilgandan jisman o‘lgungacha davom etadi, o‘lgach, jasad tuproqqa qorishib ketadi, “ruh” degani ruhiyat (psixika) bo‘lib, insonning moddiy vujudi tirikligi paytidagina asab tolalarining yashash tarzi sifatida mavjud bo‘lib, inson jismi halok bo‘lgach, o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketadi, degan materialistik e’tiqod. Bu e’tiqodga ko‘ra, inson hayvondan faqat moddiy a’zo – bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ining funksiyasi bo‘lmish **aqlning rivojlanish darajasiga ko‘ra** farqlanadi, ya’ni inson va boshqa biologik mavjudotlar orasidagi farq aslida miqdoriydir, sifatiy emas. Tabiiyki, miya o‘lgach, uning funksiyasi ham yo‘q bo‘ladi. Bundan shunday xulosa chiqadi: demak inson o‘z xatti-harakati uchun bu dunyoda, tiriklik davrida, jamiyat, ya’ni o‘zga insonlar oldida javob beradi, xalos. Bunda u boshqalar ko‘zi tushgan amali uchungina javob beradi, uning ko‘ngli, niyatlari boshqalar ko‘zidan yashirin, nimani o‘ylasa, o‘zi biladi, o‘zgaga daxli yo‘q, xatto boshqalar nigohidan pinhona qilgan ayb ishlari ham agar birov bilmasa, unga zarar keltirmaydi (mabodo birov bilib qolsa, o‘sha guvohni “sotib olish” yoki “gumdon qilish” imkoni ham yo‘q emas), siyosatda esa kim g‘olib chiqsa, o‘sha haq degan yozilmagan “qonun” mavjud. Qisqasi, ruslardagi “ne poyman – ne vor” qoidasi asosida yashayverasan, har qancha jinoyatlar qilma, kimdir ularni fosh qilmasa (yoki muayyan sabablarga ko‘ra fosh qila olmasa), umring oxirigacha rohat-farog‘atda yashab o‘ta berasan. Qani bu erda “vijdon” degan tushunchaning o‘rni?

Bunday dunyoqarash sohiblarining axloqi faqat zohiriy bo‘lib, **jamiyatdagi mavjud axloqiy meyorlarga rasman rioya qilish** bilan cheklanadi. Yevropa axloqshunosligidagi gedonizm, evdemonizm, utilitarizm, relyativizm axloqiy prinsiplari ayni shunday moddiyunchilik asosiga qurilgan bo‘lib, bunday qarashlarga ko‘ra axloqning negizida baxtli bo‘lishga intilish (albatta, bu dunyoda, chunki oxiratda inson o‘z erki bilan taqdirini o‘zgartira olmaydi), lazzatlanishga intilish (bu lazzat xoh shahvoniy bo‘lsin, xoh intellektual), manfaatdorlik, sharoitga moslashish kabi sof dunyoviy maqsadlar nazarda tutiladi.

Ikkinchi yondoshuv – inson moddiy mavjudot, ammo undagi ruh abadiy, bu dunyo hayoti inson uchun sinov maydoni bo‘lib, uning har bir qadami o‘lchovli, u har bir xatti-harakati, amali uchun Oliy qudrat oldida javob beradi, agar savobli ish qilsa, ham bu dunyoda, ham oxiratda mukofotini oladi, agar gunoh qilsa, yoki bu dunyoda, yoki oxiratda jazosini oladi, deb e’tiqod qilish. YA’ni Borliqning asosi moddiylikdangina iborat emas, balki bu olamni yaratgan va boshqarib turgan azaliy va abadiy Oliy qudrat mavjud, deb ishonish, shunga imon keltirish. Imon keltirish bilan ushbu Oliy qudrat oldida **mas’uliyat tuyg‘usi** paydo bo‘ladi. Ana shu asosda shakllangan axloq **haqiqiy axloq** bo‘ladi. “Axloq – ma’naviyatning o‘zagi” degan ta’rifda ayni shu jihat inobatga olinadi.

SHaxsning xulqi uning ma’naviyati ta’sirida takomillashib (ya’ni tabiiy xislatlari qusurdan fazilatga aylanib) borgan sari uning axloqi **zamima axloq**dan (insonni xudbinlik sari tortuvchi tarbiya ko‘rmagan xulqdan)**hamida axloq**qa (ma’naviy kamolot natijasida go‘zallashgan xulqqa) aylanib boraveradi. **Nafs tarbiyasi** – ma’naviy kamolot yo‘li bo‘lib, axloqi hamidaning shakllanish yo‘li hamdir. Ammo ma’naviyat faqat nafs tarbiyasidan iborat emas. Ma’naviyat **imon**dan boshlanadi, **ilm** bilan mukammallashadi, **tahliliy imon** orqali inson nafs tarbiyasi(samovospitanie)ga o‘tadi va oxiri **mehr ma’rifati** orqali ma’naviy kamolotga erishadi. “Axloq – ma’naviyatning o‘zagi ” degan hikmatning mazmuni shundaki, insonning ma’naviy kamolot darajasi uning axloqida eng yorqin shaklda namoyon bo‘ladi. Agar inson faqat taqlidiy

imon darajasida qolgan bo‘lsa, u Allohning borligi va birligini tan olgan bo‘ladi, buyurilgan farzlarni baqadri imkon bajarishga urinadi, ammo axloqi hamida sohibi bo‘lmaydi.

YUqoridagi mulohazalar I.A.Karimov kitobida bir jumlada bayon etilgan: *“G‘arb olamida esa odamlarning hayot tarzida jamoaviylikdan ko‘ra individualizm, shaxsiy manfaat tamoyillari ustunlik qilishini kuzatish mumkin. Bu ham muayyan, ob’ektiv ijtimoiy-tarixiy omillar tufayli shakllangan voqelik bo‘lib, uni ham inkor etib bo‘lmaydi”.*

YAngi davr Yevropa axloq ilmidagi asosiy kamchilik xristian dinidagi yanglishuvlar bilan bog‘liq, bu yanglishuvlar esa Allohning so‘ziga (ya’ni muqaddas kitob bo‘lmish asl Injil matniga) bandalarning so‘zlari aralashib ketganligi sababli yuzaga kelgandir[1]. Milodiy I-III asrlarda yashagan ilk xristianlar o‘z tarixiy sharoitlaridan va o‘sha davr tafakkur darajasidan kelib chiqib, Iso(a.s.)ning risolatlari va da’vatlari mohiyatini o‘zlaricha talqin etishlari, IV asrga kelib xristian dini rasmiy maqomga erishgach, xristian ulamolarining katta yig‘inlarida qabul qilingan mohiyatan xato aqidalarning muqaddaslashtirilishi natijasida bu sohada tuzatish mushkul bo‘lgan chalkashliklar vujudga keldi. Bu chalkashliklar zaminida shakllangan “cherkov otalari”ning ta’limoti keyingi ming yil davomida butun mintaqada odamlar ongi-shuurida hukmronlik qildi. Bora-bora bu xato qarashlar xristian dinining mohiyati darajasida qabul qilinadigan bo‘ldi. O‘z vaqtida islomning yoyilishiga hukmron cherkov doiralari butun qudrati bilan qarshilik qildi (salb yurishlarini eslaylik). YAngi davrga kelib ilm-fanning rivoji yanglish diniy qarashlar bilan borgan sari ziddiyatga kirishib, ilg‘or fikr egalari ongida dahriylik tamoyillari kuchayib bordi. Afsus bilan qayd etish kerakki, bu masalada islom dunyosi ulamolari ham mohiyatga chuqur kirib borib, Yevropadagi yangicha tamoyillarni diqqat bilan kuzatish yo‘lidan bormadilar, qaytaga XV asrdan keyin musulmon olami tafakkurida turg‘unlik, kibrlanish va yalqovlanish kuchaydi, IX-X asrlarning o‘ziga xos sharoitida shakllangan ahli sunna va jamoa aqidalarini tanqidiy qayta ko‘zdan kechirish hech kimning xayoliga kelmadi. Eng asosiysi, bu erda ham Alloh kalomi va bandalarning talqinlari orasidagi sifatiy farqqa e’tibor kamaydi. Natijada, YAngi davr Yevropa tadqiqotchilari tabiiy va aniq fanlar taraqqiyotiga mahliyo bo‘lib, ma’naviyat sohasida borgan sari imondan uzoqlashib, chalkash nazariyalar girdobiga tortilib ketayotganliklarini sezmay qoldilar. Bu e’tiborsizlik va chalkashliklarning og‘ir asoratlari bugungi kunga kelib endi butun zalvori bilan insoniyat kelajagiga jiddiy xavf sola boshladi.

Qisqasi, Yevropa xalqlari ijtimoiy va madaniy sohalarda o‘z tarixiy tajribalaridan kelib chiqib, o‘z ajdodlari qoldirgan merosga mos holda, ilmiy andoza va o‘lchovlar yaratganlar, ta’rif va tizimlar shakllantirganlar. Biz ulardan kamchilik topishga yoki qoralashga balki haqqimiz yo‘qdir. Ammo o‘zbekning milliy tafakkuri oxirgi 70 yilda shakllangan deb bo‘lmaganidek, bugun endi ma’naviy-axloqiy sohalarda ilmiy mulohazalar yuritish uchun ongimizga kechagi zo‘raki joylashtirilgan sun’iy qoliplardan o‘ylamay-netmay foydalanishga urinishimiz ham o‘rinli emas.

“Ommaviy madaniyat” hodisasi asosida birnecha omillarning chatishuvi yotadi. Ulardan **birinchisi - imonsizlik**, o‘z insoniy burchi va mas’uliyatini tan olishni istamaslik, befarqlik va loqaydlik. **Ikkinchisi** - sanab o‘tilgan qusurlarni oqlashga xizmat qiluvchi **“dunyoni manfaat boshqaradi” (**demak, bu dunyoda har kim o‘z foydasi uchun qo‘lidan kelgan harakatini qilsa, bo‘laveradi, degan) dahriyona (aniqrog‘i, xudbinona) tezis (“qoida”) asosida yashash. Bu ikki omil azaldan bo‘lgan. **Uchinchisi** – oldingilaridan kelib chiqadigan **axloqiy relyativizm,** ya’nidunyodaazaliy va abadiy qat’iy axloqiy meyorlar mavjud emas, ko‘pchilik o‘zini qanday tutayotgan bo‘lsa, biz ham shunga qarab ketaveramiz, degan o‘ysizlik, **fikriy dangasalik** tamoyili. Va nihoyat **to‘rtinchisi** - bugungi axborot vositalarining cheksiz imkoniyatlari sharoitida yuqoridagi Prezident ta’rifiga muvofiq, **befarqlik va o‘ysizlik botqog‘iga botgan kimsalarning** dunyoni boshqarishga intilayotgan kichik bir guruh qo‘lida qo‘g‘irchoqqa

aylanib, **o‘zlarining eng tuban hayvoniy xohish va istaklarini ochiqdan-ochiq namoyon qilishni “umuminsoniy axloqiy meyorlar” darajasiga ko‘tarishga urinishlaridir**. Bunday holatlar Yevropa mintaqasi tarixida ilgari ham bo‘lgan, ammo hech qachon bu daraja jahon miqyosida keng ko‘lam kasb etmagan va bu darajada kuchli targ‘ibot imkoniyatlariga ega bo‘lmagan edi. Prezident kitobida bu haqda shunday deyiladi: *“SHuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin.”*

Axloq, bu – ezgulik va yomonlikni ajrata oluvchi mezon hisoblanadi. Inson qalbining asosiy vazifalaridan biri hayot va umumbashariy axloqiy qarashlarni shakllantiruvchi bvrometrdir. CHunki alohida inson axloqi umuminsoniy ong va uning aksiomalari asosida shakllanadi. SHuning uchun inson axloqi axloqiy tartib va butun dunyodagi axloq o`rtasidagi ko`prik hisoblanadi. Barcha axloqiy harakatlarning yagona maqsadi – insonga ezgulik yo`lini ko`rsatishdir. Agar axloqiy tubanlashsa, inson erkinlikdan yiroqlashadi. Bizning nazarimizda, axloqqa rostlik, sotilmaslik, to`g`rilik va qalbning axloqiy darajasidagi aniqlik xosdir. Ammo inson tabiati gumrohlikka moyil bo`lib, bu sifatlarni to`laligicha qabul qila olmaydi. Ishonch bilan tasdiqlanib turadigan, muhabbat bilan oziqlantiriladigan axloq sof, ezgulikka, poklikka evrila boradi[151][114].

Inson xatti-harakatlarining sifati axloqiy darajasini ko`rsatadi. Axloq qo`rquv orqali bilinadi. Axloqni saqlashning o`zi katta qadriyatdir, vijdonni, soflikni ziyoniz, manfaatsizlikdir. Inson ongli ravishda tanlagan yo`li orqali boradi, ichki niyatlarni baholash qobiliyatini o`zlashtirib, chunki aynan u qaror qabul qilish asosida yotadi. Axloqsizlik, g`azab, boylikka o`chlik, hasad, shuhratparastlik, g`urur bilan bir qatorda baholanadi. Va buning teskarisi bo`lgan axloq esa insonning shohona kuchi va qobiliyatidir. O`z davrida Epikur “YOqimli yashash aqlli yashashsiz bo`lmaydi, axloqiy va adolatli hayot, va teskarisi, aqlli yashash mumkin emas, axloqiy va adolatli, yoqimli yashashsiz”[152][115] degan edi.

O`zining “Axloqi Kabir” ya`ni “Katta axloq kitobi” asarida Arastu axloqning mazmun-mohiyati haqida quyidagilarni yozadi: “Gapning lo`ndasini aytsak, axloq siyosatning tarkibiy qismidir. CHindan ham muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo`lmagan, ya`ni munosib bo`lmagan odam (taniqli jamoat arbobi sifatida) faoliyat ko`rsatishi mumkin emas. Munosib odam bo`lmoq – fazilatlar egasi – fozil bo`lmoq, demakdir”[153][116]. Bu fikrlardan ma`lum bo`ladiki, axloq o`zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g`urur, tarixiy xotira, ma`naviy barkamollik kabi tuyg`u va tushunchalar bilan uzviy bog`liq holda shakllanadi. CHunki, axloq aynan ana shu ruhiy-ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy bir bo`lagiga aylanadi. Ayni shu ma`noda, Arastu “Axloqiy fazilat lazzatlanish va azoblarda aks etadi: zero lazzatlanish uchun yomonlik qilsak, unda azoblanmaslik uchun go`zal ishlardan bosh tortamiz”[154][117], - deb yozadi.

Arastudan keyin SHarqda Forobiychalik ulkan zot maydonga chiqmagan. Forobiy o`z bilimi, ma`naviyati, fikr doirasining kengligi bilan SHarqda katta shuhrat qozongan va unga Arastudan keyingi yirik mutafakkir – “muallim as-soniy” – “ikkinchi muallim” degan unvon berilgan. Forobiy “Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob”, “Siyosat al-madaniya” (“SHaharlar ustidan siyosat yurgizish”) va boshqa asarlarida axloqiy fazilatlar haqida o`z fikr-mulohazalarini bayon qilgan. Jumladan, baxt-saodat tushunchasi haqida fikr yuritib, u “faol aqlga eng yaqin turgan

[151][114]Qarang:Geffding G.Etika, ili nauka o nravstvennosti:Izlojenie eticheskix printsipov i ix primenenie k razlichnim jiteyskim otnosheniyam. – M.: Izd.3 Izdatelstvo LKI, 2012. 400 s.
[152][115]Qarang: Axelis T. Etika. Istoriya etiki i kritika ee sistem. YAvleniya nravstvennosti. Printsipi` nravstvennosti. Etika Librokom 2011.112 s.
[153][116]Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – T.: YAngi asr avlodi, 2011. – 130 b.
[154][117]Qarang: Axelis T. Etika. Istoriya etiki i kritika ee sistem. YAvleniya nravstvennosti. Printsipi` nravstvennosti. Etika Librokom 2011. - 112 s.

narsadir", va: "uning ma`no-mohiyati faol aql bilan qo`shiluvida yashiringandir" - deb ta`kidlaydi. SHuning barobarida Forobiy baxt-saodat fazilatga tashqaridan yopishtirilgan yoki yuklangan amal bo`lmasdan, balki uning o`z jinsidan va zotning umumiyligidan chiqqan sifatiy holati ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Zero, baxt – insonning o`z ichki borligidan qoniqish hissi, hayotdan zavqlanishi va insoniyligidan mamnun bo`lishdir[155][118]. Bundan ko`rinadiki, inson o`zini qanchalik o`rgansa, idrok qilsa, shunchalik axloqan poklanib boradi. Darhaqiqat, axloqiylik bilan uzviy bo`lmagan bilim qancha kuchli bo`lsa, shuncha zararlidir. CHunki axloqsiz inson o`z bilimidan boshqalar va jamiyat zarariga foydalanishi mumkin va bu zarar bilimsiz kishinikidan ko`p marta ortiq bo`ladi. Buni eng kamida oddiy kissavur o`g`ri bilan komp`yuterni yaxshi bilish orqali bankni o`maradigan odamning jinoyatlari darajalari orasidagi farq misolida ko`rish mumkin. Mashhur yunon donishmandi Arastu aytganiday, "Kimki bilimda ilgarilab, axloqda oqsaydigan bo`lsa, bilingki u oldinga emas katta tezlik bilan tubanlik sari ketipti"[156][119]. Axloqning bu yuksak vazifasi nemis klassik falsafasining taniqli namoyandasi I.Kant oldinga surgan "kategorial imperativ" g`oyasida o`z ifodasini topgan edi. Dinlarda esa bu imperativ g`oya hurofiy qarashlarda aks etadi.

Axloqiy fazilatlarni tarbiyalash barcha fazilatlarning sarchashmasidir. Axloqning amaliy ko`rinishi axloqiy madaniyat hisoblanadi. Axloqiy madaniyat shaxsning olamga, voqea va hodisalarga, o`zgalarga va ularning faoliyatiga, o`z umri va uning mazmun-mohiyati kabi ko`pdan-ko`p tushunchalarga munosabati bo`lib, ularni anglashi, tushunishi va qadrlashi oqibatida o`z faolligini oshirishga e`tibor sifatida qarash nazariy jihatdan uning mazmun-mohiyatini yanada rivojlantirib boyitib borishda muhim ahamiyatga egadir. SHuning uchun, axloqiy madaniyat va shaxs faolligini mustaqillik bergan imkoniyat va sharoitlarni e`tiborga olib, o`rganib chiqish kelajagi buyuk davlatning etuk insonlarini tarbiyalashda alohida o`rin tutadi.

TSivilizatsiyaning axloqiy mezonlari tegishli ijtimoiy munosabatlar bilan bog`liq ekani ta`kidlanadi. Ijtimoiy munosabatlarning o`zgarishi dunyoqarash printsiplari ham, u bilan bog`liq axloqiy mezonlarning o`zgarishiga olib keladi deb uqtiriladi. Masalan, tsivilizatsiya shakllanishining ilk davrlarida ruhoniylardan tashkil topgan ierarxiya qatlamidan, ehromlar, muqaddas davlatchilik urflari, jamiyatni bu dunyodan, tabiatdan yuqori turuvchi olam tomonidan boshqarilishi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan tashkillanish strukturalari intizomi kabilar. TSivilizatsiyaning keyingi yuqoriroq bosqichlarida esa ma`lumotli yuqori qatlam tomonidan maxsus tartibga solingan axloqiy meyorlar ishlab chiqiladi. Jamiyat strukturasida sodir bo`lgan yangi o`zgarishlar natijastda yangi axloqiy qadriyatlar yaratiladi.

"Madaniyat"[157][120] tushunchasining SHarq va G`arbdagi talqinlariga kirishar ekanmiz, avvalo madaniyatshunoslikka bag`ishlangan maxsus ishlarda lotincha lug`aviy ma`nosi "ishlov berish"ni anglatuvchi bu tushunchaning 1000 ga yaqin ta`rifi mavjudligini ta`kiblab o`tishimiz joiz. Ushbu talqinlar labirintida adashib qolmaslik uchun esa avvalo ularning birqancha tiplari mavjudligiga e`tibor berish kerak. Ular quyidagicha:

1. Tavsifiy talqin. Ushbu talqinda madaniyat tushunchasi inson faoliyatining barcha xillarini, ularning turli namunalarini o`z ichiga oladi: turli tillar, kitoblar, tasviriy san`at asarlari, urf-odatlar, dinlar.

2. Tarixiy talqin. Bu talqinda madaniyat deyilganda insoniyat tomonidan yaratilgan barcha narsa va hodisalar, ya`ni sun`iy tabiat nazarda tutiladi.

3. Normativ talqin. Bunda madaniyat qadriyatlar majmuasidan iborat bo`ladi.

---

[155][118] Abulla SHer. Axloqshunoslik. O`quv qo`llanma . – T.: YAngi asr avlodi, 2003. – 208-214 b.

[156][119] Qarang: Iodl F. Istoriya etiki v novoy filosofii: Kant i etika v devyatnadtsatom stoletii. Per. s nem. Librokom 2011. 528 s.

[157][120] Biz bu erda moddiy madaniyat haqida emas, ma`naviy madaniyat haqida fikr yuritamiz. Zero moddiy madaniyat ma`naviy madaniyatning maxsuli bo`lgani uchun va , qolaversa, u ma`naviy madaniyatning konkretlashgan, ayrimlikdagi ifodasi bo`lgani uchun, bizning tahlilimizda shu ma`naviy asosini tahlil etish etarlidir.

4. Mafkuraviy talqin. Bunda madaniyat avloddan avlodga o`tib keladigan g`oyalar oqimini tashkil etadi.

Va ho kazo.

Madaniyat talqinlarining bunchalar ko`pligi ushbu hodisaning juda murakkabligini bildiradi. YUqoridagi talqinlar tipologiyasida shu murakkab hodisaning muayyan biron tomoni oldinga surilgan, umumiy va yagona talqin esa yo`q. Falsafaning vazifasi shu talqinlar orasidan eng umumiy va to`g`risini ajratib ko`rsatishdan iborat. Lekin, yuqorida ko`rganimizday, hozirgi davr falsafasining krizis xolatida ekani uning bu vazifasiga tayanish qiyinligini ko`rsatadi. SHunga qaramay, bu borada falsafiy tafakkurda oldinga surilayotgan asosiy g`oyalarni iloji boricha chuqurroq tahrir etib, ular orasidan o`z yondoshuvimizni ajratib olishga harakat qilish joiz va zarur.

Avvalo, Rossiyada nashr etilgan "Eng yangi falsafiy lug`at"da berilgan ta`rifga to`xtalamiz. "Madaniyat, - deyiladi unda, - ijtimoiy hayotning barcha asosiy tomonlarini qayta ishlash va o`zgartirish uchun sharoit bo`lib xizmat qiladigan, biologiyaviy jarayonlardan yuqori bo`lgan, tarixan rivojlanib boradigan insoniy faoliyat va aloqalarning dasturiy tizimidir. Madaniyat binosini (korpusini) tashkil etadigan faoliyat, xatti-harakat va aloqa dasturlari turli xildagi shakllar rang-barangligida namoyon bo`ladi: bilim, ko`nikmalar, norma va ideallar, faoliyat va xatti harakat namunalari, g`oyalar va farazlar, ishonch va e`tiqod shakllari, ijtimoiy maqsad va mo`ljallar va h.k. SHularning hammasi birgalikda va o`zgaruvchanlikda tarixan to`plab (jamlab) boriladigan ijtimoiy tajribani tashkil etadi. Madaniyat faoliyat, xatti-xarakat va odamlar orasidagi aloqalar dasturlarini o`ziga jo etadi, ularni avloddan avlodga uzatadi (translyatsiya qiladi) va yangilab turadi ". [158[121]]

Ushbu ta`rifning asosiy kamchiligi, bizningcha, avvalo uning juda murakkabligi, mavhumligi, nokonkretligidadir va cheklanganidadir. Zero, unda madaniyatning ijtimoiy hodisa sifatidagi barcha ikir-chikirlari sanab o`tilgan esada (ta`rifni murakkablashtirgan jihat), uning eng muhim, **zaruriy** belgisi (xarakteristikasi) - inson faoliyatini va xatti-harakatlarini **yo`naltiruvchi vazifasi** mutlaqo nazardan soqit qilingan. Madaniyatga ayni shunday, cheklangan yondoshuv aslida, nafaqat sobiq sovet madaniyatining, balki butun hozirgi davr G`arb madaniyatining krizisi asosida yotgan asosiy faktordir.

Zero, bu qarash ayni G`arb dunyoqarashida shu kungacha madaniyatga XU11- XU111 asr marifatparvarlik davrida shakllangan shaxs va jamiyatning **tabiat ustidan hukmronlik** qilish ko`rsatkichi sifatida qarashning natijasidir. Tabiat ustidan hukmronlik qilish imkonini beradigan asosiy vosita esa shu kungacha fan va texnika bo`lib keldi. SHuning uchun ham madaniyatni G`arbcha tushunish mazmunida vijdon, haqiqat, ezgulik, mehr-oqibat, hamdardlik, fidoyilik, muhabbat, ruhiyat(ma`naviyat) kabi sof sharqona qadriyatlarga o`rin yo`q. Ular asosan dinga va o`tmish madaniyatiga ko`proq xos tushunchalarga aylangan. SHuning uchun G`arbda ma`naviy madaniyat deyilganda asosan intellektuallik, texnika va texnologiya bilan qurollanganlik nazarda tutiladi. SHundan kelib chiqib, odatda hozirgi davrda G`arbda ko`pchilik kishilar o`zlarini SHarq kishilaridan ancha madaniyatli hisoblashadi. Vaholanki, G`arbda ham ilgari madaniyatga ayni SHarqniki kabi qarash mavjud bo`lgan va shu qarashlarni saqlash va himoyalashga intilishlar hozir ham mavjud. Lekin, ilmiy dunyoqarash, fan texnika taraqqiyotining keyingi davrlari mobaynida bunday yondoshuv tobora cheklanib bordi.

SHuningdek, postsovet Rossiyasida ham endilikda madaniyatga G`arbnikidan mutlaqo boshqacha yondoshuv mavjudligi diqqaga sazovor. Masalan, V.Porus madaniyatga quyidagicha ta`rif beradi. "Madaniyat - deydi U,- inson xulqu atvori, ijodi, har qanday faoliyatining bosh qoidalariga (printsiplariga) aylangan o`zini-o`zi ichdan (ruhiy, ma`naviy) tiyib (jilovlab) turishning poydevoriy tizimidir. Madaniyatli inson shunchaki qizil gap uchun emas, balki jiddiy ravishda

[158[121]] Mojeyko M.A. Kultura // Noveyshiy filosofskiy slovar: 3-e izd., ispravl. - M.: Knijni`y Dom. 2003.— 1280 s.

“Men hech qachon, hech qanday sharoitda bunday (yomon, noto`g`ri) ish qila olmayman. CHunki, agar shunday ish qilsam, men odam bo`lmayman” deb ayta oladigan insondir.””[159][122] (Bu erda va ishimizning butun keyingi mazmunida “madaniyat” deyilganida asosan ma`naviy madaniyatni nazarda tutamiz.)

Bu erdagi “Men hech qachon, hech qanday sharoitda bunday (yomon, noto`g`ri) ish qila olmayman. CHunki, agar shunday ish qilsam, men odam bo`lmayman” degan ibora SHarq ma`naviyatidagi “vijdon” tushunchasiga (rus tilida esa “sovest`”ga ) to`g`ri keladi. Nemis mumtoz faylasufi I.Kant ta`limotida esa bu tushunchalar o`rniga “kategorial imperativ” degan maxsus atama ishlatilgan. Bu atama islom diniy falsafasida “shariat”, xristian diniy falsafasida “qonun”, yunon falsafasida “etika”, Xitoy falsafasida “dao” deb atalgan ta`limotlar mazmuniga kirgan asosiy tushunchalardan (kategoriyalardan) biridir.

Porus tomonidan berilgan ta`rif, bizningcha, ancha tolerant va, ayni paytda, konkretroqdir. SHuningdek, bunda inson xatti-harakatlarini yo`naltiruvchi faktor ham mavjudligi diqqatga sazovor. Bu faktor V.Porusda “vijdon”ga, I.Kantda esa “qalb (yurak) qonuni”ga to`g`ri keladi. Mashhur nemis faylasufi yurakdan chiqarib aytgan “Qancha ko`p va uzoq o`ylasam, har safar qalbimni shuncha ko`p va avvalgidan kuchliroq hayrat va ehtirom bilan to`ldiruvchi ikki narsa bor: biri boshim uzra yulduzli osmon, ikkinchisi qalbimdagi axloq qonuni”[160][123] degan gapi ayni shu haqidadir. U o`z qalbidagi shu axloq qonunini lotincha “imperativ” tushunchasi bilan ifodalagan edi. “Imperativ” tushunchasi “hukmronlik qiluvchi” degan ma`noni anglatadi. Bu bilan faylasuf o`z qalbidagi vijdon uning hukmdori, hatti-harakatlarini yo`naltiruvchi kuch ekanini ta`kidlaydi. Kantning “yulduzli osmon” dan hayratlanishi esa uning bu olam naqadar buyukligidan, uning yaralishi hikmatidan hamisha lol qolishini ifodalaydi. SHunday qilib, I.Kantning “kategorial imperativi”, har bir inson xulqu atvorini ichdan (yurakdan) yo`naltirib, belgilab, nazorat qilib turadigan qonun sifatida namoyon bo`ladi va u individ madaniyatining asosini tashkil etadi.

Biz madaniyatning yuqoridagi ikki (Kant va Porus) ta`rifi ham to`g`riligini tan olganimiz holda oldimizda turgan maqsadni amalga oshirish uchun uni yanada ham to`liqroq, kengroq va tushunarliroq qilish mumkin va kerak deb o`ylaymiz. Bizningcha, **madaniyat inson va insoniyat hayotining ma`no va maqsadini to`g`ri ko`rsatib bera oladigan hamda uning faoliyatini shunga muvofiq yo`naltira oladigan g`oyalar, tasavvurlar va his-tuyg`ularning organik birligidan iboratdir**. Ushbu ta`rifning afzalligi shundaki, unda avvalo hayotning ma`nosini belgilab beradigan faktor nimalardan iboratligi konkret ko`rsatadi.[161][124] To`liqroqligi shundaki, unda madaniyatning boshqa odatiy ta`riflarida hisobga olinmaydigan muhim faktor - his-tuyg`ularga ham e`tibor qaratildi. Bunda biz insoniyat dunyoqarashning eng teran asosi bo`lgan ezoterik ta`limotlarda his-tuyg`ular, ayniqsa fidoyi (beminnat, pok) muhabbat (ishq) tuyg`usi harqanday bilim yoki g`oyadan muhimroq o`rin egallashini hisobga oldik. Ta`rifning kengligi esa shundaki, u nafaqat individga, balki butun insoniyatga nisbatan keltirildi. Ta`rifning kengligi esa biz tahlil etmoqchi bo`lgan asosiy mavzu, ya`ni “globallashuv davri insoniyat hayotining ma`nosi muammosi”ni yoritish ehtiyojidan kelib chiqdi.

Lekin shuni alohida ta`kidlash joizki, hozirgi davr SHarq falsafasida biz bergan ta`rifdan chuqurroq va konkretroq yondoshuv ham mavjud. Bu yondoshuv Hind ezoterik faylasufi Aurobindo Gxoshga[162][125] tegishli bo`lib, uning uqtirishicha, **“Madaniyat ruh, intellekt va vujud**

---

[159][122] Porus V.Objit katastrofu.Svoevremenni`ee zametki o duxovnoy kulture Rossii//Voprosi fIlosofii. 2005, № 11.27- b

[160][123] Kant I. Sochineniya. - M., 1965.T.4.CH.1. 499- b.

[161][124] Albatta, inson hayotining ma`nosi masalasining o`zi ham hali jiddiy izlanishni talab qiladi va biz ishimizning navbatdagi qismida bu masalaga iloji boricha chuqur to`xtalishga harakat qilib ko`ramiz.

[162][125] Aurobindo Gxosh (1872-1950)– hind mistiki va faylasufi. Anglyada o`qigan. Hindistonga qaytgach, Hindiston ozodligi uchun kurashga rahbarlik qilgan. O`z asarlarida Platon, Bredli va Bergson g`oyalariga hamfikrlik bildirgan. Hindistonning beshinchi Vedasi

**(tana) orasida uyg`unlikka erishuv demakdir**.”[163][126] Bunda madaniyat insonni tashkil etuvchi uch asosiy jihat - vujud, aql va ruh - uyg`unlashuvining mezoni (kriteriysi) sifatida maydonga chiqadi.

Ushbu ta`rifning biznikidan ustunligi shundaki, unda inson ma`naviy evolyutsiyasining uch asosiy parametri - ruh, intellekt va vujud – konkretlikda qamrab olingan va ular orasidagi uyg`unlik sharti alohida uqtirilgan . SHuning uchun ta`rif mutloq to`liqlik va konkretlik kasb etgan. Bu ta`rif ruhiy jihatga e`tibor qaratilgani bilan madaniyatga G`arbcha yondoshuvlardan farqlanadi. Ayni shunga ko`ra bu ta`rif umuman SHarq madaniyati bilan va, xususan, o`zimizning teran va buyuk milliy ma`naviy qadriyatlarimiz bo`lgan tasavvuf ta`limoti bilan uzviy va uyg`un.

Ammo bizning Yevropalashgan (g`arblashgan, moddiyunlashgan) hozirgi (postsovet davridagi) ongimiz umuman olganda uni teran qabul qilishga xali yaxshi tayyor emas. Zero unda biz bilmagan “ruh” tushunchasi fundamental kategoriyalardan biri sifatida qatnashmoqda. SHuning uchun madaniyatni tushunishning **dastlabki** bosqichida biz keltirgan ta`rifdan foydalanish qulayroq. Lekin bu ikki ta`rif uchun umumiy bo`lgan bir g`oya bor. Bu ularning ikkisida ham madaniyatning teran ildizi, inson hayotining qandaydir oliy ma`no-mohiyati mavjudligi haqidagi g`oyadir.

Lekin, agar biz “ruh” nimaligini tasavvur eta olsak , u holda A.Gxoshning ta`rifi biznikidan ancha teran, to`liq va konkretligi ma`lum bo`ladi. SHuning uchun mazkur ishimizning navbatdagi boblarida “ruh” tushunchasiga oydinlik kiritishga urinib ko`ramiz. SHunda o`z ta`rifimizni A.Gxoshniki bilan almashtirishimiz ham mumkin bo`ladi. Hozircha biz “ruh” madaniyatning abadiyatga dahldor aspekti ekanini ta`kidlab o`tish va ayni shuning uchun ham ruhiyatga tayangan madaniyat va tsivilizatsiya vayron bo`lmasligini ta`kidlash bilangina cheklanamiz.

To`g`ri, G`arb mutafakkirlari orasida ham madaniyatning tub asosini ruh, ruhiyat tashkil etishi haqidagi fikrlarni oldinga surganlar bo`lgan. Masalan, nemis faylasufi V.fon-Gumbol`dt madaniyatni tarixda amal qiluvchi xalq “ruhi” deb qaragan, uni xalqni organik bir butun sifatida tashkillaydigan jihat sifatida talqin etgan. Uning “Tarixiy bilish” nazariyasiga ko`ra jahon tarixi inson bilimlaridan yuqori turuvchi ruhiy kuch faoliyatining natijasidir, shuning uchun bu kuchni sababiylik nuqtai nazaridan tushunish mumkin emas. “Men o`z qalbimda tug`iladigan har bir hodisa yagona bir kuchning nuzuloti bo`lib, bir butunlik tashkil etishini va har bir ayrim deb qaraladigan narsa ayni shu kuch bilan yo`g`rilgan kabi shu kuchning belgilariga ega bo`lishi kerakligini chuqur his etaman”, - degan edi Gumbol`dt.[164][127] Vaholanki, bu fikrlar tasavvuf ta`limotining “Vahdati vujud” haqidagi ta`limoti bilan uyg`un.

Nemis falsafasida Gyote, SHelling kabilar ham Gumbol`dtniki kabi g`oyalarni oldinga surganlar. Lekin, G`arb falsafiy tafakkurida bu g`oyalar, tasavvuf yoki boshqa SHarq ta`limotlaridagi kabi ommalashgan emas, balki juda noyob hodisalar edi. SHuning uchun ham G`arbda tez orada ratsionalizm tamoyili g`alaba qildi va uning asosida fan va texnologiya gurkirab rivojlandi. Xatto Gegelning “Mutloq ruh”ni ulug`lagan idealistik falsafasi ham ratsionalistik xarakterdagi falsafa edi. Buning uchun uning ta`limoti keyinchalik, XX asr o`rtalarida “panlogizm” deya talqin etildi. SHuning uchun XX asr G`arb falsafasida ham “ruh” tushunchasi xatto butkul iste`moldan ham chiqib ketishga ulgurgan edi. SHuning uchun ham bu davr qomusiy lug`atlarida ruh, jon, qalb kabi tushunchalar xatto uchramaydi.

---

deb sharafoanayotgan “Integral yoga” ta`limotining asoschisi. G`arbda J.Gerber uning shogirdi va izdoshi bo`lgan. Romen Rollan uni “Davrimizning juda buyuk mutafakkiri” deb hisoblagan. Robindranat Tagor esa Uni “Hind qalbining ovozi” deb ulug`lagan. Hindistonda uni “SHri Aurobindo”deb ulug`lashadi. “SHri” qo`shimchasi o`zbek tilidagi “hazrat” tushunchasiga mos keladi.

[163][126] SHri Aurobindo. Osnovi` indiyskoy kulturi.-Sankt-Peterburg.1998. – B.136.

[164][127] Gritsanov A.A.V.fon-Gumboldt.// Noveyshiy filosofskiy slovar**:** 3-e izd.- M.: Knijniy Dom. 2003.

Buning asosiy sababi shundaki, bu davrga kelib dunyoni ilmiy manzarasida ham, butun insoniyat borlig`ida ham juda katta, global o`zgarishlar sodir bo`ldi va global muammolar yuzaga chiqdi. Fan mikroolam va makroolamni bilishda katta marralarga erishdi va bu uning tabiat ustidan behad hukmronligini ta`minlaydigan texnologiyalarni yaratishiga olib keldi. Buning natijasida insoniyat makondagi cheklanish doirasidan ancha tashqariga chiqdi, global makonda harakatlanish imkoniyatini qo`lga kiritdi. Ikkinchi tomondan, jahon miqyosidagi iqtisodiy tizimlar (jahon bozori, xalqaro banklar, transkontinental monopoliyalar) tashkil topdi; ayrim mamlakatlarda bo`layotgan ishlardan butun dunyoni xabardor qiladigan global informatsiya (axborot) tarmog`i vujudga keldi (informatsion cheklanish barham topdi); ko`p mamlakatlar birgalikda echishi mumkin bo`lgan ekologik muammolar yuzaga chiqdi; bir emas, bir necha o`nlab xalqlar va davlatlarni qamrab oladigan, odamlarni mislsiz qirilishiga olib kela oladigan jahon urushlari chiqishi xavfi tug`ildi va h.k. Fan va texnika taraqqiyoti avvallari inson jismoniy quvvatlarini kuchaytigan vositalarni ishlab chiqqan bo`lsa, endilikda uning **intellektual** qobiliyatlarini kuchaytiradigan vositalar ishlab chiqildi.

SHu jarayonning oqibati o`laroq endilikda G`arb falsafasida madaniyatning ikki tipi – ommaviy va elitar madaniyat bir-biridan keskin ajratiladi. Ammo ommaviy va elitar madaniyatni xalq madaniyatidan va milliy madaniyatdan farqlash zarur.

Halq madaniyati (ingliz tilida “fol`klor”) deyilganida odatda madaniyatning o`z ildizlari bilan xalq o`tmish tarixi bilan tutashib ketadigan, o`tmishda shakllangan qadriyatlarga tayanadigan, milliy xarakterni aks ettiradigan jihati nazarda tutiladi. Xalq madaniyatining o`ziga xosligi uni yaratgan konkret mualliflarning yo`qligida, ularning rivoyat (mif), asotir, afsona, epos, ertak, ashuvla, raqslar, xatto latifalar, ommaviy bayram va urf odatlar tarzida namoyon bo`ladi. Xalq madaniyati an`anaviyligi (traditsiyaviyligi), jamoaviyligi, teran ildiz otgani va barqarorligi bilan xarakterlidir.

Milliy madaniyat tushunchasining falsafaga kiritilishi esa barcha xalqlar uchun umumiy bo`lgan yagona madaniyat mavjud bo`la olmasligi, har bir millatning faqat o`zigagina xos madaniyati mavjud ekanini ta`kidlovchi, masalan, N.YA. Danilevskiy, O. SHpengler, A. Toynbi kontseptsiyalar shakllanishi bilan bog`liq.

Har ikki tushunchaning ham madaniyatni xarakterlashda o`z o`rni bor. Birinchisida (“xalq madaniyati” tushunchasida) madaniyatning eng umumiy, muallifsiz tarixiy ildizi mavjudligi nazarda tutilayotgan bo`lsa, ikkinchisida uning xalqlar millatlarga ajralganidan keyingi differentsiallashgan, o`ziga xoslik kasb etgan tarixiy shakllari vujudga kelgani hisobga olinmoqda. SHu ma`noda bularning ikkisi ham madaniyatning umumiy ta`riflari emas, balki uni evolyutsiya jarayonida tushunishga xizmat qiluvchi muhim tushunchalardir. Va milliy madaniyatlarda internatsional tomonlarning mavjudligi, bir tomondan, barcha millatlarning bir vaqtlar hali millatlarga ajralmagan tarixiy davrdagi yalpi umumiy, differentsiallashmagan , muallifsiz tarixiy ildizi mavjudligi tufayli bo`lsa, ikkinchi tomondan, millatlar madaniyati taraqqiyoti mobaynida ularning o`zaro bog`lanib, aloqa qilganlari natijasida shakllangan yangi umumiyatlarning yuzaga kelishi tufaylidir.

Globallashuv jarayonida yoshlarda mas’uliyatlilik hissini shakllantirish va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muammolari bugungi kunning eng katta dolzarb masalasidir. SHu nuqtai nazardan ularning ma’naviy bo‘shliqlarini to‘ldiruvchi o‘rindosh vositalar, milliy qadriyatlar ruhidagi tarbiyaviy uslublar ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Bugungi murakkab, axborotlashuv jarayoni juda tez kechayotgan davrda yoshlar ma’naviyatini e’tiborda tutib, ulardagi mas’uliyatlilik hissini oshirish, qiziqish doiralariga mos vositalar orqali ta’sir qilish talab etiladi. Loyihada mana shu omillarni hisobga olib metodik qo‘llanma yaratish ko‘zda tutiladi. YOshlarni milliy qadriyatlar

ruhida tarbiyalash ulkan ijtimoiy jarayonni qamrab oluvchi ma'naviy islohotdir. Ayniqsa ularda ijtimoiy voqeliklarga tez kirishib ketuvchi, barcha narsa va hodisalarga mas'uliyatli etib tarbiyalash vositalari o'rganiladi. YOshlarni nafaqat ijtimoiy, balki, shaxsiy hayotlarida ham mas'uliyatlilik eng zarur va muhim kategoriyadir.

Mamlakat va millat or-nomusini, faxru-iftixorini, istiqboli va kelajagini yoshlar, ularning faoliyatisiz tasavvur qilish mushkul. SHu boisdan mamlakatimiz aholisining 64 % tashkil etgan yoshlar vatanimizning strategik maqsadlarini amalga oshirishda katta kuch ekanligini hisobga olgan holda, ularga bo'lgan munosabat, hayotga, faoliyatga bo'lgan qiziqish va mas'uliyatlilik hissini shakllantirish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, "mas'uliyatlilik" tushunchasi falsafiy – sotsiologik kategoriya hisoblanib, shaxs va jamiyat, jamoa o'rtasidagi munosabatlarni ob'ektiv tarzda bevosita munosabatlarini amalga oshirishni ifoda etadi[165]. SHuningdek – mas'uliyat bu ijtimoiy ahamiyatli burch va vazifalarning bajarilishi oqibatiga, xatti-harakat negiziga etgan axloqiy tamoyillar ham tushuniladi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy mas'uliyatning xususiyatlari, mazmun mohiyati, uning tarkibiy tuzilmalari orqali ifodalanadi. SHu jihatdan, ijtimoiy javobgarlik – ob'ektlar (inson, jamoa, jamiyat) xarakter (kim oldida, kim uchun, qanaqa) va ob'ektlar (texnik va biologik) dan iborat ekanligi ma'lum. Ijtimoiy javobgarlikning tarkibiy qismi ijtimoiy maqsad va ijtimoiy tashabbuslardan tashkil topgan. Ijtimoiy maqsadlarga ijtimoiy haqiqatga etishish esa ijobiy mehnat ko'nikmasini tashkil etish, shaxs shakllanishi uchun qulay sharoitlar yaratishdir.

SHunday ekan davlat va jamiyat qurilishida uning maqsad va vazifa-larini amalga oshirishda o'zaro hamjihatlik va hamkorlikni tushunganlik darajasi bevosita va bilvosita mas'uliyatda o'z ifodasini topadi.

Ijtimoiy mas'uliyat xizmat, oilaviy, fuqarolik, jamoat va shaxsiy xizmatlarni bajarayotganda vujudga keladi. U shaxsning xulq-atvori, jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar va ularning bajarilishi uchun javob beradi. Misol uchun «Gippokrat qasamyodi» - tibbiyot xodimlarining bemor oldidagi umumqabul qilingan ijtimoiy mas'uliyatdir. Ijtimoiy mas'uliyat individual, guruhiy va jamoaviy bo'lishi mumkin. U ijtimoiy tashabbusni amalga oshirish doirasida ijtimoiy maqsadni qabul qiladi.

Mas'uliyatlilik turli pog'onalarda va ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bu shaxsning yoshlik, pedagogik va psixologik xususiyatlari bilan dialektik bog'liqlik asosida amalga oshadi. Oiladagi tarbiyaga ota-ona, maktabda esa ta'lim-tarbiyaga ustozlar mas'uldirlar. Mas'uliyat – shaxsdan boshlab, davlat va jamiyat qurilishi va uni boshqaruviga tomon tizim sifatida ierarxik tarzda tavsiflanadi.

YOshlar mas'uliyatliligini davr va zamon talablari asosida shakllantirib borish orqali eng avvalo davlat va jamiyat qurilishida yoshlarda maqsadlilik va kasbiy yo'naltirganlik hamda istiqboldagi hayotini to'g'ri belgilashni in'ikos etishdan iborat bo'ladi. SHuninngdek, yoshlar mas'uliyatliligini to'g'ri shakllantirish oila, maktab, jamoada, umuman ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish bilan belgilanadi.

Uchinchidan, bugungi globallashuv jarayonida yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada yuksaltirish, mafkuraviy immunitetni oqilona shakllantirish, ommaviy madaniyat ko'rinishlaridan, buzg'unchi va yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmaslik chora-tadbirlaridan ogohlantirish, ularning ijtimoiy mas'uliyatlarini to'g'ri shakllantirish orqali amalga oshadi.

Aslida ijtimoiy taraqqiyot davomida avlodlar vorisligida voqealar zanjirini kuzatganimizda butun tarixning, hayotning o'zi mas'uliyat asosiga qurilganligini ko'ramiz. Zero

[165]Қаранг Ôàëñàôà Қомусий луғат.. - .: Òîøêåíò. 2004й.

mas’uliyat orqali jamiyatda tartiblilik, mutanosiblik, belgilangan reja va vazifalarni ado etishdagi sobitqadamlilik hissiyoti paydo bo‘ladi. Ammo muammo shundan iboratki, bugungi kunda yoshlar o‘rtasidagi ayrim holatlarda g‘arb madaniyatining ta’siri kengayib bevosita tahdid etishi tufayli milliy qadriyatlarimizga katta ta’sir ko‘rsatuvchi salbiy voqea hodisalar va ko‘rinishlar paydo bo‘lmoqda. “...biz bunday xatarlarga qarshi o‘z vaqtida qat’iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o‘z girdobiga tortib ketishini, oqibatda ularning ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas’uliyatini o‘ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdagi har bir inson, har qaysi ota-ona, eng muhimi, har qaysi yigit-qiz chuqur anglab olishini istardim”[166] – deb ta’kidlaydi yurtboshimiz I.Karimov.

SHu jihatdan, yoshlar mas’uliyatliligini shakllantirishda madaniy merosdan foydalanish omillarini atroflicha yoritish orqali ijtimoiy hayotda uchraydigan salbiy hodisalarni va ularning oqibatlarini bartaraf etish yo‘llarini aniqlashda:

milliy g‘oya tushunchasi va tamoyillarini yoshlar ta’lim-tarbiyasining konkret vazifalarini hisobga olgan holda, hamda faoliyatida haqiqatda lozimligini targ‘ibot qilish va shu asosda ijtimoiy mas’ullik hissini shakllantirish;

milliy ma’naviy merosimizni bugungi kun voqeligimiz nuqtai nazaridan baholash va ulardan keng va oqilona foydalanish;

OAV da bugungi kunda faol va tashabbuskor, o‘zining iqtidori va salohiyati bilan boshqalarga ibrat bo‘layotgan yoshlar faoliyatini tashviq va targ‘ib qilish;

o‘tmish madaniyatimizning, xususan milliy ma’naviyatimizni yuksaltirish jarayonida yoshlarda mas’uliyatlilikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini har tomonlama keng ko‘rsatish lozim bo‘ladi.

YOshlar mas’uliyatliligining genezisi va shakllanishi jarayoni bevosita shaxs faoliyatining, uni harakatga keltiruvchi uning ruhiyatidagi ob’ektivlik va sub’ektivlik, ichki va tashqi, erkinlik va voqelik, tasodif va zaruriyat hodisalarini bir-biriga bog‘lovchi omillar bilan o‘zaro aloqada kechadi. Zero, faoliyat tamoyillarini asosiy xususiyatlari sub’ektivlik va moddiylikdan (predmetlikdan) iborat bo‘lib, uning mohiyati shundan iboratki, har qanday inson faoliyati bevosita uning sub’ektiv maqsadlari individual e’tiqodi hamda ma’lum bir ijtimoiy zaruriyat, narsa va hodisalarning o‘zidagi ob’ektiv manbasi bilan belgilanadi. Holbuki, inson ko‘rgan bilgan, eshitgan voqea – hodisalarni birdaniga qabul qilib undan xulosa chiqara olmaydi. Birinchi marta inson ongiga ta’sir ko‘rsatgan har qanday yangilik uning ongi aql darajasi orqali o‘tadi. Bunda individning faoliyatidagi sub’ektiv jihatlar inson faoliyatini tashkil qiluvchi, boshqaruvchi, qolaversa uni yo‘naltiruvchi, e’tiqodlar, g‘oyalar, maqsad va motivlar, ko‘rinishlar, o‘tmish tajribalari orqali qo‘shilib yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. SHaxs faoliyatidagi sub’ektivlik uning o‘zini aniqlashi bilan bog‘liq, o‘zini aniqlash bevosita ob’ektiv borliq bilan to‘qnash kelishidagi holatga mos keladi. Bu maslak oxir-oqibatda ham sub’ektiv omilga va ob’ektiv jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bunda insonning faoliyati borliqqa nisbatan abstrakt bo‘lmasdan amaliy natijalar yig‘indisi bilan izohlanadi va shu orqali inson borlig‘ining ijtimoiy mohiyati ifodalanadi.

“Mas’uliyatlilik” tushunchasi, uning mazmun-mohiyatini o‘rganish kompleks tarzda ijtimoiy-psixologik, sotsiologik bilimlar majmuasidan iborat bo‘lib, nazariy metodologik jihatdan qator fanlar vakillarining izlanish sohasidir. Zamonaviy fanda ijtimoiy mas’uliyatlilikni kengroq

[166] Êàðèìîâ È.À. Þêñàê ìàúíàâèÿò – åíãèëìàñ êó÷. -Ò.: “Ìàúíàâèÿò”, 2008. 15-áåò.

ilmiy jihatdan 3 yo‘nalish muhim hisoblanadi. Ijtimoiy-falsafiy, sotsiologik va aniq fanlar yo‘nalishi bo‘yicha tadqiqot olib borish maqsadga muvofiqdir.

YUqorida qayd etilgan yo‘nalishlarda yondashuvlarda ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiqot olib borish murakkabdir. Zero, ijtimoiy falsafa, madaniyatlilik muammosini insonning, shaxsning ijtimoiy jarayonlarning sub’ekti hamda inson bilan shaxs o‘rtasidagi o‘zaro dialektik uyg‘unlikni tashkil etuvchi ob’ektivlik va sub’ektivlik, ijtimoiylik va individuallik, tarixiylik taraqqiyotidagi erkinlik va zaruriyat hamda inson faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi.

SHuningdek, ijtimoiy falsafa inson mas’uliyatlilik muammosini ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi sifatida hamda ma’lum bir tarixiy taraqqiyotda inson va olam, individ va shaxsning ijtimoiy taraqqiyotdagi faol ta’siri sifatida o‘rganadi.

Konkret fanlar sirasidagi ijtimoiy soyiologiya, ijtimoiy psixologiya inson shaxs mas’uliyatini uningsub’ekti sifatidagi faoliyati, motivatsiyasi, ehtiyojlarini, qiziqish yo‘nalishlari, shaxsning ichki boshqaruv mexanizmi(o‘z o‘zini anglash, o‘z-o‘zini nazorat, baholash, qadrlash va baholash)lari darajasida namoyon etish orqali o‘rganadi.

Ta’kidlash joizki, inson mas’uliyatliligi hamma davrda o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lgan, hamda olam va odam munosabati o‘zaro kelishuv (T.Gobbs) va mas’uliyat asosiga qo‘rilgan. Tabiat va jamiyatni o‘zaro uyg‘unligi har ikkisiga tabiat jamiyat inson uchun mas’ulligi bilan belgilanib kelgan. Agar biz inson mas’uliyatliligi tabiat va jamiyat oldidagi buyuk qadriyat sifatida belgilangan. U holda inson eng buyuk maqsadlar oldidagi majburiyatni o‘z zimmasiga olgan.

Inson jamiyatdagi **ma’naviy** mas’uliyat darajasi turli ko‘rinishlarda o‘z ifodasini topgan.

ijtimoiy qatlamlarda
institutlar, tashkilotlar, uyushmalar, partiyalar,
boshqaruv irearxiyasi
oila, maktab, mehnat jamoalari.

Bu ketma-ketlik o‘zining amal qilish doirasi tasnifida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi. SHuningdek, har bir pog‘onada o‘ziga xos tarzda ichki daraja ham mavjudki bu bilvosita

shaxslararo,
guruhlararo
davlat va jamiyatlararo tarzda ko‘rinadi.

Har bir pog‘onada o‘z ifodasini topgan mas’uliyatlilik darajasi uni tasniflovchi jihatlar inson faoliyati, uning turfa xususiyatlari bilan bir butunlikda kechadi.

SHu jihatdan uch asosiy jihatni o‘zaro integral muhim nuqta sifatida belgilash o‘rinli:

Birinchidan, inson mas’uliyatliligini shakllanishidagi, ijtimoiy sabablari, uning ijtimoiy hayot va ijtimoiy – tarixiy tendensiyalardagi takomillashuvidir.

Ikkinchidan, aniq – ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy shart-sharoitlar doirasidagi mas’uliyatlilik bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatuvi jarayonidir.

Uchinchidan, inson mas’uliyatliligini vujudga keltiruvchi uning ichki ma’naviy ruhiy-psixologik jarayonlarni tashkil etuvchi bilimlar, e’tiqodlar, ideallar, tajribalar tizimidir. SHuningdek, “mas’uliyatlilik” tushunchasini tadqiq etish orqali falsafa fani ushbu tushunchaning inson faoliyatidagi amaliy, bilishga oid, ruhiy-ma’naviy, ta’limiy-tarbiyaviy, moslashtiruvchilik vazifalarini aniqlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayoni, dinamikasi yoshlar mas’uliyatiga ta’sir etadi. SHuning uchun ham bugungi kundagi eng dolzarb masala – yoshlar mas’uliyatiga, ma’naviyatiga e’tibor qaratishdir.

Aslida, globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli darajada va ko'rinishlarda mavjud bo'lgan va hozirgi davrimizga kelib bu jarayonning avj olishi ro'y bermoqda. Buning ayrim jihatlari mamlakatimiz uchun ijobiy bo'lsa, ayrimlari salbiy ta'sir etadi. Bu ayniqsa, ma'naviyatga yetarlicha zarar keltiradi.

Albatta, bu jarayonlardan ko'z yumib bo'lmaydi. Muammoning qay darajadaligidan qat'iy nazar uning oldini olish, bunga qarshi kurashish choralarini izlash bizning oldimizda turgan vazifadir.

Shu xususda Yurtboshimiz shunday fikr bildirgan: *«Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Chunki, ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda»*

Darhaqiqat, globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Ezgulik yo'lidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo'lsa, yovuzlikni maqsad qilgan taraqqiyot mahsuli esa buning tamomila aksidir.

Globallashuv jarayonida tahdidlar masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, u barcha sohalarda bo'lgani kabi ma'naviyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Avvalo, globallashuv – bu ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayondir. Shuningdek, xalqlarning madaniyatiga kuchli ta'sir etuvchi hodisa sifatida o'rganiladi. U dunyoda iqtisodiy integratsiyaning ijobiy omili va milliy iqtisodiyotning natijali o'zgarishga ko'makchi sifatida qabul qilingan.

Ammo, dunyoda axborot almashinuvining o'sishi bilan u madaniyat, ilm-fan sohasiga ham kirib keldi. Natijada millat madaniyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy tahdidlar insoniyat oldiga yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Chetdan kirib kelayotgan, mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlar ongini individualizm, egotsentrizm g'oyalari bilan zaharlovchi ushbu ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishimiz zarur. Bebaho boyligimiz milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirgan holda ma'naviy tahdidlarni oldini olishga erishishimiz mumkin. Ma'naviyat haqida gap ketganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, u eng avvalo, millatni, milliy madaniyatni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi. Shunday ekan globallashuv jarayonida mamlakat milliy madaniyatiga rahna soluvchi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda insonlarni yuksak ma'naviyatli bo'lishi muhim omil hisoblanadi. Buning uchun jamiyatda ma'naviy-mafkuraviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish zarur. Ya'ni, birinchidan, mamlakat kelajagi bo'lmish yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish; ikkinchidan, manaviy tahdidlarni aynan nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab yetish; uchinchidan, atrofimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmasdan, dahldorlik hissini oshirish.

Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin. Jumladan, ma'naviy tahdidlarning bir ko'rinishi bo'lgan "ommaviy madaniyat" niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta'siri mamlakat taraqqiyoti uchun xavf soladi. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning turli internet klublarida o'tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil

telefonlardan noto'g'ri foydalanib, behayo film va suratlar olib yurishlari, bularning barchasi inson ma'naviy kamolotiga ulkan zarar keltiradi. Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Bunda:

– ularda, turli xildagi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;

– yoshlarni ma'naviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;

– yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim.

Shundagina biz yoshlarimizni, shu bilan birga xalqimizni har qanday yovuz kuchlar va ma'naviy tahdidlar to'fonidan omon saqlaymiz, ular qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg`ularini shakllantira olamiz.

XX asrning ikkinchi yarmida insonning ajralmas huquqlarini ta’minlash va himoya qilish muammosi global xususiyat kasb etdi va ayniqsa so‘nggi paytlarda eng o‘tkir va dolzarb muammolardan biriga aylandi. Shunga muvofiq inson huquqlari bilan bog‘liq ilmiy masalalar siyosatshunoslik fani turli sohalarida o‘rganilmoqda. Bugungi kundagi qarashlarning o‘ziga xosligi shundaki, ularda insonning ajralmas huquqlari bilan bog‘liq me’yorlar G‘arb dunyosi va boshqa xalqlarning madaniy qadriyatlari va me’yorlarini sintez qilish, hozirgi zamon dunyosidagi turfa madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni anglash orqali qayta ko‘rib chiqishga intilish ko‘zga tashlanadi. Masalan, Admanta Polis va Piter Shvablarning fikricha hozirda amal qilayotgan inson huquqlari me’yorlari majmuasida g‘arbona individualizmga ko‘proq e’tibor qaratilgan va ayni paytda boshqa ko‘pchilik madaniyatlarning qadriyatlari tizimida muhim o‘rin tutgan jamoaviylik tamoyili etarli darajada o‘z ifodasini topmagan.

A.Pollis hozirgi zamon “universalizmi jamoaviylikni e’tibordan qochirayotgani” va “milliy manfaatning individual erkinliklardan ustuvor bo‘lishi va ularni o‘z doirasiga olish” imkoniyatlarini unutayotgani haqida gapiradi. Uning fikricha, G‘arbdan tashqari madaniyatlarda “shaxsiy avtonomiya doirasi”ning o‘z chagaralari belgilangan va “Inson huquqlari to‘g‘risi”gi Xalqaro Bill qayta ishlanish jarayonida bu hisobga olinishi kerak. Inson huquqlari me’yorlarini belgilashda huquqning ma’naviy va axloqiy jihatlari tobora ko‘proq o‘rin egallab bormoqda.

Inson huquqlari mazmun doirasiga “talab” va “majburiyat” tushunchalari kiritilmoqda. Bu tushunchalarning konseptual aloqadorligi inson huquqlarining bosh tarkibiy asoslarini aniqroq idrok etilayotganidan dalolat beradi. Ma’naviy tamoyil inson huquqlarining asosini tashkil etib, u insonning mustaqil tanlagan maqsadga erishish yo‘lidagi faoliyatida erkinlik va farovonlikka bo‘lgan teng huquqini belgilaydi. Shu ma’noda inson huquqlari nafaqat yuridik, balki ma’naviy-axloqiy me’yorlar sifatida namoyon bo‘ladi. Global hamjamiyat miqyosida ajralmas inson huquqlarini himoya qilish esa, o‘z navbatida, jahon xamjamiyati talablarini tan oladigan va ajro etadigan odamlarning ishonchini qozonish va ijtimoiy yakdilligini ta’minlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Global muloqot jarayonida sub’ektlar xatti-harakatini tartibga solish muammosini hal etish hayotiy zaruratga aylanmoqdaki, bu ma’naviy-axloqiy an’analarning hamda inson huquqlarini ularning tarkibiy qismlari bo‘lmish huquq va majburiyatlarining ajralmas birligi sifatida to‘g‘ri idrok etishning ahamiyatini oshiradi.

Bugungi kunda ma’naviy-axloqiy me’yor va an’analar hamda majburiyatlar inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida “inson va jamiyat” tizimidagi global muammolarni echishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi e’tirof etilmoqda. “Inson va jamiyat” tizimi bilan ijtimoiy barqarorlikni, turli madaniyatlarni rivojlantirish va ularning o‘zaro aloqalarini ta’minlash kabi masalalar chambarchas bog‘liq. Bu masalaning yechimi ko‘p jihatdan ijtimoiy adolatni qaror

toptirish muammosi bilan bog‘langan. Xususan, so‘nggi paytlarda milliy-etnik ko‘rinishidagi ziddiyat va to‘qnashuvlarning vujudga kelishi xavfi oshib bormoqda. Ayrim olim va siyosatshunoslarning kelajakda G‘arb va Sharq tamaddunlari yoki Nasroniy va Islom dunyolari o‘rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi haqidagi taxminlari, jumladan, S.Xantingtonning keng aks-sado uyg‘otgan,

XXI asr turli madaniyatlar o‘rtasidagi tamaddunlar to‘qnashuvi asri bo‘lishi mumkinligi haqidagi fikrlari ana shu vaziyatni taxlil etish asnosida paydo bo‘lgan. Jahon olimlari tomonidan bu borada izlanishlar olib borilmoqda va turli fikrlar bildirilmoqda. Xususan, Jon Tomasi fikricha, bugungi kunda liberal hokimiyatning siyosiy tizimlari barqarorligi xukumat tomonidan ijtimoiy munosabatlarda demokratik adolat tamoyillarining qaror topishini qay darajada ta’minlashiga bog‘liq. Bunda jamiyat a’zolari o‘z turmush tarzi va hayot haqidagi tasavvurlariga tayanib yashash huquqiga ega bo‘lib, bir paytning o‘zida bir-biriga o‘z tanlagan hayot tarzini kuch ishlatish yo‘li bilan majburan qabul qildirish huquqiga ega bo‘lmaydi. Shu ma’noda axloqiy liberalizm asosini shaxs ma’naviyati konsepsiyasi tashkil etadi. O‘z mohiyatiga ko‘ra bu mikrosiyosiy konsepsiya bo‘lib, unda markaziy o‘rnini hokimiyat institutlari emas, shaxsning o‘zi egallaydi. L

iberal qonunlashtirish liberal ijtimoiy adolat tamoyillarini qabul qilgan fuqarolarning siyosiy qarashlariga tayanadi, ammo shaxsning aslida bu muammoga bo‘lgan munosabatlarning ancha murakkab tabiati e’tiborsiz qoldiriladi. Biroq “global dunyo rivoji amalda fuqarolarning siyosiy tasavvur va afzal ko‘rgan qarashlarini hisobga olgan siyosiy amaliyot o‘z holicha etarli emasligini ko‘rsatmoqda va bu yo‘nalishdagi davlat siyosati alohida olingan shaxs yoki muayyan ijtimoiy-siyosiy, diniy, etnik va boshqa guruhlar tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishiga kafolat bera olmaydi”.

Albatta, ijtimoiy adolat borasidagi liberal nazariyalarning asoslanganligi darajasiga va amalda tadbiq etish mumkinligiga tanqidiy munosabat bildirish mumkin. Ammo qayd etish lozimki, zamon ruhiga muvofiq muammoni hal etishda yangicha yondoshuvlarning paydo bo‘lishi diqqatga sazovor. Zero bunday izlanishlar inson va jamiyat hayotining siyosiy va ijtimoiy – madaniy sohalaridagi globallashuv jarayonlari keltirib chiqarayotgan tahdidlarga munosib javob topish, ularning ta’sirini kamaytirish va dunyodagi barqarorlikni saqlash imkoniyatini oshiradi.

Madaniy rang-baranglik g‘oyasiga liberal yondoshuv multimadaniy demokratiya konsepsiyasida o‘z aksini topgan. Masalan, Charlz Teylor liberal demokratik tizimlar fuqarolarning madaniy o‘ziga xosligi nuqtai nazaridan rang-baranglashib borayotganini qayd etadi. Bunday sharoitda siyosiy tizimning qonuniyligi va yashovchanligi muayyan darajada jamiyatning birligi va yaxlitligini ta’minlash muammosini hal etilishiga bog‘liq. Uning to‘g‘ri ta’qidlashicha, bunday yaxlit fundamental asosi bo‘lmagan jamiyatda fuqarolarning ijtimoiy – siyosiy hayotdagi demokratik ishtirokini ham, fuqarolarning teng huquqliligini ham ta’minlab bo‘lmaydi.

Zero, Prezident Islom Karimov qayd etganidek: “Hozirgi zamonning hal qilinishi mushkul bo‘lgan muammolaridan biri ham aynan shu masalaga borib taqaladi. Jahonda yashayotgan etnoslarning ko‘pchiligi o‘z milliy davlatchiligiga ega emas. Dunyo siyosiy xaritasida atigi ikki yuzga yaqin davlat borligi ham buning dalilidir”. Mazkur muammoni hal etilishi uchun demokratik hokimiyat fuqarolarni umumiy maqsad atrofida birlashtirish siyosatini olib borishi va bir paytning o‘zida madaniyatlar rang-barangligining muqarrarligini tan olishi zarur.

Hozirgi kunda mul timadaniy yondashuv tarafdorlari soni ortib bormoqda. Ular qatorida jahon siyosatshunosligi ilmida tanilgan B.Parek, Chyu Kukutas, Uil Kimlik, Chyu Teylor, J.Talli, A.Yang kabi turli mamlakat olimlarini tilga olish mumkin. Multimadaniy ijtimoiy tizimlar faoliyatining samaradorligi, rus olimi T.V. Musienkoning fikricha, quyidagi asosiy muammolarini to‘g‘ri hal etishiga bog‘liq: birinchisi-adolat masalasiga oid bo‘lib, uning mohiyatini liberal

jamiyatlar ozchilikni tashkil etgan madaniy guruhlar talablarini muvofiqlashtirish maqsadida siyosat fuqarolarning tenghuquqliligi borasidagi liberal me'yorlardan og'ishi mumkinligi darajasini to'g'ri belgilash; ikkinchisi-jamiyatning totuvligi va birligi masalasi bo'lib, unga muvofiq turli madaniyatlarga bo'lgan hurmat tamoyili amal qiladigan darajani hamda jamiyatning siyosiy birligini saqlash maqsadida uni chegaralash me'yorini aniqlash.

Qayd etish lozimki, O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab mazkur muammoni hal etish chora-tadbirlari ko'rildi. Turli millat va elatlarga mansub mamlakat fuqarolarining konstitusiyaviy huquq va erkinliklari ta'minlandi, millatlararo tenglik va o'zaro hamkorlik hayotiy –amaliy sifat kasb etdi, O'zbekiston fuqarolarini, ularning millati va e'tiqodidan qat'iy nazar, yagona maqsad atrofida jipslashtirishga qaratilgan milliy g'oya shakllantirildi. Xullas, hozirgi globallashuv jarayonlari ta'sirida zamondagi ijtimoiy-madaniy holat milliy madaniyat, an'ana va qadriyatlar saqlangan holda jahon hamjamiyati rivojining yangi tipdagi ma'naviy asoslarini yaratishni talab qilmoqda. Bunda universal umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar tizimini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish benihoya muhim ahamiyat kasb etadi.

11-mavzu. Sportning globallashuvi. Jinoyatning globallashuvi

Reja:

1. Sportning global jarayonga aylanishining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Sportning globallashuviga olimpiya xarakatining ta'siri.
3. Sport globallashuvining ijobiy va salbiy xususiyatlari.
4. Texnik modernizatsiyalashgan jinoyat: sputnik aloqa internet, hozirgi zamon etnik vositalari.
5. Giyohvandlik moddalarni tarqatish va iste'mol qilishning globallashuvi.
6. Terrorizm globallashuvining qurol savdosiga ta'siri.
7. Qurol savdosi jinoyat globallashuvidagi yangi bo'g'in.
8. Odam savdosi – trafikaning globallashuvi.

Insoniyat asrlar davomida sinovdan o`tgan ijtimoiy hodisa, jismoniy mashqlarni ya`ni, sportni – sog`lom turmush tarzini shakllantirishning garovi deb, bejiz aytmagan. CHunki sport millati, irqi, dinidan qat`iy nazar, barchaga o`zlarining sog`lom turmush tarzlarini tashkil etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib beradigan omillardan biridir.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan sportni ommalashtirish borasida ko`pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Sportga e`tiborning kuchayishi bevosita yangicha tafakkur hamda insonni shakllantirishga qaratilgan jamiyatning hayot faoliyati sohalariga yangi munosabatni taqozo qiladi. Biroq, ijtimoiy rivojlanishning mazkur sohasiga uzoq yillar mobaynida etarli e`tibor berilmadi. Boshqarishdagi eskicha printsip buyruqbozlik usuli pedagoglar, shifokorlar, olimlar, tarbiyachilar, murabbiy-trenerlar tashabbuslarining keng yoyilishiga muayyan darajada to`siq bo`lib keldi. Xalq ta`limi sohasi ham insonni tarbiyalash va unga ta`lim berishda insoniyatning yaratgan eng boy merosiga murojaat etmadi va ijodiy foydalanmadi.

Ta`kidlash joizki, aholining salomatligini mustahkamlash maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmokda. Bunda "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlarining hayotga tatbiq qilinishi, o`quvchi yoshlar va talabalarning turli sport musobaqalari, "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" kabi sport musobaqalari, shuningdek, xalq milliy o`yinlari, festivallari va turnirlarning muntazam tashkil qilinishi e`tiborga molikdir. Respublikamizning turli hududlarida yirik sport inshootlari qad ko`tarmokda, yangi sport maktablari, litseylar, kasb-hunar kollejlari tashkil qilinmokda. Sport jamoalarining turlari va sonlari tobora oshmokda. Bunda ommaviy

sog`lomlashtiruvchi va sport mahoratlarini oshiruvchi tadbirlarni maqsadli tashkil qilish mutaxassislar, jamoat idoralari va homiylardan katta tashkilotchilik, diqqat-e`tiborni talab etadi.

Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o`zligimiz, azaliy qadriyatlarmizga yot va begona bo`lgan turli xil hurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g`arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yoshlar o`rtasida sog`lom turmush tarzi tamoyillarini yanada mustahkam qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta`sirlardan, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi tahdid va hatarlardan asrash masalalari bir zum ham e`tiborimizdan chetda qolmasligi yurtboshimiz tomonidan alohida qayd etib o`tilgan edi.[167[141]]

Tarixiy an`analarimiz va qadriyatlarimizni milliy sport turlari orqali yoshlarimiz ongiga singdirishimiz hamda ularning dunyoqarashiga salbiy ta`sir qiladigan illatlardan ogoh etib, aholi o`rtasida sportni ommalashtirish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu vazifalar bizning nazarimizda, aholi istiqomat qiladigan joylarda jismoniy tarbiya va sportni jonlantirish ishlari mahalla kengashlari, sportni rivojlantirishga mutasaddi tashkilotlar, mutaxassis hodimlar va sport faollari bilan hamkorlikda olib borilsa o`zning ijobiy natijasini beradi.

Sport insonda yuksak ma`naviylik va axloqiylikni shakllantiradi. SHuning uchun ham prezidentimiz I.A.Karimov "Sportni rivojlantirish jamiyatimizda mehr-muruvvat tuyg`usini yuksaltirish borasidagi maqsadimizga, kerak bo`lsa, siyosatimizga ham juda katta hissa qo`shadi. O`zini haqiqiy sportchi deb biladigan, sport bilan chin ko`ngildan shug`ullanadigan odam hech qachon birovning rizqiga hiyonat qilmaydi, qo`pollik, baxillik, hasad kabi illatlardan yiroq bo`ladi. Bunday bolalar hech qachon ko`chada odobsizlikka borib, kuchini namoyish qilmaydi, nega deganda, uning ichki dunyosiga sport orqali yangicha qarash, yangicha insoniy hissiyotlar kiradi"[168[142]], - degan edilar.

SHunday ekan, sportni ommalashtirishimizda avvalo, ma`naviy-axloqiy muhitni nazardan qochirmaslik kerak. Zero, jamiyatning ma`naviy – axloqiy muhiti davr ehtiyojlari va talablariga ko`ra takomillashib boradi. Bugungi O`zbekistonning ijtimoiy taraqqiyoti ham jamiyat ma`naviy-axloqiy muhitining yangi tushunchalar, axloqiy qadriyatlar, tamoyillar va me`yorlar bilan rivojlanib borishini taqozo etmoqda. SHaxsni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda ideal darajadagi qadriyatlarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Bu borada, bizningcha, mutloq tushunchalarga yangicha nuqtai-nazardan qarash va asoslanishning vaqti keldi. Masalan, shaxsning axloqiylik darajasini belgilashda uning iroda erkinligiga, burchga va mas`uliyatga egaligini nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Albatta, bular mutloq axloqiylik elementlari hisoblanadi. Negaki, shaxsning iroda quvvatini, burch tuyg`usini va mas`uliyat hissining ko`lamini aniq belgilashning imkoni yo`q. Ayni paytda, bu sifatlarsiz shaxs axloqini shakllantirish masalasiga yondoshib bo`lmaydi.

Xalqimiz nafaqat boshqa sohalarda, balki sport sohasida ham o`zlarini ko`rsatishlari uchun o`z xalqining o`tmishi, azaliy odatlari va qadriyatlarini qanchalik bilishida katta ma`no bor. Barcha aholi orasida stol tennisi, shaxmat va shashka, milliy o`yinlar, engil atletika to`garaklari, guruxlar va jamoalarni ommalashtirish ularda sog`lomlashtirish tadbirlarining turli shakllaridan, shu jumladan, ertalabki gimnastika, yurish, sayoxat va boshqa turlardan keng foydalanishni yo`lga qo`yish kerak. Aholi turar-joylarida ommaviy sport musobaqalarini o`tkazishda sport inshootlari katta ahamiyat kasb etadi. Bu inshootlar belgilangan qurilish me`yorlari talablariga mos, bolalar hamda kattalarning ehtiyojlarini qondiradigan, shu turar-joy qurilishiga munosib, hamoxang bo`lishi kerak.

[167[141]] Karimov I.A. O`zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun taraqqiyot yo`lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. –T.: O`zbekiston,2009. – 16 b.

[168[142]] Karimov I.A. Jismoniy va ma`naviy etuk avlodni tarbiyalash – bosh maqsadimiz .//Tinchlik va xavfsizligimiz o`z kuch – qudratimizga, hamjihatligimiz va qat`iy irodamizga bog`liq. T.12. –Toshkent: O`zbekiston, 2004. B. 149-150.

Mustaqillik sharofati bilan shakllangan milliy va umumxalq bayramlari kabi sport bayramlariga ham katta e`tibor qaratilayotganligi quvonarli xoldir. Bu esa barkamol avlodni jismonan sog`lom qilib tarbiyalash ishlarini samarali tashkil etishda o`zining ijobiy natijasini beradi. Zero, sportni ommalashtirish orqali sog`lom turmush tarzini shakllantirishga erishish mumkin.

Istiqlol sabab ta`lim sohasida eng maqbul dasturlarning o`z vaqtida uzoqni ko`zlab ishlab chiqilishi, ta`lim – tarbiya jarayonini tubdan isloh etish, takomillashtirish, kelajak poydevori bo`lgan yoshlarning aqli va salohiyatini zamonaviy bilimlar bilan charxlash, ta`lim maskanlarining moddiy – texnik bazasini mustahkamlash, har tomonlama barkamol, chuqur bilim, mustahkam e`tiqod va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan avlodni voyaga etkazishda g`amho`rlik qilish, yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug`ullanishiga doimiy e`tibor qaratish davlat siyosati darajasiga molik bo`ldi. YUrt farzandlarining mamlakat va dunyo sport maydonlarida yuqori pog`onalarni egallayotgani yurtboshimiz tashabbusi va sa`y -harakati bilan o`tkazilayotgan uch bosqichdan iborat uzluksiz tizim-**“Umid nihollari”, “Barkamol avlod”,** va **“Universiada”**dagi zafarli odimlar bu yo`nalishdagi e`tiborning mevasi desak, mubolag`a bo`lmaydi.

Jamiyatning jon tomiri hisoblangan sog`lom, barkamol avlod tarbiyasi, sog`lom turmush tarzini shakllantirish, ommaviy sportni takomillashtirish, aholining barcha qatlami orasida jismoniy tarbiya va sportni yanada oshirish zamirida ikki jihat mujassam.

Avvalo, mamlakatimizda sport – sog`lomlashtirish ustuvor masala sifatida e`tirof etilib, qisqa fursat ichida uning huquqiy asosi yaratildi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sport sohalariga etarlicha shart-sharoitlar yaratish borasida qaror, farmoyish va qonunlar qabul qilindi, keng jamoatchilik orasida uning targ`iboti olib borildi. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi “O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora – tadbirlar to`g`risida”gi 271-sonli Qarori yoshlar sportini ommaviy ravishda rivojlantirish, jamoatchilik orasida turli sport tadbirlarini uyushgan holda tashkil qilishga qaratilgan bo`lsa, 2003 yil 3 iyundagi “O`quvchi talaba - yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to`g`risida”gi 244-sonli Qarori umumta`lim maktablari, akademik litsey, kasb – hunar kollejlari o`quvchilari va oliy ta`lim maskani talaba – yoshlariga jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy, uzluksiz tartibda shug`ullanish imkoniyatini berdi.

Ikkinchidan, mamlakat miqyosida ommaviy sportni rivojlantirish, aholi turli qatlamlarining sport bilan shug`ullanishiga imkoniyat yaratish, sohaga ixtisoslashgan sport muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlashga alohida e`tiborning natijasi o`laroq sport- sog`lomlashtirish maskanlari, olimpia zahiralari o`quv muassasalarining faoliyati tubdan yaxshilandi. Bugun nafaqat poytaxtimiz Toshkent va viloyat markazlarida, balki chekka tumanlarda zamonaviy uslubda jihozlangan sport majmualari bunyod etildi. YAngidan qurilgan, xalqaro mezon va talablarga mos keladigan sport majmualari, suzish havzalari, tennis kort va stadionlarda uch bosqichli sport musobaqalari yuqori saviyada o`tkazilmoqda. Bu musobaqalar ko`plab umidli yoshlarga ilk mahoratini ko`rsatish, do`stlar orttirish imkoniyatni berish barobarida yuksak cho`qqilarni zabt etib, yurtimiz bayrog`ini baland ko`tarayotgan Ol`ga Gnedovskaya, Mariya SHekerova, El`dar Hafizov, Vadim Men`kov, Ruslan Naurzaliev, Vyacheslav Didrix, Serik Mirbekov, Ol`ga Umaralieva, Aleksey Mochalov, Temur SHokirjonov kabi talabalarimizning davomchilari ko`payishiga zamin yaratmoqda.

2010 yil – Barkamol avlod yili deb e`lon qilindi. Sir emaski, internet tez va arzon axborot yo ma`lumotlarni olish, etkazish hamda qayta ishlashda chegara bilmaydigan manba sanaladi. Kundan – kun safi kengayib, foydalanuvchilar soni oshayotgan mazkur tizim dunyo

hamjamiyatining axborotga bo`lgan qiziqishini qondirmoqda. Bugungi kunda korxona, tashkilot, muassasa, oliy va o`rta maxsus ta`lim maskanlari, turli darajada bo`lsada, Internetdan foydalanmoqda. Ammo "Internet kafe"larda vaqtini huda – behudaga sarflayotganlar ham topiladi. "Uzoqni yaqin qiladigan" manba sifatida qaraladigan Internetning ko`proq yoshlar kiradigan saytlarini yaxshi ma`lumotlar bilan tamoman yangilash zarur. Sababi – sog`lom turmush tarzi, uni shakllantirish, ma`nan yuksak, axloqan pok kishilarga taalluqli sifatlar asosida bolalarni tarbiyalash ikkinchi darajada tushib qolayotganday, nazarimizda. "Ommaviy madaniyat" niqobi ostida G`arbona kiyinish, o`ziga ortiqcha oro berish, G`arbona "tavoze" bahonasi ostida milliy – ma`naviy qadriyatlarimizga mutlaqo zid, har turli evrilishlarni targ`ib etuvchi g`oyalarning yoshlarimiz ongini zaharlashiga qo`l qovushtirib qarab turib bo`lmaydi. SHuning uchun ta`lim tizimidagi saytlarning ma`lumotlar bazasini sog`lom turmush tarzi talablari, giyohvandlik, kashandalik, ichkilikbozlik oqibatida yuzaga keladigan irsiy kasallanishlariga qarshi kurash profilaktikasiga oid axborotlar bilan boyitish, yangilash zarur. SHuningdek, bolalar, yoshlar va o`smirlarning jismoniy tarbiya sohasida ayniqsa, qishloq joylarida qizlarni muntazam ravishda sport bilan shug`ullanish jarayonini kuchaytirish, zamonaviy sport anjomlari bilan jihozlangan inshootlarni barpo etish, yuqori malakali trener va murabbiylar bilan mustahkamlash zarur. Bu borada institutimizda YUrtboshimizning sa`y harakati bois 2006-2007 o`quv yilidan boshlab xotin-qizlar sportini rivojlanitirish yo`nalishida viloyatlardan 220 nafar qizlarni qabul qilyapmiz. Hozirda 800 nafardan ortiq talaba-qizlar sport, jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat sir – asrorlarini qunt bilan o`zlashtirmoqda. 2006 yil aprelidan faoliyatini boshlagan Malaka oshirish fakul`teti "Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat", "Jismoniy tarbiya va sport trenirovka asoslari", "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati" yo`nalishlari bo`yicha oliy ta`lim muassasalari va akademik litsey, kasb – hunar kollejlarining jismoniy tarbiya o`qituvchilari hamda trenerlarining malakasini oshirishga xizmat qilyapti.

- YOshlar o`rtasida sog`lom turmush tarzi asoslarini singdirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, turli illatlar xavfi va zararli ta`sirlaridan himoya qilish choralarini kuchaytirish muhimdir. Jamiyat rivoji uchun amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi, davlatlararo munosabatlarning o`rnatilishi kishilar salomatligi, sog`lom turmush tarzi va sog`lom oilalarga bevosita bog`liq. Har taraflama ta`minlangan, kundalik hayot tarzi qoidalariga muntazam rioya etadigan oilada sog`lom, baquvvat, salohiyati baland farzandlar tarbiya topadi. O`z – o`zidan bu oilada tarbiyalanayotganlar jamiyat takomili ildizlariga bolta urayotgan – giyohvandlik, ichkilikbozlik, kashandalik illatlariga qarshi tura oladi. Bu borada institutimizdagi "Anatomiya va fiziologiya", "Bioximiya va gigiena", "Sport tibbiyoti va davolash jismoniy tarbiya" kafedralari tomonidan maxsus tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Xullas, sog`lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlar o`rtasida sport – sog`lomlashtirish ishlarini yaxshilash, ommaviy sportni rivojlantirishdan maqsad – o`sib kelayotgan yosh avlod qalbida sportga muhabbat tuyg`ularini kamol toptirish, ularning sportda erishgan natijalarini namoyish etish, sog`lom turmush tarzi tamoyillarini, mustahkam iroda, vatanparvarlik va el – yurt fidoyilarini singdirish, sport bilan shug`ullanishi uchun zamonaviy talablar darajasidagi sharoitlarni yaratish, yoshlar ongida olimpiya tamoyillarini qaror toptirish. Bu ulug` maqsadni ro`yobga chiqarishda barchamiz kamarbasta, hamjihat harakat qilsak, sog`lom fikrli jamiyat takomili tezlashadi.

Mamlakatimiz kelajagi bo`lgan yoshlarni ma`naviy va jismoniy etuk qilib tarbiyalashda milliy sport o`yinlari, ularning kelib chiqish tarixi to`g`risida yoshlarga to`g`ri va aniq, shu bilan birga qiziqarli ma`lumotlarni taqdim etish maqsadga muvofiq. Bu esa barkamol avlod ongida milliy an`nalarimizga bo`lgan mehrni oshiradi va ularni qadrlashni o`rgatadi. SHu bilan birga,

musobaqalar davomida sportchilarning o`z Vatani sha`nini fahr bilan himoya qilishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Milliy o`yinlarining kelib chiqish tarixi, sport o`yinlari haqidagi qarashlari, ularga bo`lgan munosabatni o`rganish masalasi g`oyatda dolzarb Bugungi kunda kelib sport etarli darajada o`z ta`sir kuchiga ega bo`lib bormoqda. Zero, sport katta guruhdagi insonlarni birlashtirishi yoki tarqatib yuborishi ham mumkin. CHunki sport maydonlaridagi motivlashmagan vahshiylik holatlari yil sayin oddiy holat bo`lib bormoqda. Ayrim tomoshabinlar va fonatlar sport o`yinlarini ko`rgani emas, balki musobaqalarning asosi bo`lgan janjallarni ko`rgani keladilar.

Tomoshabinlarning sportdagi bu kabi zo`rlashlarga va agressiyalarga qiziqishlarining sababi nimada? Bunday xolatlar davr taqazosimi yoki ijtimoiy-madaniy yoki biologik ehtiyojimi? Bu kabi savollar sport sohasini o`rganuvchi ko`pchilik tadqiqotchilarni xavotirga solib kelmoqda. Bu borada sport G`arbning aksariyat gumanitar sohalaridagi xulq-atvorni o`rganuvchi fanlar - psixologiya, sotsiologiya, falsafa, tarix, madaniy va ijtimoiy antropologiya, etnologiya kabi fanlarning obyektiga aylangan.

Agressiv insoniy instinktlar sotsial shartlangan xarakterga ega. O`rta asrlardagi urushlar xalqlar tasavvurida o`zini himoya qilish akti sifatida tushunilgan: jangari va o`limga olib keluvchi sport o`yinlari xuddi odatlar sifatida qabul qilingan. Olmon sotsiologi Norbert Elias fikricha, qadimgi yunon sport o`yinlari Olimpiya harakatlarida mashhur bo`lgan va haqiqiy sport o`yiniga emas, balki urush etikasi va g`urur kodeksiga asoslangandir. U davrdagi sport o`yinlarida rasmiylashtirilgan va qonunlashtirilgan qoidalar bo`lmagan. Bu esa odamlarning sport maydonlaridagi qonli janglarga xotirjam munosabatda bo`lganlarini ko`rsatadi. CHunki hayotning o`zi o`sha davrda bir qadar murakkab va agressiv bo`lgan.

Turli xil odatlar va an`analar (dafn marosimlari) shuningdek, taqvim bo`yicha o`tkaziladigan bayramlar qonli bo`lib, insonlarni qurbonlikka keltirish bilan amalga oshirilgan. Bizgacha etib kelgan manbalarga qaraganda, qadimiy atsteklarda guruhiy, jamoaviy o`yin mavjud bo`lib, unda o`yin quyma koptok bilan o`ynalgan va bu zamonaviy basketbolni eslatadi. Bu o`yinda g`olib bo`lganlar hayoti saqlab qolingan va mag`lublarning hayoti bilan qurbonlik amalga oshirilgan. CHunonchi, mashhur ajdarho qayiq o`yinlari xitoyliklarda quyosh tikkaga kelgan kunlarda o`tkazilgan. Zamonaviy irlandiyaliklarning ajdodlari o`tkazgan taqvim bayramlaridagi «xerling» bayrami esa insonlarni qurbon qilish bilan yakunlangan. Etrusklar mashhur va hurmatli insonlarni dafn etish marosimlarida, Kavkazdagi ba`zi xalqlar orasida o`smirlarning ot o`yinlarida o`lganlar xotirasi uchun musobaqalashganlarni odatiy o`limga qurbon qilish kuzatilgan. Bundan tashqari, Rim imperatorlari o`z xalqi qonli janglarni tomosha qilib, zavqlanishlari uchun, gladiatorlar jangini uyushtirganlar. Bu o`yinda jangchilarning bittasi qurbon bo`lishi kerak bo`lgan. Musobaqalar davrida, an`anaviy o`yinlarda agressiya instinkti va insonlar o`limini ratsional tushuntirib berish ham mumkin. Britaniya orollarida sanoat inqilobiga qadar ommaviy koptok o`yinlari har doim urush va janjallar bilan o`tgan. Odatda bunday nizolar o`yingacha yuzaga kelgan, bu qo`shni qishloqdagilar bilan yoki o`zaro uylangan va uylanmagan yigitlar orasida yuzaga kelgan. SHuningdek, «Ommaviy futbol» o`yinlari ham alohida hodisa bo`lib, o`ziga xos urf-odat sanalgan va bu o`yinni «dushmanlaridan o`ch olish maqsadida» intizorlik bilan kutganlar.

Xitoy madaniyatida odatiy qayiq o`yinlari ham, irlandiyaliklarning «xerling» o`yinlari ham yangi davrda oddiy ko`ngilochar o`yinlarga aylanib, affektiv razryadkaning vositasi sifatida xizmat qiladi.

Jahon tajribasiga ko`ra agressivlikning darajasi odatiy va industrial jamiyatda vaqt, madaniy distantsiya bilan bir-biridan ajralib turadi. Har bir madaniyatda inson xulq-atvori ma`lum bir instinktlar va odatlar bilan motivlashtirilgan bo`ladi, bu jamiyatning tarixiy-madaniy rivojlanishi

jarayonida ishlab chiqilgandir. Ba`zi bir madaniyatlarda urushqoqlik va agressivlik ko`proq qadrlansa, boshqalarida do`stona munosabatlar, tolerantlik ko`proq qadrlanadi.

Turli xil madaniy guruhlar va xalqlarda sportning ko`rinishlari o`zining agressivlik darajasi bo`yicha o`ziga xos ravishda qabul qilinishi mumkin. Masalan o`zbeklardagi "uloq", qozoqlardagi "ko`pkar", qirg`izlardagi "ko`k bo`ri", tojiklardagi "buzkashi" kabi an`anaviy ot o`yinlari Markaziy Osiyo va Afg`oniston xalqlarida shunchalik mashhurki, boshqa madaniyat vakillarida buni ilk bor ko`rganlarida ularda boshqacha tassavur hosil qilgan. Xuddi shuningdek, an`anaviy vallilarning "Regbi" o`yini ham o`zining agressivligi bilan Yevropaliklarni "lol qoldirishi" mumkin. Ispaniyaliklarning "Korrida" o`yini esa ko`pchilik angliyaliklarning nigohida vahshiy varvarlarning ko`ngilxushligi sifatida qaraladi.

SHu bilan birga zamonaviy boks o`zining kelib chiqishi bo`yicha Angliyaga borib taqaladi, ko`pchilik ispaniyaliklar tomonidan bu sportning eng vahshiy turi sifatida qabul qilinib, ular buni insonlarning qadr – qimmatini pastga urish deb tushunganlar. Ba`zi bir Indoneziyaning SHarq YAkka kurashi maktablarida kurashchilarning arenadagi haddan ortiq qahr-g`azabi va to`liq kontakti ular madaniyatining an`anaviy va boshlang`ich falsafasi sanaladi. Bu kabi amaliyotlarni zamonaviy sport turlariga - ularning universal qoidalar asosida o`tkazilishi ko`pchilik ustozlari tomonidan negativ reaktsiyani paydo qiladi. Ularning fikricha, bu an`anaviy uslubning ma`naviy asosini yo`qotadi va an`anaviy madaniyatni dasturlashtirilgan oddiy shouga aylantirib qo`yadi. Bu esa ularning mardlik va erk kabi tushunchalariga zid hisoblanadi.

Agressiv sport turlariga bo`lgan turlicha xulq-atvor streotiplar bir-biriga yaqin bo`lgan madaniyatlarda ham, shuningdek, xuddi shu madaniyat atrofida ham bo`lishi mumkin. Masalan, Pomir, Kavkaz yoki Tyan`-SHan, Ximolay xalqlarida yosh erkaklarning turli sport o`yinlarida qatnashishi har doim erkaklarni o`zini ko`rsatish uchun imkoniyat bo`lib, sportdagi g`alabalar esa g`oliblar g`ururining ifodasi hisoblangan. Bu xolat ularning jamoada hurmati va ehtiromini mustahkamlagan. Kavkazning ba`zi bir xalqlarida esa, sport o`yinlari haqiqiy musoboqalashuv, jang sifatida qabul qilingan, sport ustalari tinchlik paytida ham, urush davrida ham jamiyatda birdek baholangan. Qadimiy xettlarning musoboqalar bayrami *zahhiya* (kurashmoq, engmoq) deb atalgan. Unda sport musoboqalaridagi g`oliblik sharaflangan bo`lsa, mag`lubiyat esa o`lim sifatida qabul qilingan .

Amerikalik antropolog Devid Gilmorning kuzatishlariga ko`ra, ba`zi jamiyatlarda erkaklik idientivligini ko`rsatishning bitta yo`li bu musobaqalar o`yinidir. Bunda erkaklar o`zlarining ijtimoiy mavqelarini namoyon etganlar. Masalan, Markaziy Braziliyaning meinaku xindularidagi qabilalarning barcha erkaklari kun ora bo`lib o`tadigan kurash musobaqalarida qatnashishga majbur bo`lganlar. Bunda "kurash gilamidagi" agressivlik tabiiy erkaklarga xos boshlang`ich xususiyat sifatida qabul qilinib, qo`rqoqlik va lapashanglik esa qobiliyatsizlik sifatida qaralgan, Bu, o`z navbatida, ijtimoiy ostrakizm sifatida tahdid solgan.

Bir vaqtning o`zida ba`zi bir madaniyatlarda boshlang`ich agressivlikni tarbiyalash rivojlantirish axloqdan tashqari, deb hisoblangan. Masalan, Polineziyadagi taityan, Markaziy Malayziyadagi semai xalqlarida har qanday agressivlik gunoh sanalib, bunday o`yinlar qat`iy ta`qiqlangan. Xitoy va YApon "YAkka kurash"larida, shuningdek, budda falsafasiga ko`ra agressiya ustidan har doim tinchliksevarlik g`alaba qozongan. Musobaqaning boshlanishi hujum mashqlari kombinatsiyasi bilan emas, balki o`zini himoya qilish harakatlari bilan boshlanadi. Buning asosiy maqsadi raqibdan kelayotgan zarbalarning ongli ravishdagi aksi va aql bilan jahlning qaytarilishidir.

YUqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, yosh avlodni ajdodlarimiz an`analari, qadriyatlari va madaniyati asosida tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz alohida

o`rin tutadi. SHu bois turli millat vakillarining madaniy an`analariga xos bo`lgan sport o`yinlaridan ibratlilarini rivojlantirishimiz, davom ettirishimiz va barkamol avlodga etkazishimiz zarur.

O`zbekiston mustaqillikka erishib, dunyo xaritasidan o`rin egalladi. Bu davr ichida O`zbekistonda huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo`lida dadil qadamlar qo`yildi. O`zbekistonda mustaqillikni mustahkamlash, davlat va jamiyatni demokratlashtirish hamda erkinlashtirish borasida erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarni dunyodagi eng rivojlangan davlatlar ham e`tirof etmoqda. Mustaqillik yoshlarning huquqiy savdxonligi va huquqiy tarbiyasiga alohida e`tibor qaratib, ularga qonun doirasida ish tutishga o`rgatmoqda. Respublikamiz oldida turgan g`oyat muhim vazifalardan biri jinoyatchilikka qarshi kurash olib borishdir. Bu muommani hal etish davlat va fuqarolar tomonidan doimo kuch g`ayrat sarflashni, ijtimoiy-iqtisodiy, tarbiyaviy va huquqiy tadbirlarni og`ishmay amalga oshirishni taqozo etadi. Qaysi qilmishlar jinoyat hisoblanadi, mazkur jinoyatni sodir etgan shaxslarga qanday jazo berilishi lozimligini belgilab beradigan huquqiy me`yorlar katta ahamiyatga ega. CHunki inson huquqlari va manfaatlarini kafolatlash va ta`minlash har qanday davlatning birinchi darajali vazifasidir. Respublikamiz Konstituttsiyasining 26-moddasiga ko`ra, hech kim sud hukmisiz va qonunga nomuvofiq holda jinoyat sodir etishda aybdor deb topilishi hamda jinoiy jazoga tortilishi mumkin emas.

Jinoyat qonunchiligining printsiplari. ***Qonuniylik printsipi***. Sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi. Hech kim sudning hukmi bo`lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishdaa jazoga tortilishi mumkin emas. Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs qonunda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi. ***Fuqarolarning qonun oldida tengligi printsipi*** - jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e`tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat`i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo`lib, qonun oldida tengdirlar. ***Demokratizim printsipi***. Jamoat birlashmalari, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari yoki jamoalari jinoyat sodir etgan shaxslar axloqini tuzatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb qilinishlari mumkin. ***Insonparvarlik printsipi***. Jazo va boshqa huquqiy ta`sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko`zlamaydi. Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan uning axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda etarli bo`ladigan jazo tayinlashi yoki boshqa huquqiy ta`sir chorasi qo`llanilishi kerak. Jazolashdan ko`zlangan maqsadga ushbu kodeks Maxsus qismining tegishli moddalarida nazarda tutilgan engilroq choralarni qo`llash orqali erishib bo`lmaydigan taqdirdagina og`irroq jazo choralari tayinlanishi mumkin. ***Odillik printsipi***. Jinoyat sodir etishda aybdor bo`lgan shaxsga nisbatan qo`llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta`sir chorasi odilona bo`lishi, ya`ni jinoyatning og`ir-engilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy havflilik darajasiga muvofiq bo`lishi kerak. Hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas. ***Ayb uchun javobgarlik printsipi***. SHaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy havfli qilmishlari uchungina javobgar bo`ladi. ***Javobgarlikning muqarrarligi printsipi***. Qilmishda jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart.

Jinoyat – axloqiylik tamoyillari asosida tarkib topgan huquqiy talablar, qonun-qoidalar ustuvor bo`lgan fuqarolik jamiyatida ushbu me`yorlarga mensimasdan munosabatda bo`lish oqibatida shaxsiy manfaatlar ustunligi hamda o`zgalar haq-huquqlarini buzish natijasida sodir etilgan qodisa. Falsafiy kategoriya sifatida jinoyat tushunchasi kishilarning muayyan nopok maqsadlarini amalga oshirish yo`lidagi amaliy xatti-harakatlari majmuasini aks ettiradi. bashariyat taraqqiyoti davomida jamiyat rivoji va ravnaqi uchun xizmat qiluvchi ezgu muddaolarni maqsad

qilib olgan hodisalar qatori unga zid ravishda, ba`zan jinoyat turkumiga kiruvchi hodisalar ham sodir etilib keladi. Bu hodisalar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmaydi, balki uni tanazzulga etaklaydi. shu bois jamiyat a`zolari hamda turli ijtimoiy tashkilotlar, sotsial in-tlar tomonidan jinoyat hodisasi qoralanib keladi va unga qarshi kurash olib boriladi. Bu yo`lda dastavval jinoyatni keltirib chiqaruvchi sabablar va motivlarni aniqlash muhim. Zero, har qanday jinoyat, avvalo, ijtimoiy hodisa sifatida tasodifan ro`y bermaydi. hattoki, ba`zan ehtiyotsizlik oqibatida tasodifan ro`y bergan jinoyat deya talqin etiladigan hodisa ham, aslida muayyan ijtimoiy ildizlarga bog`liq bo`ladi. SHuning uchun bu hodisaning shart-sharoitlarga bog`liq sabablarini aniqlamasdan, unga qarshi kurash ko`zlangan samarani bermaydi. Faqat shundan so`nggina turli usul va vositalar yordamida unga qarshi kurashish lozim bo`ladi. agar jinoyatga qarshi kurash olib borilmasa, bir jinoyatning ikkinchi jinoyat ni keltirib chiqarishi xavfi ortib boradi. bu esa, jamiyat hayotida jinoyatchilik deb atalmish hodisaning ildiz otishiga olib keladi. Bu holda jamiyatning ma`naviy hayotiga katta putur etadi. jinoyatchilik tufayli davlat va jamiyatga katta moddiy va ma`naviy zarar etishi, kishilarning tinch-osoyishta turmushi izdan chiqishi, davlat boshqaruvidagi barqarorlik o`rniga beqaror tartibsizliklar ro`y berishi mumkin. binobarin, jinoyat amaldagi axloqiy, ma`naviy, huquqiy tamoyillar hukmron bo`lgan jamiyat hayotiga yot hodisadir.

Terrorizm va uning turli shakllari masshtablari jihatidan ijtimoiy-siyosiy va ma`naviy muammolar oqimini yuzaga keltirdi. Terrorizm va ekstremizm oqimlarining turli ko`rinishlari kundan-kun mamlakatlar va ularning fuqarolarini xavfsizligiga tobora tahdid solib bormoqda. Terror natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy bosim yuzaga keltirilmoqda. Va shuningdek, insonlarning ruxiyatida kurkuvni shakllantirishi natijasida, psixologik xavfsizlikka ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Zamonvaiy terrorizmning mojoroli manbai XX asrning 60-yillaridan boshlab o`sib kelmoqda. O`sha vaqtdagi butun mamlakat hududlarida terrorizmning dunyo miqyosida tarqalishiga faol maydon va o`choqlari paydo bo`lishi sabab bo`lgan edi. Hozirda 500 ga yaqin noqonuniy terroristik tashkilotlar maxsus organlar tomonidan qayd etilgan. Birgina 1968-1980 yillar oralig`ida 6700 ta terroristik akt sodir etilgan bo`lib, uning natijasida 3368 kishi halok bo`lgan bo`lsa, 7474 kishi jarhatlangan.1980-85 yillar oraligida 500-800tagacha 1990-yil arafasida esa 900 va undan oshikrok terroristik xuruj sodir etilgan. Hozirda terroristik faoliyatning avj olayotganligi jahon afkor ommasi tomonidan e`tirof etilmoqda. Jumladan, maxsus tayyorlangan shaxs guruh va tashkilotlar faoliyatida terror xarakterining murakkablashib, vaxshiylik asosida va insoniylikdan tashqari bo`lgan me`yorlar orqali o`sib borayotganligi kuzatilmoqda. Bir qator Rossiya olimlari va xorij tadqiqot markazlari ma`lumotlariga qaraganda umuman terror sohasi bo`yicha tashkil etgan byudjet 5-20 milliard dollargacha etgan.

Terrorizm xalqaro va global muammo darajasiga chiqqanligini uni bartaraf etish borasida jahon hamjamiyatini hamkorlikka intilayotganligi bilan belgilash mumkin. Bizga ma`lumki, yaqindagina terrorizm haqida gap borganda uni lokal hodisa sifatida qayd etish ustuvor ahamiyat kasb etgan edi. Lekin u XX asrning 80-90 yillaridan boshlab u universal fenomenga aylandi. Terrorizmning globallashuvi va keng miqyosda integrallashuvi buning yorqin dalilidir. Bu fenomen turli sohalarda xalqaro aloqalar va hamkorlikni kengayishi hamda globallashuvini o`sib borishi bilan ham belgilanadi. Zamonaviy terrorizmni kuchayib borishi ko`p sonli terror tashkilotlar guruhlar bilan bir qatorda ularni qo`llab quvvatlovchi turli strukturalardan tortib butun boshli homiy mamlakatlarning faoliyati bilan ham bog`liq. Bugun terroristik tashkilotlarni moddiy tarafdan ko`llab quvvatlash asosida arab neft ishlab chiqarish soxasidagi daromadni nojoiz ishlatish xolatlarini kuzatilayotganligi va rivojlangan G`arb davlatlari tomonidan amalga oshirilayotgan strategik maqsad va vazifalarni amalga oshirishning hosilasidir degan yondoshuvlar ham mavjud.

Ularning birinchilarida ortiqcha pul bor. SHuning uchun o`zining moliyaviy zahirasini Rassiya, Afg`oniston yoki Kosova va boshqa shu kabi bir qator mamlakatlarda nizolarni keltirib chiqarish va ularni fukorolarini xavfsizligiga putur etkazish asosiy maqsad qilib olingan. Rivojlangan mamlakatlar xududida turli diniy va etnik oqim hamda diasporalar mavjudki ular o`zga ijtimoiy-madaniy muhitdan qoniqmayotganliklari oqibatida boshqa mamlakatlardagi "akalari" ularni qo`llab quvvatlashiga olib kelmoqda. Umuman olganda zamonaviy terrorizmning ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy manbai shunday omillar bilan belgilanadi.

Dunyodagi odamlarni terroristik hurujni avj olishdan xavfsirashi uning qurbonlari soni ko`pligi va yangi texnologiyalar orqali etkazilayotgan zararlarni ko`rinayotganligi va binolarni vayronalarga aylanayotgani bilan ham asoslash mumkin. Terror davlatning siyosiy tartiboti bilan bir qatorda davlat qurilishining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasiga ham salbiy ta`sir ko`rsatishini har bir ongli odam esdan chiqarmasligi kerak. Bu yaqin vaqt oralig`ida terroristik hurujlar asosida SHimoliy Irlandiya, AQSH, Rossiya, Keniya, Tanzaniya, YAponiya, Argentina, Hindiston, pokiston, Jazoir, Isroil, Misr, Turkiya, Albaniya, YUgaslaviya, Kolumbiya, Eron, Tojikiston va O`zbekistonimizda ham bir qancha insonlarni qurbon berilishi va moddiy zararlarni qayd etilishini ko`rishimiz mumkin.

Zamonaviy terrorizmning asosiy xarakterli jihati shundan iboratki, unda ma`lum bir xududda paydo bo`lgan yovuz g`oya yoki harakat zamonaviy texnika, texnologiya va axborotlar oqimi orqali dunyo miqyosida keng tarqalmoqda. Zamonaviy terrorizmni yana milliy, diniy, etnik nizolar, separatistik harakatlar bilan ham izohlash mumkin.

Zamonaviy terrorizmni qo`llb quvvatlayotgan tashkilotlarning maqsadli faoliyati asosida mafkuraviy, harbiy, tijoriy va siyosiy masalalar yotganligini ko`rish qiyin emas albatta.

Zamonaviy terrorizm faqatgina dunyo aholisi ruhiyatiga qo`rquv solib qo`ymasdan balki inson hayotini barbod qiluvchi narkotik va harbiy qurol-yaroq savdosini turli yo`nalishlarda tarqatayotganligi bilan ajralib turadi. SHuningdek zamonviy terrorizm informatsion jamiyatda axborotlar sohasida ham hukmronlikka erishishga harakat qilmoqda. SHuning uchun ham hozirda kiberterrorizm tushunchasi ijtimoiy-ilmiy muomalada keng qo`llanilmoqda. Zamonaviy terrorizmning bu shakli davlatlar va uning fuqarolariga o`zining tez tarqalishi va ta`sir doirasi bilan juda katta miqdorda moddiy va ma`naviy zarar etkazayotganini ko`rish qiyin emas albatta. Masalan, 1996 yil AQSH universitetining matematika bo`yicha professori qo`lga olindi. U T.Kazinskiy bo`lib 18 yil mobaynida butun amerika aholisini qo`rquvda yashashga majbur qilgan. Uning yovuz maqsadini amalga oshiruvchi obyekti va diqqat e`tibori universitetlar, aviakompaniyalar, komp`yuter bo`yicha malakali mutaxassislar hamda shu komp`yuter sohasida oldi-sotdi tijoratchilar bo`lgan. Bu terrorchining maqsadi ilmiy-texnika taraqqiyotini falokatga olib borishi va urbanizatsiyani insoniyat taraqqiyotiga salbiy ta`sir ko`rsatishini isbotlashdan iborat bo`lgan. Buning uchun u eng avvalo o`zining terroristik hurujini amalga oshirish maqsadida amerikaning mashhur gazetalarida o`zining qarashlari ifodalangan manfestini targ`ib qilishga harakat qilib bunday yondoshuvni qo`llab quvvatlashga ularni majbur qilgan.

Zamonaviy terrorizm o`zining murakkat ta`sir ko`rsatish usullari, vositalari va texnologiyalariga ega. SHuning uchun ham unga qarshi kurashda zamonaviy fan va texnika hamda ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlardan foydalanish nafaqat jahon afkor ommasi uchun balki, mustaqil O`zbekistonimiz uchun ham strategik ahamiyatga ega bo`lgan maqsad va vazifalardan hisoblanadi. Bugun dunyoning barcha mamlakatlari ijtimoiy, siyosiy hayotida xilma-xil ommaviy axborot vositalarida eng katta tashvish bilan o`z ifodasini topayotgan muammo-xalqaro terrorizm va ekstremizm ekanligiga hech qanday shubha yo`q.

Bugun insoniyat yangi ming yillikka qadam qo`ygan, o`z taraqqiyotining misli ko`rilmagan cho`qqilariga ko`tarilgan bir davrga kelib shunday muammoga ro`baro` bo`ldiki, uning halokatli nafasini butun dunyo yaqindan sezmoqda. Hozirgi vaqtda terrorizmning tajovuzidan o`zini xoli his qiladigan birorta qit`a yoki davlatning o`zi yo`q. Xuddi vabo kabi er yuzining ko`plab mamlakatlariga yoyilib borayotgan bu balo-qazo ertaga kimni nishonga olishini ham oldindan aytish qiyin.

Terrorizmning ko`lami kengayib, barcha qit`alar va mamlakatlarni qamrab olayotganligi uchun XX asr 2-yarmidan «Xalqaro terrorizm» deb atala boshlandi. Terrorizm o`tmishda bir yoki bir necha shaxsning g`arazli manfaati yo`lida xizmat qilgan bo`lsa, XIX asr oxirida va XX asr boshlaridan boshlab, xalqaro miqyosda ish boshlab butun er yuzida qotil, aqidaparast, johil guruh oqimlarini hukmronlik qilishi uchun vosita sifatida foydalanildi. Bunga bol`shevizm, fashizm, diniy ekstremizm misol bo`la oladi.

Bugun biz terrorchilik misolida xalqaro miqyosda uyushgan, bir necha qudratli markazlar tomonidan siyosiylashgan xalqaro jinoiy guruhlarni ko`ramiz. Eng dahshatlisi, terrorizmni qo`llab-quvvatlovchi, uni moliyaviy ta`minlovchi g`oyaviy rahnamolik ma`suliyatini o`z zimmasiga oluvchi guruhlar, markazlar, hatto davlatlar paydo bo`ldi.

Xalqaro terrorizmning iqtisodiy bazasini – noqonuniy ravishda amalga oshirilayotgan narkotik moddalar savdosi, qurol-yarog` savdosi, qimmatbaho metallar savdosi, neft` savdosidan tushadigan mablag`lar tashkil etadi. Masalan: BMT ning ma`lumotlariga ko`ra, jahondagi giyohvand moddalarning 75 % birgina Afg`onistonda etishtirilmoqda. Undan ishlab chiqarilayotgan narkotik moddalar savdosidan tushgan sarmoya milliardlab AQSH dollarini tashkil (etadi) etishi hech kimga sir emas. Ma`lumotlarga qaraganda undan tushgan foydaning ko`p qismi qurol-yarog` sotib olish va terrorchilik maqsadlari uchun qilinayapti. Demak, dunyoning tinchliksevar davlatlari ana shu moliyaviy kanallarni qonuniy ta`qiqlash haqida bosh qotirishlari kerak.

Zamonaviy xalqaro terrorizmning eng xatarli xususiyatlaridan biri uning takomillashgan qurol-aslaha va harbiy texnologiyalardan foydalanish imkoniyati va ko`lamining oshib borayotganidir. Dunyo hamjamiyati terrorist-larning an`anaviy qurollar bilan birgalikda, biologik va kimyoviy moddalardan ham foydalanishga urinishlarining guvohi bo`lib turibdi. Bunga misol hozirda AQSH va boshqa mamlakatlarga qarshi biologik hujum uyushtirish bilan bog`liq do`q-po`pisalarning kuchayib borayotganidir.

Bundan tashqari, terrorchilar yadroviy xatarning tarqatuvchilari qatoriga kirishlarini ham esdan chiqarmaslik kerak. SHu bilan birga, terrorchilar AQSH shaharlarida va Yevropaning ko`pchilik davlatlarida sodir etilgan mudhish jinoyatlaridan o`zlarining boshqa qora maqsadlari yo`lida ham foydalanishga intilmoqdalar. Masalan: ulardan go`yoki rivojlanayotgan mamlakatlar xalqlarining qashshoqligi sababi bo`lmish G`arbdan qasos olish, unga qarshi diniy ekstremistik tuyg`ularini avj oldirish. G`arbona qadriyatlarga nisbatan omma nafratini kuchaytirish yo`lida foydalanilmoq-daki, bu G`arb dunyosi hayotida izsiz qolmayotir. Terrorchilik harakatlari oqibatida aynan olingan u yoki bu davlatga etkazilgan ma`naviy va moddiy talofatlar salmog`ining adog`iga etib bo`lmaydi. Terrorchilik degan illat tag-tomiri bilan sug`urib tashlanmas ekan, bu achchiq qismat har bir davlat, xalq, millatning boshiga tushishi mumkin. Bu haqiqatni hozirgi kunda butun jahon ahli teran anglamoqda.

Umuman – terrorizm bir guruhning hokimiyatni qo`lga kiritish maqsadida qurol ishlatib qo`rqitish yo`li bilan olib boradigan siyosatidir

Keyingi yillarda jahonning qator mamlakatlarida AQSHda, Turkiya, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Rossiya, Kavkaz orti mamlakatlarida va boshqa mamlakatlarda sodir etilgan terrorchilik

xurujlari terrorizmni qachonlardir bir mamlakat doirasidan chiqib xalqaro terrorizmga aylanganini tasdiqlaydi.

Keyingi yillarda bizning yurtimizda ro`y bergan 1999 yil fevral voqealari, 2004 yil 29-30 aprel va 1 aprel kunlari Toshkent viloyatidagi, Buxoroning Romitan tumanidagi, o`tgan yili may oyida Andijon shahrida sodir etilgan mudhish terrorchilik harakatlari[169][143] va qo`poruvchilik holatlari ham ana shu xalqaro terrorchilik harakatlari bilan bevosita bog`liq deb aytishga barcha asoslar bor.

Xalqaro terrorchi kuchlar qaytadan birlashib bosh ko`tarayotgan, o`ta makkor va yovuz uslublarni qo`llayotgan bugungi murakkab vaziyatda hayotning o`zi xalqaro hamjamiyat, jumladan, mintaqamizda joylashgan barcha davlatlardan bu baloga qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirishni, bir yoqadan bosh chiqarib, bunday urunishlarga keskin zarba berishni, harqanday tajovuz va terrorchilik xurujlarini oldini olish ularning mafkuraviy zaminini yo`qotish va avvalo yoshlarimizning qalbi va ongi, sog`lom tafakkuri uchun kurashni taqazo etmoqda.

Xalqaro terrorizm biz uchun yangilik ham, ayni paytda tasodifiy ham emas. Biroq, kamdan-kam kishilargina yovuzlikni tug`ilgan zahotiyoq anglaydi, tushunadi, o`z vaqtida baho beradi va unga o`z munosabatini bildiradi. Dunyodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini oldindan anglash, payqash, oldindan bera olish qudrati O`zbekistonga, uning rahbariga nasib etgan.

Prezident I.Karimov jahon siyosatdonlari orasida birinchi bo`lib jahon ahli e`tiborini diniy ekstrimizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro, siyosiy, huquqiy asoslarini yaratishga qaratdi.

O`zbekiston rahbari 1995 yilning 24 oktyabrida BMT ning 50-yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig`ilishida, 1999 yilning 18 noyabrida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) ning Istanbul Sammitida so`zlagan nutqlarida, 2000 yilning 8 sentyabrida BMT Bosh Assambleyasining «Mingyillik sammiti»da so`zlagan nutqlarida diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda kurashishga da`vat etdi va qator printsipial chora va tadbirlarni taklif qildi.

Jumladan: «Xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish masalasini keskin qo`yish maqsadga muvofiq deb hisobladi. Mazkur markazning vazifasi – faqat terrorizmning o`zi bilan emas, balki uni qo`llab-quvvatlayotgan, qurol-yarog` va mablag` bilan ta`minlayotgan, joylarga jo`natayotgan markazlarga qarshi kurashni muvofiqlashtirishdan iborat bo`lishi darkor»,- deya uqtirdi O`zbekiston rahbari.[170][144]

Dunyo davlatlari o`rtasidagi madaniy, ma`naviy, iqtisodiy, siyosiy aloqalarni kuchaytirish o`rniga insoniyat zotiga qiron keltiradigan giyohvand moddalarning umumjahon bozorining noyob moliga aylantirish va shu yo`l bilan jahon xalqlarini tanazzulga keltirishdan dahshatliroq narsa yo`q.

Terrorizm, jumladan, xalqaro terrorizm 5-10 yillik emas, dunyo siyosatdonlarining aytishicha butun XXI asr mobaynida davom etishi mumkin ekan. Bas, shunday ekan unga qarshi chora-tadbirlarni ham birgalikda ishlab chiqish kerak.

Barchamiz bir jon bo`lib terrorizm va ekstremizm havfiga qarshi kurash olib borishimiz, «O`z uyingni o`zing asra» degan shiorning ma`nosini keng va chuqur anglab Vatanimizning tinchligini, xalqimiz osoyishtaligini ko`z qorachig`idek saqlashimiz zarur.

---

[169][143] I.Karimov. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o`z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog`liq. -T., «O`zbekiston» - 2004.

[170][144] I.Karimov. Tinchlik uchun kurashmoq kerak.- T., «O`zbekiston» - 2001.

Agar qonun yo`li bilan bu kurashning asoslari yaratilsa, hech qanday terrorizm, diniy ekstremizm bizga xavf sola olmaydi. CHunki ularni jilovlaydigan qonunlar ishga tushadi va u albatta samara beradi.

Demak, yuqorida bayon qilingan fikrlarimizni tahlil qilgan holda quyidagi xulosalarni chiqaramiz:

Terrorizmga qarshi kurashning bosh subyekti, bu har bir davlatning o`zidir, uning qonunchilik va ijrochi hokimiyatidir.

Har bir davlatda o`ylanmasdan qabul qilingan siyosiy qarorlar ham terrorizmning kelib chiqishiga sabab bo`lishi mumkin.(Misol: CHecheniston voqealarini esga olaylik).

Terrorizmga qarshi kurashish uchun u, yoki bu davlatda kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur(siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy tadbirlar).

Xalqaro terrorizmga qarshi kurashish uchun dunyo davlatlari hamkorlikda ish olib borishlari zarur. CHunki «butun dunyo yagona va o`zaro bog`liqdir».

Terrorizm va narkobiznesga qarshi kurash sohalarida hamkorlikka doir ma`lumotlarni markazlashtiruvchi yagona axborot tizimini yaratish zarur.

Eng asosiysi yaxshi samara beradigan terrorizmga qarshi kurashuvchi xalqaro markaz tuzish lozim.

Markaziy Osiyo davlatlari ishtirokida terrorizmga qarshi tezlik bilan harakat qiladigan birlashgan qurolli qo`shin tuzish ham maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ma’lumki, hozirgi vaqtda, kompyuter texnologiyalari jamiyat hayotining barcha jabhalarida keng qo‘llanilmoqda va buning evaziga turli sohalar jadal rivojlanib bormoqda. SHu tufayli, XXI asr – “axborot texnologiyalari asri”- deya atalayotgani bejiz emas. Bu kabi texnologiyalarining ta’siri insonlar turmush-tarzi va faoliyatida ham yaqqol sezilmoqda. Axborot texnologiyalarining jahon iqtisodiyoti, taraqqiyotidagi va ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi o‘rni tobora oshib bormoqda. Biroq, jamiyat hayotining ma’lum yo‘nalishlari rivojlanishi bilan bundan turli noqonuniy yo‘llar orqali o‘zining moliyaviy ahvolini yaxshilab olish niyatidagi shaxslar katta sahnaga chiqa boshlaydi. Bunday urinish esa jinoyatchilikning yangi turlarini “kashf” etadi. Ana shunday “kashfiyot”lardan biri – kompyuter jinoyatchiligi qisqa vaqt ichida o‘zining “yuqori cho‘qqisi”ga ko‘tarilib oldi.

O‘zgarib va rivojlanib turuvchi olam yoki jamiyat haqidagi turli xil ko‘rinishdagi ko‘plab axborotlar dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida yig‘ilib bormoqda. Bu ma’lumotlardan zamonaviy texnologiya vositalarisiz foydalanish katta mablag‘ hamda ko‘p vaqt talab etadi. Bunday muammolar internet (xalqaro axborot tarmog‘i)ning yaratilishi bilan hal etildi.

Hozirgi kunda internet dunyo bozorini o‘rganishda va savdo-sotiq ishlarini tashkil etishda zamonaviy biznesning eng muhim vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Internet o‘zaro aloqa bog‘lash yoki ma’lumotlar almashish tarmog‘i bo‘lib, unda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar ombori majmui dunyo bilimlar omborini tashkil etadi. Internetning kompyuterlar bilan bog‘lik bo‘lgan narsalardan muhim farqi shundaki, u o‘zi xaqidagi ma’lumotlarni ham o‘zida saqlay olishidir.

Internet tarmog‘i rivojlanayotgan keyingi vaqtlarda axborotni himoya qilish muammosi nafaqat mutaxassislarni, balki, barcha kompyuter texnikasidan foydalanuvchilarni o‘ziga jalb etmoqda. Bu esa, albatta, kompyuter texnologiyalarining inson hayoti va faoliyatiga jadallik bilan kirib kelayotgani bilan bog‘liq.

Komp`yuter jinoyatchiligi – axborot-telekommunikatsiyasi tarmoqlari orqali axborotdan foydalanishning yangi imkoniyat-larini ishlatish, hamda komp`yuter tizimlari faoliyatini buzish b-n bog`liq huquqbuzarlik harakatlari. Komp`yuter tobora rivojlanib borishi b-n, u b-n bog`liq

jinoyatlarning turlari ham ko`payib bormoqda. Ularga ma`lumotlarga bevosita ishlov berish tizimi yoki komp`yuter tarmog`i yordamida qilingan jinoyatlar; apparat, dasturiy vositalarni va ma`lumotlarni ishlatish, turlash yoki qo`porish yo`li b-n sodir etiladigan jinoyatlar; axborot-telekom-munikatsiya tarmoqlari orqali axborotdan erkin foydalanishning yangi imkoniyatlarini ishlatish, hamda komp`yuter tizimlarini buzish b-n bog`liq huquqbuzarlik harakatlari va boshq.alar kiradi.

Interpol tashkiloti Bosh kotibiyatining ishchi guruhi tomonidan 1991 yilda ishlab chiqilgan komp`yuter jinoyatchilari tasniflagichi komp`yuter jinoyatlarini asosiy oltita turga bo`lib chiqqan:

ruhsat etilmagan erkin foydalanish yoki tutib olish (QA guruhi);
komp`yuter ma`lumotlarini o`g`irlash (QD guruhi);
komp`yuter qallobligi (QF guruhi);
noqonuniy nusha olish (QR guruhi);
komp`yuter ish tashlashi (QS guruhi);
boshqa komp`yuter jinoyatlari (QZ guruhi).

Kiberterrorizm – komp`yuter sistemasiga hujum. Kiberterrorizmning maqsadi komp`yuterdan foydalanuvchilarni faoliyatida uzilishni keltirib chiqarish, komp`yuter sistemasidagi davturlarni izdan chiqaradigan "virus"larni tarqatish, muhim, zaruriy axborotlarni yo`qotish, insoniyatning intellektual salohiyatini o`zlarining ideologik qobiliyatlariga olish va uni nazorat qilish.

Internet o‘zining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda axborot "o‘g‘rilarini"[171] yangi pog‘onaga ko‘tarilishiga sabab bo‘lganligini achinarli hol sifatida baholash mumkin.

Kompyuterlar inson ish faoliyatini engillashtirish maqsadida yaratildi. Ularning soni kun sayin ortib bormoqda. Ammo shu bilan birga jamiyatning kompyuter tizimlariga bog‘likligi ham ortib bormoqda. Hozirda tibbiyot, soliq va bank tizimi, transport kabi asosiy sohalarda boshqaruv va tashhis ishlari kompyuterlar zimmasiga yuklatilgan. Kompyuter tizimlari xarbiy sohada ham alohida o‘rin tutadi[172].

Jamiyatni kompyuterlashtirishning ma’lum bir pog‘onasida kompyuterlar yakka va uyushgan jinoyatchilar guruhlarini o‘ziga jalb etdi. Ular etarli texnik va dasturiy vositalarga ega bo‘lib, qiyinchiliksiz maxfiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, diversiya, firibgarlik va boshqa jinoiy ishlarni amalga oshirishlari mumkin bo‘lib qoldi. Adliya, kriminalistika, milliy havfsizlik soha mutaxassislari yangi, kutilmagan muammoga duch kelib qoldilar.

1971 yil AQSHning „Nyu-York Penni Sentral Reylroud" temiryo‘l kompaniyasi qimmatbaho yuk ortilgan 200 ta vagonni yo‘qolganini payqab qoldi. Bu ishni tekshirish jarayonida bir qancha boshqa firmalarning ham vagonlari yo‘qolgani aniklandi. Sinchkovlik bilan olib borilgan tekshirish natijasida, vagonlar yo‘qolishining sababi kompyuterga atayin noto‘g‘ri manzil kiritilganida ekanini ko‘rsatdi. Bu rasmiy qayd etilgan birinchi "elektron jinoyat" edi. Hozirgi

171 Улар компьютерлар яратилгунга қадар ҳам мавжуд бўлган. Ҳозирги кунда бундай шахслар "хаккер" деб номланади. Аслида, "хаккер" компьютерлар бўйича юқори малакали мутахассис; муҳофаза қилинаётган ресурслардан рухсатсиз фойдаланишни мақсад қилиб олган юқори малакали компьютер мутахассиси; ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида турли ноқонуний ҳаракатларни амалга оширувчи шахс; турли тармоқлардан рухсатсиз эркин фойдаланиш ва улардан ахборот олиш, дастурий маҳсулотларнинг муҳофазасини кўчириш, компьютер вирусларини яратиш ҳамда тарқатиш ва ҳоказо.

172 Қаранг: Тихомиров Ю.А. Правовой режим информационных процессов. Национальное законодательство и международное сотрудничество // Научно-техническая информация. Сер.1. 1993. №7. -С.7.

kunga kelib, kompyuterlar ham, aloqa tizimlari ham beqiyos darajada rivojlanib ketdi. Bu “elektron jinoyatchilar"ga ham yangi imkoniyatlar yaratib berdi[173].

Hozirda kompyuter tizimlariga o‘z malakasini oshirish yoki shunchaki “hazillashib" buzg‘unchilik qilayotgan “yosh dasturchilar" ko‘proq zarar etkazadi. CHunki, ular juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ularning ba’zilari kimgadir zarar etkazayotganini bilmaydi ham.

Binobarin, internet orqali etkazilishi mumkin bo‘lgan quyidagi asosiy zararlar sanab o‘tishimiz mumkin:

- tarmoqka ulangan vaqtingizda kompyuteringizga ruxsatsiz “kirish” va uni sizning manfaatingizga zid tarzda masofadan boshqarish;
- internetda uzatilayotgan axborotlar “yo‘lda ushlab olinib”, ulardan nusxa olish yoki o‘zgartirish;
- turli virus (kompyuter xotirasidagi ma’lumotlarni o‘chirish, o‘zgartirish kabi ishlarni bajaruvchi va boshka dastur tarkibiga qo‘shilib olish, “yuqish” xususiyatiga ega bo‘lgan maxsus dastur) dasturlarini Web-sahifalarga “yashirib ko‘yish”;
- turli davlat tashkilotlari va xususiy korxonalarga tegishli axborotlarni o‘g‘irlash va raqobatchi tashkilotlarga sotish yoki ma’lum miqdorda to‘lov talab qilish;
- jamiyat mafkurasi va ma’naviyatiga zid axborotlarni internetda e’lon qilish va boshqalar[174].

Bunday havflarning oldini olishning bir qancha chora-tadbirlari mavjud. Ularga rioya qilish havfni butunlay bartaraf etmasa-da, sezilarli darajada kamaytiradi. Bizningcha, ushbu chora-tadbirlarning mazmuni quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

● shaxsiy va lokal tarmoqdagi kompyuterlarga tashkaridan keluvchi havfga nisbatan nisbatan “immunitet”ni hosil qilish;

● internet orqali kirishni cheklovchi va nazorat qiluvchi texnik va dasturiy vositalardan foydalanish;

● internet orqali faqat ishonchli manbalardan axborot olish va ularning asl nusxasiga mosligini tekshirish;

● ma’lumotlarni uzatish va qabul qilishda kriptografiya (axborotni kodlash) usullaridan foydalanish;

● kompyuter viruslariga qarshi nazoratchi va davolovchi dasturlardan foydalanish.

YUqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, axborot texnologiyalari sohasi, *birinchidan,* jadal rivojlanib bormoqda, *ikkinchidan,* u bilan bog‘liq turli-tuman muammolar ham yuzaga kelmoqda. Demak, internet xavfsizligini ta’minlash faqtgini davlatning emas, balki uning xizmatlaridan foydalanuvchi har bir shaxsning vazifasi bo‘lmog‘i darkor. SHunday ekan, kompyuterlarimizdagi ma’lumotlarni, eng avvalo, o‘zimiz himoya qilishimiz kerakligini unutmaylik!

12-mavzu. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o‘zlikni anglash masalalari.

Reja:

1. Globallashuv jarayonlarida millat.
2. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o‘zlikni anglash masalalari.
3. Demografik globallashuv, ma’naviyat va qadriyatlar.

173 Қаранг: http://www.infocom.uz
174 Қаранг: http://www.medialaw.ru

4. O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyasi davrida milliy o‘zlikning anglash masalalari.

Yuqorida globallashuv tushunchasi, uning mazmun va moqiyati haqida batafsil fikr yuritgan edik. Endi millat tushunchasi, maz-muni va uning globallashuv jarayonidagi rivojlanish tendensiya-lari qaqida fikr yuritishga qarakat qilamiz.

Bugun millatning bo‘yi bastiga va unga nisbatan fikrlarni il-gari surishdan oldin sobiq sovet davrida e’lon qilingan ilmiy adabiyotlarda (ular mafkuraviy manfaatlar nuqtai nazardan bo‘li-shidan qat’iy nazar) mavjud bo‘lgan ayrim ijobiy fikrlarni xisobga olmay turib, globallashuv sharoitida milliy rivojlanish borasida yuzaga kelayotgan muammolar, millatlararo munosabatlar-da yuzaga kelgan yangi tendensiyalarni anglashga urinish samara ber-maydi. CHunki har qanday yangi g‘oyalar xam qanday bo‘lmasin mavjud-larini taxlil qilishni va o‘rganishni taqozo qiladi. Zero, ular masalaga yangi qarashlar uchun solishtirishlar imkonini beradi.

Ana shunday fikrdan kelib chiqiladigan bo‘lsa, eng avvalo «mil-lat» tushunchasining paydo bo‘lishi va u to‘g‘risidagi munozaralar-ni taxlil qilish lozim bo‘ladi. «Millat» tushunchasi ustidagi baxs-munozaralar sobiq sovet adabiyotida 1966 yillarda boshlangan edi[20]. Adolat yuzasidan aytish kerakki, milliy masalaga bag‘ishlangan ko‘pgina jiddiy ilmiy izlanishlar bo‘lib, ularning axamiyatini aslo inkor etib bo‘lmaydi, chunki bu tadqiqotlarning ayrimlari-da asosli xulosalar mavjud edi. Eng muhimi ulardagi umumiy fikr - milliy rivojlanish muammolarining mavjudligining e’tirof etilishi bo‘lgan edi. Lekin ular qog‘ozda qolib ketdi yoki nazarga tushmadi. SHu bilan birga ayrim ilmiy tadqiqotlarda milliy ta-raqqiyot va milliy masala «muammosiz» qilib ko‘rsatiladi. Mil-liy muammolarni xal qilishdagi muvaffaqiyatlar ko‘klarga ko‘ta-rilar, sotsializm sharoitida millatlar va elatlar o‘rtasida zid-diyatlar va nizolar yo‘qligi ko‘rsatilar edi. Tajriba milliy mu-nosabatlar, ayniqsa o‘tmishda ezilib ketgan zabun millatlar va elatlar erkin rivojlanish imkoniga ega bo‘lishi g‘oyat murakkab ekanligini ko‘rsatdi. Eski jamiyatdan qolgan irsiy qasalliklar-ni davolash juda uzoq davom etdi. Bu «kasalliyuji davolashning nazariy konsepsiyasi ishlab chiqilmas va u real qayotda tadbiq etillash yo‘li bilan shakllantirib bo‘lmaydi. CHunki u jarayon shuning uchun ham o‘z qonuniyatlariga binoan shakllanadi, rivojlanadi va takomillashadi. SHu ma’noda milliy rivojlanish g‘oyasida demok-ratik qadriyatlarni rivojlantirish vazifalari hamda ularni amaliyotga tadbiq qilish jarayonlari umume’tirof etilgan mezon-lar talabiga mosligi hamda unga millatimizning o‘ziga xos men-taliteti, urf-odat, an’ana va qadriyatlari mujassam bo‘lishiga asosiy e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi.

Bugun demokratik jarayonlar rivojlanishi borasida katta yutuqlar qo‘lga kiritilishiga qaramasdan bozor munosabatlari-ning jadal rivojlanishiga mos ravishda rivojlanmayotganligi, uning sabablari, muammolari, ularni hal qilish imkoniyatlari -milliy rivojlanish g‘oyasining asosiy yo‘nalishini tashkil qila-di. Bu yo‘nalishda mavjud muammolarni hal etishda hamjihatlik, barqarorlik va umumxalq faolligini ta’minlash amaliy ahami-yatga ega bo‘ladi. Xuddi ana shu omillarni ta’minlash orqali bu-gun jahonda amal qilinayotgan umuminsoniy demokratik qadriyat-lar tizimiga kirib borishimiz mumkin bo‘ladi. Muammoni xas-po‘slash, undan qochish yoxud e’tibordan chetda qoldirish istiqbol-da uning rivojlanishiga, kuni kelib tuzatib bo‘lmaydigan oqibat-larga olib kelishiga zamin bo‘ladi. YAxshiyamki, mamlakatimizda bunday salbiy holatlar kuzatilmaydi. Bu jarayondagi asosiy mu-ammo siyosiy partiyalar, demokratik institutlar va fuqarolarning faolligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ularni fa-ollashtirishda milliy rivojlanish g‘oyasi nazariy asos bo‘lib xiz-mat qilishi mumkin bo‘ladi.

Mamlakatimizning jaxon hamjamiyati bilan hamkorligini mu-stahkamlashning taraqqiyotimiz uchun o‘ta muhim ahamnyatga ega ekan-ligi xam milliy rivojlanish g‘oyasining muhim yo‘nalishi hisobla-nadi. Jahon mamlakatlari taraqqiyoti tajribalaridan ma’lumki, hali bironta mamlakat boshqa mamlakatlar va jahon hamjamiyati bilan qamkorlik qilmasdan rivojlanmagan. Agar ana shu tajriba-lardan kelib chiqadigan bo‘lsak, mamlakatimizning jahon hamja-miyati va taraqqiy qilgan mamlakatlar bilan hamkorlikni mustah-kamlashining ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bu hamkorlik Prezidentimiz ta’kidlayotganidek, mafkuraviy manfaatlardan xoli bo‘lishi, tomonlarning manfaatlarini hisob-ga olgan holda va to‘la tenglik asosida qurilmog‘i lozim. Milliy rivojlanish g‘oyasida mamlakatimizning jahon qamjamiyati va ta-raqqiy qilgan mamlakatlar bilan bo‘ladigan hamkorligini mustah-kamlashda xuddi ana shu tamoyilni izchillik bilan amalga oshirish vazifalari bu yo‘lda mavjud muammolar hamda ularning echimlari o‘z ifodasini topishi zarur. Bu jarayonda qam xalq diplomatiyasi-ni rivojlantirish va uning faolligini oshirish vazifalari qam milliy rivojlanish g‘oyasini amalga oshirishning asosiy yo‘nali-shini tashkil qiladi.

YUqorida keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, milliy rivoj-lanish g‘oyasi mamlakatimiz mustaqilligining moddiy kuchga aylan-gan sharoitida taraqqiyotimizni yangi bosqichga ko‘tarishning vazi-falarini o‘ziga qamrab oladi. U taraqqiyotimizga ruqiy ilqom baxsh etadi. Aqolimizni, ayniqsa yoshlarimizni mamlakatimizni rivoj-lantirish yo‘lida safarbar etishga undaydi.

Milliy o‘zlikni anglash murakkab jarayon qisoblanadi. U mil-lat mustaqil «men»ligining asosiy omillaridan biri bo‘lganligi uchun uni o‘rganish, takomillashuv jarayonini taxlil qilib borish-ga extiyoj o‘sib boraveradi. Uning millatning asosiy belgilari-dan biri qaqidagi konseptual g‘oyalarimizni avval e’lon qilgan kitobimizda ilgari surishga qarakat qilgan edik.[7]

Endi esa globallashuvning avj olishi sharoitida milliy o‘zlik-ni anglashni rivojlantirish zaruriyati kuchayib borishining sa-bablari, unga ta’sir o‘tkazadigan ijobiy va salbiy omillar qaqida o‘z fikr-muloqazalarimizni bildirishga qarakat qilamiz.

Avvalo, shuni aloqida ta’kidlash lozimki, mustaqilligimiz-ni qo‘lga kiritganimizdan keyingi o‘tgan davr ichida bir qator faylasuf, tarixchi, adabiyotchi olimlar o‘zbek xalqining shaklla-nish jarayoni va tarixiga oid bir qator asarlar e’lon qildi-lar. Ular orasida o‘zbek millatining CHor Rossiyasi va sobiq SHo‘rolar hukmronligi sharoitida boshidan o‘tkazgan ayanchli aqvo-li va mustaqillik sharofati bilan o‘zi tanlagan yo‘ldan sobit-qadamlik bilan rivojlanayotganligiga bag‘ishlangan asarlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. SHuning bilan birga «millat», «mil-liy mentalitet», «milliy g‘oya» , «milliy o‘zlikni anglash», «mil-liy g‘urur», «millat sha’ni», «milliy iftixor» va boshqa bir qator tushunchalarga ilmiy ta’rif berish va ularning moqiyati-ni ochib berishga bag‘ishlangan bir qator asarlar qam chop etil-di.[8] Ammo «milliy o‘zlikni anglash» tushunchasi, uning mazmun-mohiyatini ochib beradigan maxsus fundamental falsafiy asar-lar bugungi kungacha yaratilgani yo‘q. Globallashuvning milliy ma’naviyatimizni ichidan va tashqarisidan emirayotgan jarayoni kuchayayotgan bugungi kunda ana shunday fundamental asarlarga ehti-yoj yaqqol sezilmoqda.

Bugun shu narsa ayon bo‘lmoqdaki, tashqaridan qaraganda, global-lashuv mamlakatlar iqtisodiyotining integratsiyalashuvini tezlash-tirmoqda, unda mavjud bo‘lgan muammolarni hal qilishga o‘zining ta’sirini o‘tkazmoqda va shu yo‘l bilan yuksak taraqqiy qilgan mam-lakatlarning kam taraqqiy qilgan va endi mustaqil taraqqiyot yo‘li-ga kirgan mamlakatlarga ko‘rsatayotgan «yordamlari» oshib bormoq-da. Agar ana shu jarayonga chuqurroq qaraydigan bo‘lsak, ikkita sal-biy oqibatlarning yuzaga kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘la-di. Ular yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarning kam taraqqiy qilgan va endi mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirib borayotgan mamla-katlarga o‘z texnika, texnologiya va fan yutuqlari natijalarini olib kirish yo‘li bilan resurslarini egallab, katta foyda olmoq-da. Qolaversa, yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlar kam taraqqiy qilgan mamlakatlar iqtisodiyotiga o‘z investitsiyalarini jalb qilish orqali nafaqat foyda olmoqda, shuningdek, ularning iqti-sodiyotini o‘zlariga bog‘lab qo‘ymoqdalar. Xuddi ana shu ikki omil vositasida ular milliy ma’naviyatlarini ichidan va tashqarisidan emirilishini osongina amalga oshirmoqdalar. Ana shunday sharo-itda ularning o‘tkazayotgan nayranglaridan ogoh bo‘lish va x.imoya-lanishning katta omillaridan biri milliy o‘zlikni anglashni ri-vojlantirish hisoblanadi.

Bugun milliy o‘zlikni anglashni rivojlan girishni millatning qaramlikdan qutilish uchun olib borilgan kurashga kuch-quvvat va il-hom bag‘ishlagan davrigacha qaraganda ham yuqori, kerak bo‘lsa yangi bosqichga ko‘targan holda rivojlantirishga ehtiyoj oshib bormoqda. CHunki millatimizning qaramlik holatida zo‘ravonlarning olib bor-gan siyosati natijalarini har bir millatdoshlarimiz har qadamda sezar edi va unga qarshi kurash olib borish zarurlshtshi anglab etgan edi. Ammo globallashuv jarayoni o‘ta murakkab. Uning iqtisodiy mu-ammolarni hal qilishga o‘tkazayotgan ijobiy ta’siriga mahliyo bo‘lib, uning millatimiz milliy-ma’naviy qashshoqlashuviga

etaklayotgan-ligi anglanmay qolish xavfi nihoyatda kattadir. Bu jarayonni qan-day bo‘lsa shundayligicha anglash, uning turli sohalarga o‘tkazayotgan ta’sirini tushunib olish, millat istiqboli nimalarga bog‘liq ekan-ligini bilib olish uchun milliy o‘zlikni anglashnn rivojlantirish-ni yangi bosqichga ko‘tarish zarurligi kuchayib bormoqda.

Milliy o‘zlikni anglash shunday omilki, uni yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarish yo‘li bilangina millatni har qanday zararli ta’sirlardan ximoya qilish mumkin. CHunki u millatdagi manfaat, iftixor, g‘urur, sha’n, or-nomus, e’tiqod va mas’uliyat kabi qadri-yatlarni abadiylashtiruvchi yuksak darajadagi ma’naviy qadriyat hisoblanadi.

Milliy o‘zlikni anglash har bir tarixiy taraqqiyot bosqichida rivojlanib va takomillashib boradi. Ammo bu jarayon h_ech qachon stixiyali ravishda kechmaydi, balki tarixiy taraqqiyot bosqichlari-ning millat oldiga qo‘yadigan, ularning millat ruhiyati, ma’naviya-tiga ko‘rsatadigan ta’sirlariga qarab rivojlanadi. U o‘zining or-nomusi, qadriyati, sha’ni, g‘ururi toptalganligini sezsagina yoki o‘z taraqqiyoti davomida yuzaga keladigan muammolarni h_al qilish za-ruriyatini anglasagina milliy o‘zlikni anglash rivojlanishi tez-lashuvi, kerak bo‘lsa unda «portlash» sodir bo‘ladi. Aks holatda uning rivojlanish jarayoni evolyusion tarzda sekin kechishi davom etaveradi. Ana shu fikrimizdan kelib chiqadigan bo‘lsak, qaramlik-dan qutulish uchun kurash davri milliy o‘zlikni anglash rivojlani-shining sokinlik davri emas edi. SHuning bilan bir vaqtda musta-qillikni qo‘lga kiritgandan keyin u yangi sharoitda boy berilgan imkoniyatlarni toptalgan milliy urf-odat, an’ana va qadriyatla-rimlzning qayta tiklanishida katta omilga aylandi.

Bugun o‘zbek millati yangi sharoitda va yangi zamonda yashamoqda. U mustaqillik yillarida qanchalik ulkan muvaffaqiyatlarni qo‘lga ki-ritgan bo‘lmasin, globallashuvning kuchli bosimi ostida yashashga maj-bur bo‘lmoqda. Ammo aholimizning turli tabaqalari o‘rtasida o‘tka-zilgan yuqoridagi sotsiologik so‘rov natijalariga qaraydigan bo‘lsak, uning ana shu bosimi milliy ma’naviyatimizga o‘tkazayotgan ta’siri darajasida anglanmayotganligi, tushunib etilmayotganligi ma’lum bo‘lmoqda. Bu millatning o‘zligini anglashi rivojlanishida bir qadam «sokinlik» yuzaga kelmoqda deganidir. Bu h_ali millatimizning shakl-lanish jarayonining davom etayotganligi, bozor munosabatlari shakl-lanishi sharoitida yuzaga kelayotgan muammolar va kundalik hayot qo‘yayot-gan muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday muammolarning qamrovi nechog‘li keng bo‘lmasin ular echimining muhim omili milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish hisob-lanadi. Bu vazifani amalga oshirishga ob’ektiv sabablar va sub’ek-tiv omillar majbur etayotganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy o‘zlikni anglash millat abadiyligini ta’minlaydigan omillardan biri sifatida ana shu sabab va zaruriyatga mos ravish-da takomillashib boradi. Bu jarayonda uning ilgari mavjud bo‘lgan qirralari takomillashadi va yangilari vujudga keladi. Ammo ular-ning hammasi faqat millatning ehtiyoji va manfaatlari o‘sib borishi doirasi bilan cheklanmasdan, shuning bilan birga har bir tarixiy bosqichda milliy hayotga nisbatan amaldagi xrkimiyatning olib boradigan siyosati va millatlararo yuzaga keladigan munosa-batlar bilan qam bog‘liq bo‘ladi. Milliy o‘zlikni anglashning mil-latning muqim belgisi ekanligini ushbu satrlar muallifining yuqorida ko‘rsatilgan asarida batafsil to‘xtalganligini hisobga olib, endi uning ichki va tashqi salohiyati ustida to‘xtalamiz.

Milliy taraqqiyotning nafaqat ayrim olingan ilgari qaram bo‘lgan, bugungi kunda esa mustaqillika erishgan millatlar, shu-ning bilan birga butun jahon misolida, qatto taraqqiy etgan mil-latlar yoki qashshoqlikning eng og‘ir kunlarida o‘z boshidan kechira-yotgan millatlarning bugungi hayoti va intilishlarini tahlil qilish ko‘rsatmoqdaki, ularni qarakatga va jo‘shqin qayot kechiri-shiga safarbar etuvchi kuch bu - qar bir millatning o‘zini anglash omili hisoblanadi. Bu xulosa quyidagilarga asoslanadi: birinchi-dan milliy o‘zlikni anglash jarayonidagi «portlash» holati yuzaga kelishida birinchidan, milliy o‘zlikni anglash rivojida millat-ning umumiy tan olingan belgilari (iqtisodiy, hududiy, tilning umumiyligi va madaniyati, an’ana, odatlari xususiyatlari va boshq-alar) milliy rivojlanishdagi taraqqiy etayotgan yo‘nalishlarni to‘liq ifodalay olmaydi. Ammo ilmiy maqolalarda hamon millat-ning rivojlanishida iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy omillar aso-siy omillardir, albatta, uning etakchiligini inkor etib bo‘lmay-di degan fikr qat’iy bo‘lib kelayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Boz ustiga bu omillarning o‘zaro aloqasi hamda bir-birini taqozo eti-shi ularning dialektik birligida ko‘rilib chiqilayotgani yo‘q. Ay-rim qollarda esa milliy o‘zlik anglashning o‘sishi to‘g‘risidagi ij-timoiy hayotni baynalminallashtirishni rag‘batlantiruvchi omil

sifatida gapirilib, uning oqibatida yuzaga kelgan muammolar va ziddiyatlar e'tibordan chetda qolmoqda.

Milliy o'zini anglash o'z tabiatiga ko'ra emotsional xrdisadir va uning haqiqiy qiyofasi millatning manfaatlarini, or-nomus, g'urur va qadriyatlarini ximoya qilishda namoyon bo'ladi. Milliy rivojla-nishda eqtiyojlarning real hayot bilan nomuvofiqligi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy soqalarda o'z-o'zidan unchalik sezilar-li ko'zga tashlanmaydi, ular milliy o'zlikni anglashda, uning moddiy kuchga aylanishida o'zining to'liq aksini topadi. Moddiy va ma'na-viy qadriyatlar taqsimotida adolatsizlik qukm surgan sharoitda milliy o'zlikni anglash qudratli moddiy kuchga aylanib, millatla-raro munosabatlar soqasidagi ziddiyatlarni jonlantiruvchi omil bo'lib yuzaga chiqadi va umummilliy millatni harakatga keltiradi. Milliy jarayonlar rivojlanishining xozirgi tarixiy bosqichi ko'rsatishicha, iqtisodiy va siyosiy omillar millat rivojlanishida muhim omil qisoblanadi, ammo milliy o'zlikni anglashni hisobga olmaslik iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy omshsharning salohiyati-ni to'laqonli ko'rsatishga xalaqit beradi. YA'ni uning aks ta'siri jarayoni o'zining ifodasini topa olmaydi. Ikkinchidan, millat mavjud ekan milliy o'zlikni anglashning tendensiyasi barqarorlik xarakterini kasb etadi. CHunki millatning mustaqil sub'ekt ekan-ligini xuddi ana shu omil belgilab beradi. Bundan iqtisodiy, ij-timoiy-siyosiy salohiyatning qoldiq sharoitlarida har bir millat o'zini saqlab qolishga harakat qilishi xaqiqat ekanligi kelib chi-qadi.

Milliy o'zini anglashning qaror topishi ijtimoiy taraqqiyot-ning muhim omili hisoblanishi bilan birga u jamiyatning yangila-nib borishiga va millat ehtiyojlarining kuchayib borishini ta'-minlaydi. Ayni bir vaqtda u jamiyatdagi og'riq joylarni yuzaga chiqishga olib kelishida ham ustuvor omilga aylanishi mumkin. Ana shu xulosalarga asoslanib milliy o'zlikni anglashga quyidagicha tasnif berish mumkin: har bir millat (elat) ning o'zini real mavsubligi, manfaatlar hampa ehtiyojlar umumiyligini tushunib eti-shi milliy o'z-o'zini anglash deyiladi.

Milliy o'z-o'zini anglash millat shakllanishining ma'lum nis-biy yuqori bosqichi mezonidir. Millat o'ziga xos bo'lgan urf-odat-lar, an'analar, qadriyatlarni shakllantirishi va davlat atrofiga birlashishlari mumkin. Ammo uning milliy o'z-o'zini anglash dara-jasiga ko'tarilishi murakkab jarayon hisoblanadi. CHunki u millat vakillari aksariyat ko'pchilik qismining moddiy va ma'naviy boy-liklariga ega ekanligi hissiyotining, tor darajada mavjud bo'lish manfaatlaridan umummillat manfaatlarini ustuvor qo'ya bilish darajasiga ko'tarila bilish bilan bog'liqdir.

Milliy o'z-o'zini anglash milliy ongdan farq qiladi. Milliy ong har millatning yagona tili, urf-odatlari, an'analari, qadri-yatlari va ma'naviyatining pastdan yuqoriga oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezoni hisoblanadi. O'z nav-batida milliy ongning rivojlanib borishi har bir millatning o'z-o'zini anglashi darajasiga ko'taradi. Milliy ong millatni o'zi-ga xosligi asosida rivojlanib borishdagi ko'rsatkich bo'lsa, mil-liy o'z-o'zini anglash manfaatini himoya qilishda harakatga kelti-ruvchi ichki ma'naviy-ruhiy salohiyatdir. Millin o'z-o'zini anglash real moddiy kuch sifatida millat sha'-ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori, or-nomusi poymol etilganda yoki millatning moddiy ma'naviy manfaatlariga zid ikkinchi bir to-mondan zo'ravonlik harakatlari yuzaga keltirilgan holatlarda na-moyon bo'ladi. SHa'ni, qadr-qimmati, or-nomusi, obro'-e'tibori va manfaatlari poymol etilgan millat vakillari qaysi lavozimda xizmat qilishi, boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'i nazar yagona umumiy kuch bo'lib birlashadi va o'zligini himoya qiladi.

SHu tariqa milliy o'z-o'zini anglash millat manfaatlarini himoya qiluvchi moddiy kuchga aylanadi.

Bundan tashqari u faqat milliy manfaatlarni himoya qilnsh bilan cheklanmaydi, shuning bilan u turli muammolar yuzaga kel-gan sharoitda ham millatni xarakatga keltiradi va uni birlashti-rib turadi. Xususan, millat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiy, ij-timoiy-siyosiy sohalarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish-da ham u millatni birlashtiradi va uni umummaqsadlar yo'lida harakatga keltiradi. U har qanday millat uchun etakchi belgi hisob-lanadi. U o'zining katta salohiyati bilan mshshat uchun zarur asosiy o'ziga xos belgilari tizimida etakchi o'rinni egallaydi. U millat-ning yuragi, qalbi, tomirlarida oqadigan qoni va gavdasini tik ushlab turuvchi jondir. O'zligini anglashdan to'xtagan yoki undan mahrum bo'lgan har qanday millat o'limga mahkumdir.

Milliy o'zlikni anglash shu ma'noda ham millat abadinligini ta'minlab turadi. Milliy o'zlikni anglashning vazifalariga tur-licha qarashlar mavjud. Jumladan, milliy o'z-o'zini anglash

vazi-fasi B.A. SHuvalov, K.N. Xabibulin kabi Rossiya olimlari tomo-nidan milliy rivojlanish yo‘nalishida qarab chiqilgan, xolos. B.A.SHuvalov bu haqda shunday deb yozadi: «milliy o‘z-o‘zini ang-lash, milliy jamoa bilan bir qator o‘xshashliklarga ega bo‘lgan funksiyalarni ham o‘zida mujassamlashtirgan. U gneseologik ahami-yatga ham egadir. Muayyan konkret-tarixiy sharoitlarda amalga oshi-riladigan bu tipdagi o‘z-o‘zini anglashning baholovchi, undovchi, me’yoriy, muvofiqlashtiruvchi va boshqa shunga o‘xshash ijobiy fun-ksiyalari katta rol o‘ynaydi».[9] K.N. Xabibullin milliy o‘z-o‘zi-ni anglashning quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatadi: «Mos-lashuv himoya funksiyalari: bilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va mas’-uliyat funksiyalarining mavjudligini ko‘rsatadi».[10]

Bizning fikrimizcha yuqorida nomlari ko‘rsatib o‘tilgan mual-liflar milliy o‘z-o‘zini anglash funksiyalarini to‘g‘ri ta’kidlay-dilar. Ammo ularning gnesologik mohiyati va harakat mexanizmla-rini mustaqil tahlil qilmasdan faqat yo‘l-yo‘lakay o‘rganganlar. YA’ni ularni mustaqil mavzu sifatida emas, o‘z mavzularining yor-damchi elementlari qatorida qaraganlar. Bundan tashqari bu masa-la respublikamiz olimlari e’tiboridan ham chetda qolib kelmoq-da. SHu sababli milliy o‘z-o‘zini anglash funksiyasini konkretlash-tirish uchun fikrlarning xilma-xilligi va ilmiy bahs munozara-larni izlab topish va ularni kengaytirishga katta ehtiyoj sezil-moqda. SHu munosabat bilan mazkur muammo bo‘yicha o‘z fikr-mulo-hazalarimizni bayon etishga harakat qilib ko‘ramiz.

Avvalo shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, milliy o‘z-o‘zini anglash millatning ma’naviy madaniyat tizimiga kiradi va uning milliy taraqqiyotga qo‘shgan hissasi sof ma’naviy ruhiy hissa hisoblana-di. Biroq bu uning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishga qo‘shadigan hissasini istisno qilmaydi. Modomiki iqtisodiy, ijtimoin-siyosiy va boshqa sohalar uchun negiz bo‘lib hisoblanadi, shu bilan birga ular o‘z holicha milliy omilsiz - milliy o‘z-o‘zini anglash omilisiz rivojlana olmaydi.

Milliy o‘z-o‘zini anglash omilining iqtisodiy rivojlanishi-ga va millatning ijtimoiy-snyosiy taraqqiyotiga qo‘shadigan his-sasi millatning «o‘z» iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlani-shiga intilishi raqamlar, jamiyat barqarorligi shaklida, ma’na-viy o‘ziga xos xususiyatlar va ruhiyat hamda his-hayajon tarzida namoyon bo‘ladi.

Bunday shaklning ta’siri (rivojlanish yoki qoloqligining aks etishi va salbiy o‘zgarishlar) millat iqtisodiy va ijtimoiy-siyo-siy hayotining sof milliyligini belgilab beradi.

SHunday qilib, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayot tizimida milliy o‘z-o‘zini anglashning tutgan o‘rni uning ma’naviy o‘rni bi-lan uzviy bog‘liqdir. Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalardagi har qanday ijobiy yoki salbiy o‘zgarishlar millatning unga bo‘lgan mu-nosabati shakllarida namoyon bo‘ladi.

Milliy o‘z-o‘zini anglash ma’naviy hayot tizimiga kirar ekan, u bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Mazkur holatda milliy o‘z-o‘zini ang-lash milliy taraqqiyotni boyitishga bevosita ma’naviy hissa qo‘shadi, uni boyitadi, hayajon va his-tuyg‘ularni rag‘batlantirib turadi.

Albatta, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Bular bir-biri bilan o‘zaro bog‘-liq bo‘lgan va o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi sohalardir. Mazkur holda gap faqat milliy o‘z-o‘zini anglash funksiyasining konkret «tor» vazifasini aniqlab olish to‘g‘risida bormoqda. Mazkur yo‘na-lishda uning milliy harakat natijasi sifatidagi funksiyasini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Bunday harakat va uning na-tijasi ehtiyojlarni ta’minlash zarurligini tushunishga salohiyat etmagan hollarda bir davlat doirasida birga yashayotgan millatlar va elatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsa-tadi.

Milliy o‘z-o‘zini anglashning ushbu jihatini hisobga olib B.A.SHuvalov tomonidan ajratilgan (baholash va da’vat etish me’yoriy muvofiqlashtirish) hamda K.N. Xabibulin ko‘rsatib o‘tgan (moslashuv, himoya, bilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va mas’-ullik ta’siri)dan tashqari yana bunga uning konsolidatsiya (mil-latni birlashtirish) etuvchi, harakatga keltiruvchi, manfaatlar-ni anglatuvchi va tarbiyalovchi kabilarni ham kiritish mumkin. Milliy o‘zlikni anglashda xuddi ana shu funksiyalar alohida aj-ratilgan holatda mustaqil tarzda o‘rganilmagan. Garchi ular sir-tdan qaraganda o‘z vazifalariga ko‘ra bir-biriga yaqin ko‘rinsa-larda, real harakatda masalaga yana ham

chuqurroq qaraladigan bo‘lsa, ularning har biri milliy taraqqiyotga mustaqil ravishda muayyan hissa qo‘shishini sezish, anglab etish mumkin bo‘ladi.

Jumladan, milliy o‘z-o‘zini anglashning konsilidatsiya (birlash-tiruvchilik) funksiyasi aniq vazifani bajaradi. U har xil odam-larni (etnik guruhlarni) bir-biriga birlashtirib, bitta etnik jamoa tarkibida ahil bo‘lib yashashga da’vat etadi. Turli millat-lar mavjud bo‘lgan sharoitda bajariladigan mazkur funksiya doi-miy harakatda bo‘ladi. CHunki millat ichki ma’naviy zaminlarida biologik bog‘liqlik qanchalik mustahkam bo‘lmasin, u ma’naviy omillar bilan to‘ldirib borilmas ekan, barkamollik darajasiga ko‘tarila olmaydi. Mazkur funksiya ayniqsa ikki hodda muhim rol o‘ynashi ko‘zga tashlanadi: birinchidan, u millat (shu jumladan, mil-liy o‘z-o‘zini anglash) shakllanib kelayotgan dastlabki vaqtlarda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonda ya’ni etnik yagona jamoa vu-judga kelayotgan vaqtda mazkur funksiyalar birlashtiruvchi va mus-tahkamlovchi ahamiyat kasb etadi.

Tabiiyki, millat (milliy o‘z-o‘zini anglash) shakllanish jarayo-nida odamlar o‘zidan-o‘zi «avtomatik» tarzda bir-birlari bilan birlashib ketmaydilar. Ulardagi til birligining an’analar, urf-odatlar, qadriyatlar umumiyligini va hududiy birlikni tushunish tuyg‘ulari birlashtiradi. Ayni mana shu yaqinlikni anglashdan mil-liy o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usining chinakam dastlabki «harakati» boshlanadi. Ikkinchidan, milliy taraqqiyotda «ekstremal» keskin salbiy o‘zgarishlar, holatlar vujudga kelganda, adolatning buzi-lishi natijasida (moddiy, ma’naviy boyliklarning notekis taqsimlanishi natijasida, mustaqillikka putur etkazilishi, millat-ning o‘z huquqini o‘zi belgilashi nazar-pisand qilmagan hollarda) millat yoki elat (rivojlanib kelayotgan yoki «o‘z kuchi bilan» yoki mahkam turib olgan guruh) yo‘q bo‘lib ketish xavfi yuzaga kelgan hollarda yoxud millatning shakllanishi uchun (uzoq vaqt davomida salbiy ta’sir etib kelgan) sharoitlar vujudga kelgan hollarda ushbu funksiyalar jadal harakatga keladi. Ammo, ekstremal sharo-itlarda konkret vaziyatga, kuchlar nisbatiga bog‘liq bo‘lgan birlash-tiruvchi (konsolidatsiya) funksiya ijobiy natija berishi yoki shu-ningdek, salbiy oqibatlarga olib kelishi ham mumkin.

Nosog‘lom kuchlar paydo bo‘lgan hollarda yoki milliy o‘ziga xos-lik hisobga olinmaganda birlashtiruvchilikka da’vat etish funk-siyasi salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Bu ko‘p mil-latli mamlaktlarda milliy munosabatlar qarama-qarshiliklarning kelib chiqishda asosiy omil bo‘lishi mumkin. Milliy taraqqiyotda vujudga kelgan vaziyatni tushunishdagi hushyorlik, qulay sharoit va sog‘lom kuchlar mavjud bo‘lgan vaziyatda konsolidatsiya (birlashti-ruvchi) etuvchi milliy o‘zini-o‘zi anglash tuyg‘usi milliy rivojla-nish yo‘lida olijanob vazifani bajarishining omili darajasiga ko‘tariladi. Ko‘rinib turibdiki, milliy o‘z-o‘zini anglashning kon-solidatsiya etuvchi funksiyasi milliy o‘zlikni bevosita anglash soha-siga ham shuningdek, millatlararo munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsa-tishda etakchi omil hisoblanadi. Milliy o‘zlikni anglash sohasida ziddiyatlarning paydo bo‘lishiga, ilgari borlarining yuzaga chiqi-shi va kuchayishiga olib kelgan sabablardan biri milliy o‘zini-o‘zi anglashning konsolidatsiya etuvchi kuchini anglab etmaslik, uning mexanizmlarini tushunish salohiyati bo‘lmaganligi yoki milliy o‘zlikni anglashni o‘tkinchi deb tushunishning aksiomaga aylangani yoxud mavjud tuzum hamda uning siyosati millatlar ustidan to‘laqon-li hukmronlikning o‘rnata bilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Aslini olganda, milliy hayotdagi jarayonlarni tushunmaslik mil-latlar ustidan hukmronlikni o‘rnatishga intilish va milliy o‘zlik-ni anglash omilining o‘tkinchi ekanligiga ishonish kabi qarashlar-ning saqlanib qolishiga bog‘liqdir. Millatlararo munosabatlar-da salbiy holatlarning yuzaga kelishi xuddi mana shu omillarning kuch-qudratini tushunib etmaslik yoxud nazar-pisand qilmaslik oqibatida sodir bo‘ladi. Ammo nima bo‘lganda ham ta’sir etuvchi «mexanizmlar»ning birontasini ham e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Konsolidatsiya etuvchi funksiyalardan milliy rivojlanish ham-da millatlar va elatlar o‘rtasida o‘zaro ma’rifiy munosabatlarni simlanishi natijasida, mustaqillikka putur etkazilishi, millat-ning o‘z huquqini o‘zi belgilashi nazar-pisand qilmagan hollarda) millat yoki elat (rivojlanib kelayotgan yoki «o‘z kuchi bilan» yoki mahkam turib olgan guruh) yo‘q bo‘lib ketish xavfi yuzaga kelgan hollarda yoxud millatning shakllanishi uchun (uzoq vaqt davomida salbiy ta’sir etib kelgan) sharoitlar vujudga kelgan hollarda ushbu funksiyalar jadal harakatga keladi. Ammo, ekstremal sharo-itlarda konkret vaziyatga, kuchlar nisbatiga bog‘liq bo‘lgan birlash-tiruvchi (konsolidatsiya) funksiya ijobiy natija berishi yoki shu-ningdek, salbiy oqibatlarga olib kelishi ham mumkin.

Nosog‘lom kuchlar paydo bo‘lgan hollarda yoki milliy o‘ziga xos-lik hisobga olinmaganda birlashtiruvchilikka da’vat etish funk-siyasi salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Bu ko‘p mil-latli mamlaktlarda milliy munosabatlar qarama-qarshiliklarning kelib chiqishda asosiy omil bo‘lishi mumkin. Milliy taraqqiyotda vujudga kelgan vaziyatni tushunishdagi hushyorlik, qulay sharoit va sog‘lom kuchlar mavjud bo‘lgan vaziyatda konsolidatsiya (birlashti-ruvchi) etuvchi milliy o‘zini-o‘zi anglash tuyg‘usi milliy rivojla-nish yo‘lida olijanob vazifani bajarishining omili darajasiga ko‘tariladi. Ko‘rinib turibdiki, milliy o‘z-o‘zini anglashning kon-solidatsiya etuvchi funksiyasi milliy o‘zlikni bevosita anglash soha-siga ham shuningdek, millatlararo munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsa-tishda etakchi omil hisoblanadi. Milliy o‘zlikni anglash sohasida ziddiyatlarning paydo bo‘lishiga, ilgari borlarining yuzaga chiqi-shi va kuchayishiga olib kelgan sabablardan biri milliy o‘zini-o‘zi anglashning konsolidatsiya etuvchi kuchini anglab etmaslik, uning mexanizmlarini tushunish salohiyati bo‘lmaganligi yoki milliy o‘zlikni anglashni o‘tkinchi deb tushunishning aksiomaga aylangani yoxud mavjud tuzum hamda uning siyosati millatlar ustidan to‘laqon-li hukmronlikning o‘rnata bilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Aslini olganda, milliy hayotdagi jarayonlarni tushunmaslik mil-latlar ustidan hukmronlikni o‘rnatishga intilish va milliy o‘zlik-ni anglash omilining o‘tkinchi ekanligiga ishonish kabi qarashlar-ning saqlanib qolishiga bog‘liqdir. Millatlararo munosabatlar-da salbiy holatlarning yuzaga kelishi xuddi mana shu omillarning kuch-qudratini tushunib etmaslik yoxud nazar-pisand qilmaslik oqibatida sodir bo‘ladi. Ammo nima bo‘lganda ham ta’sir etuvchi «mexanizmlar»ning birontasini ham e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Konsolidatsiya etuvchi funksiyalardan milliy rivojlanish ham-da millatlar va elatlar o‘rtasida o‘zaro ma’rifiy munosabatlarni rivojlantirish, mustaxkamlash yo‘lida foydalanish uchun milliy xu-susiyatlar sirini, ularning xarakterini haqiqiy (mafkuradan xoli) taqlil qilishi qamda millatlararo jarayonlardagi o‘zaro aloqaga kirituvchi omillarni aniqlashni talab qiladi. Albatta, birlash-tiruvchi funksiyalar o‘zining milliy taraqqiyotni rag‘batlantiruv-chi muhim elementi sifatidagi vazifasini boshqa funksiyalardan ajratib izolyasiya qilingan xrlda amalga oshirishi va mavjud bo‘li-shi mumkin emas. Ular ayniqsa tarbiyalovchi funksiyalar bilan o‘za-ro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi. Milliy o‘z-o‘zini anglashning mazkur funksiyasi millatnnng intellektual imkoniyatlarini shakl-lantirish bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bunday imkoniyat o‘z-o‘zidan shak-llanmaydi va rivojlanmaydi. Balki u milliy o‘z-o‘zini anglashning tarbiyaviy funksiyalari bevosita ta’siri ostida yangi-yangi kuchlar to‘playdi qamda teginshi his-hayajon sifatlarini ishlab chiqaradi. Milliy o‘z-o‘zini anglashning tarbiyaviy funksiyasidan kutilgan asosiy maqsad umummilliy vazifalarni tushunish va hal etish ka-bilarini «ishlab chiqishga» (shakllantirish va rivojlantirishga) qaratishdan iborat bo‘lib, ular moddiy va madaniy boyliklarni saqlashga qamda milliy obro‘-e’tiborni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, ular o‘zga millatlar qisobiga namoyon bo‘lishi mumkin emas. Ularni faqag millatning o‘zi, amaliy faoliyatidagina shakl-lantirishi mumkin. Bir millatga boshqa, qatto eng yuksak inson-parvarlikni mujassamlashtirgan millat ham milliy ongni, man-faatni tushunishni, o‘z-o‘ziii anglash kabi omillarni bera olmay-di. Lekin u o‘tkazadigan salbiy xatti-harakatlar ma’lum ma’noda ta’sir qitshshi mumkin. Ularni har bir millatning o‘zi shakllan-tirishga qodir bo‘lmog‘i lozimdir. Tarbiyaviy funksiya bevosita moddiy vazifalar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarga nisbatan emas, «sof» mafkuraviy ideologik (dunyoqarashga oid) masalalarni xam hal etadi. Albatta, milliy tarbiyaning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini inkor qilish unga bir tomonlama yondoshga-nimizni bildirgan bo‘lur edi. CHunki tarbiya orqali iqtisodiy ta-fakkur rivojlanadi va jamiyatda barqarorlik vujudga keladi, ijtimoiy ziddiyatlarning oldi olinadi. Bu erda gap tarbiyaning bosh vazifasi qaqida ketmoqda, xolos. Tarbiya madaniyat, an’ana-lar, urf-odatlar, qadriyatlar va tilga oid milliy xususiyatlarni saqlab qolishda hamda ularni avloddan-avlodga etkazishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarbiyaviy funksiya o‘z maqsadini milliy madaniyat-lardan, tildan, an’analar va urf-odatlardan foydalangan xrlda amalga oshiradi. Ular orqali millatning ongi va qalbiga ta’sir ko‘rsatadi, his-hayajon, tuyg‘ular uyg‘otadi, o‘z milliy fazilatlaridan iborat kadriyatlar to‘g‘risidagi e’tiqodni shakllantiradi. Ammo millat ongiga ta’sir ko‘rsatishning ushbu shakllari ayrim hollar-da salbiy natijalarga olib kelishi ham mumkin. Zero, o‘z milliy afzalliklarni mutassil ko‘kka ko‘tarib maqtashlar milliy mahdud-likka, cheklanganlikka, o‘zga millatlarga hurmatsizlikka va shovi-nizm kabi illatlarning paydo bo‘lishiga ko‘mak berishi ham mum-kin.

Ayniqsa, moddiy va ma’naviy boyliklar bilan ta’minlash im-koniyati etishmayotgan mintaqalardan turli millatlar va elat va-killarining o‘z ona zaminlaridan haydalib, qochoqlarga aylangan, ayrim millat vakillari o‘zlarining nomlari bilan ataluvchi o‘z davlatlariga, o‘z millat millatdoshlariga qo‘shilib yashashlariga intilishi kuchayotgan, ulardan ayrimlari esa hamon eski tuzumni qo‘msayotganligi batamom tugamagan sharoitlarda har bir davlat-ning o‘zida yashovchi o‘z millatining yutuqlarini maqtash bilan chek-lanish yoki unga siyosiy tus berish, o‘zi bilan yonma-yon yashayotgan mil-lat borligini sezmaslik nafaqat mustaqillikni mustahkamlashdek umumiy vazifani amalga oshirishga shuningdek, o‘z millatining boshqa millatlar oldida nufuzining tushib ketishiga salbiy ta’-sir etishi mumkin.

Ammo bu zinhor mahalliy millatning o‘z atrofiga o‘zga millat-larni birlashtirish, o‘z millati, vatani va kelajak avlod oldida-gi mas’uliyatini inkor etish darajasiga ham ko‘tarilmasligi lo-zim. CHunki u faqat o‘z zaminidagina o‘z imkoniyatlarini yuzaga chi-qarishga qodir. Uning dunyodagi yagonaligi ham o‘z zaminiga, avlo-diga, merosiga, xususiyatiga ega ekanligi bilan belgilanadi. Ti-tul millatning «kelgindilardan» farqi ham shundaki, u o‘z milla-tining abadiyligini faqat o‘z zaminidagina ta’minlay oladi va shuning uchun ham u o‘z zaminida millatning istiqboli uchun javob-gardir.

SHuning uchun milliy o‘z-o‘zini anglashning tarbiyaviy funksiya-sidan foydalanish jarayonida har qanday yo‘llar bilan uning maz-munini chinakam milliy va insonparvarlik g‘oyalari bilan to‘ldi-rib borishga harakat qilish juda muhimdir. Milliy zaminga ta-yanmagan holda tarbiyaviy faoliyatni olib borish kutilgan natija-ni berishi mumkin emas. CHunki milliy zamin bu xalq hayotining tajribasi, milliy an’analar, qadriyatlar tasavvurlar muhitidan u ajdodlarni avlodlar bilan bog‘lab turadigan real moddiylik hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlar o‘zgargan vaqtda mil-liy zaminning o‘zida odamlarning ruhiyati, ongida ham tegishli tarzda o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ammo milliy o‘ziga xoslik (in-dividuallik) saqlanib qoladi, chunki milliy zaminning o‘zida mil-lat shakllanadi, yashaydi va unda tarixiy o‘tmishi uning tarixiy yo‘li o‘xshashlik bo‘ladi. Xuddi ana shu konseptual g‘oyalarimiz bay-nalminallikning milliylik bag‘rida o‘sib, ulg‘ayib kamolotga eti-shiga asos ekanligini tasdiqlaydi. Baynalminallik milliylik bag‘ridan o‘sib chiqqan faqat bitta emas ko‘pchilik bahramand bo‘la-digan qirralardir. SHuning uchun qam bi 1 choxlaymizmi yoki yo‘qmi milliy taraqqiyot o‘z qonuniyatlari bo‘yicha o‘z ildizidan o‘sib chiqa-digan qonuniyatlar asosida harakatga keladi. Tarbiyaviy funksiya-ning o‘z ildizidan o‘sib chiqadigan mana shu g‘oyat katta kuch uning ongga ta’sir ko‘rsatadigan qobiliyati o‘sib borishiga yordam bera-di. Mana shu nozik funksiyani xuodyorlik bilan tushunib olish va uni bilish orqaligina milliy taraqqiyotga xamda milliy munosa-batlarni muvofiqlashtirishga yordam berish mumkin.

Milliy o‘zlikni anglashning qarakatga keltiruvchanlik funk-siyasi ham milliy rivojlanish va millatlararo munosabatlar ti-zimida aloqida o‘rinni egallaydi. Uning kuch-qudrati boshqa funk-siyalarga qaraganda ancha shiddatli va millatning ruhiyatini mod-diy kuchga aylantirishda ustuvor ahamiyatga egadir. Millat uchun umum qisoblangan muammolar yuzaga kelgan sharoitlarda xarakat-ga keltiruvchi funksiya ishga tushib ketadi. Lekin bu uning ma’lum sharoitlarda tinch turganini bildirmaydi. Agar millat manfaat-lariga zid xarakatlar yuzaga kelgan qolatlarda uning real natija-lari millatning ichida mavjud bo‘ladigan turli qarama-qarshilik yoki salbiy xrlatlarga qaramasdan uning bir yoqadan bosh chiqarish-ga olib kelsa, tinch sharoitda bu funksiyaning qarakati (garchand u doim qarakatda bo‘lishiga qaramasdan ham) deyarli sezilmaydi. CHun-ki bu sharoitda milliy qayotning ichidagi muammolari ustuvorlik-ka ega bo‘ladi.

SHuning uchun qam milliy o‘zlikni anglashning qarakatga kepti-ruvchanlik funksiyasi faqat millat oldida turgan global muammo-larni hal qilishga qarata bilish milliy taraqqiyot uchun amaliy ahamiyat kasb etib turadi. Ammo real hayotda buni amalga oshirish murakkab muammodir. CHunki millat ichida mavjud bo‘ladigan tur-li salbiy qolatlar uning yuzaga chiqishiga to‘sqinlik qilib qola-veradi. Xususan, adolatning buzilishi, millat ichidagi tabaqala-nish (boylar va qashshoqlar o‘rtasida tafovutlarning kuchayishi), madaniy-ma’rifiy soqalardagi imkoniyatlarning xilma-xilligi va boshqalar milliy o‘zlikni anglashning harakatga keltiruvchilik funksiyasini har doim ham milliy taraqqiyotga daxldor bo‘lgan muammolarni hal qilish o‘zaniga yo‘naltirish imkoniyatini beraver-maydi.

SHuning uchun milliy taraqqiyotga ta’sir o‘tkazishning eng mu-him muammolari qatorida adolatni tiklash, keskin tabaqalanish-ning oldini olish, turmush, madaniy-ma’rifiy sohalarda zarur bo‘lgan choralarni amalga oshirish kabilar turadi.

Milliy o‘zlikni anglashning yana bir funksiyasi bu millatga o‘z manfaatlarini va uni himoya qilishni anglashdir. Tashqaridan qaraganda bu harakatga keltiruvchanlik funksiyasining aynan o‘zi-dek ko‘rinadi. Ammo uning ta’siri o‘zgachadir. Xususan, bu funksiya millatning ongini, madaniyatini, ma’rifatini shakllantirish va rivojlantirishdagi xususiyati bilan ajralib turadi. Ma’naviya-ti va ma’rifati qashshoq millat o‘z manfaatlarini anglashga qodir emas. Madaniyati va ma’rifati rivojlangan millat o‘z manfaatla-rini anglashi mumkin hamda uni himoya qilish uchun harakat qila oladi.

Bu funksiya orqali millatning ichki imkoniyatlari rivojlana-di va u o‘zining birligini mustahkamlab bo‘ladi. Bu^shan ko‘rinib turibdiki, mazkur funksiya vaqtinchalik eng qisqa muhlatga xos bo‘lmasdan doimiylik harakatiga xosdir.

Mazkur funksiyaning barqaror harakati milliy rivojlanish-ning asta-sekinligini ta’minlab borishi bilan birga millatla-raro munosabatlarda «portlash»larning oldini olish imkoniyati-ni ham vujudga keltiradi.

Milliy o‘z-o‘zini anglashning boshqa funksiyalarini tahlil qilishga qaytib ba’zi mualliflar bilan munozaraga kirishishga urinib ko‘ramiz. Milliy o‘z-o‘zini anglashning boshqa funksiyalari muammosi K.N. Xabibullin tomonidan o‘rganish g‘oyasi ilgari su-rilganligini alohida ta’kidlash lozim bo‘ladi.

Prinsip jihatdan olganda u ko‘rsatgan mazkur funksiyalarning real tarzda mavjud bo‘lishi shak-shubha uyg‘otmaydi. Biroq bizning fikrimizcha ular mohiyatining yo‘nalishini va maqomini yana ham chuqurroq berish uchun mazkur funksiyalarni tag‘in ham kengroq va konkretroq shaklda qarab chiqish talab etiladi. K.N. Xabibullin moslashuv funksiyasi individining milliy o‘ziga xoslik hayotiy xu-susiyatlarga ko‘nikishida seziladi, deb hisoblaydi. Bizning fikri-mizcha, har qanday o‘ziga xoslik xususiyatlarga ko‘nikish ham boshqa hodisalar yoki «harakatga keltiruvchi» kuchlar aralashuvisiz sodir bo‘lmaydi. YA’ni o‘z-o‘zidan sezilib qolmaydi. SHu nuqtai nazardan olganda milliy o‘ziga xoslik xususiyatlariga ko‘nikish jarayoni kon-kret shaklda «kuchlar» tarbiyasi va yordamida amalga oshiriladi. Muallifning o‘zi qam buni quydagicha tarzda to‘g‘ri ta’kidlab o‘tadi: «Odam oilada, maktabda, dam olish yoki meqnatning jamoa shaklla-rida tarbiyalanish jarayonida faqat til ko‘nikmalariga o‘rganibgi-na qolmay, balki salmoqli qadriyatlar, tarixan topgan qadriyatlar to‘g‘risida muayyan qajmdagi axborot bilan ta’minlanadi»."

Modomiki, biz odamning o‘z milliy qadriyalariga ega bo‘lishi-da «tashqi» ta’sirlash zarurligini inkor etmayotgan ekanmiz, u holda biz (umumiy tarzda) moslashuv funksiyasi to‘g‘risida gapir-masdan, balki milliy o‘z-o‘zini anglashning tarbiyaviy funksiyasi to‘g‘risida so‘z yuritishimiz kerak. YA’ni mazkur holda gap mosla-shuv funksiyasining ko‘lamini qay darajada maqsadga muvofiqli-gi to‘g‘risida bormoqda. Holbuki, moslashuv funksiyasining maq-sadi o‘z milliy qadriyatlarnga insonni o‘rganishga va u bilan ta’-minlashga qaratilgan ekan, sirtdan qaraganda uning nomi mazmu-niga aslo muvofiq kelmaydi. SHuning uchun shakl bilan amalga oshirilayotgan vazifalar mazmunini konkretlashtirish va ularni bir-biriga muvofiqlashtirish maqsadida bizning fikrimizcha ushbu (moslashuv) funksiyani tarbiyaviy funkniya deb nomlash to‘g‘ri-roq bo‘lur edi. Bu nomlanish uning oldingisiga qaraganda amalga oshirilayotgan o‘z vazifalari ko‘lami va mazmun-moqiyatini keng-roq aks ettiradi. K.N. Xabibulin qimoya funksiyasi moqiyatini belgilab berar ekan, bizning fikrimizcha, uning vazifalarini bir qadar yumshatadi. Xususan, u «milliy o‘zlikni anglashning himoya funksiyasi, uni milliy ta’sirdan muhofaza etish maqsadida o‘z milliy madaniyati tevaragida to‘siqlar tiklash bilan bog‘liq emas», deb yozadi. U faqat milliy rivojlanish eqtiyojlari ta’sirida g‘am-xo‘rlik qilishga, uni millatlar va mamlakatimizdagi elatlarning qayoti bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir sharoitda boshqalar tomoni-dan nazar-pisand qilmaslik eqtimolini yoxud haqiqatdan ular na-zar pisand qilmasligining oldini olib, uni bundan ogoh etishga qaratilgandir.[12] Garchand, mazkur fikr qali sobiq SSSR mavjud bo‘lgan, ammo, parchalanish arafasiga kelib qolgan paytda aytil-gan bo‘lsa qam, mamlakatlarning ko‘p millatlardan iboratligini saqlangan sharoitlar uchun u haqida munozara yuritish o‘z ahamiya-tini yo‘qotmaydi.

Mazkur g‘oyat murakkab, ayni mah_alda manfaatlarni anglash va ximoya qilish funksiyaga bunday yondashuv, bizning fikrimizcha, un-chalik to‘liq xarakter kasb etmaydi. Bu birinchidan, uning nomini qam o‘z vazifasidan bildirib turadi. YA’ni mazkur holda gap ogoh-lantirish ustida emas, balki bir narsani boshqa bir narsadan qimoya qilish to‘g‘risida bormoqda. Basharti, ogoqlantirish to‘g‘risida fikr yuritiladigan bo‘lsa, u holda «himoya qilish» degan so‘zlarni qo‘llash-ga zarurat qolmagan bo‘lur edi. Ikkinnidan, agar bu erda gap o‘z madaniyati an’analarini va urf-odatlariga xos bo‘lgan milliy xu-susiyatlarni o‘zga milliy madaniyatlardan himoya qilish to‘g‘risida borayotgan bo‘lsa, u holda buning mohiyatini yana ham konkretroq tu-shuntirish zarur. Mazkur holatda gap har ikki tomon to‘g‘risida borishi ularning biri (to‘la umumiy tarzda) qabul qilishi to‘g‘ri-sida emas, balki har qanday ikkala tomon bir-biridan faqat «qabul qilib olish» va «idrok etish» hisobiga bir-biriga ta’sir ko‘rsa-tish va o‘zaro bir-birini boyitib borish to‘g‘risida bo‘lishi lozim. YA’ni jarayonning tashqi kuchlarning aralashuvisiz tabiiy taraq-qiy etishi haqida borishi lozim.

Salbiy ta’sirlar mavjud bo‘lgan yoki sirtdan aralashuvlar bo‘lgan sharoitda o‘z madaniyati hisobiga o‘zga madaniyatlarni bo-yitishga sun’iy ta’sir ko‘rsatishga urinish mavjud bo‘lgan hol-larda himoya funksiyasi ishga tushib ketadi (albatta, agar jamiyat-ni boshqarishning demokratik va insonparvarlik tamoyillari amal qilayotgan bo‘lsa) va o‘z madaniyati, axloqiy va ma’naviy qad-riyatlari sofligini o‘zga milliy madaniyatlardan himoya qilib, ularning sun’iy yo‘l bilan kundalik hayotga kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaydi. Zero, har bir xalqda (millatda), uning milliy madani-yatida, an’analarida, urf-odatlarida, qadriyatlarida, xulq-atvo-ri va axloqida to bugungi kunlargacha saqlanib kelayotgan shunday belgilar va elementlar mavjudki, ular faqat mazkur millatga yoki elatlargagina xos bo‘lib faqat ular tomonidan tan olinadi, le-kin boshqa millatlar uchun qabul qilishi yoki qabul qilinishi mum-kin bo‘lmaydi. Bu tabiiy hol. CHunki har bir millatdagi hamma xususiyatlar boshqalar tomonidan butunlay qabul qilanadigan bo‘lsa millatlar va ular madaniyatlaridagi o‘ziga xosliklar barh-am topgan bo‘lur edi. Xuddi ana shuning uchun ham «meniki» va «uni-ki» o‘rtasida farq, kerak bo‘lsa qarama-qarshilik doimiy saqla-nib qoladi. O‘z navbatida mazkur ziddiyatli jarayon mazkur millat va elatlar uchun «o‘z» madaniyatlarini boyitishlariga intilishni kuchaytiradi. Qachonki, madaniyatda «meniki» va «uniki» mavjud bo‘lmas ekan, u albatta o‘limga mahkumdir. Xuddi mana shu ikki bir-biriga qarama-qarshi ayni paytda biri ikkinchisisiz bo‘la olmaydigan omillargina milliy o‘ziga xoslikning umri boqiyli-gini ta’minlaydi va insoniyat ma’naviy olamiga go‘zallik baxsh etib turadi. Ammo ularni millatlararo mojarolarni keltirib chiqaruvchi omilga aylanib ketishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmay-di. Ularni faqat milliy go‘zalliklarni namoyish qilish, ulardan g‘ururlanish, bahra olish va ma’naviy yuksaklikka ko‘tarilish maqsadidagina qo‘llash lozimdir.

SHunday qilib, millatlar, elatlar mavjud ekan, milliy o‘zlik-ni anglash barqaror rivojlanib, takomillashib boraveradi. SHuni hisobga oladigan bo‘lsak, himoya funksiyasining mohiyatini talqin qilishda bir yoqlamalikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. CHunki bu milliy madaniyatning bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi va bir-birini boyi-tish mohiyatiga noto‘g‘ri munosabatni shakllantiradi hamda ushbu jarayonda mavjud ziddiyatlarni nazar pisand qilmay, ularning in-kor etilishiga sabab bo‘lishi mumkin. SHu bilan birga himoya funk-siyasi ahamiyatini absolyutlashtirib uni o‘zga milliy madaniyatlar-ning tashqi ta’siridan himoyalanib himoya funksiyasini o‘ziga qal-qon qilib olinishiga yo‘l ham qo‘yib bo‘lmaydi. CHunki dunyoda sof milliy ma’naviyat mavjud emas, har doim har bir ma’naviyatda be-gona (o‘zga) milliy madaniyat ham begonalarga o‘zidan nimanidir berib turadi. YA’ni madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va bir-birini o‘zaro boyitish - bu har bir madaniyat rivoji uchun va umuman butun dunyo sivilizatsiyasi madaniyati uchun xos bo‘lgan umumiy qonuniyat-dir. Milliy o‘zlikni anglash funksiyalarining vazifalarini tah-lil qilish jarayoni shuni ko‘rsatdiki, milliy taraqqiyot ikki aso-siy qonuniyatlar asosida sodir bo‘ladi: birinchidan, har bir mil-latning o‘z zaminlari, ildizlari asosiy xomashyo sifatida etakchi o‘rinni egallaydi, ikkinchidan, millatlar o‘zgalardan nimalarni qabul qiladilar va ularga nimalarnidir berib turadilar. Bu ta-raqqiyotning ob’ektiv qonuniyati hisoblanadi. Ammo millatlar ma’naviy olamiga tashqaridan zo‘ravonlik yo‘li bilan aralashuv, ta’sir ko‘rsatish faqat milliy nizolar keltirib chiqarmasdan, shuning bilan birga mamlakatni ham halokatga olib keladi. Xuddi ana shu ma’noda ham milliy o‘zlikni anglashning tabiiy rivojla-nishiga imkoniyat yaratish zarur bo‘ladi.

Albatta, milliy o‘zlikni anglash omili ichki salohiyatida mav-jud bo‘lgan turli funksiyalarni ajratib ko‘rsatish bilan ular o‘z-o‘zidan amal qilavermaydi. Balki amaliyotda ko‘rsatilgan funksiya-larning mohiyatini to‘la tushunish, ulardan tegishli yo‘nalishlar-dagi vazifalarni amalga oshirishda san’atkorona foydalana bi-lishga ham ko‘p narsa bog‘liqdir.

YUqorida tahlil qilingan jarayonda ko‘rdikki, milliy o‘zlikni anglash omiliga befarq qarab yoki uni e’tibordan chetda qoddirib bo‘lmaydi. CHunki millatning obro‘-e’tibori, or-nomusi, g‘ururi, o‘zga millatlar oldidagi o‘ziga xoslik kabi bir qator o‘ta murakkab, o‘z navbatida har qanday gashqaridan bo‘ladigan zo‘ravonliklarga tezkorlik bilan javob qaytarishga qodir bo‘lgan har bir millatning ichki ruhiy salohiyati bilan bog‘lshushr. U millatga qaratilgan har qaday harakatlarga yoki uning manfaatlariga zid bo‘lgan munosa-batlarga o‘zining javobini qaytaradi.

Milliy o‘zlikni anglashning millatlararo munosabatlarda tur-li mojarolarni keltirib chiqarish omiliga aylanishi aksariyat ko‘pchilik xollarda ma’naviy ehtiyojlarni etarli darajada qondir-maslik, millatning o‘ziga xosligiga nisbatan hurmatsizlik kabi salbiy holatlarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu tabi-iy hol. CHunki ma’naviyat millatning or-nomusi, g‘ururi, ichki ru-hiy salohiyati, kerak bo‘lsa uning butun borlig‘idir. U o‘zining mil-lat sifatidagi qiyofasini ma’naviyat orqaligina namoyon eta ola-di. SHuning uchun ham ma’naviyatga nisbatan bo‘ladigan har qanday salbiy munosabatlar millatga nisbatan bildirilgan tajovuz si-fatida qabul qilinadi.

Ma’naviyatning milliy o‘zlikni anglashning salbiy omil dara-jasiga ko‘tarilishini xalqimizning «qornimga emas, qadrimga yig‘-layman», degan dono maqoliga qiyoslash orqali tasavvur qilish mum-kin. YA’ni millat moddiy qashshoqlikka chidashi mumkin, ammo o‘zi-ning ma’naviyati, or-nomusi, g‘ururiga nisbatan bo‘ladigan har qaday salbiy harakatlarga bardosh bera olmaydi va albatta, unga o‘zi-ning kuchi va qudrati bilan javob qaytaradi. Uning o‘zligini himoya qilishi har qanday moddiy boylikdan ming chandon ustundir.

Bu keltirilgan fikrlarimiz millat taraqqiyotida bir necha mar-talab o‘z tasdig‘ini topib kelmoqda. Ular milliy o‘zlikni anglash va milliy madaniyat omillarining bir-birlari bilan uzviy bog‘-liqligini, himoya qilishini va umummilliy taraqqiyotning mezon-larini belgilashdagi etakchilik o‘rinlari mustahkam ekanligini tasdiqlaydi.

Jahon taraqqiyotida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar, shu munosa-bat bilan milliy taraqqiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va muammolarning yuzaga kelishi hamda ularni bartaraf etishga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishiga qarab milliy o‘zlikni anglash-ning funksiyalari ham kengayib boradi. Jumladan, bugun global-lashuvning avj olishi uning milliy ma’naviyatni ichdan emirili-shiga o‘tkazayotgan ta’sirining kuchayishi milliy taraqqiyotga xavf solayotgan turli diniy oqimlar va siyosiy kuchlarning paydo bo‘li-shi davlatlar o‘rtasidagi bozor va erosti zaxiralari uchun kurash-ning avj olishi, mamlakatlar o‘zlarining siyosiy mavqeini va nu-fuzini mustahkamlash uchun olib borayotgan faoliyatlarining yangi bosqichiga ko‘tarilishi milliy o‘zlikni anglashning «himoyalash» funksiyasi qamrovining kengayishini, milliy xavfsizlikni ta’-minlash, mamlakat mavqei va nufuzini mustahkamlash hamda uning istiqboli uchun masullik tuyg‘usini mustahkamlash funksiyalari shakllanib bormoqda. Milliy o‘zlikni anglashning yuqorida ta’-kidlangan «himoyalash» funksiyasi globallashuvning avj olishi sha-roitida yangicha tus oladi va uning millatning taraqqiy etishi sha-roitiga qaraganda ham qamrovi kengayib bormoqda. CHunki millat vakillari bugun globallashuvning kuchli bosimi ostida yashamoq-dalar, ular bu ta’sirni kundalik hayotning barcha sohalarida na-moyon bo‘layotganligining guvohi bo‘lib turadilar. Hech bo‘lmaganda radio eshittirishlar, teleko‘rsatuvlar, uyali telefonlar, internet kabi vositalar orqali er kurrasining eng kichik hududida bo‘lgan eng so‘nggi yangiliklardan bir zumda xabar topayotganliklari bi-lan bu jarayonning naqadar o‘z hayotlaridan mustahkam o‘rin olayot-ganligini bilib turibdilar. Ammo ana shu yangiliklarning aksa-riyat ko‘pchiligining yo‘nalishi o‘zlarida ana shu jarayonga moyil-likni kuchaytirishga, unga mahliyo bo‘lishga qaratilganligini va shu yo‘l bilan o‘zlarining milliy ma’navnyatini zaiflashtirish maq-sad qilinganligini har doim ham tushunib etmaganliklarini sez-maydilar. CHunki ana shu yangiliklar shunday ustalik bilan tashvi-qot qilinadiki, ular oldida mamlakat ommaviy axborot vositala-ri tomonidan berilayotgan va ko‘rsatilayotgan yangiliklar odamni o‘ziga jalb qilishda ojizlik qilib qolaveradi. Buning natijasi-da bora-bora odamlar xorijdan tarqalayotgan har qanday yangilik va xabarlardan boshqalarini eshitish va tomosha qilishni o‘zlari-ning ma’naviy-ma’rifiy boyliklarining asosiy manbasiga ayla-nib

qolganliklarini ham sezmay qoladilar. Boz ustiga odamzot tabiatiga xos bo‘lgai o‘zgalarnikiga bo‘lgan qiziqish ham bu jara-yonda qatnashadi. Agar bugun aksariyat ko‘pchilik millatdoshlarimiz-ning milliy ma’naviyat va ma’rifatning rivojlanishi yo‘nalishi-ni hamda manbalari diqqat bilan kuzatilsa xuddi ana shu jarayon kechayotganligini kuzatish mumkin. Bu milliy taraqqiyot uchun o‘ta xavfli jarayon hisoblanadi. SHuning uchun ham millatni globalla-shuv jarayoniga tortayotgan ana shu vositalardan uni himoya qilish-da foydalanish mexanizmlaridan samarali foydalanish zarur bo‘la-di. Buning uchun esa millatni ma’naviy-ma’rifiy boyitish bora-sida ketayotgan raqobatda ustunlikni qo‘lga kiritish uchun bu soha vakillarining faolligini kuchaytirish lozim bo‘ladi. Bu jarayon-da mamlakatda mavjud bo‘lgan barcha ommaviy axborot vositalari -radio, televedinie va internetdan tarqaladigan yangiliklar, xa-barlar, ko‘rsatuvlar o‘zining mazmuni, ma’nosi, ahamiyati insonning qalbi va dunyoqarashini egallashi bilan xorijdan tarqalayot-gan har qanday yangilik va xabarlari ustun bo‘lishiga erishmoq za-rur bo‘ladi. Buning muhimligi shundaki, bugun globallashuv avj olayotgan sharoitda xorijdan tarqalayotgan yangiliklar va eng so‘nggi xabarlarni to‘xtatishning imkoniyati qolmadi. SHunday ekan uni faqat raqobatga bardosh bera oladigan imkoniyatlar vositasi bi-langina to‘xtatishga erishish mumkin bo‘ladi.

Ana shunday imkoniyatlardan biri milliy o‘zlikni anglashning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan global vazifalarni hamda ularni hal qilishda umummilliy harakat ruhiyatini shakllantirishga e’ti-borni kuchaytirish hisoblanadi. YA’ni, globallashuv jarayonipa pas-siv tinglovchi, ishtirokchi emas. faol ishtirokchi va undan o‘z man; faatlarimiz yo‘lida foydalanishni ko‘zlab harakat qilishga o‘rga-nishimiz lozim bo‘ladi. Unda qanchalik o‘z manfaatimiz yo‘lida faol va samarali ishtirok qilishga o‘rgana olsak, milliy ma’naviyati-mizga chetdan o‘tkazilayotgan salbiy ta’sirlarning imkoniyatlari ham cheklanib boraveradi. Bu yana milliy o‘zligimizni anglashni rivoj-lantirish jarayonlariga borib taqalaveradi. Millatning o‘zligi-ni anglashning o‘sishigina globallashuvning milliy ma’naviyatga o‘tkazadigan ta’sirini sezadi va uning qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tushunib etadi. O‘zligini anglamagan yoki unga beparvolik bilan qarashga moyilligi mavjud bo‘lgan millatning istiqbolida yirik millatlarga qaram bo‘lib qolishi xavfi yuzaga keladi. SHu ma’noda ham globallashuv bir tomondan milliy o‘zlik-ni anglashning rivojlanishiga majbur etuvchi, ta’sir o‘tkazuvchi omil sifatila namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan ana shu omillar milliy o‘zlikni anglashning rivojlanishida yangi bosqichni bosh-lab berali, deyish mumkin. Majbur etuvchi va ta’sir o‘tkazuvchan-lik omillari orqali millat o‘zining istiqboli xavf ostida ekan-ligini anglab etadi. Unda himoyalanishga moyillik uchun ruhiyat kuchayib boradi. Bu o‘z navbatida milliy o‘zlikni anglashning ri-vojlanishiga o‘zining ta’sirini o‘tkazadi. SHu tariqa milliy o‘zlikni anglashning rivojlanishi globallashuvning milliy ma’-naviyatga o‘tkazadigan salbiy ta’siridan himoyalanish funksiyasi amal qiladi. Globallashuvning avj olishi davom etar ekan, mil-liy o‘zlikni anglashning ana shu funksiyasining roli ham kuchayib boradi. Aks holda globallashuv kichik millatlarni katta millat-larga assimilyasiya (qo‘shilib) bo‘lib ketishiga o‘zining ta’sirini o‘tkazib boradi.

XXI asrga kelib millatlarning o‘zligini anglash jarayonining o‘sishi yangi pog‘onaga ko‘tarilib borishi bilan birga unga qarshi vermaydi, balki millatning o‘zligini anglashining o‘sib borishi bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘zligini anglagan millatnigina milliy xavf-sizlikning millat taraqqiyoti va istiqboli uchun naqadar muhim omil ekanligini tushunib etadi.

Bugun milliy xavfsizlikka qarshi qaratilgan turli oqimlar va siyosiy kuchlar faoliyat olib borar ekan, milliy o‘zlikni ang-lashning milliy xafvsizlikni ta’minlash funksiyasining roli oshib boraveradi.

Hozirgi globallashuv sharoitida turli xil g‘oyalarning dunyo bo‘ylab tez tarqalishi sodir bo‘lmoqda. Bunday vaziyatda odamlar, ayniqsa yoshlar, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarashga ega bo‘lmasa, sodir bo‘layotgan voqealarning asl mohiyatini tushunib etishga qodir bo‘lmaydi, turli ma’naviy tahdidlarga, xususan “ommaviy madaniyat” niqobi ostida targ‘ib qilinayotgan zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarining ta’siriga bardosh bera olmaydi. Globallashuv demografik jarayonlarga ham ta’sir etadi.

Agar 1900 yilda er yuzi aholisi 1652 mln. bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1999 yil (13 oktyabr) 6 mlrd. kishidan oshib ketdi. 21-asrga kelib barcha mamlakatlarda aholining o‘sish

darajalarini o‘rganishni o‘zida mujassamlashtiruvchi demografik siyosat olib borilmoqda. CHunki, mamlakatlarning taraqqiyotiga ta’sir etayotgan asosiy omillardan biri aynan, aholining tabiiy ko‘payishining yuqori sur’ati hisoblanadi. SHuning uchun aholining tabiiy o‘sishini mo‘‘tadillashtirishga qaratilgan BMT qoshidagi maxsus oilani rejalashtirish qo‘mitasi bir necha o‘n yillardan buyon faoliyat ko‘rsatmoqda. 1992 yildan boshlab BMTning teng huquqli a’zosi sifatida e’tirof etilgan mamlakatimiz ham oilani rejalashtirish qo‘mitasiga a’zo bo‘ldi. O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan demografik siyosatning tub maqsadi aholining ma’naviy va jismoniy barkamol bo‘lishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Aholishunoslik nazariyasi ishlab chiqish antik davrga borib taqaladi. Demografiya ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, geografik omillar, sabab va shart-sharoitlar asosida nufus dinamikasi, migratsiyasi, o‘rnashuvi, strukturasi qonuniyatlarini o‘rganuvchi ijtimoiy-gumanitar fan hisoblanadi. Qonuniyatlar va xulosalar asosida demografiya nazariyasi va siyosatini ishlab chiqadi, mamlakat, shahar, viloyat, mintaqa va umuman, jahon aholisining o‘zgarish istiqbollarini belgilaydi. Demografik jarayonlar holati ijtimoiy-iqtisodiy, biologik va jug‘rofik omillar bilan chambarchas bog‘liq. Demografiya, ya’ni nufus to‘g‘risidagi fan sotsiologiya, iqtisod, tarix, huquq, etnologiya, sotsial gigiena, aholi geografiyasi, tibbiyot, gerontologiya, genetika, statistika kabi ilmiy sohalar bilan mustahkam bog‘liq holda rivojlanmoqda. Demografiya avvalo sotsiologiya bilan bog‘liqdir. Ikkala fanda ham asosiy o‘rganish ob’ekti bitta bo‘lsa-da, tadqiqotlar jarayonida ijtimoiy nuqtai nazardan turlicha yondashiladi. Demografiyaning iqtisodiyot bilan bog‘liqligi mehnat resurslari, ishchi kuchi, ishlab chiqarish rivoji kabi masalalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Huquqiy qonunlar bilan demografiyaning bog‘liqlik joyi shundaki, ular turli mintaqalarda demografik jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadi. Demorgrafiya migratsiya masalalarida o‘ziga xos an’analar, urf-odatlar va qarashlarga ega. Oilada nechta farzand bo‘lishi masalasiga ham munosabat turlicha. SHu nuqtai nazardan demografiya va etnologiya bir-biri bilan bog‘liqdir. Sotsial gigiena, gerontologiya, tibbiyot nuqtai nazaridan esa aholi salomatligi, o‘limi, uzoq yashashi, aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi o‘rganiladi. Demografiyada statistika tamoyillari keng qo‘llanadi.

SHu asosda, demografik statistika sohasi aholining jinsiy, milliy, joylanish, madaniy, oilaviy, sotsial, tarmoq, kasb – strukturasi o‘rganiladi. Demografiya urushlarning aholi tarkibiga ta’siri, aholi o‘rtacha yoshi, o‘lim darajasi, unga ta’sir qiluvchi omillar, tabiiy o‘sish koeffitsenti va boshqalarni ham o‘rganadi. Paleodemografiya ma’lumotlariga asoslangan holda qadim zamonlardan aholining o‘sish dinamikasi haqidagi bilimlar to‘planadi.

Globallashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda nufus nazariyasi asosida rivojlanayotgan qator demografiyaga bog‘liq fanlarga extiyoj kattadir. Hozirgi davrda xalqaro demografik vaziyatning keskinlashuvi, nufus masalasining insoniyat global muammolarining ajralmas tarkibiy qismiga aylanganligi demografik fanlarning jadal rivojiga turtki bermoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi dunyoviy miqyos kasb eta boshlagan demografik portlash, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagi demografik tanazzul, urbanizatsiya va xalqaro migratsiya muammolari globallashuv jarayoni kuchayganligining dalildir. Ayni paytda demografik muammolar ilmiy muammolar sarhadlarini buzib o‘tib, insoniyatning saqlanib qolishi va rivojlanishini belgilovchi umuminsoniy muammolarga aylanib bormoqda. Muammolarni hal etish yo‘llari, usullari bir xil emas, turli mintaqalarda turlicha echimi mavjud, ba’zilarini hal etish yo‘llari esa, hali ishlab chiqilmagan. SHu boisdan, demografik fanlarning ham amaliy taraqqiyoti hozirgi zamon fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Prezident Islom Karimov ta’kidlaganidek: “... globallashuv – bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”[175].

Globallashuv bu butun jahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir-birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatining qo‘shilish va yaqinlashuvidir. Bu ob’ektiv jarayon bo‘lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega.

Bir necha yillik tadqiqotlari natijasida A.CHumakov “Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalarning, ma’naviy qadriyatlar, dunyoqarash yo‘nalishlarini universallashuviga olib kelishi bilan birga, an’anaviylik, o‘ziga xoslik va madaniy xilma-xillikni saqlashni istisno qilmaydi”[176] , - degan xulosaga keladi. Bunday davrda shaxs murakkab ijtimoiy muhit sharoitida faoliyat ko‘rsatishga majburdir. Inson yashayotgan zaminining, tinch va barqaror kechirayotgan hayotining mohiyatini to‘la anglashi, qadrlashi, ya’ni ijtimoiy muhitning ob’ekti sifatida namoyon bo‘lishi kerak. Globallashuv jarayonining hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sabablari xususida gapirganda Prezidentimiz I.Karimov shunday deydi: “SHuni ob’ektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas”[177].

Global miqyosdagi muammolar ilmiy munozaralar predmeti sifatida XX asrning 60-70 yillarda jahon hamjamiyatida jiddiy qiziqish uyg‘otgan. Dastlab 1930 yillarda E.Lerua, Teyyar de SHarden va V.I.Vernadskiylar insoniyat hamjamiyatining global mohiyatini va uning Erdagi yashash tarixi uchun mas’uldir deganlar. Keyin bu masala ma’lum vaqtga unutildi va bir necha yildan keyingina 1970-80 yillarda yana esga olindi. Bugungi kunda globallashuv jaryonining jadallashuvi o‘zaro aloqadorlik va o‘zaro ta’sir dialektikasi qonunlari asosida ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga, ta’sir o‘tkazmoqdaki, bu o‘z navbatida yoshlardagi ijtimoiy mas’ullik jarayoni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, texnika-texnologiya, xalqaro axborot almashinuvining jadal rivoji demografik masalalar bilan o‘zaro aloqadorlikda yuzaga keladi.

Hozirgi kunda “globalistika” termini zamonaviy fan tilining ajralmas qismidir, ammo uning ma’nosi haqida hanuz turlicha fikrlar bildirilmoqda. Ba’zilar bu yangi fan, u hali shakllanish jarayonida deb aytsalar, boshqalar ilmiy bilish integratsiyasi natijasi deb bilib, o‘ziga xos fanlararo tadqiqotlar sohasi, deb tan olmoqda.[178]

Globallashuv jahon demografik jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil bo‘lishdan tashqari milliy mentalitet, milliy an’analar va madaniy axloqqa ham daxl qilayotgani uchun bu predmet xali ko‘p tadqiqotga muxtojdir.

[175] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Тошкент, Маънавият, 2008, 4-бет.
[176] Чумаков А.Н. Глобализация. Контуры целостного мира. М., Проспект.2005.С.259
[177] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 111 б.
[178] Қаранг: Чумаков А.Н.Философия глобальних проблем. М.: Знание, 1994. С.77-80.

13-mavzu. Global inqirozlar davrida yuksak ma’naviyatning dolzarbligi. Mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish (prezident I. Karimovning «Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch» asari asosida).

Reja:

1. Globallashuvning ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotga ta’siri.
2. Xalqaro miqyosda ro‘y berayotgan global inqirozlar davrida yuksak ma’naviyatning dolzarbligi masalalari.
3. Globallashuv va ma’naviy inqiroz.
4. Mafkuraviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish davr talaba ekanligi.
5. Prezident I. Karimovning «Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch» asari asosida ma’naviy tahdidlarga nisbatan kurash yo‘llari va vositalari.

XXI asr tarix sahifasiga globallashuv va buyuk taraqqiyot asri sifatida kirib keldi. Globallashuv jamiyat sohasida o‘ziga xos murakkab, ayni paytda ob’ektiv jarayon sanalanadi. SHu bilan birga globallashuvning barcha jarayonlarni qamrab olish ko‘lamining tezligi butun jahon uchun yangilik hisoblanadi.

Globalizatsiya atamasi birinchi bo‘lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981 yildan beri qo‘llanilib kelingan. Ammo bu so‘zning to‘liq ma’nosi, konsepsiyasi 1990 yilning yarmida amerikalik olim CHarlz Taz Rassel tomonidan to‘liq ochib berilgan.

Globallashuv so‘zining lug‘aviy ma’nosi xalqaro integratsiya, ya’ni butun dunyo aholisining bir ijtimoiy tuzum ostiga birlashishi, bir xil vazifa bajarishi protsessi tushuniladi.

Xalqimiz o‘tmishida ma'naviyati yuksak insonlar ko‘p bo‘lgani va bunday insonlar tomonidan ulkan ma'naviy boyliklar meros ekani sizga yaxshi ma'lum. Diniy-dunyoviy va ilmiy mavzularda yetuk asarlar bitgan bu zotlar ayni paytda shaxsiy hayotlarida ham yuqoridagi mezonga mos edilar.

Bugun-chi? Bugun ilmning ilgari egallash amrimahol bo‘lgan cho‘qqilarni zabt etayotgani da'vo qilinmoqda. Bu gapda haqiqat bor: taraqqiyot hozir inson hayotiga ko‘p farovonlik, yengillik keltirdi. Globallashuv* sabab keng jahon kichik bir qishloqqa aylandi. Iqtisodiy maqsad-manfaatlar dunyoning siyosiy chegara va to‘siqlaridan oshib o‘tib, jahonni bir xil qonunlar asosida ishlaydigan yagona bozorga birlashtirdi. Lekin taraqqiyot, ilm-fan qanchalik rivojlanayotgan bo‘lsa, shu bilan bab-barobar qarama-qarshi tomonga ma'naviy qadriyatlar tanazzulga yuz tutib boryapti. Chunki globallashuv keltirgan moddiy farovonlik, asosan, faqat tanga rohat berishga xizmat qilmoqda. Bugungi taraqqiyot bizga in'om etgan ne'matlar haqida bir o‘ylab ko‘ring. Kompyuter texnologiyalari, mass-mediya, sun'iy yo‘ldosh berayotgan imkoniyatlar, internet va hokazo. Bular mutaxassislar qo‘lida taraqqiyotni yanada jadallashtirishga xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, ayni paytda oddiy avom xalq - ular foydalanuvchilarning aksariyatini tashkil qiladi - bu vositalardan faqat ko‘ngilxushlik uchun foydalanyapti.

Globallashuv jarayonining yana bir o‘ziga xos jihati, u hozirgi sharoitda mafkuraviy ta'sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda.

Avvalo, iqtisodiy va siyosiy darajada globallashuv ayrim yirik trans va multinatsional korporatsiyalar manfaatigagina xizmat qiluvchi tizimdir. Unda qashshoq davlatlarga beg‘araz yordam berish, biror davlat yoki xalq farovonligi uchun xizmat qilish kabi maqsadlar bo‘lmaydi.

Ularga iste'mol qilish quvvatiga ega mijozlar bo‘lsa bas. Agar birov globallashuv yo‘liga to‘g‘anoq bo‘lsa, undaylar shafqatsizlarcha jazolanadi. Tizim shu darajada yaxshi ishlayaptiki, globallashuv qobig‘ida o‘z manfaatlari uchun ishlovchi davlat va iqtisodiy guruhlar yer yuzasidagi har bir tirik jonni o‘z maslaklariga ishontira oladi. Bugun dunyodagi gegemon davlatlarning xalqaro maydonda «xalqlar ozodligi» uchun olib borayotgan urushlari aslida bir necha bankir, moliya guruhlari va transnatsional korporatsiyalar buyurtmasi bilan olib borilayotgan ishlardir.

Ma'naviy va xususiy darajada globallashuv insonni quruq iste'molchiga aylantiradi: baxt moddiy farovonlik bilan belgilanadi. Yashashdan maqsad maksimal darajada hayotdan lazzatlanishdangina iborat bo‘ladi. Bu yerda ruhiy-ma'naviy qadriyatlarga, ezgulik, savob, birovga beg‘araz yaxshilik qilish kabi oliy tushunchalarga o‘rin yo‘q. «Birovga zararing yetmasa bas, istaganingni qilishing mumkin». Bu aqida qolipsiz demokratiya qobig‘ida yanada chiroyli va adolatli ko‘rinadi. Shu o‘rinda oddiy bir mantiq yuzaga chiqadi. Mana shunday aqida bilan kun kechirayotgan insonlar «tepa»lariga ham o‘zlari kabi odam o‘tirishini istaydi. Bejizga ayrim G‘arb o‘lkalarida saylovda ishtirok etayotgan nomzodlar besoqolbozlikni qonuniylashtirishdek har qanday din va ma'naviyat la'natlagan odatlarni o‘z saylov dasturlarida ko‘tarib chiqayotganlari yo‘q.

Italiyalik bir siyosatchidan, nega siz saylov dasturingizda xorijdan kelib noqonuniy ishlaydigan fohishalar ishini taqiqlash haqida gapirmaysiz, deb so‘rashganda, men millionlab erkak saylovchilarimni boy berishni istamayman, deb javob bergan ekan. Jamiyatning chirigan jasadi ana shunday tarzda tepaga chiqib qoladi. Davlatdagi ma'nan buzuq insonlarning ovozini to‘plash, ularning ko‘nglini xushlash uchun xalq boshida turishdek mas'uliyatli lavozimga da'vogar kishilar buzuq, jirkanch odatlarni qonuniylashtirishgacha yetib borishyapti. Ayni shu misollarda globallashuv va uning bugungi ma'naviyatga ta'siri, umuman, zamonaviy dunyoda inson qanchalar tanazzulga yuz tutib borayotgani yaqqol namoyon bo‘ladi.

Nima qilish kerak? Odamning isitmasi chiqsa, avvalo, uning sababi aniqlanadi. Faqat haroratni tushiradigan dorini ichish bilan vaqtincha isitmadan qutilish mumkin, ammo asl sabab bo‘lgan dard davolanmas ekan, ko‘p o‘tmay harorat yana ko‘tarilaveradi. Ya'ni, isitmadan batamom qutilish uchun simptomni emas, balki kasallikning o‘zini davolash kerak. Xuddi shuningdek, bugun ko‘p gapirilayotgan, insonning axloqsiz bo‘lib, moddiylashib borayotgani johillik, ma'naviyatsizlik dardining simptomlaridir. Odamning odobli bo‘lib, ruhiy dunyosining boyishini, dunyoda inson bo‘lib yashashini ta'minlashga atrof-muhitni buzg‘unchi vositalardan xoli qilish bilangina erishib bo‘lmaydi. Balki inson ma'naviyatini ko‘tarish, qalbiga ilm, ezgulik ziyosini kiritish bilangina johillik, ma'naviy buzuqlik dardiga davo topish mumkin.

Johillik bugun epidemiya tarzida keng yoyilgan. Ilm uning davosi, emidir. Ilm agar insonning hayotida aks etmay, faqat xayolda, qog‘oz-qalamdagina qolsa, bu ilmdan uning egasiga naf yo‘q. Xorijlik bir tanishimning shunday degani esimda: «Universitetda ko‘plab professorlarni ko‘rdim, bag‘oyat ilmli, o‘z sohalarida tengi yo‘q mutaxassislar. Ammo shaxsiy hayotlaridagi o‘zlarini tutishlari, arzimas narsa uchun pastkashlikka borishlari, axloqsizliklari meni ajablantirardi».

Darhaqiqat, ilmning o‘zi ham inson ma'naviyatini ifodalamaydi. Aslida, ilm nima, uning mezoni qanday bo‘lishi kerak, bular ham bahsli savollar. Odam qo‘lida oliy ilm unvoni bo‘laturib o‘zi ma'naviyatsiz bo‘lishi hech gap emas. Umr bo‘yi tog‘da qo‘y boqqan cho‘pon yoki dalada ketmon chopgan dehqon esa ma'naviy barkamol, axloq-odobda komil inson bo‘lishi mumkinligi ham haqiqat.

Bugungi tezkor globallashuv jarayonida ma'naviyatni saqlab qolishning yagona chorasi insonning qoniga, joniga ma'naviyatni singdirishdir. Xo‘sh, bu qanday amalga oshiriladi?

Bu muhim vazifaning umumiy yo‘nalishini Yurtboshimiz shunday belgilab bergan: «Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo‘lsa, avvalo, ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning «da'vati» ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta'sirini o‘tkaza olmaydi».

Tarbiyaning eng samarali usullaridan biri o‘rnak bo‘lish orqali ta'lim berishdir. Ya'ni, yoshlarimizga tarbiya beradigan mutaxassislar, ustoz-tarbiyachilar, avvalo, o‘zlari tarbiyalangan bo‘lmoqlari va yoshlarga oliy namuna maktabi vazifasini o‘tamoqlari lozim. Ma'naviyat tarbiyachining yurish-turishida ufurib tursa, u milliy urf-odatlarga sodiqlik, qadriyatlarga hurmat ko‘rsatsa va bunga o‘z hayotida amal qilsa, ko‘zlangan maqsadlarga erishish samaraliroq bo‘ladi.

Bu borada vatanparvarlik, ezgulik, xayr-saxovatni tarannum etuvchi badiiy asarlar, filmlarning ham o‘rni beqiyos. Agar film yoki badiiy asar yuqori sifatli bo‘lsa, uning ijobiy ta'siri boshqa har qanday vositadan kuchli bo‘lishi shubhasiz. Yoshlarni sport ishlariga muntazam jalb etish ham yuqori samara berishi ma'lum. Do‘stlik, vatanparvarlik g‘oyalarini singdirishda sportdan o‘tadigani yo‘q. Ma'rifiy ishlar bilan birga sport musobaqalarini barobar olib borish yoshlarimizning ham jismonan, ham ma'nan sog‘lom bo‘lishlarini ta'minlaydi. Bu tadbirlarni erta, imkon bo‘lsa, bog‘cha yoshidan boshlash kerak. Chunki bu davrda murg‘ak qalblarga yo‘l topish oson bo‘ladi. Ayni shu davrda ularda ma'naviyat immunitetini shakllantirish mumkin.

Bizning ma'naviyatimiz shunday bir hayot yo‘liki, shaxsni, davlatni va hatto jamiyatni usiz tasavvur etib bo‘lmaydi. U har jabhada hayotimizga singib ketgan. Demak, ma'naviyatni saqlab qolish uchun davlatning aralashuvi jamiyatdagi plyuralizmga zid harakat emas, balki xalqning istayotganini o‘ziga qaytarishdir. Zero, demokratiya, plyuralizm degani bu - birovga zararing tegmasa, istalgan buzuqlikni qilishing mumkin, degani emas.

Globallashuv jarayonida internet yangi aloqaviy vositadir. Kimdir ma’lumot, kimdir axborot oladi va yana boshqa birov tanish orttiradi, xat yozishmalar sifatida foydalaniladi va barcha sohalar ma’lumot beruvchi ensiklopediya o‘rnini egallaydi. Globallashuv jarayonida kishilar internetdan xohlagan manbani topadi. Internet ko‘pchilikni birlashtiradi yoki ajratishi ham mumkin, bundan tashqari agressiv maqsadda ishlaydi, ya’ni u mafkuraviy urush qurolidir, buni ilmda «kiberterrorizm» deydi.

Globallashuv jarayonda dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar va harakatlar tezlikda internet tarmoqlari orqali tarqaladi. Bu esa axborot kommunikatsiya dunyosining rivojlanishidan dalolat beradi. Internetda ishlagan kishi dunyo yangiliklaridan habardor bo‘ladi, ayrim yoshlar o‘zini virtual dunyoda ekanligini his qilmaydi. Unda ishlash ruhiy g‘oyalarning rivojlanishiga va sog‘ligiga zarar etkazishi ham mumkin. Internet dunyo hamjamiyatini o‘zining beg‘araz (pornografik) saytlari bilan tashvishga solmoqda, o‘spirin yoshlarning ongiga ta’sir qilib, ba’zi noan’anaviy xabarlarni ham tarqatmoqda. SHuning uchun ham ota-onalar farzandlarining internetda ishlayotgan jarayonini nazorat qilishsa maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda internetning har xil saytlari yoshlar ongiga salbiy ta’sir qiladi, lekin kun sayin unga o‘rganib qolayotganlar soni ortib bormoqda. Bunday ruhiy bog‘lanish fojeali oqibatlarga olib keladi. Ayrim yoshlar kompyuter klublarida har xil o‘yinlar bilan mashg‘ul. Bu nafaqat ¤zbekistonda balki boshqa davlatlarda ham mavjud. Masalan, Janubiy Koreyada kompyuter o‘yinlari juda ommalashgan.

Umuman olganda, barcha tadqiqotchi olimlar global o‘zgarishlar madaniy o‘ziga xosliklarga, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga, ularning ongi va mafkurasiga ta’sirini o‘tkazishini ta’kidlaydilar. YOsh avlodning miyasi hali yozilmagan oq qog‘oz misoli toza bo‘ladi. Unga nima yozilsa, kiritilsa, o‘sha narsa namoyon bo‘ladi. Biroq ushbu ta’sir doirasi to‘g‘risida har xil munosabat bildiradilar.

Ba’zilari yangi texnologiyalarning keng tarqalishini qo‘llab-quvvatlaydilar, bu bilan globallashuv jarayoni barcha salbiy oqibatlarning oldini olishga qodir, deb hisoblaydilar. G’arb sivilizatsiyasining yutuqlaridan hayratlangan boshqalar globallashuv faqatgina ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi, degan fikrda. Ushbu toifadagi tadqiqotchi va olimlar bu o‘rindagi madaniy o‘ziga xoslikni qoloqlik, kambag‘allik, taraqqiyotdan voz kechish kabi tushunchalarning sinonimi sifatida baholaydilar. Uchinchi bir guruhdagilar esa global o‘zgarishlarda katta tahdid mujassam ekanligini ta’kidlaydilar.

Boshqalarning tasavvuriga muvofiq, globallashuv iqtisodiy sohada emas, balki diniy sohada katta xavf-xatar tayyorlamoqda, chunki, globalizm va axborot dunyoviy xarakterga ega bo‘lgan bir paytda xudosizlik targ‘iboti bilan uyg‘unlashtiriladi. YAna boshqalarning qarashlarida globallashuv millatga va milliy o‘ziga xoslikka putur etkazadi. Madaniy, shu jumladan diniy qadriyatlar, turmush tarzi ham xavf ostida qoladi. Bunday yondashuvga moyillik bildirayotgan fan va siyosat arboblari uchun madaniy o‘ziga xoslikni saqlashga intilish asosiy maqsaddir. CHunki hozirda internet tarmog‘idan foydalanadiganlarning asosiy qismini yoshlar tashkil qilmoqda. YOshlar esa millat va davlat kelajagidir.

Globalizm milliy davlatlar suvernitetini sezilarli darajada cheklab qo‘ydi va bu jarayon kuchayib bormoqda. CHeklab-chegaralash mexanizmlarini yaratish va kuchaytirish orqali vaziyatni to‘laligicha nazorat qilish kabi tor va sayoz fikrlash konsepsiyasi allaqachon eskirgan.

Barcha sohadagi globallashuvni jamiyatning ichiga olib kirish masalasida ko‘p o‘ylagan va o‘ylayotgan davlatlar ertami-kechmi shu narsani tushunadilarki, globallashuvni inkor qilish ushbu fenomenning ta’sir doirasiga tushishning eng halokatli yo‘lidir. CHunki, o‘zini-o‘zi cheklab chegaralash bilan qoloqlik domiga tushgach, baribir bu boradagi islohotlarni boshlash lozimligini anglaydi. Globalizm, jumladan axborot globallashuvining mutlaqo domiga tushmaslikning chorasi mavjud emas va buning iloji ham yo‘q. Eng yaxshi yo‘l – bu ma’lum milliy davlat manfaatlarini saqlash va himoya qilish maqsadida axborot texnologiyalarini, dasturlarini imkon qadar tezlashtirish, iqtisodiy va siyosiy sohadagi islohotlarni izchil yo‘lga qo‘yishdir.

Hayot tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, globalizmning mudhish oqibatlariga yo‘liqmaslik va domiga tushmaslikning birdan-bir yo‘li – tezroq ushbu jarayon ichiga kirib borishdir va shu to‘g‘risida o‘ziga kerakli tushunchalar hosil qilishdir. Milliy davlatlar, jamiyatlar, hukumatlarning hayotiyligini ta’minlashning sharti ham barcha sohada zamonaviy siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyot dasturlarini qabul qilish, jamiyatni axborotlashtirishdir.

Albatta, bugun internet maydoni sayyoramizdagi mavjud har xil madaniyatlar, g‘oyalar, qadriyatlar va manfaatlarni o‘zida aks ettirgan yagona global tarmoqdir ammo, ba’zi masalalarni keng miqyosda nazoratga olishni taqozo qilmoqda. Bundaylar safiga terrorizmni parvarishlovchi, diniy ekstremistik g‘oyalar tarqatuvchi, pornografiya kabi axloqsizlikka moyillikni rivojlantiruvchi saytlarni kiritish mumkin. Biroq, mazkur saytlarga bo‘lgan munosabat darajasi ham dunyo mamlakatlarida har xildir.

Global miqyosda insoniyatning ba’zi masalalarda murosaga yuzlanishiga to‘g‘ri keladi. SHulardan biri, bizningcha, internetda terrorizmni parvarishlovchi sahifalarni nazorat qilishga yo‘naltirilgan hamkorlikdir. SHunisi qiziqki, bu veb sahifalarning qurboni faqatgina yoshlar emas, balki katta yoshdagi kishilar ham o‘zining ma’naviy boyligining to‘liq emasligi hamda buzg‘unchi

g‘oyalarga moyilligi tufayli qurbonga aylanmoqdalar. Buning uchun, terroristik deb tan olingan guruhlar, kimsalarga mutaxassislar tomonidan tan olingan saytlarga serverlardan joy bermaslik, ularni yopishga qaratilgan chora-tadbirlarni qilish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘rinda BMT katta rol o‘ynashi mumkin.

SHubhasiz, bu yo‘nalishda ma’lum ishlar amalga oshirilib, muayyan halqaro hujjatlar ham qabul qilingan. Ammo kibermaydonda zikr etilgan illatlarning yoyilishi muammosini yuqori o‘ringa ko‘tarish, mavjud imkoniyatlarni safarbar etish fursati allaqachon etib kelgan.

Bugungi kunda ¤zbekistonda internet tijorati firmalari, gazeta-jurnal saytlari nihoyatda rivojlanib, mukammallashib bormoqda, uni ta’qib qilish qiyin. Ammo milliy urf-odatga va axloqiy darajaga to‘g‘ri kelmaydigan saytlar ham ko‘p. Bu yoshlar va kelajak avlod ongiga katta ta’sir qiladi. Ayrim qo‘shtirnoq ichidagi beg‘araz insonlar yoshlarni pornografik saytlar orqali nishonga oladi, ya’ni, ma’naviy ozuqa bilan birga, ruhiy hayot tarziga ta’sir o‘tkazadi. Hozirgi kunda buning oldini olish maqsadida ayrim saytlarni filterdan o‘tkazish zarur. Jahon sahnida etarli darajada mavqega ega bo‘lgan internet yoshlarning ongidagi bo‘shliqni ortiqcha ma’lumotlar bilan to‘ldiradi. YOshlar virtual hayotga shunchalik kirib ketmoqdaki, milliy ma’naviy qadriyatlar ming yillar davomida shakllangan, o‘tmish avlodlardan o‘tib kelayotgan ma’naviy boylik ekanligini bilishmaydi. ¤smir yoshdagi bolalarning internetga qattiq bog‘lanib qolish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa “internet kasalligi”ni keltirib chiqaradi. Bir necha yil oldin Pekin shahrida “internet kasalligi”ga chalingan bemorlarning shifoxonasi ochildi.

“Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas.”

Islom Karimov

Globallashuv XXI asr jahon taraqqiyotining ob’ektiv qonuniyatlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatishi mumkin. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma’no-mazmundagi xo‘jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga mavjud milliy mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

“Globallashuv jarayonlari XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida butun insoniyat, er yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti, ayniqsa, yosh avlod uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratib berganini hech kim inkor etolmaydi. Avvalambor, fan va texnikaning ilg‘or yutuqlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet tizimi barcha chegaralarni ochib berib, o‘zaro hamkorlik va integratsiya rivojiga so‘zsiz katta hissa qo‘shayotganiga bugun barchamiz guvoh bo‘lmoqdamiz.

Lekin odamzot tafakkurining yuksak va yorqin namoyoni bo‘lgan bunday yutuqlar ayni paytda katta kuch-quvvat va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan ayrim siyosiy kuchlarning g‘arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ishlatilayotganini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Odamlarning, birinchi navbatda yoshlarning ongu tafakkurini, ma’naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan bunday urinishlarning asl mohiyatini, ularning uzoq va davomli, salbiy oqibatlarini anglash va bunday xavf-xatarlarning oldini olish bugungi kunda o‘ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda”,- deb yozadi Muhtaram Prezidentimiz o‘zining “Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish” kitobida.

“Axborot asri” deb nom olgan hozirgi davrda yoshlar ma’naviyati masalasi nihoyatda dolzarbligini muhtaram yurtboshimiz doimo ta’kidlab keladilar. CHunki yoshlar davlatning kapitali hisoblanadi. Bu kapitaldan to‘g‘ri va samarali foydalana bilgan jamiyatgina yaxshi rivojlana oladi.

Bugungi globallashuv jarayoni global axborot makoni vujudga kelishiga olib keldi. Axborotlashtirish va globallashuv jarayoni bir-birini to‘ldirib, ta’sir doirasini kengaytirib bormoqda. Ana shunday bir sharoitda “ommaviy madaniyat”ning zaif tomonlari va hodisalari keng ildiz otib borayotgani, axborot xurujining kuchayayotgani yoshlar ongi va faoliyatiga jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda.

“Televidenie o‘z imkoniyatlarini tarbiya uchun safarbar etayotgani yo‘q, aksincha, u ijtimoiy fe’l-atvorning eng salbiy andozalarini targ‘ib etayapti... Reklamaga mahliyo bo‘lib o‘tirish o‘smirlarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini cheklaydi va tajovuzkor fe’l-atvorni rag‘batlantiradi”.

“Sessionmagazine.com” elektron jurnalining yozishicha, AQSH teledasturlarida shahvoniyatga oid lavhalar 1999-2000 yillar oralig‘ida 1997-98 yillar miyonasidagiga nisbatan salkam ikki barobar oshgan: har o‘nta dasturdan bittasida jinsiy qo‘shilish aks etgan, musiqiy kliplarning etti foizi shu mavzuga bag‘ishlangan. 2001 yilgi Hollivud filmlarining uchdan ikki qismi ham shu mazmunda ekani aniqlangan (*http:www.aao.org/advocacy/childhealthmonth/media.htm*). Oqibatda o‘smirlar 16 yoshga to‘lmasdanoq “parda ortidagi hayot”ni ko‘rib ulgurayapti

Bugungi kun yoshlari intiluvchan, yangiliklarni bir zumda o‘zlashtirib oladigan, har qanday informatsiyani tez qabul qiladigan va ko‘p narsaga qiziquvchan yoshlardir. SHu bois ham turli manbalardan yot maqsadlarni ko‘zlab tarqalayotgan axborotlardan yoshlarni munosib himoyalay olishimiz darkor.

Bundan tashqari yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internetning shiddat bilan rivojlanib borayotganligi esa insoniyat taraqqiyotiga, ayniqsa yoshlar hayotiga yangicha mazmun va mohiyat kasb etayapti. Internet xalqlar va davlatlar o‘rtasidagi axborot almashinuvini misli ko‘rilmagan darajada tezlashtirdi, dunyoni insoniyat uchun tom manodagi “yagona global maydon”ga aylantirdi. Qarang, bu keng dunyo naqadar yaqinlik kasb etmoqda! Internetga kirish bir paytning o‘zida butun dunyo axborot bozoriga, maydoniga kirishdir. Xo‘sh bunday axborot bozorining yoshlar ongiga qanday salbiy tasiri bo‘lishi mumkin? Davrimizning texnikaga uzviy bog‘liqligi, ba’zida yoshlarimiz ma’naviyatidagi nuqsonlarga sabab bo‘layaptimi, deb o‘ylab qoladi kishi...

– turli buzg‘unchi g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi axborotlar xalq mentalitetiga, yoshlarning estetik didi, axloqiy meyorlariga putur etkazishi mumkin;

– xalqaro axborot oqimlarida mavjud bo‘lgan zo‘ravonlik, diniy ekstremizm va qo‘poruvchilik, urush va qotilliklar, o‘z joniga suiqasd qilish va pornografik tasvirlarni targ‘ib qiluvchi saytlar, behayo, ur-yiqit filmlar, ichkilik, tamaki mahsulotlarining reklamalari yoshlar ongiga salbiy tasir ko‘rsatishi, hayotini izdan iqarishga sabab bo‘lishi ehtmoldan holi emas;

– yoshlarning ijtimoiy ongini axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan yot mafkuralar, madaniyatlar tasiriga tushib qolishiga olib kelishi mumkin.

AQSHning taniqli siyosatshunosi Zbignev Bjezinskiy shunday yozadi: “…Madaniyat sohasida Amerika jahon yoshlari orasida alohida jozibadorligi bilan ajralib turadi. Bu esa AQSHga jahonning hech bir davlatiga nasib qilmagan siyosiy tasirni taminlaydi. Ayniqsa, Amerikaning televizion dasturlari va filmlari jahon bozorining to‘rtdan uch qismini egallaydi. Uning ommabop musiqasi, amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishlaridagi odatlari va hatto, kiyinishlariga butun dunyoda taqlid qiladilar.” Bu boradagi targ‘ibot vositalari esa anchagina: reklama, matbuot, internet, kino, televidenie va boshqa shu kabilar.

Bugun globallashuv dunyo mamlakatlarining siyosiy irodasi, erkin qaror qabul qilishiga ham goh ijobiy, goh salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Barcha mamlakatlarda sayoz va andozaboz “ommaviy madaniyat” tarqalishini kuchaytiradi.

YOsh, rivojlanayotgan mamlakatlar, yoki endigina mustaqillikka erishib o‘tish davrini boshidan kechirayotgan xalqlar uchun uning ijobiy ta’siridan unumli foydalanib, salbiy ta’siridan himoyalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Informatsion noteng axborot almashinuvidan, internet va zamonaviy texnologiyalar tufayli axborotning chegara va to‘siqlaridan o‘tib tarqalishidan ba’zi bir g‘arb doiralari o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanishga urinmoqda.

Globallashuv deganda faqatgina internet yoki axborot globallashuvini nazarda tutish xato xisoblanadi. Internet tarmog‘i globallashuv jarayonini kuchaytiruvchi asosiy omildir. SHunday ekan globallashuvga iqtisod, madaniyat, fan sohasidagi va ekologiya, xullas butun dunyodagi globallashuvni misol qilib keltirish mumkin. Hatto ekologiyaning salbiy tomonga o‘zgarishi jamiyat a’zolarining har biriga jismoniy ta’sir ko‘rsatib qolmasdan ularning ma’naviyatiga ham yomon ta’sir qiladi.

Globallashuv jarayonlari va ma’naviy tahdidlar. Bugun biz tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta’riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.

Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma’lum ma’noda haqiqat, ratsional mag‘iz bor. CHunki ularning har biri o‘zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko‘pchilikning ongi-da bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg‘otmoqda. Bunday ta’rif, menimcha, ko‘p tomondan masalaning mohiyatini to‘g‘ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda er yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas.

Ana shunday globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatishini ta’kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma’no-mazmundagi xo‘jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob’ektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

SHu ma’noda, globallashuv – bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo‘lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g‘oyat o‘tkir va keng qamrovli ta’sirini deyarli barcha sohalarda ko‘rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko‘plab yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg‘unlashuvi,

sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g‘oya va ta’limotlar bilan yovuz va zararli g‘oyalar o‘rtasida azaldan kurash mavjud bo‘lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko‘ramiz.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas.

Globallashuv jarayonining yana bir o‘ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar.

Bu haqda gapirganda, men ilgari bildirgan ba’zi fikrlarni takrorlash o‘rinli, deb o‘ylayman.

Ta’bir joiz bo‘lsa, aytish mumkinki, **bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega.** Bu masalaning kishini doimo ogoh bo‘lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa, buni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta’siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab etish nihoyatda qiyin.

Mana shunday vaziyatda odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta’siriga bardosh berishi amrimahol. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko‘plab voqealar misolida yaqqol kuzatish mumkin va ularning qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishini uzoq tushuntirib o‘tirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman. O‘tgan yillar davomida dunyoda va mintaqamizda ro‘y bergan, biz bevosita o‘z boshimizdan kechirgan voqealar, mafkuraviy jarayonlarning rivoji bu xulosaning to‘g‘ri ekanini qayta-qayta isbotlamoqda.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargoxdarida, balki radio-televidenie, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga qat’iy maqsad qilib qo‘yganmiz va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o‘z qobig‘imizga o‘ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o‘z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko‘ramiz. Biz butun ma’rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz.

Biz uchun shunday yo‘l ma’qul, uning boshqa muqobili yo‘q.

Muxtasar qilib aytganda, yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.

SHuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin.

Hammamiz yaxshi bilamizki, har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saqlashda harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar suv bilan havodek zarur. Ammo xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimiz ma’naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib, suyanib ish olib borishimiz kerak, degan savol bugun barchamizni o‘ylantirishi tabiiy.

Men, hayotda ko‘p bora o‘z tasdig‘ini topgan haqiqatdan kelib chiqqan holda, bu masalada shunday degan bo‘lardim: tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.

Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha erda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha, qaerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha erda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Ayniqsa, bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o‘zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun «Erkinlik va demokratiyani olg‘a siljitish» niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko‘zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o‘z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi.

SHu borada ayrim qudratli davlatlar tomonidan muayyan mamlakatlarga, avvalambor, er osti, er usti boyliklariga ega bo‘lgan hududlarga nisbatan olib borilayotgan ana shunday g‘arazli siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga aynan o‘sha davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bog‘liq misollarda ko‘rish qiyin emas.

Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana va yana bir bor xalqimizning ma’naviy olamini bunday taxdidlardan asrash, hozirgi o‘ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga etib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo‘lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e’tibor berishimiz lozim. YA’ni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so‘ng jamiyatda paydo bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuqtik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi.

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko‘pchilik butun

jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda.

Bu haqda fikr yuritganda, bizning ulug‘ ajdodlarimiz o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o‘rinli, deb bilaman. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg‘u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi, desak, o‘ylaymanki, xato qilmagan bo‘lamiz.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, uyat – o‘limdan qattiq, degan gaplar xalqimiz tilida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan, aksincha, bunday iboralar el-yurtimizga mansub ezgu va go‘zal axloqiy qadriyatlarning asl mazmunini ifoda etadi.

Darhaqiqat, uyat va or-nomusini yo‘qotgan odam, Ahmad YAssaviy bobomiz aytganidek, xuddiki hayvon jinsiga aylanib qoladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning:

Oldig‘a qo‘yganni emak – hayvon ishi, Og‘ziga kelganni demak – nodon ishi, – degan chuqur ma’noli so‘zlari ham bu fikrni tasdiqlab beradi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko‘z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon-atrofimizda mavjud bo‘lgan, tobora kuchayib borayotgan ma’naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. SHu bois yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o‘yinlari to‘g‘risida biryoqlama va soxta tasavvur bo‘lmasligi kerak.

Hozirgi vaqtda ko‘z o‘ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, **fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.**

Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta’bir joiz bo‘lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib etishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning «da’vati» ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi.

YOsh avlodimizni turli ma’naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulug‘laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma’qul odatlar haqida ham ochiq so‘z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug‘chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to‘g‘risida o‘ylashimiz lozim. Bu o‘rinda ana shunday salbiy xususiyatlarning eng xunuk ko‘rinishi bo‘lmish hasad to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish joiz deb o‘ylayman. Odamzot va jamiyat hayotida og‘ir asoratlar qoldiradigan hasad tuyg‘usi avvalambor boshqalarni ko‘rolmaslik, ularning yutug‘idan quvonish o‘rniga, qandaydir kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo bo‘ladi.

SHuning uchun ham muqaddas kitoblarimizda hasad insoniylikka mutlaqo zid bo‘lgan jirkanch odat sifatida qattiq qoralanadi. Jumladan, muborak hadislarda «Birovga hasad qilishdan

saqlaning, chunki olov o‘tinni qanday kuydirib tugatsa, hasad ham qilgan savob ishlaringizni xuddi shunday kuydirib tugatadi», deb aytilgani bejiz emas.

Milliy-ma’naviy immunitet mnllatni globallashuvdan asrash omili. Milliy taraqqiyot qech bir zamonda silliq, to‘siqlarsiz amalga oshmagan. Uning shakllanish jarayonidan boshlab to qozirgacha o‘tgan davrida doimo qiyinchiliklar, muammolarga ro‘baro‘ bo‘lib kelgan. Bu jarayonning xarakterli tomoni shundan iboratki, uning ri-vojlanishi uchun imkoniyatlar kengayib borgan sari muammolar kamayish o‘rniga, aksincha ularning ko‘lami qam kengayib kelgan. Jumladan, agar XIX asrda dunyoda yashayotgan millatlarning aksari-yati taraqqiy qilgan mamlakatlar tomonidan bosib olingan va ular mustamlaka qolatida yashagan bo‘lsalar, XX asrda undan batamom qutuldilar. Ammo XXI asr boshiga kelib ular oldida bugun yangi muammolar paydo bo‘ldi. U qam bo‘lsa, jahonda avj olayotgan global-lashuv bilan bog‘liq muammolardir. Uning ta’siri ostida mamla-katlar va ularda yashayotgan xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvi qam tez-lashmoqda. U kam taraqqiy qilgan yoki endi taraqqiyot yo‘liga kira-yotgan mamlakatlar va ularda yashayotgan xalqlar va millatlarni ta-raqqiy qilgan mamlakatlarga qaram bo‘lib qolishida katta omil sifatida faollashib bormoqda. Fan, texnika, texnologiya va boshqa soqalarda u yoki bu mamlakatlarda qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar umu-minsoniyat mulkiga aylanmoqda. U qanchalik ijobiy bo‘lmasin, bu jarayonda milliy ma’naviyatga o‘tkazayotgan salbiy ta’siri kengay-ib bormoqda. Ularni cheklashning hech qanday imkoniyati qam qolma-yapti. Ularning umumlashib borishida kompyuter, internet, uyali telefon, radio va televidenie kabi bir qator vositalar bugungi kunga kelib inson va millatning qayotiy eqtiyojiga, kundalik tur-mush kechirishining eqtiyojiga aylanib ketdi. Ular orqali tarqati-layotgan ma’lumotlar, u yoki bu soqadagi yutuqlar tezlik bilan om-maviylashib ketmoqda. Globallashuv bugun rivojlanayotgan mamlakatlar bilan rivoj-langan mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy tafovutlarni kuchaytir-moqda, ayniqsa taraqqiy qilgan mamlakatlarning o‘zlarida mavjud vositalar orqali o‘z ma’naviy qadriyatlarini umumlashtirish, om-maviylashtirish o‘zga xalqlarning ma’naviy hayotining ajralmas qismiga aylantirish va shu yo‘l bilan jahonda nafaqat iqtisodiy qukmronlikni shuningdek, o‘z milliy-ma’naviy hukmronligini o‘rna-tishiga ham imkoniyat yaratmoqda. Bu jarayon XX asrda mavjud bo‘lgan imkoniyatlarga qaraganda ham qamrovi kengaygan, ta’sir o‘tkazish darajasi yuksalgan. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar jahonda iqtisodiy integratsiyani amalga oshirish, mamlakatlarga fan, tex-nika, texnologiya sohasida erishgan yutuqlari bilan rivojlanayot-gan mamlakatlarga «yordam» berish bahonasida o‘zlarining milliy-ma’naviy ta’sirlarini o‘tkazish maqsadlarini ham amalga oshir-moqdalar. Albatta, agar dunyodagi xalqlar unga sergaklik va ogoh-lik bilan qaramas ekanlar, bu ularga bugun yuksak taraqqiy qilgan xalqlarga istiqbolda dunyoda o‘zlarining ma’naviy hukmronligi-ni to‘la o‘rnatish imkonini beradi.

Albatta, bugun uning oldini olishning bir qator imkoniyat-lari va omillari mavjud. Ulardan milliy ma’naviy immuni-tetni mustahkamlash muhim omil hisoblanadi. Xo‘sh, ma’naviy hukmronlik nima? Uning xatarli jihatlari mavjudmi, u bugun insoniyat, millat va mamlakatlar uchun qanday xavf solmoqda, ularning oldini olishda milliy-ma’naviy immunitet qanday o‘ringa ega bo‘ladi?

Ma’naviy hukmronlik zo‘ravon mamlakatlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat natijasida yuzaga keladi. Milliy-ma’na-viy hukmronlik deganda, iqtisodiy-siyosiy, fan, texnika, texnolo-giya va harbiy salohiyatga ega bo‘lgan mamlakatlarning o‘zlaripan kam taraqqiy qilgan yoki endi taraqqiyot yo‘liga kirib borayotgan mamlakatlar xalqlarining turli yo‘llar bilan ma’naviy - ruhiy, axloqiy va madaniy hayotlariga ta’sir o‘tkazishi, oxir oqibatda ularni o‘zlarining milliy-ma’naviy salohiyatlari bilan «boyi-tishi», «almashtirish»ga erisha olganligini tushunish mumkin. Bu taraqqiy qilgan, ayni paytda zo‘ravonlikka moyilligi kuchli bo‘lgan mamlakatlar olib boradigan siyosatning natijasida sodir bo‘ladi-gan jarayondir. Bu mamlakatlar tomonidan nafaqat, iqtisodiy, shuningdek siyosiy maqsadlarni ko‘zlab amalga oshiriladi. Erosti va yuzasida mavjud bo‘lgan

resurslar taqchilligi kuchayotgan sharoit-da milliy-ma’naviy qaramlikka tushgan xalqlarning boyliklari-dan foydalanishga intilish zo‘ravon mamlakatlar siyosatida ustuvor o‘rinni egallab boradi. Bu ularning moliyaviy imkoniyatlari-ni kengaytirmoqda.

Ma’naviy qaramlik millatning o‘zligidan maqrum bo‘lishiga va buning natijasida uning o‘zgalarga osongina itoatkor bo‘li-shiga olib keladi. U nafaqat milliy turli-tumanlik uchun xatar-li bo‘lgan, xuddi shuningdek mo.sdiy boyliklarning taraqqiy qil-gan mamlakatlar qo‘liga o‘tib ketishiga, ularning o‘zga mamlakat-lar ustidan qukmronligi ta’minlashiga qam olib keladi. Lekin bugun taraqqiy qilgan mamlakatlarning imkoniyatlari qanchalik kengayib bormasin, kam taraqqiy qilgan yoki endi taraqqiyot yo‘li-ga kirib borayotgan xalqlarning iqtisodiy, texnika, texnologiya va boshqa soqalarda g‘arazli niyatlar bilan beriladigan «yordam-lari» evaziga o‘zgalarga qaram bo‘lib qolish yoki ularning ma’na-viy-ruhiy qukmronligiga tushib qolishni xoqlamasligi, ozod va erkin yashashga bo‘lgan intilishlari qam kuchayib bormoqda. Ana shu jarayon jahonning turli manfaatlar asosida yuzaga kelgan ko‘p qutbli qayoti uchun, uning globallashuvining kuchayishi istiqbol-li uchun murakkab muammolarni keltirib chiqarish xavfini kuchay-tirmoqda.

Dunyoda globallashuv qanchalik jadal sur’atlar bilan rivojlan-masin, u ob’ektiv bo‘ladimi yoki sub’ektiv kuchlarning qudrati bi-lan amalga oshiriladimi, ulardan qat’iy nazar avvalo insonning o‘zligini saqlab qolishi, demak uning timsolida millatning qam mustaqil sub’ekt sifatida qayot kechirishga intilishi qam kuchayib boraveradi. CHunki milliylikka e’tiqod inson bolasiga ajdodlar-dan merosdir. U insoniylik belgisi, u obrazli qilib aytganda ajdodlarning tomirlarida oqayotgan qoni orqali avlodlarga o‘ta-di. U ruqiy saloqiyat mevasi sifatida avlodlarni ajdodlar bilan bog‘lab turadi. Milliylik (milliy o‘ziga xoslik va unga e’tiqod) insonning o‘zligini anglashining ifodasi qisoblanadi. Inson yuraksiz, qalbsiz yashay olmagani kabi, millatsiz qam yashay olmay-di. Milliy e’tiqod, uni asrashga moyillik, to‘laqonli odam bola-sining insoniylik belgisidir. Milliylikka e’tiqod tugagan joy-da ma’naviy qashshoqlik boshlanadi, oqibatda millat barbod bo‘la-di. Bu o‘z navbatida inson uchun eng aziz, u doimo talpinib yashaydi-gan, uni istiqbolga etaklaydigan umuminsoniy qadriyatlardan bi-ridan maqrum bo‘lishiga olib keladi. Bu insoniyat uchun yuzaga ksli-shi mumkin bo‘lgan fojialarning eng daqshatlisi bo‘lishi mumkin. Bunday fojiaga yo‘l qo‘yish mumkin emas. SHunday ekan, uning o‘zli-gini anglashga qurbi etgan barcha sharoitda millat va milliy e’ti-qod saqlanib qoladi. Ayniqsa, ularning intellektual saloxiyati o‘sib borgan sari milliylikka intilish, o‘ziga xoslikni rivojlan-tirish kuchayadi. Bu tuyg‘u va xatti-harakatlar kichkina davlatlarda katta davlatlarga qaraganda xam kuchli bo‘ladi. CHunki ular o‘zlari-ni millatlar qo‘shib olishlari xavotiri bilan yashashiga majbur etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ko‘p millatli mamlakatlarda ular olib boradigan milliy siyosatga qarab, mamlakat taqdiri, uning istiqboli hal bo‘ladi. Agar bugun jahondagi barcha mamlakatlar-ning ko‘pmillatlar yashaysigan makon ekanligini hisooga oladigan bo‘lsak, sodir bo‘layotgan globallashuv ta’siri ostida milliy o‘ziga xoslikning emirilishi istiqbolda tuzatib bo‘lmaydigan fojialar-ga olib kelishi mumkin. Bu jarayon haqida mulohaza yuritganda al-batta, bugun jahon miqyosida sodir bo‘layotgan globallashuv jarayo-nining jadallashuvi natijasida yuksak imkoniyatlarga ega bo‘lgan mamlakatlarning kam taraqqiy qilgan mamlakatlar xalqlarining milliy-ma’naviy olamiga eng zamonaviy texnik va texnologik vo-sitalar orqali o‘zlarining ta’sirini o‘tkazishini avj oldirayot-ganligini ta’kidlash lozim bo‘ladi. Bugun televideniе, kompyu-ter va internet tizimining jadal rivojlanishi natijasida ular o‘zlarining milliy-cha’naviy ta’sirlarini o‘tkazishning katta im-koniyatiga ega bo‘ldilar. Bugungi holatda hali ularning ommaviy axborot vositalari orqali tarqatayotgan reklamalari, turli behayo (xususan ko‘pgina millatlar ma’naviyatiga zid bo‘lgan) kinofilm-lar dunyo ma’naviy hayotiga dadil kirib kelganligi ko‘pchilik mil-latlarda xavotir uyg‘otmoqda. CHunki ularni hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan yoshlar tomosha qilmoqda, ularning bu ko‘rganlariga taq-lid qilishga moyilligi kuchayib bormoqda.

Eng dahshatli tomoni shundaki, milliy televideniе yoki boshqa ommaviy axborot vositalari ularga qarshi kurashishga qurbi et-mayapti. Boz ustiga ularni gohida bilib, gohida «bilmay» tashvi-qot qilishga ham harakat qilmoqdalar. Masalan, oddiygina misol tariqasida O‘zbekiston televideniesidan (Rossiya televidiniesi reklamasi) berilayotgan ayollar kiyimi reklamasini keltirish mum-kin. Bu reklamada ayol eng zamonaviy kiyimini kiyish jarayonida yalang‘och oyoqlarini tomosha qildiradi. Bu holatni bir soat ichida kamida o‘n besh marta

qaytaradi. Buni televizorni tomosha qilayot-gan oila a’zolar - ota-ona, qiz, o‘g‘il, kelin, nevaralar birgalikda o‘tirib tomosha qiladilar. Agar bundan bir necha yillar bu holat g‘ayritabiiy bo‘lib ko‘ringan bo‘lsa, bugun u oddiy tomoshaga aylan-di. Ko‘rinishidan bu tomosha qilayotgan oila a’zolari o‘rtasida, xususan o‘g‘il va qiz, qaynota va kelin yoki qaynona va kelin yoki oila a’zolari o‘rtasida amal qilishi kerak bo‘lgan uyat, or-nomus, iffat va boshka muqaddas qadriyatlarimizning poymol bo‘lishiga ta’sir o‘tkazmayapti deb hech kim hech qachon kafolat berolmaydi. Ota-ona-lar ham unga ko‘nikib, mazkur holatni oddiy kiyim kiyish holati sifatida baholaydigan bo‘ladilar. Bugun jahon mamlakatlari to-monidan tarqatilayotgan ana shunday reklamalar mamlakatimizning nafaqat shaharlarida, shuningdek qishloqlarida yashayotgan aholisi ham tomosha qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Agar kelajakda te-levidinie, internet va boshqa texnikalar rivojlanishining avj olishini hisobga oladigan bo‘lsak, millatlarga xos bo‘lgan xususi-yatlar barham topib, bunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan rivojlan-gan mamlakatlarning ma’naviy hukmronligi g‘alaba qilishiga shu-bha kilmasa ham bo‘ladi. YAna bir jonli misol. Keyingi paytlarda ba’zi yoshlarimizning xorijiy mamlakatlarning davlat bayroqla-ri tushirilgan yoki ularning nomlari (asosan ingliz yozuvida) yozil-gan ko‘ylaklarni kiyib yurishlari ommaviylashib ketayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, ularning ko‘pchiligi o‘quv dargohlari-ning o‘quvchisi yoki talabalarini tashkil qilayotganligi kishini ajablantiradi. CHunki mamlakatimizning ta’lim tizimida asosiy e’tibor yoshlarda milliy g‘urur, iftixor, Vatanparvarlik kabi tuy-g‘ularni uyg‘otishga asosiy e’tibor qaratilayotgan bir sharoitda xorij mamlakatlarining kiyimi-yu, turmush-tarzini ommaviylash-tirishga o‘zining hissasini qo‘shayotgan yoshlar qaerdan paydo bo‘layo-tir? Boz ustiga ularning ota-onalari, mahalla faollari yoshlari-mizning bunday xatti-harakatlariga nega beparvo?

Kasbimiz va ilmiy tadqiqotimizning yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda talabalarning xatti-harakatlariga doimo e’tibor bilan qaraymiz, imkoniyatimiz doirasida ularga to‘g‘ri maslahat berishga harakat qilamiz. Lekin yuqorida aytganimizday, talaba-lar orasida ham xorijiy mamlakatlar hayotini tashviqot qilayot-ganlar onda-sonda chiqib turadi. Bahor payti edi. Xizmat safari bilan viloyat markazlaridan birida joylashgan oliy o‘quv yurtiga borganimizda bu oliy o‘quv yurtining binosiga kiraverishda qo‘yil-gan o‘rindiqlarda talabalar suhbatlashib o‘tirganligi e’tibori-mizni tortdi. Ular orasida o‘tirgan talabalardan ikkitasi diqqa-timizni tortdi. Ularning biri «SSSR» deb yozilgan, ikkinchisi «AQSH» ning bayrog‘i tushirilgan engsiz mayka ko‘ylagini kiyib olishgan ekan. Ularni sekin chekkaga chaqirib suhbatlashdim. Ular-ga «nega bunday yozuvli kiyim kiyib yuribsizlar, ularning sizlar-ga nima aloqasi bor? SSSR barbod bo‘ddi, uning tiklanmasligi ak-sioma, u o‘tmishning dahshatli hayotini eslatadi, AQSH davlatining mustaqillik ramzi, davlat bayrog‘i esa ularning g‘ururi, iftixori, nega siz ularni kiyib boshqa talabalardan ajralib turibsizlar?» degan savollarni berdim. Ular «SSSR» degan yozuv chiroyli, ko‘ylak ham sifatli, undan keyin uni kiyishning nimasi yomon, qolaversa, AQSHning bayrog‘i tushirilgan kuylak ham chiroyli umuman ular-ning hamma mahsuloti chiroyli va sifatli ishlab chiqariladi, shu-ning uchun u odamda havas uyg‘otadi deb javob berdi. SHunda xayolim-ga kelgan birinchi fikr ularda hali milliy g‘urur, iftixor tuyg‘u-larining shakllanmaganl igini sezgan bo‘lsam, ikkinchidan shu muno-sabat bilan tarbiyaviy ishlarning sifatini oshirish zaruriyati kuchayayotganligi hamda O‘zbekistonda ham ayniqsa, yoshlarimizga mo‘ljallangan kiyimlarni ishlab chiqqanda yuqorida ular tomoni-dan aytilayotgan fikrlar hisobga olinishi lozimligi zarurdek bo‘lib ko‘rindi. Xuddi xorijiy mamlakatlarda bo‘lgani kabi ishlab chiqa-rish sanoati yo‘nalishida ham xaridorlar fikrlarini o‘rganadigan maxsus xizmat - sotsiologik tadqiqot markazlarini tashkil qilish vaqti etganligi ham dolzarb vazifa, aslida. U nafaqat ishlab chiqa-rishda oliy samaraga erishishda yordam beradi, shuningdek yoshlari-mizda Vatanparvarlik, milliy iftixor va g‘urur tuyg‘ularini oshi-rishga yordam ham beradi.

Bugun yuqoridagi yozuvlarni kiyayotgan yoshlar bilib-bilmasdan o‘sha mamlakatning turmush-tarzini ommaviylashtirmoqdalar. Bu yozuvlar orqali onggi, qalbiga, ma’naviy qiyofasiga o‘sha mamlakat-larning hayoti, kiyinish madaniyati, kerak bo‘lsa axloqi, urf-oda-ti, an’ana va qadriyatlari singib boradi. Bu ko‘rinishidan oddiy, sodda bo‘lgan tashviqot uslubi bo‘lsa ham aslida, bu uslub eng oson va qulay hisoblanadi. Amalda ularga beparvo qarash milliy o‘ziga xoslikni emirishga va istiqbolda barbod bo‘lishiga olib keladi. YUqorida keltirilgan oddiy hayotiy misollardan ko‘rinib turib-diki, milliy xususiyatlarni ardoqlash va mustahkamlash umumdav-lat

siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lmog‘i zaruriyati kuchaymoqda. Aks holda bu jarayon millatning mustaqil va barqaror sub’ekt si-fatidagi maqomi saqlanib qolishiga qarshi qaratilgan ma’naviy tahdidlar imkoniyatlarini kengaytiradi. Jahonda globallashuv jarayoni kuchayayotgan bir sharoitda ma’naviy tahdidga qarshi tura oladigan, kerak bo‘lsa uni qaytara oladigan, singdirishga qurbi etadigan, milliy-ma’naviy immunitetni shakllantirish millatimiz-ning buguni va istiqbolini ta’minlash oldida turgan dolzarb va-zifadir.

Milliy ma’naviy immunitet tushunchasi xususidagi fikrlari-miz bilan o‘rtoqlashsak. Aslida, bunday immunitet har doim ham mavjud bo‘lib kelgan, chunki u millat shakllanishi jarayonida yuzaga kelib boradi. U milliy xususiyatlarning barqaror rivojlani-shi, milliy ong, milliy o‘zlikni anglashning o‘sishi, millatning mustaqilligini namoyon etish shaklida o‘z ifodasini topib boradi.

Ammo turli millatlar turlicha omillar ta’sirida shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Biri shakllanib ulgurmasdan qaramlik qola-tiga tushib qolsa, ikkinchi birlarining mamlakatida sodir bo‘la-yotgan ichki qarama-qarshiliklarning avj olishi natijasida mil-lat bo‘lib shakllanishi uzoq davom etgan, yana uchinchi birlari bar-qaror shakllanishi uchun shart-sharoitlardan samarali foydalana ola bilmasliklari mumkin. Xullas, millat shakllanishida qam turli-tumanlik mavjud. SHuning uchun milliy-ma’naviy immuni-tetning saloqiyati qam yuqoridagi o‘ziga xos jarayonlar bilan bog‘-liq bo‘ladi. U nima bo‘lganda qam barqaror shakllana olgandagina uning barqayotligini ta’minlashning o‘ta muqim omilaridan biri-ga aylanadi.

Immunitet tushunchasi keyingi o‘n yilliklarda falsafiy, siyo-siy, ma’naviy va ma’rifatga bag‘ishlangan adabiyotlarda keng qo‘lla-niladigan tushunchalardan biri qisoblanadi. Aslida immunitet lotincha «1ttish1a11z» - biror narsadan ozod bo‘lish degan ma’noni anglatadi. Immunitet tibbiy tushuncha bo‘lib, u organizmning doi-miy ichki muayyanligini saqlashga, turli tashqi ta’sirlardan, in-feksiyalardan qimoya qilishga qodir bo‘lgan reaksiyalar majmuini ifodalaydi. Sodda qilib aytganda, immunitet - kishi organizmi-ni turli kasalliklardan qimoya qiladi.[45] Immunitet tushunchasining o‘zbek falsafiy adabiyotida faqat bir - «mafkuraviy immunitet» shakli qo‘llanilib, unga quyidagicha ta’rif berib berilib kelin-moqda: «Mafkuraviy immunitet - shaxs, ijtimoiy guruq, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xiz-mat qiladigan g‘oyaviy-nazariy qarashlar qadriyatlar tizimi»[46].

Fikrimizcha, mafkuraviy immunitetga berilgan mazkur ta’rif uning moqiyatini asosan qamrab olgan. SHuning bilan birga unga bir qator aniqliklar kiritish lozim. YUqoridagi «...g‘oyaviy ta’-sirlardan...», «...g‘oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi»[47] kabi tushunchalar qo‘llanilganda mafkuraning mustaqil tushuncha sifatidagi maqomi nazardan tushib qolgan. Agar «g‘oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi» mafkuraviy immunitetni tashkil qiladigan bo‘lsa, g‘oyaviy immunitet nimalarni o‘ziga qamrab oladi degan savol kelib chiqadi. Zero, «immunitet» tushunchasini nafaqat mafkuraga shuningdek, g‘oya, ma’naviyat, madaniyat, axloq va boshqa bir qator tushunchalarga nisbatan qam qo‘llash mumkin. Ana shu fikr-dan kelib chiqqan qolda, mafkuraga nisbatan uni qo‘llaganda uning «vosita», «g‘oyani amaliyotga aylantiruvchi omil» ekanligini hisob-ga olgan hodda qarash to‘g‘ri bo‘ladi. YA’ni, immunitetni turli tu-shunchalarga tadbiq etishda ularning nisbiy mustaqilligini, ta’-sir o‘tkazish imkoniyatini va maqomini hisobga olish maqsadga mu-vofiqdir.

Milliy-ma’naviy immunitet tushunchasiga qaytib shuni alohi-da ta’kidlash lozimki, u o‘zining ko‘lami jihatdan g‘oyaviy, mafku-raviy, axloqiy va boshqa bir qator immunitetning shakllaridan kengroq tushuncha bo‘lib, ularni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Ayni paytda, u millatga nisbatan qo‘llanilganda hajm jihatdan torroq hisoblanadi. YA’ni u faqat millatning keng ma’nodagi ma’naviya-tini o‘ziga qamrab oladi. SHuni hisobga olganda uni ilmiy iste’-molda qo‘llash yo‘li bilan bir tomondan uning imkoniyatlarini ochib berish va ulardan samarali foydalanish mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan, millatning ma’naviy salohiyatining mahsuli sifatida qarash mumkin bo‘ladi.

Fikrimizcha, milliy ma’naviy immunitet deganda millatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy ehtiyojini qon-liruvchi keng ma’nodagi ma’naviy boylikning mavjudligi, unga ehtiyojning o‘sib borishi va millat ma’naviy hayotiga tashqaridan ko‘rsatiladigan ta’sirlarga qarshi turadigan, ulardan kuchli va ustun bo‘lgan milliy-ma’naviy ruhiy va yuksak darajadagi axlo-

qiy-salohiyatlarining amal qilishini tushinish mumkii. Bu tashqi ta’sirga beriladigan «javob», unga qarshi turadigan ma’naviy ruhiy imkoniyat, kuch-quvvatdir. Albatta, bu salohiyat bo‘lishi mum-kin, ammo u harakatga keltirilmas ekan tashqi ta’sirlarning im-koniyati kengayib, milliy ma’naviy hayotda salbiy jarayonlar avj olib boradi.

Milliy-ma’naviy immunitet baquvvatligi millat ma’naviy hayotiga qarshi qaratilgan turli tahdidlardan saqlanishda yaqqol namoyon bo‘ladi. U millatning yuksak ma’naviy merosga ega bo‘lishi, uni o‘zlashtirishga moyilligining kuchliligi, milliy taraqqiyotda unga ehtiyojning o‘sib borishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Milliy-ma’naviy immunitetning mavjudligi millat vakillarining o‘z milliy-ma’naviy salohiyatining o‘zgalarnikiga qaraganda boy, us-tun, go‘zal va jozibali ekanligini qalbi, yuragi hamda ruhiyati bi-lan his etishining kuchli bo‘lishi, ularga har doim ehtiyojining mavjudligi va ulardan bahra olishga intilishlarida namoyon bo‘la-di. Ammo immunitet o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi, uni shakllantirish, mustahkamlash borasida olib boriladigan real harakatlar nati-jasida yuzaga keladi. Masalan, milliy meros kuchli va boy bo‘lsa-yu uni targ‘ibot kilish millat ongi va kalbiga singdirish borasida amaliy faoliyat ko‘rsatilmagan sharoitda, u etarli darajada omma-viylashmaydi. Natijada unga bo‘lgan ehtiyojning yuzaga kelishi mud-dati ham uzoqlashib boradi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida mil-liy ma’naviy salohiyatlarni ichki ma’naviy meros hisobiga to‘yin-tirib borishning dolzarbligi kuchayadi. Milliy-ma’naviy immu-nitet milliy ong, dunyoqarash, tafakkur, axloq, urf-odat, an’ana, qadriyatlarga e’tiqodning kuchliligi, iftixor, g‘urur tuyg‘ulari-ning mustahkam va kuchliligi, milliy manfaatlarga ustuvorlik bi-lan qarash, millatning istiqboli uchun mas’ullik tuyg‘ularining mustahkamligi kabilar orqali namoyon bo‘ladi. Xullas, uni har bir millat vakilida bo‘ladigan keng ma’nodagi ma’naviy-ruhiy salo-hiyat, uning mustaqilligi va amal qilishi shaklida tushunish mum-kin. YUqorida keltirilganlar aslida milliy ma’naviyatning tar-kibiy qismini tashkil qiladi. Bu erda milliy-ma’naviy immuni-tet haqida gap ketayotganda nafaqat milliy ma’naviyatni tashkil qiluvchi elementlar majmuasi, shuning bilan birga ularning tashq-aridan bo‘ladigan tahdidlarga bardosh bera olishi, ulardan ustu-vor bo‘lishi, millatni himoya qila olishi va kerak bo‘lsa ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olishdagi salohiyati nazarda tutilishi lozim. Ammo bugun globallashuv sharoitida bir tomondan har bir mil-latning rivojlanishi uchun imkoniyatlar kengayayotgan bo‘lsa, ikkin-chi tomondan uning ta’siri ostida millatlarga xos bo‘lgan xususi-yatlar barbod bo‘lmoqda hamda umumlashib bormoqda. Axloqiy buzi-lish, kiyinish, yurish-turish, oilaviy munosabatlardagi o‘ziga xos-liklarning barham topayotganligi globallashuvning o‘tkazayotgan ta’siri ostida sodir bo‘lmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, glo-ballashuvning jadallashuvi sharoitida milliy ma’naviyat mav-judligining o‘zi etarli emas, unda tashqi tahdidlarga qarshi qara-tilgan ichki ruhiy qudrat, uning amal qilishi va faoliyat ko‘rsati-shi ham zarur bo‘ladi. Bu o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi, balki buning uchun millat vakillari ongi va qalbi bilan tashqaridan bo‘ladigan xurujlarni sezishi, uning oqibatlarini tasavvur etish hamda unga qarshi umummilliy harakatni amalga oshirishga intilishlari za-rur bo‘ladi. Ana shunday holatdagina milliy-ma’naviy salohiyat mustahkamlanadi va millatning barkaror taraqqiyoti uchun imko-niyatlar qamrovi kengayib boradi.

Albatta, milliy ma’naviy immunitetni shakllantirish, tarah-qiyotning barcha boskichlarida milliylikni saqlab holish, uni o‘zga ta’sirlardan himoya hiluvchi omilga aylanishida faqat mavjud mod-diy va ma’naviy meros etarli emas. Ular tarahqiyotiga qiyofa bag’ishlab turish bilan birga millat ehtiyojlarining o‘sish jarayoni-ga mos ravishda ulardan foydalanilgan holdagina milliy-ma’na-viy salohiyatni boyitib, mustahkamlab borish mumkin. Bu jarayon-da millatning umumiy milliy ma’naviy darajasini ko‘tarish, za-mon taraqqiyotiga mos ravishda yangi ma’naviy boyliklarni vujud-ga keltirish ham muhim rol o‘ynaydi.

Zamon tarahqiyotiga mos ravishda milliy-ma’naviy immunitet-ni rivojlantirish va takomillashtirish uzluksiz jarayon, shuning uchun ham u o‘zligini himoya hilishga qodir bo‘lgan har millat uchun eng asosiy vazifa bo‘lib holaveradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning globallashuvga nisbatan sog‘lom dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan dastur ishlab chiqilishini davr taqozo qiladi. Va bu yo‘ldagi hukumatimizning qilayotgan ishlari maqtansa arzigulik va o‘rnak bo‘larli, darajada deb aytish mumkin.